

KRIMINALISTIKA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

KRIMINALISTIKA

DARSLIK

Toshkent–2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 25-avgustdagi 744-son buyrug'i).

УДК 343.9 (075)(575.1)

БКК 67.52

К 82

Kriminalistika. Darslik.

Mualliflar jamoasi – Toshkent:
TDYU, 2018. – 515 b.

Taqrizchilar:

Kolenko Y.V. – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi boshlig'i

Xidoyatov B.B. – TDYU Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Jinoyatni tergov qilish va ochish nazariyasining asosini tashkil qiluvchi fanlar qatorida Kriminalistika markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur darslik Kriminalistika fanining to'liq kursini tashkil etadi, mazmuni esa tergov, tezkor-qidiruv va ekspertiza faoliyatining zamonaviy imkoniyatlarini yoritib, amaldagi huquqshunoslik o'quv dasturlariga to'la mos ravishda tayyorlangan. Unda kriminalistika nazariyasi va tergov amaliyotida keyingi yillarda yuz bergan muhim o'zgarishlar, kriminalistik texnika sohasidagi yangi ilmiy vositalar, uslubiy tavsiyalar va murakkab jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari yoritilgan. Darslikning qator boblari fototasvirlar, chizmalar bilan boyitilgan.

Darslik yuridik oliy o'quv yurtlari talabalarini, ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchi, mustaqil izlanuvchilar, amaliyot xodimlari, shu jumladan prokuror-tergov apparati xodimlari uchun mo'ljallangan.

"Huquqiy fanlar va predmetlar bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash kompleks dasturi" doirasida tayyorlangan.

Mualliflar jamoasi:

Bazarova D.B., yuridik fanlari nomzodi, dotsent. – 1–3; 4–11 (S.Latipov bilan hammualliflikda); 12–17; 19–25, 32, 36-mavzular.

Mirzayev A.A., yuridik fanlari doktori, dotsent. – 36-mavzu (D.Bazarova bilan hammualliflikda).

Tulaganova G.Z. yuridik fanlari doktori, dotsent – 27, 37-mavzu.


Latipov S.I. 4–11-mavzular (D.Bazarova bilan hammualliflikda), 29-mavzu.

Hamidov B.H. – 26, 31, 33, 35-mavzular.

Nurumov D.D. – 28, 30-mavzular.

Umarov A.D.

ISBN: 978-9947-80-69-1



Tashkent davlat yuridik universiteti, 2018.

© Mualliflar jamoasi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BO'LIM. Kriminalistikaning umumiy qoidalari.....	6
1-Mavzu. Kriminalistikaning predmeti, vazifalari, tizimi va boshqa yuridik fanlar bilan aloqasi.....	6
2-Mavzu. Kriminalistika metodlari.....	13
Mavzu. Kriminalistik identifikatsiya va diagnostika.....	20
II BO'LIM. Kriminalistik texnika.....	37
4-Mavzu. Kriminalistik texnikaning asoslari.....	37
5-Mavzu. Sud fotografiyasi va video-tasvir yozuvi.....	53
6-Mavzu. Kriminalistik trasologiya.....	70
7-Mavzu. Kriminalistik ballistika.....	89
8-Mavzu. qo'lyozma matnlarni kriminalistik usulda tekshirish.....	104
9-Mavzu. Hujjatlarni kriminalistik-texnik tekshirish.....	120
10-Mavzu. Odamlarni tashqi qiyofa belgilari asosida identifikatsiya qilish.....	131
11-Mavzu. Kriminalistik ro'yxatga olish.....	143
III BO'LIM. Kriminalistik taktika.....	157
12-Mavzu. kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari.....	157
13-Mavzu. Tergovni rejalashtirish va tashkil etish.....	168
14-Mavzu. Hodisa joyini ko'zdan kechirish taktikasi.....	179
15-Mavzu. Tergov eksperimenti taktikasi.....	196
16-Mavzu. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish taktikasi.....	211
17-Mavzu. Tintuv va olib qo'yish taktikasi.....	226
18-Mavzu. So'roq o'tkazish taktikasi.....	240
19-Mavzu. Tanib olish uchun ko'rsatish taktikasi.....	273
20-Mavzu. Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish taktikasi.....	288
21-Mavzu. Jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish taktikasi.....	295
IV BO'LIM. Ayrim turdagi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti.....	308
22-Mavzu. Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotining umumiy qoidalari.....	308
23-Mavzu. Tergov va tezkor-qidiruv organlari xodimlarining o'zaro hamkorligi.....	319
24-Mavzu. Qotillik jinoyatlarini tergov qilish.....	329
25-Mavzu. Nomusga tegish jinoyatini tergov qilish.....	348
26-Mavzu. O'zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarini tergov qilish.....	362
27-Mavzu: O'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilish.....	376
28-Mavzu. Odam savdosi jinoyatini tergov qilish.....	385
29-Bob. Mehnat xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzilishini tergov qilish.....	402
30-Mavzu. O't qo'yish va yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilish.....	412
31-Mavzu. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik hollatlarini tergov qilish.....	420
32-Mavzu. Ekologiya jinoyatlarini tergov qilish.....	435
33-Mavzu. Voyaga yetmaganlar jinoyatini tergov qilish.....	445
34-Mavzu. Poraxo'rlik jinoyatini tergov qilish.....	458
35-Mavzu. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish.....	466
36-Mavzu. Terrorchilik ko'rinishidagi jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....	480
37-Mavzu. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni tergovini.....	494
GLOSSARIY.....	507
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	512

KIRISH

Kriminalistika fani O'zbekiston Respublikasida yurisprudensiya, yuridik ta'lim rivojlanishida nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan sud-huquq islohotlarini amaliy jihatdan ta'minlovchi fandır.

Zero, sudlarda ko'rilayotgan har bir ishda haqiqatni aniqlamasdan turib uni to'g'ri va adolatli hal etish, inson huquq va erkinliklarining qonuniy himoyasini ta'minlash mumkin emas. Kriminalistika fanini o'rganish orqali shaxsni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishining oldini olish hamda jabrlanuvchining huquqlarini to'liq kafolatlashga erishiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ijtimoiy munosabatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bir qancha amaliy masalalarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda kriminalistikaning yangidan yangi rivojlantirish metodlari va vositalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun quyidagi kriminalistikaning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash lozim.

Birinchiidan, kriminalistikaning nazariy asoslarini roman-german, anglo-sakson va MDH mamlakatlaridagi ilmiy maktablar yutuqlaridan foydalangan holda yanada rivojlantirish zarur.

Bunda, kriminalistikani rivojlantirishga nafaqat jinoiy-huquqiy tomondan, balki sohalararo nuqtayi nazardan yondashish kerak.

Ikkinchiidan, mamlakatimizda kriminalistik texnikani rivojlantirish, jumladan, yangi dalil turlari ko'payib borishi natijasida ular bilan ishlash usullarini yanada takomillashtirish va bu borada professional mutaxassislarni tayyorlash lozim.

Uchinchiidan, kriminalistik taktikani rivojlantirish sohasida tergov harakatlarining samaradorligini oshirish va respublika miqyosida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ularning tarkibiy tuzilmalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, tegishli hamkorlikni xalqaro miqyosda rivojlantirish.

To'rtinchidan, yangi turdagi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarini ishlab chiqish, yangi ekspertiza turlarini amaliyotga joriy etish va mavjudlarini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, mazkur darslikda yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar asosida zamonaviy kriminalistikaning rivojlanish istiqbollari, xususan, kriminalistik texnika va taktikaning jinoyatlarni tez va to'la ochish, ularning oldini olishdagi bugungi kun imkoniyatlari yoritilgan. Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni aniqlash va tahlil etishda hamda ularning yechimini topishda huquqshunoslar uchun yuridik manba bo'lib xizmat qiladi.

y.f.d. G.Z.Tulaganova

I BO'LIM. KRIMINALISTIKANING UMUMIY QOIDALARI

1-MAVZU. KRIMINALISTIKANING PREDMETI, VAZIFALARI, TIZIMI VA BOSHQA YURIDIK FANLAR BILAN ALOQASI

Kriminalistika fani, uning predmeti va vazifalari. Kriminalistika tizimi. Kriminalistikaning boshqa yuridik fanlar bilan aloqalari.

Kriminalistika fani, uning predmeti va vazifalari

Kriminalistika jinoyatlarini ochish va oldini olishda dalillarni topish, olish, mustahkamlash va tadqiq etish bilan bog'liq harakatlarni JPKga ko'ra amalga oshiradigan taktik-metodologik usullari, shu maqsadda qo'llaniladigan ilmiy-texnik vositalar va ularni joriy qilish to'g'risidagi fandir. Uning asosiy vazifasi tergov qilishda va jinoyatchilikni ochishda huquqni himoya qiluvchi organlarni ilmiy asoslangan usullar, vositalar va metodlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Esda tuting! “Kriminalistika” (lot. “criminal” – “jinoyat”, yunon. “logos” – “ta’limot” – so’zma-so’z “jinoyat haqidagi fan” ma’nosini anglatadi) atamasi ilk marotaba XIX asr oxiri – 1908-yilda avstriyalik olim Gans Grossning “Kriminalistika tizimi sifatida tergovchilar uchun qo’llanma” asarida jinoyatning tergov qilish texnikasi, taktikasi va metodikasini o’rganadigan fanga nisbatan qo’llanilgan edi. Unda kriminalistikaga jinoyat huquqiga nisbatan yordamchi fan, jinoyat huquqini amalga oshirishga qaratilgan ta’limot sifatida yondashilgan.

Kriminalistikani turli mamlakatlarda turlicha nom bilan atalgan – “ilmiy politsiya”, “texnik politsiya”, “jinoiy texnika” va h.k. Bizning davrimizda ham bu atama bir xilda qo’llanilmaydi – bir qator mamlakatlarda u “kriminalistik texnika” ma’nosida ishlatiladi.


Esda tuting! Kriminalistika – jinoyatni ochish va oldini olish maqsadida dalillarni izlash, yig’ish, qayd etish va tadqiq etish bo’yicha jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish uchun qo’llaniladigan texnik vositalar, taktik usullar va metodlar to’g’risidagi fan.

Kriminalistikaning **predmeti** – jinoyatchilik mexanizmi, jinoyat va uning ishtirokchilari to’g’risidagi ma’lumotning vujudga kelishi, dalillarni to’plash, tekshirish, baholash va foydalanish qonuniyatlari va ularni bilish asosida jinoyatlarni tergov qilish hamda oldini olishning maxsus vosita va usullari majmui.

Kriminalistika umumiy va maxsus vazifalarni bajaradi.

E'tibor qarating! Kriminalistikaning umumiy vazifasi – jinoyat huquqi va jinoyat protsessi bilan hal etiladigan vazifalarga mos keladi hamda jinoyat sud ishlarini yuritish vazifalaridan kelib chiqadi va jinoyatni tez va to'la ochishga ta'sir ko'rsatishdan, aybdorni fosh qilish va qonunni to'g'ri joriy etishni ta'minlashdan, shaxs, uning huquqi va erkinliklari, mol-mulkini, shuningdek jamiyat va davlatning manfaatlarini jinoyi tajovuzlardan himoyasini ta'minlashdan iborat.

Jinoyatlarni tez va to'la ochishga erishish – bu tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatning haqiqiy manzarasini ochish va ish yuzasidan haqiqatni tiklash. Sud muhokamasiga qadar jinoyatni ochishda tezkor-qidiruv va tergov organlari ishtirok etadi. Ulardan har biri o'z protsessual vakolati doirasida harakat qiladi, bunda ular o'zlariga xos vosita, usul va metodlarni qo'llab, jinoyat to'la ochilishning umumiy vazifalarini hal qilishda hissalarini qo'shadilar.



Kriminalistika o'zining **ilmiy qonuniyatlariga** ega. Ular jinoyatlarni tergov qilish asoslarini o'rgatadi. Jinoyatni tergov qilish qonunda ko'zda tutilgan tartibda surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatini tashkil etadi, bunda ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar mavjudligi yoki mavjud emasligi, uni sodir etgan shaxs aybdorligi yoki aybdor emasligi va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatli hisoblangan boshqa holatlar belgilab olinadi. Bularni isbot qilish uchun kriminalistika vositalari, usullari va metodlari yordamida protsessual qonunda ko'rsatilgan manbalar qo'lga kiritiladi.

Jinoyi ishlarni tergov qilishning o'ziga xos tomonlari mavjud. Shulardan biri jinoyatni aniqlash bilvosita tarzda amalga oshiriladi. Tergovchining o'zi jinoyat hodisasini ko'rmaydi, balki uning odamlar xotirasidagi ifodasini va jinoyat izlarini o'rganadi.

Dalillarni topish (izlash) – tergov organlari faoliyatida muhim va ayni vaqtda murakkab hamda qiyin vazifa hisoblanadi, chunki jinoyatchi ko‘p hollarda jinoyat sodir etgan izni yo‘qotish yoxud yashirishga harakat qiladi va shuningdek o‘zining jismoniy tabiatiga ko‘ra izlar ko‘pincha yaqqol ko‘rinmaydi.

Dalillar joyini ko‘zdan kechirish, tintuv o‘tkazish, namuna olish, guvohlarni so‘roq qilish va boshqa tergov harakatlari vositasida olinadi. Ularni izlashda kriminalistik texnika vositalarini mohirona qo‘llash, tergov taktikasi usullari va metodik tavsiyalariga rioya qilish talab etiladi.

Ma‘lumot uchun! Guvohlar yong‘in sodir bo‘lgan joyda tutunni kuzatgan bo‘lsalar, biror predmet kuyganligi to‘g‘risida taxmin qilish mumkin, tutun ko‘kimsiz bo‘lsa – qonuniyatga ko‘ra soch, teri, rezinka va boshqa buyumlar kuyganligini anglatadi. Alanga ko‘kimsizroq nursiz bo‘lsa, shakar, glitserin, yog‘och spirti yoki tarkibida 25 foizdan ko‘proq kislorod bo‘lgan boshqa buyumlar yonayotganligini ko‘rsatadi.

Sanchadigan, kesadigan yoki chopadigan qurol bilan tan jarohati yetkazilganda yaralangan joydan ko‘p qon ketadi, jabrlanuvchi topilgan joyda qon izlari bo‘lmasa, jarohat boshqa joyda yetkazilganligini ko‘rsatadi. Kriminalist bunday holatlarga qarab qanchalik tez yo‘nalish olsa, u hodisaning haqiqiy xususiyati to‘g‘risida shunchalik asoslangan tarzda xulosa chiqarishi mumkin.

Kriminalistika o‘zining **amaliy qonuniyatlariga** ham ega bo‘lishi kerak. Ular jinoyatchi shaxsning jismoniy va ruhiy holatlari va sodir etgan jinoyat usullari o‘rtasidagi aloqalarida namoyon bo‘ladi. Mashg‘ulot yoki kasb-koriga qarab jinoyat quroli va har xil maxfiy qurollar tanlanadi.

Jinoyatni sodir etish va yashirish usullari bilan ro‘y bergan hodisa izlari qonuniy jihatdan bir-biriga bog‘liq. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, kriminalistika vositalari, usullari va metodlari yordamida ochilgan izlar va boshqa dalillarga asoslangan ma‘lumotlar protsessual qonun yo‘li bilan aniqlansa, ular dalillar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ular dalil bo‘la olmaydi.

Qo‘lga kiritilgan izlar va boshqa ashyoviy dalillarni asl holatda saqlash kerak. Saqlash chog‘ida ko‘rinishi, shakli o‘zgargan predmetlar dalillik kuchini yo‘qotishi mumkin. Masalan, voqea sodir bo‘lgan joydan topilgan o‘q u yoki bu sabablar bilan (noto‘g‘ri o‘ralgan, boshqa metall predmetlar tegib turgan) mikrorelyef (mayda g‘adir-budirliklar)ini yo‘qotadi, natijada u otilgan o‘sha qurolga mos kelmay qolishi mumkin.

Kriminalistika tizimi

Kriminalistika tizimi to'rtga bo'linadi:

1. Kriminalistikaning ilmiy asoslari va metodologiyasi. Kriminalistikaning ushbu qismida uning ilmiy asoslari, vazifalari, metodlari, kriminalistik identifikatsiya va diagnostika kabi masalalar o'rganiladi.

2. Kriminalistik texnika. Kriminalistik texnika bu faqat texnika vositalarining yig'indisi bo'libgina qolmay, balki kriminalistikaning umumiy nazariyasi va tabiiy hamda texnika fanlari asosida ishlab chiqilgan ilmiy qoidalar, usullar va metodlar majmuyidir. Bunda daliliy obyektlarni topish, saqlash, qayd etish, tadqiq etish va jinoyatning oldini olish uchun protsessual qonunga muvofiq ulardan foydalanish maqsad qilib qo'yilgan. Kriminalistik texnika vositalaridan ham tergovchi, ham ekspert muassasalari foydalanadi, texnik asbob-anjomlar esa eng murakkab va xilma-xil ekspert tadqiqoti o'tkazish imkoniyatini beradi.

Kriminalistikaning bu qismiga asosiy kriminalistika texnikalari, sud fotografiyasi, izlar to'g'risidagi ta'limot (trasologiya), sud ballistikasi, hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqoti, xat va dastxatning kriminalistik tadqiqoti, odamning tashqi qiyofasi bo'yicha tasvirlash va kriminalistik ro'yxat kiradi. Kriminalistik texnika mavzusining xilma-xilligiga qaramay, ularning rivojlanishi va tabiiy-texnik asoslari umumiy bo'lib qolaveradi.

3. Kriminalistik taktika. Tergov taktikasi – bu kam kuch, vosita va vaqt sarflab yuqori samaraga erishish maqsadida jinoyatni tergov qilish, ochish va oldini olishda qo'llaniladigan kriminalistikaning umumnazariy qoidalari, mantiq, psixologiya, sud etikasi va boshqa ilmiy bilimlardan foydalanishga asoslangan dastlabki tergovning taktik usullari va metodlarining tergovni rejalashtirishning majmuidir.

Tergov taktikasi faqat dalillarni ochish va tadqiq qilishga yo'naltirilgan ayrim tergov harakatlari o'tkazish usullarini ishlab chiqibgina qolmay, ayni vaqtda vujudga kelgan tergov vaziyatlaridan kelib chiqib, aniq bir ishni tergov qilishning umumiy yo'nalishini tanlashga ham yordam beradi.

4. Jinoyatlarning alohida turlarini tergov qilish metodikasi. Jinoyatning alohida turlarini tergov qilish – bu jinoyatning har bir turiga tegishli o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olib tergov qilish, ularni ochish va oldini olishda qo'llaniladigan ilmiy qoidalar, texnik vositalar, taktik usullar va metodik qoidalar (tavsiyalar) majmuyidir.

Qo'llaniladigan vositalar, usullar va tavsiyalar bir jinoyatni tergov qilishda samarali bo'lishi mumkin. Masalan, qotillik jinoyatiga nisbatan qo'llanilgan usul boshqa jinoyatlarni, aytaylik, iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda samara bermasligi mumkin. Tavsiya qilingan metodika har bir jinoyatni tergov qilish, ochish va oldini olish protsessida eng qulay natijalarga erishish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan vosita, usul va metodik qoidalarni tanlash imkoniyatini beradi.

Kriminalistikaning yuridik va boshqa fanlar bilan aloqalari

Kriminalistika jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan yagona yuridik fan emas. Jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat protsessi ham shu maqsad uchun xizmat qiladi. Shuning o'zi kriminalistikaning ushbu fanlar bilan aloqasi zarurligini ko'rsatadi.

Kriminalistika, eng avvalo, **jinoyat huquqi** bilan aloqador. Kriminalist ham dastlab jinoyat haqida ta'limotga ega bo'lishi va unga tayanishi lozim.

Jinoyat sabablarini o'rganuvchi va uning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadigan **kriminologiya** bilan kriminalistikaning aloqasi ham yaqqol ko'rinib turibdi. Kriminalistika kriminologiyaning nazariy qoidalari va amaliy materiallarini qo'llaydi, kriminologiya ham, o'z navbatida, aniq jinoyat sodir etishga olib keladigan sabab va sharoitlarni ochish bo'yicha kriminalistik bilimlardan keng foydalanadi. Kriminalistika o'g'rilik, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqa jinoyatlarning oldini olishga da'vat etilgan maxsus usullar va texnik vositalarni ishlab chiqishda ham faol qatnashadi.

Kriminalistika **jinoyat protsessi** bilan uzviy bog'liq. Kriminalistika ham jinoyat protsessi, ham jinoyatga oid sud yuritish ishlari vazifalariga bo'ysunadi, jinoyat protsessi prinsiplari va normalariga rioya qilib, kriminalistik texnika vositalari, taktik usullar va metodlardan foydalana oladi. Bu talablarni buzgan holda to'plangan, qayd qilingan va tadqiq etilgan faktik ma'lumotlar sud dalillari bo'la olmaydi, o'z kuchi va ahamiyatini yo'qotadi. Jinoyatni tergov qilishda qo'llaniladigan kriminalistik usullar va vositalar jinoyat protsessual va normalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Kriminalistika ma'lum darajada **fuqarolik protsessi** bilan ham bog'liqdir. Xususan, fuqarolik protsessini amalga oshirish uchun hujjatlarni texnik-kriminalistik va dastxat ekspertizasida va boshqa

ashyoviy dalillarni aniqlashda kriminalistik usullar va metodlar qo'llaniladi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish va xo'jalik yuritish faoliyatining yangi shakllari, bank tizimining rivojlanishi, muomalaga turli qimmatli qog'ozlar – aksiyalar, veksellar chiqarilishi munosabati bilan fuqarolik ishlarida kriminalistikani qo'llash doirasi ancha kengaydi.

Kriminalistika faqat yuridik fanlar bilan emas, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar: mantiq, etika, psixologiya, tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi va boshqalar bilan aloqador hisoblanadi.

Mantiq fani o'rgatadigan mantiqiy fikr yuritish isbot qilish jarayoni samaradorligining zaruriy shartidir. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi, ularning integratsiyalashuvi natijasida bilimlarning maxsus tarmog'i, tergov mantig'i yoki isbotlash mantig'i vujudga keldi, uning qoidalari tergov protsessida dalillarni tahlil qilishda foydalaniladi.

Sud etikasi jinoyatni tergov qilishda qonun bilan birga qo'llaniladigan axloq qoidalarini ishlab chiqadi. Tergovchi u yoki bu texnik vositalar, taktik usullar va kriminalistik metodlardan foydalanish jarayonida axloq qoidalari talablarini buzishga haqi yo'q. Axloqsiz usullar va vositalar yordamida tergov qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bu jinoyat hisoblanadi.

Sud psixologiyasi va uning qonunlari huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining xulq-atvori, niyatini to'g'ri tushunish va tushuntirib berish imkoniyatini beradi. Shu asosda ularning xulq-atvorlarini va shunga olib kelgan sabablarni obyektiv baholash imkoniyatini beruvchi shart-sharoitlar vujudga keladi. Psixologik omillar tergov ishlarini tashkil etish va o'tkazishga, natijalar samarali bo'lishiga yordam beradi, bu ularni nafaqat hisobga olish, balki oldindan ko'ra bilish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, so'roq qilish va ko'rsatuvlarga baho berishni sud psixologiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kriminalistika **sud tibbiyoti** bilan faqat bog'liq bo'libgina qolmay, balki doimo aloqada faoliyat ko'rsatadi. Buni sud ishlarini yuritishda haqiqatni aniqlash, ashyoviy dalillarni tadqiq etish metodlari umumiyliги bilan izohlash mumkin. Jasad, qotillik qurollari, kiyim-kechaklar va boshqa ashyoviy dalillar kriminalistika va sud tibbiyotining umumiy obyekti hisoblanadi va ularni tadqiq qilish ko'pincha kompleks tibbiy-kriminalistika ekspertizasi shaklida amalga oshiriladi.

Kriminalistika, shuningdek **sud psixiatriya** fani bilan bog'liq bo'lib, ruhiy kasallikka chalinganlar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli harakatlarni tergov qilishda hisobga olinadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va jabrlanganlar shaxsini o'rganishda aqli rasoligi yoki aqli norasoligi to'g'risidagi ruhshunosning xulosalari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, kriminalistikada **tibbiy fanlar** (fizika, kimyo, biologiya, fiziologiya va boshqalar), **texnikaga oid fanlar** (radioelektronika, hisoblash texnikasi va boshqalar) hamda **matematika fanlari** qonunlari va qoidalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistika fani va uning predmetini tushuntirib bering. U jinoyat protsessual huquqi, jinoyat huquqi va boshqa jinoyat, tergov va sud organlari faoliyatini o'rganuvchi fanlardan nimasi bilan farqlanadi?

2. Kriminalistika qanday vazifalarni bajaradi? Kriminalistika tizimini tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

2015-yil 18-yanvarda Zangiota tumani "Bekbaraka" savdo kompleksining 6-qator 134-do'konida xarid qilish uchun kelgan fuqaro A. o'zining sumkasini o'g'irlatib qo'yadi. Fuqaro A. Zangiota tumani IIB ga murojaat qilib sumkasini o'g'irlatganini, sumkada shaxsiy hujjatlari va 5 million so'm puli borligini aytadi. Fuqaro A. o'z murojaatida savdo kompleksida o'rnatilgan kameradan o'z sumkasini o'g'irlagan odamni ko'rganligini aytadi.

Mazkur jinoyatni ochishda va tergov qilishda tergov organlari tomonidan qanday turdagi texnik vositalardan foydalanish mumkin? Kriminalistikaning jinoyatlarni ochish va tergov qilishdagi ahamiyati qanday?

2-kazus

Fuqaro S. o'z uyida o'ldirilganligi aniqlandi. Fuqaro S.ning qo'shnisi L. ismli shaxs o'z ko'rsatuvlarida S.ning uyida o'sha 4-fevral kuni chamasi soat 12.05 larda baland shovqin ovozlari eshitganini, so'ngra o'q ovozi eshitgani to'g'risida ko'rsatuv berdi. Fuqaro S. bilan yonmayon uyda yashovchi ikkinchi qo'shnisi N. esa qo'shnisi L. 4-fevral kuni chamasi soat 12.05 da S.ning uyiga kirib ketganligini ko'rganligini aytdi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish paytida barmoq va poyabzal izlari topilgan.

Mazkur holatda jinoyat izlarini topish va keyingi tergov harakatlarini o'tkazishda boshqa fanlarning qanday yutuqlaridan foydalanish mumkin? Jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik texnikaning o'rni qanday?

2-MAVZU. KRIMINALISTIKA METODLARI

Kriminalistikada qo'llaniladigan metodlar tasnifi. Umumilmiy kriminalistik metodlar. Maxsus kriminalistik metodlar.

Kriminalistikada qo'llaniladigan metodlar tasnifi

Metod – bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalarni tadqiq etish usullari. Har qanday fanlar kabi kriminalistika ham tabiat va jamiyat voqealiklarini hamda predmetlarni bilishning umumfalsafiy va mantiqiy usullariga suyanadi. Lekin har bir fan o'zi tekshiradigan jabhalarning mohiyati va tadqiq qilishning maqsad-vazifalariga xos bo'lgan turli muayyan usulblardan foydalanadi, shuningdek yangi usulblar yaratadi.

Kriminalistikada turli xil metodlar qo'llaniladi, ularni tasniflashda, eng avvalo, kriminalistikaning fan va amaliyot borasidagi metodlarini farq qilish kerak. Ulardan foydalanish imkoniyatlari tergov harakatlarini amalga oshirish maqsadi, shart-sharoiti va usullari bilan belgilanadi. Masalan, tergov eksperimenti amaliy faoliyat metodi sifatida faqat protsessual qonun bilan qat'iy tartibga solingan holda qo'llaniladi va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni tekshirish hamda aniqlab olish maqsadida amalga oshiriladi. Ilmiy eksperimentlarga bunday talablar qo'yish shart emas.

Kriminalistika, amaliy faoliyatda metodlar protsessual qonunlar va kriminalistikaning nazariy qoidalari asosida yaratiladi va foydalaniladi.

Shu bilan birga, kriminalistik metodlar boshqa barcha fanlar to'plagan ilmiy qoidalarga ham suyanadi. Masalan, shaxsni so'roq qilishda sud psixologiyasi qoidalari asos bo'lib xizmat qiladi, mantiq qoidalari tergov tasmollarini yaratish va foydalanishda muhim rol o'ynaydi.

Kriminalistikada qo'llaniladigan metodlar tasnifi turli asoslarga ega.

E'tibor qiling! Kriminalistikada metodlar quyidagi talablarni qanoatlantirishi kerak: qat'iy ilmiy asosga suyanish; qonunlarni buzmaslik; axloq normalariga rioya qilish; xavfsiz bo'lish.

Ular mazmuniga ko'ra **umumilmiy** va **maxsus** turlarga bo'linadi.

Umumilmiy kriminalistik metodlar

Umumilmiy metodlar ichida, eng avvalo, dialektik metod muhim o‘rin egallaydi. Unga binoan har bir buyum boshqalari bilan o‘zaro aloqalarda, harakatda, muayyan sharoitlarda kelib chiqishi va yo‘qolishi mumkin. Jinoyatni ochish va tergov qilishda kelib chiqadigan har qanday masalani hal etishda dialektika tadqiq etilayotgan hodisaga obyektiv yondashuvning munosabatlari va aloqalarini, shuningdek, unga xos barcha xususiyatlarni e‘tiborga olishni talab etadi. Dialektika qonunlari barcha narsalar va voqeliklarning mohiyatini tadqiq qilish, bilish, shunday ekan jinoyatni ochish va uni sodir etgan shaxsni aniqlash imkoniyati bor, degan bilish nazariyasiga asoslanadi.

Dialektik metod turli munosabat va aloqalar e‘tiborsiz qolib ketishidan, bir tomonlama tergov qilishdan, faqat bir xil holat bilan qiziqishdan saqlaydi.

Umumilmiy metodlarning muayyan turlariga kuzatuv, qiyoslash, o‘lchash, tasvirlash, eksperiment o‘tkazish, modellashtirish va boshqalar kiradi.

Kuzatuv. Predmetlar va hodisalarni faol bir maqsadga qaratilgan reja asosida va bevosita qabul qilish kuzatuv orqali amalga oshiriladi. Kuzatuv amaliy faoliyatda tintuv va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirish chog‘ida alohida ahamiyatga ega. Kuzatuv vazifalari predmet yoki hodisa xarakteriga qarab belgilanadi. Bir holatda – qidirilayotgan narsani topish, ikkinchi holatda uning aniq xossalari va belgilarini aniqlash, uchinchi holatda – tintuv va boshqa tergov xatti-harakatlari o‘tkazishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi xulq-atvorini tahlil qilish zarur. Shu munosabat bilan kuzatuv jarayonida aniqlangan va protsessual mustahkamlangan ba‘zi faktlar dalillik ahamiyatiga ega bo‘lishi, boshqalari tasmollarni tuzish uchun material bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Qo‘shimcha texnik vositalar va turli asboblarni qo‘llash sharoitida kuzatuv doirasi va samaradorligi oshadi.

Qiyoslash. Tashqi dunyoni idrok qilishning asosiy usullaridan biri. Qiyoslashsiz tabiatda va jamiyatda sodir bo‘layotgan faqat murakkab hodisalarni emas, balki juda oddiy hodisalarni ham bilish mushkul.

Bilish jarayonida, shu jumladan, jinoyatni tergov qilish va ekspertiza jarayonida mazkur metodni keng qo‘llash zarurati yuqorida ta’kidlangan holat bilan izohlanadi. Qiyoslash kriminalistikada, umuman, identifikatsiyalash maqsadida o‘tkazilayotgan tadqiqotda alohida ahamiyatga ega.

Qiyoslash metodini qo'llash mantiqning ikki qoidasiga javob berishi kerak:

- 1) obyektiv voqelikning bir xilda predmetlari va hodisalarini, bir turdagi tushunchalarni qiyoslashga yo'l qo'yiladi;
- 2) qiyoslashda muhim ahamiyatga molik belgilardan foydalaniladi.

Kriminalistik maqsadlarda amalga oshiriladigan qiyoslashda tez-tez uchraydigan belgilar muhim o'rin tutadi. Qiyoslash metodi kriminalistik amaliyotda mantiqiy bilishning boshqa metodlari, ya'ni tahlil qilish, hodisalarni bir butun holda tekshirish usuli bilan qo'shib olib boriladi.

O'lchash. Bu metod yordamida o'lchanadigan buyum va o'lchov birligi, miqyosi yoki etaloni (metr, kilogramm, minut, litr, harorat, rang kabilar) o'rtasidagi nisbat orqali belgilanadi. Aniq o'lchovga ega bo'lish uchun maxsus asbob va anjomlardan foydalaniladi. O'lchov ilmiy va amaliy faoliyatda muntazam qo'llaniladi. U kriminalistikada hodisa yuz bergan joyni va ashyoviy dalillarni o'rganishda, ekspertiza va boshqa tergov harakatlari o'tkazishda foydalaniladi.

Tasvirlash. Mazkur metod vositasida tadqiq etilayotgan obyektlar belgilari va xossalari tasvirlab yoziladi (sanaladi). Bu uslub obyekt haqida to'la tasavvur hosil qilish yoki alohida tomonlari, tarkibiy qismlari to'g'risida xulosa qilish imkoniyatini beradi. Tasvirlash sifatli va miqdorli, tuzilmali va funksional, to'la va to'liq emas va h.k. bo'lishi mumkin. U og'zaki va yozma shaklda, shu jumladan raqam, rasm, ramz va boshqacha tarzda amalga oshiriladi.

Buyum va voqeliklarni bevosita va bilvosita tasvirlash turlari bor. Birinchi holatda kriminalist tekshirilayotgan obyektning belgilarini, ya'ni shaxsan o'zi qabul qilgan, his etgan narsani tasvirleydi, ikkinchi holatda boshqa odamlar ko'rsatgan belgilar asosida, masalan, guvohlar, jabrlanganlarning so'zlari asosida shaxs qiyofasini tasvirleydi.

Qiyoslash ma'lum bir tartibda bajariladigan tasvirlash va solishtirib ko'rish elementlari bilan bog'lab olib borishdir. Jumladan, kriminalistikada odamning tashqi qiyofasini so'z orqali ifodalash, ta'riflab berish anatomik va funksional belgilar yordamida amalga oshiriladi. Izchilligi, belgilarining soni va so'z tarzidagi ifodasi ma'lum tasvirlar vositasida bayon etiladi. Bunday tasvirlarda solishtirish elementlari ancha ahamiyatli o'rin egallaydi.

Ekspiriment. Uning zamirida tekshirilayotgan hodisani o'rganish va uning boshqa hodisalar bilan aloqasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ilmiy asoslangan tajriba yotadi. Bunda tekshirilayotgan hodisa sun'iy ravishda iloji boricha to'la va aniq takrorlanadi.

Ekspertizani kuzatuv bilan birga olib boriladi, ammo bu mazkur metodlar aynan bir xil ekan degan ma'noni bildirmaydi. Ekspertizaning o'ziga xos belgisi kuzatilayotgan hodisa jarayoniga ekspertizaning o'tkazuvchining faol aralashuvidan iborat. Kriminalistikada ekspertizaning tekshirish va aniqlab olish ba'zi hollarda tergov yoki sudda ko'rilayotgan ish yuzasidan ahamiyatli bo'lgan yangi ma'lumotlarni olish uchun o'tkaziladi. Tergov ekspertizasi, albatta, protsessual shaklda amalga oshiriladi.

Ekspertizani amalga oshirishda ham ilmiy tadqiqotga xos sharoitlarda ekspertizaning o'tkaziladi. Ekspertizaning umumiy tomonlari avvaldan tayyorlangan sharoitda o'tkaziladigan tajribalar, olingan natijalar bo'lib, ularning to'g'riligi sinab ko'rish orqali kafolatlanadi.

Modellashtirish. Bu metod texnik fanlar zahirida vujudga kelib, ijtimoiy fanlarda modellashtirish keng tarqalgandan keyin umumilmiy metod sifatida e'tirof etila boshlandi. Uning mohiyati obyektning o'xshash model orqali bilishdan iborat, bunda tadqiq qilinayotgan obyektning asosiy belgilari, xususiyatlari orqali tiklanadi. Model moddiy va ideal bo'lishi mumkin. Har ikki xil model ham kriminalistikada keng foydalaniladi.

Jinoyat protsessida materialdan tayyorlangan modellarga gipsli shakl yasash, barmoq izlari nusxasi olish, voqea sodir bo'lgan joyning konstruksiyasini tayyorlash, M.M.Gerasimov metodi asosida odamning bosh ko'rinishini tiklash kabilar kiradi. Hozirgi kunga kelib, zamonaviy kompyuter vositalari yordamida 3D ko'rinishda modellashtirish ham ancha keng rivojlanmoqda.

Bilish jarayonida ideal model ham ma'lum bir rol o'ynaydi. Bunga, eng avvalo, tezkor-qidiruv, tergov va ekspert tasmullari kiradi. Modellashtirish rolini baholar ekanmiz, har qanday yaxshi nusxa hech qachon originalni to'la ifodalay olmasligini e'tiborga olmoq kerak. Nusxa obyektning belgilari, xossalari va sifatidan bir qisminigina ifodalaydi. Ammo modellashtirish vositasida tadqiq qilinayotgan obyekt to'g'risida bir oz bo'lsa-da, qo'shimcha axborot olish mumkin. Bunday axborot tergovchining bo'lib o'tgan hodisalar to'g'risida tasavvurini kengaytiradi.

Maxsus kriminalistik metodlar

Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida faqat umumilmiy tadqiqot metodlari emas, balki maxsus metodlardan foydalanish ham rivojlanmoqda. Ayrim

yangi metodlar paydo bo'lmogda, bir guruhi zamonaviylashmogda, qolganlari esa o'z ahamiyatini yo'qotib bormogda. Kriminalistikaning o'zida ishlab chiqilgan maxsus metodlar jumlasiga sud-fotografiya, trasologiya, sud-ballistikasi va boshqalar kiradi. Masalan, tergov va ekspert amaliyotida sud-fotografiyasi tomonidan tashkil etilgan tanib olish (signaletik), mikrotasvir, fotografik rang ajratish, qiyin sharoitlarda fotografiyadan foydalanish va boshqa metodlar mavjud. Trasologiyada oyoq, poyabzal, buzish qurollari kabi asboblarning izlarini topadigan va qayd qiladigan maxsus metodlar ishlab chiqilgan. Sud-ballistikasida o'qni burab chiqaradigan, o'qni profilografik tadqiq etish, kesadigan va tekis stvolli qurolning identifikatsiyasi bo'yicha optik va mexanik metodlar yaratilgan.

Kriminalistikada ishlab chiqilgan maxsus metodlardan ba'zilari boshqa sohalarda ham qo'llanmogda. Jumladan, fotografik rang ajratish metodi kriminalistikada yaratilgan bo'lsa ham, undan hujjatlarni tadqiq qilishda muvaffaqiyatli foydalanilmogda.

Fotoportret identifikatsiyasining metodi tarixiy tadqiqotlarda, sud-dastxatshunoslik va muallifshunoslik tadqiqotlarida ishlatilib kelinmogda.


E'tibor qiling! Kriminalistikada qo'llaniladigan umumilmiy metod ham, maxsus metod ham ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bunday talablar mezon xizmatini o'taydi: 1) metodning natijalari to'g'ri bo'lishi kafolatlanganligi; 2) foydalanish qulayligi, ya'ni metodni joriy etish natijasida olingan xulosalar jinoyat protsessining barcha ishtirokchilariga tushunarli bo'lishi; 3) xavfsizligi; 4) samaradorligi; 5) kam xarajatli ekanligi.

Shuningdek, qonunga zid bo'lgan giyohvand moddalar, gipnoz, telepatiya va boshqa metodlar hamda vositalardan dalil sifatida, xususan, shaxsni ayblash uchun asos sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

E'tibor qiling! Kriminalistik ta'limotlar jumlasiga identifikatsiya nazariyasi; ko'nikmalar haqida ta'limot; jinoyatni sodir etish usullari haqida ta'limot; izlarni vujudga kelish mexanizmi haqida ta'limot; dalil ma'lumotlarni aks ettirish, ishga ilova qilish qoidalari; turli obyektlarning belgilari (alomatlari) haqida ta'limot; jinoyatlarni ro'yxatga olish usullari; ekspert tadqiqotlarini o'tkazish usullari; tergov tasmollari va rejalashtirish qoidalari; kriminalistik prognoz qilish nazariyasi kiradi.



Kriminalistika fanining tamoyillari



Kriminalistika usublari

Umumilmiy usublar

kuzatish, tasvirlash, o'lchash, taqqoslash, eksperiment, prognoz qilish modellashtirish, matematik usublar, evristik usublar: tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va boshqalar.

Maxsus usublar

boshqa fanlardan o'zlashtirilgan

kriminalistik usublar

fizikaviy, kimyoviy, biologik, statistik, sotsiologik va b.

sud fotografiyasi, trasologiya, ballistika, xatshunoslik va b.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistika fanida usublarning ahamiyatini yoritib bering.
2. Eksperiment va modellashtirish usublarining o'ziga xosligini bayon qiling.

Kazuslar:

1-kazus

Fuqaro 1953-yilda tug'ilgan J. ayoli D.ni qasddan o'ldirganlikda gumon qilinib ushlangan. Mazkur holat yuzasidan Mirzo Ulug'bek tuman prokuraturasi tomonidan J.ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Jinoyat ishi yuzasidan olib borilayotgan dastlabki tergov harakatlari jarayonida ish bo'yicha gumon qilinuvchi tariqasida so'roq qilingan J. haqiqatdan ham ayoli D.ni xiyonat qilganligi uchun o'ldirganligini ma'lum qildi. Shaxsiy tintuv o'tkazilganida uning yonidan 500 ming so'm pul va shaxsiy hujjatlari topiladi.

Mazkur jinoyat yuzasidan jinoyatni tergov qilishda va jinoiy hodisaning haqiqiy holatini aniqlashda qanday kriminalistik metodlardan foydalanish mumkin? Kriminalistikaning qanday xususiy metodlaridan foydalanish mazkur vaziyatda samarali natija beradi?

2-kazus

2014-yil 5-mart kuni Toshkent shahar Yunusobod tumani 6-mavze 34-uy 24-xonadonda o'g'rilik jinoyati sodir etilgan. Xonadon egasining xabariga ko'ra ushbu holat yuzasidan Yunusobod tumani IIB tergovchilari tomonidan dastlabki tergov harakatlari olib borildi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish chog'ida barmoq izlari, poyabzal izlari, topiladi va daliliy ashyolar sifatida olinadi. Dastlabki tergov chog'ida to'plangan dalillar jinoyatchi shaxsini aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi.

Mazkur holat yuzasidan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda qanday kriminalistik metodlardan foydalanish lozim edi? Kriminalistikaning qanday xususiy metodlaridan foydalanish mazkur vaziyatda samarali natija beradi?

3-MAVZU. KRIMINALISTIK IDENTIFIKATSIYA VA DIAGNOSTIKA

Kriminalistik identifikatsiya tushunchasi, vazifalari, prinsiplari va shakllari. Kriminalistik identifikatsiya obyektlari. Identifikatsiya obyektlarining tasnifi. Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayoni. Kriminalistik diagnostika.

Kriminalistik identifikatsiya tushunchasi, vazifalari, prinsiplari va shakllari

Identifikatsiya atamasi lotincha “idem” (aynan o’sha) so‘zidan olingan bo‘lib, aynanlikni aniqlashni bildiradi. Bu atamani birinchi marta fransiyalik olim Alfons Bertilon odamlarni ro‘yxatga olishga bag‘ishlangan o‘z ixtirosida qo‘llagan. Kriminalistik identifikatsiya jinoyat ishi bo‘yicha qidirilayotgan, aniqlanishi lozim bo‘lgan muayyan (odam, buyum) obyektning aynan o‘zi ekanini bildiradi.

E’tibor qiling! Aynanlik va o‘xshashlikni aniqlash vositasida jinoyat ishiga oid bir qancha holatlar aniqlanadi, chunonchi: narsaning belgilari – uni qaysi korxonaga, qachon yasab chiqarganini; hodisa sodir bo‘lgan joydagi moddiy izlar u yerda kim, qanday harakat qilganini; o‘q va gilzani tekshirib, otish qurolining turi va aynan o‘zini; dastxat bo‘yicha uni yozgan shaxsni; odam oyog‘ining izi bo‘yicha shu odamning bo‘yini; qog‘oz va siyoqning belgilari bo‘yicha hujjatning necha yil muqaddam yozilganini aniqlash imkoniyatlari bor.

Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida turli obyektlarni qidirish va aniqlash zaruriyati doimiy hodisa sodir bo‘lgan joyda qolgan qo‘l izi bo‘yicha – shaxs, g‘ildirak izlari bo‘yicha – avtotransport vositalari, kiyim yoki poyabzaldagi tuproq va o‘simlik qoldiqlari bo‘yicha joy kabilari aniqlanadi.

Identifikatsiya jarayonida iz qoldirgan obyekt qolgan iz bilan taqqoslab ko‘riladi. Agar izni shu obyekt qoldirgan bo‘lsa, aynanlik qayd etiladi.

Esda tuting! Iz deganda faqat moddiy izlar (qo‘l, oyoq, buzish qurollari va h.k.) tushunilmay, balki tasviri bor barcha buyumlar: qo‘lyozma, fotosurat, narsaning qoldiqlari, qismlari kabilarni, shuningdek xotirani tasavvur etish lozim.

Jinoyatni tergov qilish jarayonida o'xshashlik tushunchasi, uni aniqlash prinsiplari va metodikasiga oid qoidalar va amaliy tavsiyalar majmuyi kriminalistik identifikatsiya to'g'risidagi nazariyani tashkil etadi.

E'tibor qiling! Kriminalistik identifikatsiya deganda obyektlarning qiyosiy tadqiqoti tushuniladi, bunda aynanlik va o'xshashlikdan dalil sifatida foydalaniladi.

Kriminalistik identifikatsiya – bilish vositasi, usuli va metodik majmuyi sifatida obyektning turli holati, ko'rinishi, turli vaqtlarda va har qanday murakkab sharoitda kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan aynanlik va o'xshashlikni aniqlashga imkon beradigan mukammal metodikaga ega bo'lishi kerak.

E'tibor qiling! Kriminalistik identifikatsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

kriminalistik identifikatsiya sud dalillari hisoblangan faktik ma'lumotlarni aniqlashga yo'naltirilgan, u jinoyat-protsessual qonun talablariga bo'ysunadi;

kriminalistik identifikatsiya ilgari sodir etilgan hodisa izidan borib, jinoyatni tergov qilish protsessida notanish obyektini tadqiq qiladi;

kriminalistik identifikatsiya metodi aniq bir moddiy obyekt yoxud uning eng kichik bir qismini aniqlashga yo'naltirilgan.

Kriminalistik identifikatsiya ishonchli, universal va yuqori darajadagi nazariy ta'limotdir. Moddiy dunyoning obyektivligi, xilma-xilligi undagi o'xshashlik umumiy bo'lib, aynanlik har bir voqea va narsalarning o'zigagina xosligi, ikkita aynan voqea yoki narsa tabiatda va jamiyatda bo'lishi mumkin emasligi, ularning har biri faqat o'ziga teng ekanligi identifikatsiyaning tub mohiyatini anglatadi.

Kriminalistik identifikatsiya nazariyasi uchun shu obyektlarning o'zaro ta'siri natijasida bir-birida qoladigan moddiy asoratlar, izlar, ularni tadqiq qilish imkoniyati mavjudligi asos hisoblanadi. Zo'rvonlik sodir etilganda uning izlari faqat jabrlanganlar badanida qolmay, jinoyatchining badanida yoxud kiyim-kechagida ham bo'ladi. Birinchi va ikkinchi turdagi iz ham kriminalistikada ahamiyatli hisoblanadi.

E'tibor qiling! Identifikatsiya belgilari:

obyektini qamrab olish darajasiga ko'ra: umumiy va xususiy;

ahamiyatiga ko'ra: guruhga oid va individuallashtirilishga ko'ra;

Xarakteriga ko'ra: miqdoriga va sifatiga ko'ra;

obyekt bilan aloqasiga ko'ra: zaruriyat tufayli va tasodifiy aloqalarga bog'liq.

Shuning uchun ham to'g'ri, teskari va qarshi identifikatsiya aloqalarini uzviylikda tadqiq qilish va ulardan foydalanish kriminalistik identifikatsiya nazariyasi va amaliyotining dolzarb vazifasidir.

Kriminalistik identifikatsiya prinsiplari

Identifikatsiya protsessida qatnashadigan obyektlar identifikatsiyalanuvchi va identifikatsiyalaydigan turlarga bo'linadi. Identifikatsiyalanuvchi – bu aynanligi to'g'risidagi masalani hal qilish kerak bo'lgan yoki qidirilayotgan obyekt hisoblanadi, identifikatsiyalaydigan obyekt esa aynanlikni aniqlash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Identifikatsiya jarayonida hamma obyektlar - identifikatsiyalanuvchi ham identifikatsiyalaydigan ham o'zgarishsiz qoladi deb bo'lmaydi, chunki ular doim harakatda, rivojlanishda. Shu bilan birga obyektlarning o'zgarish darajasi va tezligi har hil bo'ladi. Shuni hisobga olib kriminalistik identifikatsiya obyektlari o'zgaradigan va nisbatan o'zgaradigan xillarga bo'linadi.

Identifikatsiya jarayonida bilishning analiz va sintez metodlari qo'llaniladi. Kriminalistik identifikatsiya tadqiqot obyektlarining o'ziga xos tomonlari qanchalik chuqur va mukammal analiz qilinganligiga bog'liq. Ammo qiyoslanayotgan obyekt belgilarini analiz qilish bilan jarayon yakunlanmaydi. Qiyosiy analiz natijasida mos kelgan belgilar va farqlar taqqoslanishi va ularning har birini tushuntirish zarur.

Har bir taqqoslanayotgan belgi umuman identifikatsiya obyektini sifatida harakatda, o'sishda ekani e'tiborga olinishi kerak. Bunda har bir belgining kelib chiqishi va o'zgarish sabablariga aniqlik kiritish lozim. Identifikatsiya obyektining ayrim belgilari ma'lum darajada barqarorlikda qolishi mumkin. hatto, identifikatsiya obyektining muhim belgilari qasddan o'zgartirilgan bo'lishi ehtimol.

Kriminalistik identifikatsiya **noprotsessual** va **protsessual** shakllarda amalga oshiriladi. Uning noprotsessual shakli bir necha ko'rinishlarda bo'ladi: 1) surishtiruv organlari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish chog'ida amalga oshirilgan identifikatsiya; 2) fuqarolik sudlari, shuningdek notariat organi faoliyatida foydalaniladigan ma'muriy-huquqiy identifikatsiya.

Jinoyat-protsessual qonun normalari va talablariga muvofiq aynanlik dastlabki tergov, surishtiruv va sud muhokamasi davrida o'tkaziladi. Kriminalistik identifikatsiya tergov harakati tanib olish uchun ko'rsatish orqali amalga oshiriladi yoki sud tomonidan ish ko'rish jarayonida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tasniflarga muvofiq kriminalistik identifikatsiya subyekti surishtiruvchi, tergovchi, sudya, ekspert bo'lishi mumkin. Bu subyektlar jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tegishli kriminalistik usullar, vositalar, metodlardan foydalanib identifikatsiyani protsessual shakllarda amalga oshiradi.

Идентификация субъектов	Aks etish shakliga ko'ra	moddiy qayd qilingan va psixo fiziologik (tasavvur bo'yicha)
	qo'llanish sohasi bo'yicha	protsessual va noprotsessual faoliyatlarda, tergov harakati, sud ekspertizasi shaklida
	Subyektlar bo'yicha	tergovchi, surishtiruvchi, sud, ekspert, tezkor xodim
	Yakuniy natija bo'yicha	identifikatsiya va guruh mansubligini aniqlash
	Identifikatsiya qiluvchi bo'yicha	odam, hujjat, predmet, jarayon va hodisa, hayvon, ashyolar majmuyi, bino, modda va b.
	Identifikatsiya qilinayotgan obyekt bo'yicha	butunning qismlari, moddiy qayd qilingan aks etish tavsifi, tasavvurdagi obrazlar, kimyoviy tuzilma, fizik xususiyatlar tizimi

Kriminalistik identifikatsiya obyektlari

Kriminalistik identifikatsiya moddiy obyektlarning o'xshashlik sifatini ifodalay ekan, obyektiv voqelikning qaysi elementlari taqqoslash obyekt sifatida xizmat qilishini aniqlab olish kerak.

E'tibor qarating! Aynan obyekt tushunchasini belgilashda, birinchidan, buyumlar va ularning xususiyatlari to'g'risidagi falsafiy ta'limotdan, ikkinchidan, kriminalistik identifikatsiyaning o'ziga xos uslublaridan kelib chiqish lozim.

Tergov qilinayotgan hodisaning vaqti va joyini, predmet va shaxsning alohida xossalarini, zaharning ta'sirchanlik darajasi, siyohning kimyoviy tarkibini aniqlash uchun identifikatsiya qoidalaridan foydalaniladi.

Kriminalistik identifikatsiyaning roli jinoyatning aniq mohiyatini belgilash, jinoiy xatti-harakatlar sodir etishda ishtirok etganlar, jabrlanganlar, jinoiy tajovuzlar sodir etishda foydalanilgan qurol va vositalarni aniqlashni taqozo qiladi. Bu vazifalarni hal qilish uchun tergov qilinayotgan hodisaning obyektiv aloqalarini ochish va kuzatish zarur.


Aybdorning xatti-harakatlari bilan jinoyat natijalari o'rtasidagi bog'lanish bunga misol bo'la oladi. Ammo obyektning tergov qilinayotgan voqea bilan mavjud individual aloqasini, ular o'rtasidagi barqaror va betakror xususiyatlar yig'indisiga e'tibor berilgan taqdirdagina tadqiq qilib aniqlash mumkin.

Demak, buyumlarning faqat alohida xossalari emas, balki betakror xususiyat va sifatlar yig'indisiga ega bo'lgan yaxlit holdagisi identifikatsiya obyektlari bo'la oladi. **Identifikatsiyalash** – muayyan moddiy buyum va predmetlarni boshqalaridan ajratish, farqlash demakdir. Masalan, jinoyatchining izda aks etgan bo'yi, qo'l, oyoq izlari, jismoniy kuchi, boshqa har qanday xususiyatlari identifikatsiya obyekti bo'la olmaydi. Alohida individni xarakterlovchi bunday xususiyatlarning yig'indisi, tashqi qiyofasining o'ziga xos belgilari identifikatsiyaning oddiy obyekti hisoblanadi. Yurganda qo'lni silkish yoki qadam tashlashi shaxsning funksional xususiyatini ifodalaydi. Ammo bunday xususiyatlar ko'pgina shaxslarga xos bo'lishi mumkin va shu sababli identifikatsiyalash uchun yetarli emas. Faqat individual xususiyatlarning ma'lum yig'indisi bir shaxsga tegishli bo'lishi mumkin. Obyektning betakror yig'indisini tashkil etmaydigan alohida xususiyatlari ifodalangan izlar ham identifikatsiyalash uchun yetarli emas.

Ma'lumot uchun! Kriminalistik identifikatsiya moddiy obyektini tergov qilish voqeasi bilan aloqasini aniqlash uchun o'tkaziladi. Dastxat identifikatsiyalanmaydi, balki uning vositasida uni yozgan shaxs identifikatsiyalanadi yoxud texnologik jarayon identifikatsiyalanmaydi, aslida texnologik jarayonning o'ziga xos tomonlari bo'yicha mashina, sex, fabrika identifikatsiya qilinadi.

Ish uchun jinoyatning yozuv, ovoz, jinoyat sodir etish usuli, texnologik jarayon belgilari bilan aloqasi emas, balki ko'rsatilgan belgilarga ega bo'lgan moddiy obyekt, shaxs, joyning aloqasi muhim.

Kriminalistik identifikatsiya tadqiq etayotgan obyekt turini belgilash bilan yakun topmaydi. O'z natijalariga ko'ra bu xildagi belgilash faqat oraliq ahamiyatga ega. Bunday holda kriminalistik identifikatsiyaning yagona obyekti to'g'risida emas, balki qiyoslanayotgan obyektning qaysi guruhga mansubligini belgilash, ularning tur o'xshashliklari bilan cheklanadi.



Identifikatsiya obyektlarining tasnifi

Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayonida bitta obyektдан hosil bo'lgan bir necha izlar, masalan, bahsli qo'lyozma va gumon ostidagi shaxs dastxatining namunasi solishtirib ko'riladi. Qiyoslanayotgan bu obyektlarning birinchisi identifikatsiyalanadigan, ikkinchisi identifikatsiyalaydigan obyektlar hisoblanadi. Masalan, eshikni buzib o'g'irlik sodir etilgan joyda turli izlar topiladi, gumon qilingan shaxsning uyida buzish quroli topilib, undan eksperiment tarzida izlar olinadi. Jinoyat izlari va eksperimental izlar qiyosiy tadqiq qilinadi. YAshirinib yurgan shaxsni identifikatsiyalash uchun uning fotosurati va qo'lga olingan shaxsning fotosurati qiyoslab tekshiriladi.

Ana shu obyektlardagi barcha belgilar va xususiyatlar emas, bir-biriga solishtirish mumkin bo'lganlari taqqoslanadi. Masalan, jinoyat sodir etilgan joydan topilgan hajmli izlar bo'yicha lomning issiqqa bardoshlilik, elektr o'tkazuvchanligi, zichligi va boshqa xossalari o'rganilmay, uning iz qoldirish xususiyatlari tadqiq qilinadi.

E'tibor qiling! Identifikatsiyalaydigan va identifikatsiyalanuvchi obyektlardan foydali axborotni ajratib olish tadqiqotning dastlabki muhim vazifasi hisoblanadi. Zaruriyatga qarab, identifikatsiyalaydigan va identifikatsiyalanuvchi obyektlar bevosita va bilvosita tadqiqot qilinadi. Identifikatsiyalanadigan obyektidagi hossalari o'zgarmagan bo'lsa, u bevosita tadqiq etiladi. Obyekt o'zgargan bo'lsa, uning identifikatsiyalaydigan belgilari ilgarigi izlari orqali, ya'ni bilvosita tekshiriladi.

Identifikatsiyaga oid xossalari obyektlarning o'zaro ta'siridan va izning vujudga kelish mexanizmlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Masalan,

avtomashina yurgan yo'lda g'ildirakning izi qoladi, avtomashina biror to'siqqa urilganda radiator, bufer, kuzov va mashinaning boshqa qismlarida iz qoladi.

Identifikatsiyalaydigan obyektida uning xossalarini ifodalaydigan belgilargina foydali axborot beradi. Faqat o'sha belgilar o'rganiladi, qolganlari e'tiborga olinmaydi. Masalan, oyoq kiyimning yerdagi izlari o'rganilayotganda iz qoldirgan tagcharmning tashqi tuzilishi, zichligi, yumshoqligi va boshqa xossalari o'rganiladi. Tuproqning biologik va kimyoviy tarkibi izning shakllanishiga ta'sir etmasa, ular tadqiq qilinmaydi.

Bevosita tadqiqot hamma hollarda ham mumkin bo'lavermaydi. Ba'zi holatlar va funksional-dinamik belgilar identifikatsiya maqsadida faqat ularning izlari, tasvirlari bo'yicha o'rganiladi. Masalan, yozuv mashinkasini identifikatsiyalashda uning o'zi emas, unda yozilgan matn tekshiriladi.

Xotiraviy qiyofalar bo'yicha identifikatsiya qilishda ko'rsatuvlar, yozma yoki chizma shaklida ifodalangan qiyofasi vositasida shaxsning aynan o'sha qidirilayotgan odam ekanligi hal etiladi.

Aynanlikning protsessual shaklida ham farqi bor: tasvirlovchi materiallar bo'yicha identifikatsiya ko'zdan kechirish va ekspertiza o'tkazishni talab etsa, xotiraviy qiyofa bo'yicha aynanlikni aniqlash so'roq qilish va tanib olish uchun ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi.

Ba'zan qidirilayotgan obyekt bir vaqtning o'zida identifikatsiyalanadigan va identifikatsiyalaydigan obyekt bo'lishi mumkin. Masalan, jabrlangan shaxsning badanida iz qoldirgan avtomashinada ayni vaqtda qon izi qolishi mumkin, barmoq izlarini qoldirgan jinoyatchining qo'lida bo'yoq zarrachalari topilishi mumkin.

Identifikatsiyadan foydalanib isbot qilishning maqsadi tergov qilinayotgan hodisa bilan bog'liq obyektни topishdan iborat bo'lib, u qidirilayotgan hisoblanadi. Amalda isbotlashning vazifasi tekshirilayotgan obyektlar doirasini mumkin qadar cheklash va ularning orasidan qidirilayotgan obyektни ajratib olishdan iborat.

Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayoni

Esda tuting! Kriminalistik identifikatsiyaviy tadqiqot jarayoni to'rt bosqichdan iborat: dastlabki tadqiqot – obyektlarni ko'zdan kechirish; identifikatsiya obyektlarini alohida-alohida tadqiq etish; ularni qiyosiy tadqiq etish; qiyosiy natijalarni baholash.

Dastlabki tadqiqot bosqichi bir qator tayyorgarlik ishlarini ko'rishni talab etadi: tadqiqot uchun zarur bo'lgan materiallarni izlash, ularni tekshirish metodikasini tanlash, tegishli ilmiy texnika vositalari va asboblarni tayyorlash, identifikatsiyaning protsessual shakllarini aniqlash, taqdim etilgan tadqiqot materiallari miqdori va sifatiga baho berish, ularning tadqiqot o'tkazish uchun qanchalik yaroqliligini belgilash.

Qidirilayotgan va qidirishga yordam beruvchi obyektlarning xossalarini **alohida-alohida tadqiq etganda**, masalan, hodisa sodir bo'lgan joydan olingan iz, uni qoldirgan predmet yoki maxsus tayyorlangan iz, soxta qo'lyozma, dastxat namunasi va boshqalar topilishi mumkin. Alohida-alohida tadqiqot qilinganda ularning barcha belgilari o'rganiladi. Masalan, xatning matni dastlab shoshilmay yozilganligi, ammo keyin shoshib yozilgan qismi aniqlanadi, bunda dastxat sun'iy ravishda o'zgartirilgan, degan xulosa chiqarish ham mumkin.

Obyektlarning **qiyosiy tadqiqi bosqichida** ularga xos belgilarning o'zaro farqi va mos tushishi aniqlab olinadi. Qiyosiy obyektlar mohiyatidan kelib chiqib, qiyoslashning u yoki bu texnik usullari tanlab olinadi, o'lchov, optik vositalar yordamida obyektivlik, aniqlik va to'la-to'kislikka erishiladi.

E'tibor qiling! O'z-o'zidan ma'lumki, qat'iy va taxminiy xulosalar o'rtasida katta farq bor. Birinchisi, qat'iy tasdiqni anglatadi, masalan, jasaddan olingan o'q mazkur quroldan otilgan. Ikkinchi holda izlar aniq va to'la ifodalanmagani sababli ularni tadqiq etishda katta qiyinchiliklar tug'ilsa, belgilar mosligi yoki farqi haqida ekspert taxminiy xulosa chiqaradi: mazkur matn fuqaro Ivanov tomonidan yozilgan bo'lishi ehtimol.

Taxminiy xulosa faktni aniq emas, balki taxminiy baholaydi. Shu bois ekspertning bunday xulosasini tergovchi va sud ayblov uchun asos qilib olmasligi lozim. Taxminiy xulosani boshqa dalillar yordamida sinchkovlik bilan tekshirish kerak. Odatda, ekspertning taxminiy xulosasi tergovchi uchun u yoki bu tushmolni olg'a surish imkoniyatini beradi, qo'shimcha dalillar izlashda yangi qulayliklar yaratadi.

Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayonining oxirgi bosqichi uning **natijalarini baholash** hisoblanadi. O'xshashlik bor yoki yo'qligi haqida

oxirgi xulosani chiqarish uchun qo'lga kiritilgan barcha tadqiqot materiallarini taqqoslab ko'rish, alohida-alohida analiz qilinganda obyektlar holatiga va alohida belgilariga umumiy baho berish, ba'zi belgilarning mos kelish darajasi, ularning ahamiyati, mos keladigan va kelmaydigan belgilarning o'zaro aloqalari va h.k. Amaliyotda taqqoslanayotgan obyektlarning qiyosiy belgilari kamdan kam mos keladi. Ko'pgina muhim belgilari mos kelgan holda ham, ayrim detallari tasodifiy vaziyatlar tufayli mos kelmay qoladi. Identifikatsiyaviy tadqiqot jarayonida ekspert izlarda aniq va to'la-to'kis tasvirlangan belgilarni yetarli miqdorda aniqlab, o'xshashlik bor-yo'qligi to'g'risida ishonch hosil qilgan bo'lsa, bu haqida qat'iy xulosa chiqaradi.

Ba'zi bir holatlarda ekspertlar qo'yilgan savollarga aniq javob bera olmay, uni hal qilish imkoniyati bo'lmadi, deb xabar qiladi. Ekspertning bunday javobini ekspertiza o'tkazishga yetarlicha tayyorgarlik ko'rilmaganligi, savollar noto'g'ri qo'yilganligi, topilgan izda individual belgilar yetarli ifoda topmaganligi, u yoki bu masalani hal qilish uchun ilmiy asoslar yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Bunday hollarda tergovchi yuqoridagi to'siqlarni bartaraf etishi yoxud ish yuzasidan chiqqan muammolarni boshqa tergov harakatlari yordamida hal qilishi lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tergovchi identifikatsiyaning eng faol subyekt bo'lib, o'zi ham mazkur vazifani mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega.

E'tibor qiling! Tergovchining identifikatsiyaviy harakatlari deganda shunday tergov harakatlari tushuniladiki, u o'z mazmuniga ko'ra obyektning qiyosiy tadqiqoti asosida o'xshashlik yoki aynanlik mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida yakun chiqarishga qaratilgan faoliyatni amalga oshira oladi.

Tanib olish bilan tergov identifikatsiyasi o'tkazish tergovchidan identifikatsiya nazariyasi talablariga rioya qilishni talab etadi. Tergovchi o'zi mustaqil identifikatsiya harakatlari o'tkazishdan tashqari ko'p hollarda identifikatsiya vazifalarini turli ixtisosdagi ekspert-kriminalistlarga topshiradi. Bu identifikatsiya tadqiqotini o'tkazish uchun fan, texnika, san'at va hunarmandchilik sohasida maxsus bilimlar talab qilingan holatlarda amalga oshiriladi.

Kriminalistik ekspertiza tayinlashga tergovchi boshqa protsessual harakatlar kabi jiddiy tayyorlanishi kerak.

JPKning 125-moddasi ish bo'yicha so'roq qilinganlarga tanib olish uchun shaxsni va predmetni ko'rsatishni nazarda tutadi. Uni amalga oshirish uchun tergovchi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

– tanib olish uchun ko'rsatiladigan obyekt to'g'risida identifikatsiyaviy axborotni yig'ish, identifikatsiya qilinadigan obyektни izlash; bir qancha obyektlar orasida tanib olish uchun ko'rsatilishi lozim bo'lganlarni aniqlab olish;

– tanib olish uchun hujjatlarni va fotosuratlarini tayyorlash;

– tanib olishga imkon beruvchi usul va vositalarni aniqlash, jumladan, ovoz va funksional belgilari asosida tanish uchun imkoniyatlar yaratish;

– tanish natijalarini baholash, to'g'riligini va o'ziga xos tomonlarini tekshirish;

– o'xshashlikning mavjudligi va mavjud emasligi to'g'risida xulosaga asos bo'ladigan identifikatsiyaviy belgilar tasviri bilan tanib olishi uchun sharoitlarni hozirlash.

Ekspertizaning muvaffaqiyati ekspert xulosasining dalillik ahamiyati unga taqdim qilingan materiallar qanchalik yaxshi tanlanganligiga va ekspertning malakasiga bog'liq.

Ma'lumot uchun! Identifikatsiyaviy ekspertiza uchun materiallar tayyorlashga bir qancha talablar qo'yiladi: ekspertiza tayinlashning protsessual asoslanganligi; ekspertiza o'tkazish qanchalik zarurligi va ekspertga topshiriladigan haqiqiy vaziyat naqadar aniqligi; tadqiq qilinadigan obyektlarning kelib chiqishiga oid ma'lumotlar to'g'riligi.

Kriminalistik identifikatsiyaviy ekspertizani tayinlashning protsessual asoslanganligi jinoiy-protsessual qonun talablaridan kelib chiqadi. U faqat jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruvchi tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan tayinlanishi mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa-da, ekspertiza tayinlash qonunga ko'ra mumkin (JPK 329-modda). Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorda tergovchi qanday ekspertiza o'tkazish kerakligini ko'rsatadi: dastxatshunoslik, daktiloskopik, ballistik ekspertizalar shular jumlasiga kiradi. Agar bunga zarurat tug'ilgan bo'lsa va barcha kerakli materiallar yig'ilgan bo'lsa, o'z vaqtida ekspertiza tayinlanishi, bu haqida tegishli qaror qabul qilinishi lozim.

Ekspertga berilgan savollar aniq, ekspertiza predmetiga tegishli bo'lishi, ishdagi ma'lumotlar va ekspertiza tayinlash bilan bog'liq shart-sharoitlar to'g'risida ekspertga yetarli axborot berish kerak. Noto'g'ri

axborot ekspert xulosasining shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Tergovchi taqdim qilingan namunalarning sifati uchun javob beradi, shu sababli u materiallarni sinchiklab o'rgangan holda tayyorlashi zarur. Ashyoviy dalillar bo'yicha ekspert tadqiqoti – o'xshashlik mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida dalillarga erishish maqsadida moddiy qayd qilingan izlar-tasvirlar, odamlar va buyumlarni qiyoslash, o'xshashlik yoki aynanlikni aniqlashning asosiy va eng ishonchli usulidir.

Tekshirilayotgan obyektlarni individuallashtirish jarayonida avval qidirilayotgan va tekshirilayotgan obyektning guruhga xos belgilari aniqlanadi, so'ngra ularning individual belgilari o'rganiladi.

Identifikatsiya jarayonida ekspert obyektlarni sinchiklab tadqiq qiladi, sudlov-tadqiqot fotografiyasining turli usullarini, fizik va kimyoviy metodlarini qo'llaydi.

Bundan tashqari, obyektlarni alohida-alohida tadqiq qilganda belgilangan identifikatsiya aloqalarini to'la va har tomonlama o'rganish maqsadida izlarni ko'pincha eksperimental tayyorlash zarur bo'ladi. Masalan, qiyosiy mikroskop yordamida o'qotar qurolning o'qi va gilzasi bo'yicha identifikatsiya qilishda ekspert quroldan eksperimental otib ko'rish vositasida identifikatsiya belgilarini o'rganishga kirishiladi.

Qiyosiy tadqiqot-expert identifikatsiyaning hal qiluvchi bosqichidir. Bu bosqichda ekspert obyektlarni qiyoslashning uchta asosiy usulidan foydalanadi: taqqoslash, ustma-ust qo'yish va belgilarni birga qo'shish. Tasvirlarni taqqoslash usuli o'zining soddaligi va qulayligi bilan keng tarqalgan bo'lib, kriminalistik identifikatsiyaning barcha turlarida qo'llaniladi. U taqqoslanayotgan tasvirni bir-biriga yaqin qo'yib yagona ko'rinish maydonini paydo qiladi. Bunda taqqoslanayotgan tasvir imkon boricha oydinlashtiriladi va kattalashtiriladi. Taqqoslashga eng yaxshi sharoitlar yaratish maqsadida qiyosiy mikroskop qo'llash mumkin.

Ustma-ust qo'yish usuli taqqoslanayotgan tiniq tasvirni boshqasini ustiga qo'yib, belgilari to'g'ri kelsa, yagona tasvir hosil qilishga yordam beradi. Agar taqqoslanadigan tasvir tiniq bo'lmasa, masalan, karton qog'ozga tushirilgan bo'lsa, ulardan diopozitiv tayyorlanadi yoki maxsus optik asboblardan ham foydalanish mumkin.

Belgilarni qo'shish usulida taqqoslanganda tasvir shunday joylashtiriladiki, bunda tasvirdagi biror belgi mos kelib qolganda tabiiy ravishda boshqasining davomi ko'zga tashlanadi.

Bir-biriga yondosh qo'yilgan tasvirlar taqqoslanayotgan tasvirning tarkib topish mexanizmidan ancha farqli bo'lsa-da, kattalashtirib foydalanish imkoniyatini beradi. Kesilish, ishqalanish va boshqa usulda

hosil bo'lgan murakkab izlarni taqqoslashda bu usul muhim ahamiyat kasb etadi. Tasvirni qiyoslash maqsadida har xil optik asboblarni, asosan, turli mikroskoplarni qo'llash mumkin.

Fotosuratlar bo'yicha tasvirlarni bir-biriga qo'shib aniqlash keng yoyilgan. Shu maqsadda suratlar shunday qirqilsinki, kesishgan chiziq tasvirning xarakterli tomonlarini ko'proq qamrab olsin. Nomi keltirilgan qiyosiy tadqiqotning har bir turi qiyoslashning xususiy usulidir. Alohida-alohida va qiyosiy tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar majmuiga baho berish, ya'ni qidirilayotgan obyektlar o'xshashligi yoki farqli ekani to'g'risida ekspert xulosasi – ekspert identifikatsiya jarayonining oxirgi bosqichini tashkil etadi.

Qiyosiy tadqiqot natijalarini baholash avvalgi bosqichlarda o'tkazilgan tadqiqot jarayonining mantiqiy davomi desa bo'ladi.

Obyektlarni ko'zdan kechirishdayoq shakllangan tasmollardan biri sifatida o'xshashlik yoxud farq to'g'risida fikr yuritish, identifikatsiya belgilarini qiyoslash bosqichida mustahkamlanadi, identifikatsiya tugashi bilan esa uzil-kesil hal etiladi. Masalan, ekspert barmoq izi bo'yicha shaxsni topishda barmoq izlari belgilarini ko'zdan kechirib, taqqoslashni boshlaydi, izdagi mavjud barcha aniq ifodalangan va o'zaro bog'liq tomonlarni belgilab oladi.

Guruhga ajratilgan barmoq izlari yoki ularning kelib tutashgan joyi o'xshash ekani to'g'risida xulosa chiqarish uchun ekspert qiyosiy tadqiqot o'tkazadi. Belgilar kompleksining ko'pchiligi to'g'ri kelgan bir vaziyatda ba'zi farqlar chiqib qolganda ish ancha murakkablashadi. Bunday holda ekspert tadqiqotning avvalgi bosqichlariga murojaat qilib qiyoslanayotgan obyektning har biriga xos identifikatsiyaviy belgilarni to'la tahlil etadi. Buning natijasida ilgari kuzatilmagan belgilar kelib chiqishi mumkin.

Ma'lumot uchun! Taqqoslanayotgan obyektни fotosuratga olish va qiyoslashni yengillashtiradigan qo'shimcha ishlov berish mumkin (qiyosiy to'ra, geometrik shakl, chiziq va h.k.). Bunday ishlovlarning ahamiyati shundaki, ular ba'zi belgilar o'rtasidagi nisbatni bilish, guruhga xos tomonlarini taqqoslab ko'rish va shunday qilib yangi belgilarni kashf qilish imkonini beradi.

Ba'zi hollarda qiyoslangan natijalarga baho berish bosqichida identifikatsiyalanadigan va identifikatsiyalaydigan obyektlar belgilarini yana taqqoslab va qiyoslab qo'shimcha eksperimentlar o'tkazishga to'g'ri keladi. Dastlab qiyosiy tadqiqotdagi farqlar aniqlanib, unga baho beriladi. Bunday baholashning asosiy vazifasi bo'lib o'tgan hodisaga aniqlik kiritish, ya'ni aynan o'sha obyektning o'zidagi o'zgarishlar sababli ikki obyekt dagi farqlar yuz bermadimi degan savolga javob olishdan iborat.

Xossalarning tasviri bir xil bo'lmaganligi bilan bog'liq belgilardagi farq bilan qiyoslanayotgan obyekt xossalari mavjud bo'lgan farqni aralashtirmaslik kerak. Qiyoslanayotgan dastxat belgilaridagi farq imzolashning bir xil sharoitda bajarilmaganligi; qurol izlaridagi farq ularning vujudga kelish mexanizmi bir xil bo'lmaganligi, fotosuratdagi farq suratga olish sharoitlari bir xil bo'lmaganligi sababli yuz bergan bo'lishi mumkin.

Bunday farqlarni qiyoslanayotgan obyektlarning o'z xossalari bilan farq bilan aralashtirmaslik kerak. Agar aynan qiyoslanayotgan obyekt xossalari farq sezilsa, qidirilayotgan obyekt o'tgan ancha uzoq davr ichida o'zgarganidan darak berishi mumkin. Masalan, yozuv mashinkasi foydalanish jarayonida shikastlangan, oyoq kiyim tagcharmi kiyib yurish jarayonida yoki ta'mirlashdan keyin o'zgargan bo'lishi ehtimol. Odam qariganda, jarohat olganda, kasallanganda yoki operatsiya natijasida tashqi ko'rinishi o'zgaradi. Obyektning o'zgarishi identifikatsiyadan qochish maqsadida manfaatdor shaxs tomonidan ataylab qilingan bo'lishi mumkin.

E'tibor qiling! Topilgan farqni to'g'ri baholay olish uchun o'rganilayotgan predmetdan foydalanish, ta'mirlash, saqlash, tozalash rejimini, tekshirilayotgan shaxsning yoshi, patologik va boshqa o'zgarishlarini o'rganish talab etiladi.

Agar topilgan farq obyekt o'zgargani oqibatida yuz bermagan bo'lsa, binobarin, qidirilayotgan va tekshirilayotgan obyekt xossalari bir-biriga to'g'ri kelmasa, o'xshashlik to'g'risidagi masala inkor etiladi. To'g'ri kelmaslik qiyoslanayotgan obyekt xossalarining guruhli farqlariga ham taalluqli. Qidirilayotgan oyoq kiyimi va qo'lga olingan shaxsning oyoq kiyimi razmeridagi katta farq; shikast yetkazishda foydalangan va tintuv vaqtida topilgan turli ko'rinishdagi tig'li buyum (masalan, bolta, xanjar) ham shular jumlasiga kiradi.

Ekspert belgilangan hodisalarning jamini baholar ekan, ular individualmi yoki o'xshashmi degan savolga javob beradi. Agar mos kelish yig'indisi uning turli obyektlardagi takrorlanish imkoniyatini inkor etmasa, bunda obyektlar o'xshash yoki bir turdagi hodisa sifatida talqin etiladi. Agar mos kelish yig'indisi individual bo'lsa, turli obyektlarda takrorlanmasa, qidirilayotgan va tekshirilayotgan obyekt aynan o'sha deb qabul qilinadi. Mos kelish individual majmuini baholashda identifikatsiya tadqiqoti va identifikatsiya xossalari va ularni qo'shib takrorlash soni ustidan ekspert kuzatuv katta ahamiyatga ega. Farqlar va mos kelishlarning natijalarini taqqoslash asosida obyektlar o'xshashligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

Kriminalistik diagnostika

Biror obyekt qidirilayotgan narsa, hujjat yoxud shaxsning aynan o'zi ekanligi aniqlanmasa, tekshirilayotgan obyektlar jinoyatga aloqador bo'lishi mumkinligi, qidirilayotgan obyektga o'xshashligi to'g'risida xulosaga kelinadi. Bu holda guruh o'xshashligi aniqlanadi va shu guruhga kiradigan obyektlar orasidan jinoyatga aloqadorini aniqlash vazifasi kelib chiqadi. Guruhga mansub obyektlar o'z xususiyatlari bilan biri jinoyatga juda aloqador, ikkinchisining bunday aloqasi aslo yo'q ekanligi obyektни qidirishga katta yordam beradi. Masalan, ish bo'yicha barcha avtotransport vositalari emas, balki aniq rusumga mansub bo'lgan, oq rangli, bamferining chap tomoni shikastlangan, chirog'i singani qidirilishi kerakligi vazifani ancha yengillashtiradi. Ana shu shikastlangan avtomashinani boshqa shu guruhdagilaridan farqlash kriminalistik diagnostika ta'limotiga oiddir.

E'tibor qiling! "Diagnostika" so'zi yunoncha bo'lib, "farqlash", "aniqlash" degan ma'noni anglatadi. Kriminalistikada diagnostika tekshirilayotgan holatni odatiy holat bilan o'xshashligini aniqlashdan tashqari farqlash, ya'ni shu holatni unga o'xshash holatlardan ajratish, differentsiyalashtirish tushuniladi.

Kriminalistik diagnostikaning umumiy vazifasi obyektiv haqiqatni obyektning xususiyatlari va holatlarini o'rganish orqali aniqlashdir. Binobarin, diagnostika zamirida umumiy voqealar va ularning natijalari bo'yicha tanib olish jarayoni yotadi.

Diagnostika murakkab sud-isbotlov tizimining usullaridan biri sifatida haqiqatni aniqlash umumiy qonun-qoidalariga to'laligicha mos keladi.

Bayon etilganlarni inobatga olgan holda kriminalistik diagnostikani obyektning (vaziyatning) xususiyatlari va holatlarini unda yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida tekshirish, ushbu o'zgarishlarning sababini va sodir etilgan jinoyat bilan uning aloqasini aniqlash deb ta'riflash mumkin.

Kriminalistik diagnostikaning ilmiy asoslarini yaratish uchun alohida obyektlarning va butun bir jinoiy vaziyatlarning xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi katta hajmdagi ko'p uchraydigan belgilarni tahlil qilish va ularni bir tizimga solishga to'g'ri keladi. Bulardan kelib chiqqan qonuniyliklardan foydalaniladi.

Kriminalist-trasolog izlar klassifikatsiyasiga asoslanib, hodisa ro'y bergan joyda izlarning paydo bo'lish sharoitlarini aniqlash bo'yicha diagnostik vazifani yechadi: avval har bir izni alohida, so'ngra bir turdagi

izlar guruhini, undan so'ng har xil izlar guruhini va ularning birikmasi tahliliga asoslanib butun bir vaziyatni diagnostika qilishga o'tadi.

Identifikatsiyada obyektning belgilari bir-biriga mos kelganda qidirilayotgan obyekt deb e'tirof etish uchun izda aks ettirilgan belgilar bilan solishtiriladi. Diagnostikaning maqsadi ma'lum, lekin yagona bo'lmagan belgilarni aniqlashdir. Bu yerda qiyosiy usul aks ettirilgan tasvirlar orqali o'rganilayotgan obyektning takrorlanuvchi belgilari bilan solishtirish uchun ishlatiladi. Har qanday diagnostikaning (tibbiy, texnik yoki kriminalistik) asosi o'xshashlik bilan taqqoslashdir. O'xshashliklari orqali taqqoslash usuli yordamida ehtimollik darajasi, o'xshashlik alomatlari soni va ularning muhimligiga bog'liq bo'lgan xulosaga kelish mumkin.

Kriminalistik diagnostika nazariyasida obyektlar o'z navbatida **diagnostikalashtiriluvchi** va **diagnostikalashtiruvchi**, **izlanayotgan** va **o'rganilayotganga** ajratiladi. Diagnostikalashtiriluvchi - bu obyektning holati, xususiyatlari, hodisa mexanizmidir. Diagnostikalashtiruvchi esa holat, xususiyat, mexanizmni moddiy aks ettiruvchi izlar, alomatlardir.

Ko'pincha, diagnostikalashtiriluvchi obyekt sifatida qandaydir aniq narsa, diagnostikalashtiruvchi sifatida esa turli xil ma'lumot: qolip, nusxa, tergov harakatlari bayonnomalaridagi tavsif, sxemalar, rejalar, ko'rsatuv foto-kino-videotasvirlar uchraydi. Aniq obyektning diagnostikalash, yuqorida keltirilgan ma'lumot bilan cheklanmay, alohida tergov harakatlari; tergov eksperimenti, hodisa yuz bergan joyni qayta ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazishni talab qiladi.

Ma'lumotning ishonchliligi va yetarliligiga baho berish juda muhimdir. U yetarli yoki ishonchli bo'lmasa, yana qanday manbalardan va qanday vositalar yordamida tekshirish, to'ldirish mumkinligini aniqlash lozim.

Obyektning bevosita xususiyatlari va holatini o'rganish, shu jumladan ma'lum bir andozaga mos keluvchi xususiyatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Obyektning asl holati qanday bo'lgan, hujjatning boshlang'ich matniga qanday o'zgarishlar kiritilgan; odam qo'lyozma yozayotganda qanday holatda bo'lgan; matnga kimyoviy ta'sir ko'rsatilganmi, yuvilganmi, kiyimdagi qon izlarining shakli va joylashishiga qarab ularning paydo bo'lish mexanizmini aniqlash mumkinmi; mazkur hujjat blankini tayyorlashda maxsus qoidalardan chetga chiqishlarga yo'l qo'yilganmi degan savollarga javob olish imkoniyati bor.

Kriminalistik diagnostikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) jinoyat sodir etilgan vaziyatni o'rganish (jinoyat qayerda, qanday vaziyatda sodir etilgan, mavjud izlarning qaysi biri jinoyatga aloqador);
- 2) hodisaning turli bosqichiga oid mexanizmni o'rganish (to'siqni huzib o'tishning xususiyati va yo'nalishi, transport vositalarining to'qnashuvdan oldin va hodisa paytida o'zaro joylashuvi, qalbaki pul belgilari tayyorlashning usullari va hokazo);
- 3) hodisa yuz bergan joydagi buyumlarning alohida belgilarini aniqlash (ularning holati va xususiyatlari, jinoyat qurolini tanlashga, jinoyatchi va uning kiyimida iz qoldirishga, jinoyatni yashirishga aloqadorlik);
- 4) jinoiy hodisaning vaqtga oid xususiyatlarini o'rganish (qachon yuz bergan, uni amalga oshirish uchun qancha vaqt ketgan bo'lishi mumkin, qaysi izlar avval, qaysilari keyinroq paydo bo'lgan va hokazo);
- 5) harakatda bo'lgan obyektlarning miqdori va xususiyatlarini aniqlash (jinoyat ishtirokchilari nechta bo'lgan; qulfnı ochgan shahs professional mahoratga ega bo'lganmi, o'q otish quroli yoki portlovchi moddalarnı tayyorlashda qanday moslamalar ishlatilgan va hokazo);
- 6) sababli bog'lanishni o'rganish (ma'lum bir xatti-harakatlar va kelib chiqqan natija o'rtasida sababli aloqalar bormi, yong'inning sababi, tepkini bosmay yuz bergan o'q otılıshining sababi nima va hokazo).

Harakat vaqtini, ketma-ketligini aniqlash, hodisa joyidagi izlarga ko'ra jinoyatchi qanday harakat qilgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tergovchi alohida izlarnı aniqlash va ularni paydo bo'lish sabablarini tushuntirishdan (sabablari va o'zaro aloqalari) bir xil izlar guruhini o'rganishga o'tadi va so'ngra ularning alomatları asosida jinoyat hodisasi haqida muayyan bir taxminni olg'a suradi. Bu taxminni asoslashda kriminalistik diagnostika paytida aniqlangan sabab-natija aloqalari muhim ahamiyatga ega.

Kriminalistik diagnostikaning elementlari boshqa tergov harakatlarini o'tkazganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Tergovchining tintuv qilinayotgan, so'roq qilinayotgan shaxsning xulq-atvori, so'roq paytidagi reaksiyalari ustidan kuzatuvı diagnoz sxemasi bo'yicha amalga oshirilishi kerak: belgilar tahlili, taxmin qilish, uni tekshirish ijobiy rol o'ynaydi.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistik identifikatsiya mazmun-mohiyatini tushuntirib bering. U qanday vazifalarnı hal qilish maqsadida qo'llaniladi va qanday shakllari mavjud?

2. Kriminalistik diagnostikaning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering, u identifikatsiyadan nimasi bilan farq qiladi?

Kazuslar:

1-kazus

2013-yil 5-fevral kuni Chilonzor tumani Shox ko'chasi 5-uy 3-xonadonda bosqinchilik jinoyati sodir etilgan. Bosqinchilik jinoyati natijasida hodisa joyidan qonga o'xshash qizil dog'lar, jabrlanuvchini qo'rqitish uchun otilgan o'q va gilza hamda soch tolalari topilgan.

Tergovchi ushbu obyektlarni identifikatsiya qilish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak?

Yuqoridagi holatga kriminalistik jihatdan baho bering, bunda tergovchi qanday tergov harakatlarini amalga oshirishi kerak? Ularni amalga oshirish taktikasi va qo'llaniladigan kriminalistik texnik vositalarni bayon qiling.

2-kazus

Hodisa joyida o'qotar qurol yordamida otib o'ldirilgan bir nechta jabrlanuvchilar murdasi topildi. Tekshiruvlar natijasida ushbu murdalarning har biri bitta o'qotar qurol yordamida otib o'ldirilgani aniqlandi.

Surishtiruv jarayonida o'qotar qurolning egasi aniqlandi va u ushlab keltirildi. Biroq quroldagi izlar qurol egasiga ham, murdalarga ham taalluqli emas. Aytingchi, mazkur holatda haqiqatni aniqlash uchun tergovchi qanday tergov taktikasidan foydalanadi?

Mazkur holat bo'yicha tayinlanadigan ekspertizalar va ular hal qiladigan vazifalarni aniqlang.

O'qotar qurolni identifikatsiya qilish tartibini tushuntiring?

O'qotar qurolni diagnostika qilishda qanday masalalar hal etiladi?

II BO'LIM. KRIMINALISTIK TEXNIKA

4-MAVZU. KRIMINALISTIK TEXNIKANING ASOSLARI

Kriminalistik texnika tushunchasi va uning vazifalari. Kriminalistik texnika tekshiruv vositalari va uslublari. Kriminalistik texnikaning tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qo'llanilishi.

Kriminalistik texnika tushunchasi va uning vazifalari

Kriminalistik texnika fanning bir bo'limi bo'lib, jinoyatlarni tergov qilish jarayonida dalillarni topish, mustahkamlash, ko'chirib olish va tadqiq etishda qo'llanadigan maxsus asbob-uskunalar, texnik vositalar haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimi hisoblanadi. Shu bilan birga, kriminalistik texnika dalillarni topish, ularni tekshirish jarayonida qo'llanadigan amaliy bilimdir.

Kriminalistik texnika bo'limi jamiyatning ilmiy va texnik rivojini ta'minlaydigan tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo va boshqalar) yangi texnika-texnologiya vositalari (kompyuter texnologiyasi, informatika kabilar) yutuqlari kriminalistik faoliyatda, ayniqsa, jinoyatni tergov qilishda va oldini olishda keng qo'llaniladi.

Texnik vositalar deganda faqat asbob-anjomlar (yorituvchi, o'lchovchi va b.) emas, balki texnik qurilmalarni, maxsus kriminalistik faoliyatda qo'llaniladigan mikroskoplar, nurlarni va ranglarni ajratuvchi spektrografer, ovoz yozish, tasvir yozish va boshqalar nazarda tutiladi.

E'tibor qiling! Kriminalistik texnika bo'limiga tergov jarayonida zarur bo'lgan informatik ma'lumotlar: izlarni topish va tekshirish, otish quollarini identifikatsiya qilish, turli ma'lumotlarning manbayi bo'lgan hujjatlarni tadqiq etish masalalaridan iborat. Mazkur bo'lim tizimiga, shuningdek odamlarning tashqi qiyofa belgilari asosida identifikatsiya qilish va kriminalistik ro'yxat ma'lumotlarini qo'llashning maxsus qoidalari ham kiradi. Kriminalistik texnika tizimida turli obyektlarni, izlarni tadqiq etishda qo'llanadigan uslublar ham muhim ahamiyatga ega.

Kriminalistik texnikaning vazifasi sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlarni qidirish, topish, tadqiq etish va aniqlashdan iboratdir.

Jinoyat esa, tekshirilayotgan voqea holatining moddiy xossalarida o'z aksini topadi.

E'tibor qiling! Kriminalistik texnika deganda jinoyatni aniqlash, ochish va uning oldini olish uchun foydalaniladigan turli texnika qurilmalari, uskunalar, apparatlar, asboblari, buyumlar va moslamalarni tushunish kerak.

Kriminalistik texnikada O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining ilg'or tergov tajribasi, shuningdek, kimyo, biologiya, fizika va boshqa fanlardan foydalaniladi. Kriminalistik texnika jinoyatchilikka qarshi kurashda yuqorida ko'rsatilgan fanlarning ayrim yutuqlarini tergovni olib borish vazifalariga moslaydi, ijodiy boyitadi va muayyan maqsadda qo'llaydi. Shuningdek, kriminalistikaning o'z negizida maxsus yo'l-yo'riqlari, uslublari va kriminalistikada, bir tomondan tabiiy va texnika fanlari, boshqa tomondan jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish uchun yaratilgan uslublar tizimi jamlangan.

Kriminalistik texnikaning mohiyati jinoyat voqeasi bilan bog'liq bo'lgan moddiy vaziyatni aniqlash, o'rganish, qayd etish, texnik vositalar, yo'llar va uslubdan foydalanish, ularni tadqiq qilish, shuningdek texnik-kriminalistik jihatdan tavsiflash kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qidirish, identifikatsiyalash uslublarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iboratdir.

Jinoyatchini topish va keyinchalik o'rganishda voqea yuz bergan joyda, jabrlangan odamning tanasida, kiyim-kechagida qoladigan moddiy izlarning ahamiyati kattadir. Kriminalistik texnika har qanday iz va ashyoviy dalillarni topish, saqlab qolish, qayd etish, olish va tadqiq etish vositalari, yo'l-yo'riqlari va uslublarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Har qanday jinoyat ham aniq vaziyatda, muayyan makon hamda vaqtda sodir etiladi. Bundan kelib chiqadiki, kriminalistik texnikaning vazifasi aniq obyektlar va hodisalarni aniqlash imkoniyatini beradigan ilg'or uslublarni yaratishdan iboratdir.

Tezkor-qidiruv faoliyatida haqiqiy ma'lumotlarni aniqlash uchun texnika vositasi bo'lishi lozim. Ulardan olingan ma'lumotlar jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlashda kerak.

Uslubiyat tor ma'noda muayyan vazifalarni hal etish uchun qo'llanadigan bir necha uslublar jamlamasini bildiradi. Masalan, qalbaki

Esda tuting! Kriminalistik texnika tizimi:

- 1) kriminalistik fotografiya va videotasvirga olish;
- 2) umumiy texnika asoslari;
- 3) kriminalistik trasologiya (izshunoslik);
- 4) hujjatlarni tekshirish (hujjatshunoslik);
- 5) kriminalistik ballistika (o'q otish qurollarini tekshirish);
- 6) kriminalistik bitosnusha (odamlarning tashqi tuzilishi, portretshunoslik).

belgilarni aniqlash uchun hujjatlarni kriminalistik tadqiq etish, mikrosnusxa, ranglarni farqlash, ultrabinafsha nurlarida tahlil o'tkazish zarur.

Kriminalistik texnika vositalari jinoyatlarning oldini olishga, voqea sodir bo'lgan joydagi vaziyatni aniq ifodalashga, tergov harakatlarini o'tkazish va natijalarini qayd etishga, ashyoviy dalillarni to'plash, ko'zdan kechirish va tadqiq qilishga qaratilgan.

E'tibor qiling! Kriminalistik texnika vositalarini qo'llash taktikasi deyilganda tergov oldiga qo'yilgan masalalarni hal etishga erishish maqsadida ayrim tergov harakatlarini o'tkazish vaqtida ana shu vositalardan oqilona va samarali foydalanish tushuniladi.

Kriminalistik texnika vositalari va uslublari tergov, tezkor-qidiruv, ekspertiza va sud amaliyoti ehtiyojlariga asoslanib ishlab chiqiladi.

Kriminalistik texnika vositalari guruhlari

Birinchi guruhga jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishda foydalaniladigan fotografiya, video va ovoz yozish, kinoga olish vositalari, biologiya mikroskoplari va boshqa optik asboblari, avtomobil va aviatsiya transporti, telefon, telegraf, fototelegraf, radio, tahlil qilish qurilmalari, kompyuter kabi umumiy texnika vositalari kiradi.

Ikkinchi guruhga esa fan hamda texnikaning turli tarmoqlaridan olinib, kriminalistika maqsadlari uchun moslashtirilgan texnika vositalaridan tashkil topgan. Ularga ultrabinafsha va infraqizil nurlardan foydalanishda ishlatiladigan turli yoritgichlar, qidiruv vositalari, ko'chma kriminalistik laboratoriya kiradi.

Kriminalistik maqsadlar uchun maxsus tayyorlangan texnika vositalari uchinchi guruhni tashkil etadi. Ularga qidirilayotgan shaxsning tashqi qiyo fasini modellashtiruvchi texnika vositalari, papilyar naqshlar, o'qlar, gilzalar va boshqa obyektlarni o'rganadigan optik asboblari, qidiruv asboblari va materiallari kiradi.

Kriminalistik texnika vositalari turli-tuman bo'ladi. Ular orasida birinchi navbatda obyektlarni yoritadigan asboblarning zaruridir.

Esda tuting! Kriminalistik texnika vositasi va uslublarni qo'llash shakllari:

- 1) protsessual shakllar: tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov harakatlari va kriminalistik ekspertiza o'tkazish.
- 2) noprotsessual shakllar: kriminalistik ro'yxatdan tekshirish; kriminalistik mutaxassisning dastlabki tekshiruv-kuzatuv; mutaxassis maslahatini olish; pasport-viza ishlarini yurgizish va b.

E'tibor qiling! Kriminalistika maqsadlarida foydalaniladigan yoritgich apparaturasi uch turi mavjud: 1) umumiy yorug'lik beruvchi; 2) muayyan yo'nalishni tutam nurlarda yorituvchi; 3) yorug'likning maxsus manbalaridan iborat turlari.

Ma'lumot uchun! Yorug'likning maxsus manbalari jumlasiga turli nusxadagi ultrabinafsha yoritgichlar: "UH-I", "ultrayoritgich", mo'jaz ultrabinafsha yoritgich, luminoskoplar, ko'k rangdagi nurlarga mo'ljallangan asboblarning, elektron-optika o'zgartirish moslamasi va boshqalar kiradi. Mazkur asboblarning ko'rish qiyin bo'lgan yoki ko'rinmaydigan biologik (qon, sperma, so'lak, siydik, ter, sut va shu kabilarning) izlarni; maxsus kimyoviy moddalarning yonilg'i moylash materiallari, yelimplarni; otilgan o'qning izlari va shu kabilarni topish imkoniyatini beradi.

Eng ko'p tarqalgan sun'iy yorug'lik manbalariga turli xil qizdirish lampalarini misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, maishiy turmush va san'at sohasida foydalanadigan yoritish vositalari, kuchli yoritgichlar, elektryoritgichlar va galogen lampalaridan ham foydalaniladi.

Ultrabinafsha va ko'k nurlarning samarasi shundan iboratki, ularning ta'siri ostida yuqorida sanab o'tilgan obyektlarning o'zi luminissensiyalana boshlaydi. Luminissensiya hodisasini yanada yaxshiroq qabul qilish uchun asboblardan foydalanish mo'ljallanayotgan binoni qorong'ilashtirish lozim.

Optika asboblari ashyoviy dalillar yoki izlarning ayrim detallari o'z hajmiga ko'ra juda kichik bo'lsa va ularni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmasa, ularning ko'rinishini kattalashtirib topish va ko'zdan kechirish uchun talab qilinadi. Lupa tasvirni bevosita kattalashtirib beruvchi optik

asbob hisoblanadi. Kattalashtirish unchalik ko'p bo'lmagan (2-3 marta) lupalar ikkiyoqlama qabariq musbat linzadan iborat bo'lib, fokus oralig'i 10 mmdan 100 mmgachani tashkil etadi. Necha marta yiriklashtirilishiga qarab, lupaning kattalashtirish darajasi belgilanadi. Ashyoviy dalillar bilan ishlashda odatda yetti barobargacha kattalashtirib beradigan linzalardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda kriminalistika amaliyotida izlar va boshqa mayda obyektlarni topish uchun o'rnatiladigan lupalar, o'lchov lupalari, binokulyar, daktiloskopik lupalar, yorituvchi lupalar, zarra lupalari qo'llaniladi.

Mikroobyektlarni qidirish va topish uchun yoritiladigan o'rnatiladigan lupa juda qulaydir. Bunday lupa gardishiga o'rnatilgan asosiy linza (3-6 marta kattalashtiradigan diametri 130 mm) va qo'shimcha linzadan iborat optika tizimini tashkil etadi. Qo'shimcha linza 4 marta kattalashtirishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. U olib qo'yiladigan tayanch yordamida asosiy linzaning gardishiga mustahkamlanadi.

Lupaning asosiy linzasi o'rnatilgan gardish aylanasi bo'ylab joylashtirilgan yoritgich lampalar obyekt ko'rish maydonining bir tekis yoritilishini ta'minlaydi. Ular quvvatni o'zgaruvchan tok tarmog'idan pasaytiruvchi transformator orqali oladi.

Papillaryar nAQSHlarni tadqiq etish uchun daktiloskopik lupadan foydalaniladi. Uning gardishi suriladigan tarzda halqa asosiga mustahkamlab qo'yilgan metall shtativiga o'rnatilgan. Shtativ asosiga aylana shaklidagi oyna shisha o'rnatilgan bo'lib, uning diametri bo'ylab papillaryar nAQSHning muayyan uchastkasida (masalan, papillaryar nAQSHning markazi va deltasi o'rtasidan) papillaryar chiziqlarni sanashni yengillashtiruvchi ingichka chiziq o'tkazilgan.

Ma'lumot uchun! To'qimachilik gazlamalarini tadqiq qilish uchun 4 va 7 barobar kattalashtirib beradigan maxsus lupadan foydalaniladi. Bunday lupa o'rnatgichga ega bo'lib, uning asosi 1x1 yoki 2x2 santimetrli tuynukchalardan iborat. Taqqoslanayotgan gazlama namunalarining tola-iplari miqdorini hisoblab chiqishda cheklagich vazifasini bajaradi. Taqqoslama tadqiq etilganida 1 yoki 2 santimetrli iplarning miqdori hisoblab chiqiladi.

Hujjatlar, izlar va boshqa ashoviy dalillarni ko'zdan kechirishda ko'zoynaksifat binokulyar lupalardan foydalaniladi. Bunday lupa ikki linzadan yoki linzalarning ikki sistemasidan tashkil topadi. Ularning yordamida bir vaqtning o'zida ikkala ko'z bilan kuzatuv olib borish mumkin. Lupalar yordamida kattalashtirilgan hajmlar yetarli darajada bo'lmasa, ashoviy dalillarni tadqiq etish uchun mikroskop qo'llaniladi.

Hujjatlar, turli xil ashyoviy dalillar, o'qotar qurollar, soch tolalari, chang, kukun mikroskopda tadqiq etiladigan obyektlar hisoblanadi.

Mikroskop ashyo belgilarini bir necha yuz marta kattalashtirib kuzatish imkonini beradi.

E'tibor qiling! Mikroskopning asosiy qismlari: tubus, o'rnatgich, ashyo stolchasi, okulyar obyektiv, kondensor va oynadan iboratdir.

Mikroskop obyektivlari muayyan fokus masofasi qanchalik kam bo'lsa, kattalashish shunchalik ko'p bo'ladi. Obyektiv gardishida uning yorug'lik kuchi ko'rsatilgan bo'ladi.

Mikroskopda tadqiqot o'tkazilganda obyektning kuchli va bir tekis yoritilishi talab qilinadi. Mikroskop uchun yoritgich odatda yoritish manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Kriminalistika faoliyatida, xususan, tadqiqotlar o'tkazish vaqtida ko'pincha **qiyoslama mikroskoplar** qo'llaniladi. Bunday mikroskoplarning tuzilishi teng ikki qismga bo'lingan bir ko'rish maydonida bir vaqtning o'zida o'zaro qiyoslanadigan ikkita obyektни kuzatish mumkin. Kuzatilayotgan manzara ikkita obyektiv, ikkita aks ettiruvchi prizma, ajratuvchi prizma va okulyar hisobiga hosil bo'ladi.

Qiyoslama mikroskop yordamida ko'pincha o'q va gilzalardagi, boshqa trasologiya obyektlaridagi izlar tadqiq etiladi.

Bir qator ekspertiza muassasalarida boshqa turdagi mikroskoplar (MIS-6, MIM-70) ishlatiladi. Bunday mikroskop vertikal yo'nalishda yoritish uchun mo'ljallangan bo'lib, metall va qorishmalardan tayyorlangan buyumlarning kristallik strukturasi o'rganish, qalam va nusxa ko'chirish qog'ozini shtrixlarini differensiyalash, kesishgan shtrixlar qanday ketma-ketlikda tushganligini aniqlash imkonini beradi.

Ekspertiza muassasalarida elektron mikroskoplar mavjud bo'lib, bunday mikroskoplar shtrixlar, tolalar, biologik obyektlar (soch tolalari) kabi kriminalistik tadqiqot obyektlarining yuksak darajadagi yechimini bilish imkoniyatini beradi.

Elektron mikrosnusxaning difraksion uslubi moddalarning kristallik strukturasi o'ziga xos jihatlari tadqiq etish qalam, siyoh, bo'yoq, plastmassa moddalarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Teri naqshlari-izlarni aniqlash vositalari. Izlarni qidirib topish uchun dastlab optika (ko'rish) uslubidan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki bu uslub izlarga ham, o'zida iz qoldiruvchi buyumlarning sirtiga ham biror-bir ta'sir ko'rsatmaydi.

Buyumlarni (qiya nurlar bilan) yoritish uchun turli xil yoritgich asboblari qo'llaniladi (masalan, cho'ntakda olib yuriladigan elektr fonar va boshqa yoritgichlar).

O'zida iz qoldiruvchi obyektning rangiga qarab turli xil yorug'lik filtrlari, shu jumladan ultrabinafsha filtrlardan foydalanish mumkin. Ultrabinafsha nurlarining unda fayans va sopol buyumlardan qoldirilgan yog' izlari, qo'l izlarini xususiyati kuzatganda yaxshi natijalarga erishiladi. Teri naQSHlarini ko'z bilan ko'rishning iloji bo'lmagan hollarda ularni aniqlash uchun turli xil kukunlardan (mis oksidi, rux oksidi, grafit, qorakuya, vodorod bilan qayta tiklangan temir) yoki ularning aralashmalaridan (rux oksidi, aluminiy, rux-qo'rg'oshin oksidi) turli xil nurlatuvchi kukunlardan rux, yod bug'lari), fizik usullardan (yoki ter-yog' moddalarining elementlari bilan o'zaro ta'sirga kiruvchi azot kislotali kumushning suv aralashmasi) yoxud kimyoviy usullardan foydalaniladi.

Kukun surtish uchun yupqa daktiloskopik shakllar changlatuvchi sachratqichlar, yod naychalari-subimatorlar va magnit shkallaridan foydalaniladi.

Ma'lumot uchun! Elektron-optik o'zgartirgichlar izlar va boshqa ashyoviy dalillarni infraqizil nurlarda ko'zdan kechirish va tadqiq qilish imkonini beruvchi asboblardir. Uning asosiy qismlari: korpus "VES-4" rusumdagi o'zgartirgichlarni o'zi obyektiv, okulyar, infraqizil filtr ikkita galvanik elementli quvvat blokidan iborat. Mazkur asbobdan foydalanilganda obyektiv fotokatodda (maxsus tarkibli modda bilan sirlangan plastinka) ko'zga ko'rinmas tasvirni hosil qiladi. Infraqizil nurlar ta'siri ostida fotokatod o'zidan elektronlar oqimini chiqaradi. Bu elektronlar luminesensiyalovchi ekranda magnit "linza" orqali fokusga to'planib, okulyar orqali ko'zga ko'rinadigan tasvirni vujudga keltiradi. Infraqizil o'zgartirgichlar sifatida S-70 rusumidagi portativ yoki "Relyef-1", stasionar elektron-optik o'zgartirgichdan foydalanish mumkin.

Kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan yashirin obyektlarni topish uchun turli xil qidirish asboblari va moslamalaridan foydalaniladi. Ular mo'ljallagan maqsadi, tuzilishi va ishlash prinsiplariga ko'ra farqlanadi.

Yerga ko'milgan murdalarni qidirib topish uchun ichi g'ovak maxsus elektr asbobi "shup"dan foydalaniladi. Mazkur asbobning amal qilishi tuproqning elektr qarshiligini o'lchashga asoslangan.

Oqsil moddalari parchalangan joylarda tuproq gazsimon va suyuq moddalar bilan to'yinadi. Natijada mazkur joyda tuproqning elektr o'tkazish xususiyati oshadi. Bu holatni mikroampermetr strelkasi ko'rsatadi.

Suv ostida murdalar va murda qismlarini turli kiyim va boshqa narsalarni qidirib topish va chiqarib olish uchun “tral”dan foydalaniladi.

Metall buyumlarni qidirib topishda metall qidiruvchi asboblari, shuningdek kriminalistika maqsadlari uchun maxsus yaratilgan vositalar qoʻllaniladi.

Induksion metall qidirish asboblari qora va rangli metallardan yasalgan buyumlarni qidirib topish imkonini beradi.

Magnitli qidiruvchi koʻtargich ferromagnit metallardan tayyorlangan turli xil ashyolar yoki ularning qismlarini qidirib topish va chiqarib olish uchun moʻljallangan. Uning ishlash prinsipi magnitning ferromagnit metallarini oʻziga tortish va oʻzida ushlab turish xususiyatiga asoslangan.

Sud ekspertizasining rivojlanishi munosabati bilan ayrim tergov harakatlarining amalga oshirilishi vaqtida olib qoʻyilishi lozim boʻlgan obyektlar doirasi kengayib bormoqda.

Hozirgi vaqtda qattiq, suyuq va sochiluvchi moddalardan tashqari, juda kam miqdorda topiladigan gazsimon moddalar ham olib qoʻyilmoqda.

Maʼlumot uchun! Imkoniyatiga qarab hid tarqatuvchi narsaning oʻzi (qoʻlqop, bosh kiyim, roʻmolcha va shu kabilar) olib qoʻyilib, zich yopiladigan tiqinli moslamaga joylashtiriladi. Bunday qilishning imkoni boʻlmagan hollarda insondan tarqaladigan hid manbai iziga 20-30 minut davomida hidni oʻziga yaxshi singdiruvchi maxsus gazlama parchasi qoʻyilib, keyinchalik u pinset yordamida zich yopiladigan idishga olinadi. Qayd etishning bunday uslubi amaliyotda juda qoʻl keladi.

Tez bugʻlanib ketadigan modda izlarini (masalan, benzin, kerosin, dizel yoqilgʻisi qoldiqlarini) germetik idishlarga joylash lozim boʻladi.

Moddiy modellarni tayyorlash uchun nusxa tayyorlash materiallaridan (parafin, gipsdan) keng foydalaniladi. Ular ikki turga boʻlinadi: termoplastik va suyuq materiallar. Birinchi tur materiallar jumlasiga plastilin, mum, parafin, tez eruvchan metallar kiradi. Ikkinchi turga gips, AKR-100 st, “K” va “D” pastalari, SKTNni kiritish mumkin.

Birinchi guruhga kiradigan materiallar yordamida qattiq va plastik qoliplar, ikkinchi guruhga kiradiganlari yordamida esa qattiq va elastik qoliplar tayyorlash mumkin. Bunday modellar relyef izlarining shakli, katta-kichikligi va oʻzaro qanday joylashganligini aniq aks ettiradi.

Mikroskopik tekshiruvlar. Ekspertiza amaliyotida mikroskopik uslublar katta ahamiyatga ega boʻlib, turli obyektlar, moddalar ustida tadqiqot oʻtkazishda qoʻllaniladi.

Mikroskopik uslub obyektning turiga qarab shuʼla yorugʻida yoki aks etgan yorugʻlikda oʻtkaziladi. Ekspertiza amaliyotida borgan sari koʻproq

mikroskopik uslub qutblashgan yorug'likda o'tkazilmoqda. Bunday uslub kristall moddalarni, tabiiy va kimyoviy tolalarini, don, kraxmal, ayrim o'simlik va hayvonot to'qimalarini tadqiq etish imkonini beradi. Bu kabi tadqiqotlar yordamida ko'pgina materiallarni identifikatsiyalash, shuningdek ularning tuzilmasiga oid farqlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Yangi uslublardan biri to'liqin hosil qiluvchi elektron mikroskopdir. Ushbu uslub orqali sirtga ega bo'lib, yuqori vakuum sharoitida o'z tuzilmasini saqlab qoladigan va elektron nurlari tarami ostida o'zgarmaydigan obyektlarni tadqiq etish mumkin.

To'liqin hosil qiluvchi elektron mikrosnusxa uslubidan soch tolalarini tadqiq etishda ularning ajralish mexanizmini, tashqi muhit, kimyoviy ishlov berish ta'siri izlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

To'liqin hosil qiluvchi elektron mikrosnusxadan ekspertiza amaliyotida turli materiallarning zarralaridan hosil bo'lgan mikroiz belgilarini aniqlash uchun foydalaniladi.

To'liqin hosil qiluvchi mikrosnusxa yordamida olingan to'qimachilik tolalarining morfologik belgilarini mikroskopik tadqiq qilish asosida tolalardan hosil bo'lgan mikroizlar aniqlanadi va taqqoslanadi.

Elementlar tarkibini o'rganish uslublari va vositalari turli materiallar va moddalarni kriminalistik ekspertiza qilishda ko'p yillardan beri qo'llanilib kelmoqda. Bular jumlasiga, atom spektrometriyasining uslub va vositalarini, rentgenospektral uslublar va neytronning tahlilini kiritish mumkin.

E'tibor qiling! Emission-spektral tahlil. Bu uslub maxsus asbob-spektrofotometr yordamida amalga oshiriladi. Bunday tahlil tufayli turli xil bo'yoqlar, avtomobillarning lak bo'yoqlarini, poroxlarni, giyohvand moddalarni, moylarni, zaharli kimyoviy moddalar va boshqa shu kabilarni toifalash mumkin bo'ladi.

Elementlar tahlili transport vositalarining lak-bo'yoqlarini, mato va tolalarni identifikatsiyalash, tuproq qoldiqlarini tadqiq etish uchun qo'llaniladi. Tabiiy giyohlarning elementlar tarkibidan bunday o'simlik giyohvand moddalarning qaysi mintaqada o'stirganligi va uni yetishtirish texnologiyasini aniqlash uchun foydalaniladi. Sintetik giyohvand moddalarni tadqiq etishda elementlar tarkibi bunday moddalarni tayyorlash texnologiyasini aniqlash imkonini beradi. Ayni vaqtda ular qaysi mintaqada ishlab chiqarilganligini ham taxmin qilish mumkin bo'ladi. Elementlar tarkibi qimmatbaho toshlarni farqlash imkonini ham beradi.

Atom spektrometriyasi hamda boshqa uslub va vositalar buyum asl ekanligi yoki uning qalbakiligini aniqlash imkonini beradi. Masalan, uning yordamida u yoki bu mahsulotning ishlab chiqarish texnologiyasining o'zgargan vaqtini aniqlash mumkin. Elementlar tarkibini tahlil qilish vositalari va uslublari boshqa vosita va uslublar bilan birgalikda etil qo'shilgan benzin va oziq-ovqat yog'larining buzilganlik darajasini, oltin yoki oltin buyumlari bilan birga turgan matolardagi oltinning mikrozaralarini aniqlashda qo'llaniladi.

Poroxlarning elementlari tahlili ularni o'qotar qurollarni qo'llaganlik bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha tabaqalashtirish imkonini beradi. O'q tekkan teshik atrofida qolgan odam to'qimalari yoki terisining tahlili nafaqat o'q uzilgan masofani, balki qurolning turi, kalibrini ham aniqlash imkonini beradi.

Molekulyar spektrometriya. Molekular spektrometriyaning uslub va vositalari spektr olish orqali dori-darmonlar, zaharlovchi moddalar, plastmassalar, lak-bo'yoq, yoqilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoviy tolalar va rezinalarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Sud ekspertizasida aksariyat hollarda infraqizil spektrosnusxa uslubi qo'llaniladi. Ularning yordamida kimyoviy qo'shilmalar identifikatsiya qilinadi.

Ekspertiza amaliyotida infraqizil spektrometriya uslublari va vositalari, neft mahsulotlari, moylar, lak-bo'yoq materiallari, tolalar, polimerlar, plastmassalar, zoldirli ruchka pastalar, portlovchi moddalar olish imkonini beradi. Ushbu uslub yordamida tasodifiy hosil bo'lgan organik moddalarning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotni olish ahamiyatlidir.

Ashyoviy dalillarning sud ekspertisasi amaliyotdagi samarador uslub va vositalar qatoriga spektral luminissensiya analizini ham kiritish lozim. Ushbu uslub yoqilg'i-moylash materiallarini, zaharli moddalarini tadqiq etishda qo'llaniladi, shuningdek sanoat chiqindilarida uglevodlar mavjud bo'lgan uchastkalarini, tarkibi turlicha bo'lgan shishalarni tabaqalashtirish imkonini beradi.

Spektral tahlil, o'q otish jarayonida o'q stvoldan chiqayotgan paytida uning sirti qirilishi oqibatida metallda hosil bo'lgan juda kichkina izni ham, porox qurumi izlarini va boshqa yo'llar bilan topib bo'lmaydigan o'zga izlarni aniqlash imkonini beradi.

Ayrim qotishmalar, masalan, qo'rg'oshin qotishmasi spektral tahlil yordamida tadqiq etilganida qotishmaning markasini, agar maxsus aralashmalar mavjud bo'lsa, bu qotishma qayerda ishlab chiqarilganligini

ham aniqlash mumkin bo'ladi. Bunday uslub yordamida tarkibi jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lgan qotishma va qo'shilmalarni ham farqlash mumkin. Mana shunday tahlil yordamida qiyoslanayotgan obyektlarning, masalan, murdadan olingan mayda zarrachalarning gumon qilinayotgan shaxsga qarashli patroneidagi zarrachalarga o'xshashligini va aynanligini aniqlash mumkin.

Obyektlarning tuzilishi va fazoviy tarkibini tadqiq etish uslubi. Materiallar, moddalar va buyumlarning tuzilishi va fazoviy tarkibini o'rganish uchun aksariyat hollarda metallografiya uslublari va rentgen tahlilidan foydalaniladi.

Metallografik tadqiq etish, masalan, metallarning puturdan ketishi, yong'in, avariya yoki portlashga sabab bo'lgan-bo'lmaganligini, yoxud uning oqibati ekanligini aniqlash imkonini beradi. Yong'in zonasi va markazini aniqlashda metallografiya uslublari yordamida metall buyumlarning issiqlik darajasini va qizish muddatini belgilash mumkin bo'ladi. Metall va qotishmalar qizdirilganda ularning sirtida turli ranglar o'zgaradi. Ular yordamida metall va qotishmalar issiqlik darajasi va vaqt nuqtayi nazaridan intervalini bilib olish mumkin.

Materiallar va moddalarni kriminalistik ekspertiza qilish amaliyotida rentgen tahlili uslublari va vositalari keng tarqalgan. Bu orqali ashyoviy dalillarning fazoviy tarkibi va uning tuzilishidagi o'zgarishlarni puxta aniqlash mumkin. Mazkur uslubdan kristallsimon tuzilishga ega bo'lgan deyarli barcha obyektlarni tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Rentgen yordamida fazoviy tahlil tadqiqoti tez va puxta o'tkazilishini ta'minlaydi, bu orqali olingan ko'rsatkichlar esa avtomatlashtirilgan holda ishlab berish uchun EHMga kiritilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda tahlil qilishning bunday usuli giyohvand moddalar, qimmatli qog'ozlar va hujjatlarning materialini, lak-bo'yoqlarni, binokorlik materiallarini, farmatsevtika preparatlarini, zaharli moddalarni, kimyoviy tolalarni, metall va qotishmalardan tayyorlangan buyumlarni tadqiq etishda muvafaqqiyatli qo'llanmoqda.

Ma'lumot uchun! Xromotografik uslub moddalarning fraksiya va molekular tarkibini aniqlash imkonini beradi. Uning mohiyati shundan iboratki, tadqiq etilayotgan moddaning tarkibiy qismlarini ajratish va ajratilganlarni tahlil qilishdan iboratdir. Ekspertiza amaliyotida xromotografiyaning bir necha xillari qo'llanib kelinadi. Tarkibiy qismlarni bo'lish usuliga qarab tadqiq etilayotgan modda: qog'oz, yupqa qatlamli, gaz-suyuqlik, ustunsimon xromotografiya kabilarga bo'linadi.

Yupqa qatlamli xromotografiya eng ko'p tarqalgan uslub bo'lib, organik tarzda paydo bo'ladigan obyektlar-giyohvand moddalar, dori-darmonlar, bo'yoqlar, zaharli kimyoviy moddalar, siyoh, neft mahsulotlari, yog', moy va boshqa moddalarni tahlil etishda qo'llaniladi.

Xromotografiya deb ikki bosqichdan iborat tadqiqot uslubiga aytiladi. Birinchi bosqichda tadqiq etilayotgan moddaning tarkibiy qismlari ajratiladi, ikkinchi bosqichda esa ajratilgan har bir qism tahlil etiladi.

Hujjatlar texnik jihatdan tahlil etilganida yupqa qatlamli uslub yordamida turli tarkib bo'yicha tayyorlangan bir xil rangdagi siyohlarni ajratishgina emas, balki texnik jarayonlarning tebranishi bilan bog'liq farqni ro'yxatga olish ham mumkin. Bu uslub to'qimachilik tolalarining buyoqlarini tahlil etish vaqtida keng qo'llaniladi. Organik moddalar va ularning aralashmalari qaysi guruhga mansubligini, tadqiq etilayotgan moddalarning sifat va miqdor tarkibini, bir xilligi yoki turlicha ekanligini aniqlash uchun gaz-suyuqlik xromotografiyasi uslubidan foydalaniladi.

Gaz xromotografiyasi jarayonida "gaz xromotografiyasi" deb atalgan maxsus asbob qo'llaniladi. Hozirgi zamon xromotograflari EHM bilan jihozlangan bo'lib, ular ko'pgina ekspertiza vazifalari hal etilishida, jumladan neft mahsulotlari turini aniqlash, benzin, dizel yonilg'isi va avtol markasini toifaga ajratish, avtomobil yonilg'isi tarkibida neft mahsulotlarini aniqlash, tadqiq etilayotgan obyektga giyohvand modda bor-yo'qligini topish, kelib chiqish manbayiga qarab namunalarni tabaqalashtirish mumkin.

Ushbu uslubdan vino-arog mahsulotlarini, oziq-ovqat mahsulotlarini tadqiq etishda, qon tarkibida alkogol bor-yo'qligini aniqlashda, tamaki, rezina polimer materiallari, kleylar, portlovchi moddalar va boshqa obyektlarni tekshirishda, hid tarkibini tadqiq etishda, suyuqlik va gaz tarkibini belgilashda foydalaniladi.

Poligrafifiya uslubi "poligraf" deb ataluvchi maxsus pribor orqali amalga oshiriladi. Mazkur uslub suyuq moddalarni, o'q otish snaryadlarini, metallar, zaharli moddalardan qolgan izlarni aniqlashda qo'llaniladi.

Radioaktivlikka oid tahlil. Materiallar va moddalarni tadqiq etishda yana bir yuqori ta'sirchan uslub – radioaktivlikka oid tahlil qo'llanilishi mumkin. Bu uslub obyekt yadro reaktorida nurlatilganda unda paydo bo'ladigan sun'iy radioaktivlikni o'rganishga asoslangan.

Kriminalistik texnikaning bu uslubi yaqindan o'q uzilganda, to'siqlarda qolgan izlarni, o'q uzgan odamda qolgan izlarni, biologik obyektlardagi zaharli moddalarni, biologik to'qimalardagi mikro elementlarni aniqlashda qo'llaniladi.

Ma'lumot uchun! Kriminalistik texnikaning taraqqiyoti ikki yo'nalishda boradi. Bir tomondan kriminalistik texnika muammolarini umumnazariy jihatdan ishlab chiqilishi va takomillashtirilishi, ikkinchi tomondan dalil-isbotlarni topish, olib qo'yish, qayd etish va tadqiq qilish, ular ustida ishlashning aniq texnika-kriminalistika vositalari hamda yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

So'nggi vaqtlarda turli kriminalistika obyektlarini to'plash, ular ustida ishlash, tadqiq qilish ishida kompyuter texnikasidan foydalanish imkoniyatlari ko'zga tashlanmoqda. Kompyuter dastlabki marta daktilonusxa va dastxatshunoslik tadqiqotlarida qo'llanilgan.

Daktilonusxada hozirgi vaqtda kodlashtirilgan barmoq izlarini mashina yordamida qidirib topish va qiyoslash uslubi qo'llanilmoqda. Bu uslub dastlabki tarzda kodlashtirilmagan holda maxsus qurilma yordamida papilyar nAQSHlarni avtomatik tanish qoidalariga asoslangandir.

Kriminalistika faoliyatida bunday vositalardan foydalanish voqea sodir bo'lgan joyda topilgan barmoq izlarini kompyuter xotirasidagi barmoq izlari bilan tezkor ravishda solishtirish imkonini beradi. Maxsus ishlab chiqarilgan algoritim dasturi yordamida u yoki bu qo'lyozma matnini bajargan shaxsni identifikatsiyalash imkoniyatini vujudga keltiradi.

Kriminalistik texnikaning tergov va tezkor-qidiruv ishlarida qo'llanilishi

Kriminalistik texnikani tezkor xodimlar, tergovchilar mutaxassis kriminalistlar, sud o'z vakolati doiralarida qo'llaydilar. Bunday texnika jumlasiga tergovchilar va kriminalistika ekspertizasi bo'limlarining xodimlari foydalanadigan ilmiy-texnika vositalarining komplektlari, ko'chma kriminalistika laboratoriyalari, ovoz yozish apparaturalari kiradi. Jinoyatlarning oldini olish va jinoyatlarni jadal aniqlash, jinoyatchilarni qidirish va ushlash uchun tezkor ishlarda qo'llaniladigan vositalar, turli xil

signal beruvchi qo'riqlash qurilmalari, hujjatlarni qalbakilashtirishdan himoyalash vositalari-kimyoviy jihozlar ham kriminalistik texnika jumlasiga kiradi.

Kriminalistik texnika vositalaridan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda, ko'zdan kechirish, tintuv, so'roq, eksperiment va boshqa tergov harakatlarini bajarishda va ashyoviy dalillarni o'rganish, video, kino hujjatlarini ko'rish, magnit yozuvlarini eshitish va boshqa vaqtlarda foydalanadilar.

Kriminalistik texnika tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog'liq ishlarni isbot qilishda, dalillar qidirib topishda, jinoyatlarni ochish va ularning oldini olishda hamda zarur ma'lumotlarni aniqlash, qayd etish va tadqiq qilishda foydalaniladi.

Tergov harakatlari jarayonida kriminalistik texnika jinoyatning moddiy holatini qayd etish, dalillarni topish, olish va saqlash, ularni taqdim etish va obyektlarni ekspertizaga tayyorlash chog'ida qo'llaniladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlari o'tkazilishida ishtirok etayotgan mutaxassislar texnika vositalari va uslublarini qo'llash orqali tezkor-qidiruv xodimlariga amaliy yordam ko'rsatadilar, maslahatlar beradilar.

Kriminalistik texnikadan tegishli qonun hujjatlari normalariga muvofiq foydalaniladi. Xususan, JPK 91, 106-moddalarida texnika vositalari va uslublarining ayrimlarini (fotografiya, ovoz yozish, moddiy nusxalar, chizmalar) qo'llash haqida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan. 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ham video va audioyozuv, kino va fotosuratga olish vositalarini qo'llashning ayrim masalalari o'z ifodasini topgan.

E'tibor qiling! Ishlarni sudga ko'rishda kriminalistik texnika vositalari va uslublaridan foydalanishga ma'lum shartlar bilan yo'l qo'yiladi. Chunonchi, bunda fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini buzilmasligi; ularning hayoti va sog'ligiga xavf solinmasligi; axloq va etika normalariga e'tibor berilishi; axborot manbalari – izlar, ashyolarni saqlab qolinishning ta'minlanishi, shuningdek axborotning o'zi (masalan, ekspertiza va dastlabki tadqiqotlar o'tkazish, suratga olish, video va ovoz yozish, ko'rsatmalar moddiy nusxalar va chizmalar) buzilmasligi; vositalar va uslublardan to'g'ri foydalanish uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim.

Kriminalistik texnikadan foydalanishning **birinchi sharti** – kriminalistik texnika vositalari va uslublarining ilmiy jihatdan o'ziga xosligi va puxta bo'lishi. Har qanday texnik vosita, shu jumladan maxsus materiallar va moddalar, ularni qo'llash uslubini tibbiyot vositalari kabi

qat'iy ravishda ilmiy ma'lumotlarga asoslangan, vakolatli organlarning sinovidan o'tgan va ular-tomonidan ekspertiza va jinoyat-qidiruv amaliyoti uchun tavsiya etilgan bo'lishi kerak. Buning uchun texnika-kriminalistika vositalari yordamida to'g'ri va puxta axborot olinishini ta'minlash lozim. Shundagina jinoyat ishini tergov qilishda obyektiv natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Kriminalistik texnikaning yuqorida sanab o'tilgan barcha subyektlar tomonidan yuksak malaka bilan qo'llanilishi **ikkinchi muhim shartdir**. Bu shartni ro'yobga chiqarish-texnika vositalari va uslublarini mukammal bilish va ulardan to'g'ri foydalanishni taqozo etadi. Bunda jinoyat-protsessual qonunining eng muhim talablari sifatida obyektiv yondashuv har tomonlama va to'liq bo'lishi zarur.

Tergov harakatlari bayonnomalarida va kriminalistika ekspertizasi xulosalarida dastlabki tekshiruv materiallari, kriminalistik texnika vositalari va uslublarini qo'llash sharoitlari, tartibi va natijalarini aks ettirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda texnika vositalari qo'llanganligi o'z tasdig'ini topadi, muayyan bir ma'lumotni texnika vositasi va uslubini qo'llash yo'li bilan tekshirish, tergov harakatlari (ko'zdan kechirish, eksperiment o'tkazish, ko'rsatuvni voqea sodir bo'lgan joyda tekshirish) jarayonlari yoki natijalarini tiklash imkoniyati yaratiladi.

Tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda texnika vositalarini o'zida jamlagan "tezkor" sumka juda qo'l keladi. Turli izlarni, ashyolarni topish, kuzatish, ko'chirib olish va qayd etish uchun zarur texnik vositalar tergov va tezkor xodimlarga mo'ljallangan mazkur sumkada joylashgan.

E'tibor qiling! "Tezkor" sumkada quyidagilar mavjud bo'ladi: foto va video tasvirga oladigan apparaturalar; turli izlarni mustahkamlash va ko'chirib olishga ishlatiladigan vosita-asboblar; teri kashtasidan qoladigan, ko'zga ko'rinmaydigan izlarni ko'rinarli qilib ko'chirib olishda qo'llanadigan vositalar; o'lchov va optik (lupalar) asboblar; yozish-chizmalar tayyorlash, qayd etish vositalari.

Nazorat savollari:

1. Jinoyatlarni fosh qilishda kriminalistik texnika qanday vazifalarni bajaradi? Hozirgi zamonaviy axborot-texnologiyalarining rivojlanishi kriminalistik texnikaga qanday ta'sir qilmoqda?
2. Kriminalistik texnika tekshiruvining qanday vosita va uslublarini bilasiz? Muayyan bir jinoyatni misol tariqasida olib, uni fosh etishda qanday kriminalistik texnika vositalaridan foydalanish mumkinligini tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

2012-yil 12-dekabr dan 13-dekabr ga o'tar kechasi E.ning xonadonidan qimmatbaho buyumlar yo'qolganligi to'g'risida IIB navbatchilik qismiga ariza kelib tushdi. Tergovchi Sh.ning xonadonida sodir etilgan o'g'rilik jinoyati yuzasidan qimmatbaho buyumlar turgan polirotovka qilingan shkafni ko'zdan kechirdi.

1. *Shkafning qaysi joylarida va qanday qo'l izlari qolishi mumkin?*
2. *Izlarni topish va olishda qanday kriminalistik texnik vositalar qo'llaniladi?*
3. *Izlar yuzasidan qanday ekspertiza tayinlanadi va ekspert oldiga qo'yiladigan savollar qanday bo'ladi?*

2-kazus

Davlat siriga taalluqli saytlardan biriga fuqaro F. murakkab dasturlar orqali hujum qilib, undan axborot olib chiqadi. Biroq jinoyatchini ushlab chog'ida uning hamtovog'i fuqaro L. o'z uyida pornografik sayt ochganligi aniqlandi. Pornografik ma'lumotlarni o'zida jamlagan sayt faoliyati to'xtatildi. Uning tashkilotchisi fuqaro L. o'z uyida pornografik mazmundagi axborotlarni shaxsiy kompyuteridan foydalangan holda internet orqali tarqatayotgan vaqtda qo'lga olindi. Biroq qo'lga olinishidan biroz avval u o'z shaxsiy kompyuteridagi ma'lumotlarni formatlash yo'li bilan o'chirib yuborgan.

1. *Yuqoridagi holatda kriminalistik texnik vositalardan foydalanib, formatlangan kompyuterdan axborot olish mumkinmi?*
2. *Yuqoridagi ikki holat yuzasidan tergovni rejalashtirish va tergov versiyasini tuzish qanday tarzda amalga oshiriladi?*
3. *Formatlangan kompyuterdan axborotlarni olish imkoniyati mavjud bo'lsa, tergovchi mazkur holatda qaysi tergov harakatlarini o'tkazishi lozim?*

5-MAVZU. SUD FOTOGRAFIYASI VA VIDEO-TASVIR YOZUVI

Kriminalistik fotografiya tushunchasi, uning qo'llanish shakllari. Kriminalistik fotografiya metodlari. Suratga va videotasvirga tushirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish.

Kriminalistik fotografiya tushunchasi, uning qo'llanish shakllari

Sud fotografiyasi muhim kriminalistik sohalardan hisoblanib, uning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi o'rni kattadir. JPKning 91-moddasida aytilishicha, dalillarni qayd etishda bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanishi mumkin. Shunday ekan, sud fotografiyasi hodisa joyini ko'zdan kechirishda, tergov eksperimentida, murdani eksqumatsiya qilishda, olib qo'yish va tintuvda, tanib olish uchun ko'rsatishda va boshqa tergov harakatlarini o'tkazishda dalillarni mustahkamlovchi va aks ettiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Kriminalistik fotografiya deganda tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarida, shuningdek ekspert tekshiruvlarida qo'llaniladigan ilmiy ishlab chiqilgan suratga tushirishning usullari tizimiga aytiladi.


Fotosuratlar tergov harakatlari bayonnomalariga yoki ekspert xulosalariga ilova qilinadi. Ular rasmiy ravishda tushirilgan obyektlarni aks ettirib: predmet (iz) alomatlarini; tergov harakatlari olib borilgan sharoitni; ekspert tekshiruv natijalarini idrok etishga imkon beradi. Bunday tasvir bayonnomaning tasvirlov qismini (ekspert xulosasining tekshiruv qismini) to'ldiribgina qolmay, balki og'zaki tasvirlash orqali idrok etilishi qiyin bo'lgan alomatlar va sharoitlarni tushunish imkonini beradi.

Suratga tushirish mustahkamlashning obyektiv shakli sifatida aks ettirish og'zaki usuliga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: olingan suratlarining rasmiylashtirilganligi, ularning yaqqolligi, ma'lumot uzatishda yuqori darajada aniqligi, aks ettirish jarayonining nisbatan tezligi bularning barchasi zamonaviy fotoappaturalardan foydalangan holda dalillarni mustahkamlashning eng muhim usullaridan biri bo'lib qoldi.

Kriminalistik fotografiya ishonchli aks ettirishning va ilmiy-tekshiruv usullarining majmuyi sifatida hozirgi amaliyotda keng qo'llaniladi.

Mazkur qo'shimcha vositalardan foydalanilganlik haqida tegishli tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks

ettiriladi. Shuningdek, JPKning 127-moddasida aytilishicha, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishning iloji bo'lmaganda yoxud xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkin. Bunda tergov harakatlari bayonnomasiga yoki sud majlisi bayonnomasiga fotojadval ilova qilinadi. JPKning 136-moddasida aytilishicha, ko'zdan kechirish chog'ida surishtiruvchi, tergovchi yoki sud fotosuratga tushiradi.



E'tibor qiling! Kriminalistik fotografiyaning metod va usullari, maqsadlariga ko'ra dalillarni mustahkamlovchi va tekshiradigan bo'lishi mumkin. Mustahkamlovchi metodlarga panorama, o'lchovchi, reproduksiyaviy, stereoskopik, tanib olinadigan va katta masshtabli suratga tushirish kiradi. Tekshiriladigan mikrosuratga tushirish, tasvir kontrastini kuchaytirish maqsadida suratga tushirish va ko'rinmas spektr nurlarida suratga tushirish kabi mustahkamlovchi metodlar qurollanmagan ko'z bilan ko'rish imkoni bo'lgan, tekshiriladigan suratga tushirish alomatlarini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Tekshiruv metodlari yordamida hujjatlardagi qalbakilashtirish izlari aniqlanadi, mikroalomatlar o'rganiladi va hokazo.

Sud-tergov va tezkor-qidiruv fotografiyasida mustahkamlovchi metodlar qo'llaniladi. Sud-ekspert fotografiyasida ham mustahkamlovchi, ham tekshiruvchi metodlardan foydalaniladi.

Sud-tergov fotografiyasi quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- 1) hodisa joyini, murdani, ashyoviy dalillarni, hujjatlarni ko'zdan kechirishda;
- 2) tirik shaxslarni guvohlantirishda;
- 3) tintuv o'tkazishda;
- 4) tergov eksperimenti jarayonida;
- 5) tanib olish uchun ko'rsatishda;
- 6) tirik shaxslarni va murdalarni ro'yxatdan o'tkazishda.

Ekspert fotografiyasi barcha turdagi kriminalistik ekspertizalarda va ko'pgina boshqa turdagi ekspertizalar (sud-tibbiyot, sud-avtotexnik, sud yong'in-texnik va boshqalar)da qo'llaniladi. Bu metodlar bilan bir qatorda mo'ljal, obzor, detal va markaziy sur'atga tushirish kabi xususiy metodlar ham qo'llaniladi.

U yoki bu turdagi suratga tushirishdan foydalangan holda daliliy ahamiyatga ega bo'lgan obyekt va faktlarni eng yaxshi tasvirga tushirishni ta'minlovchi suratga tushirishning metod va usullari tanlanadi.

Kriminalistik fotografiyada tasvir uslublari va turlari

Tasvirlarning uslublari

oddiy, panoramali (chiziqli, doiraviy), hajmli (stereo), makro, reproduksiyali, o'lchamli (masshtabli), teleobyektiv bilan suratga olish

Tasvirlarning turlari

Mo'ljalli, obzorli, mazmunli, detali, tanib olish uchun

E'tibor qiling! Panoramali usulda suratga olish vertikal va gorizontalar tarzda bajarilishi mumkin. Vertikal usulda fazo yoki tik holatdagi obyekt, gorizontaldagi esa uzoqdan ko'rinib turgan uchastkalar suratga olinishi mumkin. Hozirgi amaliyotda ko'proq gorizontalar usullar qo'llaniladi. Bunda to'g'ri chiziqli va aylanma usullardan foydalanish mumkin. To'g'ri chiziq bo'yicha panoramali suratga olishda lozim bo'lgan uchastka qarshisida to'g'ri chiziq hosil qilinib, shu chiziq bo'yicha bir necha nuqtalarga to'xtalib surat olinadi. Aylanma usuldagi fotoapparat shtativ o'qlar atrofida gorizontalar tekislik bo'yicha aylantiriladi. Aylanma syomka obyektivning oldingi plani apparatdan ancha uzoq bo'lganida qo'llaniladi (masalan, katta hovlini uning markazidan suratga olish), aks holda jiddiy buzilishlar bo'ladi.

Kriminalistik fotografiya metodlari

Panoramali suratga olish qiziqtirgan obyekt, hatto keng burchakli obyektiv suratga olish imkoni bo'lmaganida yoki suratga tushirilayotgan obyekt, yetarli masofadan olish imkoni bo'lmaganida qo'llaniladi.

Panoramali suratga olish maxsus apparat yordamida amalga oshiriladi yoki obyekt bo'laklarga bo'lib suratga olinadi va bunda bir xil masofadan bir necha marta suratlar olinadi. Har bir surat oldingi suratda tushirilgan hududning bir chekkasini, uning 10 foizini qamrab olishi kerak. Barcha suratlar bir xil sharoitlarda (masofa, yorug'lik, diafragma va h.k.) tushirilishi lozim. Bunda kadrning chekkasida bo'lgan biror obyektga e'tibor qilinadi. Bu obyekt keyingi kadrni olishda mo'ljal bo'lib xizmat qiladi va bu kadrda ham ifoda etilishi kerak. Zarur hollarda sun'iy

mo'ljallar (qoziqcha va h.k.) o'rnatilishi mumkin. Bunday yo'sinda olingan negativlar bir xil sharoitdagi fotonashrda tayyorlanadi. Bular ularda mavjud bo'lgan umumiy chiziqlariga ko'ra kesiladi va bir-biriga yopishtiriladi.

Ma'lumot uchun! Panoramali suratga olish maxsus apparatura ("FT-2" va "Gorizont" panorama aparatlari) yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Gorizont bo'yicha 120 gradus burchakda suratga olish imkonini beradigan "FT-2" aparatining negativ surati 24x100 mm, ya'ni 3ta oddiy kadrдан uzun, "Gorizont" aparati esa 24x57,5 mm.

Ko'rsatilgan apparatlardagi chiziqlar egri qilib qo'yiladi. Shu egri chiziq bo'yicha zatvor tugmachasi bosilganidan so'ng fotoapparat obyektivi aylanadi. Fotoapparat obyektivining fokusi doimiy qotirilgan bo'ladi. Panorama usulida hodisa joyi, tintuv joyi va tergov eksperiment o'tkaziladigan joylar suratga olinadi.

Stereoskopik suratga olish predmetlarni keng hajmda idrok etish imkonini beradi, bu esa ularning shakli va o'zaro joylashganligi haqida kengroq tasavvur beradi. U stereoskopik suratga olish bazasi deb ataluvchi masofadan bir-biridan uzoqlikda joylashgan ikkita nuqtadan olish imkonini ko'rsatadi. Bazisning masofasi odam ko'zi qorachiq-lari orasidagi masofa (65–70 mm)ga teng. Shunday qilib har bir nuqtadan olingan tasvirlar xuddi chap yoki o'ng ko'z bilan alohida-alohida ko'rilishi mumkin kabi bo'ladi. Olingan suratlar-ga shunday ishlov beriladiki, har bir surat 42/36 mmga teng bo'lishi kerak. Har bir rasm kartonga yopishtiriladi (o'ngi o'ngga, chapi chappa) va bunda ular orasidagi masofa 65 mmga teng bo'lishi kerak. Bunday surat juft stereoskop orqali tomosha qilinadi. Moslamaning tuzilishi stereojuftlikni yaxshiroq hajmli effekt olinishi uchun okulyarlardan uzoqlashtirish va yaqinlashtirish imkonini beradi.

Stereoskopik fototasvirda detal suratga olishda foydalaniladi. O'lchamli fototasvir obyektlar orasidagi masofani bilish imkonini beradi. Ushbu fototasvir ikki ko'rinishda amalga oshiriladi: 1) masshtabli fototasvir; 2) metrik fototasvir.

Masshtabli fototasvir o'lchamlarni aniqlash imkonini beradi (uzunligi, bo'yi va eni). U hujjatlarni, predmetlarni, jinoyat quollarini, izlarni va boshqa ashyoviy dalillarni suratga olish imkonini beradi. Masshtabli fototasvirda obyekt bilan birgalikda masshtabli chizg'ich qo'llaniladi. Obyekt necha baravar kichraysa, u ham shuncha darajada kichrayadi, shunda u keyinchalik barcha parametrlar bo'yicha o'lchansa bo'ladi. Bunday bir xil kichrayishga erishish uchun, masshtab suratga olishda ikkita shartga rioya qilish kerak bo'ladi: 1) chizg'ich obyektning

yoniga qo'yilibgina qolmasdan suratga olinuvchi tekislik bilan bir yo'nalishda qo'yilishi kerak; 2) fotoapparat shunday joylashtirilishi kerakki, obyektivning optikasi suratga olinuvchi tekislikka nisbatan perpendikulyar holatda bo'lishi lozim. Masshtabli chizg'ichni suratga olinuvchi obyektning ustiga qo'yish tavsiya etilmaydi, sababi bunda ba'zi detallar yopilib qolishi mumkin.

Metrik suratga olish suratga olingan obyektning nafaqat hajmi, balki ular orasidagi aniq masofa haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Metrli fotografiya usulida metrli suratga olishdan obzorli va markazli suratga olishda zarur bo'lganida qo'llaniladi.

Katta masshtabli syomka mayda izlarni, mayda predmetlarni va ularning detallarini aks ettirishda qo'llaniladi. Qopchig'i ikki baravar cho'ziladigan yoki obyektivga o'rnatiladigan moslama yordamida obyektning tabiiy kattalikda olish mumkin. Kichik formatli fotoapparatlarda suratga olish ancha qiyin. Ular eng yaqini bir metr masofadan surat olish imkonini beradi (ba'zilar 0,5m masofadan). Birinchi holda fotografik ko'paytirish koeffitsienti 19-20, ikkinchi holda 11-12 baravar bo'ladi.

Reproduksiyaviy fototasvir usuli obyektning yuzini: hujjatlarni, chizma, fotosuratni, qo'lda chizilgan rasmlarni, loyihalarni natural kattalashtirilgan va kichiklashtirilgan holda suratga olish (fotonusxa ko'chirish) uchun qo'llaniladi. Reproduksiyaviy usul ikki turda bo'ladi: 1) fotoapparat yordamida; 2) kontakt usulda.

Ma'lumot uchun! Tirik shahslarni suratga tushirish qoida bo'yicha ikki holatda amalga oshiriladi: to'g'ridan va o'ng-chap tomonidan. Yuz qismining alohida xususiyatlari bo'lsa, ikkala tomondan ham suratga tushiriladi. Suratga tushirishda bosh tik holatda bo'lishiga e'tibor qilish kerak. Yon tomonidan suratga tushirishda sochlar quloq yoki uning qismini berkitmasligi lozim. Suratning foni och kulrang bo'lishi kerak. Agar fon sifatida ishlatiladigan ekran bo'lmasa, suratga tushiriluvchi och rang devor oldida turishi zarur, lekin boshning soyasi devorga tushmasligi uchun devor va u orasidagi masofa bir metrga yaqin bo'lishi kerak. Suratga tushirishda yorug'likka e'tibor qilish joiz, ya'ni u juda tekis va yoyilgan bo'lmasligi kerak, chunki bunday yorug'lik yuzni tekis qilib, konturlarsiz ko'rsatadi. Eng yaxshi natijalarga 45 daraja burchak ostida berilgan umumiy yoyilgan yorug'lik sharoitida erishiladi.

Reproduksiyaviy suratga olish hujjatlarning hamma turlarini daliliy ashyo qilib ko'rsatish uchun rasmiylashtiriladi. Bunday suratlardan tezkor maqsadlarda ko'zdan kechirish bayonnomalarini to'ldirish, shuningdek shu hujjatlarni ekspertiza qilish uchun foydalaniladi. Kontakt reproduksiya usulida suratga olish uchun refleksli qog'ozlar ishlatiladi. Ular asosan turli xildagi hujjatlarning chizma, sxema nusxalarini olish uchun foydalaniladi.

Refleksli qog'oz emulsiya tomoni bilan nusxasi olinayotgan original hujjatning ustiga tiniq shisha bilan yopiladi va tepasidan to'g'ri yorug'lik beriladi. Olingan negativ bilan nusxalarni ko'paytirish mumkin bo'ladi.

Tanib olish uchun suratga olish tirik shaxslarni va murdalarni quyidagi maqsadlarda suratga olish uchun qo'llaniladi: 1) ro'yxatga olish uchun; 2) tanib olish uchun ko'rsatish maqsadida; 3) ekspert tadqiqoti uchun.

Tanib olish uchun suratga tushirilganda yuz tasviri natural kattaligining 1/7 qismini tashkil qilishi tavsiya etiladi. Lekin bunday darajadagi kichkinalashtirishga faqat 6x9, 19x12 va undan ko'proq hajmdagi kadrli fotoapparatlar yordamida erishish mumkin.

Murdani tanib olish uchun suratga tushirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: dastlab sud-tibbiyot eksperti murdani qiyofasini tiklashga harakat qiladi. Suratga tushirish fas, o'ng va chap profilda amalga oshiriladi. Murdani tik holatda suratga tushirish mumkin. Bunda murda stulga joylashtiriladi va boshi stuldagi maxsus ushlagichga bog'lab qo'yiladi. Murda yalang'och holda topilgan bo'lsa, uning badani suratga tushirilishdan oldin oq mato bilan o'raladi. Murdani ustiga boshqa kiyimlarni kiygizish noto'g'ri bo'ladi, sababi bu tanib oluvchini tanib olish vaqtida adashtirishi mumkin.

Suratga tushirishning xususiy usullari voqea sodir bo'lgan joyni suratga olish bayonnomasini tasviriy qilib mustahkamlashga va ashyoviy dalillarning fotonusxalarini jinoyat ishiga qo'shib qo'yishga yordam beradi. Voqea sodir bo'lgan joyni o'z vaqtida kechikmay suratga olish muhim ahamiyatga ega.

E'tibor qiling! Tergovchi voqea sodir bo'lgan joyda olgan suratlarining natijalari unumli bo'lishi uchun:

- 1) voqea sodir bo'lgan joydan boshqa manfaatdor shaxslarni chetlatish;
- 2) vaziyatning o'z holicha saqlanishini, daliliy ashyolar va boshqa predmetlarning daxlsizligini t'minlash;
- 3) voqea sodir bo'lgan joy va u yerdagi ashyoviy dalillar, qo'l, oyoq, kiyim, transport izlarini, tashqi muhit ta'siridan yomg'ir va qordan saqlash choralari ko'rilishi kerak.

Statik ko'zdan kechirish chog'ida joylardagi obyektlar qanday turgan bo'lsa, vaziyatni o'zgartirmay, shu holda obzorli, markazli suratga olish lozim bo'ladi.

Dinamik ko'zdan kechirish aktiv harakat bo'lib, voqea joyini detalli ko'rib chiqishdir. Voqea sodir bo'lgan joyda o'qotish qurollari, gilza, patronlar, izlar, ashyoviy dalillar sinchiklab ko'rib chiqiladi, qo'lga olib

ko'riladi, agar ularni olib ketishning iloji bo'lmasa suratga olinadi. Suratga olish obyektlari jinoyat uchun bevosita aloqador bo'lgan maydon, ko'cha, bino, uy, o'rmon, temiryo'l, tomorqa yerlar, uying ichidagi ko'zga ko'ringan predmetlar va jinoyatdan qoldirilgan izlar, shuningdek oyoq kiyim, qo'l izlari, buzilgan, sindirilgan to'siqlar, buzish qurollari, transport vositalari va ularning izlari bo'lishi mumkin. Bular qo'shimcha ravishda ko'rgazmali dalil bo'lib xizmat qiladi. Voqea sodir bo'lgan joyni ko'rsatadigan fotografiya aniq maqsadlarga mos ravishda har bir ko'rib chiqish bosqichi bajarilganligini ko'rsatuvchi surat olingandagina to'liq bajarilgan hisoblanadi.

Voqea joyini suratga olish quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

1) Voqea sodir bo'lgan joyni uning atrofidagi ko'rinish bilan birga qo'shib suratga olish **mo'ljalli (orientirli) suratga olish** deyiladi. Bunday surat voqea sodir bo'lgan joydagi obyektlarning tashqi ko'rinishini va shu voqega aloqador joylarni to'liq ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

Agar keng joy maydonini, undagi butun vaziyatni birga qo'shib mo'ljalli suratga olish zarur bo'lib qolsa, unda keng burchakli obyektivlar bilan yoki panorama usulida suratga olish zarur bo'ladi. Ayrim hollarda voqea sodir bo'lgan joyda to'siqlar, ya'ni baland bino, daraxtlar bo'lsa, uning atrofidagi vaziyatni yuqoridan turib suratga olish mumkin.

2) **Obzorli suratga olish** voqea sodir bo'lgan joyning dastlabki holatini, u qanday ko'rinishda bo'lsa, shu ko'rinishda suratga olishdan iborat. Bunda voqea sodir bo'lgan joyni to'la va mazmunli aks ettirish, voqea taxminan aniqlangan joydan suratga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Obzorli surat voqea sodir bo'lgan joyni to'liq aks ettirishdir. Bunda olingan suratlar voqea sodir bo'lgan joyning eng muhim elementlarini, vaziyatning eng zarur joyini butun aks ettirishi kerak. Bunday vaqtda voqea sodir bo'lgan joy bilan, jinoyat sodir bo'lgan vaqtdagi vaziyatning holati, buyumlarning holati, predmet izlari bilan tanishib chiqiladi. Obzorli surat voqea sodir bo'lgan joydagi predmetlar soniga, suratga oluvchining pozitsiyasiga, turish holatiga bog'liq. Bir tomondan olingan suratda ba'zi detallar boshqa detallarning orqasida yashirinib qolishi mumkin. Shuning uchun obzorli suratni to'rt tomondan, ya'ni to'rt nuqtadan olish ma'quldir. Voqea joyidagi qo'zg'almaydigan va ko'zga yaqqol tashlanadigan predmetlar, ochiqdagi alohida bino, qurilish, yakka turgan daraxt, ko'cha va shunga o'xshashlar orientir nuqta qilib olingani ma'qul. Obzorli suratlarni olishda ko'proq panorama usuli qo'llaniladi. Bunda tergovchi voqea sodir bo'lgan joy bilan tanishishi, uning hajmi va chegarasini aniqlashi, vaziyatni ifodalovchi barcha holatlarni suratga olishi kerak.

3) Markazli (uzlovoy) suratga olish. Kriminalistik nuqtayi nazardan voqea sodir bo'lgan joyda yoki uning ayrim hududida mavjud bo'lgan ayrim predmetlarni suratga olib qo'yish muhim ahamiyatga ega. Ko'p hollarda bunday muhim markazli obyekt voqea sodir bo'lgan joydagi murda va uning atrofidagi izlar, qon dog'lari, jinoyat qurollari bo'lishi mumkin. O'g'rilik sodir bo'lgan joydagi eshik, deraza holati, omborning ochiq qolishi, yo'l harakati hodisasi sodir bo'lganda avtomobil halokati va hokazolarni alohida tasvirlash mumkin. Xususan, murdadagi jarohatlar, buzilgan eshik, deraza, devor va boshqa to'siqlardagi buzish qurolidan qolgan izlar, o'q otish qurolidan qolgan izlar mazkur usul bilan suratga olinadi.

4) Detalli suratga olish. Detalli suratga olishning asosiy vazifasi, mayda detallarni (daliliy ashyolarni) suratga olishdir. Masalan, moslama, kalit, temir, yog'och va boshqa materialning mayda qismlari, qo'l izlari, otilgan o'q va gilzalar, singan shisha parchalari va shu kabi boshqa obyektlar suratga olinadi. Detalli suratga olishning markazli usulidan farqi shundaki, ayrim detall, ashyoviy dalillarni joydan olib ketib, maxsus xona va alohida sharoitda suratga olish mumkin. Shu bilan birga suratga olinayotgan obyektning natural razmerini kuzatish maqsadida uning yoniga o'lchov asbobi (chizg'ich), santimetrli lenta qo'yib suratga olinadi.

Izlarni suratga tushirish ham o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Xususan, qo'l izlarini suratga olish odatda **ikki bosqichda** amalga oshiriladi:

1) qo'l izlari olingan predmet suratga olinadi. Bu qo'l izlarining joylashuvini ko'rsatish uchun zarur;

2) qo'l izlarining o'zi. Barmoqlarning yakka izlari yirik masshtabli suratga olish metodida uzunlashtiruvchi halqalar yordamida suratga olinadi. Qo'l izlarini suratga olishdan oldin ularning ustiga shu maqsadlarda qo'llaniladigan biror-bir kukun sepiladi. Agar qo'l izi rangsizligi tufayli suratga olinishi qiyin bo'lsa, izli predmet ekspert bo'limiga jo'natilishi kerak.

Oyoq kiyim va transport vositalari izlarini suratga olish. Bunda alohida va bir guruh izlar suratga olinishi mumkin. Izlar juda uzun bo'lsa yoki ketma-ket joylashgan bo'lsa, chizikli panorama qo'llaniladi. Bunda suratga olinadigan predmet yoniga masshtabli chizg'ich qo'yiladi. Ayrim oyoq kiyim izlari izning shakli va hajmini, shuningdek alohida belgi va xususiyatlarini aks ettirish uchun foydalaniladi. Transport vositalari izlarini suratga olishda rasmi aniq ko'rinadigan yoki biror alohida belgilari bo'lgan uchastkalari suratga olinadi.

Buzish qurollari va ularning izlari dastlab markazli suratga olish usulida, keyin esa masshtab usuli bilan suratga olinadi. Bunda foto kadr yo‘l qo‘yadigan darajada maksimal masshtabda surat olish lozim. Izlarning shakliga va alohida belgilariga alohida e‘tibor beriladi, sababi bu orqali qurolning shakli va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Fotoapparatdan to‘g‘ri yo‘nalishdagi va yoyilgan yorug‘lik berilganda, u iz relfining xususiyatlarini aniq ko‘rsatishi lozim. Bo‘yalgan tekislikni suratga olishda yorug‘lik filtrlari qo‘llanilishi mumkin. Murdani hodisa sodir bo‘lgan joyda suratga olish obzorli suratga olish qoidalari bo‘yicha bajariladi. Keyin esa markazli suratga olinadi. Bunda murdani ikkita qarama-qarshi tomonidan olish to‘g‘riroq bo‘ladi; uchinchi surat tepasidan olinadi. Agar murda oyoq yoki boshi tomonidan suratga olingan bo‘lsa, bu ma‘lum darajada perspektiv buzilishlarga olib keladi. Bunday suratga olishga faqat istisno hollarda yo‘l qo‘yiladi: yon tomonidan suratga olish imkoni bo‘lmaganida (murga tor joyda ekanligi sababli) yoki alohida ahamiyat kasb etgan murganing holatini aks ettirish uchun (nomusga tegib o‘ldirish holatida). Murga topilgan holatida suratga tushirilgandan so‘ng u ag‘darilib yoki ko‘chirilib, badanining ko‘rinmas joylarini suratga olish mumkin.

E‘tibor qiling! Hozirgi vaqtda raqamli suratga olish texnikasi rivojlandi. Zamonaviy raqamli suratga oluvchi plyonkasiz fototexnikalarda VGA (640x480) o‘lchami o‘rtacha sifatli rasmini ta‘minlaydi. Ayni damda XGA (1024x768) o‘lchamidan boshlab sifatli rasmlar hisoblanadi. Olympus D-600L, D-620L, Canon Powershot Pro-70, Nikon Coolpix 950, Minolta EX-1500, Kodak DC-260, Minolta Dimage 5(7), Olympus E-10 kabi fotoapparatlar bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda kriminalistik fotografiyada eng keng qo‘llanayotgan fotoapparatlardan hisoblanadi. Ular 1600x1200ga qadar o‘lchamda suratga olish imkoniyatiga egadir.

Sud fotografiyasi ish uchun daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy obyektlar va faktlarni yozib qayd qilish va tekshirish uchun qo‘llaniladi. Fotografiya usuli o‘zining ko‘rgazmali, aniq va tezkorligi bilan qayd etishning boshqa metodlaridan birmuncha farq qiladi.

Tekshirish uchun suratga olish mutaxassis tomonidan laboratoriya sharoitlarida maxsus tegishli uslublar qo‘llangan holda amalga oshiriladi. Aniq fototexnika vositalari va uslublarni tanlab olish tekshiriladigan obyektlar va tekshirish vazifalariga bog‘liq.

Bunday masalalar har xil usullarni qo'llash bilan hal qilinadi.

Mikro va makrofotografiya oddiy usul bilan tekshirib bo'lmaydigan o'rta, mayda izlar va boshqa detallar maxsus qisqa fokusli obyektiv yoki fotokamera yoki fotonasadka bilan birlashtirilgan holda mikroskop orqali aniqlanadi va qayd qilinadi.

Birinchi usulda obyekt 20-30 marta kattalashtirilib beriladi va u makrosurat deb yuritiladi.

Mikroskoplar optik va elektron mikroskop orqali yanada ko'p darajada kattalashtirilib berilishi (bir necha ming marta) mumkin va mikrosuratga olish yo'li bilan aniqlangan izlar, detallar ularning kattalashtirilgan tasvirlari bo'yicha amalga oshiriladi (MKS-1, MFN-2, MRKA, "Ularus" kabilar yordamida).

Suratga olishda mikroobyektlar tasvirining sifati ko'p jihatdan yorug'likning aniq belgilanishiga va yoritgich yo'nalishi to'g'ri tanlanganligiga, yoritgichning kuchiga bog'liq, chunki bunday holatda yorug'lik uncha ko'p bo'lmaydi.

Kontrast, ya'ni obyekt va undagi detاللarning ko'zga tashlanishidagi farqlar shunchalik sust bo'lishi mumkinki, ularni bir-biridan ajratish qiyin.

Kontrastni kuchaytirish uchun (masalan, qog'ozdagi yozuvning farqini) hujjat kontrastli fotomaterialga tasvirlarni ustidan qo'yish uchun bir martalik kontrast fotosuratga olib, tasvirni fotokimyoviy yo'l bilan ko'chaytirish uslublari bilan amalga oshiriladi.

Turli kriminalistik ekspertizalarni o'tkazish paytida quyidagi vazifalarni hal qilishga to'g'ri kelishi mumkin:

- 1) kichik hajmi obyektning oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan detallarini aniqlash;
- 2) oddiy ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan atrof-muhit fonidan salgina farq qiluvchi detallarni aniqlash;
- 3) oddiy yorug'likda ko'rib bo'lmaydigan detallarni aniqlash.

Ranglarni ajratish rangi o'zgargan, o'yilgan, shikastlangan (kuydirilgan), o'chirilgan, matnlar qo'shib yozilgan, ayrim chizmalarga yoki harflarga tuzatishlar kiritilgan hujjatlar tekshirilayotgan rangli kontrastlarni svetofiltr bilan suratga olish yo'li bilan kuchaytirish mumkin. Bunda fon yoki detallarni aniqlash vazifasi qo'yiladi.

Svetofiltrni tanlab olish uchun atrofda doira bo'yicha qo'shimcha ranglardan foydalaniladi. Qandaydir ranglarning detali tasvirini kuchaytirish uchun unga (doira bo'yicha mos keladigan) qo'shimcha rang beruvchi svetofiltr olinadi, yorug'likni kamaytirish uchun zamonaviy rang svetofiltri olinadi.

Ko'rinmas dog'larni spektming nurlarida suratga olish (ultrabinafsha, infraqizil, rentgen). Ultrabinafsha, infraqizil nurlar, shuningdek ko'rinadigan yorug'likning ayrim zonalarini spektming ko'rinmas zonalaridagi alohida moddalar luminessensiya ultrabinafsha yoki infraqizil nurlarga sezuvchan fotomateriallar bilan suratga olinadi. Fotoapparatning obyektiviga 3S-1, JZS-5, JS-17 yoki KS-19 svetofiltr yoxud kvarsli optik moslamalar ("Ufar", "Zufar" tipidagi obyektivlar) kiydiriladi.

Kaltalashtirilgan ultrabinafsha nurlari bilan suratga olish turlarini kattalashtirish va o'tkazishdagi farqlarga, binobarin, fotoqatlamlarga bir xil qabul qilinadigan yoki oddiy ko'z bilan qaraganda ko'rinmaydigan ayrim moddalar bilan ta'sir o'tkazishga asoslangan. Ko'p hollarda qaytarilgan ultrabinafsha nurlari orqali suratga olish kimyoviy reaktivlar bilan o'chirilgan hujjatlarni tiklash maqsadida amalga oshiriladi.

Filtr yordamida, masalan, obyektlardagi otilishdan qolgan iz yoki qon dog'larini aniqlab olish, siyoh to'kilgan, uchib ketgan yoki xiralashib qolgan xatlarni o'qish mumkin. Bunday obyektlarni infraqizil nurlari orqali IKS-1, IKS-2 svetofiltr yordamida infraxromatik fotomaterial yoki elektron-optik o'zgartirgich bilan oddiy fotomaterial orqali suratga olish mumkin.

Rentgen nurlarida tekshirishlar asosan laboratoriya sharoitlarida olib boriladi. Rentgen nurlari bilan suratga olish hajmli ashyolarning ichki tuzilishlarini ko'rish va tekshirish uchun qo'llaniladi. Rentgen nurida tekshirishda nur o'tmaydigan elementlar qo'llaniladi va maxsus apparatda kuzatish yo'li bilan yoki maxsus rentgen fotoplyonkalariga olib tekshiriladi. Kriminalistik tekshirishlar o'tkazishda rentgen nurlaridan tashqari radioaktiv nurlantirishdan, ya'ni gamma va betta nurlaridan foydalaniladi.

So'nggi paytlarda jinoiy hodisani to'liq va atroflicha qayd qilishning zamonaviy vositalardan biri tobora keng qo'llanilayotgan videotasvirga olishdir. Ilgari videoyozuv bo'lmaganda, magnit tasmasiga ovoz yozuvi, kino va fototasvir kabi dalillarni mustahkamlashning an'anaviy usullari qo'llanilgan. Fikrimizcha, bu usullarda bir qator kamchiliklar mavjud bo'lgan. Videoyozuv apparatlaridan 70-yillarning boshlarida jinoyat ishlarini tekshirishda foydalana boshlandi. Boshqa ilmiy-texnik vositalarga nisbatan afzalligi tufayli videoyozuv nafaqat dalillarni to'plash, tergov jarayonlari va natijalarini mustahkamlash, balki ish bo'yicha mustaqil dalil sifatida keng qo'llanishi bilan e'tiborli deyishga asos bor.

Dalillarni mustahkamlashning grafik va fototasvir usullaridan farqli o'laroq, videoyozuv barcha ma'lumotlarni dinamik tartibda to'liq aks ettiradi. Videoyozuvni qo'llash tergov harakatlarining borishi, voqealarning rivoji va jarayonining o'zi ham aks etgan to'liq axborot manbai ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. U ishonchli daliliy ashyolarni qo'lga kiritishga xizmat qiladi. Videoyozuv hodisani tergov harakati ishtirokchilari qanday kuzatgan bo'lsa, shunday holda qayta namoyon etadi. U alohida belgilarni faqat asl holatda emas, balki sekinlashtirilgan yoki tezlashtirilgan holda namoyish etishi, kadrlarni to'xtatish, unda aks ettirilgan voqealarni sinchiklab kuzatish va izchil o'rganib chiqish uchun qulaydir. Bu nafaqat dastlabki tergov, balki sud uchun ham alohida ahamiyatga molik. Xususan, sudlanuvchilarning dastlabki tergovda bergan ko'rsatuvlarini, ma'lumotlarini o'zgartirishi va boshqa yo'llar bilan dastlabki tergov materiallarining daliliy ahamiyatini yo'qotishga urinishi tekshirilganda, ayniqsa, qo'l keladi.

Videomagnitofon texnikasining afzalligi shundaki, izlarni suratga olish, tergov harakatlari o'tkazishda yetarli bo'lmagan jihatlarni to'ldirishda qo'llash mumkin (yomon ob-havoda, qorong'i joylarda). Qonunga ko'ra, kinotasvirdan foydalanganda, albatta, yuqori ta'sirchan surat tasmasi bo'lishi kerak. Videoyozuvda esa tungi vaqtda, ochiq, voqea sodir bo'lgan joylarni ko'zdan kechirishda qo'shimcha va sun'iy yorug'likdan foydalanilsa ham bo'ladi. Xususan, "Panasonic" videokameralari uchun noqulay sharoitlarda ham korpusida joylashgan galogen chiroq nuri quvvati yetarli bo'ladi. Bundan tashqari, qo'shimcha yorug'likni qo'llash va yoritishning boshqa usullarini qo'llash ham mumkin.

Videoyozuvni kinotasvir, videofonogramma bilan bog'liq tarzda tarjima qilingan filmning turli ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bunda u kinotasvir apparatidagi ifoda yorug'lik plyonkasida emas, balki videomagnitofondagi magnit videotasmasida mustahkamlanishi bilan farqlanadi. Xullas, videoyozuv voqeani qayd etishning eng qulay va ishonchli vositasi bo'lib, shubhaga yo'l qo'ymasligi bilan ustuvordir. Videoyozuvlar kinotasvir bilan solishtirilganda tezkor va aniq iqtisodiy afzalliklarga ham ega. Uning yana bir afzal jihati oq va qora kinomanbalari bilan solishtirganda ularga nisbatan kengroq axborot doirasiga ega rangli videotasmalardan foydalanish imkoniyati mavjudligidir.

Kinotasvirni kimyoviy qayta ishlashda uning sifati yuqori bo'lishi hamda to'liq yaroqli bo'lishiga kafolat bo'lmaydi. Kinoplyonkani montaj qilishda ham xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Kinokameradan farqli

o'laroq, videokamera avtomatik tartibda ishlaydi, videomagnitofonni televizion apparatga ulash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Videoyozuvning o'zni shundaki, videomagnit tasmasi hech qanday qayta ishlashni talab qilmaydi, balki ko'p marotaba ishlatilishi, videoyozuvni tergov harakatini tasvirga olish tugashi bilanoq namoyish etish mumkin.

Videoyozuv tergov harakati bayonnomasida yozilgan ayrim holatlarni to'liq va aniq berish, shuningdek unda ayrim sabablarga ko'ra yozilmagan predmet va hodisalarni aks ettirish uchun foydalaniladi, tergovchi yo'l qo'ygan kamchiliklarni to'ldiradi, bayonnomada yozilgan detallarni ko'rish va ularni tasavvur qilish imkonini beradi. Shuningdek, ishni to'g'ri hal qilishda ahamiyatli holatlar haqida obyektiv ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. U qulay va vaqtni iqtisod qilishi bilan ham afzaldir. Shu sababli videoyozuv texnikasini, avvalambor, tergovni qiziqtiruvchi hodisalar, manbalar va dinamik harakatdagi obyektlarni qayta tiklash va qayd etish uchun qo'llash maqsadga muvofiq.

Videoyozuv texnikasi, voqea joyini ko'zdan kechirish, u yer holat murakkab va tez o'zgaradigan bo'lsa, masalan, yong'in, suv toshqini, portlash, transport halokati yoki voqea natijalari bilan bog'liq, qayta tiklash ishlarini qayd etish hollarida samara beradi. Videokamera voqeaning umumiy tasviri, masalan, yong'in belgilarini batafsil o'rganib chiqishda yordam beradi. Ayrim hollarda hatto uning yuz berish sabablarini aniqlash, olov tarqalish yo'nalishini belgilashda qo'l keladi. Agar yong'in joyi o'rmon hududi bo'lsa, maydon taraflari bo'yicha yuqoridan ko'rinishi vertolyotdan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Videoyozuv o'zgaruvchan hollardagi ma'lum obyekt va hodisalarni ko'rish zarurati tug'ilganda, ma'lum shaxsning hodisalarni ko'rish zarurati tug'ilganda, ma'lum shaxsning aniq vaqt oralig'ida kasbga xos bilimlarni qo'llash bilan biror usulda ma'lum harakatni sodir etish imkoniyatini tekshirish kabi tergov eksperimentlarini o'tkazishda ko'proq foydalidir.

Dalillarni videoyozuv texnikasi yordamida qayd etishning yangi usuli protsessual me'yorlarga zid kelmaydi va jinoyat ishini tekshirishning samarasini hamda dastlabki tergov materiallarining dalil manbalari bahosini oshiradi.



1-rasm. Murdaning topilgan joyida ikki tomondan rasmga olish

Suratga va videotasvirga tushirish natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Jinoyatni ochishda va tergov olib borishda sud fotografiyasi suratlarni yetarli darajada yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashi kerak. Fotografiya suratga olingan holat va vaziyatning belgilarini va ma'lum obyektlarini to'la tasvirlay olishi lozim. Sud fotografiyasi dalillarni tasdiqlabgina qolmay, isbotlash jarayonini ham yengillashtiradi. Fotosuratlar bayonnomaga ilova qilinadi, ammo bu narsa tergovchini bayonnoma yozishdan ozod qilmaydi.

Oldingi olingan suratlar ham izohlab yozilishi kerak. Fotografiya tashqi ko'rishni ko'rsatadi, xolos, ammo tergovchining so'z bilan aytadiganlarini (materialning qattiq, yumshoqligi, ahamiyat darajasi, strukturasi) ko'rsata olmaydi.

E'tibor qiling! Kriminalistik fotosuratlar tergov harakati bayonnomasida o'z aksini topadi. Ko'zdan kechirish bayonnomasida olinayotgan obyektning nomi, fotoapparat rusumi, obyektiv markasi, yorug'lik turi, (tabiiy, sun'iy), negativ fotomateriallarning spektral sezgirligi, fotografiya usuli, suratga olingan kadrlar soni, diafragmasi va b. ko'rsatiladi. Mashtab bilan suratga olinmagan bo'lsa, masofani ko'rsatuvchi shkaladagi metri ko'rsatiladi.

Fotoapparat modeli va obyektiv markasi voqea sodir bo'lgan holatni rekonstruksiya qilish uchun kerak bo'ladi. Yorug'lik turi, yorug'lik filtri va fotomateriallarning sezgirligini ko'rsatish predmet yoki detalning yorug'lik darajasi ko'z bilan qaraganda baho berish uchun kerak bo'ladi. Suratdagi predmetlarning rangi va fotomateriallarning turiga qarab suratda u yoki bu kamchiliklar bo'lishi mumkin. Masalan, qizil, havorang, ko'k, jigarrangli predmetlar o'zining rangidan to'qroq chiqadi. Fotoapparat bilan suratga olinganda nuqtalar voqea sodir bo'lgan joyda tartib nomeri bilan belgilanishi va tayyorlangan fotosuratga mos kelishi kerak.

Guvoh, ayblanuvchining ko'rsatuvi bilan voqea joyini suratga olinganda bayonnomada suratga olingan obyektlar fotografiya usullari, olingan soni ko'rsatiladi. Bir obyekt ustida bir necha shaxslarning ko'rsatuv fikri bo'lishi uchun har xil yorug'lik filtrlari, negativ va diafragmani o'zgartirib olish va belgilash mumkin. Tergov eksperimenti, tanib olish uchun ko'rsatish va tintuvda obyektни aniqlash uchun fotografiya usuli va kadrlar sonini ko'rsatish yetarli. Bayonnomaga kiritilgan suratlar tushuntirish matni bilan to'ldiriladi. Matn suratning orqa tomoniga yoki kattaroq oq qog'ozga yopishtirilgan suratning tagiga yoziladi.

E'tibor qiling! Tushuntirish matnida quyidagilar bo'lishi kerak:
suratga tushirilgan obyektning nomi;
voqea joyining ko'rinishi;
predmetlarni daliliy ashyolarni to'plash va shunga o'xshash tergov harakati olib borilgan kuni, vaqti, surat yopishtirilgan bayonnomaga ilova qilinadi.

Muhim alomatlar nomer yoki belgi bilan ko'rsatiladi. Tanib olish uchun olingan surat tasviri ko'rsatilgan shaxsning ismi, familiyasi, otasining ismi tushuntirish matnida beriladi. Suratlar tergovchi yoki surishtiruv olib borgan shaxs tomonidan imzo qo'yilib tasdiqlanadi. Bayonnomaga xolislar va tergovchi imzo qo'yadi.

Ekspert-kriminalistlar tayyorlagan fotosuratlar o'zining maxsus shakldagi surat jadvali blankasiga yopishtiriladi. Fotografiya yordamida olib borilgan tekshirishlar ekspert xulosasining tekshirish qismida yozilgan bo'lishi kerak. Fotoapparat modeli, obyektiv markasi, yorug'lik manbai, yorug'lik filtri va fotoyorug'lik sezuvchi materiallar ko'rsatiladi. Xulosa jadvalga havola qilinadi, obyektning xarakterli belgilari ko'rsatiladi. Belgi bilan kontrol surat ham ko'rsatiladi, suratlar tushuntirish matni bilan to'ldiriladi, unda suratga olingan obyekt uchun qo'yilgan belgining ahamiyati tushuntiriladi. Har bir jadval ekspert imzosi bilan tasdiqlanadi.

Kino suratlarini rasmiylashtirishda bo'lgan hodisa bayonnomada ko'rsatiladi. Protsessual qoidalarga rioya qilib surati olingan obyektning xarakteri, epizodlarning olingan soni, qisqa mazmuni, suratga olish usullari, kinoapparatning modeli, obyektiv markasi, kadrlarning aylanish tezligi, yorug'lik turi bayonnomada ko'rsatiladi.

Tadqiqot fotosurat olish usullari

Yorqinlikni kuchaytirish

Rangini o'zgartirish

Fizikaviy, kimyoviy o'zgarishlar

Infraqizil nurlarda

Ultrabinafsha

Rentgen nurlarda

Radioaktiv moddalarning nurlarida

Tergov harakatlarini yuritishda fotosuratlar qo'llashni protsessual
rasmilashtirish

Tergov harakatlari bayonnomasida
ifodalash

Foto jadvalni rasmilashtirish

yorug'lik sharoitlari
suratga olingan obyektlar
suratga olgan shaxs haqida ma'lumotlar
fotosuratga olishning texnik vositalari va
sharoitlari (kamera turi, obyektiv rusumi,
plyonka sezgirligi, diafragma, muhlat,
qo'shimcha sharoitlar)

fotosuratlarni blankaga yopishtirish
tasvirning ahamiyatga molik detallarini
belgilash (chiziqlar, harflar, raqamlar
yordamida);
suratlarni tushuntiruvchi so'zlar
surat jadvalini tergovchi va suratga olgan
shaxs imzosi bilan tasdiqlash

Nazorat savollari:

1. Kriminalistik fotografiya qay hollarda va shakllarda qo'llaniladi? Zamonaviy fotoapparatlarni qo'llash imkoniyatlari qanday?
2. Kriminalistik fotografiya qanday metodlarga asoslanadi?

Kazuslar:

1-kazus

IIVga kelib tushgan xabarga ko'ra, Yashnobod tumani Hamid Olimjon ko'chasi, 9-uyda kech soat 21.00da noma'lum shaxslar uyga bostirib kirib bosqinchilik jinoyatini sodir etadi. Bosqinchilik jinoyati oqibatida oila a'zolaridan bir kishiga og'ir tan jarohati yetkaziladi. Ikki kishiga esa yengil tan jarohati yetkazilgan. Hodisa sodir bo'lgan joydan

3000 AQSH dollari miqdorida pul summasi olib ketilgan. IIV xodimlari hodisa joyini ko'zdan kechirib, O'z.R JK 164-moddasi 1-qismi ya'ni bosqinchilik jinoyati alomatlari mavjudligini aniqlab, jinoyat ishi qo'zg'atadilar. Hodisa joyidan qizil rangli dog'lar, bir qancha barmoq va oyoq izlari hamda ism yozilgan tamaki yondirgich topilgan. Lekin, topilgan narsalar jabrlanuvchiga taalluqli emasligi ma'lum bo'lgan.

Ushbu holat yuzasidan kriminalistik fotografiyaning qanday metodlaridan foydalanish mumkin? Dalillarni mustahkamlovchi va aks ettiruvchi vosita sifatida kriminalistik fotografiyaning hozirgi kundagi imkoniyatlari qanday?

2-kazus

2015-yil 5-yanvar kuni soat 13.00da Chilonzor tumani IIBda fuqaro A. tomonidan ariza kelib tushgan. Arizada quyidagilar aks ettirilgan. Fuqaro A. o'z oilasi bilan 1-yanvar kuni Qashqadaryoga mehmonga ketib, 5-yanvar kuni uyga qaytadi. Kelganida uyning tartibsiz holda yotganligi, qimmatbaho buyumlar yo'qolganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki tergov davomida voqea joyidan noma'lum shaxsning izlari topiladi va uyga kirishda buzuvchi qurollardan foydalanilganligi ma'lum bo'ldi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish davomida kriminalistik fotografiyaning qanday usullaridan foydalanish mumkin? Tergov harakatlarini o'tkazish davomida fotosuratning qo'llanilishi qanday usulda rasmiylashtiriladi?

6-MAVZU. KRIMINALISTIK TRASOLOGIYA

Trasologiya tushunchasi, izlarning tasniflari. Qo'l barmoq izlari. Oyoq va poyabzal izlari. Buzish qurollaridan qolgan izlar. Transport vositalarining izlari. Izlarni ko'zdan kechirish va protsessual rasmiylashtirish. Trasologik ekspertiza hal qiladigan masalalar.

Trasologiya tushunchasi va izlarning tasniflari

Trasologiya so'zi fransuzcha "la tras" – iz, grekcha "logos" – ta'limot so'zlarining birikuvidan hosil bo'lib, "izlar haqidagi ta'limot" degan ma'noni anglatadi. Trasologiya jinoyatlarni fosh qilishda va unga qarshi kurashda qo'llaniladigan kriminalistik texnikaning muhim sohalaridan biridir.

E'tibor qiling! Izlar haqidagi ta'limot deganda, keng ma'noda jinoyat sodir qilish natijasida vujudga keladigan barcha o'zgarishlar to'g'risidagi bilimlarni tushunamiz. Izlar jinoyat sodir etilgan joyda, jinoyatchining badanida va kiyimida hosil bo'ladi.

Kriminalistikada izlar **ikki guruhga** ajratiladi:

Hodisa yoki uning ayrim holatlari inson ongiga singib xotirasida saqlanadi va ma'lum vaqtlarda ma'lumot-axborot shaklida tiklanadi. Bu xildagi izlarni shartli ravishda **xotiraviy izlar** desa bo'ladi. Izlarning bu turi subyektiv xarakterga ega bo'lib, insonning sezish, qabul qilish, tafakkur qilish, xotirasida mustahkam va uzoq muddatgacha saqlash qobiliyatiga, shuningdek boshqa jismoniy va ruhiy xususiyatlariga bog'liqdir.

Moddiy izlar – jinoiy hodisa bilan bog'liq bo'lgan turli harakatlar natijasida bir obyektдан ikkinchi obyektда uning ma'lum qismidan aksi, modda qoldig'i yoki boshqa o'zgarish alomatları qoladi. Izni hosil qiluvchi obyekt izni o'zida aks ettiruvchida faqat kontakt bo'lgan tashqi tuzilishining biror qismidagina iz qoldiradi. Shu asosda iz hosil bo'lishida ikki obyekt o'zaro munosabatda bo'lib, birinchisi izni hosil qiluvchi, ikkinchisi izni o'zida aks ettiruvchi obyektlar guruhini tashkil qiladi.

Izlarni hosil bo'lish mexanizmi deyilganda, bir obyektning ikkinchi bir obyektда o'z tasvirini qoldirish jarayonini tushunish kerak. Ular individualligi va o'ziga xos xususiy belgilariga ega. Ana shu belgilar bir obyektning ikkinchi obyektga ta'siri natijasida iz hosil qiladi.

Esda tuting! Trasologiya – bu izlarning hosil bo‘lish mexanizmini, iz hosil qiluvchi obyektlarning guruh va individual mansubligini aniqlash, izlarning aksini qidirib topish, qayd etish va tekshirish uchun qo‘llaniladigan ilmiy-texnika vositalari va metodlarini ishlab chiqish haqidagi ta‘limotdir.

Jinoiy hodisa bilan bog‘liq bo‘lgan barcha izlar – qoldiq moddalar, turli o‘zgarishlar, obyektning bo‘laklari kabilarni o‘z ichiga oladi. Iz hosil qiluvchi predmet – buyumning tashqi individual tuzilishi aks etilgan izlargina trasologik tekshiruv predmeti bo‘la oladi. Bu masala trasologiyaning asosiy vazifasi bo‘lgan obyektlarning izlari asosida uning aynanligini yoki ma‘lum bir guruh (tur)ga mansubligini aniqlash tushunchasidan kelib chiqadi.

Trasologik izlarning tasnifi ularni hosil qiluvchi obyekt turlari bo‘yicha ham xilma-xildir. Odamning qo‘l, barmoq, yalangoyoq izlar, poyabzal izlari, ba‘zan tish va lab izlari ham uchraydi. Jinoiy harakatni sodir etishda turli to‘siqlarni buzish uchun asbob-qurollar ishlatiladi, bularni **buzish qurollaridan qolgan izlar** deb ataladi. Transport vositasining g‘ildiraklari va turli qismlaridan qoladigan izlar ham bor.

Ekspertiza tekshiruvlari ham ana shu guruhlariga tegishli bo‘lgan izlarning xususiyatiga qarab o‘tkaziladi. Obyektlardagi izlarning hosil bo‘lish mexanizmini va iz qoldirgan obyektlarning aynanligini aniqlash trasologik tekshiruv orqali bajariladi.

Izning hosil bo‘lish xususiyati uning alomatlari, shakli, o‘lchovi, qoldiqlari va boshqalarini o‘rganish orqali aniqlanadi. Mazkur tekshiruvga bevosita izni o‘zida aks ettirgan obyektning o‘rganish bilan erishiladi. Obyektning fotosurati, nusxasi faqat yordamchi vosita rolini o‘ynaydi. Shu bilan birga, jinoiy ish materiallarini ko‘zdan kechirish bayonnomasi, fotosuratlari va chizmalari tekshiruvni birmuncha yengillashtiradi.

Botiq izlar

qabul qiluvchi yuzaning iz qoldiruvchi obyekt bilan aloqada bo'lgan joyning to'qnash kelgan qismidagi o'zgarish hisobiga hosil bo'ladi (iz botiq holatda bo'ladi).

Yuzaki izlar

qabul qiluvchi obyektida iz qoldirgan obyekt yuza qismining aksi o'tishi natijasida hosil bo'ladi.

Hosil bo'lish mexanizmi bo'yicha

Statik izlar

izni hosil qiluvchi va qabul qiluvchi obyektlar aloqasining harakati natijasida yuz beradi (surkalish-timalish kabi shaklda).

Dinamik izlar

harakatsiz holatda hosil bo'ladi. Iz hosil qiluvchi obyektning tashqi tuzilishi statik izda aniq ifodalanadi.

Izlarning zarrachalar hisobidan hosil bo'lishiga ko'ra

Lokal izlar

ikki obyektning bir-biriga ta'sir etishi natijasida aloqa bo'lgan maydon ichidagi o'zgarishdan hosil bo'ladi.

Periferik izlar

maydon tashqarisida bo'lgan o'zgarishlardan hosil bo'ladi.

Qo'l barmoq izlari

Qo'l (barmoq) izlari boshqa izlarga nisbatan ko'proq uchrab turadi, chunki inson u yoki bu harakatni sodir qilganda qo'l bilan ushlaydi, oladi va boshqa amallarni bajaradi.

E'tibor qiling! Daktilos – barmoq ma'nosini anglatadi. Tergov amaliyotida izlar asosida muayyan shaxsning aynanligini daktiloskopik tekshiruv yo'li bilan aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo'ldan qoladigan izlarning ahamiyati izni hosil qiluvchi qo'ldagi teri tuzilishining o'ziga xosligi va takrorlanmasligi bilan belgilanadi.


Anatomiya fanining ma'lumotlariga binoan teri ikki qavat, ya'ni

Ma'lumot uchun! Qo'l izlarining ahamiyati inson qo'li barmoqining oxirgi bo'g'imlaridagi papilyar chiziqlarning individual, ya'ni har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lishi va bu xususiyat insonning umri davomida o'zgarmas, mustahkam tasvirga egaligidadir. Terining tuzilishi insonning homiladalik davrida shakllanib, umri bo'yi o'zgarmay va o'lgandan so'ng ham to'liq chirish yuz berganga qadar saqlanib qoladi. Teri kashtasining xususiyati, undagi barcha alomatlar yig'indisi ikkinchi shaxsda takrorlanmasligidir.

derma va epidermis qatlamlaridan iborat bo'lib, derma ichki qatlami, epidermis esa tashqi qoplovchi teri qatlamini tashkil qiladi. Ichki qatlam (derma)da teri tuzilishi silliq bo'lmay o'ziga xos papilyar (kashta) tuzilishi bilan tavsiflanadi. Kashtalar papilyar chiziqlar hosil qilib, ustki qatlam – bu chiziqlarni takrorlaydi.

Qo'l kafti, barmog'i yoki boshqa joyi zarar ko'rganda ham (kuyish, kesilish va boshqalar) ustki qatlami ma'lum bir vaqt o'tishi bilan to'la va avvalgi holatga tiklanadi. Faqat terining ichki (derma) qatlami chuqurroq zararlansa, papilyar chiziqlari shikastlanib o'rnida chandiq izlari hosil bo'ladi. Bu ma'lumotlar amaliy va nazariy jihatdan qator tadqiqotlar asosida tasdiqlangan.

Barmoqdagi papilyar chiziqlar uch
qismdan iborat



Esda tuting! Kashtaning ichki chiziqlar oqimi atrof chiziqlar oqimi bilan uchraydigan joy delta deb nomlanadi.

Izlar kashta chiziqlarining necha oqimdan iboratligiga va bu oqimlarning yo'nalish shakliga qarab tasniflanadi. Barmoqdagi papilyar kashtalar ana shu oqimning yo'nalishidagi murakkabligiga qarab uch turga: yoysimon, sirtmoqsimon va aylana shaklidagi chiziqlarga bo'linadi.

Yoysimon kashtada chiziqlar bir tomondan ko'tarilib aylana hosil qilib, qarama-qarshi tomonga yo'naladi.

Sirtmoqsimon kashtada ichki oqimdagi ikki yoki undan ko'p chiziq kashtaning markazida sirtmoq tashkil etadi va yana qayta o'z tomoniga yo'naladi. Sirtmoq hosil qilgan chiziqlar oqimining og'ishi bosh barmoq tomoni bo'yicha yo'nalsa, sirtmoqdagi kashtaning radial formasi, agar og'ish jimjiloq tomon bo'lsa, ulinar formasi deb ataladi. Kashtadagi sirtmoqlarning o'zi oddiy, berk, yarimta va bukilgan formalarda bo'ladi. Kashtadagi sirtmoq hosil qilgan papillyar chiziqlarning har uch oqimi bir-biriga yaqinlashgan joyda bitta uchburchak delta hosil bo'ladi.

Aylana kashtada papillyar chiziqlar turli shakldagi dumaloq, markazdan o'ngga yoxud chapga yo'nalgan aylana doiralardan tashkil topgan bo'lib, har ikkala tomonida deltasi bo'ladi. Ushbu deltalarning o'zaro joylashishi asosida ham aylana kashtalar turlarga bo'linadi.

Ekspertiza faoliyatida ko'p hollarda barmoq izlari tekshirilib turiladi. Kaftning u yoki bu qismi izlari nisbatan kamroq uchraydi. Biror modda bilan qo'llar, barmoqlarni kashta tuzilishlarini aniqlash mumkin. Ko'rinmaydigan izlarni ko'rinarli qilib, kriminalistik texnik vositalari yordamida ko'chirib olinadi. Izlar alohida predmet, buyumlarda topilgan hollarda izni predmeti bilan olinib (unga hech qanday vosita qo'llanilmasdan) ekspertizaga yuboriladi.

Solishtirib tekshirish uchun shubhalanilgan shaxslarning o'nta barmog'i va ikki kaftning izlari maxsus daktilokartalarda aks ettirilib namuna sifatida yuboriladi.

Ma'lumot uchun! Jinoyat sodir bo'lgan va boshqa hodisalar ro'y bergan joylarda qo'l izlarini silliq predmet – buyumlarda, masalan, bo'yalgan pol, devor, eshik-deraza yog'ochlari va metall qismlari, uy-ro'zg'or buyumi, mebellarning silliq ustki qatlamlaridan izlash lozim. Silliq bo'lmagan o'ziga yog' va teri suyuqligi singdiradigan buyumlarda iz qolgan bo'lsada, uni ko'rinarli qilish, ko'chirib olish va identifikatsiya qilishning iloji bo'lmaydi, chunki bunday iz individuallik xususiyatlarini aks ettira olmaganligi sababli yaroqsiz hisoblanadi.

Hodisa joyida topilgan barmoq izini fotosuratga olib mustahkamlangandan so'ng uni maxsus daktiloplyonkaga ko'chirib olinadi va namunalar bilan ekspertizaga yuboriladi. Ko'rinmaydigan va bo'yalgan qo'l-barmoq izlari alohida kichik buyum yoki jinoyat qurolida qolgan bo'lsa, mazkur predmetni hech qanday o'zgarishsiz izlari bilan olib, maxsus usul bilan o'rab joylashtirib ekspert ixtiyoriga havola qilmoq tavsiya etiladi. Ekspertiza topilgan iz shubhalanilganing qaysi qo'li va barmog'idan qolganligini aniqlashga yordam beradi.



2-rasm. Qo'l barmoq izlari

Chapda hodisa joyidan topilgan iz, o'ngda gumon qilinuvchi barmog'idan namuna izi (bir xildagi belgilar raqamlar bilan ko'rsatilgan).

Oyoq va poyabzal izlari

Oyoq, poyabzal va paypoqlardan qolgan izlar hajmli va yuzaki ko'rinishda bo'ladi. Oyoqlardan qoladigan hajmli izlar ko'proq identifikatsiya qilishga yaroqli bo'ladi. Ular ko'pincha bo'sh tuproqda, qorda yoki nam qumlarda qolishi mumkin. Izlarni tekshirish faqat oyoqning katta-kichikligi yoki poyabzallarning shakli va o'lchamini aniqlab qolmasdan, balki izlarda aks ettirilgan ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga qarab shaxsning aynan o'zligini aniqlashga imkon bo'ladi. Oyoq izlari asosan yurganda, sakraganda yoki chopganda hosil bo'ladi. Shuning uchun ham ularning hosil bo'lish mexanizmi odatda hosil bo'ladigan statik izlardan birmuncha farq qiladi.

Tekshirish uchun yaroqli bo'lgan dinamik izlar hodisa sodir bo'lgan joylarda qolishi mumkin. Chunki poyabzallarning tagcharmi qattiq va yumshoq materiallardan qilinganligi uchun sirg'anish natijasida qolgan izlarda ularning identifikatsiyaviy xususiyatlari yaxshi aks ettirilmaydi. Biroq tagcharm va poyabzallarning poshna qismlarining sirg'anishi natijasida izlarda poyabzalga qoqilgan mix va taqalardan izlar qolgan bo'lsa, bunday vaqtlarda obyektlarni identifikatsiya qilish mumkin bo'ladi.

Oyoq izlari yaqqol ko'rinish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli ularni topish uchun maxsus usullarni qo'llashga zarurat tug'ilmaydi. Yalangoyoq izlarni qidirishda qo'l izlarini topishda qanday usullar qo'llansa, bunda ham xuddi shunday usullar qo'llanadi, ya'ni turli

yonboshdan yorug'liklar berish yo'li bilan yoki turli burchakdan ko'rish usuli bilan topish mumkin. Yod bug'i bilan changlantirish usuli va ningidrindan foydalanish ham izlarni topishda ijobiy natija berishi mumkin

Ma'lumot uchun! Poyabzalning o'lchamini topish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak: a) izning uzunligini o'lchash; b) topilgan sonni 10-15 mm kamaytish; d) qolgan sonni 6,67ga taqsimlash. Masalan, izning uzunligi 280mm. $280-10=270$; $270:6,67=40$. Shunday qilib, iz qoldirgan poyabzal taxminan 40 o'lchamli deyish mumkin. Poyabzal iziga qarab kishining bo'yini taxminan topish mumkin. Kishi bo'yi poyabzal izidan 6,7 barobar uzun bo'ladi.

Poyabzallardan qolgan izlarga qarab ularning tagcharm qismining tuzilishi, poshnasi, tagcharmida alohida shakllar, yuzasining tuzilishi (silliq, kashtalik), shuningdek tagcharmning poyabzalga tikilish usullari to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Bu belgilarning umumiy yig'indisi poyabzalning o'lchami to'g'risida aniq xulosa yuritish imkoniyatini beradi.

Yalangoyoqdan qolgan izlarni tekshirish bilan uning shakli va razmeri, agar izda barmoq izlari ham aniq aks etgan bo'lsa, ularning shakli va hajmi to'g'risida xulosa chiqazish imkoni tug'iladi. Shu narsani nazarda tutmoq kerakki, harakat vaqtida barmoqlar birmuncha yoyilib ketadi va ularning aksi yurmasdan turgan vaqtda qoldirgan izga nisbatan uzunroq va enliroq bo'ladi.

Yalangoyoq izlarning uzunligi izning o'qi bo'ylab, tovonidan to katta barmoq uchigacha bo'lgan masofada o'lchanadi. Oyoqning tovon va kaft qismlarining eni, ularning eng keng joyidan oyoq yuzasining eni va eng qisqa joyidan o'lchanadi.

Poyabzallardan qolgan izlarning uzunligini aniqlash uchun poyabzal tagcharmining eng chetidan to uchigacha o'lchanadi. Tagcharm uzunligi, izning o'qi bo'ylab, tagcharm eni – eng keng joyidan, o'rta qismi eng qisqa joyidan, poshna qismining eni eng keng joyidan va poshna qismining uzunligi iz o'qi bo'ylab o'lchanadi.

Hodisa joyida bir necha oyoq izlari topilgan taqdirda, ulardan bittasi o'lchanib qolmasdan barchasi o'lchanishi zarur. Bu yerda izlar "yo'lka"si hosil bo'ladi va ularni suratga olinib keyin masshtabli rejaga ko'chiriladi. Yo'lkalarning quyidagi o'ziga xos elementlari: yurish yo'nalishi, qadamning uzunligi va eni, tovonning burish burchagi bo'ladi.

Hajmli oyoq izlaridan nusxalar olish uchun gipsdan foydalaniladi. Gips quruq va yaxshi birikadigan mayda bo'lishi kerak. Gips bo'tqasi tayyorlangandan keyin oyoq izlariga ikki xil usulda quyiladi. Birinchi quyilishda iz yarimgacha to'ldirilib, ustidan gips nusxaning mustahkam va

jipsligi uchun turli cho‘p yoki sim quyilib undan keyin ikkinchi marta gips quyilib iz to‘ldiriladi. Shuni nazarda tutmoq kerakki, gipsni izga quyishda izning chet qismlari ag‘anab tushib ketishi mumkin. Shuning uchun gips suyuqligini to‘g‘ridan to‘g‘ri izga quymasdan chetroqdagi tuproq ustiga quyilsa, gips o‘zi sekin oqib izga tushadi, bu esa izning hamma qismlaridan to‘liq nusxa chiqishiga imkon yaratadi.

Agar izlar yumshoq obyektlarda bo‘lib, gips yaroqsiz holatga kelib qolish xavfi tug‘ilsa, bunday izlarga gips quyishdan avval 6 foizli spirtda suyultirilgan shellak qorishmasi (lak, surg‘ich, plastmassa), atseton (2,5 foiz)da eritilgan sellyulloza yordamida izning yuz qismiga purkash yo‘li bilan qotirilib, keyin gipslik nusxa olinsa, mustahkam chiqadi.

Tergov va ekspertiza amaliyotida yalangoyoq izlarga nisbatan poyabzal izlari ko‘proq uchrab turadi. Poyabzal izlari odatda yurish – harakat natijasida hosil bo‘ladi, bu vaqtda dinamik va inson tinch to‘xtab turgan joyida statik izlar qolishi mumkin. Yurish, qadam tashlash jarayonida poyabzaldan qisman statik va oyoqning harakati natijasida dinamik izlar hosil bo‘ladi. Oyoqlardan biri sudralish xususiyatiga ega bo‘lsa, harakat natijasida sirg‘anish yuz beradi, bunda poyabzal izlari sof dinamik xususiyatga ega bo‘ladi. Identifikatsiya uchun ko‘p hollarda statik izlarning botiq shakllari ahamiyatlidir. Bu izlarni kuzatish, o‘lchash, o‘rganish bilan poyabzal (u kiyilgan oyoq)ning o‘lchami, shakli, ya‘ni qaysi guruhga mansubligi bilan bir qatorda iz qoldirgan poyabzalning aynanligini aniqlash mumkin.


Poyabzalning yuzaki izlari bo‘yicha faqat umumiy xususiyat belgilarini kuzatish mumkin. Ba‘zi hollarda izlar tekis joylar (parket, pol, linoleum, marmar, silliq plitkalar)da qolganagina poyabzalning individual xususiyati aks etadi. Bunday holatlarda identifikatsiya o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Dinamik izlar bo‘yicha ularning hosil bo‘lish mexanizmi va obyektning qaysi qismidan hosil bo‘lganligi aniqlanadi.

Yalangoyoq izlar kamroq uchrab tursa-da, ularning identifikatsiya nuqtayi nazaridan ahamiyati kattadir. Odamning oyoq tavanida mikrorelef kashtalari mavjud bo‘lib ular ham individuallik xususiyatiga egadir. Shu bois yalangoyoq izlar bo‘yicha uni qoldirgan muayyan shaxsning aynanligini belgilash mumkin. Insonning tovon terisidagi papillary chiziqlar, teri tuzilishi (mikrorelefi) individual bo‘lib, umr bo‘yi o‘zgar olmaydi. Bu holat bir qator ilmiy tadqiqot va kuzatuvlar asosida tasdiqlangan. Yalangoyoq izlar yumshoq va yarim yumshoq obyektlarda botiq holatlarda va tekis joylarda esa yuzaki shaklda qolishi mumkin. Ularni o‘lchash va ko‘chirib olish uchun qo‘l izlariga doir umumiy usullar

tavsiya etiladi. Yalangoyoq izlarni o'lashda bosh tomondan (katta barmoqdan) tavonning sirtqi chetigacha uzunligi, kaft qismining markazi, oraliq chiziqcha chegarasigacha uzunligi va kengligi, tavon qismi ham uzunligiga va eniga o'lchanadi. Bu umumiy guruhga mansubligini belgilaridir.



3-rasm. Poyabzal izlari, hodisa joyidan olingan izning qolipi va tekshiriluvchi poyabzal raqamlar bilan bir xildagi belgilar ko'rsatilgan



4-rasm. Oyoq izlar yo'lkasi (harflar bilan o'lchov belgilari ko'ratilgan)

Buzish qurollaridan qolgan izlar

Jinoyatchilar binolarga kirish maqsadida turli to'siqlarni buzib, qulflarni turli usullarda ochish va shikastlash yo'lidan foydalanadilar. To'siqlar o'z xususiyati, tuzilishi va vazifasi bo'yicha turlicha bo'ladi. Jinoyatchilar turli predmet – asboblarni, jumladan, yog'och, temir, shishalarni qurol sifatida ishlatadilar. Masalan, duradgorlik, slesarlik asboblari, uy-ro'zg'or va xo'jalikda ishlatiladigan qurollar, qulflarni buzib ochish uchun moslama kalitlar va boshqalar.

E'tibor qiling! To'siq bo'lgan obyektlarning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin: 1) turli shakl va tuzilishdagi qulflar; 2) qurilish to'siqlari va turli moslamalar, masalan, seyf qutilar, buyum, pul va boshqa saqlash qurilmalari.

Jinoyatchilar ko'p hollarda qulflarni buzadilar va ba'zida boshqa kalitga o'xshash moslamalar bilan ochadilar. Qulflarni buzishda ba'zan qulf yopiq ilingan holda to'siq bilan birga ko'chirib olinadi. Moslama kalitlar va boshqa kalitning shakliga o'xshash asboblardan ochilganda qulfning ichki qismida tiralish, sirg'alish kabi izlar hosil bo'ladi. Qulflar to'siq buzilganda qattiq metall buyum-asbob bilan qulf biriktirilgan eshik-deraza kesakisini ajratadilar. Bunday hollarda to'siqning o'ng yoki chap qismida botiq izlar hosil bo'ladi. Qulflar avvalgi holati o'zgarmasdan ilingani bo'yicha qoladi.

Ma'lumot uchun! Osmo qulflarni buzganda turli slesarlik asboblardan ishlatiladi. Ombur, nojovka (metall qirqadigan arra) kabilar bilan qulf bandi kesiladi yoki lom bilan siqib buzish quroli tekkan joylarda botiq yoki yuzaki izlar hosil bo'ladi. Qulfning ichki qismidagi ba'zi joylari (rigel, prujina tishlari) zararlanadi va qulf qisman ilingan holda saqlanadi. Eshik, deraza, devor kabi to'siqlar buzilganda sindirish, buzishga moslashgan asbob-predmetlarni qo'llaydilar. Metallardan yasalgan qurilmalarni (seyf, shkaf kabi) buzishda avtogen asbobini ham qo'llaydilar.

Kesilish natijasida buzish qurollaridan obyektlarda ikki tomonlama iz qoladi. Qurol eshik oralig'iga kiritilgan vaqtda eshikning o'zida hamda to'sinida iz qolishi mumkin. Bunday izlardan, ayniqsa, buzish qurolining uchidan qolgan izlardan, qurol uchi qismining guruh mansubligini, shaklini, razmeri, ba'zi vaqtlarda hatto ularning guruh mansubligi va aynan o'zi ekanini aniqlash ham mumkin.

Buzish obyektlari ikki guruhga – qulflarga va bino to'siqlariga bo'lib o'rganiladi. Qulfni buzish yoki sindirish deganda, uni qisman yoki to'liq yaroqsiz holatga keltirilishiga aytiladi.

Ma'lumot uchun! Qulflar asosan ikki turga: ichki va osma qulflarga bo'linadi. Ichki qulflarni sindirish tajribada kam uchraydi, chunki buning uchun, avvalo, qulf o'rnatilgan obyektlarni yoki eshik va romlarni buzishga to'g'ri keladi. Osmo qulflarni sindirish yoki buzish esa tajribada ko'proq uchraydi. Osmo qulflar ko'pincha qulfni obyektidan yulib olish, kesib olish yoki halqasini arralash, egovlash yo'li bilan buziladi yoki sindiriladi.

Qulfni obyektidan yulib yoki sug'urib olinganda obyektida buzish qurolining uchida hajmli izlar qoladi. Ba'zi vaqtlarda izlar qulfning tashqi qismida ham qolishi mumkin. Qulflar ko'p hollarda uning halqasini kuchli o'tkir qaychilar bilan qirqish yo'li bilan buziladi. Kesilish natijasida halqada qaychining izlari qolsa, arralash natijasida esa qanday turdagi arralash

asboblaridan foydalanilganligini bildiruvchi iz belgilari qoladi. Arralash izlaridan faqat foydalanilgan qurolning turi, arralashning harakat tomonlari, arra tishining qalinligi va boshqa belgilarini aniqlab olish mumkin. Arralash vaqtida hodisa joyida arralashdan chiqqan qipiqalar va singan qulf halqasining bo'lakchalari qoladi. Obyektlarni ko'zdan kechirishga bunday holatlarga alohida ahamiyat berish zarur bo'ladi. Ayrim vaqtlarda, gumon qilinayotganlarning oyoq kiyimlari va tirnoq tagidan metall qipiqalari topilishi mumkin. Mobodo ular hodisa joyidan topilgan qipiqalar bilan bir xil deb topilsa, jinoyatni ochish uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari qulflarni ko'zdan kechirishda quyidagi holatlarni, ya'ni qulfning yotgan joyini, turlarini, eni va uzunligini tashqi tuzilish holatini, undagi izlarni, buzish qurollaridan qolgan izlarning shakllari, razmeri va boshqalarni aniqlab olish zarur bo'ladi. Bularni hammasi obyektlarni buzishda jinoyatchilar tomonidan qo'llanilgan usullarni aniqlashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Buzish qurollaridan qoladigan izlar bo'yicha identifikatsiya o'tkazish uchun hodisa joyida obyektlarni ko'chirib olish ishlari kriminalistik texnika tavsiya etadigan qoidalari asosida bajarmoq lozim. Jumladan, buzilgan qulfni topilgan joyida uni holatini o'zgartirmasdan suratga tushirish, bayonnomada qayd etish, statik uslubi bilan ko'zdan kechirib, qismlarini bir-biridan ayirmagan turg'unlik holda maxsus qutilarga joylashtirish lozim.

Ko'rsatilgan obyektlarning tadqiqot tekshiruv natijasida ularga ta'sir etgan, qo'llanilgan qurol turi, sifati, izlarning hosil bo'lish mexanizmi aniqlanadi, keyin tergov tezkorlik choralarini ko'rib individual identifikatsiya o'tkaziladi. Solishtirib tekshirish uchun izlanuvchi – tekshiriluvchi obyekt va shubhalangan qurol izlaridan ko'chirma tayyorlanib olinadi. Identifikatsiyaning umumiy uslublari qo'llanilib tekshiruv o'tkaziladi.

Ekspertiza tekshiruviga buzish qurollari va ulardan qolgan izlar bilan bir qatorda hodisa joyini va obyektlarni ko'zdan kechirish bayonnomasi, fotosuratlari, hodisa joyining chizmasi va boshqa yordamchi ma'lumotlarni ham yuborish maqsadga muvofiq.

Transport vositalarining izlari

Transport izlari deganda, asosan uning g'ildiraklaridan qoladigan izlar nazarda tutiladi. Transportning g'ildiragidan qoladigan izlarning turlari yo'l-ko'channing ustki qatlami-relefiga bog'liq. Yumshoq, yarim

yumshoq (loy, qor, nam tuproqli) qatlamlarda botiq izlar va qattiq (asfalt, tosh, beton-plitalar) qatlamlarda yuzaki izlar qoladi. Transport tormozlanganda yoki boshqa sabablar bilan sirg'anish natijasida dinamik izlar hosil bo'ladi.

Avtotransport vositalaridan iz hosil bo'lish mexanizmi o'ziga xos xususiyatga ega. Avtotransport to'g'ri ketayotganda to'rtta g'ildirakdan to'rtta iz qolmasdan faqat ikkita iz qoladi, chunki oldingi g'ildirak izlarini orqadagi g'ildirak izlari qoplaydi. Faqat burilish (qayrilish) joyida hamma g'ildiraklardan iz qoladi.

Yuk tashuvchi motorollarning hamma g'ildiragidan (ular to'g'ri yo'ldan ketganda ham) iz qoladi, chunki ularning g'ildiraklari ketma-ket o'rnatilgan emas. Uch o'qli transport vositalari burilish joyida oldingi va orqadagi g'ildiraklaridan iz qoldiradi, chunki orqa g'ildiraklar o'rta g'ildiraklarning ayni ustidan bosib o'tib, bitta iz hosil qiladi.

Transport vositalarining qaysi guruhga mansubligini (turi, markasi, rusumi) pnevmatik shina izlariga qarab aniqlash mumkin. Protektorlarning tuzilishi, eni va tashqi diametri shina modelini aniqlashda asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi vaqtlarda avtotransport konstruksiyalari sonining tobora o'sib borishi tufayli ularning qoldirgan iziga qarab qaysi guruhga mansubligini aniqlash ancha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli hodisa joyini ko'zdan kechirishga zarur belgilarni to'g'ri va to'la ifodalash uchun avtomobil texnikasi sohasida yaxshi bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni taklif etish maqsadga muvofiqdir.

G'ildirakli ot-arava transportlaridan qoladigan izlar g'ildiraklarning soni, oralarining eni, diametri va boshqa belgilariga qarab aniqlanadi. Ot-arava transportlariga ishlatilayotgan shinalar, temir g'ildiraklarning tuzilishi aniqlanib olinishi zarur. Bunday transportlarda pnevmatik shinalar, rezinadan qo'yilgan g'ildiraklar va temir g'ildiraklar ishlatilishi mumkin.

Transportlardan qoladigan izlar ko'pincha statik izlarga yaqinroq bo'ladi. Agar g'ildiraklarning mayda tashqi qismlari izlarda yaxshi aks ettirilgan bo'lsa, bu turdagi transportlarning izlarini identifikatsiya qilish mumkin. Shinalarning sirg'anish natijasida hosil bo'ladigan dinamik izlar elastik bo'lganligi sababli mayda releflari iz qabul qilib oluvchi obyektlarda to'la aks etmaydi. Shuning uchun bunday izlar identifikatsiya uchun yaroqsiz, lekin transport guruhini aniqlashga imkon beradi.

Transport vositalaridan qoladigan izlardan nusxalar olish trasologiya obyektlarini ko'zdan kechirish va qayd qilishning umumiy qoidalariga

binoan amalga oshiriladi. Olinadigan nusxa juda katta bo'lib ketmasligi uchun izlarga gips qo'yishdan oldin bir necha bo'lakka bo'lib, keyin gips suyuqligi qo'yilsa, samarali natija beradi.



5-rasm. Transport vositasi g'ildirak qoplamasidan izlari

Izlarni ko'zdan kechirish va protsessual rasmiylashtirish

Hodisa sodir bo'lgan joyda topilgan izlarni, albatta, ko'zdan kechirib, bayonnomada qayd etish zarur. Bayonnoma JPKning 90-moddasiga asosan tuzilib, unda topilgan izning turi, xususiyati va individual belgilari aks ettiriladi.

Izlarni ko'zdan kechirish bayonnomasi **uch qismdan** iborat bo'lib, birinchi qismda: kim tomonidan, qayerda va qachon, qanday hodisa yuzasidan izlar qidirilgani kabi ma'lumotlar bayon etiladi. Ko'zdan kechirish qanday sharoitda, qanday yorug'likda, qanaqa optik asboblardan yordamida o'tkazilganligi, ko'zdan kechirish qachon boshlanib, qachon tugaganligi va ishtirokchilar yoziladi.

E'tibor qiling! Bayonnomaning ikkinchi qismida: iz topilgan predmetning nomi; shu predmetning qayeridan, qanday usulda va qanday texnik vositalardan yordamida izlar topilganligi; izlarning turi, soni; izlarning razmeri, aniq ifoda etilgan xususiyatlari; izlar qanday usulda qayd etilganligi va olinganligi, bayonnomaga qanday ko'rinishda ilova etilganligi; izlarning sxematik tasviri qayd etiladi.

Bayonnomaning uchinchi yakunlovchi qismida ko'zdan kechirish ishtirokchilari tomonidan tushgan takliflar, izohlar aks ettiriladi. Bu qismda qanday izlardan nusxalar olinganligi, hodisa joyidan dalil sifatida nimalar olinganligi yoziladi. Bayonnoma barcha ishtirokchilar tomonidan imzolanadi.

Izlar odatda **fotografik o'lchov metodi** asosida mufassal detalni suratga olish yo'li bilan qayd etiladi. Fotografik usulda qayd etilishi va izlarning sxematik tasviri bayonnomaga qo'shimcha qayd etish usuli bo'lib hisoblanadi.

Fotografik usulda izlarning asl holatiga hech qanday o'zgarish kiritilmasdan uning tasviri tushirib olinadi. Shuning uchun har qanday holatda izni dastavval suratga olish kerak.

E'tibor qiling! Izlarni suratga olishda stereoskopik, panorama, masshtabli va yirik masshtabli usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Izning xususiyatiga qarab aniq va soyalantiruvchi nur berish lozim.

Mexanik usulda izlarni qayd etish asosan botiq izlardan gips yordamida quyma nusxalar olish, yuzaki izlardan esa iz ko'chirib oluvchi materiallarga ularning nusxasini tushirib olishdan iborat. Agar iz qabul qilgan obyektning o'zining izi bilan olish imkoniyati bo'lmasa, ushbu usuldan foydalaniladi. Izdan nusxalar ko'chirib olishda uning har bir katta-kichik elementlarini maksimal darajada aniq va ravshan bo'lishiga erishish zarur.

Trasologiyada umuman iz qabul qilgan obyektning o'zini olgan ma'qul. Imkoni bo'lmagan taqdirdagina yuqorida qayd etilgan usullardan foydalaniladi. Iz qabul qilgan obyektidan nusxa olishda unga moddiy zarar keltirmaslik chorasini ko'rish zarur.

Iz tushgan obyektga unga biror o'zgarish, tashqi ta'sir bo'lmasligini ta'minlaydigan qilib joylashtirish lozim. Izga nisbatan biror usul qo'llanishidan oldin unga tushgan chet narsalar (barg, cho'p va hokazolar)ni olib tashlash kerak. Botiq izlar agar suv bilan to'lgan bo'lsa, suvni rezina so'rg'ichi yoki qog'oz so'rg'ich yordamida olinadi. Agar botiq izlar sayoz, ya'ni unchalik chuqur bo'lmasa, izning qolipi kerakli darajadagi qalinlikda bo'lishi uchun iz atrofiga devorcha aylantiriladi.

Ba'zan iz mayda va o'zaro yaxshi jipslanmagan zarrachali obyektlarda qoladi (masalan, qum, un, sement, quruq tuproq va shu kabilarda). Shu tufayli bu izlarni olish yoki ulardan nusxalar ko'chirish mumkin bo'lmaydi. Chunki bu zarrachalar tarqalib ketib iz shaklini buzib yuboradi. Bunday hollarda ilgarigi izni vaqtinchalik qotirib, undan nusxa ko'chirib olinadi. Lekin iz bor obyektning o'zini olib ketish, ishga daliliy ashyo sifatida qo'shish juda katta qiyinchilik tug'dirganligi tufayli hozir izni perxlorvinil eritmasi bilan mustahkamlash usuli ishlab chiqilgan. Bu usulda sochilib ketuvchi narsalar, o'ziga purkalgan perxlorvinilni asta-sekin shimib olib, mayda zarrachalar bir-biri bilan qattiq yopisha boshlaydi. Natijada ular bir butun qattiq obyektga aylanadi. So'ngra izli obyektga olish, jinoyat ishiga qo'shish imkoniyati tug'iladi. Bunday izlarni mustahkamlash uchun atsetonda 6-8 foizli perxlorvinillik eritma tayyorlanadi va pulverizator orqali purkaladi. Taxminan 20-50 minutlardan so'ng izni ko'chirib olish mumkin bo'ladi.

Hajmli izlardan nusxa olish. Agarda izni qabul qiluvchi obyekt bilan birga olish imkoniyati bo'lmasa, u holda izning shaklini, hajmini hamda releflardagi xususiyatlarini maksimal darajada aniq va to'g'ri aks ettiradigan ko'chirma nusxa olish zarur bo'ladi.

Hajmli izlardan nusxa olishda **gipsdan** foydalanish mumkin. Gipsdan qattiq va yumshoq yuzalarda qolgan hajmli izlarni olish uchun foydalaniladi. Gips suvda qaymoq suyuqligida qorilib izga qo'yiladi va ob-havo vaqtiga qarab taxminan 10-20 minutdan so'ng uni olib, turli loy va boshqa predmetlardan tozalanadi. Ikkinchi usuli qatlamlash deyiladi. Bunda quruq gips namlangan iz ustida bir qatlam sepiladi, gips bir oz qotgandan so'ng ikkinchi qatlam sepiladi va shu tariqa istalgan qalinlik hosil qilinib olinadi.

Ma'lumot uchun! So'nggi vaqtlarda izlardan mikrorelefi saqlangan nusxalar olishda yangi kimyoviy materiallardan foydalanila boshlandi. Bu materiallardan biri polimer hisoblanadi. Bu polimer silikon pasta "K" nomi bilan yurgiziladi. Pasta "K" – tez quruvchan, kulrang, har qanday yuzada yaxshi joylanadigan xususiyatga ega. Pastaning qo'yilib qolishini tezlatish maqsadida yuz qism pastaga 7–10 qism katalizator qo'shiladi.

Ayrim hajmli izlardan nusxalar olishda plastilindan ham foydalanish mumkin. Ammo plastilin yopishqoq bo'lgani uchun uni glitserin yoki vazelin bilan yumshatib keyin izdan nusxa ko'chirib olinadi.

Trasologik ekspertiza hal qiladigan masalalar

Sud trasologik ekspertizasi kriminalistik ekspertizaning bir turi hisoblanadi. Trasologik ekspertiza yordamida turli-tuman masalalar hal etilishi mumkin. Shulardan eng muhimi iz hosil qiluvchi obyekt va uni qoldirgan izi bo'yicha individual identifikatsiya qilishdir. Sud trasologik ekspertizasining obyektlari bo'lib qo'l, oyoq, buzish qurollari, transport vositalari va boshqa izlar hisoblanadi.

E'tibor qiling! Sud trasologik ekspertizasi quyidagi turlarga bo'linadi:

- daktiloskopik ekspertiza;
- oyoq (poyabzal) izlari bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza;
- buzish qurollari va uskunalaridan qoladigan izlar bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza;
- transport vositalaridan qoladigan izlar bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza;
- tishlardan qoladigan izlar bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza;
- bo'laklardan bir butunlikni aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan ekspertiza.

Daktiloskopik ekspertizasi hodisa joyida barmoq izlari qoldirgan shaxs, iz hosil bo'lgan vaqt va sharoitni aniqlash imkoniyatini beradi.

Daktiloskopik ekspertizaning **obyektlariga** quyidagilar kiradi:

- barmoq izlari qoldirgan predmetlar yoki ularning qismlari;
- ko'zga xira ko'rinadigan barmoq izlari mavjud bo'lgan predmetlar;
- daktiloskopik plyonkaga ko'chirib olingan barmoq izlari;
- predmetlardagi izlarning keng ko'lamlil olingan fotosurati;
- barmoq izlardan olingan gipslik nusxalar;
- jinoyat ishining boshqa materiallari (bayonnomalar, dastlabki ekspertiza xulosasi);
- taqqoslab tekshirish uchun gumon qilinganning barmoqlaridan olingan nusxalar.

E'tibor qiling! Oyoq (poyabzal) izlari bo'yicha o'tkaziladigan ekspertizada hodisa joyida iz qoldirgan shaxs va uning ayrim xususiyatlari (bo'yi, yoshi va h.k.) aniqlanadi. Bu turdagi ekspertizaning obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- u yoki bu predmetda qoldirilgan yuzaki oyoq izlaridan daktiloskopik plyonkaga ko'chirib olingan nusxalar;
- botiq oyoq izlaridan olingan gips nusxalar;
- oyoq izlari olingan fotosurat;
- jinoyat ishi materiallari;
- gumon qilingandan olingan poyabzal;
- agar hodisa joyida paypoq izi topilgan bo'lsa, gumon qilingandan olingan paypoqlar;
- agar hodisa joyida yalang oyoq izi topilib, undan gipslik nusxalar olingan bo'lsa, gumon qilingan shaxs oyog'ining 2-3 nafar eksperimental nusxasi.

Buzish qurollaridan qoladigan izlar bo'yicha o'tkaziladigan ekspertizada hodisa joyida qoldirilgan izlar, buzish qurollari va uskunalarni identifikatsiya qilish hamda sud trasologiyasi bo'yicha mavjud bo'lgan maxsus bilimga asoslanib izlarning hosil bo'lish mexanizmi aniqlanadi:

- buzish qurollari izlari mavjud bo'lgan predmet yoki uning bir qismi;
- hodisa joyidan topilgan izlardan olingan nusxa;
- iz topilgan predmet va izning fotosurati;
- hodisa joyidan topilgan yoki gumon qilingan shaxsdan olingan buzish qurollari;
- hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi.

Transport vositalaridan qoldirilgan izlar bo'yicha o'tkaziladigan

ekspertizada yo'l transport hodisasida ishtirok etgan transport identifikatsiya qilinadi. Uni sodir etish holatini va sud trasologiyasi, sud avtotexnikasi bo'yicha maxsus bilimga asoslanib hodisa mexanizmini aniqlash hisoblanadi. Ekspertizaning **obyektlariga** quyidagilar kiradi:

- transport vositasi yoki uning qismlari;
- transport vositasining hodisa joyidan topilgan qismlari (gayka, singan oyna bo'laklari va boshqalar);
- odamni bosib ketish hodisasi sodir etilgan taqdirda, jabrlanuvchining kiyimi;
- hodisa joyida mavjud bo'lgan izlardan olingan gipslik nusxa;
- fotosuratlar;
- jinoyat ishi materiallari;
- tekshirilayotgan transport vositasining g'ildiragidan qog'oz yoki gazmolga olingan nusxalar;
- hodisa joyidan topilgan transport vositasidan olingan qismlar.

Tishlardan qoladigan izlar bo'yicha o'tkaziladigan ekspertizada hodisa joyidan topilgan turli obyektlarda (jabrlanuvchining tanasida, oziq-ovqatlarda, sigareta qoldiqlarida) qoldirilgan izlari orqali shaxs identifikatsiya qilinadi.

Bo'laklardan bir butunlikni aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan ekspertizada hodisa joyidan topilgan obyekt bo'lakchalari aniqlanadi. Hodisa joyidan topilgan bir tUSDagi predmetga oid barcha bo'lakchalar ekspertiza obyektlari bo'lib hisoblanadi. Masalan, yirtib tashlangan qo'lyozma bo'lakchalari, bo'laklab tashlangan odam tanasi. Bu bo'lakchalar bir-biri bilan taqqoslab tekshirilib bir obyektga tegishli ekanligi aniqlanadi.

Sud trasologik ekspertizasini o'tkazish uchun barcha materiallar to'plangandan keyin tergovchi JPKning 180-moddasiga asosan qaror chiqaradi va unda ekspert oldiga qo'yiladigan aniq savollar, ekspertiza tekshiruviga yuboriladigan materiallar ko'rsatiladi.

Barcha materiallar ekspertiza o'tkazishga yaroqli va yetarli bo'lishi lozim. Ekspertiza tekshiruvi quyidagi **bosqichlardan** iborat:

Birinchi – ekspertizaga kelgan obyektlar va ekspert oldiga qo'yilgan savollar bilan tanishib chiqish bosqichi. Bu bosqichda ekspert ekspertizaga yuborilgan materiallarning to'liqligini tekshiradi, uning oldiga qo'yilgan savollar bilan tanishib chiqadi, agar qo'yilgan savollar uning maxsus bilimi doirasidan chetga chiqqan bo'lsa, ekspertiza o'tkazilmaydi.

Ikkinchi – obyektlarni alohida-alohida tekshirish bosqichi. Bu bosqichda ekspert tekshirishga yuborilgan obyektlarning tashqi tuzilish belgilarini va ularning ekspertiza o'tkazishga yaroqliligini aniqlaydi.

Uchinchi – solishtirib tekshirish bosqichi. Bu bosqich ekspert tekshiruvining asosiy va muhim bosqichi hisoblanib, unda tekshirilayotgan izlarning o'xshashlik va farq qiluvchi belgilari aniqlanadi va ular baholanadi.

To'rtinchi – xulosa yozish va uni baholash.

Hozirgi vaqtda ekspertlarning ixtiyorida sud-trasologik ekspertizani o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha ilmiy-texnikaviy vositalar va usullar mavjuddir. Ekspertizani o'tkazishda bevosita ko'z bilan kuzatish, mikroskopik, fotografik, profilografik metodlar keng qo'llanilmoqda. Trasologik obyektlarni tekshirishda hozirgi vaqtda elektron mikroskoplar va hisoblash texnikaviy vositalaridan ham foydalanilmoqda.

Sud trasologik ekspertizasi hal etadigan masalalar uchun guruhga bo'linadi

Izlarning hosil bo'lish mexanizmini aniqlash	Obyektlarning guruh mansubligini aniqlash	Obyektlarning individual mansubligini aniqlash
		

Nazorat savollari:

1. Kriminalistikada trasologiyaning o'rni va ahamiyati nimalardan iborat? Biror-bir jinoyat misolida uni fosh etishda trasologiyaning o'rmini yoritib bering.

2. Izlarning qanday turlari bor? Qo'l barmoq izlarining o'ziga xos jihatlarini izohlab bering.

Kazuslar:

1-kazus

Xonadonda sodir etilgan o'g'rilik ishini tergov qilishda, hodisa joyidan turli predmetlardan 12 ta barmoq izlari topilgan va olingan. Ma'lum vaqt davomida o'g'rilik jinoyatini sodir etishda gumonlangan K. qo'lga olindi.

Daktiloskopik ekspertiza uchun qanday materiallar jo'natilishi lozim? Ekspert oldiga qo'yiladigan savollarni shakllantiring. Daktiloskopik ekspertizani o'tkazish necha bosqichda amalga oshiriladi.

2-kazus

Avtoyo'lining chetida yalang'och holda ayol murdasi topilib, uni yuzi tanib bo'lmas holatga kiltirilgan. Murda ko'zdan kechirilganda, uning bosh qismida jarohatlar mavjud bo'lsa-da, ammo murda va uning atrofida qon izlari topilmagan. Shuningdek, murdaning oyoqlari bukilib, qorin qismiga tortilgan holatda yotgani aniqlangan. Murda atrofida murdani ko'rgan odamlarni oyoq izlari mavjud. Murdadan 100 m narida qo'lda to'qilgan gilam topilib, unda qonga o'xshash dog'lar aniqlangan. Gilamda yo'lga qarab yo'naltirilgan kam ko'rinadigan izlar borligi aniqlangan. Murda ko'zdan kechirilganda uning shaxsi aniqlanmagan.

Tergov versiyasi tushunchasi, turlarini tavsiflang. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib tergov versiyasi (tasmollari)ni tuzing va uni tekshirish chora-tadbirlarini belgilang. Qanday turdagi trasologik ekspertizani tayinlash mumkin?

7-MAVZU. KRIMINALISTIK BALLISTIKA

Ballistika tushunchasi va tekshiruv obyektlari. O'q-otish qurollarining turlari va qismlari. Otilgan o'q va gilzalar asosida otish qurolini identifikatsiyalash. Otishdan qoladigan jarohatlarni, otish masofasini, o'qning yo'nalish tomonini aniqlash. Portlovchi moddalarning tekshiruvi. Sovuq qurollarning tekshiruvi.

Ballistika tushunchasi va tekshiruv obyektlari

Sud ballistikasi kriminalistika texnikasining bir tarmog'ini tashkil qilib, jinoyat hodisasi bilan bog'liq bo'lgan o'qotar qurollar, o'q-dorilar, portlatish moddalari, o'q otishdan, portlatishdan hosil bo'ladigan o'zgarishlar, izlar va qoldiq moddalarni tekshirish bilan shug'ullanadi.

Esda tuting! Ballistika (grek tilida "ballo" – "otaman" ma'nosini bildiradi)ning asosiy mohiyatini o'q (sochma o'qlar)ning qurol ichidagi va havodagi harakatini o'rganish tashkil etadi.

Kriminalistik ballistikada harbiy ballistika va texnikaning ayrim ta'limotlaridan, hozirgi kun yutuqlarini o'z vazifasiga moslashtirilgan holda foydalaniladi. Ballistika sohasiga otish qurollarining tuzilishi, turlari, otishdan hosil bo'ladigan o'zgarishlar, o'q-dorilarni (patron, o'q-gilzalarni) qaysi quroldan otilganligini tekshirish masalalari kiradi.

Kriminalistik ballistika fanning boshqa sohalari, ayniqsa, trasologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Otishdan hosil bo'ladigan o'q va gilzalardagi izlarning vujudga kelish mexanizmini o'rganish va tekshirish, trasologiya nazariyasining umumiy ilmiy asoslariga tayanadi.

O'q otishdan hosil bo'ladigan turli alomat va jarohatlar inson tanasida yuz bersa, ular sud-tibbiyot tekshiruvida obyekt bo'lib hisoblanadi, boshqa to'siqlardagi barcha o'zgarish, jarohatlar kriminalistik ballistika sohasiga tegishlidir.

E'tibor qiling! Kriminalistik ballistika tekshiruviga quyidagi obyektlar kiradi: o'qotar quroli, unga o'xshash bo'lgan moslama va yasama qurollar, qurolning ayrim qismlari, otilgan-otilmagan harbiy snaryadlar, portlovchi moddalar va ularning qoldiq zarrachalari, otishdan hosil bo'ladigan turli to'siqlardagi izlar va jarohatlar, alohida otilgan o'q (snaryad), gilza, sochma o'q donalari (drob, kartech) va boshqalar.

Hodisa joyidan, jabrlanuvchi tanasidan topilgan va olingan o'q-gilzalar bilan bir qatorda, solishtirib tekshirish uchun eksperimental otishdan hosil qilingan o'q va gilza, porox qoldiqlari, sochma o'q namunalari ham tekshiruv obyektlari qatoriga kiradi.

Balistik tadqiqot o'rtasidagi vazifasiga oid masalalar

<p>otish qurolining soz-nosozligi, otishga yaroqli ekanligi va quroldan o'q o'z-o'zidan otilib ketishi mumkinligini aniqlash</p>	<p>otilgan o'q va gilza avval bitta patronni tashkil qilganligini aniqlash; o'q va gilzalar aynan qaysi quroldan otilganligini aniqlash</p>	<p>otish sharoiti-holati (joyi, masofasi, o'qning yo'nalishi) va boshqa holatlarni aniqlash</p>

o'q-otar qurollarining tuzilishi bo'yicha turlari, ularning har bir tur yoki guruhga tegishli bo'lgan qismlari;
 o'q, gilza qanday quroldan otilganligini (aynanlik yoki guruh mansubligini) aniqlash;
 otish qurollarini, patron, portlovchi moddalar va ularning qismlarini kelib chiqish (ishlab chiqish) usulini aniqlash;
 otish quroliga o'xshash buyumlarni otish quroli qatoriga kiritish.

O'q-otish qurollarining turlari va qismlari

Tergov va ekspertiza amaliyotida jinoiy maqsadda ishlatiladigan o'q otish qurollaridan ko'p hollarda kichik, kalta stvolli qo'lda otishga mo'ljallanganlari uchrab turadi. Otish qurolining stvoli (o'q chiqadigan yo'li) silliq silindr shaklida bo'lib boshlanish joyi dasta ustida bo'lib, chiqish (uchi)dan biroz diametri jihatdan kattaroq bo'ladi. Bu joyni ballistikada "patronnik" – o'q bilan gilzaning birgaligini tashkil qiluvchi patronlarning joylashuv joyi ham deyiladi. Otishga tayyorlangan patron stvolning bosh tomonida joylashgan bo'lib, harbiy holatga keltirilganda patronning gilza ustidagi kapsuli (portlovchi poroxni yondiruvchi qismi) tepki to'g'risiga joylashadi.

Ma'lumot uchun! Stvolning uzun va qisqa bo'lishi quyidagicha: uzun stvolli qurollar (uzunligi 40 smdan ortiq bo'lganlari) o'rta uzunlikdagi stvollar (20 smdan 40 smgacha bo'lgan) va qisqa stvolli qurollar (uzunligi 20 smdan qisqa bo'lganlar). Uzun stvolliklarga harbiy va ov miltiqlari, karabinlar kiradi, o'rta stvollik qurollar qatoriga turli avtomatlar, jumladan, "Kalashnikov" avtomati kiradi, qisqa stvollik qurollarga revolver (to'pponchalar), pistoletlar va ba'zi qo'lda yasalgan qurollar va qirqmalar (stvolni qisqartirish maqsadida kesilgan

Qo'lda otishga mo'ljallangan barcha qurollar **ikki** guruhga bo'linadi: stvolning ichki tuzilish jihatidan **silliq** stvolli va **o'yma stvolli** qurollar. Silliq stvolli qurollarga ov miltiqlari (sochma o'q otishga moslangan), eski ishlab chiqarish to'xtatilgan shompollik pistoletlar va qo'lda yasalgan qurollar kiradi.

O'yma stvolli qurollarning xususiyati – stvolning ichki tuzilishi silliq bo'lmay stvol devorida aylanma shaklida bo'lgan ariqchalar mavjud bo'lib, ular otilgan o'qni katta kuch bilan siqilib chiqib uzoq masofaga yetishini, aylanma shakli esa o'qning stvoldan chiqqach mo'ljalga yo'nalishini o'zgartirmasdan nishonga to'g'ri borishini ta'minlaydi.

Kriminalistik identifikatsiya uchun stvol ichidagi chuqurchalar oralig'idagi maydonchalar stvoldan chiqayotgan o'qning yon qismida tiralish, sirg'alish shaklidagi izlarni hosil qiladi. Bular qurolni identifikatsiya qilish uchun jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Chuqurchalarning soni turli qurollarda turlichadir: ko'pchilik qo'lda otishga mo'ljallangan pistoletlarda, to'pponchalarda to'rtta, ba'zilarida oltita, yettita va kamdan kam qurollarda uchraydigani sakkizta chuqurcha bo'ladi. Chuqurchalarning aylanma yo'nalishi o'ng tomonga ba'zilarida chap tomonga qaratilgan bo'ladi.

Chuqurchali qurollar guruhiga barcha harbiy, ba'zi sport-o'quv miltiqlari va qo'lda ayrim qismlardan yig'ilgan qurollar kiradi.

E'tibor qiling! Stvolning ichki diametri "**kalibri**" deyiladi va mm.da o'lchanadi. Eng ko'p uchraydigan qurollar 5,6; 6,35; 7,62; 7,62; 8 va 9 mm li kalibrga tegishlidir.

Qurolning tarkibiy bo'lgan patronlar (gilza va o'qlar) ham ana shunday o'lchovdagi kalibrga ega bo'lib, tegishli qurollarga moslashgandir.

Ma'lumot uchun! Kalashnikov avtomati 7,62-AK; ba'zilari AKM, AKS, AKSU tizimidagilari 5,45 mm.li kalibrga egadirlar. TT (Tokarev), PM (Makarov pistoletlari), APS va PSM qurollari quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

TT – Tulada ishlangan Tokarev pistoleti-7,62 mm.li kalibrli, to'rtta o'ng tomonga yo'nalgan chuqurchali stvolga ega, (magaziniga) sakkizta patron joylashadi va jangovor holatga keltirilishi avtomatlashgan;

PM – Makarov pistoleti – zaryadkasi (harbiy holati) avtomatlashgan, 9 mm kalibrli, to'rtta o'ng tomonga yo'nalgan, chuqurchali stvoli bor, magazini sakkizta patron sig'diradi, tepkisi (spuskovoy kurok) ochiq va harakatchan;

APS – avtomatlashtirilgan Stechkin pistoleti kalibri 9 mm, to'rt chuqurchali stvol, magaziniga 20 ta patron joylashadi.

PSM – Lapasheyev, Simarin va Kulikovlar tomonidan ishlangan kichik gabaritli pistolet 5,45 kalibrli to'rt chuqurchali stvol magaziniga 8 ta patron joylashadi.

Revolver (to'pponcha) – to'la avtomatlashtirilmagan stvoli to'rt chuqurchali, patronlar joylashadigan qismi aylanma, dumaloq baraban shaklida bo'lib, 7 patron kiradigan alohida (skamorasi) uyalari bor, jangovor holatga qo'l bilan keltiriladi, otish jarayonida baraban aylanib uyasidagi patron stvolga to'g'rilanadi.

Silliq stvolli miltiqlar asosan **ikki** turda bo'ladi: dastasi bilan stvol qismi **buklanadigan** va **buklanmaydiganlari**. Buklanadigan ov miltiqlari bir otar, ikki, ayrim hollarda uch otar, (uch stvolli) bo'ladi.

Ba'zida jinoyatchilar silliq stvolli miltiqlarning stvollarini kesib arralab qisqartiradilar, yashirin olib yurishga moslaydilar. Bular amaliyotda “qirqma” deyiladi. Ulardan otilgan o'qning tezligi ov miltig'idan birmuncha pastroq bo'ladi.

Yasama qurollar birmuncha soddalashtirilgan, silliq stvolli yakka o'q otishga mo'ljallab tayyorlanadi. Bular odatda 5,6 mm kalibrli patronlarga moslashgan bo'ladi. Tashqi ko'rinishini niqoblash maqsadida ularga turli asbob-buyum (hassaning dastasi, yozish-chizish quroli) shaklini beradilar. Bular “атипичный”, ya'ni tipik bo'lmagan otish qurollari deyiladi.

Qo'lda yasalgan shompollik qurol yakka o'q otishga moslangan bo'ladi. Unda o'q va poroxni shompol bilan stvolga joylashtiradilar, ba'zida ikki, uch marta otishga mo'ljallanganlari ham uchrab turadi. Ular 5,6 mm kalibrli patronlarga moslashgan bo'ladi.

Otish quollarining ayrim qismlari patron ularda turli izlar hosil qiladi: izlar qurolni otishga hozirlashda, magazindan patron stvolga uzatilganda, tepki kapsulaga zarba berishganda porox gazining bosimi (kuchi) o'qni stvoldan itarib chiqarganda, o'qdan ajralgan gilza orqaga harakat qilib qaytarish qismiga urilganda qoladi. Otilgan gilzada magazin prujinalaridan, tepkidan, gilzani chiqarib tashlash ilgagidan izlar hosil bo'ladi. Otilgan o'qda esa stvolning ichki qismidagi chuqurchalarning oraliq maydonchasidan timalish shaklida izlar hosil bo'ladi.

Hozirgi kunda ishlatiladigan barcha **harbiy patronlarning tarkibini** gilza, kapsul, porox zaryadi va o'q tashkil qiladi. Ov miltiqlarining patronida porox bilan sochma o'q aralashib ketmasligi uchun ularning orasiga ajratgich (prokladka) va o'qning ustidan namatgacha (рыж) qoplamalari ishlatiladi.

Ma'lumot uchun! Gilzalar temir va latun metalidan tayyorlanadi, ov miltiqlari uchun qog'oz-kartondan ham ishlanadi, pastki qismini metal, ustki devorini esa karton tashkil qiladi. Gilzaning bosh qismi o'q joylashadigan joyi, devori va ostki qismi asosida identifikatsiya qilib, qurolning qaysi guruhga mansubligi va aynanligini aniqlash mumkin.

Hodisa joyidan topilgan o'q va gilzani ko'zdan kechirish natijasida ular qanday modeldagi quroldan otilganligini aniqlash mumkin. So'ngra shubhali qurol topilgan taqdirda identifikatsiya o'tkazilib mazkur qurolning aynanligi, ya'ni otilgan o'q va gilza "ana shu quroldan otilganmi" degan masala hal etiladi.

Qurolning o'zi topilmagan hollarda o'qning qanday patron turiga tegishli ekanligi, umumiy tuzilishi, shakli, og'irligi, qanday metallardan yasalganligi, gilzaga qanday uslubda birlashtirilganligi va boshqalar aniqlanadi.

Otilgan gilzaning ham umumiy shakli bosh qismi va asoslarining tuzilishi, o'lchovi (diametri va uzunligi) bosh qismining ichki o'lchovi, og'irligi, markirovka belgilari va boshqalarni kuzatish bilan qanday turdagi quroldan otilganligi haqida fikr yuritiladi shubhalangan qurolni izlashda qidirish doirasini ancha qisqartiradi, yengillashtiradi.

Silliq stvolli qurollarga mo'ljallangan sochma o'qning ayrim donalari (drob, kartej) topilgan taqdirda ularning zavodda yoki qo'lda ishlanganligi, qanday usulda tayyorlanganligi, shakllari, og'irligi, kimyoviy tarkibini spektografik xususiyatlari aniqlanadi. Bu masala tekshirilayotgan sochma o'qning guruh mansubligini aniqlash bilan birga har xil joylarda topilgan bir necha o'q donalarining bir manbaga tegishli ekanligini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Ov miltiqlariga mo'ljallangan

patronlarning qoplamasini tekshirib, patronning kalibri, qanday materialdan ishlanganligi, ishlanish uslubi va boshqalari aniqlanadi. Qoplamalar uy sharoitida qo'lda yasalganda uning materialiga (qog'oz, karton, jun, namat) kabi o'xshash materiallar va ularning bo'laklari bir xil joylarda topilgan taqdirda trasologik tekshiruv ham o'tkazilishi mumkin.

Otilgan o'q va gilzalar asosida otish qurolini identifikatsiyalash

Qurollarni identifikatsiya qilishning ilmiy asoslari qurolning iz hosil qiladigan qismlari, otilgan o'q va gilzalarning iz aks ettiradigan ustki tuzilishlari individuallik xususiyatiga ega ekanligidadir.


Individual tashqi tuzilish xususiyati stvolning ichki tuzilishidagi chuqurcha oraliqlariga ham xos bo'lib, o'q stvoldan chiqish jarayonida siqilib, sirg'alib ana shu individual tashqi tuzilish (mikrorelf)ni o'zida aks ettiradi. Patronning gilza qismida esa uni otishga hozirlash paytida, so'ngra bevosita otish chog'ida turli izlar aks etadi. Ularning umumiy o'lchovi, shakli birinchi navbatda qurolning qaysi guruhga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Umumiy belgilari bilan bir qatorda mikrorelfni ifoda etuvchi xususiy belgilar yig'indisi esa identifikatsiya o'tkazishga asos bo'ladi. Otilgan o'q va gilzalar asosida o'tkaziladigan tadqiqot hodisa joyida topilgan o'q va gilzalarning umumiy belgi-xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi. So'ngra ulardagi izlarni qurolning muayyan qismi bilan solishtiriladi. Ko'p hollarda solishtirib tekshirish uchun shubhalangan quroldan eksperimental otish yo'li bilan namuna o'q va gilza olinadi. Shundan so'ng ulardagi izlar - alomatlar o'zaro solishtirib tekshiriladi. Eksperimental o'q otishni maxsus tayyorlangan paxtada, suv va boshqa sun'iy to'siqlarda amalga oshiriladi. Bunda o'qning tezlik harakati to'siqda susayadi va hosil bo'ladigan izlar o'zgar olmaydi.

Qurollarni tadqiq qilishda va solishtirib tekshirishda bir necha uslublar qo'llaniladi. Bu ish eng qulay va ko'proq ishlatiladigan uslubiy solishtirib tekshirishga moslangan mikroskop yordamida amalga oshiriladi. Kuzatish va tekshirish jarayonida tekshirilayotgan obyektlarni turli belgilarini uzunlik, kenglik va boshqa holatlari imkonini beradi. Shu bilan birga obyektlarning ayrim holatlarini fotosuratga olish bilan bir yo'la kimyoviy tarkibini spektografik tahlil qilish mumkin. Otish qurollarining ayrim qismlarini, patronning gilza, o'q, sochma o'q donalari, porox va boshqa obyektlarning spektografik tahlili hodisa joyida topilgan qismlar bilan shubhalanilgan o'xshash modda va ashyolarning guruh va turdosh mansubligini aniqlashda keng qo'llaniladigan uslubdir.

Sochma o'qlarning ayrim qismlari hodisa joyida yoki boshqa joylarda topilganda ularning yasaliishi, materiali, saqlanish sharoitlari, alomatlari kabi belgilari yig'indisi asosida ikki har xil joyda topilgan sochma o'q donalarining manbayi bitta ekanligi aniqlanadi. Bu identifikatsiya o'tkazishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, guruh mansubligi va aynanlik haqidagi xulosaga zamin tayyorlaydi. Ballistika ekspertizasiga yuboriladigan qurol, topilgan joyida ko'zdan kechiriladi, uning umumiy holati bayonnomada qayd etiladi, qurol holati o'zgaraymay maxsus rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Qurol zaryadlangan, jangovar holatga keltirilgan bo'lsa, undagi patron chiqarib olinadi, magazinda nechta patron borligi qayd etiladi. Qurolning umumiy ko'rinishi, turi, unda izlar, moddalar mavjudligi va boshqa ko'rinarli alomatlari bayonnomada batafsil qayd etiladi.

Qurol otishga yaroqli-yaroqsiz ekanligini tekshirish uchun uni qismlarga ajratib ko'zdan kechirish qat'iyan man etiladi, chunki ekspertiza tekshiruviga ahamiyatli bo'lgan izlarni yaroqsiz qilib qo'yish xavfi bo'ladi.

Ekspertiza o'tkazish uchun ahamiyatli bo'lgan turli to'siqlardagi o'q otishdan hosil bo'lgan (o'zgarish, jarohatlar) izlarni ko'zdan kechirishda shu sohadagi mutaxassisni taklif etish va ishni uning ishtirokida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Otish natijasida patrondan ajralib chiqqan o'q, quyma yoki sochma donalari, chala kuygan turli qismlari ekspertizaga alohida-alohida taxlab yuboriladi.



6-rasm. Gilza turlari (butilka va silindr shaklida) raqamlar bilan otishdan qoladigan belgilar ko'rsatilgan

Otishdan qoladigan jarohatlarni, otish masofasini, o'qning yo'nalish tomonini aniqlash

Otishdan qoladigan jarohatlar turli to'siqlarda, masofasi va yo'nalishi bo'yicha turli izlarni hosil qiladi. Amaliyotda o'q to'siq qalinligini teshib o'tishi, ichki qismida qolishi yoki qiyalab to'siqni tirnab o'tishi hollari uchrab turadi. Teshib o'tgan jarohatlarda o'qning to'siqqa kirish va chiqish joylariga qarab o'qning to'siq qatlamida yo'nalish kanali belgilanadi.

O'qning shikastlash kuchi to'siq materialining buzilish, sinish va parchalanish xususiyatlariga bog'liq. Jismi qattiq bo'lgan yog'och, temir, to'siqlarni o'q muayyan masofada teshib o'tadi. Bu holda teshik diametri o'qning o'lchovidan kichik bo'ladi. Mo'rt materiallarda, g'isht, shisha kabilarda sinish, parchalanish natijasida jarohat o'lchovi o'qning diametridan birmuncha kattaroq bo'ladi. O'q matolardan teshib o'tishida materialning teshilgan joyi kuyib, uzilib ketganligini kuzatish mumkin. O'q yaqin masofada yoki taqab otilganda matoda kuyish va erish alomatlarini hosil qiladi. Bular stvoldan chiqayotgan poroxning gazi va o'qning qizib cho'g' bo'lib hali sovushiga ulgurmaganligi hisobiga yuz beradi.

To'siqda o'qdan hosil bo'lgan izlarni kuzatish va o'rganish bilan otish masofasini yaqindan otishda hosil bo'ladigan alomatlarni, o'qning turi, shakli, kalibri, ishlatilgan porox turini, o'qning yo'nalishi, otgan shaxsning qayerdan turib otganligi kabi ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

Mazkur ma'lumotlarni hodisa joyida tergovchining o'zi yoki tegishli mutaxassis ishtirokida ko'zdan kechirish bilan aniqlanadi. Ular ballistik ekspertiza o'tkazish zarur bo'lgan holatlar sifatida xizmat qiladi. To'siqdagi otish jarohatlari bitta yoki bir necha o'qdan qolganligini, o'qdan hosil bo'ladigan kirish-chiqish teshiklari, ularning soni, shakli, o'lchovi va boshqa belgilarini kuzatish bilan amalga oshiriladi.

Ma'lumot uchun! O'qning yo'nalishini aniqlash to'siqdagi jarohatdan o'q tekkan nuqtani birlashtirish usuli bilan erishiladi. Eshik, deraza, shishalarning sinig'i va bo'laklarning shakli va singan, teshilgan joyning qirg'oqlari orqali qaysi tomondan o'q otilganligi ma'lum bo'ladi. O'qning uzilgan joyida aylana shaklida darz ketgan chiziqlar va shishaning ustki qatlami ko'chishi, o'qning yo'nalish tomoniga qaragan bo'ladi. O'qning chiqish joyidagi qatlam sirtga qarab kirish yo'lga nisbatan biroz kattaroq o'lchovda yuz beradi. Ikki qavatli rama shishalarida yuqorida ko'rsatilganidek kirish jarohat teshigi birinchi qavatda kattaroq, ikkinchi qavatda kichikroq radiusda hosil bo'ladi.

Otish jarohati atrofida poroxdan qolgan tutunlarni va yonmay qolgan porox zarrachalarini kimyoviy usulda tekshirish porox uning turi (tutunli, tutunsiz) ishlab chiqarilgan zavodning markasi kabi ma'lumotlarini olish mumkin.

Bu holat o'qning harakati, tezligi, kuchi birinchi qavat to'siqdan o'tib susaygani va ikkinchi qavatga urilish kuchi ancha kamayganligi sababli bo'ladi.

Yaqin masofadan otilganda, o'qning issiqligi, porox gazlarining ta'siri natijasida to'siqning ustki qismida kuyish alomatlari poroxning tutuni va yonmay qolgan zarrachalari qoladi. Bularni oddiy ko'z bilan ham ayniqsa rangi oq bo'lgan materiallarda kuzatish mumkin. Qora va xira rangli to'siq materiallarni mikroskop orqali ko'rish, tekshirish va fotosuratga tushirish mumkin. Shuningdek, ko'zga ko'rinmaydigan, jumladan, infraqizil nurlarda tekshirish, kimyoviy va elektrokimyoviy va boshqa uslublarni qo'llash bilan amalga oshiriladi. Otish masofasi "yaqindan turib otilgan" degan tushunchani asoslaydigan belgilar to'siqdagi erish, yonmay qolgan porox zarrachalarining to'siq qatlamiga singib qolishi kabi alomatlari mavjud bo'lgan holda aniqlanadi. Boshqa hollarda otish masofasi, ya'ni stvolning oxirgi o'q chiqadigan joyidan to'siqqacha bo'lgan o'lchovi taxminiy belgilanadi.

O'qning otilish joyidan to'siqqacha bo'lgan masofani aniqlash uchun to'siqdagi otishdan hosil bo'lgan izlarni eksperimental otishdan hosil qilingan izlar bilan o'zaro solishtirish usuli qo'llaniladi.

To'siq qatlamida otishdan singib, saqlanib qolgan moddalarning spektrografik analizi yordamida otish masofasini anchayin to'g'ri aniqlash mumkindir. Quoldan otish joyi, ya'ni shaxsning qayerdan turib otganligini aniqlash esa o'qning yo'nalishi, otish masofasi haqidagi ma'lumotlarning o'zaro tahlili asosida o'tkaziladi. Otish masofasi nisbatan uzoq bo'lmagan hollarda, to'siqdagi jarohatning kirish yo'li bo'yicha to'g'ri chiziqni tashkil qiladigan ip va boshqa buyum bilan o'qning yo'nalish tomoniga qarab tortiladi va hosil bo'lgan to'g'ri chiziqning davomi bo'yicha kuzatiladi. Jarohatda kirish va chiqish teshiklari hosil bo'lgan bo'lsa, bu yo'nalish qog'ozdan yasalgan to'g'ri tekis naychani joylashtirish yo'li bilan kuzatiladi. O'qning kirish va chiqish joylari bir-biridan uzoqroq joylashgan bo'lsa, unday hollarda ip-kanop yoki sim yordamida ular birlashtirilib, yo'nalishi bo'yicha ichki qismiga joylashtirish bilan o'q yo'nalishining qarama-qarshi tomoniga qarab kuzatiladi.

Silliq stvolli qurollarni identifikatsiya qilish imkoni asosan ulardagi otilgan patron va gilza yordamida o'tkaziladi. Otilgan snaryadda silliq stvolning individual xususiyatlari aks etmaganligi tufayli ularga nisbatan guruh – tur mansubligini aniqlash bilan cheklaniladi. Mazkur qurollardan yetkazilgan jarohatlarni tekshirish, otish masofasi, o'qning yo'nalishi, otish joyi kabilarni aniqlashda yuqorida keltirilgan uslublardan foydalanish mumkin.

Portlovchi moddalarni tekshirish

Portlovchi moddalar va ulardan yasalgan qurilmalarni tadqiq qilish tobora ko'proq uchramoqda. Bu vazifani bajarish maxsus bilim, uslub va texnika vositalarini talab qiladi.

Mazkur ekspertiza hal qiladigan masalalar asosan **uch turda** bo'ladi.

Birinchi guruhni portlovchi moddalar, ular qo'llanilgan joy, portlashdan qolgan izlarni aniqlashni tashkil qiladi.

Ikkinchi turdagi vazifalar portlatish qurilmalarining tuzilishi, ishlatilgan portlovchi moddaning turi, miqdori, portlatish vositasi va uslubi hamda boshqa tasvirlovchi xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Uchinchi guruh vazifalariga quyidagilar kiradi:

- portlatish uchun tayyorgarlik ko'rilganlik holatini aniqlash;
- portlatish oqibatlari yoki yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlarni belgilash;
- hodisa joyining portlatishdan avvalgi holatini tiklash;
- portlatish qurilmasi o'rnatilgan joyini aniqlash;
- portlovchi moddalarning o'z-o'zidan o't olishi mumkinligini aniqlash;
- bir necha joylarda har xil vaqtlarda sodir bo'lgan portlatishlarning o'zaro o'xshashligi, ya'ni bog'liqligini aniqlash;
- ekspertizaga yuborilgan, obyektlarda portlatish moddalarning qoldiqlari mavjudmi? Agar bor bo'lsa, ularning turi, xususiyati va ishlatish sohasi;
- portlatish qurilmasi va uning qismlarini tayyorlash va ishlatish usuli;
- portlatish qurilmasini o't oldirish usuli va uni amalga oshirishning oldinma-ketinligi;
- portlatilgan trotilning hajmiga ko'ra portlash kuchi;

– portlatish qurilmasi sanoat ishlab chiqarishida tayyorlangan bo‘lsa, uning turi, markasi (artilleriya snaryadi, mina, granat yoki yasama vositalar);

– portlatish qurilmasi qo‘lda yasalgan bo‘lsa, uni bajargan shaxsning bu sohadagi mutaxassislik malakasi.

Mazkur portlash moddalari turkumiga tutunsiz yonadigan poroxlar (masalan, peraksinil, nitroglitserin) va tutunli poroxlar kiradi. Shuni eslatib o‘tish joizki, dudsiz yonadigan poroxlarning ba‘zi turlari uning detonatsiya kuchi (yonish tezligi) ularning qoplamaga joylanish va birlamchi portlovchi moddaning kuchiga bog‘liq ravishda bir necha km/sekni tashkil qilishi mumkin. Dudli poroxlarning yonish tezligi yopiq qoplama hajmiga joylashtirilgan bo‘lsa, maksimal darajasi 400 m/sni tashkil etadi.

Pirotexnik qo‘shilma moddalar tarkibini turli mexanik aralashmalar, achitqi, yonilg‘i, ularni bog‘lovchi moddalar tashkil qiladi. Bular asosan yorug‘lik tovushi va tutun effektlarini hosil qilishga mo‘ljallangan vositalardir. Mazkur moddalar yonish tezligi mm bo‘lagidan bir necha sm/sek.ni tashkil etadi, shuning uchun ularning portlash kuchi minimal darajaga egadir. Lekin ba‘zi xlorat, perxlorat, pirotexnik birikmalari, shuningdek brizantli portlovchi moddalarning qo‘shilmalari mavjud bo‘lgan birikmalar ma‘lum sharoitlarda kuchli detonatsiyaga aylanib ketishi mumkin. Mazkur pirotexnik birikmalar berk va mahkam bo‘lgan qoplama hajmiga joylashtirilgan hollarda ularning yonish, o‘t olish tezligi birmuncha yuqorilashtirilganligi kuzatilgan.

Portlash qurilmasi deganda maxsus ishlangan va ma‘lum sharoitlarda portlash qobiliyatiga ega bo‘lgan turli qurilmalar tushuniladi.

Bular ishlanishi va tuzilishi bo‘yicha sanoatda yoki qo‘lbola usulda tayyorlangan bo‘ladi. Portlatish qurilma (moslama)larning birorta qismi qo‘lda yasalgan yoki ayrim qismlari sanoat normalari belgilangan tartibdan tashqari usulda yig‘ilgan bo‘lsa, yasama qurilmalar hisoblanadi.

Pirotexnik ekspertiza **obyektlariga**: detonator kapsullari, elektr-detonatorlar, olov o‘tkazuvchi shnurlar, qo‘l granatalari, shuningdek trotil shashkalari, ammonit zaryadlari, portlovchi paketlar kiradi.

Sovuq qurollarning tekshiruvi

Sovuq qurollarni yasash, olib yurish va sotish uchun amaldagi jinoyat qonunida javobgarlik ko‘rsatilmagan, lekin sovuq qurol yordamida sodir qilingan jinoyatlarni tasniflash muhim bo‘lib, tegishli ekspertiza tayinlashga zarurat tug‘iladi.

Ma'lumot uchun! Sovuq qurollarning texnik holatini aniqlashda quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

qurolning soz yoki nosozligi, agar nosoz bo'lsa, uni sozlash, soz holatga keltirish mumkinmi?

mazkur predmet (narsa-buyum) sovuq qurolmi?

tekshiriluvchi predmet sovuq qurollarning qanday turiga mansub.

Ma'lumot uchun! Ishlanishi (tayyorlanishi) nuqtayi nazaridan sovuq qurollar uch guruhni tashkil qiladi: zavodda, hunarmandlar tomonidan va qo'lda yasalgan qurollar.

Zavodda, fabrikada, firmada tayyorlanadigan qurollar ma'lum davlat va firmaning standarti asosida va texnik talablarga javob beradigan bo'ladi.

Hunarmandlar ishlab chiqaradigan qurollar texnik va standart talablariga javob bermasa-da, hunarmandning mutaxassisligi malakasiga binoan ularning milliy, mahalliy tashqi tuzilishi, bezagi va harbiy xususiyatlari bilan zavodda tayyorlanadigan qurollardan qolishmaydi. Sovuq qurollar va ularning g'illoflari milliy naqshlar, turli hikmatli so'zlar ba'zida ishlagan usta-hunarmandning ism-sharifi belgilari bilan bezatiladi.

Qo'lda yasalgan sovuq qurollar ayrim hunarmand bo'lmagan shaxslar tomonidan qurollarning namunalariga taqlid qilib ishlanadi.

Amaliyotda zavodda yoki hunarmandchilik firmalarida ishlangan qurollarning o'zgartirilib qayta ishlanganlari ham uchrab turadi.

Sovuq qurollar ko'p hollarda qasddan odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish, bosqinchilik, ommaviy tartibsizlik va bezorilik jinoyatlari sodir etilganda qo'llaniladi.

Ko'rsatilgan jinoyatlarning ba'zilarida qo'llanilgan yoki qo'llash tahdidi mavjud bo'lgan hollarda (bosqinchilik, odam o'ldirish kabi) jinoiy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Jinoyatni sodir qilishda otish va sovuq qurollardan tashqari, turli predmetlar, jinoyat quroli tarzida ishlatiladi, bu holda ishlatilgan qurol sovuq qurollar qatoriga kirmaydi va ekspertiza tayinlashga ham asos bo'lmaydi.

Sovuq qurollar maxsus jinoiy maqsad uchun tayyorlangan (yasalgan) bo'lib, ular jinoyatni sodir qilishda shikast yetkazish yoki o'zini himoya qilish uchun qo'llaniladi.

Sovuq qurollar tuzilishi, o'lchovlari shakli bo'yicha ro'zg'orda ishlatiladigan asbob-uskunalardan farq qiladi. **Shakliga** va tuzilishiga ko'ra ular sanchiluvchi, kesuvchi, chopuvchi, sanchilib kesuvchi, sanchilib chopuvchi, majag'lovchi va aralash bo'lishi mumkin.

Sovuq qurollar ishlatilishida **maqsadiga** ko'ra jangovar, harbiy va fuqarolik ovchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi, harbiy sovuq qurollar

asosan inson tanasiga jarohat yetkazishga mo'ljallangan. Ular asosan qo'shinlarning qo'l jangida ishlatiladi (qilichning barcha turlari, shtiklar, desant pichoqlari v. b.).

Ovchilik qurollariga milliy pichoqlar, xanjar va hokazolar kiradi. Bular ovda hayvonlarni tutishda, jarohatlashda, shilishda va boshqa yordamchi ishlarda qo'llaniladi.

Sport olamida ishlatiladigan qurollar: shtiklar, shpaga, rapira, qilich, expandrlar, o'zining egiluvchanligi, uchining to'mtoqligi bilan jarohat yetkazish xususiyatiga ega emas. Shuning uchun ular sovuq qurollar qatoriga kirmaydi.

Sovuq qurollar ekspertizasi asosan ularning qaysi tur va guruhga mansubligini aniqlashdan iborat. Hal qilinadigan masalalar doirasi tekshiriluvchi qurolning texnik holati turdoshligi, aynanligini belgilashdan iboratdir.

Jinoyatni sodir qilishda ishlatilgan sovuq qurollar topilgan joyida (hodisa sodir bo'lgan, tintuv o'tkazilgan joylarda) yoki tergovning xizmat xonasida ko'zdan kechirilib, protsessual qonun normalari asosida rasmiylashtiriladi va jinoyat ishiga ashyoviy dalil sifatida ilova qilinadi. Mazkur tergov harakatini o'tkazishda zarur bo'lsa, protsessual qonun nazarda tutgan qoida asosida tegishli mutaxassis taklif etilishi mumkin.

Sovuq qurollarni ko'zdan kechirishda kriminalistikaning kuzatish, o'lchash va bayon qilish uslublari qo'llaniladi. Qurolni ko'zdan kechirishda dastlab uning umumiy tuzilishi va o'lchoviga e'tibor beriladi, so'ngra hamma qismlarini mujassamligi, qurolning asosiy qismiga mahkamlanish usuli, qanday materialdan ishlanganligi, rangi, o'lchovi, qurol damining silliq va o'tkirligi, uchining shakli, o'tkirligi, qurol yuzidagi yozuv va boshqa alomatlar aniqlanadi.

Quroldagi izlarni, turli modda qoldiqlarini va boshqalarni zararlab, o'zgartirib qo'ymaslik uchun uni ko'zdan kechiruvchi shaxs qo'llariga oq rezinadan tayyorlangan qo'lqop kiyish zarur bo'ladi. Qurolning oldi, orqa va boshqa qismlarini tekshirish uchun uning dastasi va uchidan, ya'ni izlardan xoli bo'lgan joylaridan ushlab ko'rish lozim.

Ma'lumot uchun! Sovuq qurollarni identifikatsiyalash yoki guruhga tegishlilikini turli ekspertizalar, jumladan, trasologik tekshiruv yordamida hal qilinadi. Bu vazifa kimyoviy, fizikaviy va texnikaviy usullarni qo'llash bilan amalga oshiriladi. Hal qilinuvchi savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Mazkur qurolni tayyorlashda qanday material qo'llanilgan, tekshirishga yuborilgan material qo'llanilganmi; qurolni yasashda qanday qolip ishlatilgan; qanday asbob, qurilmalar yordamida bajarilgan? tekshiriluvchi (qurollar)ni tayyorlashda bir xil asbob-uskuna, qurilmalar qo'llanilganmi? Tekshirishga yuborilgan g'ilof mazkur qurolning g'ilofimi? qurolning tashqi qismlarida qanday yozuv, markirovka belgilari bo'lgan va ular qanday usulda yo'qotilgan, tekshiruvga yuborilgan bo'lakcha mazkur qurolning qismi emasmi?

Nazorat savollari:

1. Ballistika nima maqsadlarda qo'llaniladi? Aniq jinoyat misolida ballistikaning ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Ballistikada tekshiruv obyektlari nimalar bo'lishi mumkin? Otilgan o'q va gilzalar asosida otish qurolini identifikatsiyalash qay tartibda amalga oshiriladi?

Kazuslar:

1-kazus

O'qotar qurol yordamida qotillik jinoyati yuz berdi. Ayblanuvchining aytishicha, u jabrlanuvchi M. va S.ni ochiq qolgan avtouloddan pul mablag'ini o'g'irlamoqchi bo'lgan vaqtda ko'rib qolgan. Aylanuvchi L. jabrlanuvchi M. va S.ga o'zining IIO xodimi ekanligini aytgan hamda ularni qo'lga olmoqchi bo'lgan. Jabrlanuvchi M. va S. birdan ayblanuvchi L. hamla qilib, uning qo'lida turgan pistoletni olib qo'ymoqchi bo'lgan. Biroq tasodifan o'qotar qurol tepkisi bosilib, o'q jabrlanuvchi M.ning bo'yniga tekkan. Natijada jabrlanuvchi M. hodisa joyida o'lgan.

Jabrlanuvchi S.ning ta'kidlashicha, ular jabrlanuvchi M. bilan pivo ichib, o'tirishganda ayblanuvchi L. ularga qurol bilan qo'qqisdan hujum qilgan. Ular ayblanuvchini qaytarishga harakat qilganda u quroldan o'q uzib jabrlanuvchi M.ni o'ldirgan. Natijada, ish joyiga telefon qilib, u yerdan guruhni chaqirgan va holatni o'zining foydasiga hal qila boshlagan.

Masalani har ikki holat bo'yicha tergov qiling.

Jinoyatning kriminalistik xarakteristikasini bering. Mazkur holat bo'yicha tergovni rejalashtiring va tergov versiyalarini tuzing. Holat yuzasidan qanday turdagi ekspertizalar tayinlanadi?

Vaziyat yuzasidan aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tavsiflang.

Jinoyat ishi yuzasidan qanday dastlabki va keyingi tergov harakatlari o'tkaziladi? Tergovchi ularni o'tkazishda qanday taktik qoidalarga e'tibor qaratishi lozim?

2-kazus

Qotillik jinoyatini sodir etishga suiqasd qilish holatini tergov qilishda aniqlanishicha, K. o'zining sobiq xotining uyi oynasidan stvoli qirqilgan ov miltiqig'idan o'q uzadi. K.ning aytishiga qaraganda, u hech kimni o'ldirishni xohlamagan, nishonga olmagan holda o'q uzganligini bildirgan.

K. so'zlarini tekshirish uchun qanday harakatlarni amalga oshirish lozim? O'q uzilgan masofani aniqlash yuzasidan sud-ballistik ekspertizasi imkoniyatlarini aniqlang. Ekspert hal etadigan masalalar nimalardan iborat bo'lishi lozim?

8-MAVZU. QO'LYOZMA MATNLARNI KRIMINALISTIK USULDA TEKSHIRISH

Hujjatlar ashyoviy dalil sifatida kriminalistik tekshiruv obyektidir. Kriminalistik xatshunoslik tushunchasi. Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari. Xatshunoslik tekshiruvining uslubi. Kriminalistik muallifshunoslik tekshiruvini o'tkazish uchun material tayyorlash.

Hujjatlar ashyoviy dalil sifatida kriminalistik tekshiruv obyektidir

Turli jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida daliliy ashyo bo'lgan hujjatlar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Jumladan, o'zgarlar mulkini talon-toraj qilish, mansabni suiiste'mol qilish jinoyatlari, firibgarlik, xo'jalik ishlarida moliyaviy hisob-kitob hujjatlari bilan bir qatorda turli yozma hujjatlar kriminalistik tekshiruv obyektidir hisoblanadi.

Esa tuting! Hujjat deganda, keng ma'noda biror hodisani o'zida yozma ravishda aks ettiruvchi moddiy ob'ekt tushuniladi. Sud va tergov amaliyotida hujjatlarning quyidagi turlari mavjud: qo'lda turli yozish vositasida bajarilgan imzolar, xatlar (ariza, tilxat, tarjimai hol v. b.) moliyaviy hujjatlardagi qo'lyozma va bosma matnlar; tipografiya usulida va bosma asboblarda vositasida tayyorlangan hujjatlar, turli grafik chizmalar, rejalar, (hujjatlarning reproduksiya tasviri, kseroks nusxalari v. b.) fotokino hujjatlar; turli obyektlar, inson va ashyoviy dalillarning kinofoto, videotasviri va fonohujjatlar; magnit tasmasiga yozilgan turli ma'lumotlar.

Kriminalistik ma'nodagi hujjatlar jinoyat ishi bo'yicha ma'lum bir hodisalar haqida ma'lumot beradi. Ba'zi hujjatlarni jinoiy maqsadda ishlatib, undan qurol sifatida foydalanadilar. Firibgarlik jinoyati bo'yicha qalbaki hujjat yordamida mablag' undirish, soxta hisobraqami va veksellar bilan bankadan pul olish va shu kabi hujjatlar ish yuzasidan ashyoviy dalil hisoblanadi. JPKning 84-moddasida ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan yoki bermaganligi, uni sodir etgan shaxsning aybli yoki aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarini aniqlashga asos bo'ladigan har qanday ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchi ayblanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar ovoz yozuvlari, videotasvirlar, fotosuratlar va boshqa tegishli hujjatlar bilan aniqlanadi. Ashyoviy dalillar kriminalistik ma'noda

jinoyat ishini hal qiluvchi muhim omillar bo'lib, ular jinoyiy harakatning izlarini o'zida aks ettiradi yoki jinoyatni sodir etishda qurol sifatida ishlatiladi. Ko'rsatilgan sifatlar hujjatlarga nisbatan tegishli bo'lganda ular ham daliliy ashyo hisoblanadi.

Hujjatlarni ashyoviy dalil sifatida tekshirishda ikki xil ma'lumot olish mumkin bo'ladi: qo'lyozma matn, imzo, raqam va boshqa yozuvlar kim tomonidan bajarilgan va ikkinchisi hujjat asl nusxami yoki qalbakiligi, qaysi qismi qanday usulda o'zgartirilgan, o'chirilgan, qo'shimcha yozuvlar kiritilgan va hokazo.

Ashyoviy dalil hisoblangan hujjatlarni ishga qay darajada molik ekanligini aniqlash uchun tergovchi ularni ko'zdan kechirib, umumiy va individual xususiyatlarini aniqlaydi va tegishli tartibda rasmiylashtiradi.

Ashyoviy dalil xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlar kriminalistik faoliyatda ikki xil tekshiruvga bog'liq



xatshunoslik tekshiruvi, ya'ni qo'lyozma matn. (imzo, raqam, turli belgilar, chizmalar va h.k.) kim tomonidan yozilgan yoki bajarilganligini aniqlash;



hujjatning qalbaki ekanligini aniqlash uchun uni kriminalistik texnika usulida tadqiq etish.

Kriminalistik xatshunoslik tushunchasi

Ashyoviy dalil bo'lgan hujjatlarni tekshirishning asosiy **vazifasi** – qo'lyozma matnlarini va imzolarini kim tomonidan bajarilganligini aniqlashdir.

Xatshunoslik ekspertizasining **tekshiruv obyektlari** hujjatdagi qo'lyozma matnlari: harfli, raqamli, shartli belgilar – shifrovka, imzo shaklidagi yozuvlardir. Qo'lyozma xatlarni (dastxat) tekshirish va uning kim tomonidan bajarilganligini (yozilganligini) aniqlash insonning o'ziga xos yozish usuli, ya'ni malaka xususiyatiga bog'liq.

Ma'lumot uchun! Yozish malakasi inson hayotining ma'lum davrida boshlanadi va shakllanadi. Umumiy yozish qoidasi xat bilan shug'ullanuvchiga boshlang'ich ma'lumotni husnixat qoidasi asosida beriladi. Har bir harf, raqamni yozish usuli, ayrim qism elementlarini bir chiziqda joylashuvi yozish jarayonida o'ziga qulay va mos holatni qo'llab umumiy yozish qoidasi chegarasidan chiqib, faqat o'ziga xos uslubni yaratadi va qo'llaydi. Masalan, yozish qurolini qiya yoki to'g'ri parallel ushlab yozish natijasida harflarning o'ng yoki chap tomon qiya bo'lishi, yozishning yo'nalishi, harflarning bir-birlari bilan birikishi, joylashuvi kabi alomatlar hosil bo'ladi.

Yozish malakasi o'rta maktab davridan shakllana boshlaydi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari yozish qoidasiga binoan harf va raqamlarni yozishda qalam, ruchkani o'ngdan chappa yoki, aksincha, yo'nalishda bajaradilar. Yozishni o'rganish jarayonida xatning yozilishida harflar shakli sekin-asta o'zgaradi, umumqoida chegarasidan chiqa boshlaydi. Bu jarayonga insonning fiziologik xususiyati ta'sir etadi.

Shu bilan birga, dastxat qotib qolgan, o'zgaraydigan qobiliyat emasdir. Fiziologiya dastxatni o'zini o'zi boshqaruvchi murakkab funksional qobiliyat sifatida tasvirlovchi. Shunga ko'ra dastxat turli o'zgaruvchan sharoitlarda turg'unligini o'zgartirdi, muayyan chegaralarda turli tusga kirib turli ta'sir etuvchi kuchlar oqibatida o'zgarishi tabiiy holdir.

Dastxat quyidagi **xususiyatlarga** ega:

- dinamik turg'unlik (yoki nisbiy mustahkamlik);
- turli ta'sir etuvchi turlarga nisbatan o'ziga xos o'zgaruvchanlik.

Xatshunoslik tekshiruvini o'tkazishda qo'lyozma imzoni aynan kim tomonidan yozilganligini aniqlash imkonini insonning ana shu yozish qobiliyati – dastxati beradi. Xat yozish jarayoni, shuningdek yozilgan matn: so'z, raqam, imzo kriminalistik tekshiruv obyekti sifatida xat deb tushuniladi. Kriminalistikada qo'lyozma matnlar, qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, dastxat deb yuritiladi.

Imzo qo'lyozmaning alohida bir turi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun uni tekshirish uslubiyati dastxatni tekshirish uslubiyatidan birmuncha farq qiladi.

Dastxat insonning maktabda o'qib, ilm olish davrida rivojlanadi va taxminan o'rta ma'lumotga ega bo'lish arafasida mustahkamlanadi. Shu vaqtdan boshlab dastxat bo'yicha uni bajargan shaxsni aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Dastxatning mustahkam bo'lib shakllanishiga qator omillar, ya'ni insonning anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari, yozish malakasi, faoliyati ta'sir etadi. Shu bilan birga, insonning o'ziga xos odat bo'lib qolgan yozish harakati takrorlangan sari mustahkamlanib, individuallik –

aynanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu ilmiy nazariya ko'p yillar davomida eksperimental tadqiqotlar asosida va ekspertiza amaliyotida isbot qilingan.

Dastxatning tekshiruv obyekti sifatida mustahkam bo'lishi nisbiydir. Chunki xat insonning ongli ravishdagi faoliyatidan bir ko'rinish bo'lib, unga **obyektiv va subyektiv omillar** ta'sir etadi. **Obyektiv** omillar bo'lib yozish sharoitiga tegishli bo'lgan holatlar, ya'ni atrof-muhit ta'siri, yozish quroli, buyumga yozilishi kabilar hisoblanadi.

Subyektiv omillarga yozayotgan shaxsning psixologik kasallik, mastlik, emotsional va shu kabi insonning o'ziga xos bo'lgan boshqa holatlari kiradi. Shuningdek, yozish jarayonida shaxs qasddan yozuvi (imzosi)ni o'zgartirib yozishga harakat qilishi mumkin. Mana shu sabab omillar xatning nisbiy mustahkamligi va individualligini belgilaydi.

Ko'rsatilgan omillar dastxatning ayrim umumiy xususiyatiga ta'sir etib, asosiy individuallik vaqti sharoitiga nisbatan bo'lgan mustahkamligi xat (imzo)ni bajargan shaxsning aynanligini belgilash uchun imkon beradi.

Ekspertiza tekshiruv natijasida yozgan shaxsni aniqlash bilan bir qatorda, xatning yozilish sharoitini, yozgan shaxsning salomatlik holatlari ham aniqlanishi mumkin. Bunday holatlar xatdagi "nutq"ning umumiy, xususiyl belgilar asosida amalga oshiriladi. Masalan, yozayotgan shaxsning ruhiy hayajoni va boshqa holatlari odatlangan yozish usuliga ta'sir etib, shu bois yozuvning bir tekisligi buziladi, yozish tezligi yuqori bo'ladi yoki pastlashadi. Natijada xatning aniqligi, ravonligi o'zgaradi, harflar tuzilishi birmuncha soddalashadi. Qo'lyozmada ayrim buzilishlar kuzatiladi. O'ziga xos holatlar yozish sharoitining o'zgarishida ham yuz beradi. Masalan, tik turib yoki yotgan holda yozish, qo'lning jarohatlanishi natijasida chap qo'l yoki boshqa moslama bilan yozish va hokazo.

Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari

Xat, imzo va boshqa qo'lda yozilgan matnlarni kim tomonidan bajarilganligini aniqlashda qo'llanadigan uslub dastxatshunoslik usuli deb ataladi. Identifikatsiyaviy belgilar esa tekshiruv tadqiqot, izlanish aniqlashda vosita bo'ladigan xatning belgi – alomatlaridir.

Dastxatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ekspert dastxatda mavjud bo'lgan quyidagi **belgilarni** o'rganib, tahlil qilib tekshiruv o'tkazadi.

1. Dastxatning mazmuniga oid sifatлари;
2. Topografik belgilar (xat, imzo, raqam, yozuvlarning hujjatda joylashuv xususiyatlari);
3. Dastxatni yozish usulining umumiy sifat va belgilari;

ishlanish darajasi past bo'lsa, u holatning o'ziyiq hujjat gumon qilinuvchi tomonidan bajarilmagan degan xulosaga asos bo'ladi. Har bir umumiy belgi guruhi qator alohida xususiy belgilarni ifodalaydi va bir qancha guruhga bo'linadi. Bunda qo'shimcha ravishda xususiy belgilar, xatning ayrim harflar va ularning qism elementlari aks etadi. Mantiq ilmining qoidasi asosida umumiy tushuncha xususiy alomatlarda ifoda etiladi, xususiy belgi alomatlar yig'indisi esa umumiy sifat haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Mana shu ilmiy holat xatshunoslik tekshiruviga to'la tatbiq etiladi.

Xususiy belgilar bir sifatda bo'lmay ayrim yoki bir qator harflarda namoyon bo'lishiga qarab alohida va yagona (faqat bir harfda) uchraydigan belgilarga ajratiladi. Masalan, bir nechta – “z”, “d”, “u” harflarida bir xil shaklda bo'lgan satr tagidagi halqa qismi alohida belgi qatoriga kiradi. Agar bunda bitta harfda halqa shakli faqat o'ziga xos bo'lsa, u xususiy belgilar qatoriga kiradi. Harflarning harakati murakkabligi bo'yicha tuzilishi, harf elementlarini bajarishda harakat yo'nalishi, shakli va bo'yi (vertikal) va eni (gorizontal) bo'yicha ko'lami, birlashtirish usuli, soni (miqdori), ketma-ketligi, bosimning o'zgarishi, yozish harakatining boshlanishi, tugallanishi, ulanish, kesilish nuqtasi joylanishi va boshqalar xususiy belgilar guruhini tashkil qiladi.

Kriminalistikaga oid bo'lgan so'nggi tadqiqotlarda dastxatning yana bir qancha integrativ belgilari haqida so'z yuritilgan. Bu belgilar umumiy va xususiy belgilar o'rtasida o'rin egallab, dastxatdagi asosiy harakatni bildiradi. Masalan, bir necha harflar va ularning elementlarini bajarishda halqasimon chap aylanmali harakat kuzatiladi.

Dastxatning umumiy va xususiy belgilari muayyan vaqtga nisbatan mustahkam bo'lib, umumiy individuallik va (turg'unlik) xususiyati nisbiydir. Bu tushunchani quyidagicha sharhlash mumkin. Xatni, imzoni bajarayotgan shaxs o'z ixtiyori bilan yoki biror shart-sharoit ta'sirida beixtiyor o'zgartirib yozishi mumkin. Bu holda umumiy belgilarning o'zgarishi to'la yoki qisman osonroq amalga oshadi, xususiy belgilarda qisman o'zgarish yuz beradi, umumiy aynanlik xususiyati esa o'zgaray yozuvda saqlanib qoladi.

Hujjat jinoiy harakat uchun qurol sifatida ishlatilgan hollarda uni qo'lyozma qismlarini (harf, raqam, imzo kabilar) bajarayotgan shaxs tergov jarayonida uni tekshirilishi, kim tomonidan yozilganligini aniqlanishini avvaldan biladi yoki shunday imkoniyat bo'lishini sezadi. Shuning uchun qalbaki yoki noqonuniy hujjatni tuzishda, rasmiylashtirishda yoziladigan raqam-sonlar, so'z bilan ifodalanadigan

buyruq – ko‘rsatmalarni tasdiqlovchi imzolarni bajarish jarayonida yozayotgan shaxs xatini o‘zgartirib yozishga harakat qiladi. Hujjatni qalbakilashtirishda ko‘p hollarda jinoyatchi o‘zining imzosini o‘zgartirib yoki imzoni boshqa mansabdor shaxs nomidan uning imzosiga o‘xshatishga taqlid qilib bajaradi. Lekin qasddan o‘zgartirib yozilgan xatning asosiy qismida belgilar to‘laligicha o‘zgarimas holda saqlanib qoladi. Ko‘p yillar davomida shakllangan va individuallik xususiyatiga ega bo‘lgan dastxat to‘la o‘zgarishi mumkin emas. Bu masala kriminalistik ekspertizaning ko‘p yillik izlanishdagi nazariyasi va amaliy faoliyati davomida o‘z isbotini topgan.

Dastxat ataylab o‘zgartirib yozilgan qo‘lyozmada, asosan umumiy belgi sifatining odatdagi yozilishidan birmuncha o‘zgarish alomatlarini kuzatish mumkin. Bular quyidagilardir: yozish jarayonida tezlik susayadi, natijada harf va ularning birikmalari alohida-alohida yozilib, qo‘lning titrashi yozuvda aks etadi. Xatni mikroskop (lupa) ostida birmuncha kattalashtirib kuzatilganda yozishdagi harakatning ayrim joylarida to‘xtash nuqtalarini ham ko‘rish mumkin. Oval shaklida yoziladigan harf qismlarida oval-aylanma joylarida burchaklar hosil bo‘lishi, yozishdagi yo‘nalishning o‘zgarishida harflarning hajmi va chiziqda joylashuvining tuzilishi, umumiy yozishdagi avtomatik harakatning susayishi kabi alomatlarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Hujjatlardagi ma‘lumotlarni tasdiqlovchi imzolar ham xatshunoslik tekshiruv obyektini hisoblanadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan umumiy va xususiy belgilar tizimi imzolarni tekshirishda ham to‘laligicha qo‘llaniladi. Shu bilan birga, imzolarni o‘ziga xos bo‘lgan ba‘zi xususiyatlariga nisbatan alomatlari ham mavjuddir. Bular imzoning umumiy tuzilishi va transkripsiyasi; harfli, harfsiz, aralash harf yoki harfsiz chiziqlar birikmasidan tashkil topgan imzolardagi belgilardir. Harfli imzo deganda faqat harflardan tuzilgan imzoni tushunishadi Harflar va o‘qilmaydigan aylanma chiziqlardan hosil bo‘lgan imzolar aralash imzolar deyiladi. Harfsiz, ya‘ni faqat o‘qib bo‘lmaydigan, harf shakliga o‘xshagan chiziqlardan tashkil topgan imzo esa chiziqli imzo deyiladi.

Ba'zi shaxslar imzosining boshlanish qismida o'zining ismidagi bosh harf bilan otasining ismini bosh harfiga qo'shib "monogramma" shaklida yozadi. So'ng boshqa harf yoki chiziqlar bilan tugatadi, chiziq osti va ustiga qo'shimcha bezaklar kiritadi. Imzoni tugatadigan turli shakldagi chiziqlar jimjima deb ataladi.

Ma'lumot uchun! Imzo qanday shaklda yozilganidan qat'iy nazar, xatshunoslik tekshiruv obyekti bo'lib, dastxat belgilar ta'rifi bularga to'la tatbiq qilinadi. Lekin imzoning o'ziga xos xatshunoslik ekspertizasi xususiyatlari ham mavjud. Imzoda muayyan shaxsning guvohlik belgisi bo'lgani sababli uni tekshirish uslubiyoti avval imzo asl qalbakiligini aniqlashni talab qiladi. Faqatgina imzo qalbakilashtirilganligi qat'iy tasdiqlansa, uni gumon qilinuvchi shaxslardan qaysi biri bajarganligini tekshirish mumkin. Xususan, "A" nomidan qo'yilgan imzo "A"ning o'zi bajarganligini aniqlamasdan, shu imzoni "B" yoki "V" tomonidan bajarilganmikan degan masalani hal qilib bo'lmaydi. Ammo havoyi (haqiqatda bo'lmagan) va tergov tomonidan aniqlanmagan shaxslar nomidan qo'yilgan imzolarni tekshirish bu qoidadan istisnodir.

Raqam va boshqa belgilar bilan ifodalangan yozuvlar ham mazkur ekspertiza obyekti sifatida tekshirilib, belgilarini tavsiflash, matnining hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu yozuvlarda ham insonning yozish malakasining o'ziga xos individuallik xususiyati aks etadi.

Insonning xizmati, hunari, mutaxassisligi tufayli uning xizmat faoliyatida bitta emas bir necha ko'rinishga ega bo'lgan yozuvlari (imzolari) bo'lishi mumkin. Har bir ko'rinishdagi umumsifat belgilari shaxsning individuallik yozish xususiyatini saqlab qoladi va aks ettiradi. Bular dastxat (imzo)ning turli variantlari deb ataladi.

Qo'lyozma xatlarini aynan kim tomonidan qanday sharoitda yoki holatda yozilganligini aniqlash uchun bir guruhdagi umumiy yoki xususiy belgilarning o'zi kifoya bo'lmaydi, balki qat'iy aniq va bexato xulosa berish uchun belgilarning barcha guruhlari yig'indisi tavsiflanadi. Namuna bo'lgan hujjatlarning yozuv xat belgilar yig'indisiga solishtirib tekshirilgandan so'nggina aniq xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

Xatshunoslik tekshiruvining uslubiyoti

Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda qo'llanadigan tekshiruv usullari kriminalistik diagnostika va identifikatsiya nazariyalarining umumiy uslubiyoti qoidasiga asosan o'tkaziladi. Shu bilan birga, mazkur ekspertizaning mohiyati, tekshiriluvchi obyektlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekspert zarur bo'lgan boshqa usullarni ham qo'llashi mumkin.

Tekshiruvning **birinchi bosqichida** ekspert yuborilgan ekspertiza materiali bilan tanishib chiqadi, uni tayinlash uchun qanday zarurat tug'ilganligini, ekspertiza hal qiladigan masalalar aniq ifodalanganligi, tekshirish uchun yuborilgan obyektlarning (hujjatlarning) mavjudligi va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi.

Ekspert tekshiruvining navbatdagi vazifasi ashyoviy dalil bo'lgan hujjatning qo'lyozma matnlarini (harfli, raqamli) va imzolarning mansublik sifatlari va xususiy belgilarini tahlil qilishdir. Ular ichida bir xil harflarda takrorlanadigan va turg'unlik xususiyatiga ega bo'lgan, mustahkam shakllangan belgilar inobatga olinadi.

Taqqoslab tekshirishga yuborilgan dastxat (imzo) namunalari ham shu tariqa alohida-alohida ko'zdan kechiriladi. Qo'lyozmani (imzoni) bajarishda gumon qilingan shaxslarning soniga qarab, ularning ayrimlarini guruh mansubligi asosida tanlab dastxatlardagi umumiy va xususiy belgilarni aks ettiradigan jadval chizmalar tayyorlanadi.

Dastxat va imzodagi belgilar harflarning alfavit tartibida joylashuvi asosida tahlil qilinib, ulardagi xususiyat tegishli tartibda jadvalga tushirilsa, solishtirib tekshirish bosqichida birmuncha qulaylik tug'lladi. Birinchi navbatda, umumiy belgilarga e'tibor beriladi, chunki ular yozgan shaxsning umumiy yozish saviyasi, dastxatning shakllanishidan dalolat berib, gumon qilinuvchi shaxslar orasidan ayrim shaxslarning xatini ajratib olish imkonini beradi.

Alohida ko'zdan kechirish jarayonida ekspertizaga taqdim etiladigan namunalar ham o'zaro solishtiriladi, ya'ni bir shaxs nomidan yuborilgan dastxat, imzo namunalari (erkin, eksperimental va boshqa turdagilar) necha shaxs tomonidan bajarilgani ham hal qilinadi, shundan so'ng ularni ashyoviy dalil bo'lgan hujjatning qo'lyozmasi bilan solishtiriladi.

Tadqiqot jarayonida tekshiriluvchining qo'lyozma (imzo)lardagi qasddan o'zgartirib yozilgandan hosil bo'lgan umumiy va xususiy belgi alomatlari alohida inobatga olinadi. Bu holatlar xatni yozish sharoiti, uni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Imzolarni tekshirishda imzoning harfli qismidagi umumiy va xususiy belgilari, harfsiz chiziqlar, aylanma sirtmoqsimon yozuvlarning yo'nalishi, o'zaro joylashuvi imzoning oxirgi yakunlovchi qismi, jimjimaning belgi xususiyatlarini aniqlab, ana shunday belgi sifatlarni namuna bo'lgan imzolarda ham mavjudligini kuzatish lozim. So'ngra solishtirish uchun tanlangan belgilar jadvalga kiritilib, o'xshash harflar va harfsiz o'qilmaydigan chiziqlardagi alomatlar belgilanadi.

Ashyoviy dalil bo'lgan hujjatdagi imzolar ko'p hollarda ularni bajargan shaxslar tomonidan o'zgartirilib yoziladi. Bunday hollarda imzodagi belgilar qisman yoki to'la o'zgarib ketishi mumkin. Yozayotgan shaxsning imzosi shaklan o'zgarsa-da, uning o'ziga xos bo'lgan yozish uslubi ko'pincha imzoning oxirgi qismida saqladi, o'zgarishsiz qoladi.

Bu vaziyatda gumon qilinuvchi dastxatining namunalaridan foydalanish, ulardan solishtiruv uchun tegishli harflarni topib, taqqoslab o'tkazish o'z samarasini berishi mumkin.

Ma'lumot uchun! Ba'zilar, rahbar, mansabdor shaxslar nomidan qo'yilgan imzolarni unga taqlid qilib, o'xshatib yozishga harakat qiladilar, ya'ni qalbakilashtiradilar. Qalbakilashtirilganda imzoning uzun-qisqaligi, tuzilishi va boshqa umumiy belgilari to'la yoki qisman o'zgaradi. Bu hol imzoning qalbaki ekanidan xabar beradi va ba'zi hollarda belgilarni soniga va sifatiga qarab kim tomonidan bajarilganligini ham aniqlash mumkin bo'ladi.

Ekspert tekshiruvining **ikkinchi bosqichida** alohida tahlil qilish natijasida kuzatilgan dastxat, imzo belgilari o'zaro solishtirilib taqqoslanadi. Gumon qilingan shaxslarning soniga qarab ularning xat namunalarini har birini tekshiriluvchi xat bilan tegishli tartibda navbatmanavbat solishtiriladi, guruh mansubligi asosida o'xshash xat namunalari umumiy to'plamdan ajratib olinadi. Tekshirilayotgan hujjatdagi dastxat (yozuv. imzo) bilan ajratib olingan namunalardagi barcha guruhdagi belgilar solishtiriladi. Umumiy va xususiy belgilar yig'indisi to'laligicha tekshiriluvchi va namuna obyektlaridan biri ikkinchisini takrorlasagina, aynanlik masalasi hal qilingan bo'ladi. Agarda umumiy va xususiy belgilarning ko'pchiligi bir-biridan farq qilsa, aynanlik inkor qilinadi, ya'ni qo'lyozma (imzo)ni boshqa shaxs yozganligi aniqlanadi. Ayrim belgilarning tekshiriluvchi va namuna xatlardagi umumiylik ularning o'xshashlik xususiyatlaridan darak beradi.

Tabiiyki, ikki yoki undan ko'proq shaxslarning xati o'xshash bo'lishi mumkin. Lekin yozgan shaxsning aynanligini, ya'ni tekshirilayotgan qo'lyozma (imzolar) aynan "shu shaxs tomonidan bajarilgan" degan xulosa qilish uchun identifikatsiyaviy belgilarning barchalari, ayniqsa, xususiy bo'lgan alohida dastxat belgilari bir xilda bo'lmog'i lozim.

Kriminalistik muallifshunoslik tekshiruvi

Hujjat matnlarining muallifini aniqlash masalasi kriminalistik muallifshunoslik tekshiruvi vakolatiga tegishli bo'lib, xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda uning mazmuniga tegishli bo'lgan sifat belgilari og'zaki nutq xususiyatlarini tadqiq etish asosida shakllanadi.

Dastxatni aynan yozgan shaxs aniqlansa-da, nutq, uning mazmuni ikkinchi shaxsga tegishli bo'ladi, ya'ni biri aytib turadi, ikkinchisi esa yozadi.

Sud va tergov amaliyotida shaxsi noma'lum (anonim) xatlar, muallifi noma'lum bo'lgan adabiy va ilmiy asarlar (bunga qo'lda yozilgan matnlar bilan birga pechatlash vositasida bajarilgan hujjatlar ham kiradi)ning muallifini aniqlashga zarurat tug'iladi.

Ba'zida jinoyatchi o'z maqsadini amalga oshirish uchun jabrlanuvchiga zo'rlik yoki tahdid ishlatib, ma'lum mazmundagi xatni yozishga uni majburlaydi, matnning mazmunini aytib (diktovka qilib) turadi. Bu holda xatni bajaruvchi shaxsning qo'lyozmasidagi umumiy va xususiy belgilar uning dastxatini aks ettirsa-da, matnning mazmuni undagi og'zaki nutq belgilarini aks etishi hujjatning muallifi boshqa ekanidan xabar beradi.

Xatdagi og'zaki nutq belgilari muallifning umumiy saviyasini belgilaydi. Bularga nutqning xususiyati, so'z boyligi darajasi, so'zlarni o'z o'rnida ishlatilishi, jumla tuzilishi, so'zlashuvda saqlangan sheva va xorij so'zlar, iboralarni qo'llash, grammatik, orfografik, leksik va boshqa xususiyatlar kiradi.

Hujjatlarning matn-mazmunini tekshirish masalasiga kriminalistik xatshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan bir qatorda tilshunoslar, filologlar va tekshiriluvchi matnning mazmuniga oid tegishli mutaxassislar jalb etiladi va ularning hamkorligida hal etiladi.

Muallifshunoslik ekspertiza tekshiruvining asosini inson so'zlashuv nutqining shakllanishi, ma'lum bilimlar tizimi asosida rivojlanishi, mukammallashishi va insonning individual nutq xususiyatlarining xatda aks etish qonuniyatlari tashkil qiladi.

Kriminalistika muallifshunoslik matnni identifikatsiya nazariyasini, lingvistika, psixologiya, sotsiallingvistika, psixolingvistika bilimlarining ayrim nazariy holatlari bilan bog'liq ravishda tahlil etib, muallifni aniqlash vazifasini bajaradi.

E'tibor qiling! Mazkur tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xatning aynan muallifini aniqlash (identifikatsiyaviy masala);
- matn muallifining umumiy bilim darajasi, kasbi, mutaxassisligi va boshqa xususiyatlari asosida ma'lum guruh mansubligini belgilash (guruhga mansublik-dagnostik masala).

Kriminalistik muallifshunoslik ekspertiza obyektlari qatoriga turli hujjatlarning qo'lyozma, shuningdek nusxa ko'chirish vositasida bajarilgan matnlar, ko'paytirilgan poligrafiya mahsulotlari kiradi. Matn so'z birikmalari va jumalari yig'indisidan iborat bo'lib, ma'lum ma'no-mazmunni ifoda qilmog'i zarur.

Ma'lumot uchun! Ekspert mutaxassislarning amaliyotiga ko'ra, matnni identifikatsiyaviy tadqiqot ob'ekti bo'lishi uchun u taxminan 500 so'zdan kam bo'lmasligi lozim, aks holda matndagi nutq belgi alomatlari aniq xulosa chiqarishga yetarli bo'lmay qoladi.

Muallifshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun xatshunoslik tekshiruviga o'xshash taqqoslash uchun xat namunalari zarur bo'ladi. Xat namunalari muallifi noma'lum jinoyat ishiga aloqasi bo'lgan, hujjatlarni bajarishda gumon qilingan shaxslarning qo'lyozmalari, pechatlash va ko'paytirish poligrafiya mahsulotlari kabi matnlar hisoblanadi.

Namunalar xatshunoslik tekshiruviga taqdim etiladigan obyektlar kabi erkin, eksperimental va oraliq vaqtiga tegishli bo'lgan xatlar bo'lishi mumkin.

Tasniflashga oid guruhga mansublik va diagnostik masalani hal qilish uchun hozirgi kunda ekspertiza faoliyatida nazariy va uslubiy asoslar ishlab chiqilgan. Hujjatlarning matni mazmunini tahlil qilish bilan uning muallifini alohida guruhga mansubligi masalasi hal qilinmoqda. Masalan, hujjatdagi matn qaysi millat tilida yozilganligiga qarab muallifga nisbatan bu til ona tili hisoblanadimi yoki boshqa xorij til ekanligini aniqlash mumkin.

Muallifshunoslik tekshiruvi **bir necha bosqichdan** iborat: **birinchi bosqichda** ekspertizaga yuborilgan material bilan tanishib chiqib, qaror (ajrim)da belgilangan tadqiqot vazifasi, tekshiruv obyektlarining soni, sifati yetarli va yaroqli ekanligi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda tekshiriluvchi va namuna obyektlar har biri alohida ko'zdan kechirilib tahlil qilinadi, ulardagi nutq xususiyatiga tegishli bo'lgan sifat belgilari: leksika, sintaksis, jumla tuzish va fikrni yozma shakllantirishning o'ziga xosligi aniqlanadi. Tekshiriluvchi mualliflar soni qancha bo'lsa, har birining xat namunalari alohida-alohida guruhga ajratilib, alohida qiyoslanib tadqiq etiladi.

Solishtirib tekshirish natijasida ma'lum belgi xususiyatlarining o'xshashligi yoki qarama-qarshilik holatlari asosida tegishli xulosalarning asoslari shakllanadi.

Tekshirilayotgan muallifning aynanligi yoki uni ma'lum bir guruhga oidligi (ma'lumoti, saviyasining darajasi, mutaxassisligi va boshqa xususiyatlari)ga ko'ra baholanib xulosa qilinadi.

Hozirgi kunda dastxatshunoslik va muallifshunoslik tadqiqotida "**matematik tahlil**" uslubi keng qo'llanilmoqda. Tekshiriluvchi obyektlarning turli sifat belgilari matematik tavsiflash uslubiyatida ikki bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sifat xususiyatlari asosida ishlatiladi: a) tekshiruv obyektining belgi-xususiyatlari mustahkam va individual bo'lish sifati; b) bir xildagi belgi-alomatlarning miqdori bir shaxsning xatidagi umumiy va xususiy belgilarining yig'indisi ikkinchi shaxsning xatida takrorlanmasligi, uning sifat omili bo'lsa, ayrim mustahkam shakllangan belgilarning bir obyektida qayta takrorlanishi esa miqdor sifatini tavsiflaydi.

Obyektning sifat belgilari doimiy yoki ma'lum vaqtgacha mustahkam va o'zgaraydigan bo'lishi matematik statistika va taxminiy nazariyaning zarur bo'lgan shart-sharoitidir. Shu bilan birga, xatning variantligi, turli sabablar tufayli o'zgarishi, uning sifat belgilarini nisbiy mustahkamligini tasdiqlaydi.

Diagnostik ma'lumotlardan darak beruvchi belgilar xatning ma'lum sharoitlarda yozilishi, turli sabablarning ta'siri natijasida odat bo'lib qolgan yozish uslubiga o'zgarishlar kiritilishidan kelib chiqadi.

Dastxatshunoslik va muallifshunoslik ekspertizalar xulosasi boshqa ekspertizalar tekshiruvlari kabi jinoyat ish yuzasidan dalil manbai bo'lib hisoblanadi va umumiy qoidalar asosida baholanadi.

Dastxatshunoslik va muallifshunoslik tekshiruvini o'tkazish uchun material tayyorlash

Ekspertiza tayinlashning umumiy protsessual tartibi JPKning 180-moddasida ta'kidlangan. Unga binoan, surishtiruv, tergov organi va sud ekspertiza tayinlash haqida qaror yoki ajrim chiqaradilar.

Qaror (ajrim)da ekspertiza o'tkazish sabablari ish uchun hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar, ularni yechishda qo'llanadigan maxsus bilim sohasi, shu bilimga ega bo'lgan mutaxassisni jalb etish zarurati ko'rsatiladi.

Shuningdek, ekspertizaga hujjatlar, ularni tekshirishga vosita bo'lgan dastxat (imzo) namunalari va boshqa obyektlar ham yuboriladi. Xatshunoslik ekspertizasining xulosalari to'la va asosli bo'lishi uchun tekshiriladigan hujjatning qachon, qanday sharoitda tuzilganligi, qayerdan olinganligi, matnlarni yozishda, rasmiylashtirishda gumon qilingan shaxslar va ularning tushuntirishlari kabi ma'lumotlar qaror (ajrim)da ko'rsatilmog'i lozim.

Zarur bo'lgan hollarda ekspert jinoyat ishi materiallarining ekspertiza tekshiruviga tegishli bo'lgan holatlari bilan ham tanishib chiqishi mumkin. Bu ma'lumotlar ekspertiza tayinlash haqidagi qarorning bayonot qismida ko'rsatiladi yoki ish materialining tegishli qismi ekspert ixtiyoriga topshiriladi.

Ma'lumot uchun! Qaror, ajrimda ekspert hal qiladigan masalalar aniq va ravon savollar tariqasida ko'rsatiladi. Masalan: "1995-yil 15-mayda "M" nomidan yozilgan arizaning chap tomonidagi "tekshirib hal qilinsin...", – degan yozuv "M" tomonidan yozilganmi? Yozuv tagida "R" ning nomidan qo'yilgan imzoni "R" ning o'zi bajaraganmi? Arizaning asosiy matni yuqoridagi buyruqni ifoda etuvchi yozuv va imzolar bir kishi tomonidan yozilganmi kabi savollar bo'lishi mumkin.

Ekspert ixtiyoriga yuborilayotgan hujjatlarning har birining nomi, raqami, sanasi va boshqa rekvizitlari ko'rsatiladi. Jinoyat ishi yuzasidan ashyoviy dalil bo'lgan obyektlarni olish, rasmiylashtirish, saqlash va ekspertizaga yuborishda qo'llanadigan umumiy tartib-qoida, tekshiriluvchi ashyoviy dalil bo'lgan hujjatlarga ham to'liq tatbiq etiladi.

Ekspert tadqiqotining muvaffaqiyatli, ya'ni to'liq, asosli va obyektiv bo'lish, solishtirib tekshirish uchun olinadigan dastxat (imzo) namunalarining soni va sifatiga bog'liqdir.

Qo'lyozmani bajarishda gumon qilingan har bir shaxsning erkin va eksperimental xat namunalari yetarli hajmda bo'lishi lozim. Erkin namunalar shaxsning o'qish, xizmat va turar joylaridan olinadigan hujjatlardir.

Tergovchi namunalarni ekspertizaga yuborishdan avval erkin dastxat va imzo namunalari kim tomonidan bajarilganligini aniqlab olgach, gumon qilinuvchining tasdiqlovchi yozuvi va imzosi bilan rasmiylashtirib mustahkamlaydi. Erkin namunalar imkoni boricha ko'proq bo'lib, tekshiriluvchi hujjatdan tuzilish vaqtiga nisbatan katta farq bo'lmasligi kerak. Eksperimental dastxat namunalari ekspertiza tayinlayotgan xodim tomonidan olinib, gumon qilinuvchi tomonidan yoziladi. Tekshiriluvchi hujjatdagi yozuvda mavjud bo'lgan so'z birikmalari, jumla tuzilishlari, raqamlarning yozilish xususiyatlariga o'xshash bo'lgan matnni taklif qiladi yoki o'zi uni aytib turib yozdiradi.

Dastxat va imzo erkin namunalari jinoyat ishiga aloqasi bo'lmagan holatda yozilgan bo'lganligi uchun ulardagi individual aynanlik belgi sifatleri deyarli o'zgarmaydi, aksincha, mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ekspertiza tayinlashda erkin namunalarga ko'proq e'tibor berilishi lozim.

Imzo namunalarini olishda gumon qilinuvchining qo‘l qo‘yishida imzolarning necha turda bo‘lishiga qarab o‘shancha variant (tur)da talab qilinadi. Imzo namunalarini bajarishda gumon qilinuvchi har bir varaqqa alohida yozishi talab qilinadi, oldingi yozilgan imzosini kuzatib turish imkoni bo‘lmasligi lozim. Bu dastxat (imzo) namunalarini bajarishda gumon qilinuvchining o‘z xati (imzosi)ni o‘zgartirib yozish imkonini kamaytiradi.

Ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da tekshiriluvchi hujjatlar bilan bir qatorda hujjat rekvizitlari, eksperimental namunalarning necha varaqdaligi alohida qayd etiladi.

Nazorat savollari:

1. Ashyoviy dalil sifatida hujjatlarni kriminalistik tekshirishning ahamiyati nimalardan iborat? Ushbu protsessual harakat ko‘proq qaysi jinoyatlar bo‘yicha qo‘llaniladi?
2. Kriminalistik xatshunoslik nima? Dastxatning identifikatsiyaviy belgilari qanday aniqlanadi?

Kazuslar:

1-kazus

Navoiy viloyati Qaranda tuman prokuraturasi 2014-yil 11-martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni ijrosi ustidan tegishli nazorat tadbirlari olib borildi. Xususan, Karmana tumanida yashovchi fuqaro I.ning arizasi yuzasidan o‘tkazilgan tekshirishdan 2014-yilning may oyida fuqaro M. tomonidan qarindoshlari S. va J.larning imzolarini qalbakilashtirib ularning nomidan dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish to‘g‘risida tuman hokimi nomiga soxta ariza tayyorlab, ko‘rib chiqish uchun hokimlik huzuridagi yer ajratish komissiyasiga taqdim qilinganligi aniqlandi.

Tuman hokimligi huzuridagi yer ajratish komissiyasi a‘zolari o‘z mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilib, dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish to‘g‘risida tuman hokimi nomiga yozilgan soxta arizaga tegishli tartibda xulosa berib, dehqon xo‘jaligi yuritish uchun yer ajratish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ushbu vaziyatda imzoni qalbakiligini aniqlashda qanday turdagi ekspertiza tayinlanadi? Qo‘lyozma matnlarni kriminalistik usulda tekshirishda qanday usullardan foydalaniladi? Arizani soxtalashtirish va imzolarni aniqlashda qanday dalillarni qo‘lga kiritish lozim?

2-kazus

Yunusobod tuman prokuraturasi tomonidan 2015-yil 25-aprelda 12-daha 13-uy 23-xonadondan Alimov R.V.ning murdasi topildi. Sud tibbiy ekspertiza xulosasiga ko'ra Alimov R.V. tarkibida inson o'limiga olib keluvchi zaharli moddani iste'mol qilishi natijasida o'lganligi aniqlandi. Hech qanday zo'rlash alomatlari topilmadi. Voqea joyi ko'zdan kechirilgan paytda murda o'z xonasida divanda yotgan holatida topildi. Divan yonidagi stolda Alimov R.V. nomidan yozilgan xat topildi. Xatning mazmuniga ko'ra Alimov R.V. o'z joniga qasd qilganligi ko'rsatilgan.

Ushbu holatda dastxatning egasi aynan Alimov R.V. ekanligi yuzasidan qanday kriminalistik tekshiruv o'tkazilishi lozim. Dastxatni identifikatsiya qilishga xatning qanday belgilari asosida erishish mumkin? Xatshunoslik ekspertizasi uchun qanday namunalar berilishi lozim?

9-MAVZU. HUJJATLARNI KRIMINALISTIK-TEXNIK TEKSHIRISH

Kriminalistik texnika tekshiruvi tushunchasi, vazifasi va turlari. Hujjatlarni qalbakilashtirish usullari. Qalbakilashtirilgan hujjatlarni kriminalistika texnikaviy usulda tekshirish. Kriminalistik texnika teshiruvida qo'llanadigan zamonaviy asboblari. Hujjatlarning texnik ekspertizasi o'tkazishda hal qilinadigan masalalar.

Kriminalistik texnika tekshiruvi tushunchasi, vazifasi va turlari

Hujjatlarni texnik jihatdan tekshirish kriminalistikaning ikkinchi bo'limida mustaqil o'rin egallaydi. Kriminalistik texnika ba'zi tabiiy va texnik bilimlarning ayrim tarmoqlarini o'z vazifasiga moslab, ular asosida turli qalbakilashtirilgan hujjatlarni tekshirish uchun maxsus uslublarni ishlab chiqadi.

Tergov va sud amaliyotida hujjatlarni kriminalistik texnika usulida tekshirish masalasi ko'p tarqalgan bo'lib, hujjatlar ijtimoiy sohalarining barcha doiralarida alohida o'rin tutishi, xilma-xil va keng tarqalgan materiallardan tayyorlanganligi bilan bog'liq.

E'tibor qiling! Kriminalistik texnika tekshiruvining obyektlari:

- turli hujjatlardagi tadqiqot qilinuvchi rekvizitlar (matn, imzo, pul-to'lov hujjatlari, qimmatbaho ashyoviy boyliklarni olish-sotish kabi harakatlarni ifodalovchi hujjatlar, shaxsiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqalar);
- pul-to'lov hujjatlari, naqd pul kirimi va to'lovi bo'yicha turli operatsiyalarni aks ettiruvchi chek daftarchasi, kirim-chiqim orderlari, kassa daftarchasi, to'lov hujjatlari, turli kvitansiyalar, deponent kartochkalari.

Moddiy boyliklarning harakatini aks ettiruvchi hujjatlarga: yuk xatlari, kirim-chiqim xarakteridagi barcha hujjatlar to'plami; shaxsiy hujjatlarga shaxsni tasdiqlovchi va uning mehnat faoliyatiga xos bo'lgan hujjatlar, pasport, shaxsiy guvohnoma, ruxsatnoma, harbiy bilet, kasaba uyushmasi biletleri, haydovchilik guvohnomalari, diplomlar va hokazolar kiradi.

Mehnat faoliyatiga xos bo'lgan hujjatlarni, mehnat daftarchalari, mehnat faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, kasallik varaqalari, qabul qilish va ozod etish haqidagi buyruqlar, shartnomalar, taklifnomalar, shaxsiy varaqalar, kasallik tarixi va boshqalar tashkil etadi.

Tekshiruv obyektlariga hujjatlardan tashqari yozuv vosita va ashyolari, hujjatning rekvizitlarini va belgilarini bajarishda foydalaniladigan turli bo'yoq vositalari, qog'oz, yozuv qurollari, yelim hamda yozuvni aynitish moddalari kiradi.

E'tibor qiling! Hujjatlarni texnikaviy usulda tekshiruv vazifalari quyidagilardir:

1. Hujjatning tayyorlanish uslubini aniqlash;
2. Hujjat mazmunini o'zgartirish usulini aniqlash;
3. Ko'rinadigan va oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan yozuvlarni aniqlash;
4. Hujjatlarning asil birlamchi ko'rinishini tiklash;
5. Hujjatlar bajarilgan, qo'llanilgan uskunalar, vositalar, qurollar va materiallarni identifikatsiya qilish;
6. Hujjatlarni qalbakilashtirishdan muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish.

Hujjat materiallarini tekshirishda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar uning tarkibini, turini, markasini, ishlab chiqargan zavodini aniqlash, u yoki bu hujjat materiallarning aniq hajmini va guruh mansubligini aniqlashga oiddir.

Esda tuting! Hujjatlarni qalbakilashtirishning ikki turi mavjud:

- 1) **soxtalashtirish** – hujjatning umumiy shakli to'g'ri bo'lib, undagi ma'lumot to'laligicha yoki qisman soxta bo'ladi (masalan, moddiy mablag'ni sarf qilish hujjatida soxta ma'lumotni rasmiylashtirish tushuniladi);
- 2) **o'zgartma kiritish** – hujjatlardagi birlamchi ma'lumotlar g'ayriqonuniy o'zgartiriladi (qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish, o'chirish, buzish kabilar).

Hujjatlarni qalbakilashtirish usullari

O'zgarlar mulkini turli usullarda talon-toroj qilish jinoyatlari ko'p hollarda soxta hujjatlar qo'llanib sodir etiladi. Ko'rinishdan to'g'ri va qonuniy rasmiylashtirilgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqiqatdan yiroq bo'lib, jinoiy unsurlar o'zlarining foydasiga moslab, soxta hujjatlarni rasmiy hujjat blankalarida aks ettiradilar. Qoidaga moslab imzolar va muhrlar bilan tasdiqlab, unga haqiqiy, qonuniy tus beradilar.

Bunday jinoyatlarni tergov qilish jarayonida hujjatlar soxtaligini aniqlash uchun shubhali bo'lgan hujjatdagi ma'lumotni tekshirib, uning mazmuni boshqa nusxadagi ma'lumotga to'g'ri kelishi, navbatdagi operatsiyalarni aks ettiruvchi hujjatlarga mos kelish-kelmasligini aniqlash bilan hal etiladi. Ba'zida bunday ma'lumotlarni moddiy javobgar shaxslarning javobini aks ettiruvchi yozuvlarni ko'zdan kechirish natijasida ham olish mumkin bo'ladi.

E'tibor qiling! Sud-texnik ekspertizaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- hujjatning birlamchi mazmuni o'zgartirilganligini aniqlovchi ekspertizalar (o'chirish, qo'shimcha yozuvlar kiritish, qo'shimcha belgilar chizish, yuvish);
- hujjatdagi muhr va shtamp izlari (akslari)ni aniqlovchi tekshiruv;
- matnning mashinkada yozilgan shaklini tekshirish. Bunga boshqa qog'ozga nusxa ko'chirish vositalari, jumladan EHM, ko'paytiruvchi moslamalarda tayyorlangan matnlar ham kiradi;
- hujjatning davlat belgilari va tipografik blankalarini tekshirish;
- qalbakilashtirishdan asrovchi maxsus vositalar bilan ta'minlangan hujjatlarni tekshirish;
- qayta yopishtirilgan fotosuratlarini aniqlash;
- ob'ektlarning ayrim qismlari bo'yicha butunni tiklash;
- imzolarni texnik qalbakilashtirilganligini tekshirish;
- kuygan hujjatlarning matnini tiklash;
- hujjat ustidan bostirib yozish oqibatida qolgan rangsiz chiziqlar bo'yicha matn mazmunini aniqlash;
- ustidan chizib o'chirilgan, chaplashtirib yuborilgan, ustiga modda to'kilgan, yozuvlar mazmunini tiklash;
- rangi uchib ketgan yozuvlarni tiklash;
- kesib o'tgan chiziqlar bo'yicha ketma-ketligini aniqlash;
- yozuv materiallari, yopishtirish vositalari va qog'ozlarni tekshirish.

Hujjatlarga moddiy o'zgartirishlar kiritish bilan qalbakilashtirilgan hollarni tekshirishda quyidagi belgilarga e'tibor berish lozim.

1. Hujjatning matnidagi ayrim yozuvlarni (harf, raqam, imzo) o'chirish va o'rniga boshqa yozuv kiritish.

O'chirish natijasida qog'ozni ustki silliq qatlami zararlanadi. Qog'oz tolalarining hurpayishi va rangi birmuncha o'zgarishi kuzatiladi, o'chirilgan joydagi yozuvlarning ayrim shtrixlari va bo'yoq qoldiqlari saqlanib qoladi. Hujjat matni maxsus blankada bajarilgan bo'lsa, unda qo'shimcha ravishda qog'ozning yuzasidagi kashtasi va tipografiya chiziqlari zararlanadi. Yozuvlarni yo'qotish maqsadida o'tkir asbob bilan qog'ozning ustki qatlamini kesib, qirqib o'chiradilar. Bunday hollarda qog'ozning orqasidan yorug'lik tushirilib kuzatganda avvalgi yozuvning botiq izlari bo'yicha o'chirilgan yozuv mazmunini tiklash mumkin bo'ladi.

Hujjatning o'chirilgan yozuvlari o'rniga yangi, jinoiy maqsadga kerak bo'lgan matn yoki harf raqamlarni yozganda qog'ozning ustki qatlami zararlangani sababli yozuv quroli bo'lgan qalam, pasta siyoh moddalarining zarrachalari yoyilib, qog'ozning ichki qatlamiga singib

ketadi. Undan tashqari, birlamchi yozuv bo'yoqlari bilan keyingi yozuvdagi bo'yoqning rangida birmuncha farqni kuzatish mumkin bo'ladi.

2. Hujjat matniga qo'shimcha yozuv, raqam va boshqa o'zgartirishlar kiritish.

Qalbakilashtirishning bu turida hujjatning avvalgi matniga qo'shimcha yozuvlar kiritishda son (raqam) belgilari o'zgartiriladi. Raqamlarning ayrim qismlari uni ko'paytirish yoki kamaytirish maqsadida o'zgartiriladi.

Qo'shimcha kiritilgan yozuvlar birlamchi matnning umumiy buzilish, joylashuvi va boshqa belgilaridan birmuncha farq qiladi. Xat belgilaridan tashqari yozuv vositasi bo'lgan bo'yoqning tarkibida ham (oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan darajadagi rangning farqi bo'ladi) muhrlash vositasida qo'shimcha so'z, raqam va boshqa yozuvlar kiritilganda ham yuqorida ko'rsatilgan alomatlar mavjud bo'ladi.

Yozuv mashinkasida bajarilgan matnlarga qo'shimcha yozuvlar kiritilganda harflarning joylashuvi, chiziqning oralig'i (intervali) tipografik bo'yoqning tarkibidagi farq va shu kabi muhrlash vositasining o'zida bo'lgan boshqa belgilar mavjud bo'ladi.

3. Hujjatdagi yozuvlarni rangsizlantirish, yuvish.

Hujjatning ayrim qismlaridagi yozuv yoki to'liq matn turli kimyoviy moddalar bilan rangsizlantiriladi va o'rniga kerakli bo'lgan yozuvlar yoziladi. Reaktiv moddaning ta'siri natijasida qog'ozning tarkibi birmuncha o'zgaradi, tolalari uzilib ketadi. Yo'qotilgan, rangsizlantirilgan yozuvlar o'rniga boshqa yangi matnni bajarishda yozuv vositasi (qalam, pasta, siyoh) bo'yog'i birmuncha yoyilib qog'ozning ichki qatlamiga singib ketadi.

Hujjatni ultrabinafsha nurlarda kuzatish bilan undagi o'zgarishlarni, avvalgi yozuvdan saqlanib qolgan bo'yoq dog'lari bilan kimyoviy moddaning ta'siri bo'lgan joylarni aniqlash mumkin. Hujjatning matni moddiy suv bilan ham yuvib rangsizlantirilishi uchrab turadi. Bu holda qog'oz tarkibiga singib qolgan avvalgi yozuvning qoldiq dog'larini turli nurlarda rangini kuchaytirib kuzatish va suratga olish bilan tiklanadi.

4. Hujjatdagi fotosurat va markalarni o'zgartirish (avvalgi, haqiqiy o'rniga boshqasini yopishtirish).

Shaxsiy hujjatlarga yopishtiriladigan fotosuratlarining odatda pastki o'ng yoki chap burchagi ustidan muhr aksi tushadi. Shu kabi yopishtirilgan marka ustidan ham shtamp va imzoning bir qismi aks etadi. Fotosurat, marka ko'chirilib o'rniga qayta boshqalari yopishtirilganda muhr, shtamp qismining aksi qo'lda chiziladi yoki boshqa muhr bilan tasdiqlanadi. Bu holda muhrning umumiy tuzilishi, doira bo'yicha joylashgan yozuvlarning

umumiy va xususiy belgilari o'zgarib ketadi. Fotosurat va markalarni orqa qismini kuzatish va tekshirish bilan yelimning oldingi va keyingi navbatda ishlatilgan turini aniqlash mumkin.

5. Imzolarni texnikaviy qalbakilashtirish.

Soxta hujjatlarga haqiqiy asl hujjatdagi imzolarni nuxsa ko'chiruvchi qog'oz yordamida yoki hujjatni yorug'likka tushirish bilan imzoning soyasini soxta hujjatga tushirib so'ng ustidan yozish quroli bilan yurgiziladi. Mazkur hollarda qalbakilashtirilgan imzodagi yozuv harakati birmuncha sustlashganligi, chiziqlarning yo'g'onlashganligi va tekisligi buzilganligi kuzatiladi. Hujjatni turli nurlarda ko'zdan kechirish natijasida soxta imzoning shtrixlarida qalam, ruchka harakatini to'xtatish alomatlari va nuxsa ko'chiruvchi qog'oz bo'yoqlari zarrachalarini ko'rish mumkin bo'ladi.

6. Muhr va shtamp akslarini qalbakilashtirish.

Qalbaki muhr va shtamlarning o'zi qo'lda yasalgan bo'ladi yoki aksini qo'lda chiziladi. Yasama muhr shtamlarning standart shaklida doira, to'rtburchak, uchburchak turlarining o'lchovlari farq qiladi. Harf shakllari, buzilishi, o'lchovi, o'zaro joylashuvi kabi belgilari hosil bo'ladi. Masalan, sirkuldan qoladigan teshik, qalam va ruchkada chizilganda harakatning bir ikki joylarida to'xtash alomatlari bo'ladi.

Hujjatdagi haqiqiy muhr aksini biroz namlab soxta hujjatning kerakli joyiga tushirish usuli ham uchrab turadi. Bu holda muhr aksidagi bo'yoq pasta (mastika) chiziqlarida yoyilib rangi ancha susayadi. Yozuvlari va muhrning markazidagi rasm belgilari noaniq bo'lib tushadi. Muhr-shtamlarning akslarini soxtalashtirishda ba'zida bir necha usullarni qo'llaydilar. Soxta hujjatdagi muhr-shtamp akslarini ko'zdan kechirish jarayonida uning qaysi muassasa, vazirlik, idora (korxonaga) tegishli ekanligini aniqlash, asl nuxsa namunalari bilan solishtirib ko'rish, uning umumiy buzilishiga, harflarning joylashuviga standart shakliga mos kelishiga jiddiy e'tibor berish lozim.

7. Hujjatlarning qalbaki blankasini yasash.

Bu usul ko'p hollarda shaxsiy hujjatlarni (oliy yoki o'rta ma'lumot haqidagi diplomlar, mashina pasporti va shaxsiy haydovchi guvohnomalari) tayyorlashda, shuningdek pul va qimmatbaho qog'ozlarni (obligatsiya, lotoreya, chek, veksel kabilar) qalbakilashtirishda ishlatiladi. Jinoyatchilar blankalarni yasashda rassomchilik, poligrafiya hunarlarini ishlatish bilan birga turli moslama stanok va texnik jihozlardan foydalanadilar. Soxta blankadagi tipografik yozuvlar umumstandart tuzilishidan, bo'yoqning tarkibi, rangi, yozuv (harf) tuzilishi bilan farq qiladi. Blankaning yasalişhida qo'llanilgan material, bo'yoq yelim, tarkiblari ham guruh mansubligi jihatdan farq qiladi.

Soxta pul va qimmatli qog'ozlarni yasashda quyidagi belgilar hosil bo'ladi: maxsus himoya vositasini bajaruvchi qog'ozning ichki va sirtqi qatlamidagi mikroskopik kashta va matnning yo'qligi, qog'ozning tarkibiga kiruvchi kimyoviy vositalarning boshqacha turi ishlatilishi va boshqalar.

Jinoyatchilar hujjatlarni soxtalashtirishda bir necha hujjatning qismlarini o'zaro montaj qilish usuli va hozirgi zamonaviy texnik jihozlarini ham ishlatadilar.

Qalbakilashtirilgan hujjatlarning yuqorida ko'rsatilgan alomatlarini kuzatish va aniqlash uchun kriminalistik texnikada ishlab chiqqan uslub va uslubiyotlarni egallamoq, shuningdek zamonaviy texnik vositalarini qo'llay bilmoq zarurdir.

Qalbakilashtirilgan hujjatlarni kriminalistika texnikaviy usulda tekshirish

Hujjatlarni texnikaviy usulda tekshirish qator optik asboblardan yordamida, oddiy lupalar, mikroskoplardan, moslamalardan, turli nur hosil qiluvchi manbalarni ishlatish bilan amalga oshiriladi.

Ekspertiza tekshiruvida fotosuratni tadqiqot-tekshiruv uslubini qo'llash bilan birga yorug'lik manbalarini turli sharoitda qo'llash (to'g'ridan, qiya yoritish, singib o'tish) maxsus tekshiruv uslublari mavjud: namli nusxa ko'chiruv, diffuziya nusxa ko'chiruv, ko'zga ko'rinadigan va ko'rinmaydigan binafsha nurida lyuminessensiya hosil qilish, infraqizil nurlarida yoritish, ultrabinafsha va infraqizil nurlarda spektrosnusxa hosil qilish, xromotografiya va boshqalarni qo'llaydilar.

Ma'lumot uchun! Tekshiriluvchi hujjatni qiya tushgan yorug'likda kuzatish, yorug'lik nurlari 90 gradus berilganda ko'rinmaydigan yoki qisman ko'rinmaydigan belgilar aniq bo'lishini ta'minlaydi. Yorug'lik manbai sifatida maxsus nur chiqaruvchi yoritqich ON-19 ishlatiladi.

Yozuvlari o'chirilgan, zararlangan hujjatlarni yorug'lik manbaiga to'g'ri o'rnatib kuzatilsa, yorug'lik nurlarining qog'oz qatlamidan singib o'tish darajasi har xil bo'ladi. Bunday sharoitda soxta pul, qimmatbaho qog'oz hujjatlar ham o'tuvchan nurlarda kuzatilganda hujjatning ichki qatlami holatlari to'la va aniq ko'rinadi. Bu holatni mustahkamlash usuli o'tuvchan yorug'lik nurlarida fotosuratga tushirishdir. Suratga tushirish uchun maxsus yorug'lik manbai FMN-2, MRKA, ULARUS moslamalariga o'rnatiladi. Tekshirish va suratga olish ishlari esa qorong'ilashtirilgan binoda amalga oshiriladi.

Yozuvlari o'chirilgan, rangsizlantirilgan va qisman yonib, yozuvi ko'rinmay qolgan hujjatlarning matnlarini tiklash uchun ularga yorug'likni

to'g'ri perpendikulyar yo'naltirilgan holda berish lozim. Tekshiriluvchi obyektidagi ranglarni ajratish va ulardagi farqni belgilash uchun svetofeltrlar, ya'ni ranglarni ajratib beruvchi moslamalar qo'llaniladi.

Rangsizlantirilgan, yuvilgan, kimyoviy moddalarni qo'llab, yo'qotilgan yozuvlarni ko'zga ko'rinmaydigan moddalar bilan yozilgan matnlarni tiklash, ko'rinarli qilish uchun ultrabinafsha nurlardan foydalaniladi. Qisqa to'liqli ultrabinafsha nurlarning elektromagnit yorug'ligi tekshiriluvchi obyektning tarkibiga singib undan yorug'lik aksini hosil qiladi. Ultrabinafsha nurlarini hosil qiluvchi manba sifatida yuqori bosimga va turli quvvatga ega bo'lgan simobli kvars lampalari xizmat qiladi. Bular DRT (PRK), DRK, DRJ (SVDSH) markali lyuminessent lampalaridir.

Spektrning infraqizil nurlarida lyuminessensiya tekshiruvchi qalbakilashtirilgan hujjatlardagi turli o'zgarishlarni aniqlashda ishlatiladi, chunki yozuvlarni tiklashda oddiy ko'zga ko'rinadigan nurlarning ta'siri bo'lmaydi. Infraqizil nurlarning ta'siri natijasida tekshiriluvchi obyektida aks yorituvchi nur chiqaradi, bu holat lyuminessensiya deb ataladi. Hujjatning bir xildagi bir vaqtda yoritilgan matni va keyinchalik kiritilgan o'zgarishlar infraqizil nur ta'siri natijasida o'ziga xos bo'lgan aks yorug'lik nurlarni chiqaradi va ko'zga ko'rinmaydigan mayda zarrachalarini ham ko'rinarli qiladi.

Namli nusxa ko'chiruv usuli pasta bilan yozilgan matnlardagi o'zgarishlarni, bo'yoqning rangi, tarkibini aniqlashda fotoqog'ozning emulsiya (jelatin) qatlamini namlab yozuvlarni unga ko'chirishda qo'llaniladi. Qalbakilashtirilgan hujjatlarni tekshirishda absorbsioz-lyuminessent usuli ham qo'llaniladi. Bu usul yordamida hujjatdagi yozuvlarning bir-biri bilan kesishib o'tgan joylarida (masalan, imzo bilan boshqa yozuv birining ustidan ikkinchisi yozilgan hollarda) qaysilari avval yozilganligini aniqlash zaruratini hal qiladi.

Ultrabinafsha nurlarning ko'rinarli spektrosnusxa usuli yozuv vositasining turi, rangsiz moddalarning sifati, yopishtirish vositalarining sifati, turini aniqlashda qo'llaniladi. Tekshiriluvchi moddaning asosiy xususiyati spektrofotometriya tahlili asosida tuziladigan chizmalardir, ya'ni har bir moddaning spektr nurini o'ziga singdirish qobiliyati har xil bo'lganligi sababli spektr grafigi ham shunga tegishli ravishda aks etadi.

Infraqizil spektrosnusxa usuli ham yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish va taqqoslab tekshirish uchun qo'llaniladi. Yozish vositalarining xususiyatlarini qog'oz, yelim va boshqa materiallarni tekshirishda kimyoviy tomchilar reaksiyasini ta'sir ettirish usulini qo'llaydi.

Turli moddalar va hujjatning materialini tekshirishda yupqa qatlamli xromotografiya uslubi qo'llaniladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillari davomida Adliya vazirligi qoshidagi Kriminalistik tadqiqotlar markazining Hujjatlarni tekshirish bo'limi xodimlari ilmiy tadqiqotlarida yangi texnik jihozlar qo'llash va tekshiruv uslublarini mukammallashtirishga sezilarli hissa qo'shdilar. Shu bilan birga, bo'lim oxirgi yillarda birmuncha texnik jihozlar bilan yangilanib, tekshiruvlar ana shu texnologiya asosida o'tkazilmoqda.

Ekspertiza amaliyoti davomida kompyuterlashtirish va ilmiy texnik rivojlanish munosabati bilan hujjatlarni texnika usulida olib boriladigan tekshiruvlari yangi mukammal asbob-uskunalar yordamida o'tkazilmoqda. Jumladan, hujjatlarni tekshirishga moslangan DVS—Portable videoskaneri, "VSC-2000" videospektral komparatori rangsiz yozuvlarning botiq izlari asosida tiklash uchun mo'ljallangan. "ESDA" apparati, "Leica DMC" mikroskopi, "Foram-685" Romanovskiy spektrografi. "CYM-2000" ixcham videomikroskopi va boshqalar ishlatilmoqda.

Kriminalistik texnika tekshiruvida qo'llanadigan zamonaviy asboblardan biri

Qalbakilashtirilgan hujjatlardagi avvalgi haqiqiy yozuvni turli usulda o'chirish, o'zgartirish, rangsizlantirish kabi hollarni va spektrning bitta zonasiga kiruvchi nurlarning bir-biridan rang jihatdan farqini tekshirish va aniqlash uchun videoskaner asbobi qo'llaniladi. Bu qurilmada hujjatlar ultrabinafsha nurlarining keng yorug'lik diapozonida va infraqizil nurlarning yaqin va ko'rinarli to'liqlarida tekshiriladi. Asbob ixcham bo'lib, oq-qora monoxrom bilan jihozlangan, turli sharoitlarda qo'llashga mo'ljallangan va tashqi turli bosim quvvatda kuzatish uchun monitor va generator bilan ta'minlangan. Mazkur asbobning tadqiqot qobiliyati biroz chegaralangan, jumladan, tekshiriluvchi obyektning o'lchov mashtabini o'zgartirib monitor ekranga uzata olmaydi, shuningdek aniqlangan ma'lumotlarni ko'rgazmali qilib mustahkamlashda va obyektlarni o'tuvchan nurlarda tekshirishda imkoni cheklangandir.

Ma'lumot uchun! Hujjatlarni texnikaviy usulda tekshirish sohasida mo'ljallangan yangi zamonaviy asboblardan biri Angliyaning "Foster & Fresman" kompaniyasi ishlab chiqqan "VSC-2000" videospektral apparatidir.

Ashyoviy dalil bo'lgan hujjatlarni tekshirishda ko'rsatilgan asbob tekshiriluvchi obyektning qism rekvizitlarini hech bir zararlantirmaydi va o'zgartirmaydi. Shu bilan birga, hujjatdagi to'liq yoki qisman o'zgarishlarni qo'shimcha yozuv kiritish, yuvish, rangsizlantirish hollarini aniqlashga imkon yaratadi. Yozuv materiallarini identifikatsiya qilishda

fotometriya va optik uslublarni qo'llash bilan birga tekshiriluvchi obyektlarni birmuncha kattalashtirilgan holda kuzatib turish imkonini beradi. Tekshiruv ishlari infraqizil nurlarning turli to'liq uzunligida o'tkazilishi mumkin. Ultrabinafsha nurlarida lyuminessensiya alomatini kuzatish, tekshiriluvchi obyektlarning bu nurlarni o'ziga singdirish xususiyatini ko'rish mumkindir.

Hujjatlarning texnik ekspertizasini o'tkazishda hal qilinadigan masalalar

Kriminalistik texnika rivojlanishi sud va tergov idoralari maxsus texnik vositalar bilan jihozlanishi, shubhali hujjatlarni bevosita tergovchining o'zi aniqlash uchun imkoniyatlarni sezilarli darajada oshirdi. Jumladan, tergovchining portfelidagi mavjud moslamalar (ultrabinafsha nurli lampa, lupa va boshqalar) yordamida hujjat qalbakiligidan dalolat beruvchi belgilar aniqlanishi mumkin. Ammo JPKning 172-moddasiga binoan tadqiqot to'liq va xolisona bo'lishi uchun shubhali hujjatlar yuzasidan texnik-kriminalistik ekspertiza tayinlanishi shart.

E'tibor qiling! Kriminalistik ekspertizaning bu turi keng doiradagi masalalarni hal qiladi, ulardan eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar:

- tekshiriluvchi hujjat qanday usulda tayyorlangan;
- tekshiriluvchi hujjat matniga o'zgartirishlar kiritilganmi;
- hujjatning avvalgi haqiqiy matni qanday bo'lgan;
- hujjatdagi muhr (shtamp) aksi qanday yasama yoki haqiqiy usulda tayyorlangan;
- hujjatning yozilgan, rasmiylashtirilgan vaqti;
- ayrim yozuvlar (asosiy matn va rezolyutsiya, tasdiqlovchi imzo kabilar), oldinma-ketinligi, qaysi birlari oldin, qaysilari keyin yozilgan;
- turli sharoitlar ta'sirida yozuv ranglari o'chib, o'qib bo'lmaydigan darajaga kelgan, hujjatlarning matnlarini tiklash;
- hujjatning matni, namunalari taqdim etilgan yozuv mashinkasida yozilganmi;
- hujjatning materiali sifatini, qaysi guruhga mansubligini aniqlash va boshqa masalalar.

Ekspertga material tayyorlashda va ekspertiza imkonlaridan to'g'ri foydalanish maqsadida tergovchi tegishli mutaxassisni taklif etib, uning maslahati va yordamida ekspert tekshiruviga savollarni tuzish, solishtirib tekshirish uchun zarur bo'lgan namunalarni tayyorlashda foydalanishi mumkin.

Ashyoviy dalil bo'lgan tekshiriluvchi hujjatlarni ekspertizaga yuborish uchun ularni kriminalistik texnikaning tegishli taktik uslublari asosida olish, joylashtirish va rasmiylashtirish lozimdir. Jumladan, hujjatga qo'shimcha yozuvlar kiritish, uni buklash, boshqa qog'ozlarga yopishtirib qo'yish mumkin emas. Ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da ashoviy dalil bo'lgan hujjatlarning har birini alohida o'ziga xos xususiyati bilan qayd etish, lozim. Qo'shimcha yozuvlar kiritilgan, avvalgi matnlarni o'zgartirib, o'chirib, o'rniga boshqa yozuvlar kiritilgan hujjatlarni kriminalistik ekspertizaga yuborishda bir vaqtning o'zida xatshunoslik ekspertisasi ham tayinlab, hujjatdagi yozuvlarni qalbakilashtirishda shubhalangan shaxslarning xat namunalarini yuborish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv mashinkasida bosilgan matnni tekshirishda shubhalangan yozuv mashinkasida, kompyuterning yozuv moslamasida, printerda va boshqa vositalarda bajarilgan namunalar yuborilishi kerak. Muhr, shtamp aksini tekshirishda rasman tegishli muhri (shtampi) bo'lgan idora, korxonona, muassasaning muhri (shtampi) aksidan namunalar yubormoq lozim. Shu bilan birga, qalbaki yozuv muhrining aksi tushirilgan hujjatlarni solishtirib tekshirish uchun unga o'xshash guruh mansubligi bo'lgan asl (haqiqiy) hujjatlarni ham namuna sifatida yuborish kerak. Muhr (shtamp) namunalarining har birini alohida bir necha oq silliq qog'ozga tushirib kerakli mansabdor shaxslardan tasdiqlab olish zarur.

Hujjatning materialini tekshirish, ayrim bo'laklar bitta hujjatni tashkil qilishini aniqlash uchun yuboriladigan hujjatning har bir bo'lagi individual xususiyatlari ko'rsatilib yuboriladi. Texnik usulda qalbakilashtirilgan imzoni tekshirishda haqiqiy imzo ham namunalarini yuborish ekspertiza tekshiruvini birmuncha osonlashtiradi va xulosaning to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Ekspertizaga yuboriladigan namunalar shubha tug'dirmasligi va tergovchi tomonidan tekshirilib, ko'zdan kechirilib o'z tasdig'ini topmog'i lozim.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistik texnika tekshiruvining ahamiyati, uning vazifalari va turlarini tushuntirib bering.

2. Hujjatlarni qalbakilashtirish qanday usullarda amalga oshiriladi? Qalbakilashtirilgan hujjatlarni kriminalistika-texnikaviy usulda tekshirish tartibi qanday?

Kazuslar:

1-kazus

A. ismli shaxs ish haqi to'g'risidagi hujjatga ro'yxat olish nomerini kiritib uni qalbakilashtirdi. Tergov jarayonida gumon qilinuvchi A. hujjatni qalbakilashtirmaganligini, hujjat tuzilgan vaqtda uning barcha rekvizitlari bo'lganligini ta'kidlagan.

Aytingchi, mazkur holatda gumon qilinuvchining aybi bor-yo'qligini aniqlash uchun hujjatni kriminalistik-texnik usulda tekshirishning qaysi turlaridan foydalanish mumkin?

Hujjatlarni kriminalistik texnik usulda teshirishning qanday turlari mavjud?

2-kazus

Firibgarlik jinoyati yuzasidan buxgalteriya hujjatlarini ko'zdan kechirish chog'ida terovchida bir hujjatning muhri haqiqiy ekanligiga shubha tug'ildi.

Hujjat muhrini haqiqiy emasligini aniqlashda qaysi belgilariga e'tibor qaratish lozim. Tergovchi ekspertiza (hujjat muhrini haqiqiy emasligini aniqlash) uchun qanday material (namuna)larni tayyorlashi va yuborishi lozim. Mazkur holat bo'yicha hujjatlarni kriminalistik-texnik usulda tekshirishning qanday taktik qoidalari mavjud.

10-MAVZU. ODAMLARNI TASHQI QIYOFA BELGILARI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYA QILISH

Identifikatsiya obykti sifatida odam tashqi qiyofasining tushunchasi va ilmiy asoslari. Odamning tashqi qiyofa belgilari tizimi. Portretlar bo'yicha identifikatsiya qilish turlari. Odamlarning portretlari asosida o'tkaziladigan identifikatsiyaviy tekshiruv.

Identifikatsiya obykti sifatida odamning tashqi qiyofasining tushunchasi va ilmiy asoslari

Tergov va tezkor-qidiruv amaliyotida qidiruvdagi, tekshirilayotgan, o'lgan odamlarning tashqi qiyofa belgilari asosida identifikatsiya o'tkazish ko'plab uchrab turadi. Odamning tashqi qiyofa belgilari asosida uning shaxsi aynanligini aniqlash odamning portreti-fototasviri orqali amalga oshiriladi. Identifikatsiya obyektleri sifatida tirik odam, murda, murda qoldig'i (skeleti) tekshiriladi.

Ma'lumot uchun! Har bir shaxs ijtimoiy va jismoniy xususiyatlarga, alohida individuallikka ega, sotsial xususiyatlarga insonning ism-sharifi, nasl-nasabi, kasb-hunari, boshqalar bilan munosabati va hokazolar, jismoniy alomatlariga esa jinsi, yoshi, tashqi qiyofa tuzilishi kabilarni kiritish mumkin.

Identifikatsiya o'tkazishda odamning o'zi emas, uning chizilgan, bo'yoq bilan tasvirlangan yoki fotografiyada aks etgan suratleri taqqoslab tekshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda insonning tashqi tuzilishi so'z orqali tasvirlanib, shu asosda chizilgan taxminiy rasm orqali tekshiruv o'tkazilishi mumkin.

Odamning tashqi qiyofa belgilari asosida identifikatsiya o'tkazishning ilmiy asoslari qator fanlarning (anatomiya, fiziologiya, sud-tibbiyoti va boshqalar) rivojlanish omillariga va yutuqlariga tayangan holda shakllanadi, tergov, tezkor-qidiruv va ekspertiza faoliyatida keng qo'llaniladi.

Identifikatsiyaviy tekshiruv uslubiyoti odam tashqi tuzilishining informatik va mustahkam belgilariga asoslanadi. Hozirgi kunda odamning tashqi tuzilishining mustahkam alomatleri asosan tergov, tezkor-qidiruv faoliyatida, bedarak yo'qolgan va jinoiy javobgarlikdan qochib yashirinib yurgan shaxslarni qidirishda, shuningdek shaxsi noma'lum bo'lgan odamlar va ularning murdalarini aniqlash uchun tegishli hujjatlar orqali tekshirishda qo'llaniladi.

Amaliyotda ba'zi tergov harakatlarini o'tkazishda (masalan, tanib olish uchun ko'rsatish, guvohlantirish kabi) tirik shaxslarni va murdalarini ko'zdan kechirishda, ularning tashqi tuzilish xususiyati bo'yicha shaxsi aniqlanib, tegishli ma'lumotlar olinadi.

Ma'lumot uchun! Odamlarni tashqi tuzilish xususiyatlari bo'yicha identifikatsiya qilish – aynanligini belgilash imkoni insonning anatomik va informatik alomatlarining yig'indisi individual bo'lganligi va ularning ikkinchi shaxsda takrorlanmaslik ta'limotiga asoslanadi. Bu individuallik xususiyati amaliy va nazariy jihatdan kriminalistik faoliyatda yillar davomida o'z isbotini topgan. Odam dunyoga kelib yil sayin o'sadi, betob bo'ladi, qariydi, turli sabablarga ko'ra uning tanasida o'zgarishlar hosil bo'ladi, shunga qaramay tananing asosiy ko'rinish xususiyatlari saqlanadi. Yillar davomida hosil bo'ladigan o'zgarishlar tananing ayrim qismlarining o'lchovi, shakli va tusi nisbiy mustahkamlikka egadir.

Odamning tashqi tuzilishini ifoda etuvchi belgilar, uning so'z bilan ta'riflangan tasviriy portretini tashkil etadi. Tashqi qiyofa belgilari tushunchasiga odamning umumiy gavda tuzilishi, bo'yi, ayrim tana a'zolari (qo'l, oyoq, yuz, burun kabilar)ning o'lchov va shakl xususiyatlari, ya'ni anatomik sifat belgilari, yurish, qadam tashlash, ovoz, nutq va turli harakatdagi alomatlaridan iborat funksional belgilari kiradi.

Insonning foto yoki boshqa tasvirlari identifikatsiya obyektini sifatida tekshirilganda, ularda odamning aks ettirilgan qismlarigina e'tiborga olinadi. Fotosuratlar insonning bo'y-bastini aks ettirgan bo'lsa, bu holda belgilar yig'indisi to'laroq bo'lib identifikatsiya uchun ahamiyatli bo'ladi.

Tezkor-qidiruv ishlarida tekshirilayotgan shaxsning ustidagi kiyimlarining xususiyatlari, individuallik alomatlari, xususan, kiyimning turi, material sifati, shakli, bichimi, o'lchovi, kiyimning ishlatilish (eskirish, to'zish) darajasi turli moddalardan qolgan dog'lari va hokozalar

Ma'lumot uchun! Insonning tashqi qiyofasi tuzilishidagi belgilar ko'pchilik odamlarda uchrab tursa, ularning individuallik qiymati past bo'lib, asosan guruh mansubligini belgilashda xizmat qiladi. Ayrim belgi, tuzilishi xususiyati kam uchraydigan bo'lsa, uning individuallik xususiyati ahamiyatli bo'ladi. Masalan, tashqi tuzilishdagi umumiy normadan tashqari bo'lgan belgilar, xususiyatlar, (qoshning quyuq-qalin bo'lishi, ayollarda lab usti tuklarining qalin va uzunligi, sochlarining oq bo'lishi va h.k) faqat ayrim shaxslarga tegishlidir. Insonning individuallik xususiyatini tasvirlovchi (alohida belgilarini) identifikatsiya o'tkazishda juda ahamiyatlidir. Bularga juda kam, faqat ayrim shaxslarda uchraydigan tug'ma kamchiliklar, jismoniy majruhlik, xirurgiya davolashdagi qolgan izlar (chandiqlar), tatuirovka va boshqa alomatlar kiradi. Ko'rsatilgan alohida guruh belgilari ham individuallik xususiyatini tasvirlovchi belgilar yig'indisi bilan birgalikda baholanadi.


ham identifikatsiya qilishda ahamiyatli bo'lib, informatik vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. Kiyimlar qatoriga odamning ba'zi tana a'zolaridagi odat bo'lib qolgan buyumlar va taqinchoqlar ham kiradi. Bular qidirilayotgan odam bilan shaxsi noma'lum murdalarni identifikatsiya qilishda qo'shimcha omil bo'lib xizmat qiladi.

Odamning tashqi qiyofasini aks ettiruvchi portretlar asosida identifikatsiya qilishda asosan ulardagi anatomik belgilar ishlatiladi. Protessual tergov harakati bo'lgan tanib olish uchun ko'rsatishda odamning funksional belgilari (yurishi, nutqi va boshqalar) ham inobatga olinadi.

Odamning tashqi qiyofa tuzilish xususiyatlarining yana bir ahamiyatli tomoni ularning nisbiy o'zgarmasligi va mustahkamligidir. Nisbiylik tushunchasi inson umrining ma'lum vaqt orasidagi o'zgarmas xususiyatidir. Shuning uchun ma'lum vaqt oralig'idagi nisbiy mustahkamlikka ega bo'lgan belgi xususiyatlar ham shu tekshirilayotgan vaqtning shart-sharoitlari va holatiga ko'ra baholanadi. Masalan, 10 yil davomida insonning hayoti davomida biror sabablarga ko'ra muhim o'zgarishlar yuz bermagan bo'lsa, uning tashqi qiyofasi shu vaqtga nisbatan mustahkam hisoblanadi. Insonning yoshi, rivojlanish, o'sish xususiyatiga qarab ba'zi tana qismlari o'zgarishi mumkin. Ba'zi qismlari esa umr bo'yi shaklining asosiy xususiyatini yo'qotmaydi. Jumladan, yuz tuzilishi insonning 20-25 yoshlarida shakllanib bo'ladi va turg'unlik xususiyatiga ega bo'ladi, quloq suprasi esa umr bo'yi shakli, asosiy tuzilishdagi mutanosibligi o'zgarmaydi.




7-rasm. Odamning tashqi qiyofa belgilari (bosh va yuzning tuzilish belgilari)



8-rasm. Quloq suprasi va qosh-ko'zning tuzilish alomatlari

9-rasm. Burun shakli va o'lchov belgilari



Odamning tashqi qiyofa belgilari tizimi

Insonning tashqi qiyofa belgilari asosan ikki **turga** mansubdir. Odamning homila davrida shakllangan o'ziga xos bo'lgan anatomik belgilari kriminalistikada **statik turg'un** belgilar deb ataladi. Ikkinchi turi insonning turli harakati (faoliyati)da aks etadigan (yurish, qadam tashlash, nutq va boshqalar) **dinamik** belgi alomatlaridir.

Anatomik belgilar tavsifi insonning umum jismoniy xususiyatlaridan boshlanadi:

- jinsi, yoshi, antropologik turdoshligi (tashqi ko'rinishi bo'yicha, osiyolik, evropalik v. b.);
- umumiy gavda tuzilishi, boshi, yuzi, bo'yin, yelka, ko'krak qafasi, qo'l va oyoqlar (bular umumo'lchov va shakllari bo'yicha o'rganiladi);
- soch, qosh, mo'ylov-soqol o'simlari (soch tolalarining shakli (tuzilishi) – tekis, jingalak, rangi bo'yicha – qora, malla);
- teri qoplamasining rangi (pigmentatsiya alomatlari, ko'zlarining shakli, katta-kichikligi va rangi).

Umumiy gavda tuzilishi insonning to'la, qotma yoki ozg'in bo'lishi, bo'yi baland, o'rta, past, boshning katta, o'rta va kichik o'lchovda bo'lishi, shakl bo'yicha geometrik dumaloq, uchburchak, oval kabi atamalar bilan tavsiflanadi.

Odamning tashqi tuzilishi belgilarining asosiy o'lchov shakllari uning yuzi qismida aks etadi: yuzning tavsifi to'g'ridan va yonbosh (o'ng va chap) va qiya (nim yonbosh) tomonidan kuzatiladi; dumaloq, uchburchak, oval shaklida, peshona, qosh, ko'z, burun, og'iz, engak qismlari ham katta-o'rta-kichik shakllari bo'yicha joylashadi va o'zaro proporsiyalari belgilanadi.

Tishlarning yirik, mayda, joylashuvi bo'yicha, tekis-to'g'ri va qiyshiq-so'yloq bo'lishi insonning nutqi, lab harakati vaqtida kuzatish mumkin. Og'iz va lab tuzilishi o'zaro bog'liq bo'lib, o'lchovi va shakllari ham umumiy tavsiflanadi, labning qalinligi, yupqaligi va rangi alohida ko'rsatilishi mumkin.

Engakning o'lchovi katta-kichikligi, shakli bo'yicha dumaloq, uchburchak, oldinga yoki orqaga qarab yo'nalganligi, bo'yni qismiga nisbatan baland-past, qavatlangan, osilganligi belgilanadi. Bo'yinning uzunligi-kaltaligi, yo'g'on-ingichka, (to'la-semiz, ariq va h.k.), yelka tuzilishi, keng qisqa, to'g'ri, to'g'ri-tekis, qiyalashgan, yelka orqa tomondan ko'rinishi, gavdaning umumiy shakliga nisbatan to'g'ri yoki bukraygan, qo'l va oyoqlar ham umumiy bo'yiga proporsiya me'yori belgilanadi (katta-kichik uzun, kalta, to'la-oriq va h.k.).

Funksional belgilar qatoriga insonning ma'lum harakatlari jarayonida hosil bo'ladigan xususiyatlar kiradi. Mazkur belgi alomatlar odamning hayoti davomida hosil bo'lib, kun sayin takrorlanib odat bo'lib qoladi va ayrim sabablar ta'sir etsagina o'zgarishi mumkin bo'ladi.

Bu guruhdagi belgi alomatlar insonning faoliyati, harakati natijasida hosil bo'ladi va tavsifi inson gavdasining yurish-turishidagi umumiy holat vaziyatidan boshlanadi: gavdaning to'g'ri, chap yoki o'ng tomonga, orqaga, oldinga og'dirilgan holda tutishi; tik turganda yoki o'tirgan holda ham yuqoridagi alomatlar hosil bo'lishi.

Qadam tashlash, yurish xususiyatlari odamning o'ziga xos bo'lgan yurish tezligi, sustligi, qadamning uzunligi, qisqaligi, oyoq kaftining yo'nalish tomoni, qadam tashlash jarayonida boshning, umuman gavdaning, qo'llarning vaziyati, (harakati), chayqalishi va shu kabilar bilan belgilanadi.

Yuzning yumshoq muskul to'qimalarining harakatda bo'lib turishi, tebranishi (mimikasi) insonning ichki hissiyoti (ruhiy holati)dan darak beruvchi alomatdir. Bu belgi ba'zi odamlarda sezilarli darajada bo'ladi, ba'zilar esa deyarli sezilmaydi. Mimika insonning ma'lum holatlardagi doimiy ravishda yuz (chehra)ning ochiqligi, xushchaqchaqligi yoki jiddiylik, xafalik ko'rinishi bilan bog'liqdir.

Ma'lumot uchun! Anatomik va funksional belgilarning alohida turlari ayrim odamlarda uchraydigan, ko'zga tashlanadigan alohida belgi-alomatlar turkumi hisoblanadi. Bularga insonning o'ziga xos tug'ma yoki hayoti davomida hosil bo'lgan jismoniy nuqsonlari, alomatlar misol bo'la oladi. Masalan, oyoq-qo'llardagi kamchilik – kasallik, teri yuzasidagi nor, xol, chandiq, so'gal, chechak kasalligi va jarohat izlari, tatuirovka (badanga igna bilan yozish, rasm chizish), cho'loqlanish, oyoq yoki qo'l barmoqlarining umum tuzilishidan ko'proq yoki kamroq bo'lishligi va hokazolar kiradi.

Insonga xos bo'lgan so'zlashish (nutq) xususiyatlari, funksional belgilar qatorida boshqalariga nisbatan mustahkam bo'lib, ovozning o'ziga xos individualligi namoyon bo'ladi. Ovozning past, baland, jaranglovchi,

bo'g'irligi, mayinligi, qalin yoki yo'g'onligi, so'zlashish jarayonida tovushlarni, so'z turkumlarini ifoda etishdagi individual xoslik xususiyatlarini aks etishi (tilning chuchukligi, harflarni buzib ifoda etish, ayrim sheva so'zlarni ishlatish), so'zlashishda nutqning tezligi, sustligi, cho'zib to'xtab ifoda etish va hokazolar shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan belgilarga qo'shimcha ma'lumot sifatida, insonning egnidagi kiyimini ham ta'riflash mumkin. Bunda libosning umumiy turi: bosh kiyim, egnidagi ustki libos (yozgi, qishki) poyabzal (yengil yozlik, uyda kiyadigan, qishlik issiq etik, mahsi va h.k.) ularning o'lchovlari, modeli, bichim turi (milliy, zamonaviy), ishlab chiqarishda xizmat turiga ko'ra maxsus kiyiladigan uni tuzilish xususiyatlari ta'riflanadi.

Insonning egnidagi kiyimini tavsiflaganda uning ishlatilganlik darajasi (yangi, biroz kiyilgan, anchagina to'zigan kabi) ham ifodalanishi lozim. Kiyim va poyabzal yuzalaridagi turli moddalardan hosil bo'lgan dog'lar, ta'mirlash alomatlari ham ko'rsatilishi mumkin.

Odamning funksional belgilari turli ashyolarda, fotosurat, rasm, chizmalarda aks etmaganligi uchun ular asosan tezkor-qidiruv va ba'zi tergov harakatlarini o'tkazishda qo'llaniladi.

Turg'unlikka xos bo'lgan anatomik belgilar insonning turli portretlari (rasmlari)da aks etadi. Shuning uchun ekspertiza tekshiruvida ko'p hollarda insonning u yoki bu portreti identifikatsiya obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Portretlar bo'yicha identifikatsiya qilish turlari

Kriminalistik identifikatsiyaga obyekt bo'ladigan portretlarning tayyorlanishi, ishlanishi, qanday materialda aks ettirilganligi, qanday modda, ashyo ishlatilganligi bo'yicha farqlanadi. Ishlanish usuliga asosan portretlar, fotografiya suratlari, rassomchilik, chizmachilik va alohida qismlardan yig'ilgan (sintetik) usulda tayyorlangan bo'lishi mumkin.

Sud ekspertizasi amaliyotida asosan ko'proq uchraydigan turlari fotosuratlar bo'lib, rassomchilik, chizmachilik va boshqa usulda ishlanganlari kam uchraydi. Oxirgi bir necha yillar davomida fototasvirlardan ayrim qismlari (ko'z, burun, og'iz kabi) olinib sun'iy (sintetik) tayyorlash ko'proq tarqalib ketdi. Fotografik obyektlarni **obyektiv** (to'g'ri va haqiqatga yaqinroq ma'noda) rassomchilik, chizmachilik va sun'iy tayyorlangan portretlarni subyektiv deb ataydilar. Fotoportretning tayyorlanishi fotoapparat obyektivi orqali olinadigan optik tasvir bo'lganligi uchun shunday nomlangan. Portretlarning ikkinchi

guruhi esa insonning xotirasida saqlangan qiyofa tuzilishi portret muallifi (ekspert, rassom, guvoh) tomonidan tiklanib yasalgani uchun **subyektiv** deyiladi.

Portret tayyorlashda fotoqog'ozda tushirilgani, karton, qalin mato, yog'och, plastmassa, chinni yuzasiga chizilgani va rasm chizish vositasi sifatida akvarel yoki mayda tayyorlangan bo'yoq rangi va oddiy qalam yoki siyoh ishlatiladi.

Fotoportretlar. Fotosuratda boshqa portretlardagi kabi asosan insonning yuzi aks etadi. Eng ko'p tarqalgan fotosurat portretlari odamning ko'krakkacha bo'lgan qismi 3x4, 9x12 sm o'lchovida tayyorlanadi va turli hujjatlarni rasmiylashtirish maqsadida bosh kiyimsiz to'g'ridan, yorug'lik ustki va yonboshi tomonlaridan bir me'yorda berilib tayyorlanadi. Ba'zida bunday fotosuratning pastki o'ng burchagi bo'sh qoladi.

Tezkor-qidiruv va tergov ishlarida ko'krakkacha, belgacha bo'lgan qismlari, bo'yi baravarida yakka va guruh shaxslar qatorida tasvirlangan fotosuratlar keng qo'llaniladi. Bunday fotosuratlariga ko'proq badiiy tus berilib tayyorlanganligi va odamning o'ziga xos tashqi qiyofasi yuzining ayrim belgi alomatlari to'liq aks etmasligi identifikatsiyaviy tekshiruv uchun bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi.

Identifikatsiyaviy tekshiruv uchun ko'p hollarda oq-qora fotosuratlar ishlatiladi, rangli portretlar kamroq uchrab turadi. Rangli fotoportretning oq-qora turlariga qaraganda tekshiruv uchun birmuncha qiyinchiliklar, hatto ikkilanishlarga olib keladi, chunki odamning tabiiy xos bo'lgan rang xususiyatlari suratda birmuncha o'zgarishi mumkin, shuningdek rangli fotosuratlar yorug'lik va quyosh nurlari ta'sirida rangi o'chib o'zgaradi.

Fotosuratlarda aks etgan shaxsning yuzi, uning tuzilishi, ayrim belgilarini suratga olish jarayonida yorug'likni qaysi tomondan berilganligiga qarab, bosh qismining to'g'ri, qiya tutib turishi va boshqa sababga ko'ra u biroz o'zgartirib yuborishi mumkin, shuning uchun fotoportret asosida shaxsni aniqlash ishini, dastavval, fotosuratdagi tasvirlangan odamning yuzini, uning qarashi (nigohi)ga, yorug'lik qaysi tomondan berilganligi, boshning holati va hokazolarga e'tibor berish lozim. Bundan tashqari fotoportretda ayolning tasviri ifodalangan bo'lsa, uning sochi, yuzidagi kosmetik moddalar (bo'yalgan qosh, kiprik, lab) kabilar yuz tuzilishidagi haqiqiy belgilarni tasvirlash uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Fotosuratda tasvirlangan, umum tuzilishni kuzatishda yuzning qaysi qismi (o'ng, chap, pastki-yuqorisi) aniqroq aks etgan yorug'lik nurlari bir xilda yoki qisman ayrim joylarini

yoritganligini ajratib, shu nuqtalardagi belgi alomatlarini tasvirlash mumkin. Yuzning tuzilishi undagi belgilarning fotosuratda aks etishiga boshning holati (rakursi) ta'sir etadi. Shuning uchun suratga tushirish vaqtida bosh yuqoriga yoki pastga, chap yoki o'ngga qaratilganda yuz tuzilishidagi alomatlarining shu sharoitga ko'ra biroz bo'lsa-da, o'zgarishi ham inobatga olinishi lozim.

Odam murdasining fotoportretini kuzatish va o'rganishda uning tashqi qiyofasidagi (yuzi va ko'rinarli qismlarida) jarohatlar murdaning o'zgarish alomatlari (chirishi natijasida) hayotiy davrdagi tasvirdan ancha farq etadi. Ularga jiddiyroq e'tibor bermoq lozim. Ba'zida murdaning yuzi fotosuratga tushirilishdan oldin uning yuzidagi qon va boshqa moddalar yuvilib, jarohatlarni tekislash o'tkaziladi. Bunday hollarda murdani ko'zdan kechirish va fotosuratga olish jarayonida qayd etilgan bayonnoma bilan tanishib chiqmoq lozim. **Rassom ishlagan va chizma portretlar.** Mazkur tasvirlar qalin matoda, qog'oz-karton kabi materiallarda bajariladi. Portretni tayyorlovchi (rassom) insonning tashqi qiyofasini naturadan o'zini kuzatish bilan birga boshqa shaxslardan eshitib, xotirasida shakllantirib so'ng portretga tushiradi. Mazkur portretlar odamning tashqi qiyofasini umumiy shakli, ko'rinish va rassomning xotirasiga singib qolgan xususiyatlargina aks ettirilib, aniq o'lchovdagi proporsiya va

Ma'lumot uchun! Qidiruvda bo'lgan shaxslarning fotosuratlari bo'lmagan hollarda har xil odamlarning yuz qismlaridan olingan (yig'ma portret) sun'iy sintetik portretlar tayyorlanadi. Bunday usul quyidagilardan iboratdir: izlanuvchi shaxsni ko'rgan-bilgan guvohga turli fotosuratlar ko'rsatiladi: shular ichidan o'xshash bo'lgan yuzning qismlari (ko'z, qosh, ayrim belgilari) ajratiladi: ularni o'zaro birlashtirib yig'ma portret ishlanadi. Hozirgi kunda bunday portretlarni tayyorlashda kompyuter dasturida mavjud bo'lgan odamning yuzi, tuzilishi belgilarini aks ettiruvchi turli tasvirlari bo'lgan fotorobotlardan foydalanilmoqda.

belgilar tushib qoladi. Bunday portretlar tasvirdagi odam bilan umumiy o'xshashlikkagina asoslangan bo'ladi. Amaliyotda ko'proq uchraydigan portretlar qidiriluvchi shaxsning tashqi qiyofasi haqidagi ma'lumotlar asosida tayyorlanadi. Qidiriluvchi shaxsning tashqi qiyofasi, uni ko'rgan-bilgan (guvoh, jabrlanuvchi va boshqa)larning xotirasida saqlanib, so'z bilan tasvirlab tiklanadi va shu axborot asosida uning tashqi tuzilishining asosiy xususiyatlarini eks ettiruvchi portret chiziladi.

Rassom ishlagan, chizma va (fotorobot) yig'ma portretlarni tekshirishda ularning xususiyati odamning tashqi tuzilishining haqiqiy tasvirini aks etmasligini va umumiy yaqinlashtirilganligini, o'xshashlikka asoslanganligini unutmaslik lozim.

Mazkur portretlarni tekshirishdan olinadigan ma'lumot tezkor-qidiruv faoliyati uchun ahamiyatli bo'lib, ular tergov-protsessual harakatlarni o'tkazishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Odamlarning portretlari asosida o'tkaziladigan identifikatsiyaviy tekshiruv

Mazkur identifikatsiya **ikki** ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Ekspertiza shaklida o'tkazilib, uning natijasi tergov ishi yuzasidan dalil bo'lib xizmat qiladi, ikkinchisi tezkorlik tekshiruvi bo'lib, uning natijasi dalil bo'lmasada, ekspertiza tayinlashga va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazishga asos bo'ladi. Ekspertiza tekshiruviga obyektlar odamning tashqi tuzilishini aks ettiradigan fotosuratlari, ularning ko'chirmalari, yuzning ayrim qismlarining qoliplari, bosh suyagi (chanog'i) va ularning rentgen nurlarida olingan tasvirlari yuboriladi. Ekspertizaga rassomchilik, chizmachilik va yig'ma (sun'iy portretlar) ham yuborilishi mumkin. Lekin bular yuzasidan o'tkaziladigan ekspertiza tekshiruvining natijalari birmuncha cheklangan bo'ladi.

Ekspertizaga yuboriladigan fotoportretlarni tadqiq etish, ularni ko'zdan kechirib umumiy xususiyatini qayd etishlikdan boshlanadi. Chunonchi, portretning shakli, o'lchovi, qanday yozuvlari borligi, tasvirlangan shaxslarning jinsi, taxminiy yoshi, fotosurat ishlangan vaqt va boshqalar aniqlanadi.

Tekshiriluvchi shaxsning fotoportreti bilan shunga o'xshash bo'lgan yoki namuna vazifasini bajaruvchi fotoportretlarni tadqiq etish, ularda tasvirlangan bitta shaxsning aynanligini aniqlash uslubi, umumiy ekspertiza tekshiruvi uslubiyotidan birmuncha o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, qiyosiy-uslubiy modellashtirish, portretlarni bir-biriga ustma-ust tushirish, birlashtirish va boshqa texnik usullar bilan amalga oshiriladi. Tashqi tuzilish alomatlarining bir-biriga nisbatan qo'zg'almas belgilari bo'yicha ayni bir xil o'lchamga keltirilgan taqqoslanayotgan tasvirlarni birlashtirish (montaj) usullari ham mavjud. Hozirgi kunda fotoportret tekshiruvlarida o'lchash uslublari ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, ayrim anatomik nuqtalar o'rtaqidagi burchak kattaliklari oddiy transportir asbobi bilan yoki uning qo'shimcha qo'shilmasi bo'lgan doiraviy shakldagi maxsus asbob yordamida o'lchanadi.

Bir xil shaklda tayyorlangan fotoportretlardagi tasvirlarni taqqoslashda grafik yasash uslubi ham samaralidir. Taqqoslanayotgan

obyektlardagi bir guruhga tegishli belgilar aniqlanib, ulardagi uchburchak, romb, trapetsiya va boshqa geometrik shakllarning (bir-biriga to'g'ri kelishi) tengligi rasmdagi shaxslar tasviri mazkur izlanuvchi shaxsning tasviri ekanligi, ya'ni aynanligi aniqlanadi. Shuningdek, grafik identifikatsiyalashning algoritmlarini tuzish uslubi ham mavjuddir. Bu uslub tekshirilayotgan obyektning o'ziga xos bo'lgan nuqtalari, belgilar tizimi, istiqbolli muvofiqlik yoki aksini kuzatish uchun tavsiya qilingan.

Ekspertiza tekshiruviga odam murdasining suyak qoldiqlari (asosan bosh chanog'i) yuborilib, uning shaxsini aniqlash zarur bo'lsa, ekspertizaga shubhalangan shaxsning hayotiy davridagi foto yoki boshqa portretlari yuboriladi. Shu bilan birga, iloji bo'lsa, o'lgan shaxsning rentgen surati, ko'zdan kechirishda tayyorlangan fotosurati, qo'lda chizilgan boshqa turdagi portretlari ham yuboriladi. Bu ekspertizani o'tkazishda kriminalistlar bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi mutaxassislar ham jalb etiladi.

Ma'lumot uchun! Mazkur ekspertiza turini o'tkazishda ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi manba obyektlar ham yuborilishi mumkin. Shulardan eng ko'p tarqalgan turi, odam qiyofasini so'z-nutq yordamida tasvirlashdir. So'z yordamida tuzilgan portretlar turli protsessual hujjatlarda (bayonnomalar, so'roq ko'rsatuvlarida) ro'yxatga olish kartalarida va tegishli mutaxassis tomonidan tuzilgan ma'lumotlarda aks ettirilgan holda tasvirlanadi. So'z yordamida tuzilgan portret asosan anatomik belgilar asosida shakllanadigan, ba'zida unga insonning ayrim anatomik va funksional belgilari bilan bir qatorda alohida alomatlar (xollar, chandiqlar, kasallik belgilari) ham kiritiladi. Bunday ma'lumotlar tergov harakatlarining (so'roq, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, tanib olish uchun ko'rsatish) bayonnomalarida, jinoiy ro'yxat kartalarida va boshqa hujjatlarda bo'lib, ulardan ekspertiza o'tkazishda keng foydalanish mumkin.

Ekspertiza tekshiruvi dastlab portretlarni alohida-alohida o'rganishdan boshlanadi, so'ng har bir tekshirilayotgan portretidagi tashqi qiyofa belgilari aniqlanib, o'zaro o'xshash belgi-tuzilish xususiyatlari solishtirilib tahlil qilinadi. Belgilarning o'zaro o'xshashligi yoki har xil bo'lishi sharhlanib, o'xshashlik yoki o'xshamaslik sabablari asoslantiriladi. Portretlardagi tasvirlangan shaxslar qiyofasi bir odamga tegishlimi yoki har xil o'xshash bo'lgan shaxslarning tasvirimi – bu haqida xulosa qilinadi. Tekshirilayotgan portretlardagi umumiy va xususiy belgilar yig'indisi bir-birini takrorlasa (bir xilda ekanligi kuzatilsa), portretlardagi tasvir bitta shaxsga tegishli ekanligi, ya'ni qidirilayotgan odamning aynanligi tasdiqlanadi. Belgilarning ba'zilar o'xshash bo'lsa-yu, ba'zilar mutloq boshqa shakl, o'lchov va hokazo bilan tasvirlansa, aynanlik masalasi inkor qilinadi.

Identifikatsiyaning asosiy bosqichi tekshirilayotgan portretidagi insonning individual o'ziga xos bo'lgan va o'zgarmaydigan belgilarini qayd etib, ularni taqqoslab tekshirish va natijasini baholashdir.

Portretida tashqi qiyofa belgilarining barchasi aks etmasligi, uni tayyorlashda yorug'likning turli sharoiti, fotosuratning sifati kabi holatlar identifikatsiya uchun zarur bo'lgan yig'indisini birmuncha cheklab qo'yadi. Mana shu sababli identifikatsiyaning mazkur bosqichini o'tkazishda turli optik asboblardan, yorug'lik sharoitini moslovchi qurilmalar qo'llaniladi.

Ma'lumot uchun! Ekspertiza tekshiruvida odam kallasining rentgen surati ham ishlatiladi. Boshning o'ng yoki chap qiyasi tomonidan olingan shaklida, ayniqsa, yumshoq to'qima soyasida peshona, burun, lab va boshqa ba'zi nuqtalari aniq ifodalanadi. Rentgen surati boshning to'g'ri (fas) holatida olinsa, unda yuzning shakli, o'lchovi bosh chanog'ining shakli – o'lchovi kabi belgilar ifodalanadi. O'lgan odamning suyak qoldiqlaridan turli qoliqlar ham yasab tekshiruvga yuborilishi mumkin. Ularga kalla suyagiga gips yoki boshqa yumshoq moddadan qoliqlar yasab, uning shakli – tuzilishi tiklanadi. Bunday hollarda marhumning tishlaridan qolip olish hodisalari ham uchrab turadi va mazkur ob'ektlar kompleks tekshiruvga yuboriladi.

Nazorat savollari:

1. Identifikatsiya obyekti sifatida odamning tashqi qiyofasi qanday xususiyatlarga ega? Odamning tashqi qiyofa belgilari tizimiga nimalar kiradi?
2. Portretlar bo'yicha identifikatsiya qilish turlarini tushuntirib bering. Aniq jinoyat bo'yicha odamlarning portretlari asosida o'tkaziladigan identifikatsiyaviy tekshiruvga misol keltiring.

Kazuslar:

1-kazus

2014-yil 5-yanvar kuni Olmazor tumani Bog' ko'chasida F.ga nisbatan talonchilik jinoyati sodir etilgan. Talonchilik natijasi F.ning bo'ynidan qimmatbaho taqinchoq olib ketilgan. Tushuntirish ishlari olib borish jarayonida fuqaro F. talonchi qo'shnisi S.ga o'xshab ketishini ta'kidlab o'tgan.

Yuqoridagi holatga kriminalistik jihatdan baho bering, bunda tergovchi qanday tergov va tezkor qidiruv harakatlarini amalga oshirishi

kerak? Ularni amalga oshirish taktikasi va qo'llaniladigan kriminalistik texnik vositalarni bayon qiling.

Ushbu hoglatda odamning portretlari asosida o'tkaziladigan identifikatsiyaviy tekshiruv olib borish mumkinmi?

2-kazus

Fuqaro D. Yunusobod tuman prokuraturasiga murojaat etib, o'zining tilla taqinchog'ini o'g'irlab ketishganligini aytdi. Fuqaro D. ning aytishicha, o'g'irlik ko'chada sodir etilgan, u o'g'rining kim ekanligini bilmasligini, o'g'ri taqinchoqni egasidan yulib olib ketganligini ta'kidladi. Keyinchalik surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida hodisa joyini ko'zdan kechirilganida va atrofda bir qancha do'kon sotuvchilari bilan so'rov o'tkazilganida ulardan biri jinoyatchining yuzini ko'rganligi, lekin kimligini tanimasligini aytdi.

Mazkur ish bo'yicha tergovchi dalillarni to'plash uchun qanday tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin? O'g'rini tashqi qiyofa belgilari bo'yicha identifikatsiya qilish mumkinmi? Odam tashqi qiyofasi bo'yicha qanday tartibda identifikatsiya qilinadi?

11-MAVZU. KRIMINALISTIK RO'YXATGA OLISH

Kriminalistik ro'yxatga olish tushunchasi va uning ahamiyati. Kriminalistik ro'yxatga olish tizimi. Kriminalistik ro'yxat turlari.

Esd! tuting! Kriminalistik ro'yxat (jinoynatni qayd qilish) deb, jinoynat sodir qilgan shaxs, shuningdek jinoynoi voqea bilan sababli bog'lanishda bo'lgan narsalar haqida ma'lumotlarni qayd qilish, yig'ish va tartibga solishning ilmiy usuliga aytiladi.

Kriminalistik ro'yxatga olish tushunchasi va uning ahamiyati

Kriminalistik ro'yxatga olishdan jinoynatni tergov qilish va oldini olish maqsadlarida foydalaniladi. Jinoynatlarni ochish va tergov qilishda tergovchi va tezkor xodim kriminalistik ro'yxatga olish deb ataluvchi turli xildagi hisobga olish axborotlaridan muntazam foydalanadilar. Ro'yxatga olish yordamida shaxslar, izlar, narsalar va boshqa turli obyektlar haqida kriminalistik jihatdan ahamiyatli axborot olinadi. Bunday axborot tergov va tezkor-qidiruv yo'li bilan to'planadi.

Hisobga olish tizimi muntazam takomillashib bormoqda. Dastlab u jinoynatlarni ro'yxatga olish tariqasida boshlanib, so'ngra jinoynoi ta'qib qilingan shaxslarni hisobga olgan. Hozirgi vaqtda bunday shaxslardan tashqari bir talay boshqa obyektlar ham hisobga olinadi. Shu sababli "kriminalistik ro'yxatga olish" atamasi "jinoynatlarni ro'yxatga olish"dan ko'ra zamonaviy hisoblarni to'laroq aks ettiradi. Kriminalistika amaliyoti bu xil axborotlarni ularning yaroqliligi jihatidan tekshiruvdan o'tkazadi, bir xillari ko'p yillar davomida mavjud bo'ladi, boshqalari o'zgaradi va bekor qilinadi.

Esd! tuting! Kriminalistik ro'yxatga olishni kriminalistik ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, saqlash, izlash va qiyosiy tekshirish bo'yicha faoliyat sifatida ta'riflash mumkin. Ro'yxatga olish jarayonini hisobga olish obyektlarini aniqlashdan, ularning guruh holidagi va xususiy alomatlarini, shu alomatlarni qayd etish usulini, hisobga olish shaklini, ro'yxat hujjatlarini joylashtirish, kerakli obyektlar to'g'risida va obyektlarni hisobdan chiqarish qoidalari haqida ma'lumotlar olish tartibini belgilab qo'yishdan iborat.

Jinoynat-protsessual qonunida kriminalistik ro'yxatga olish nazarda tutilmagan, u qonunosti hujjatlari – buyruqlar, yo'riqnomalar, dastur-qo'llanmalar bilan tartibga solinadi. Amaliyotda tergovchining, tezkor xodimning, prokurorning, sudyaning so'rovi hamda qiziqtiruvchi obyekt ro'yxatga olishdan o'tkazilganini ko'rsatuvchi holatlar mavjud. Ular

ilgarigi ro'yxat bo'yicha tekshiriladi. Tekshirish natijalari yuzasidan javob tayyorlanib, so'rovchiga yuboriladi. Ba'zan tergovchi va prokuratura xodimlari o'zlari so'rab olmay, bu ishni qonunga muvofiq surishtiruv organlariga topshiradilar.

Kriminalistik hisobga olishlar yordamida qidirilayotgan va vafot etgan fuqaroning shaxsini, avvalgi sudlanganlikni, jinoyatlarni sodir etishda ilgari qatnashganlikni, qurol, raqamlangan ashyolar singari narsalarning kimga tegishlilikini, bir xil usulda, bir shaxs, shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turkumini aniqlash mumkin bo'ladi.

Hisobga olinishi lozim bo'lgan obyektlar jumlasiga ma'lum va noma'lum odamlar, narsalar izlar, hujjatlar, hayvonlar, ochilmagan jinoyatlar kiradi. Ma'lum odamlar – bular qidiruv e'lon qilingan, hibsga olingan, ushlab turilgan, sudlangan, bedarak yo'qolgan, daydilik va tilamchilik bilan shug'ullanuvchilar tezkor qiziqish uyg'otuvchi shaxslardir. Noma'lumlar – tanilmagan murdalar, yashiringan jinoyatchilar, ruhiy kasallar va shaxsi aniqlanmagan bolalardir. Ma'lum narsalar – yo'qolgan o'qotar qurol, o'g'irlangan ashyolar, olib qochilgan avtomobillardir. Noma'lum ashyolar esa aniqlangan o'qotar qurol, soxta pul birliklari va turli hujjatlarni yasashda ishlatilgan bosma qoliplar, ochilmagan jinoyatlar joyidan olingan buzib kirish qurollaridir.

Ochilmagan jinoyatlar joyida topib olingan barmoq izlari, qalbaki hujjatlar, qog'oz pullar va qimmatli qog'ozlar, o'g'irlangan va sayoq yurgan chorva mollari hisobga olinadi.

Guruhlari va xususiy alomatlari bo'yicha tasniflash kerakli axborotni tezda axtarib topishni ta'minlaydi. Alomatlarini qayd etish usullaridan, bayon qilishdan tashqari fotosuratga olish, sxema tarzida tasvirlash, bosib tushirilgan izlar va obyektlarni asl holida to'plash qo'llaniladi. Hisobga olish shakllari tariqasida kartotekalar, videotekalar, jurnallar, fotoalbomlar, EHM kolleksiyalaridan foydalaniladi.

Kriminalistik ro'yxatga olishning ahamiyati avvalo moddiy obyektlarning o'ziga xos xususiyatga egaligi, ularning barqaror va takrorlanmas alomatlari, shuningdek obyektlar o'zaro ta'sirda bo'lganda o'z xossalarini boshqa obyektlarda aks ettirish qobiliyati bilan bog'liqdir. Hisobga olinadigan obyektlarning tasnifi ham ilmiy asoslarga ko'ra tur bildiruvchi va xususiy alomatlardan tarkib topadi. Ro'yxatga olishning ilmiy asoslari ko'p hollarda tekshirishlarning natijalaridan dalillar tariqasida foydalanish imkonini beradi.

Kriminalistik ro'yxatga olish tizimi

Ma'lumotlarni jamlash imkoniyatlari va zaruriyatiga, xizmat ko'rsatiladigan hududning katta-kichikligiga qarab barcha hisobga olishlarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin, bular: markazlashtirilgan, mahalliy va aralash (markazlashtirilgan-mahalliy).

E'tibor qiling! Markazlashtirilgan hisobga olishlar IIV Axborot markazida va IIV Ekspert-kriminalistika markazida olib boriladi. Mahalliy hisobga olishlar Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda, Toshkent shahridagi ichki ishlar idoralarining tegishli axborot markazlarida, jinoyat qidiruvi va ekspert-kriminalistika bo'linmalarida olib boriladi. Ba'zi hisobga olishlar quyi bo'g'inlarda – ichki ishlar organlarining shahar, tuman, yo'l bo'limlarida olib boriladi.

Markazlashtirilgan – mahalliy hisobga olishlar ham markazda, ham joylarda bir xil turdagi obyektlarni ro'yxatga olishni nazarda tutadi. Bu qaydlar ko'proqdir. Ulardan foydalanishda shuni nazarda tutish kerakki, joylarda hisobga olinadigan bir xil nomdagi obyektlarning barchasi ham markaziy devonlarda ro'yxatdan o'tkazilavermaydi. Masalan, har qanday jinoyat uchun hukm qilinganlar, jazo muddatidan qat'i nazar, mahalliy hisobga olishda ro'yxatdan o'tkaziladi, IIV Axborot markazida esa faqat xavfli jinoyatlar uchun, shuningdek boshqa jinoyatlari uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlar hisobga olinadi. Shu sababli sudlanganlikni ayblanuvchi ilgari hukm qilinishi mumkin bo'lgan boshqa mintaqalarda ham tekshirish kerak bo'ladi.

Hisobga olishlar qaydlov-ma'lumotnoma (alfavitli-daktiloskopik), tezkor-qidiruv, kriminalistik ma'lumot tariqasidagi kolleksiyalar tarzidagi qayd etishlarga bo'linadi.

Alfavitli-daktiloskopik hisobga olish (markazlashtirilgan-mahalliy) sudlanganlar, ushlab turilganlar, hibsga olinganlar, qidiruv e'lon qilingan shaxslar, daydilik yoki tilamchilik qilgani uchun ushlab turilganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hisobga olish ikkita o'zaro bog'liq kartochkada amalga oshiriladi, bular: a) familiyalar bo'yicha va b) ro'yxatga olishning o'n barmoqli tizimiga asoslangan daktiloskopik.

Alfavitli kartotekada demografik ma'lumotlar va sudlanganlik, hibsga olishlar, ushlab turishlar to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari daktiloskopik formula ko'rsatiladi. Unda hukmning o'zgartirilishi, umumiy yoki xususiy afv qo'llanilganligi, jazo o'talgan vaqt va joy, shaxsning qidiruvda bo'lishi qayd etiladi. Daktiloskopik xaritada (quyida

uning namunasi keltirilgan) demografik ma'lumotlar, to'liq daktiloskopik formula, o'nta barmoq izi, sudlanganlik, hibsga olinish haqidagi ma'lumotlar, alohida belgilar kiritiladi.

Daktiloskopik kartoteka bo'yicha ushlab turilganlar, hibsga olinganlar, vafot etganlar, halok bo'lgan noma'lum fuqarolar (tanilmagan murdalar), hujjatsiz, o'zi haqida hech qanaqa ma'lumotni ma'lum qila olmaydigan fuqarolarning shaxsini aniqlash mumkin.

Ma'lumot uchun! Shaxs haqida so'rovlar: 1) respublika IIV Axborot markaziga; 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tegishli IIV Axborot markaziga va 3) shaxs boshqa hududda ham yashaganligi haqida ma'lumotlar bo'lsa, qo'shimcha ravishda o'sha hududdagi Axborot markazlariga ham so'rovlar yuboriladi.

Kriminalistik ro'yxat turlari

Kriminalistik ro'yxat turlariga tezkor-qidiruv hisobga olishlar kiradi.

Bedarak yo'qolgan shaxslar, noma'lum bemorlar va tanilmagan murdalar hisobi respublika IIV Axborot markazida, IIB Axborot markazlarida yuritiladi. Bu hisobga olish sababsiz g'oyib bo'lgan shaxslar, uyidan yoki tibbiyot muassasalaridan qochib ketgan voyaga yetmaganlar, ma'muriyat ruxsatisiz nogironlar uylari va qariyalar uylarini tark etgan nogironlar va qariyalar; sog'lig'i holatiga ko'ra o'zi haqida hech qanday ma'lumot bera olmaydigan, davolash statsionarlari, nogironlar va qariyalar uylarida, bolalar uylari va internatlarida turgan shaxslar; noma'lum fuqarolarning murdalari kiritiladi. Ana shu hisobga olish bo'yicha, shuningdek tergovdan, suddan, jazoni o'tashdan yashiringanlar va boshqa qidirilayotgan shaxslar tekshiriladi.

Hisobga olish uchta mustaqil parallel kartotekalarda olib borilib, ularda yagona namunaviy nusxadagi tanib olish kartochkalari bo'ladi.

Bedarak yo'qolgan shaxsni tanib olish kartochkasi uning demografik ma'lumotlarini, tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi tavsifini, ajralib turadigan (o'ziga xos) belgilarini, tishlarining holatini, kasbi, mashg'uloti turi, g'oyib bo'lishi holatlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Kartochkaga ro'paradan, chap va o'ng yondan olingan fotosuratlar, suratga olish vaqti ko'rsatilgan holda, yopishtirib qo'yiladi. Tanib olish kartochkasiga, agar ilgari shaxs daktilosnusxa qilingan bo'lsa, daktilokarta ilova qilingan bo'ladi.

Tanilmagan murdalarga doir tanib olish kartochkasi murdaning bo'yini va ko'rinishidan yoshini, topilgan sanasi va joyini, vafot etish

sababi va vaqtini, yorib ko'rish sanasini, murdaning holatini, u ko'milgan joyni, tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi tavsifini, tishlarining holati, ajralib turadigan belgilari, sog'lig'ining hayotligidagi holatini aks ettiruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Kartochkaga murda tartibga keltirilgandan keyin olingan uchta (ro'paradan, o'ng va chap yondan olingan) surat qo'shib qo'yiladi, agar barmoq izlarini olish imkoniyati bo'lsa, unga daktilokarta ilova qilinadi.

Obyektni hisobga qo'yish paytida uni mavjud kartochkalar bo'yicha tekshiriladi. Kartochkalar ikki yoki uch nusxada to'ldiriladi va mahalliy axborot markaziga yuboriladi. Hisobga olish bo'yicha bundan keyingi yumushlarni axborot markazi xodimlari amalga oshiradilar.

Notanish kasalning kartochkasida ham ayni shunday ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Yo'qotilgan va aniqlangan o'qotar qurolni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi IIV Axborot markazida yo'qotilgan qurolni qidirish va undan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni ochish maqsadida yuritiladi. O'g'irlangan, yo'qotilgan, olib qo'yilgan (musodara qilingan), topib olingan va g'ayriqonuniy ravishda saqlanib ixtiyoriy topshirilgan jangovar, sport, ov soyli qurollari: to'pponchalar – pistoletlar, revolverlar, miltiqlar – vintovkalar, karabinlar, avtomatlar, pulemyotlar va soyli stvolli ov miltiqlari, texnik holatidan qat'i nazar, hisobga olinadi.

Agar olib qo'yilgan, topib olingan yoki topshirilgan qurolida seriyasini, tartib raqamini, ishlab chiqarilgan sanasini yo'q qilish izlari aniqlansa, uni ana shu belgilarini tiklash uchun ekspert-kriminalistika bo'linmasiga yuboriladi. Agar quroldan jinoyatni sodir etishda foydalanilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, u ekspert-kriminalistika bo'linmasidagi mavjud o'q-gilza qaydnomasi bo'yicha tekshiriladi. Axborot markazining qurol hisobga qo'yilgani to'g'risidagi ma'lumotnomasining bir nusxasi tegishli jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi.

O'g'irlangan, olib qo'yilgan raqamli ashyolar, qadimgi va tasviriy san'at buyumlari (osori atiqalar)ni hisobga olish mintaqaviy axborot markazlarida, O'zbekiston Respublikasi IIV va shuningdek, shahar, tuman, yo'l IIB tomonidan olib boriladi.

O'g'irlangan, olib qo'yilgan, topilib ixtiyoriy ravishda topshirilgan, xususiy, inventarlash raqamiga yoki antiqiy belgilarga ega bo'lgan ashyolar (audio, videomagnitofonlar, kino va foto kameralar, soatlar, ov miltiqlari, silliq stvolli miltiqlar va h.k.), madaniy boyliklar (rasmlar, ikonalar, cherkov anjomlari, tanga, orden, medal, marka, zeb-ziyat

kolleksiyalari, muzeyga qarashli buyumlar) va boshqa tarixiy, ilmiy hamda qimmatbaho antiqiy, tasviriy san'at buyumlari hisobga olinadi.

Tegishli hisobga olish kartochkasida narsaning nomi, hisobga qo'yish uchun asos bo'lgan holatlar aks ettiriladi, narsaning, shu jumladan uning o'ziga xos xususiyatlarining ta'rifi beriladi.

Kartochka ashyo haqidagi ma'lumotlar olingan kuni navbatchi qism tomonidan to'ldiriladi. Bir nusxa navbatchi qismda qoladi, ikkitasi IIV, IIBB, IIB mintaqaviy axborot markaziga yuboriladi. Axborot markazi xodimlari bu ashyo oldin hisobga olingan-olinmaganini tekshiradilar.

Raqamlanmaydigan ashyolarni hisobga olish mahalliy xususiyatga ega bo'ladi va shahar, tuman, yo'l ichki ishlar organlarida olib boriladi. O'g'irlangan ashyo uchun tuzilgan kartochka narsaning nomini, uning tavsifini va hisobga qo'yishga asos bo'lgan holatlarni o'z ichiga oladi. Raqamlanmaydigan ashyolar hisobiga faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ashyolar olinadi. Ashyo boshqa mintaqada hududida o'g'irlangan bo'lishi mumkin degan taxmin bo'lsa, tegishli axborot markaziga so'rov yuboriladi. O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan bir nechta bir xil ashyoga bir nusxadagi kartochka to'ldiriladi.

Katta hajmdagi axborotni qayd etish va zarur ma'lumotlarni tezda olish imkonini beradigan EHMLar joriy etilishi munosabati bilan kriminalistik ro'yxatga olish imkoniyatlari oshib ketdi. Avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari (AAQT) universal (avtomatik ma'lumotlar banki – AMB-markaz, AMB-viloyat) va ixtisoslashtirilgan tizimlarga bo'linadi.

Universal maqsadga mo'ljallangan AAQT axborotni ishlovdan o'tkazishning kompleks tusda bo'lishini ta'minlaydigan ko'p ixtisosli (ko'p tomonlama) tizimlardir. Chunonchi AMB-viloyatda tezkor-qidiruv hisobiga qo'yilgan shaxslar, ochilmagan jinoyatlar, raqamli yoki farqlaydigan belgilarga ega bo'lgan o'g'irlangan va olib qo'yilgan ashyolar, yo'qotilgan va aniqlangan o'qotar qurol, o'g'irlangan va aniqlangan osori atiqalar, yo'qotilgan va aniqlangan avtotransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar ishlovdan o'tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan AAQT muayyan turdagi obyektlar haqidagi axborotni ishlovdan o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ular Respublika hududiy va mahalliy tizimlarga bo'linadi.

E'tibor qiling! O'zbekiston Respublikasi IIVda yuritiladigan AAQT jumlasiga quyidagi tizimlar kiradi:

"Tanib olish" – tanilmagan murdalarni hisobga olish va identifikatsiyalash;

"Xabar qilish" – qidiruv e'lon qilingan shaxslarni hisobga olish;

"Pasport" – qidirilayotgan shaxslarning pasportlarini va pasportlarning o'g'irlangan blankalarini hisobga olish;

"Texpasport" – avtomototransportning o'g'irlangan va yo'qotilgan texnik pasportlarini hisobga olish;

"Avtoqidiruv" – olib qochilgan, o'g'irlangan va egasiz avtomototransportni hisobga olish;

"Yuklar" – temir yo'l va havo transportida o'g'irlangan bagaj va yuklarni hisobga olish.

Kriminalistika bo'linmalarida olib boriladigan, ish yuritishda maxsus bilimlar talab qilinadigan hisobga olishlar kriminalistik hisobga olishlar deb ataladi.

Ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joylarda topilgan noma'lum jinoyatchilarni va ichki ishlar organlari tomonidan hisobga olingan shaxslarni daktiloskopik hisobga olish ikkita kartotekada yuritiladi:

– ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joylardan olingan qo'l izlarining fotosuratlarini (izlar kartotekasi);

– ichki ishlar organlarida hisobga olingan shaxslarning daktilokartalari (daktilokartotekalar)dan iborat bo'ladi.

Hisobga olish shahar, tuman, yo'l ichki ishlar organlarining mahalliy ekspert-kriminalistika bo'linmalari tomonidan olib boriladi. Daktilokartalar yordamida hodisa sodir bo'lgan joyda kim iz qoldirganini hamda ayni bir shaxs hodisaning turli joylarida iz qoldirgan-qoldirmaganini aniqlash mumkin.

Izlar kartotekasi ikki guruhda bo'ladi. Birinchisida qo'l barmoqlarining ekspertiza tomonidan papilyar nAQSH tipi va turi aniqlangan izlarining fotosuratlarini turadi. Mahalliy bo'linmalar fotosuratlarining dublikatlari yuqori turuvchi ekspert-kriminalistika bo'linmalariga yuboriladi. Ana shu izlar kartotekasi bo'yicha gumon qilinuvchilarning daktilokartalari va ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joylarda yangitdan to'ldirilgan kartalar, shuningdek ichki ishlar organlarida hisobga olingan shaxslarning daktilokartalari tekshiriladi.

Izlar kartotekasining ikkinchi guruhi nAQSHning tipi va turi aniqlanmagan qo'l barmoqlarining, shuningdek kaftlar izlarining fotosuratlaridan iborat bo'ladi. Bu guruhdan muayyan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilingan shaxslarning daktilokartalarini tekshirish uchun foydalaniladi.

Daktilokartoteka ichki ishlar organida hisobda turgan shaxslarning daktilokartalarini (ular bo'yicha xizmat ko'rsatiladigan hududdagi ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joylardan olingan qo'l barmoqlarining izlari tekshiriladi) hamda jinoyat qidiruv xizmatlaridan, tergov bo'limidan tushadigan daktilokartalarni o'z ichiga oladi. Bu guruhdan gumon qilinuvchilarning daktilokartalarini tekshirish uchun foydalaniladi.

Giyohvandlik vositalarini va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi dori vositalarini olish uchun qalbaki doriqog'ozlarni (tibbiy retseptlarni) hamda ularni qalbakilashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning dastxati namunalarini hisobga olish – mahalliy hisobga olish turi bo'lib, IIV, IIB kriminalistika bo'limlarida yuritiladi. Uni yuritish shakli aralash – kartotekalar va kolleksiyalar tariqasida bo'ladi. Qalbaki doriqog'ozlar kartotekalari yordamida bir nechta doriqog'ozning yagona manbaini, shuningdek muayyan tayyorlovchilarni aniqlash mumkin. Dastxat namunalari kolleksiyasi doriqog'ozdagi matn muayyan shaxs tomonidan yozilganligini aniqlashda yordam beradi. Tergovchi o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni olish uchun surishtiruv organiga beriladigan alohida topshiriqnomada qalbaki doriqog'oz, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi qaysi hisob bo'yicha va qanday maqsadda tekshirilishini ko'rsatishi zarur.

Buzib ochish qurollari va asboblarni izlarini hisobga olish ham mahalliy bo'lib, ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joylardan olingan, IIV, IIB ekspert-kriminalistika bo'linmalarida turgan izlar va asboblarni kolleksiyasi tarzida olib boriladi. Bu hisobga olish yordamida bitta qurol bir necha jinoyatni sodir etishda qo'llanilganligini aniqlash mumkin. Kolleksiyada ochilmagan jinoyatlar sodir bo'lgan joydan topilgan buzib ochish qurollari va olingan nusxa (qolip) tariqasidagi izlar turadi.

Jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonida topilgan qurol o'qlari, gilzalari va patronlarini hisobga olish – bu markazlashgan-mahalliy bo'lib, ekspert-kriminalistika bo'linmalarida: markazda – O'zbekiston Respublikasi IIV EKBda, joylarda – IIV, IIB, TIIB EKBda turgan o'qg'ilzotekalar deb ataluvchi kolleksiyalar tariqasida olib boriladi.

Markazlashtirilgan o'qg'ilzoteka jinoyatlar munosabati bilan olib qo'yilgan soyli o'qotar qurol izlari bo'lgan o'qlar, gilzalar, patronlar, shuningdek ichki ishlar organlari foydalanishidagi, yo'qotilgan yoki o'g'irlangan quroldan tajriba tariqasida otib olingan nazorat gilzalaridan jamlanadi.

Mahalliy o'qg'ilzotekalarga markazlashtirilgan o'qg'ilzotekaning obyektlariga ochilgan axborot kartochkalari joylashtiriladi.

Joylarda ov qurollari patronlarining, silliq stvolli yoki pnevmatik quroldan otilgan snaryadlarning gilzalari, shuningdek ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan soyli o'qotar qurol izlari bo'lgan o'qlar, gilzalar va patronlar hisobga olinadi.

Mazkur hisobga olish yordamida bir qancha jinoyatlarni sodir etishda bitta nusxadagi quroldan foydalanilganligi aniqlanadi va jinoyatni sodir etishda qo'llanilgan qurol olib qo'yilgan, topib olingan, ixtiyoriy ravishda topshirilgan qurollar orasidan aniqlanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olib qo'yilgan o'qlar, gilzalar va patronlar tergovchi tomonidan ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bilan birgalikda, jinoyat ochilgani yoki ochilmaganligidan qat'i nazar, hududiy ekspert muassasasiga topshiriladi. Ekspertiza o'tkazilganidan keyin obyektlar O'zbekiston Respublikasi IIV EKB o'qgilzotekasiga tekshirish va vaqtincha saqlash uchun yuboriladi.

Shuningdek, davlat muassasalarida, jamoat tashkilotlarida yoki ayrim fuqarolarda g'ayriqonuniy saqlangan olib qo'yilgan yoki ixtiyoriy ravishda topshirilgan soyli o'qotar qurollar: revolverlar, pistoletlar, avtomatlar, karabinlar, kichik kalibrli va jangovar qirqma vintovkalar va karabinlar, yasama soyli qurollar O'zbekiston Respublikasi IIV EKB o'qgilzatekasi tekshiruvidan o'tkazilishi kerak. Ular tergovchi tomonidan mahalliy ekspert bo'linmasiga yuboriladi. Jinoyatni sodir etishda muayyan nusxadagi tekshirilayotgan qurol qo'llanilganligi aniqlangan taqdirda tergovchi ekspertiza o'tkaziladigan joy to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Qalbaki qog'oz pullarni hisobga olish ham markazlashtirilgan-mahalliy bo'lib, O'zbekiston Respublikasi IIV EKBda olib boriladi. Uning yordamida qalbaki tanga va qog'oz pullarning tayyorlanish usuli va texnologiyasi bo'yicha kelib chiqishi umumiy ekanligi aniqlanadi, shuningdek, ularni tayyorlash bilan shug'ullangan shaxslar fosh etiladi.

Bitta to'p qalbaki pullarning old va orqa tomonlari fotosuratlari bo'lgan hisobga olish kartochkalaridan, ikkinchisi asl holidagi namunalar kolleksiyasidan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi IIV EKBda qalbaki pul belgilarining turli kartotekalari mavjud. Bular: poligrafiya usulida yoki texnik vositalar yordamida tayyorlangan qog'oz pullar; rasmi chizib yasalgan pullar; chet el valyutasi va metall tangalar.

Poligrafiya usulida tayyorlangan qalbaki hujjatlarni hisobga olish markazlashtirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi IIV EKBda olib boriladi. Bu hisobga olish yordamida bosma ish qog'ozlari (blankalari) bitta klishedan, matbaa harflari termasidan foydalanib, tayyorlangan

qalbaki hujjatlarning kelib chiqishi umumiyliigi, shuningdek ularni tayyorlash bilan shug'ullangan shaxslar aniqlanadi.

Hisobda qalbaki hujjatlarning fotonusxalari kartotekasi va bosma ish qog'ozlarining kolleksiyasi mavjud bo'ladi. Hisobga olish to'plamasida uchta bo'lim bor, bular oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini tamomlaganlik to'g'risidagi diplomlar va diplomlarning blankalari, haydovchilik guvohnomalari va ularning blankalari, boshqa hujjatlar.

Haqiqiyliigi shubha tug'dirgan hujjat tergovchi tomonidan ekspertiza o'tkazish uchun mahalliy ekspert bo'linmalariga yuboriladi, shundan so'ng uning asl nusxasi yoki fotonusxasi, ekspert xulosasining nusxasi, axborot kartochkasi respublika IIV EKBga yuboriladi.

Kriminalistik ma'lumot tariqasidagi kolleksiyalar majburiy, tavsiya qilinadigan va fakultativ (ixtiyoriy) turlarga bo'linadi.

Majburiy – buzib ochish quroli sifatida foydalaniladigan asboblari va boshqa narsalarning; poyabzal tagchami va ustki qismi tasvirlarining; faralar nur tarqatgichlarining; avtomototransport lak-bo'yoq qoplamalarining; avtomototransport shinalari protektorlari izlarining kolleksiyalaridir.

Tavsiya qilinadigan – chet elda ishlab chiqarilgan plombalarning; metallni termik kesish apparatlari qo'llanish izlarining; qulflarning; muhrlar va shtamplar bosilgan izlari (bosma nusxalari)ning; tolali materiallarning; hayvonlar junlarining; yonilg'i-moylash materiallarining; xonaki usulda tayyorlangan giyohvandlik moddalarining va eng ko'p tarqalgan kuchli ta'sir qiluvchi farmatsevtik dorilarning kolleksiyalaridir.

Fakultativ – bular sovuq qurol, porox va portlovchi moddalarning; yengil avtomobillar va mototsikllar dvigatellarida tartib raqamlari tushirilgan puansonlar izlarining; yopishtiruvchi moddalarning; yozuv materiallarining, qog'ozlarning (bosmaxona, mashinkada yozuv va ro'zg'or qog'ozlarining) kolleksiyalaridir.

IIV ekspert-kriminalistika bo'limlarida barcha turdagi kolleksiyalar vujudga keltiriladi; shahar (tuman) organlarining ekspert-kriminalistika guruhlarida tavsiya qilinadigan va fakultativ kolleksiyalar vujudga keltirilishi mumkin.

Kriminalistik ma'lumot tariqasidagi kolleksiyalar obyektlarni asl holda, shuningdek ularning tasvirlarini: fotosuratlari, videotasvirlari, nusxa olingan qoliplari, ta'rif-tavsifini o'z ichiga olishi mumkin.

Buzib ochish qurollari sifatida foydalaniladigan asboblari va boshqa narsalar kolleksiyalari sanoat usulida tayyorlangan narsalarning xossalari, shakli, o'lchamlari va boshqa alomatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z

ichiga oladi. Kolleksiya fondi jinoyatlarni fosh etish amaliyotini tahlil etish, trasologiya ekspertizalari, shuningdek xizmat ko'rsatiladigan hududdagi korxonalar va savdoga keltirilayotgan buyumlar turlarini o'rganish asosida belgilanadi.

Poyabzal tagcharmi va ustki qismi tasvirlarining ma'lumot tariqasidagi kolleksiyasida muayyan artikul, fason, modeldagi tagchарmlar va poyabzallarning hodisa sodir bo'lgan joyda iz qoldirgan poyabzal qaysi guruhga mansubligini aniqlash uchun mo'ljallangan rasmlari turadi. Poyabzallar tagcharmi va ustki qismi tasvirlarini hamda ular haqidagi ma'lumotlarni ma'lumotnoma nashrlardan, kataloglardan, savdo korxonalaridan va ekspertiza amaliyotidan olinadi.

Metallni qirqish namunalarning ma'lumot tariqasidagi kolleksiyasi metallni termik va mexanik usulda qirqish uchun qo'llaniladigan, seyflar va boshqa metall to'siqlarni buzib ochish uchun foydalaniladigan apparatlar turini, qirqish vaqtini va jinoyatchining ana shu apparatlardan foydalana olish darajasini aniqlash uchun mo'ljallangandir.

Tolali materiallarning ma'lumot tariqasidagi kolleksiyasi kelib chiqishi hayvonotga, o'simlikka oid va kimyoviy tolalar, gazlamalar va sun'iy mo'yna namunalari. Mikroobyektlar bilan ishlashda foydalaniladi.

Yonilg'i-moylash materiallarining ma'lumot tariqasidagi kolleksiyasi neftni qayta ishlovchi, sanoat, savdo korxonalaridan olingan, ekspertizaga kelib tushadigan asl holidagi namunalardan to'planadi. Asl holidagi namunalardan olingan spektrlar va xromatogrammalar atlasini tuzib boriladi. Kolleksiya dan tekshirish uchun olib kelingan yonilg'i-moylash materiallari tarkibini aniqlashda foydalaniladi.

Giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir etuvchi moddalar kolleksiyasi asl holidagi namunalarni va ulardan olingan spektrlar atlasini o'z ichiga oladi. Tekshirish uchun keltiriladigan notanish giyohvandlik vositalarini va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar tarkibini tezkor aniqlash uchun mo'ljallangan.

Shu tariqa, kriminalistik ma'lumot tariqasidagi kolleksiyalar ma'lumotlar banklari vazifasini bajaradi. Ular yordamida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi. Ulardan ekspres tekshiruvlarni o'tkazish, ekspertizalarni bajarish, tezkor tahlil qilish uchun foydalaniladi. Ma'lumot tariqasidagi kolleksiyalar ayrim to'plarining videonusxalari tezkor amaliyotda foydalanish uchun ko'chma kriminalistika laboratoriyalariga joylashtiriladi va hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish paytida foydalaniladi.

Tezkor ma'lumotli

hibsga olingan, ayblangan, sudlangan, qidiruvda bo'lgan, jinoyat sodir etgan, ammo jamoatchilik ta'siri chorasi qo'llanilganligi munosabati bilan jinoiy jazodan ozod etilgan shaxslarga doir; chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet elda yashayotgan fuqarolar sodir etgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarga doir ma'lumotlar ro'yxati

Tezkor-qidiruv

qidiruv e'lon qilingan, bedarak yo'qolgan shaxslar, tanib olinmagan murdalar, kimligi ma'lum bo'lmagan bemorlar va bolalar, o'g'irlangan antikvar buyumlar va madaniy boyliklar o'g'irlangan, yo'qolgan o'qotish qurollari, umumdavlat muomalasidagi o'g'irlangan hujjatlar, tartib raqamli buyumlar qidirilayotgan va egasi yo'q avtotransportlar

Kriminalistik

operativ ahamiyatga molik shaxslarning daktokartotekalari, ochilmagan jinoyatlar joyidan olingan daktoizotekalar, jinoyatni sodir etish usuliga ko'ra o'q. gilzoteka, qalbaki pullar va qimmatbaho qog'ozlar, matbaa usulida tayyorlangan hujjatlar, qalbaki tibbiy retseptlar va qalbakilashtiruvchi shaxslar dastxatining namunalari, ovoz va nutq fotolentasi, buzish qurollari izlarining kolleksiyasi

Ekspert-kriminalist bo'limlarining kolleksiya va kartotekalari

o'qotar va sovuq qurollar hamda qurol-aslahalar kolleksiyasi;
turli buyum va materiallar kolleksiyasi;
detal va jihozlar (poyabzal poshnalari, fara shishalari) kolleksiyasi;
spektrlar, xromotogrammalar, rentgenogrammalar;
ovoz, nutq, shovqin fonotekasi;
turli kataloglar.

Kriminalistik ro'yxatga olish usullari

Kartotekalar

Izlar jamlanmasi

Albomlar

Kolleksiyalar

Jurnallar

Ro'yxatlar

Ma'lumotlar yoki ma'lumotlar bankining
kompyuter bazalari

Aralash

Kriminalistik ro'yxat obyektlarini tartibga solish

Kriminalistik ro'yxat obyektlarini tartibga solish – bu ularning maxsus joylashuvi bo'lib, ro'yxatga olingan obyektlar haqida ma'lumotlar axborot qidirishning tez va qulayligini ta'minlaydi

Tartibga solish usullari

Xronologik

Daktiloskopik

Tashqi
alomatlariga ko'ra

Alfavitli

Elektron-hisoblash

Nazorat savollari:

1. Kriminalistik ro'yxatga olishning ahamiyatini amaliy misollar yordamida izohlab bering.

2. Kriminalistik ro'yxatga olish tizimi qanday? Kriminalistik ro'yxatning qanday turlarini bilasiz?

Kazuslar:

1-kazus

Yunusobod tumani IIV xodimlari tomonidan tezkor qidiruv tadbiri o'tkazilishi natijasida Azizova S.ning xonasidan qalbaki pul banknotlari topildi, shuningdek qalbaki banknotlarni chiqarishga mo'ljallangan mashinka topildi. Qalbaki pul banknotlarining qalbakilashtirish usuli tekshirib ko'rildi. Azizova S. besh yildan beri pul banknotlarini qalbakillashtirish bilan shug'ullanib kelayotganligini ma'lum qildi.

Mazkur vaziyatda tergovchi tomonidan qanday tergov harakatlari o'tkazilishi lozim? Oldingi jinoyatlarni ochishda kriminalistik ro'yxatga olish tergovchiga samarali yordam bera oladimi?

2-kazus

Chirchiq kanalidan noma'lum shaxsning murdasi topildi. Murdaning yuz qismiga jarohatlar yetkazilganligi va murdaning holati tanib bo'lmaz darajada ekanligi tufayli uning shaxsi aniqlanmadi. Sud tibbiy ekspertizasi natijalariga ko'ra, Shaxs boshiga og'ir tan jarohati yetkazilishi natijasida o'lganligi, so'ngra murda suvga tashlab yuborilganligi va o'lim kelib chiqishi vaqti aniqlandi.

Ushbu vaziyatda shaxsi noma'lum murdaning shaxsi qanday aniqlanadi? Shaxsi aniqlanmagan murdalar bo'yicha qanday ro'yxat yuritiladi?

III BO‘LIM. KRIMINALISTIK TAKTIKA

12-MAVZU. KRIMINALISTIK TAKTIKANING UMUMIY QOIDALARI

Kriminalistik taktika tushunchasi va uning vazifasi. Kriminalistik taktika tizimi. Taktik usullar, taktik qarorlar, tergov vaziyatlari va kriminalistik taktikaning boshqa qoidalari.

Kriminalistik taktika tushunchasi va uning vazifasi

“**Taktika**” (grekcha “taktika” – qo‘shinlarni safga tizish mahorati) atamasini jinoyatlar bo‘yicha tergovni amalga oshirayotgan shaxslarning faoliyatiga tatbiqan ilk marotaba XIX asr oxirida nemis olimi A.Veyngardt qo‘llagan.

Esda tuting! **Kriminalistik taktika** – bu kriminalistikaning tergovni tashkil etish va rejalashtirish, uni amalga oshiruvchi shaxslar xatti-harakatlarining optimal uslubini jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining huquqlari, manfaatlari va majburiyatlarini O‘zR JPK talablariga qat‘iy muvofiq ravishda belgilash va amalga oshirish nazariy qoidalari va bu xususda amaliy tavsiyalar tizimidan iborat bo‘limi.

Kriminalistik taktikaning **bosh vazifasi** tergov harakatlari va tashkiliy tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi kriminalistik faoliyatni samarali tashkil etish, shuningdek jinoyat ishi bo‘yicha tergovni uning barcha ishtirokchilari o‘zaro munosabatlari tizimini oqilona tashkillashtirish yo‘li bilan yuritishdan iborat.

Dastavval kriminalistikada taktik jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish bilan shug‘ullanadigan shaxslarga ularning ishlarini rejalashtirish yuzasidan beriladigan nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalarining majmuyi tariqasida maydonga kelgan. Bora-bora uning mazmun-mohiyati o‘zgarib, an’anaviy qoidalar bilan bir qatorda kriminalistik taktikaga tergov faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq talay yangi nazariyalar, ta’limotlar, tavsiyalar qo‘shila bordi. Keyinroq esa jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilishni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari ham ko‘rib chiqila boshlandi.

E'tibor bering! Kriminalistik taktikaning eng muhim qoidalari jumlasiga quyidagilar kiradi: jinoyatlarni tergov qilish chog'idagi tergov harakatlarining oqilona taktik usullari; kriminalistik taktik harakatlar va operatsiyalar; jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish va tezkor-qidiruv xodimlari bilan tergovchining o'zaro hamkorligi; jinoyatlarni tergov qilishda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining yordamidan foydalanish; jinoyatlarni tergov qilishda gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining shaxsini o'rganish; jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish; tergovchining jinoyatlarning oldini olishga doir faoliyati.

Kriminalistik taktikaning qoidalari, tavsiyalari va xulosalari kriminalistika fanidagi barcha qolgan bo'limlarining mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Kriminalistik taktik nazariyalari, ta'limotlari va kategoriyalari kriminalistikaning metodologik asoslari, kriminalistik identifikatsiyalash va diagnostikalash, jinoyat sodir etish usullari to'g'risidagi ta'limot, tergov faoliyatida kriminalistik model tuzish singari qoidalarga asoslanadi.

Kriminalistik taktik tavsiyalarda kriminalistik texnika muhim o'rin egallaydi. U ko'zdan kechirish, tintuv, eksperimentni tashkil etish va amalga oshirish, ekspertiza hamda boshqa tergov harakatlarini tayinlash va o'tkazish chog'ida kriminalistik taktik qoidalar tarkibida qo'llaniladi. Kriminalistik texnika rivojlanib borgani sari uning yutuqlari sud dalillarini aniqlash, tekshirish va baholashda tobora yangi imkoniyatlar ochadi. Bu ilgari yaratilgan taktik usullar, operatsiyalar va kombinatsiyalarni takomillashtirish hamda ularning mutlaqo yangilarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'z navbatida, kriminalistik taktikaning tarkibi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish, tergovchi va tezkor xodimlarning o'zaro hamkorligi, ayrim tergov harakatlarining taktikasi haqidagi kriminalistik nazariyalar va kriminalistik taktikaning boshqa qoidalari xususiy uslubiyatlarga asos qilib olinadi hamda ana shu jinoiy jazoga loyiq qilmishlarni fosh etish va tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan holda mukammallashtiriladi.

Kriminalistik taktika tizimi

Kriminalistik taktikaning hozirgi vaqtga kelib shakllangan tizimi o'zaro bog'liq **ikki qismdan** tashkil topgan.

1. Kriminalistik taktikaning umumiy qismi.

Umumiy qoidalar – kriminalistika mazkur bo'limining mohiyati va tergov faoliyatini tashkil etishga doir bilimlarni o'z ichiga oluvchi ilmiy

asosidir. Kriminalistik taktikaning umumiy qoidalari, o'z navbatida, ikkita kichik qismlarga bo'linadi:

a) kriminalistik taktikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy holatiga doir bilimlarni birlashtiruvchi ilmiy muammolari: kriminalistik taktikaning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, kriminalistik taktikaning predmeti, tizimi, vazifalari, manbalari, prinsiplari, kriminalistik taktikaning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va hokazo.

b) tergov faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari: tergov faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi kriminalistik ta'limot; jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish, tergovchilarning tezkor xodimlar bilan o'zaro hamkorligi, tergov faoliyatida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni tashkil etish, jinoyatlarning oldini olishga doir faoliyatni tashkil etish, taktik usullar va tavsiyalar to'g'risidagi kriminalistik ta'limot, taktik operatsiyalar, tergov vaziyatlari, taktik yechimlar, tergovchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish va hokazo.

2. Kriminalistik taktikaning maxsus qismi.

Kriminalistik taktikaning maxsus qismi jinoyatlarni tergov qilish va sud tergov jarayonida sudning hamda tergovchining harakatlarini tayyorlash va o'tkazishga doir bilimlar tizimidan iboratdir. Bu bilimlarning mazmunidagi farq maxsus qismni ham nisbatan ikkita mustaqil tarkibiy elementga bo'lishni taqozo etadi:

a) jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ayrim tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi: tergovni ko'zdan kechirish va guvohlantirish taktikasi, so'roq qilish va yuzlashtirish taktikasi, tintuv qilish taktikasi, qo'lga tushirish va hibsga olish taktikasi, tanib olish uchun ko'rsatish taktikasi, tergov eksperimenti taktikasi, ko'rsatuvlarni voqea yuz bergan joyning o'zida tekshirish va aniqlashtirish taktikasi, sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish taktikasi, qidiruv tadbirlari taktikasi;

b) sudlov ishlarini yuritish jarayonida ayrim tergov harakatlari taktikasi: sud tergov taktikasi, sud ko'zdan kechirishi taktikasi, ko'rsatuvlarni voqea yuz bergan joyning o'zida tekshiruv taktikasi.

Kriminalistik taktika jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov qilishda, ya'ni jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga avvalo, tergovchilarga samarali yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Kriminalistik taktikaning umumiy qismi

kriminalistik taktikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy holatiga doir bilimlarni birlashtiruvchi ilmiy muammolari

kriminalistik taktikaning tarixi, predmeti, tizimi, vazifalari, manbalari, prinsiplari, ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va b.

tergov faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari

tergov faoliyatini tashkil etish; jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish, tergovchilarning tezkor xodimlar bilan o'zaro hamkorligi, taktik usullar va tavsiyalar to'g'risidagi kriminalistik ta'limot, taktik operatsiyalar, tergov vaziyatlari, taktik yechimlar va b.

Kriminalistik taktikaning maxsus qismi

jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ayrim tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi

ko'zdan kechirish va guvohlantirish, so'roq qilish va yuzlashtirish, tintuv qilish, qo'lga tushirish va hibsga olish, tanib olish uchun ko'rsatish, tergov eksperimenti taktikalari va b.

sudlov ishlarini yuritish jarayonida ayrim tergov harakatlari taktikasi

sud tergovi taktikasi, sud ko'zdan kechirishi taktikasi, ko'rsatuvlarni voqea yuz bergan joyning o'zida tekshirish taktikasi va b.

Taktik usullar, taktik qarorlar, tergov vaziyatlari va kriminalistik taktikaning boshqa qoidalari

Jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish chog'ida tergovchi harakatlarining oqilona tashkil etishda taktik usullar muhim ahamiyatga ega.

Esda tuting! Taktik usul – bu tergovni yuritayotgan shaxs xatti-harakatlarining jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish bilan bog'liq vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradigan maqbul uslub.

Taktik usulni uning kriminalistik faoliyat tizimidagi o'rmini, uning vazifalarini hisobga olgan holda tahlil qilamiz. Mazmun va maqsad jihatidan quyidagi taktik vazifalarni va ularga mos keluvchi taktik usullarni farqlash mumkin:

1) tergov qilinayotgan jinoyat voqeasining haqiqiy holatlarini, ayniqsa, daliliy ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan kriminalistik axborotni aniqlash va undan foydalanish orqali aniqlashga qaratilgan **bilishga oid** taktik vazifalar va usullar;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan ularni tergovga jalb qilish, ular bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularning xulq-atvorini boshqarish optimal shakllaridan foydalanish orqali samarali o'zaro aloqani yo'lga qo'yishga qaratilgan **boshqaruv** taktik vazifalari va usullari;

3) jinoyatlarni tergov qilish borasidagi faoliyatning optimal tashqi sharoitlari va zaruriy tashkiliy-texnika vositalarini ta'minlovchi **tashkiliy-texnik** taktik vazifalar va usullar.

Halkubina bo'lgan "zifili" darajasiga ko'ra taktik usullar

Boshlang'ich taktik usullar

kriminalistik ahamiyatga molik axborotni topish, qayd etish va olib qo'yishga qaratilgan taktik usullar

Oraliq taktik usullar

daliliy faktlarni aniqlash, buning uchun mo'ljallangan taktik komplekslarni shakllantirishga qaratilgan taktik usullar

Pirovard taktik usullar

jinoyat ishini tergov qilish taktik vazifalarini hal qilishga, gumon qilinuvchining aybdorligini isbotlashga, jinoyat voqeasining barcha muhim holatlarini aniqlashga qaratilgan taktik usullar

Mazmuniga ko'ra taktik usullar turlari

Psixologik taktik usullar

Jinoyat ishlari bo'yicha tergovchi harakatlarini amalga oshirishning umumiy va yuridik psixologiya sohasidagi yutuqlarga tayangan usullari (tergovchi so'roq qilinuvchi bilan psixologik aloqa o'rnatishi tintuv qilinuvchining ruhiyatini kuzatishi, ushlanayotgan shaxsni, jinoyatni sodir etishda gumon qilinuvchini qo'lga olish chog'ida psixologik ta'sir ko'rsatish va b.).

Mantiqiy taktik usullar

Mantiq qonunlari va kategoriyalari hamda sud mantiqiga xos qonuniyatlarni va kategoriyalarga asoslanuvchi taktik usullar (so'roq qilinuvchi shaxsning ko'rsatuvlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash va ulardan foydalanish; tergov versiyalarini tuzish va ularni tekshirish; tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida dalillardan va tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning mantiqiy izchilligini belgilash usullari va b.).

Tashkiliy taktik usullar

Bu usullar jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirish qoidalari va usullarini; jinoyatlarni ochish va tergov qilish paytida tergovchining tergov harakatlarini hamda boshqa harakatlarini; ishtirokchilar o'rtasida vazifalar taqsimlanishini; tergovchi va surishtiruv organlari tezkor xodimlarining o'zaro hamkorligini tashkil etishni va b.ni o'z ichiga oladi.

Kompleks taktik usullar

Jinoyatlarni ochish hamda tergov qilish paytida ilgari ko'rsatib o'tilgan va boshqacha mazmundagi tergovchi harakatlarini tayyorlash hamda amalga oshirish yo'llarini uyg'unlashtiradi (sodir etilgan jinoyatda o'z aybini inkor etayotgan ayblanuvchini so'roq qilishda savollarni qo'yish ketma-ketligini tanlash so'roq qilinuvchining ruhiyati xususiyatlarini, uning aybi yuzasidan to'plangan dalillar mazmuni va ahamiyatini hamda so'roq qilishda himoyachi, mutaxassis, prokuror va boshqa shaxslar ishtirok etishini hisobga olingan holda o'tkazilishi lozim).

Tergov qilinayotgan ish bo'yicha isbot qilish predmeti bilan muayyanlashtirilgan taktik vazifalar yig'indisi daliliy axborot manbalari bilan ishlash va protsessual qarorlar qabul qilishda tergovchi taktik faoliyatini yo'lga soluvchi asosni hosil qiladi.

Tergovchi muayyan taktik usulni tanlashi va taktik qaror qabul qilish tergov qilinayotgan ish bo'yicha yuzaga keladigan va o'ta o'zgaruvchan, harakatchan, faol axborot tizimini hosil qiladigan tergov vaziyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tergov harakatlarini yuritish taktikasiga aniqlik va tuzatish kiritish so'roq qilish, yuzlashtirish, ko'rsatmalarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va hokazolar jarayonida qo'llanilgan taktik usullar yordamida olingan natijalarni kutilgan natijalar bilan solishtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Taktik usul zahirida qaysi fan ma'lumotlari bo'lishiga qarab, psixologik, mantiqiy usullar, boshqaruv fani usullari va boshqa taktik usullar farqlanadi. Taktik usullarni ularning yordamida hal qilinuvchi kriminalistik vazifalar tipiga qarab guruhlash amaliy nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonga ko'ra tashkiliy-texnik, bilishga oid va boshqaruv taktik usullari farqlanadi.

E'tibor qiling! Tergovchining taktik qarorlari tergov vaziyati tahliliga, jinoyat sodir etish usullari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini, kriminalistika ilmiy tavsiyalarini bilishga, harakatlarning optimal variantini tanlashga yo'l ko'rsatadigan tergov faoliyati borasidagi shaxsiy tajriba va kasbiy mahorati va ishonchiga asoslanadi.

Tergovchini taktik qaror qabul qilishga quyidagilar olib keladi: texnik, taktik va qidiruv usullari va vositalaridan keng foydalanish asosida bevosita vazifalarni va ularni yechish usullarini belgilash, ushbu vaqtda yuzaga kelgan tergov faoliyati sharoitlarida kriminalistik faoliyatning barcha subyektlari kelishilgan holda o'zaro aloqa qilishini ta'minlash.

Tergovchi tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi holatlarini aniqlash bilan bog'liq bilish vazifalarini hal qilish uchun ko'pincha quyidagi taktik vazifalarni hal qiladi:

1) tergovning boshqa ishtirokchilari bilan **psixologik aloqa o'rnatish**, tergovchi va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning manfaatlari to'qnashgan nizoli va muammoli tergov vaziyatlarida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadigan qarama-qarshilik holatini bartaraf etish;

2) jabrlanuvchi, guvoh yoki boshqa shaxsga bilish vazifalarini hal qilishda **yordam ko'rsatish**, masalan: tanib olish uchun ko'rsatiladigan shaxslar yoki narsalar guruhini tanlashda idrok etishning xolisonaligi va

izchilligini ta'minlash; so'roq qilinuvchi xotirasining assotsiativ aloqalarini faollashtirish yo'li bilan unutilgan faktlar va tafsilotlarni yodga solish va sh.k.;

3) tergov vazifalarini hal qilish uchun zarur bo'lgan **optimal shaxslararo munosabatlarni o'rnatish**, kerakli psixologik mo'ljal berish, masalan: tintuv qilinayotgan shaxsni sinchiklab kuzatish; ayblanuvchini uning ko'rsatuvlar berishdan bosh tortishi qilmishning holatlarini xolisona aniqlashni qiyinlashtirishi mumkinligiga ishontrish va sh.k.

Muayyan taktik usullarni tanlash tergovchi tomonidan ruhiy va psixologik jarayonlarning kechish obyektiv qonuniyatlarini, tergov ostidagi shaxs, jabrlanuvchi, guvoh-shohid va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning individual xususiyatlarini, ulardan har birining maqsad va mo'ljallari, rag'batlantiruvchi motivlari, boshqa obyektiv va subyektiv omillar, masalan, tergovga uyushqoqlik bilan qarshilik ko'rsatish mavjudligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Tashkiliy-texnik vazifalarni hal qilayotib, tergovchi o'z faoliyatini rejalashtirishga, tashkiliy-texnika, transport, aloqa, kriminalistik texnika vositalariga, hisob yuritish-ro'yxatga olish va bildirgich ma'lumotlarga, ahamiyatga molik axborotni topish va unga ishlov berish uchun kompyuter vositalariga tayanadi, bularning barchasi tergovchi ishining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Taktik usullar oldiga qo'yiladigan talablar – qonunga asoslanganligi (qonun me'yorlariga mos kelishi); maqsadga muvofiqlik; xilma-xillik; xavfsizlik; samaradorlik va tejamkorlik; usulni erkin tanlash; tergov harakatlari va tezkor qidiruv tadbirlarining eng maqbulini uyg'unlashtirish.

Taktik usullari taktikasining umumiy qoidalari – qonuniylikka, odob va axloq me'yorlariga rioya qilish; rahbariyat yagonaligi; tergovchining faolligi va intiluvchanligi; surishtiruv xodimlari bilan o'zaro hamkorlik; vaziyatlilik; bosqichli; rejalilik; izchillik; xolislik; to'lalilik; o'z vaqtida ijro etish; kriminal-texnika vositalaridan foydalanish; mutaxassislar yordamidan foydalanish.

Tergovchi jinoyat ishlari bo'yicha ishni yuritar ekan, quyidagi turdagi harakatlarni bajarishi mumkin.

1. Tergov harakatlari. Bu tergovchining jinoyatlarni tergov qilish chog'idagi jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan harakatlari bo'lib, ularning mohiyati jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'ladi. Ular jumlasiga so'roq qilish, yuzlashtirish, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, tintuv, ushlab turish, tanib olish uchun ko'rsatish, tergov eksperimenti, ko'rsatuvlarni voqea yuz bergan joyda tekshirish va aniqlashtirish, sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish kiradi.

2. Qidiruv choralari. Tergovchining va surishtiruv organlari xodimlarining ayblanuvchilar, gumon qilinuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar, murdalar, hayvonlar, qimmatbaho narsalar, hujjatlar va tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli boshqa obyektlar turgan joyni aniqlashga qaratilgan jinoyat-protsessual qonunida ruxsat etilgan harakatlari qidiruv choralari hisoblanadi.

Ma'lumot uchun! Kriminalistik taktik usullar yo'nalishiga ko'ra quyidagi sharoitlarda qo'llanish uchun ishlab chiqiladi: tipik tergov vaziyatlari; nizoli tergov vaziyatlari; ekstremal tergov vaziyatlari; tergov va surishtiruvga qarshi uyushgan harakat; "eski" ochilmagan jinoyat ishlari bo'yicha ishlash va hokazolar.

Tergov vaziyatlari har qanday jinoyat ishlarini tergov qilishi ishni yuritishning har bir paytidagi holatini aks ettiradi va shu bois vaziyat tahlilini to'g'ri amalga oshirish tergov faoliyatini tashkil etishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha tergov vaziyatlari aniq bir jinoyatni tergov qilishning muayyan paytidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi holatlar majmuidan iborat.

Ana shu holatlar tarkibini tergov vaziyatlarining elementlari deb ham atash mumkin bo'lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Tergov vaziyatining jinoyat xususiyatlari va u haqdagi axborot bilan bog'liq elementlari – jinoiy harakatlar tarkibi (vaqti, joyi, usuli va hokazo); jinoyatning oqibatlarini; jinoyatni sodir etgan shaxslar soni va ular to'g'risidagi ma'lumotlar; gumon qilinganlar ushlanganmi yoki ushlanmaganmi; o'g'irlangan narsa topilganmi yoki topilmaganmi va shunga o'xshashlar; jinoyat sodir etilgan paytdan to jinoiy hodisa to'g'risidagi axborot ma'lum bo'lguniga qadar o'tgan vaqt; jinoiy hodisa to'g'risidagi dastlabki axborot mazmuni va manbayi; jinoiy hodisa to'g'risidagi dastlabki axborotning to'liqligi, ishonchliligi va tegishliligi.

2. Tergov vaziyatining tergov qilish natijalari bilan bog'liq elementlari – tergov qilishning dastlabki bosqichida tergov faoliyatining mazmuni va natijalari bilan bog'liq elementlar; keyingi tergov qilish bosqichida tergov faoliyatining mazmuni va natijalari; tergov qilishning xotima qismi mazmuni.

3. Tergov vaziyati davomida tergovchining shaxsi va uning ish sharoitlari bilan bog'liq elementlar – tergovchining malakasi va ixtisosi; tergovchilikdagi ish tajribasi; tergovchining shaxsiy tayyorgarligi (jismoniy va ma'naviy-ruhiy holati); kasbiy bilimlari, mahorati, ko'nikmalari darajasi va boshqalar; tergov bo'linmasida boshqaruvni va mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning ahvoli; kriminalistik va maxsus

texnika, transport, devonxona materiallari va sarf-xarajat materiallari; tergovchining o'z ish yuritishidagi boshqa jinoyat ishlari bilan bandligi; tergovchining turli xizmat vazifalarini (navbatchilik, ayrim topshiriqlar va h.k.) bajarishga jalb etilishi.

Esda tuting! Tergov vaziyatlari turlari:

- 1) takrorlanib turish xususiyatiga ko'ra **tipik va alohida** tergov vaziyatlari;
- 2) tergov qilish vazifalari bajarilishiga erishish imkoniyatiga (ya'ni tergov qilish imkoniyati qulay yoki murakkablik xususiyatiga) ko'ra **qulay va noqulay** xususiyatga ega tergov vaziyatlari;
- 3) jinoyat ishlarini tergov qilish bosqichlariga ko'ra **boshlang'ich, oraliq va yakunlovchi** tergov vaziyatlari;
- 4) jinoyatlarni fosh etishda jinoyat protsessi ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar mazmuniga ko'ra **nizoli va nizosiz** tergov vaziyatlari;
- 5) tergov qilish sharoitlariga ko'ra **shoshilinch** (kechiktirib bo'lmaydigan) va **odatdagi** tergov vaziyatlari.

Ushbu elementlarning o'ziga xos xususiyatlariga va ularning bir-biri bilan uyg'unlashuviga qarab tergov vaziyatlarining har xil ko'rinishlari yuzaga keladi. Ulardan bir xillari jinoyat ishlarini tergov qilishda tez-tez, boshqalari kamroq uchraydi.

Yuzaga kelayotgan tergov vaziyatlarini tahlil qilish natijalari tergovchi tomonidan **taktik yechim** – tergovning borishiga ta'sir ko'rsatish maqsadini aniqlash hamda unga erishish vositalari, uslublari va usullarini belgilashdan iborat bo'lgan xulosa tariqasida ifoda qilinmog'i lozim. Taktik yechimlar og'zaki va yozma bo'lishi mumkin. Ular tergov qilish rejasi, alohida tergov harakatini o'tkazish rejasi, jinoyat ishi bo'yicha qaror, surishtiruv organlariga topshiriq va boshqa shu singarilardir. Taktik yechimlar tergov harakatlarini, kombinatsiyalar va operatsiyalarni o'tkazish tartibini belgilab, ish bo'yicha tergov faoliyatiga cheklangan tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistik taktika tushunchasini, uning vazifalarini izohlab bering. Kriminalistik taktikaning uning tizimi bilan bog'liqlikda tahlil qiling.
2. Taktik usullar, taktik qarorlar va tergov vaziyatlari tushunchalari mazmunini o'zaro bog'liqlikda ochib bering. Ularning umumiy va xususiy jihatlarini tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

TATUning 2-kurs talabasi fuqaro P. o'z kurs doshi fuqaro D.ni Nexia rusumli davlat raqami 10 P 758 D L avtomashinasini olib qochgan. Avtomashina 2013-yil 2-sentabr kuni Uch Qahramon posti DAN xodimlari tomonidan ushlanganida ayblanuvchi uni kursdoshining roziligi bilan olib ketganini aytgan. Avtoullov ko'zdan kechirilganda uning bagaj qismidan qora selafanga o'ralgan oq kukun topildi. Ekspertiza bergan xulosasiga ko'ra ushbu kukun kokain moddasi bo'lib, umumiy og'irligi 0,75 grammni tashkil etgan. Tergov jarayonida ayblanuvchi haqiqatda undan xabari yo'qligini aytgan. Biroq tergovchi bunga shubha bilan qarab ayblanuvchi P.ni ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olgan.

Mazkur jinoyat ishining kriminalistik xarakteristikasini bering.

Jinoyat ishi yuzasidan tergovni rejalashtiring va tergov versiyalarini tuzing. Holat yuzasidan qaysi holatlar aniqlanishi va isbotlanishi lozim?

Holat yuzasidan o'tkaziladigan tergov harakatlarining taktik qoidalarini izohlang.

2-kazus

O'g'rilik jinoyatini sodir etishda gumon qilinuvchi jinoyatchi voyaga yetmagan D. ushlandi. Tergovchi uni so'roq qilish chog'ida berilgan savollarga ayblanuvchi D. to'liq javob berdi. Biroq ayblanuvchi D.dan o'g'irlangan narsalarni qayerda sotgani so'ralganida savolga aniq javob bera olmadi. Tergovchi mazkur holat yuzasidan shubhalanib, jinoyatni bir o'zi sodir etmagan degan taxminga bordi.

Holat yuzasidan jinoyatning kriminalistik xarakteristikasini bering. Jinoyat ishi yuzasidan tergov versiyasini tuzing va tergovni rejalashtiring.

Jinoyat ishi yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlang. Dastlabki va keyingi tergov harakatlari o'tkazishning taktik qoidalari qanday?

13-MAVZU. TERGOVNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH

Tergovni rejalashtirish hamda tashkil etish tushunchasi va vazifalari. Rejalashtirish prinsiplari va turlari. Rejalashtirish hujjatlari.

Tergovni rejalashtirish hamda tashkil etish tushunchasi va vazifalari

Tergovchining tergov vazifalarini hal qilish optimal yo'llari va vositalarini belgilashga qaratilgan murakkab fikrlash faoliyati – rejalashtirish tergovni oqilona tashkil etishning muqarrar sharti va asosiy usuli hisoblanadi.

Esda tuting! Jinoyat ishi bo'yicha tergov qilish rejasi – ish yuzasidan chin haqiqatni aniqlashga qaratilgan harakatlar ro'yxatini o'z ichiga olgan topshiriq.

Jinoyatni tergov qilishni rejalashtirish – jinoyat-protsessual qonunchiligining talablari va hodisaning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda tergov vazifalarini, ularni yechish yo'llari va usullarini aniqlash.

Ish bo'yicha tergov jarayonining xayoliy modeli yozma rejani tuzish yo'li bilan moddiylashtirilishi lozim. Rejalashtirmagan holda ish yuritish usuli samarasiz bo'lib, ba'zan tajribali tergovchilarga ham pand beradi, ayniqsa murakkab, ko'p voqeali va ko'p subyektli jinoyatlarni tergov qilishda, shuningdek bir vaqtning o'zida bir qator jinoyat ishlari bo'yicha tergovni yuritishda tergovni tashkil etish va rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

E'tibor qarating! Rejalashtirish o'tkazilayotgan tergovning xayoliy modelini boshidan oxirigacha tuzish va unga aniqlik kiritishdan iborat bo'lsa, **tashkil etish** tuzilgan tergov rejasini optimal amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi, ya'ni ta'minlovchi xususiyat kasb etadi.

Har qanday kriminalistik faoliyatni rejalashtirish hech bo'lmasa minimal boshlang'ich axborotga ega bo'lish, yuzaga kelgan vaziyatga, yuzaga keluvchi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga to'g'ri baho berishni, alohida rejalar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlashni, vaqt limitini qat'iy hisobga olishni taqozo etadi. Tergovni rejalashtirish kriminalistik faoliyatni tartibga solish orqali dalillarni jamlashga ko'maklashadi.

Rejaga amal qilgan holda, tergovchi yuzaga keluvchi vazifalarni o'z vaqtida hal qilish, shu tariqa ilgari surilgan tasmollarni tekshirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o'z ish yurituvida bo'lgan har bir jinoyat ishi bo'yicha bir maromda ish olib borish, rejaga o'z vaqtida tuzatish kiritish,

olingan natijalarga aniq baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Rejalashtirish jarayonida tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlar, kriminalistik operatsiyalarni o'z ichiga olgan faoliyatning xayoliy modeliga doimiy ravishda aniqlik kiritiladi va u takomillashtirilib boriladi. Tergov faoliyati rejasi dalillarni izchil qidirish, ularni har tomonlama o'rganish, ularning o'rtasidagi aloqalar va ziddiyatlarni aniqlash, so'nggi zikr etilgan omillarni bartaraf etish imkonini beradi.

Rejalashtirish tergovchining aniq bir maqsadga qaratilgan faoliyatini ta'minlaydi, u nima qilishi kerakligini, qachon, qayerda va qanday harakat qilishi zarurligini ko'rsatadi.

Jinoyatni tergov qilish murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, tergovchidan yuqori saviyadagi tashkiliy va aqliy qobiliyatlarni talab qiladi. Tergov qilishning murakkabligi shundaki, dalillarni faqatgina yig'ish emas, balki har tomonlama tekshirish, o'rganib chiqish va ularni to'g'ri baholash uchun, chunki jinoyatchilar ko'p hollarda turli xil ayyorlik ishlatadilar: jinoyat izlarini yashiradilar, jinoyatga baxtsiz tasodif, o'z joniga qasd qilish yoki boshqa bir jinoyat ko'rinishini berishga harakat qiladilar hamda ba'zi hollarda jabrlanuvchi, guvoh va boshqalarga tazyiq o'tkazadilar.

Jinoyat ishini tergov qilishda tergovchi hodisaning ayrim faktlari va holatlari o'rtasidagi mavjud aloqalarni aniqlash hamda hozirgi holatni bilishdan o'tmishni bilish sari boradi. Bunda tergov tasmollari tergovchiga yo'nalishni ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Ular rejalash asosi (o'zagi, yadrosi) bo'lib, harakatlar yo'nalishini, aniqlashtirish lozim bo'lgan savollar doirasini belgilagan holda tergov qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. Tasmollar rejalashtirish jarayonining harakatchanligini, o'zgaruvchanligini ta'minlaydi, chunki yangi tasmolning paydo bo'lishi tergov qilishda yuritilayotgan rejaga tegishli tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Biroq hamisha esda tutish kerakki, tasmol – bu taxmin, u dalil emas, u nima bo'lgani haqida emas, balki nima bo'lishi ehtimolligi haqida darak beradi. Tasmol ehtimol tutilgandan haqiqat sari borishda yordam beradigan tafakkur shakli.

Protsessual qonun jinoyat ishi bo'yicha qaysi holatlar isbotlanishi kerakligi xususidagi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmani o'z ichiga oladi.

Rejani ishlab chiqish chog'ida JPK 82-moddasida ko'rsatilgan lozim bo'lgan holatlarni isbotlash uchun amalga oshirilishi mo'ljallangan harakatlar aks ettiriladi. Bunda ularning ro'yxati tugal emasligini, ular tergov qilinayotgan ishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab kengayishi mumkinligi nazarda tutiladi.

E'tibor qarating! JPK 82-moddasiga muvofiq ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar isbotlangan bo'lishi kerak:

- jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;
- sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;
- jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;
- ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.

Tergovchi o'z xatti-harakatlarini iloji boricha aniq tashkillashtirishi, har bir tergov harakatini batafsil ishlab chiqib, o'z ishining istiqbollarni ko'ra bilishi zarur. Bu narsa tergov faoliyatini to'g'ri rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. Reja tergov faoliyatining shakli va mazmunini aks ettirgan holda tergovchiga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Esda tuting! Tergov qilishni rejalashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) mazkur hol uchun ehtimol tutilgan barcha tasmollarni tuzib chiqishni;
- 2) ularni tekshirishning asosiy yo'llari va usullarini belgilab olishni;
- 3) dalillarni o'z ichiga olgan manbalarni va dalillarni to'plashda yordam berishi mumkin bo'lgan vositalarni aniqlashni;
- 4) mo'ljallanayotgan tergov harakatlari va boshqa harakatlarni, ularni o'tkazish muddatlari, ketma-ketligi va taktik usullarini.

Aytish joizki, ishlarning aksariyati yolg'iz bir shaxs tomonidan tergov qilinadi. Guruhda tergov qilish usuli ayblanuvchilar ko'p sonli, murakkab, ko'p epizodli (ko'p voqeali) va ko'p mehnat talab qiladigan ishlarda qo'llaniladi. Mazkur usul har xil tergov harakatlarini (tintuvlarni, guvohlarni so'roq qilish va boshqa shu kabilarni) bir vaqtda o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

E'tibor qarating! Tergovni rejalashtirish jarayonida tergovchining harakatlari: jinoyatga doir axborotni to'plash, tahlil qilish va baholash; ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlash; ish yuzasidan tasmollarni ilgari surish; tergov tasmollarini tekshirish tartibini aniqlash.

Tashkiliy ishlar doirasida tergov jarayoniga ekspertlar va mutaxassislarni jalb etish masalasi hal etiladi. Ayrim jinoyat tarkiblari bo'yicha JPK 173-moddasida ko'zda tutilgan asoslar bo'lganda, ekspertlarni jalb etish majburiy hisoblangan, qolgan hollarda ularning ishtirok etishi to'g'risidagi masala ixtiyoriy ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala tergovchi yoki sud tomonidan hal qilinadi.

Tashkiliy-texnik masalalar jumlasiga tergovchining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish: xizmat xonalarini jihozlash, aloqa va transport vositalari bilan ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish, ilmiy asoslangan ish tartibotini (rejimini) qo'llash, hisobga olish va hisobot berishni to'g'ri tashkil etish, shuningdek zaruriy kriminalistika texnikasi, yozuv va idora ashyolari hamda boshqa yordamchi materiallar bilan ta'minlash kiradi.

Tergovni rejalashtirish vaqtida boshlang'ich axborotni tahlil qilish, tergov tasmollarini tuzish, tergov vazifalarini, ularni yechish yo'llari va usullarini belgilash, rejaning optimal shaklini tanlash, belgilangan harakatlar va tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish, olinayotgan axborotni tahlil qilish, rejaga tuzatish kiritayotganda uni hisobga olish amalga oshiriladi.

E'tibor qarating! Ish bo'yicha tergov rejasi yozma yoki grafik shaklga ega bo'lishi lozim. Rejada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir: 1) jinoyat ishining nomi; 2) u qo'zg'atilgan sana; 3) tergovni yakunlash muddati; 4) qamoqda saqlanayotgan shaxs (shaxslar) va u (ular) qaysi vaqtdan beri qamoqda saqlanayotgani; 5) ayblov e'lon qilingan sana.

So'ng tergov tasmollari, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar va holatlar, buning uchun zarur tergov harakatlari va boshqa tadbirlar, ularni bajarish muddatlari va navbati, ijrochilar ko'rsatilishi lozim.

Keyin shuning o'zi, shu jumladan bajarish to'g'risida belgi va natija (nima aniqlangani) bandlari har bir tasmol bo'yicha rejalashtirilishi lozim.

Har bir tergovchining ish yurituvida bir vaqtning o'zida bir nechta jinoyat ishlari bo'lishi tufayli ularning har biri bo'yicha ish rejaları asosida tergovchi uchun eng maqbul davr (o'n kunlik, oy)ga birlashtirilgan ish rejasi tuzilishi lozim. Rejaga sxemalar, grafiklar, jamg'arma qaydnomalar va ayblanuvchilarning jinoiy aloqalar va munosabatlari, muayyan jinoyat

voqeasida ulardan har birining aybdorligi va hokazolarni aks ettiruvchi boshqa yordamchi vositalar ilova qilinishi mumkin.

Tergov rejasini bajarish jarayonida ayrim (ayniqsa, og'ir va murakkab) tergov harakatlarini ham rejalashtirish talab etiladi. Ushbu jarayon quyidagilarni nazarda tutadi: a) boshlang'ich axborotni tahlil qilish; b) hal qilinishi lozim bo'lgan vazifani tavsiflash; d) uni samarali hal qilishni ta'minlovchi taktik usullarni tanlash; e) zaruriy texnik-kriminalistik vositalarni tanlash; f) tezkor vositalardan va nooshkora yo'l bilan qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini belgilash; g) tergov harakati ishtirokchilari doirasini va ularning funksiyalarini belgilash; h) belgilangan harakatni o'tkazish vaqti va joyiga aniqlik kiritish.

Tabiiyki, tergov harakatini o'tkazish jarayonida olingan, protsessual vositalar bilan tekshirishni talab etadigan yangi axborot bilan bog'liq tuzatishlar kiritilishi mumkin va lozim. Bu hal etilishi lozim bo'lgan yana bir yoki bir nechta vazifalar, qo'shimcha taktik usullarni qo'llash, mazkur tergov harakati yakunlangani zahoti darhol uning natijalaridan kelib chiqadigan boshqa tergov harakatini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish zarurati paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Rejalashtirish prinsiplari va turlari

Tergov qilishni rejalashtirish amaliyoti uning quyidagi tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi:

1. Individuallik prinsipi. Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha o'z ishini rejalashtirayotganda tergov qilinayotgan jinoyat turining ham umumiy, ham alohida xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishi zarur. Biron-bir jinoyat u bilan ayni bir turga mansub bo'lgan boshqa jinoyatni to'liq takrorlamaydi. Qilmishning obyekt, obyektiv tomoni, subyekt yoki subyektiv tomonida alohida xususiyatlar hamisha mavjud bo'ladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga oluvchi tergov rejasi yuzaki emas, balki individual bo'ladi. Muayyan turdagi jinoyatlarni tergov qilish namunaviy yo'nalishlari, usullari va vositalari to'g'risidagi kriminalistik tavsiyalar faqat ular yuzaga kelgan tergov vaziyati, muayyan huquqbuzarlik xususiyatini hisobga olgan holda qo'llanilgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

2. Harakatchanlik (o'zgaruvchanlik) prinsipi. Tergovchining ish vositasi hisoblanadigan tergov rejasi jinoyat ishi bo'yicha tergov vaziyatidagi o'zgarishlarni hisobga olishi lozim. Shu sababli tergov rejasi harakatchan bo'lishi lozim. Tergov jarayonining boshida bitta rejani tuzib,

undan oxirigacha foydalanish mumkin emas. Bunday reja yuzaki bo'ladi hamda yangi to'plangan daliliy axborotni hisobga olmaydi. Tergov rejasi jinoyat ishi bo'yicha ish bosqichiga ham bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, tergovning dastlabki bosqichi rejasi keyingi bosqichlar rejasidan farq qiladi. Ushbu bosqichlarda tergovchi har xil vazifalarni hal qiladi, zero daliliy axborot manbalari o'zgaradi, tergov vaziyati, odatda, nisbatan aniq va muayyan tus oladi.

3. Reallik prinsipi. Rejada belgilangan barcha harakatlar va tadbirlar tergov uchun ajratilgan muddatlarda, mavjud kuchlar va vositalar bilan bajariladigan bo'lishi lozimligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda, tergov rejasi ish bo'yicha ilgari surilgan barcha tasmollarni tekshirish, yuzaga kelayotgan vazifalarni mavjud barcha kriminalistik resurslar yordamida hal qilish imkonini berishi lozim.

4. Aniqlik prinsipi. Tergovchi oldida turgan va turishi mumkin bo'lgan, tergov, tergov harakati yoki kriminalistik operatsiyani o'tkazish jarayonida hal qilish talab etiladigan vazifalarni aniq ta'riflash, belgilanayotgan tadbirlarni bajarish muddatlarini, ularning ijrochilarini, foydalaniladigan texnik-kriminalistik vositalar va usullarni, tezkor xodimlar, ekspert-kriminalistlar va jamoatchilik bilan o'zaro aloqa qilish shakllarini aniq belgilash zarurligini nazarda tutadi.

5. Maqbullik prinsipi. Mazkur tamoyil rejaning maqbul tarzidagi barqarorlik sharti bo'lib xizmat qiladi. Bunga agar rejada barcha faktik ma'lumotlar hisobga olinsa, ishni xatosiz tergov qilish uchun zarur bo'lgan masalalar unga kiritilsa, ularni hal etishga yordam berishi mo'ljallangan harakatlar esa haqiqatda amalga oshirish imkoniyati bo'lsagina erishiladi.

6. Muayyanlik prinsipi. Bu tamoyil bilan rejaning tergovchi qo'lidagi qo'llanma vositasi sifatida tutgan o'rni ta'minlanadi. Tergovchi rejani tuzar ekan, jinoyatni ochish bo'yicha o'z faoliyati dasturini belgilab oladi, mo'ljallanayotgan harakatlarning muddatlarini belgilab qo'yadi va h.k. Agar dastur va uni amalga oshirish muddatlari tayin bo'lmasa, reja o'zining tashkil etuvchilik ahamiyatini yo'qotadi.

Rejalashtirishning ko'rsatib o'tilgan barcha tamoyillari o'zaro bog'liq va aloqadordir. Ulardan bittasining buzilishi muqarrar ravishda boshqa tamoyillarni ham buzilishiga olib keladi.

E'tibor qiling! Tergov qilish rejasini tuzishda ikki asosiy element mavjud:

a) daliliy ma'lumotlarni o'rganib chiqish va bu tergovning ishchi dasturini tuzish;

b) daliliy ma'lumotlarni o'rganish tusmolni tuzishdagina asos bo'lib qolmay, balki tergov qilishni rejalashtirishning ham asosi bo'lib xizmat qilishi.


Tergovchi jinoyat ishini, to'plangan ma'lumotlarni, shu jumladan ashyoviy dalillarni jinoyatni ochish istiqboli jihatidan o'rganishda quyidagilarga ahamiyat berishi zarur:

– mavjud daliliy ma'lumotlarning qaysi biri aniq va tekshiruvga muhtoj emas va qaysilari tekshirilishi hamda tuzilgan tusmolga binoan aniqlanishi kerak;

– aniq va ravshan bo'lgan holatlarni hamda mavhum, shubhali holatlarni aniqlash;

– tergov vazifalari va ularni yechish usullarini aniqlash;

– tusmollarni tekshirish yo'llari va isbotlashning chegaralarini aniqlash.



Tergov qilishning ishchi dasturi jinoyat xususiyatlari va tergov bosqichlariga qarab hajm va mazmun jihatidan turli xil bo'ladi. Masalan, boshlang'ich tergov bosqichida u umumiy yoki taxminiy qidiruv usuli bo'yicha dalillarni qidirishga qaratilgan. Keyingi bosqichlarda esa u ko'pincha daliliy ma'lumotlarni baholashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ishchi dasturda tergov harakatlarining tarkibi va mazmuni yetakchi o'rin egallaydi. Tergovning o'ziga xos jihatlarini inobatga olib, qaysi tergov harakatlarini birinchi navbatda va qanday muddatlarda bajarilishi, qanday harakatlarni keyinga qoldirish mumkinligi, qanday harakatlar jamoatchilik yordamiga muhtojligi hamda tergov-tezkor tadbirlar va tergov harakatlari uyg'unligida oydinlashtirish kerak bo'lgan masalalarni aniqlash zarur.

Rejalashtirish hujjatlari

Har bir ish bo'yicha tergov qilishning yagona rejasini va ayrim tergov harakatlarini o'tkazish rejalarini tuzish odat tusini olgan. Ishlar guruhi bo'yicha esa, kalendar rejalar tuziladi.

Rejalar fikriy yoki yozma bo'lishi mumkin. Lekin rejaning yozma shakli shak-shubhasiz afzalliklarga ega. Chunki hatto yaxshi o'ylangan fikriy rejani tuzish qobiliyatiga ega bo'lgan tajribali tergovchi ham

aksariyat hollarda uning barcha tafsilotlarini esda saqlab qololmaydi. Albatta yozma rejani tuzib chiqish uchun qo'shimcha vaqt sarflashni talab qiladi, lekin ular rejalashtirishning ana shu shaklida tergov qilishda erishiladigan tartibli va bir maromdaliq tufayli hamisha o'zini oqlaydi.

Ish bo'yicha tergov qilish rejasi dastlabki tergov harakatlari o'tkazilgandan keyin tuziladi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning o'ziyoq, qoida tariqasida, tasmollar qilish va reja tuzish uchun zarur axborotlarni beradi. Odatda ishlarni, aytaylik, mansabdorlik jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni tergov qilishda rejani jinoyat ishini qo'zg'atishga asos bo'lgan hujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosidayoq tuzish mumkin. Biroq dastlabki reja, yuqorida qayd etib o'tilganidek qat'iy emas. Tergov qilish jarayonida uning doirasi kengayib boradi.

Yozma rejaning mazmuni tergov qilinayotgan ishning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bir xil hollarda, keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oluvchi reja ishlab chiqish shart, boshqa hollarda amalga oshiriladigan muddatlari ko'rsatilib, mo'ljallangan harakatlar ro'yxatini belgilab olish bilan cheklaniladi.

E'tibor qarating! Amaliyotda reja, odatda, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: 1) tekshirilishi lozim bo'lgan tasmol; 2) isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar; 3) tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari; 4) ijro muddati; 5) ijrochi; 6) izohlar.

Oydinlashtirilishi lozim bo'lgan masalalar (holatlar) doirasi havoyi belgilanmaydi, balki u tasmollarga va rejani tuzish yoki unga o'zgartishlar kiritish paytida tergovchi ega bo'lgan tayin axborotga bog'liq bo'ladi. Unga ortiqcha hech narsani qo'shmaslik kerak, lekin zarurini esa e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Tergov va tezkor-qidiruv harakatlari oydinlashtirilishi lozim bo'lgan masalalar asosida rejalashtirilayotgan harakat berishi mumkin bo'lgan, eng ehtimol tutilgan maqbul natijani hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

E'tibor qarating! Tergovni rejalashtirishda quyidagi elementlarni nazarda tutish kerak: 1) rejalashtirilayotgan tergov harakati orqali hal etiladigan vazifa; 2) uni amalga oshirish vaqti, joyi va ishtirokchilari; 3) ishtirokchilar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi; 4) tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish chog'ida o'tkazilishi zarur bo'lgan tadbirlar; 5) ayrim tergov harakatlarini bajarish ketma-ketligi, bunda qo'llanilishi mo'ljallanayotgan taktik usullar va texnik vositalar; 6) tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida tashkil etiladigan tezkor-qidiruv tadbirlari; 7) olingan natijalarni qayd etish usullari.

Murakkab, guruhli va ko'p epizodli ishlarda yordamchi yozma hujjatlardan samarali foydalanish mumkin bo'lib, ularda rejaning ayrim masalalari batafsil ko'rsatiladi. Bunday hujjatlar jumlasiga "shaxsiy hisob-varaqlar", ayblanuvchilarning jinoiy aloqalari, korxonalar tarkibiy tuzilishini, hujjatlar aylanishini ko'rsatuvchi sxemalar va boshqa shu singarilar kiradi. Masalan, har bir ayblanuvchiga tuziladigan "shaxsiy hisob-varaqlarda" zaruriy boshlang'ich axborot, ayblov mazmuni, ko'rsatuvlar mohiyati, noaniq masalalar, ularni aniqlash usullari va hokazo aks ettiriladi. Ko'p epizodli ishlarda alohida epizodlar bo'yicha rejalar tuzish zarur bo'lib qolishi mumkin, ularda har bir alohida epizodga taalluqli harakatlar va masalalar aks ettiriladi.

Tergov amaliyotida, shuningdek rejalashtirishning turli uslubi qo'llanilib, u bajariladigan ishlar ro'yxatini, ishning tartib raqami, nomi, davom etish muddati va bevosita undan keyingi ishlarning tartib raqamlari ko'rsatiladi. Tergovchining bir turdagi harakatlari guruhlariga birlashtirilishi mumkin. Turli jadvaldan foydalanish tergovchining bir maromda ishlashiga hamda ishning muddatlarini qisqartirishga ko'maklashadi, biroq uni tuzib chiqish alohida tayyorgarlikni, bir qancha hollarda, mutaxassislar ishtirokini taqozo etadi.

Tergov harakatlari rejasi, odatda, ko'rsatib o'tilgan elementlarni aks ettiruvchi ro'yxat shaklida tuziladi. Murakkab, ko'p epizodli ishlar bo'yicha tergov harakatlarining rejalari jadvallar shaklida ishlab chiqilishi mumkin. Ko'pincha bunday reja-jadvallar so'roqlarni o'tkazishda qo'llaniladi. Rejaning shakli to'g'risidagi masalani rejalashtirilayotgan harakatni o'tkazadigan tergovchi hal qiladi.

Tergovchining ish yuritishida har doim bir nechta ish bor bo'lishi sababli kalendar rejalashtirish zarur bo'ladi. Kalendar reja ana shu jinoyat ishlari bo'yicha vazifalarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Unda mazkur ishlar yuzasidan kunlar bo'yicha taqsimlangan tergov harakatlari aks ettiriladi. Ko'pincha bunday reja bir hafta uchun tuziladi. Hafta ichidagi u yoki bu voqealar bilan bog'liq holatlarga qarab kalendar rejaga tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

Nazorat savollari:

1. Kriminalistikada tergovni rejalashtirish hamda tashkil etishning ahamiyati, tushunchasi va vazifalari haqida fikr yuriting. Ularning umumiy va xususiy jihatlarini yoritib bering.

2. Rejalashtirishning turlari haqida soʻzlab bering. Rejalashtirishning turlari rejalashtirish hujjatlariga taʼsir koʻrsatishini asoslab bering.

Kazuslar:

1-kazus

Chilonzor tumani Farhod bozori chorrahasida oq rang “Nexia” rusumli avtoullov fuqaro I.ni urib ketadi. Natijada, fuqaro I. yengil tan jarohati olib, shifoxonaga yotqiziladi. Tergov jarayonida jabrlanuvchi ayblanuvchi P.ni taniydi, biroq uning mashinasi koʻzdan kechirilganda avto ulovni hech qayeri shikast yetmagani aniqlandi. Ayblanuvchi bu jinoyatni sodir etganini tan olmaydi. Biroq tergovchi jinoyatni aynan jabrlanuvchi sodir etganligini biladi.

Mazkur holat boʻyicha tergovni rejalashtiring va tergov versiyalarini tuzing. Holat yuzasidan qanday turdagi ekspertizalar tayinlanadi?

Holat yuzasidan aniqlanishi va isbotlanishi lozim boʻlgan holatlarni tavsiflang.

Jinoyat ishi yuzasidan qanday dastlabki va keyingi tergov harakatlari oʻtkaziladi? Tergovchi ularni oʻtkazishda qanday taktik qoidalarga eʼtibor qaratishi lozim?

2-kazus

2014-yil 26-avgust kuni Jizzax shahrida istiqomat qiluvchi rus millatiga mansub fuqaro I. loʻli millatiga mansub J.ni qasddan oʻldiradi. Ayblanuvchi I.ning aytishicha jabrlanuvchi fuqaro J. uning boʻlgʻusi turmush oʻrtogʻi M.ni bir necha marotaba ortidan kelib, uni yaxshi koʻrib qolganini aytgan. Fuqaro M. unga rad javobini bergach jabrlanuvchi M.ning nomusiga tegishga harakat qilgan. Vaziyatdan xabar topgan fuqaro I. jabrlanuvchi M.ni qoʻrqitib qoʻyish maqsadida uning doʻsti fuqaro F. bilan 2014-yil 26-avgust kuni kech soat 20:20 larda Jizzax shahar 1-mavze “Katta ariq” mahallasi chorrahasida ushlaydi. Uni zoʻrlik bilan oq rangdagi “Nexia” rusumli, davlat raqami 10 P 182 DH avtoullovga chiqarib, shahar chetiga olib chiqib ketadi. Hodisa joyi sifatida Jizzax tumani 3-tor koʻchani oʻng tarafida joylashgan terakzor tanlanib, jabrlanuvchi ayblanuvchi fuqaro I. bilan oʻzaro urushib ketadi. Natijada fuqaro I. jabrlanuvchi M.ni toʻmtoq jism bilan urib oʻldiradi.

Jabrlanuvchining tanasi ko'zdan kechirilganda uning o'ng oyog'i son qismida 20x12 sm, qorin qismining yuqori o'ng tomonida 18 sm kattaligida ochiq tan jarohatlari mavjudligi aniqlangan. Sud tibbiyot ekspertizasi bergan xulosaga ko'ra jabrlanuvchining tanasidan topilgan tan jarohatlari u o'ldirilganidan so'ng sodir etilgan. Jabrlanuvchining tanasiga yetkazilgan jarohatlar sanchilib-kesuvchi jism bilan yetkazilgan. Shuningdek, jabrlanuvchining tanasida jigar tana a'zosi kesib olinganligi ham ekspertiza jarayonida aniqlangan. Ayblanuvchilar so'roq qilinganda ular jabrlanuvchi J.ni o'ldirib, tashlab ketganini, keyin nima bo'lganini bilmasligini aytishgan.

Yuqoridagi holatga kriminalistik jihatdan baho bering, bunda tergovchi qanday tergov harakatlarini amalga oshirishi kerak?

Holat yuzasidan qanday tergov versiyalari tuziladi?

Tergovchi tergovni rejalashtirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

Jinoyat ishi yuzasidan qanday dastlabki va keyingi tergov harakatlari o'tkaziladi?

Mazkur holat yuzasidan qanday ekspertiza turlari tayinlanishi shart?

14-MAVZU. HODISA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISH TAKTIKASI

Hodisa joyini ko'zdan kechirishning umumiy qoidalari. Hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish taktikasi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish natijasini qayd etish.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishning umumiy qoidalari

Esda tuting! Ko'zdan kechirish – jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni topish, tekshirilayotgan hodisa sharoitlarini va yuz bergan voqeaning boshqa holatlarini aniqlash maqsadida moddiy sharoit obyektlarini tergovchi tomonidan bevosita kuzatish va tahlil qilishdan iborat bo'lgan protsessual harakat.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning **umumiy vazifasi** yuz bergan jinoyat voqeasi holatlari, unga daxldor shaxslar va obyektlar, ularning o'zaro aloqalari va harakatlari to'g'risida faktik ma'lumotlarni protsessual yo'l bilan olishdan iborat.

Ushbu vazifani samarali hal qilish uchun tergovchi:

1) tekshirilayotgan voqea qanday sharoitlarda yuz berganini aniqlashi, ularni bayonnomada va texnik-kriminalistik vositalar yordamida qayd etishi;

2) jinoyatning moddiy izlarini aniqlashi, qayd etishi va olib qo'yishi;

3) izlar va narsalarning jinoyatchi, jabrlanuvchi va boshqa subyektlar va obyektlar bilan aloqasini aniqlashi;

4) aybdor shaxsni aniqlash, qidirish va fosh etish, boshqa tergov harakatlarini o'tkazish, sud ekspertizalarini tayinlash uchun boshlang'ich axborotni to'plashi lozim.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida hal etiladigan **maxsus vazifalar**:

a) voqea guvohlari va shohidlarini aniqlash;

b) jinoyatchida u foydalangan qurol va transport vositalarida qolishi mumkin bo'lgan izlarni aniqlash;

d) ushbu joy obyektlari va jinoyat sodir etilgan paytda shu yerda bo'lgan shaxslarning aloqasini aniqlash uchun hodisa sodir bo'lgan joydan olinishi lozim bo'lgan tuproq, o'simlik, suv va hokazolarning namunalari belgilash.

Ko'zdan kechirishning umumiy va maxsus vazifalarini hal qilish O'zR JPKning 81,82-moddalariga muvofiq isbotlanishi lozim bo'lgan

holatlar: tajovuz vaqti, joyi, usuli, uni sodir etgan shaxsning aybdorligi, yetkazilgan zarar miqdori va hokazolarni aniqlashga ko‘maklashishi zarur.

Ob'ektiga ko'ra ko'zdan kechirish turlari (JPK 16-bob)

hodisa sodir etilgan joyini ko'zdan kechirish	murdani ko'zdan kechirish
tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish	narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish
tirik shaxslarni guvoblantirish	hayvonlar va ularning murdalarini ko'zdan kechirish
xatlangan pochta-telegraf xabarlarini ko'zdan kechirish	so'zlashuvlarni nazorat qilish va yozib olish jarayonida o'tkaziladigan audioyozuv kassetalarini ko'zdan kechirish

Ko'zdan kechirish turini

Dastlabki	Takroriy	Qo'shimcha
Dastlabki ko'zdan kechirish hodisa joyini vakolatli shaxslar tomonidan JPK qoidalariga rioya qilgan ko'zdan kechirilishi.	Dastlabki ko'zdan kechirish malakali o'tkazilmagan va kerakli natijani bermagan holda o'tkaziladi. Takroriy ko'zdan kechirish paytida barcha ob'ektlar va hodisa sharoitlari qaytadan va yanada sinchkovlik bilan o'rganiladi.	Ilgari umuman ko'zdan yoki lozim darajada to'liq ko'zdan kechirilmagan (tegishli turdagi maxsus texnik-kriminalistik usul va vositalarni qo'llamasdan ko'zdan kechirilgan) ayrim ob'ektlar yoki sharoit elementlari tekshiriladi

O'zR JPKning 137-moddasiga muvofiq, hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Esda tuting! Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish – mazkur joy sharoitlarini, unga taalluqli bo'lgan izlar va narsalarni, ularning o'zaro aloqalari va o'ziga xos xususiyatlarini yuz bergan voqeaning mohiyatini, jinoyatni sodir etish mexanizmini va jinoyat ishini to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa holatlarni tergovchi tomonidan bevosita kuzatish, tekshirish va qayd etishdan iborat bo'lgan shoshilinch tergov harakati.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati sifatidagi ko'zdan kechirishning eng og'ir va sermehnat, ayniqsa, natijador va seraxborot turi hisoblanadi. Ko'pincha tergov hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari qatoriga kiradi. Uni o'tkazish jarayonida tergovchi hodisa sharoitlarini tekshiradi, keyinchalik ashyoviy dalillar maqomi olishi mumkin bo'lgan izlar va narsalarni topadi va dastlabki tarzda tahlil qiladi. Bu unga yuz bergan hodisa haqida tasavvur hosil qilish, aybdor shaxsni tezroq aniqlash, uni fosh qiluvchi dalillarni to'plashga yordam beradi. Ayni vaqtda tergovchi topilgan narsalarning barchasini shunday qayd etishi lozimki, keyinchalik jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari va sud hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida olingan faktik ma'lumotlarning to'liqligi va xolisligiga ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Tekshirilayotgan jinoyat voqeasiga tegishli izlar va narsalar topilgan bino yoki hudud hodisa sodir bo'lgan joy hisoblanadi. Jinoiy qilmish oqibatlari jinoyat sodir etilgan joydagina emas, balki boshqa joylarda, masalan, jinoiy tajovuzga tayyorgarlik ko'rish uchun amalga oshirilgan joyda ham topilishi mumkin. Hodisa sodir bo'lgan joy va jinoyat sodir etilgan joy mos kelmasligi ham mumkin. Hodisa sodir bo'lgan joy bir nechta bo'lishi mumkin: odam o'ldirish sodir etilgan garaj, qotil boltani tashlab yuborgan o'ra, u jabrlanuvchining murdasini ko'mib qo'ygan daraxtzor va h.k.

Quyidagilar hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni o'tkazishning kriminalistik prinsiplari hisoblanadi.

O'z vaqtidalik prinsipi tergovchi va hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning boshqa ishtirokchilari tegishli xabarni olgandan keyin darhol hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishlari va uni ko'zdan kechirishlari lozimligini nazarda tutadi. Har qanday sustkashlik salbiy oqibatlarga olib ketishi muhim izlar va ashyoviy dalillar tasodifan yoki ataylab yo'q qilib yuborilishi mumkin.

To'liqlik prinsipi hodisa sodir bo'lgan joyni sinchiklab tekshirish, jinoyat voqeasiga daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan barcha izlar va

obyektlarni aniqlashni nazarda tutadi. Buning uchun jinoyatchi o'zini xayolan jinoyatchi o'rniga qo'yishi, jinoiy natijaga erishish uchun u qanday harakatlarni qay tarzda bajarishi lozimligini tasavvur qilishi kerak. Aks holda tergovchi hodisa sodir bo'lgan joydagi hamma narsani tavsiflashi kerak bo'ladi va bu bayonnoma keraksiz ma'lumotlar bilan to'ldirilishiga olib keladi.

Rejalilik hodisa sodir bo'lgan joyni oldindan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq izchil va faol tekshirish lozimligini anglatadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning **xolisonaligi** ushbu joyda topilgan izlar va obyektlarni, ular tergovchi ilgari surgan tasmollarni tasdiqlashi yoki shubha ostida qoldirishidan qat'i nazar, tekshirish va qayd etishning bir yoqlama emasligi va beg'arazligini nazarda tutadi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish taktikasi

Hodisa joyini ko'zdan kechirish harakatining natijali bo'lishi uchun tergovchi puxta tayyorgarlik ko'rishini lozim, bunday tayyorgarlik keyinchalik ishini muvofaqiyatli yakunlash imkoniyatini beradi.

Esa tuting! Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish **ikki bosqichga** bo'linadi. **Birinchi bosqich** tergovchining hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishdan oldingi harakatlarini, **ikkinchi bosqich** – hodisa sodir bo'lgan joyga yetib borgandan keyingi tayyorgarlik harakatlarini o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyda ishlashni axborot-taktik va moddiy-texnik ta'minlash choralarini ko'radi. U qayerda va nima sodir bo'lgani, ko'zdan kechirish sharoitlari haqida mumkin qadar to'liq axborot olishga harakat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u voqeaning zararli oqibatlarini bartaraf etish, jabrlanuvchiga tibbiy yordam ko'rsatish, jinoyatchi izlarining saqlanishini kafolatlovchi hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash choralarini ko'rilishini nazorat qiladi.

So'ng tergovchi ko'zdan kechirish paytida qanday mutaxassislar kerakligini, xizmat-qidiruv itini bilan kinolog, boshqa tezkor xodimlar kerak yoki kerak emasligini aniqlaydi. Dastlabki axborotni tahlil qilish orqali u bo'lg'usi ko'zdan kechirish rejasini ishlab chiqadi, nimaga alohida e'tibor berish zarurligini, qaysi vazifalarni qanday kuchlar bilan, qaysi texnika vositalari va usullar yordamida hal qilishga to'g'ri kelishini belgilaydi.

Hodisa ro'y bergan joyni ko'zdan kechirish bosqichlari

TAYYORGARLIK	AMALIY (TADQIQIY)	YAKUNIY
Hodisa sodir bo'lgan joyga borishdan oldin	Umumiy (statik) ko'zdan kechirish	Bayonnomalar, sxemalar, rejalarni tuzish, izlarni, ashyoviy dalillarni olish
Hodisa sodir bo'lgan joyga kelgach	Dinamik ko'zdan kechirish	

Tayyorgarlik bosqichida tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar

Hodisa sodir bo'lgan joyga borishdan oldin	Hodisa joyiga kelganda
<p>hodisa xususiyati, ko'zdan kechirish o'tkaziladigan joydagi ahvol va sharoit to'g'risida ma'lumotlar olish;</p> <p>hodisa ro'y bergan joyni qo'riqlash choralarini ko'rish;</p> <p>ko'zdan kechirishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlash;</p> <p>texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash.</p>	<p>jabrlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish;</p> <p>jino'yatchini ushlab choralarni ko'rish;</p> <p>hodisadan birinchi bo'lib xabar topgan shaxslarni, guvohlarni va ro'y bergan voqea haqida ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni so'rab-suriishtirish;</p> <p>hodisa ro'y bergan joydan begona shaxslarni chetlashtirish;</p> <p>ishtirokchilarga yo'l-yo'riq berish va ularning vazifalarini belgilash.</p>

Birinchi bosqichda tergovchi quyidagilarni amalga oshiradi:

– hodisa joyidagi jabrlanuvchilarga yordam berish chorasini ko'rish, hodisa joyida tartib o'rnatish masalalarini hal etishi kerak;

– tergovchining hodisa sodir etilgan joyga yetib borishiga juda qisqa muddat talab etilsa, hodisa joyida ishtirok etish uchun tergovchi ichki ishlar organlariga hodisa joyiga zudlik bilan etib borish to'g'risida xabar beradi;

– tergovchining hodisa sodir bo'lgan joyga o'z vaqtida yetib kelishida masofaning uzoqligi, transport vositasi bo'lmaganligi sababli u II Oni xodimlariga tegishli ko'rsatma berishi mumkin;

– tergovchi hodisa joyini qo‘riqlash, hech kimni hodisa joyiga kiritmaslik; hodisa joyidagi ashyoviy dalillarni qo‘riqlash; hodisa joyidan topilgan izlarni qayd etishda ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlash; hodisa sodir etilgan vaqtda hozir bo‘lgan shaxslarni aniqlash va tergovchi yetib kelgunga qadar bo‘lib o‘tgan holatlarni ular orqali aniqlash; tergovchi jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida xabar olishi bilan jinoyatni sodir etgan shaxs to‘g‘risida ham ma‘lumot olsa, darhol uni qidirib topish to‘g‘risida IIO xodimlariga topshiriq beradi;

– tergov chemodanining to‘liqliligini tergov chemodanida barcha asbob-uskunalarining borligini tekshiradi. Zarur hollarda qo‘shimcha qidiruv-texnikaviy vositalarni, masalan, metallardan yasalgan predmetlarni qidirib topish uchun mo‘ljallangan texnika vositalarini hozirlashi mumkin;

– hodisa joyiga chiqqunga qadar tergovchi murdani o‘likxonaga olib borish, shuningdek turli buyumlar, ashyoviy dalillarni olib ketish uchun zarur bo‘lgan transport vositasini hozirlash chorasini ko‘rishi, prokuratura, ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilishi zarur;

– tergovchi hodisa joyiga chiqqunga qadar boshqa tayyorgarlik ishlarini ham amalga oshirishi lozim. Hodisa joyiga borgandan keyin tergovchiga hodisa joyini ko‘zdan kechirishga kirishishdan oldin ba‘zi tayyorgarlik ishlarini o‘tkazishga to‘g‘ri keladi;

– hodisa joyida to‘satdan ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining paydo bo‘lib qolishi va ularga hujum qilib qolish xavfining ham oldini olish chorasini ko‘rib qo‘yishi lozim.

Ma‘lumot uchun! Tergov chemodani quyidagi bo‘limlardan iborat:

Birinchi bo‘lim izlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, barmoq izlari, oyoq izlari, transport va buzish quollaridan qoladigan izlarni qidirib topishda, qayd etish va olishda foydalaniladigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Unda turli poroshoklar, selikon pastasi, K-18, daktiloplyonkalar, gips, daktiloskopik chyotka kabi texnika vositalari bo‘ladi.

Ikkinchi bo‘limda bayonnoma, turli sxemalar, hodisa joyining rejasini tuzish uchun zarur predmetlar bo‘ladi.

Uchinchi bo‘lim hodisa joyidan topilgan ashyoviy dalillarni suratga olish, o‘lchash uchun mo‘ljallangan vositalardan iborat.

To‘rtinchi bo‘lim ashyoviy dalillarni qidirib topish uchun foydalanadigan asbob-uskunalar bo‘limi bo‘lib, unda metall predmetlarni qidirish, ko‘milgan murdalarni topish uchun mo‘ljallangan, tokni o‘lchash indikator va shu kabi vositalar bo‘ladi. Tergov chemodanida mavjud bo‘lgan bu texnika vositalari hodisa joyini ko‘zdan kechirishda ashyoviy dalillarni qidirib topish va olishda keng ko‘lamda foydalaniladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga kelgach, tergovchi voqeaning zararli oqibatlarini bartaraf etish uchun barcha choralar ko'rilgani, jabrlanuvchiga tibbiy yordam ko'rsatilganiga ishonch hosil qilishi lozim. Zarur holda u hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash, izlarni saqlab qo'yish, shubhali fuqarolarni aniqlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'radi.

Ko'zdan kechirishni boshlashdan oldin tergovchi ichki ishlar organi xodimlari, guvoh-shohidlar va hodisani birinchi bo'lib aniqlagan shaxslardan nima sodir bo'lgani, bunga kim daxldor bo'lishi mumkinligi, aybdorni aniqlash, qidirish va ushlab uchun qanday choralar ko'rilgani to'g'risida axborot oladi. Shuningdek, u jabrlanuvchiga yordam ko'rsatish, hodisa oqibatlarini bartaraf etish vaqtida hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlarida qanday o'zgarishlar yuz berganini ko'zdan kechirish jarayonida buni hisobga olish uchun aniqlaydi. Guvoh-shohidlar va boshqa shaxslar bilan so'rov alohida-alohida o'tkaziladi, ular bergan ma'lumotlar diktofon yordamida yozib olinadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ishtirokchilari ko'p sonli bo'lishi mumkin, biroq uni o'tkazish uchun mas'uliyat to'liq tergovchining bo'ynida bo'ladi. Uning ruxsatisiz bu yerda hech kim biron-bir harakatni bajarishi va hatto harakatlanishi ham mumkin emas.

Xolislar sifatida hodisaning va tergovchining hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlarini ko'zdan kechirish va qayd etish borasidagi harakatlarining mohiyatini tushunishga qodir bo'lgan shaxslar tanlanishi lozim. Maxsus bilimlar yoki murakkab texnika vositalarini qo'llash talab etilgan holda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda ishtirok etish uchun mutaxassis taklif qilinadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi ko'zdan kechirish jarayonida yoki u yakunlangandan so'ng dastlabki yozuvlar (fonogramma) va amalga oshirilgan o'lchashlar asosida tuziladi. Ko'zdan kechirish paytida topilgan barcha narsalar tergovchi ularni kuzatgan ko'rinishda va holatda qayd etiladi. Hodisa sodir bo'lgan joydan olinayotgan obyektlar, albatta, o'ramga joylanadi, muhrlanadi, tegishli yozuvlar va imzolar bilan mustahkamlanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish quyidagi **bosqichlarni** o'z ichiga oladi: umumiy ko'zdan kechirish, mufassal tekshirish va natijalarni qayd etish.

Umumiy ko'zdan kechirish jarayonida tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyni aynib chiqib, yuz bergan voqea haqida umumiy tasavvur hosil qiladi, ko'zdan kechirilishi lozim bo'lgan hududning optimal chegarasini belgilaydi. Ushbu hududga tergovchi yuz bergan voqea izlari

aniqlangan joy bilan birga, jinoyatchining izlari topilishi mumkin bo'lgan qo'shni hududlar va binolarni ham kiritadi. Joyda mo'ljal olib, tergovchi fotosuratga tushirish yoki videotasvirga olishni amalga oshiradi, ham sharoitni, ham bu yerdagi asosiy obyektlarning o'zaro joylashuvi va o'zaro aloqasini o'rganadi va qayd etadi.

Umumiy ko'zdan kechirish jarayonida quyidagi muhim savollarga dastlabki javoblar olinishi mumkin: hodisa sodir bo'lgan joydagi voqealar rivojini qayerdan turib kuzatish, jabrlanuvchi va jinoyatchining ovozlari nishitish mumkin bo'lgan; jinoyatchi bu yerga pinhona kelishi yoki bu yerni tark etishi mumkin bo'lganmi, hodisa sodir bo'lgan joydan tashqarida uning izlari qolgan bo'lishi mumkinmi va h.k. Ushbu bosqichda qo'shni hududlarni tekshirish, aybdorni tezkor ta'qib qilish uchun xizmat itini qo'llashning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala hal qilinishi mumkin.

Umumiy ko'zdan kechirish jarayonida yuz bergan voqeaning xususiyati to'g'risidagi tasmollar aniqlashtiriladi, tergovchi ko'zdan kechirish borasidagi o'z harakatlarining oldinma-ketinligini, hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlarini tekshirish uchun talab etiladigan usullar va texnik-kriminalistik vositalarni aniqlaydi.

E'tibor qarating! Amaliyotda hodisa sodir bo'lgan joy bo'ylab harakatlanishning uch asosiy usuli qo'llaniladi:

1) **ekssentrik** – tergovchi markazdan chetga qarab spiral bo'ylab harakatlanadi;

2) **konsentrik** – chetdan markazga qarab spiral bo'ylab harakatlanadi;

3) **frontal** – hodisa sodir bo'lgan joyni uning bir chetidan boshqa chetiga chiziq bo'ylab harakatlanish orqali tekshiriladi.

Mufassal tekshirish harakatning boshlang'ich nuqtasi va yo'nalishini tanlashdan boshlanadi. Odatda hodisa sodir bo'lgan joyni tekshirish uning markazidan boshlanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyning markazi deganda, uning eng muhim tuguni (asosiy izlar jamlangan joy) yoki obykti (murda, qulfi buzilgan seyf va sh.k.) tushuniladi. Markazni aniqlash qiyin bo'lgan yoki hodisa sodir bo'lgan joydan tashqarida topilgan izlarning shikastlanish xavfi mavjud bo'lgan holda ko'zdan kechirish hodisa sodir bo'lgan joyning chetidan boshlanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'lamlil qamrab olish usuliga qarab, ko'zdan kechirish yaxlit bo'lishi, ya'ni butun hudud tekshirilishi va hodisa sodir bo'lgan joyni tanlab tekshirish amalga oshirilishi, asosiy e'tibor uning jinoyat izlari jamlangan alohida qismlarini tekshirishga qaratilishi

mumkin. Tanlab ko'zdan kechirish odatda hodisa sodir bo'lgan joyni yaxlit ko'zdan kechirishda qo'shimcha usul sifatida qo'llaniladi.

Mufassal tekshirish jarayonida statik va dinamik bosqichlar farqlanadi. **Statik tekshirish** jarayonida hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlari ko'zdan kechirish boshlangan paytdagi ko'rinishda o'rganiladi. O'rganish vizual usulda amalga oshiriladi, obyektlar o'rnidan qo'zg'atilmaydi. **Dinamik ko'zdan kechirish** jarayonida obyektlarni barcha tomonlardan tekshirish uchun ularni bir joydan boshqa joyga ko'chirish amalga oshiriladi. Mufassal tekshirish jarayonida aniq ko'rinib turgan izlar bilan bir qatorda, ko'rinmas izlar va mikroobyektlarni kriminalistik texnika vositalari yordamida aniqlash va qayd etish zarur.

Kriminalistik ahamiyatga molik axborot manbalari – izlar va obyektlarni topish va qayd etish jarayonida tergovchi iz hosil bo'lish mexanizmini xayolan gavdalantirishi lozim. Jinoyatchining harakatlarini modellashtirish orqali u amalda mavjud bo'lmagan, biroq mavjud bo'lishi lozim bo'lgan yoxud, aksincha, mavjud bo'lishi lozim bo'lmasa-da, amalda mavjud bo'lgan faktik ma'lumotlarni aniqlashi va bayonnomada qayd etishi zarur. Masalan, eshik tagida bandi qirqilgan qulf yotibdi, lekin metallda payrahalar mavjud emas.

Ushbu holatlar tergovchi ilgari surgan tusmolga tuzatish kiritish zaruriyatidan yoki jinoyatchi tomonidan soxtalashtirish holati mavjudligidan darak beradi. Bu yerda jinoyatchi tergovni chalg'itish, uni soxta yo'lga burish, jinoyatni o'z vaqtida ochishga to'sqinlik qilish uchun hodisa sodir bo'lgan joy sharoitini sun'iy tarzda yaratgani yoki o'zgartirgani nazarda tutiladi.

E'tibor qarating! Soxtalashtirishning quyidagi turlari, ayniqsa, ko'p uchraydi:

- 1) bir jinoyatni nisbatan yengil jinoyat niqobi ostida yashirish;
- 2) sodir etilgan jinoyatga baxtsiz hodisa tusini berish;
- 3) sodir etilgan jinoyatning ayrim holatlarini uni boshqa shaxs, boshqa joyda, boshqa vaqtda va boshqa motivlarga ko'ra sodir etgandek qilib yashirish;
- 4) shaxsning axloqiy buzuvchiligi faktlarini unga qarshi sodir etilgan jinoyat niqobi ostida yashirish (masalan, pulni yo'qotish, rastrata faktlarini yashirish maqsadida unga nisbatan talonchilik jinoyatini sahnalashtirish).

Mufassal tekshirishni o'tkazish chog'ida tergovchi quyidagi savollarga javob topish imkonini beradigan ma'lumotlarni to'plashi lozim:

- 1) hodisa sodir bo'lgan joy jinoyat sodir etilgan joy hisoblanadimi;
- 2) hodisada nechta kishi ishtirok etgan, ularning harakatlari xususiyati va

motivlari qanday; 3) tekshirilayotgan voqea qachon yuz bergan, jinoyatchilar hodisa sodir bo'lgan joyda qancha vaqt bo'lishgan; 4) jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi aloqa qanday xususiyatga ega; 5) jinoyatni kim sodir etgan. Bu savollarning barchasiga izlarning kriminalistik tahlili, ularning o'rni, o'g'irlangan buyumlar hajmi va hokazolar haqidagi ma'lumotlarni o'rganish javob topish imkonini beradi.

Jinoyat protsessual qonunida izlar ashyoviy dalil sifatida keng ma'noda talqin qilinadi, hodisa joyidan topilgan har qanday iz hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy vositalar yordamida qayd etilib, jinoyatni ochishda katta yordam beradi. Ilgaridan amaliyotda ma'lum bo'lgan ayrim ashyoviy dalillarni tekshirish, jumladan, hujjatlarni kriminalistik texnika asosida ko'zga ko'rinmaydigan (infraqizil, ultrabinafsha) nurlar yordamida tekshirish katta daliliy ahamiyatga egadir.

Qon izlari, odam organizmidan chiqadigan turli moddalar, murdadagi har xil izlar jinoyat ishi bo'yicha ashyoviy dalil sifatida foydalaniladi. Hozir bunday izlar fizik, kimyoviy, biologik va texnikaviy vosita va metodlar asosida tekshirilib, qotillik jinoyatini o'z vaqtida ochishga, tanadagi jarohatlarning darajasini aniqlashga katta yordam bermoqda.

Masalan, hodisa joyidan topilgan papiros, tamaki qoldiqlaridagi so'laklarni tekshirish natijasida hodisa joyida jinoyatchilarning qancha vaqt bo'lganligi va ularning soni to'g'risida biron-bir fikr yuritilgan bo'lsa, hozir esa ushbu papiros qoldiqlarida mavjud bo'lgan so'laklarni tekshirish orqali qon guruhini va hatto odamning jinsini ham aniqlash mumkin.

Hodisa joyida qoldirilgan barmoq izlarini, ayniqsa ko'zga ko'rinmaydigan izlarni qidirib topish usullari va texnikaviy vositalar, uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Har qanday noqulay sharoitda ham bunday izlarni qidirib topish uchun zarur vositalar tergov chemodanida mavjuddir.

Shuni nazarda tutish lozimki, ko'zga ko'rinmaydigan barmoq izlarini ma'lum vaqt o'tib ketganligi sababli poroshoklar yoki yod bug'i yordamida qidirib topish ancha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bunday vaqtlarda barmoq izlarini qidirib topish va qayd etishda auditografik usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usulning mohiyati shundaki, ko'zga ko'rinmaydigan barmoq izi bor deb taxmin etilgan predmet radioaktiv suyuqlik yordamida ishlanadi. Bu suyuqlik barmoq izi bor bo'lgan joyga, iz yo'q joyga nisbatan mustahkam yopishadi, undan keyin barmoq izi yo'q bo'lgan joylardagi radioaktiv suyuqliklar olib tashlanadi va topilgan barmoq izi rentgen plyonkasiga ko'chirib olinadi. Auditografik usuldan foydalanish ayrim materiallarda qoldirilgan ko'zga

ko'rinmaydigan barmoq izlarini qidirib topish va qayd etishda sezilarli natijalarga erishish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda izlarni qidirib topish va qayd etishda har xil poroshoklar, gips, plastilin va boshqa vositalardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Lekin bu vositalar botiq izlarning mikrorelyefini o'zida yaxshi aks ettirish xususiyatiga ega emas. Bunday izlarni qayd etishda hozir "**K-18**" **selikon pastasi** keng qo'llanilmoqda. Uning yordamida har qanday noqulay sharoitda ham izdan yaxshi nusxa olsa bo'ladi.

"K-18" pastasi izga quyiladi va qotgandan keyin izdan olinadi. Agar vertikal holatda turgan (eshik, devor va h.k.) obyektlardan nusxa olish lozim bo'lib qolsa, pasta quyuproq ravishda tayyorlanishi lozim, chunki u tik turgan obyektidagi izga yopishtiriladi.

"K-18" pastasi izlarni qayd etishda qo'llaniladigan eng qulay vosita hisoblansa-da, ba'zi kamchiliklardan ham xoli emas. Uning yordamida past haroratli ob-havo sharoitida izlardan nusxa olib bo'lmaydi, chunki bunday sharoitda u tez qotmaydi. Shu sababli qorda qolgan izlardan uning yordamida nusxa olib bo'lmaydi. Kriminalistik texnikada past temperatura sharoitida ham nusxa olish uchun mo'ljallangan vosita mavjud. Bu texnikaviy maqsadlarda ishlatiladigan **selikon katalizator (SKTN)** vositasidir. SKTN ham "K-18" pastasidek katalizator bilan aralashtirilib, zarur qorishma tayyorlanadi. Agar qorda qolgan izdan nusxa olish zarur bo'lsa, quyuproq holdagi qorishma tayyorlanadi, agar qumda qolgan izdan nusxa olish zarur hisoblansa, suyuqroq qorishma tayyorlanadi va izga qo'yiladi.

Quruq sementda, unda, tuproqda qolgan izlardan nusxalar olishda biroz qiyinchilik tug'iladi. Bunday iz bo'lgan obyekt bilan birga olish qiyin, undan nusxa ham olib bo'lmaydi. Bunday sharoitlarda **perxlorvinil smolasi (yelimi)**dan foydalanish tavsiya etilgan. Perxlorvinil smolasi oq rangli poroshok bo'lib, u atsetonda suyultirilib pulvirizator yordamida izga sepiladi, u qotgandan keyin ko'chirilib olinadi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda transport vositalaridan qoladigan izlarni diqqat bilan ko'zdan kechirish lozim. Hatto juda mayda ashyoviy dalillar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Jumladan, hodisa joyidan topilgan avtomobildan tushib qolgan bir tomchi moy emisson spektral analiz usulida olib borilgan tekshiruv natijasi, ushbu moyning transport vositasining qaysi qismiga tegishli ekanligini va hatto transport vositasining shu moy bilan taxminan necha kilometr yurganligini ham aniqlashga imkon beradi.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalar shuni ko'rsatadiki, hodisa joyidan izlarni qidirib topish va olish uchun hozirgi vaqtda yetarli darajada ilmiy-texnikaviy vosita va metodlar mavjud bo'lib, ulardan samarali ravishda foydalanilmoqda. Tabiiyki, kriminalistika texnikasining tez rivojlanib borishi, kelajakda hodisa joyini ko'zdan kechirishda qo'llanilayotgan ilmiy-texnikaviy vositalardan faqat ekspertiza tekshiruvini o'tkazishda foydalaniladi. Bu texnikaviy vositalar bevosita hodisa joyida ko'zdan kechirishni o'tkazish jarayonida tezkor maqsadlarda tekshirish o'tkazish imkoniyatini bermaydi. Shu boisdan ham yangi ilmiy-texnikaviy vositalardan hodisa joyini ko'zdan kechirishni o'tkazishda foydalanishni har qanday tergovchilar tomonidan o'tkaziladigan oddiy tekshirishlar, o'lchashlar bilan birgalikda amalga oshirilishini inobatga olinishi taqozo etiladi. Izlarni qayd etishda foydalaniladigan yangi texnikaviy vositalar hodisa joyini ko'zdan kechirishda tergovchi tomonidan bajariladigan vazifalarni amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Ba'zi vaqtlarda hodisa joyini ko'zdan kechirishda qotillik jinoyatining sodir etilganligini ko'rsatuvchi belgilar, turli predmetlar topilishi mumkin (masalan, qonli bolta, qon izi bor kiyim va h.k.). Tergovchining asosiy vazifasi texnikaviy vositalar yordamida murdani qidirib topishdan iborat.

Hodisa joyidan murdaning topilishi ayrim xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarga ko'zdan kechirish obyektlarini aniqlash kiradi. Voqea joyidan murdaning topilishida ko'zdan kechirish obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: murda, uning holati va kiyimi; murdaning yotgan joyi; murda bilan bog'liq bo'lgan iz va ashyoviy dalillar; jinoyat qurollari.

Murdaning tashqi qiyofasini ko'zdan kechirish mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi. Murdani ko'zdan kechirishni kechiktirish mumkin emas, chunki murdaning o'zida ham, voqea joyida, izlarda ham o'zgarish sodir bo'lishi mumkin.

Voqea joyini qo'riqlash chorasi ko'rilishi lozim, aks holda ishdan manfaatdor bo'lgan ayrim shaxslar tergovchi voqea joyiga yetib kelgunigacha murdani boshqa joyga ko'chirishi, kiyimlarini to'g'rilab qo'yishi mumkin.

Murdani hodisa joyida ko'zdan kechirishning to'liq va har taraflama bo'lishini ta'minlash maqsadida amaliyotda ishlab chiqilgan ko'zdan kechirish bosqichlarining ketma-ketlik prinsipiga rioya etilishi kerak.

1. Ko'zdan kechirishni murdani yotgan joyini aniqlashdan boshlash lozim. Murdani yotgan joyi, uning atrofida mavjud bo'lgan predmetlarga nisbatan qayd etiladi. Ya'ni u xonada yotgan joyini devordan, deraza va

eshikdan qancha masofada ekanligini o'lchash bilan aniqlanadi va qayd etiladi. Agar murda ochiq joyda yotgan bo'lsa, uning yotgan joyi yaqinroq bo'lgan obyektlarga (ko'prik, daraxt, devor va h.k.) nisbatan o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.

2. Murdani ko'zdan kechirishning keyingi bosqichi murdani holatini o'rganish hisoblanadi. Murdani yotgan holati jinoyatni tergovda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Murdani holati deganda, uning yotganligi, osig'liq turganligi, o'tirganligi hamda ayrim qismlarining holati, ya'ni oyoq-qo'llari, kallasi va tanasining qanday holatda ekanligi tushuniladi.

3. Murdani ko'zdan kechirishda muhim bosqichlardan biri uning kiyimini ko'zdan kechirish va qayd etish hisoblanadi. Murdani ko'zdan kechirish o'tkazilgandan keyin u sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish uchun yuboriladi. Ekspertiza o'tkazilgandan keyin kiyimlar tergovchiga qaytariladi. Lekin murdani kiyimlari voqea joyining o'zidayoq batafsil ko'zdan kechiriladi. Kiyimlar ko'zdan kechirilayotganda kiyimning barcha predmetlari (tugma, cho'ntaklar va h.k.) hatto ichki kiyimlari ham diqqat bilan ko'zdan kechirilishi lozim. Kiyimlar ko'zdan kechirilayotganda jinoyatning sodir etilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha o'zgarishlari (qon, sperma izlari, turli dog'lar) bayonnomada to'liq qayd etilishi shart. Agar murdadagi kiyimning ayrim qismlari yulib olingan bo'lsa, jumladan, pidjagining bir qo'li yo'q bo'lsa, tugmalaridan ayrimlari bo'lmasa, bu holat bayonnomada qayd etilishi kerak, chunki ular keyinchalik gumon qilinuvchidan topilib qolishi ham mumkin.

4. Murdani tashqi ko'zdan kechirish, uning umumiy belgilaridan (jinsi, yoshi, bo'yi, gavda tuzilishi) tashqari jinoiy hodisa bilan bog'liq bo'lgan maxsus belgilarni (badanidagi ko'kargan, kesilgan, singan jarohat belgilari, buzishdan qolgan jarohatlari va boshqa alomatlarini) ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilganidek, murda uning holati va kiyimini ko'zdan kechirilgandan keyin murda yotgan joy ko'zdan kechiriladi. Murda yotgan joyning umumiy holati, voqea joyining to'liq tavsifi (aholi punkti, dam olish bog'ining aniq qismi, ko'lining aniq qirg'og'i va h.k.) bilan birga murda yotgan joyning to'liq tasviri (yo'lining ayrim qismi, chuqurlik joy, temiryo'lining aniq qismi va h.k.) ham bayonnomada batafsil yoritilishi lozim. Bu holatlarning aniq ifoda etilishi jinoyatni o'z vaqtida ochishga katta yordam beradi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishning umumiy masalalaridan yana biri, qanday iz va ashyoviy dalillarni jinoyatchi hodisa joyida qoldiradi va

qanday iz, predmetlar, mikrozarrachalarni o'zi bilan olib ketishi mumkin kabi masalalar jinoyatning sodir etilish xususiyatlarini hisobga olgan holda murdani ko'zdan kechirishda hal etilishi mumkin. Agar jabrlanuvchi sovuq qurol bilan yetkazilgan jarohat natijasida o'lgan bo'lsa, jinoyatchining kiyimida, poyabzalida qon izlari qolishi mumkin. Agar qotillik jinoyatini sodir etish uchun jinoyatchi devorni yoki eshik va derazani buzib kirgan bo'lsa, jinoyatchining kiyimida tuproq yoki oyna siniqlari qolishi mumkin.

Hodisa joyida bo'lishi mumkin bo'lgan ko'pchilik izlar va ashyoviy dalillarni jinoyatchining o'zida topish, aksincha, undan hodisa joyida ham iz va ashyoviy dalillar qolishi mumkin. Masalan, oyoq, qo'l izlari, jinoyatni sodir etishda foydalanilgan qurollarni, shaxsiy buyumlar (dastro'mol, papiros qoldig'i, taroq, gugurt siniqlari va h.k)ni qoldirib ketishi mumkin.

Murdani ko'zdan kechirishda hodisa joyi holatini diqqat bilan o'rganish lozim bo'ladi. Voqea joyi holati deganda, u yerda aniqlangan barcha holatlar yig'indisi tushuniladi. Barcha faktlarni umumlashtirgan holda ko'rib chiqish tergovchiga ish bo'yicha yangi faktlarni aniqlashga yordam beradi. Bu vaziyat va holatlar tergovchining professional mahoratini namoyish etishida ma'lum bo'ladi.

O'qotar qurollarni qo'llash tufayli qotillik jinoyati sodir etilganlik belgilari aniqlangan hollarda tergovchi hodisa joyidan o'q va gilzalarni topish choralarini ko'rish lozim, zaharlanib o'lganlik belgilari mavjud bo'lgan holatlarda esa hodisa joyidan zaharli moddalarning qoldiqlari, zaharli modda olib kelingan idish turli o'rash vositalari kabilarni topish choralarini ko'rish lozim.

Tergovchining asosiy vazifalaridan biri hodisa joyini ko'zdan kechirishni to'liq o'tkazish va uning natijalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Lekin tergov amaliyotlarida bunga ba'zan erishilmaydi. Buning sababi turlicha: birinchidan, tergovchining yetarli bilimga va tajribaga ega emasligi va kriminalistik texnikaviy vositalari bilan to'liq ta'minlanmaganligi, ikkinchidan, ob-havo sharoitining noqulayligi, uchinchidan, hodisa joyidan topilgan dalillarga ahamiyat bermaslik hisoblanadi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati hisoblanadi. Tergov ko'pincha ushbu tergov harakatidan boshlanadi. Ba'zi vaqtlarda hodisa joyini ko'zdan kechirish undan oldin o'tkazilgan tezkor harakatlar tufayli yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib bajariladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish natijasini qayd etish

JPK 90 – 92-moddalarida hodisa joyidan topilgan dalillarni bayonnomada qayd etish tartibi ko'rsatilgan. Ushbu moddalar talabi asosida yozilgan bayonnomalar jinoyat ishi bo'yicha dalil manbai sifatida foydalanilishi mumkin.

Bayonnomalarga tergov va sud harakatining ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar, bu shaxslarga huquq va majburiyatlari tushuntirilganligi, tergov harakatining o'tkazilishi joyi va vaqti, shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy izlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo'lgan belgilari qayd etilishi lozim.

Qoidaga binoan hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonida yoki ko'zdan kechirish tugallanishi bilanoq tuzilishi lozim. Ba'zi vaqtlarda hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasini tuzishda tergovchi ayrim xatoliklarga ham yo'l qo'yishi mumkin. Shu sababli tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirishda barcha kuzatilgan holatlarni o'zining yon daftarchasiga xomaki yozib olsa, bayonnomani tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan faktlar qisqacha bayon etilishi mumkin.

E'tibor qiling! Hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi uch qismdan iborat bo'lib: **kirish, bayonot va xulosa** qismlarga bo'linadi.

Kirish qismida hodisa joyini ko'zdan kechirish joyi va vaqti, uni o'tkazish boshlangan va tamom bo'lgan vaqt, ko'zdan kechirishda ishtirok etgan shaxslarning ismi, familiyasi, xolislar va ularning uy manzillari, ko'zdan kechirishda qanday yorug'likda o'tkazilganligi (tabiiy va sun'iy), ob-havo sharoiti va h.k. ko'rsatiladi.

Bayonot qismida hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari qayd etiladi. Bayonnomada hodisa joyi qanday ketma-ketlikda o'tkazilgan bo'lsa, shunday tarzda bayonnomada qayd etilishi lozim. Eng avvalo, ko'zdan kechirish o'tkazilayotgan joyga to'liq tavsif beriladi. Agar hodisa joyi turar joy yoki bino bo'lsa, ularning aniq nomi (dam olish xonasi, balkon, yotoqxon, ombor va h.k.), razmeri, joylashgan joyi (cherdak, etaj, yerto'la) eshik va derazalar soni va ularning qaysi tomonda joylashganligi, ularning umumiy holati ko'rsatiladi. Agar ko'zdan kechirish ochiq joy va hududlarda o'tkazilgan bo'lsa, ularning nomlari (o'rmon, avtotransport yo'li va h.k.) hodisa joyining mo'ljal olish xususiyatiga ega bo'lgan obyektga nisbatan joylashgan masofasi qayd etiladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasida topilgan barcha obyektlarning qanday holatda ekanligi, masalan, turar joylarda jihozlarning umumiy holati, ishlab chiqarish korxonalarida asbob-uskuna va texnikaviy vositalarning, yo'llarning umumiy holati (tosh yo'l, tuproq yo'l) batafsil yozilishi kerak.

Hodisa joyidan topilgan murda, qon izlari, shift va devordagi teshiklar, o'q otish quroli, sovuq qurollarning turi, pichoq yoki boshqa turdagi sovuq qurollarning uzunligi o'lchanib bayonnomada aniq qilib yozilishi shart.

Ma'lumot uchun! JPKning 91-moddasida dalillarni qayd etishning yordamchi usullari qayd etilgan. Unga ko'ra, dalillarni qayd etish uchun bayonnomaga tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan dalillarni qayd etishning qanday usullari qo'llangani, foydalanilgan apparatlar, asboblari, uskunalar materiallarning texnikaviy tavsifi keltirilib, tegishli tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi.

Bayonnomalarning xulosa qismida ko'zdan kechirish vaqtida topilgan va ish bo'yicha dalil sifatida olingan barcha obyektlar ko'rsatilishi lozim, shuningdek ko'zdan kechirishda foydalanilgan texnikaviy vositalar, turli chizmalar, sxemalar, suratga olish usullari ham batafsil qayd etiladi va bayonnomaga ilova etiladi.

Nazorat savollari:

1. Hodisa joyini ko'zdan kechirishning umumiy qoidalarini tushuntirib bering. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirishda nimalarga rioya etishi lozim?
2. Hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish taktikasini tushuntirib bering. Hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish qanday bosqichlardan iborat? Ularning asosiy xususiyatlarini izohlab bering.
3. Hodisa joyini ko'zdan kechirishda qanday texnik vositalar va predmetlar qo'llaniladi? Hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari qay tarzda qayd etiladi?

Kazuslar:

1-kazus

2013-yil 3-dekabr kuni Chilonzor tumani Majlis ko'chasi 4-uyda o'g'rilik sodir etilganligi to'g'risida xabar kelib tushdi. Hodisa joyi ko'zdan kechirilganda uydagi buyumlar tartibsiz yoyilganligi, uydagi javonlar eshiklari ochiq qolganligi aniqlandi. Eshik qulfi tekshirilganda esa buzish quollaridan qoladigan biror-bir iz topilmadi. Uy egalari bo'lgan turmush o'rtoqlar A. va G.ning aytishicha, 2-dekabr kuni ular Toshkent viloyatida A.ning xolasining uyida mehmonda bo'lganlar va shu sababli uyda hech kim bo'lmagan. Ularning aytishicha, uydan 12 million so'm va yoqut ko'zli tilla taqinchoqlar komplekti o'g'irlangan.

Mazkur holatga kriminalistik jihatdan baho bering. Holat yuzasidan qanday ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiq?

Yuqoridagi holatda hodisa joyini ko'zdan kechirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Tergovni tashkil etish va rejalashtirishning taktik qoidalarini beligilang.

2-kazus

2015-yil 22-dekabr kech soat 23.00–24.00 oralig'ida yo'l transport hodisasi yuz bergan. Hodisa natijasida yo'lni kesib o'tayotgan B. ismli shaxs hodisa joyida vafot etgan. Transport hodisasini sodir etgan A. ismli shaxs esa voqea joyidan qochib ketgan. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish vaqtida jinoyat sodir bo'lgan joydagi izlar yomg'ir yog'ganligi sababli ish uchun ahamiyatli bo'lgan izlar yo'qalganligi va u yerdagi izlarning dalil olish uchun yetarli emasligi natijasida izlarni aniqlay olmagan. Hodisa joyi ko'zdan kechirilganda, avtomobil chirog'i siniqlari topilgan. Boshqa daliliy ashyo topilmadi.

Mazkur holatga kriminalistik jihatdan baho bering. Holat yuzasidan qanday ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiq?

Yuqoridagi holatda hodisa joyini ko'zdan kechirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

15-MAVZU. TERGOV EKSPERIMENTI TAKTIKASI

Eksperiment tushunchasi va vazifasi. Tergov eksperimentini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish. Tergov eksperimentini o'tkazish tartibi va taktikasi. Tergov eksperimenti natijalarini rasmiylashtirish.

Eksperiment tushunchasi va vazifasi

Tergov eksperimentining mohiyati shundaki, muqaddam bo'lib o'tgan hodisalarni, jinoyat ishiga aloqador bo'lgan holatlarni voqelikda haqiqatdan bo'lganligini yoki bo'lmaganligini aniqlash maqsadida ular aynan ma'lum sharoitlarda tiklanib tekshiriladi.

Esa tuting! Tergov eksperimenti – jinoyat ishini tergov qilish jarayonida sodir bo'lgan hodisaning ayrim holatlarini va vaziyatlarini tajriba usulida tekshirishga oid kriminalistik taktika tizimida mustaqil tergov harakati.

Tergov eksperimenti – ish uchun muhim bo'lgan holatlarning amalda mavjudligini aniqlash uchun ularni tiklash va tajribalar o'tkazish yo'li bilan o'tkaziladigan protsessual harakat.

O'zR JPKning 153-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi va sud guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning ko'rsatuvlarini, boshqa dalillarni, shuningdek ish yuzasidan qilingan tusmol, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash hamda zaruriy tajribalar o'tkazish orqali tekshirishga haqlidir.

E'tibor qiling! Eksperiment biror hodisani idrok qilish, muayyan harakatlarni bajarish, biror hodisaning sodir bo'lish imkoniyatini tekshirish, shuningdek hodisaning yuz berish va izlarning qolish yo'sinlarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Tergov eksperimentini o'tkazish tergovchiga u yoki bu harakat, voqea, hodisa yuz bergan bo'lishi mumkinligi yoki mumkin emasligini muayyan tergov vaziyati sharoitida tajribalar o'tkazish yo'li bilan aniqlash imkonini beradi.

Tekshirilgan harakatlar, voqealar real emasligini aniqlagach, tergovchi mazkur faktlarni haqqoniy faktlar qatoridan chiqaradi, ularning amalda mavjudligi tasdiqlangani esa jinoyat ishining muayyan holatlarini isbotlashni yengillashtiradi. Tergov eksperimentining boshqa protsessual harakatlardan asosiy farqi shundaki, tergovchi uni o'tkazish vaqtida kriminalistik ahamiyatga molik axborotni kuzatish va (yoki) eshitish orqali

uni qayd etish bilan kifoyalanmaydi, balki tergov qilinayotgan voqea holatlarini tiklaydi va uning sodir bo'lish imkoniyatini tekshirish uchun tajribalar o'tkazadi.

Tergov eksperimentini o'tkazish zarurati aniqlanayotgan holatning ahamiyati va uni tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish imkoniyatini hisobga olgan holda aniqlanadi. Tergov eksperimenti tergov qilinayotgan voqeaning ayrim holatlarini tekshirish usuli sifatida qaralishi lozim, chunki jinoyatning obyektiv va subyektiv holatlari yig'indisini tiklash uning takrorlanishiga olib kelishi mumkin, ya'ni ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Tergovchi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan, moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan eksperimentlarni o'tkazishga haqli emas. Bunday holatlar boshqa tergov harakatlari yordamida tekshirilishi lozim.

E'tibor qiling! Tergov eksperimentining asosiy turlari quyidagi imkoniyatlar mavjudligini aniqlash uchun o'tkaziladi:

1) muayyan sharoitlarda biron-bir obyekt, harakat yoki hodisani idrok etish (ko'rish, eshitish, hid sezish, paypaslab ko'rish);

2) berilgan sharoitlarda biron-bir harakatlarni bajarish;

3) tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi mexanizmining ayrim elementlari mavjudligi.

Amalda, ayniqsa, ko'p o'tkaziladigan **birinchi guruh** tergov eksperimentlariga ish uchun ahamiyatli bo'lgan biron narsani muayyan ob-havo, berilgan yorug'lik va shovqin sharoitlarida, ochiq joyda yoki bino ichida ko'rish yoki eshitish imkoniyatini tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish misol bo'ladi.

Tergov eksperimentlarining **ikkinchi guruhiga** muayyan to'siqlardan oshib kirish, og'ir yuklarni berilgan masofaga tashish, marshrutni belgilangan vaqt oralig'ida piyoda bosib o'tish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tajribalar kiradi. Rasm chizish, avtomobil haydash va boshqa maxsus ko'nikmalarni tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish ham tergov eksperimentlarining mazkur guruhiga kiradi.

Eksperimentlarning **uchinchi guruhini** quyidagi savollarga javob olishga qaratilgan tajribalar hosil qiladi: mazkur omborga tovar-moddiy boyliklarning muayyan miqdori sig'ishi mumkin bo'lganmi; ushbu omborda saqlangan muayyan mahsulotlar vazni tabiiy kamayishi mumkinmi; osma qulf bandini eshikning qo'shni uchastkalariga shikast yetkazmasdan qirqish mumkinmi va h.k.

Tekshirilayotgan holatlar, guvohlar, jabrlanuvchilar, jinoyatda gumon qilinayotganlar va ayblanuvchilarning ko'rsatuvlaridagi biron hodisani idrok qilish, eshitish, ayrim harakatlarni bajarish imkoniyati bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashdan iboratdir.

Guvohning jinoyat hodisasiga oid ma'lum dalillarni ko'rganligi, eshitganligi haqidagi ma'lumotlari o'sha vaqtdagi sharoitda (yorug'lik, masofa, shovqin kabi) ko'rish va eshitish imkoni bo'lganligini tekshirishga zarurat tug'iladi. Shuningdek, gumon qilinayotgan shaxs yoki ayblanuvchining ayrim jinoiy harakatlari: buzib kirgan joydan ma'lum buyum-ashyolarni olib chiqib ketish imkoni, ko'p miqdordagi tovarlarni bitta yuk mashinasida olib ketganligi kabi ma'lumotlarni tekshirishda, eksperiment ko'rsatilgan vaziyatlar, holatlar sun'iy tiklanib, tajriba qilib o'tkazishdan iborat bo'ladi.

Tergov eksperimenti jinoyat ishi yuzasidan mavjud bo'lgan ma'lumotlar va ehtimolga qarshi bo'lmagan fikrlarni tekshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar va fikrlar ma'lum sharoitlarda voqelikda bo'lganligiga ishonch hosil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Tergov eksperimenti natijalari ijobiy tasdiqlovchi bo'lib chiqsa, tekshirilayotgan dalil yoki tasmol to'g'ri ekanligi aniqlanadi, aks holda inkor etuvchi natija hosil bo'lganda, tekshirilayotgan ma'lumotlar noto'g'ri ekanligi, ko'rsatuvdagi vaziyat-holatlarining asossiz yoki yolg'on ekanligi isbotlanadi.

Tergov eksperimenti vazifalariga ko'ra, boshqa tergov harakatlariga o'xshab ketadi va ayrim qismlari o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, eksperiment "ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish" tergov harakatiga o'xshash bo'lib, ikkala protsessual harakat so'roq natijasida olingan ko'rsatuvlarni tekshirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ular orasida muhim farqlar mavjud bo'lib, ular shundan iboratki, eksperimentda ko'rsatuvdagi ayrim dalillarni bo'lib o'tgan voqelikda, shart-sharoitda, sun'iy tiklash bilan tajriba qilib tekshiriladi. Hodisa joyida ko'rsatuvlarni tekshirish esa so'roq paytida olingan ma'lumotlardagi ayrim holat-vaziyatlar haqiqiy hodisa joyidagi vaziyatlarga to'g'ri kelishi aniqlanadi, ba'zi ma'lumotlar to'ldiriladi, tekshiriladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish harakatining ham eksperiment bilan birmuncha bog'liqlik va o'xshashlik xususiyati mavjuddir. Hodisa joyini ko'zdan kechirishdan maqsad, eksperiment kabi dalil qidirib topish, uni tekshirishdan iboratdir, lekin ko'zdan kechirishda hodisa joyi, holati o'zgartirilmaydi, avvalgi asl holati, jinoyat oqibati bo'lgan alomatlarini o'zgarishsiz kuzatiladi.

Sud ekspertizasining turli tekshiruvlarini o'tkazishda ekspert-mutaxassis eksperimental uslubini keng qo'llaydi. Jumladan, otish quollarini identifikatsiyalashda shubhalangan quoldan eksperimental otishlar o'tkazib, tekshirish uchun o'q va gilzalarning namunalarini tayyorlaydi, hujjat va boshqa obyektlarni tekshirishda eksperiment tajriba uslubini turli shakllarda qo'llaydi. Bu eksperimental tadqiqot tekshiruvlari tergov eksperimentiga o'xshash bo'lsa ham, mustaqil tergov harakati emas, sud ekspertizasining tekshiruv uslubi sifatida uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tergov amaliyotida tergalayotgan jinoyat ishi yuzasidan turli holat-vaziyatlarni eksperiment yordamida tekshirishga to'g'ri keladi. Shularga ko'ra eksperimentning turli shakllari o'tkaziladi:

– ma'lum hodisa, holat, shaxslarni muayyan sharoitda ko'rish imkonini aniqlash uchun;

– hodisani (turli ovozlari, portlash, motor ovozlari va h.k.) ma'lum sharoit voqeligida eshitish imkonini bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlash uchun;

– jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan ayrim harakatlarni bajarish (masalan, ma'lum masofani qadam yurish, yugurish yoki transport vositasida ma'lum muddat davomida o'tish) imkonini tekshirish uchun;

– ayrim ishlarni bajarish imkoniyatini (to'siqdagi teshik orqali og'ir yuk bilan chiqish yoki kirish, ko'p miqdordagi tovar mollarni bitta muayyan mashina yordamida olib ketish va h.k.) tekshirish uchun;

– turli modda va mahsulotlar sifatini (hidi, tarkibi)ni idrok qilib, ajrata bilish qobiliyatini va boshqa holatlarni tekshirish uchun.

Jinoiy vaziyatning yoki uning ayrim jihatlarining oldini olish imkonini tekshirishda tergov eksperimenti bilan bir qatorda boshqa choralar ham ko'riladi. Ayniqsa, avtotransport halokatini tekshirishda, jabrlanuvchilar va ayblanuvchilar ko'rsatuvlaridagi vajlar, tushunchalar eksperiment, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish va ekspertizalar yordamida aniqlanadi.

Tergov eksperimentini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

Tergov eksperimentini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun unga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Mazkur tergov harakatini o'tkazishdan avval jinoyat ishidagi materiallar bilan tanishib chiqib, so'ngra mavjud bo'lgan dalillarning qaysi birini eksperiment o'tkazish bilan tekshirilishi zarurligi hal qilinadi.

Tergov harakatini o'tkazish rejasini belgilab olish ham katta ahamiyat kasb etadi. Reja quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

– eksperiment o'tkazishning maqsadi, joyi, vaqti, tekshiruv o'tkazish sharoitlari;

– tergov harakatining mazmuni va tajribalarning oldinma-ketin o'tkazish tartibi;

– qatnashuvchilarning har qaysisi bajaradigan harakatlarni aniqlash;

– zarur bo'lgan ilmiy-texnik vositalarni tajriba o'tkazishga tayyorlash;

– murakkab holat-vaziyatlarni tekshirishda joyning chizmasini tayyorlash va tergov harakati natijalarini rasmiylashtirish, mustahkamlash choralarini ko'rib chiqish.

JPK 154-moddasiga asosan eksperiment o'tkazish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Eksperiment natijasida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mulkiy zarar yetkazilishi, ishlab chiqarish tartibotining, transport vositalari harakati jadvalining buzilishi va boshqa noxush oqibatlarining kelib chiqishi ehtimol bo'lsa, surishtiruvchining, tergovchining bunday eksperiment o'tkazish to'g'risidagi qaroriga prokuror sanksiya berishi lozim.

Eksperiment qatnashuvchilarning hayoti va salomatligiga xavf tug'dirsa, jamoat tartibi va axloq normalariga putur yetkazsa, uni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi (JPK 154-moddasining ikkinchi qismi). Bunday hollarda eksperiment o'rniga boshqa tergov harakatini o'tkazish belgilanadi (qayta so'roq, yuzlashtirish, ekspertiza va boshqalar).

Tergov eksperimentini muvaffaqiyatli tashkil qilish va o'tkazish uchun uning ishtirokchilarini oldindan belgilab olish lozim.

Ikki kishidan kam bo'lmagan xolislardan tashqari, eksperiment o'tkazishda tekshiriladigan hodisa, dalil, vaziyat xususiyatiga oid bo'lgan mutaxassisning ishtiroki uni ijobiy o'tkazilishiga yordam beradi.

Tergov eksperimentini o'tkazish jarayonida ish yuzasidan so'roq qilingan shaxslarning ishtiroki taktika jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi, ayniqsa, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi)ning qatnashuvi, tergov harakatining ijobiy natijalari muhim hisoblanadi. Jumladan jinoiy hodisani ko'zi bilan ko'rgan, eshitgan guvohlar, vaziyatni tiklashda uning haqiqiy hodisa vaqtidagi holati, sharoitlarining mos kelishini kuzatib, tegishli qo'shimcha tushunchalar berishlari mumkin.

Guvoh yuz bergan hodisa vaziyatini qayta tiklashga, shu bilan birga hodisaning qanday davom etganligiga doir kerakli ma'lumotlarni beradi. Tergov eksperimenti guvohlarning ko'rsatuvlarini tekshirish maqsadida o'tkazilsa, guvohlarning o'zlari tegishli harakatni shaxsan namoyish qilishlari, tekshirilayotgan hodisaning haqiqatligini aniqlashga yordam beradi.

Eksperiment ayblanuvchining ko'rsatuvini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan bo'lsa, bu holda ayblanuvchini eksperiment o'tkazishga qatnashish uchun jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Ayblanuvchi jinoyat sodir bo'lgan vaqtda bajargan harakatlarni to'la namoyish qiladi. Ish bo'yicha to'g'ri ma'lumotlarni aniqlashga imkon beradi.

Eksperiment o'tkaziladigan joyini, vaqtini ham oldindan belgilab olish lozim. Eksperimentni jinoyat sodir bo'lgan joyning o'zida o'tkazish imkoni har doim ham bo'lavermaydi, shuning uchun joy va vaqt natija uchun ahamiyati bo'lsa, haqiqiy jinoiy hodisaga o'xshash bo'lgan joy va taxminan o'sha vaqt (kechki, kunduzgi, qor, yomg'ir kabi) belgilanadi.

Eksperiment tezkor ma'lumotlarga asosanib o'tkaziladigan bo'lsa, tezkor xodimning qatnashuvi maqsadga muvofiq. Eksperiment o'tkazish davomida o'tkaziladigan sinovlarning mazmunini o'zgartirish bilan tezkor ma'lumotlarni ham tekshirish mumkin. Eksperiment o'tkazishda mutaxassisning ishtirok etishi, ayniqsa, muhim. Mutaxassis eksperiment vaziyatini qayta tiklash va o'tkazish oldidan qatnashuvchilarni joy-joyiga qo'yishga, texnik jihatdan to'g'ri o'tkazilishiga ko'maklashadi, shuningdek eksperiment natijalariga baho berishda tergovchiga zarur bo'lgan maslahatlarni beradi. Tergov harakatini o'tkazishga barcha tashkiliy masalalar yuzasidan tayyorgarlik ko'rilgandan so'ng kirishish mumkin.

Tergov eksperimentini o'tkazish tartibi va taktikasi

Tergov eksperimentini tashkil etish: a) uning maqsadi va hal qilinadigan vazifalarni belgilash; b) uni o'tkazish vaqti, joyi va sharoitlarini belgilash; d) tajribalar tuzilishi va oldinma-ketinligi xayoliy modelini tuzish; e) tergov harakati ishtirokchilarini va ulardan har birining rolini belgilash; f) tajriba o'tkazish uchun zarur narsalar va texnika vositalarini tayyorlash, ularni qayd etish usullarini belgilashdan tarkib topadi.

Murakkab vaziyatlarda bo'lg'usi tergov eksperimentining mufassal yozma rejasini tuzish, unda tajribalarning tashkiliy va texnik-kriminalistik ta'minoti, tuzilishi, ularni o'tkazish variantlari, erishilgan natijalarni qayd etish usullarini nazarda tutish zarur.

Bo'lg'usi tergov eksperimentining maqsad va vazifalarini belgilash tergov qilinayotgan jinoyatning tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirilishi lozim bo'lgan holatini aniqlashtirishni anglatadi. Ekspertimentni o'tkazish vaqti, joyi va sharoitlarini belgilash uchun tergovchi ba'zan tergov qilinayotgan jinoyat ishi materiallariga murojaat etishi kerak bo'ladi. O'tkaziladigan tajribalarning tuzilishi va oldinma-ketinligini belgilash, ularning xayoliy modelini tuzish tergovchiga bo'lg'usi tergov harakati ishtirokchilari tarkibi va sonini aniqroq belgilashga yordam beradi. Masalan, ayrim vaziyatlarda tergovchiga yordamchi, mutaxassis, ikkita emas, balki to'rtta xolis kerak bo'lishi mumkin.

Tajriba harakatlarini, odatda, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslar (gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvoh-shohidlar) bajaradi. Subyektning shaxsiy xususiyatlari emas, balki biron-bir hodisaning mavjud bo'lishi imkoniyati tekshirilayotgan hollarda tergovchi zaruriy tajriba harakatlarini bajarish uchun ish yakunidan manfaatdor bo'lmagan shaxsni taklif qilishi mumkin.

Agar tergov eksperimenti natijalari tekshirilayotgan shaxsning ko'rsatuvlarini rad etgan bo'lsa, o'tkazilayotgan tajribalarda mazkur subyektning ishtiroki, ayniqsa, foydali va psixologik jihatdan muhim bo'ladi. Ilgari bergan ko'rsatuvlarining haqiqatga zid ekanligini tajribada ko'rgach, gumon qilinuvchi, guvoh ko'pincha haqqoniy ma'lumotlarni beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tergov eksperimentini o'tkazishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ishtiroki ixtiyoriy bo'lishi kerak. Mazkur tergov harakatida guvoh-shohidlar va jabrlanuvchilar o'z ixtiyoriga qarshi ishtirok etishi ham muammolarni keltirib chiqaradi, ayniqsa, ularning shaxsiy, subyektiv xususiyatlari tekshirilayotgan bo'lsa. Agar ular tergov eksperimentida ishtirok etishga majbur qilingan bo'lsa, erishilgan natijalarga aniq baho berish qiyinlashadi.


Tergov eksperimentini o'tkazishga kirishishdan oldin tergovchi uning ishtirokchilariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatishi, rejalashtirilgan tajribalar maqsadini va har bir ishtirokchining rolini tushuntirishi lozim. Bunda guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilishi kerak.

E'tibor qiling! Eksperiment o'tkazish sharoiti tiklanayotgan harakat yoki hodisalar yuz bergan sharoitga iloji boricha o'xshash bo'lishi lozim. Tajribalar imkon boricha bir necha marta o'tkaziladi. Tajribalarning sharoitlari o'zgartirilishi mumkin (JPK 155-modda).

Tajriba harakatlarini o'tkazishdan oldin o'rganilayotgan hodisa sharoitlari tekshirilayotgan ko'rsatuv yoki tussmollarga to'la muvofiq holda tiklangan bo'lishi lozim. Buning uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning har biriga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisaning sharoit va holatlarini tiklash taklif qilinishi mumkin. Ushbu qoidaga rioya etish tergov eksperimenti natijalarining ishonchligini ta'minlaydi, shu sababli prinsipial ahamiyatga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertga eksperiment yuzasidan savol berilishi mumkin. Sudning ijozati bilan eksperimentda ishtirok etayotgan shaxslarga taraflar ham savol berishi mumkin. Taraflar va eksperimentda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar surishtiruvchining, tergovchining va sudning e'tiborini, ularning fikricha, ish holatini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan barcha holatlarga qaratishga, eksperiment sharoitiga aniqlik kiritishni va tajriba harakatlarini takrorlashni talab qilishga haqlidir. Ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxs eksperiment munosabati bilan o'zining qo'shimcha so'roq qilinishini talab qilishi mumkin.

Tergov eksperimenti o'tkazishning taktik usullari



Tajribalarni ayni bir va maxsus o'zgartirilgan sharoitlarda qayta o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Birinchi holda natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tasodifiy omillar hisobga olinadi. Ikkinchi holda, agar sharoitlar og'irlashtirilgan, natija esa o'zgarishsiz qolgan

bo'lsa, bu uning ishonchlilik darajasini oshiradi, zero tergov eksperimentining tajribalarni ko'p karra takrorlash yo'li bilan olingan turg'un natijalarigina ishonchli deb topilishi mumkin.

Eksperiment o'tkazish joyi, vaqti, uni o'tkazish sharoitlari, jumladan, ob-havo, yorug'lik va boshqalar ko'rib chiqiladi. Vaziyatni tiklashda ayrim shaxslarning turar joyi, ma'lum harakatlarni muayyan vaqtda bajarishlari ta'kidlanadi, zarur bo'lgan predmetlar tegishli joylarga qo'yiladi, yo'q bo'lgan, zararlangan obyektlarning modellari hozirlanadi.

Eksperiment o'tkazish joyini qo'riqlash uni o'tkazishga xalaqit beruvchilarni chetlatish kabi choralar, tezkor xodimlarga topshiriladi. Eksperiment tajribalarini o'tkazishda ayrim harakat vaziyatlarini tiklash choralari, ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga topshiriladi, agar bunday qilishni turli sabablarga ko'ra iloji bo'lmasa, bu topshiriqlarni taklif qilingan boshqa shaxslar amalga oshirishi mumkin.

Eksperiment tajribalarini tashkil etish va o'tkazishda qo'llanadigan taktik uslublar qonunchilikka rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Jinoiy hodisa holatlarini tajriba qilib tekshirishda, sun'iy tiklangan vaziyat asl hodisa holatida bo'lgan shart-sharoitga mos kelmog'i zarur. Tekshirish jarayonida topshiriq olgan shaxs tajribaning ayrim harakatlar bilan bog'liq qismlarini (balandlikdan sakrash, biror to'siqdan o'tish kabi) bajara olmasa, uning o'rniga bo'yi, gavdasi, yoshi jihatidan o'xshash bo'lgan boshqa shaxsga bu ishni bajarish topshiriladi.

Tekshirilayotgan hodisa, holat, vaziyatlar bir necha ko'rinishda takrorlanib sinalishi lozim, shundagina tekshiruv natijalari haqiqiy va xolisona bo'ladi. Masalan, ko'rish imkoni 200 m masofada ifodalangan bo'lsa, tekshiruvni 150, 200 va 250 m da o'tkazish lozim bo'ladi, qaysi holatlar qayta takrorlanganda o'zgarishsiz natija bersa, ana shu yo'nalish haqiqatga to'g'ri keladi, deb tanlanadi.

Eksperiment o'tkazilayotgan sharoit, tiklanayotgan harakat yoki hodisalar yuz bergan sharoitga iloji boricha o'xshash bo'lishi lozim. Tajribalar imkoni boricha bir necha marotaba takrorlanib o'tkaziladi, tajribalarning sharoitlari birmuncha o'zgartilishi mumkin (JPKning 155-moddasi). Mana shu qoidaga asoslangan holda, eksperimentni o'tkazish jarayonida, tergovchi ayrim holatlarni tiklab namoyon qilayotgan shaxslarning joylarini o'zgartirishi, harakat ko'rinishlarini bir necha variantda amalga oshirishni taklif qilishi va ana shu ko'rinishlar orasidan ko'proq takrorlangan natijani tanlab olishi kerak.

Tekshirilayotgan holatlar, tussmollar, ko'rsatuvdagi ayrim dalillarni har tomonlama tekshirib aniqlash uchun, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi,

guvoh, jabrlanuvchilarning har birlariga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisa holatini tiklash tavsiya etiladi va tergovchi tajriba harakatlarini o'tkazadi.

Tajribalar ko'p va murakkab bo'lsa, tergovchi uni bir necha bosqichga bo'lib, tegishli oldinma-ketinlikda o'tkazadi. Eksperiment tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida, uning ayrim qismlari-bosqichlarini mustahkamlash maqsadida foto, kino, videotasvirga olish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, eksperiment o'tkazilayotgan joyning chizmasi, ishlatilgan nusxa, qoliplar ham yuqorida ko'rsatilgan vositalarga qo'shiladi.

Eksperiment tajribalarini o'tkazish jarayonida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslarga va ayrim harakatlarni amalga oshirayotgan qatnashuvchilarga savollar berilishi mumkin. Savollar tergovchi, mutaxassis, xolislar tomonidan berilib, eksperiment o'tkazishning shart-sharoitlariga, uning natijalariga, ishlatilayotgan jihozlarga tegishli bo'lishi mumkin.

Eksperiment harakatida ishtirok etuvchi shaxslar, tergovchining ruxsati bilan ko'rsatuvlari tekshirilayotgan gumon qilinuvchi-ayblanuvchilarga savol berishga, tergovchining e'tiborini ish holatini aniqlashga ko'maklashadigan barcha holatlarga qaratishga, tekshiruv sharoitiga ba'zi aniqliklar kiritishga haqlidirlar. Shu bilan birga, eksperiment qatnashuvchilari tajriba va ayrim harakatlarni yana takrorlashni iltimos qilishlari mumkin. Qatnashuvchilarning bunday fikr-mulohazalari eksperiment bayonnomasida aks ettirilmog'i lozim.

Eksperiment jarayonida amalga oshirilgan tekshiruvlar natijasi voqelikka nisbatan to'g'ri kelmasdan zid bo'lsa, ya'ni tekshirilayotgan harakatning natijasi ko'rsatuvdagi holatlarni tasdiqlamasa, natija salbiy, inkor etuvchi bo'lib, ko'rsatuvdagi ma'lumot noto'g'ri bo'lib chiqadi. Aksincha, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisa, vaziyatlar o'tkazilgan tajribalar natijasiga mos kelsa, u holda tekshirilayotgan holat hodisalari haqiqatda voqelikda yuz bergan bo'lishi mumkinligi tasdiqlanadi.

Tergov eksperimenti jinoyat-protsessual qonuni normalari asosida o'tkazilishi bilan bir qatorda qo'llaniladigan taktik uslublar ham qonun normasiga zid bo'lmasligi lozim.

Tergov eksperimentining natijalarini rasmiylashtirish

Tergov eksperimentini o'tkazish sharoitlari, jarayoni va natijalari bayonnomada qayd etiladi (O'zR JPK 156-moddasi).

Bayonnomaning **kirish qismida** eksperiment o'tkazilishi uchun asoslar, kim tomonidan o'kazilganligi, tekshiruv zarurati, joyi, vaqti va qatnashuvchilarning ismi-shariflari ko'rsatiladi. Shuningdek, guvoh va jabrlanuvchilar ko'rsatuvlari tekshirilganda eksperiment o'tkazishdan oldin ular qasddan yolg'on ma'lumot berish va bosh tortish oqibatlari, ya'ni jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirganligi to'g'risida ma'lumot va uni tasdiqlovchi imzolari kiritiladi.

Bayonnomaning **bayonot yoki tavsiflovchi qismida** quyidagilar ko'rsatiladi:

1) eksperiment qanday maqsadda, qachon, qayerda va qanday sharoitda o'tkazilganligi;

2) hodisaning sharoitini va holatini tiklash aynan nimalarda o'z aksini topganligi;

3) qanday tajriba harakatlari qay tartibda, kim tomonidan va necha marta o'tkazilganligi;

4) qanday natijalar olinganligi.

Tekshiruv o'tkazilishi jarayonida qo'llanilgan kriminalistik texnika vositalaridan – ovoz yozish, videotasvirga olish, kino va fotosuratga tushirish ishlari bayonnomaning mazkur qismida aks ettiriladi. Shu bilan birga eksperiment tajribalarini uyushtirish uchun tayyorlangan qoliplar (namunalar), mulaj va modellar ham nima uchun va qanday qo'llanilganligi bayon etiladi.

Eksperiment natijasida tekshirilgan holat, vaziyatlar, tasmollar o'z tasdig'ini topgan yoki topmaganligi, ular necha yo'nalishli tajriba yordamida tekshirilganligi va boshqa chora-tadbirlar qanday oldinmaktinlikda o'tkazilgan bo'lsa, bayonnomada shunday holda yoritilishi lozim.

Bayonnomaning **yakunlovchi qismi** quyidagilarni aks ettirgan bo'lishi shart:

1) eksperimentni o'tkazishda ishtirok etgan shaxslar keltirgan ariza, shikoyat, iltimosnoma va e'tirozlari;

2) eksperiment tekshiruviga tayyorlangan buyumlarning individual xususiyatlari (shakli, rangi, o'lchovi va boshqa moddiy belgilari);

3) eksperiment o'tkazilgan joyning chizmasi, harakat va holatlar sxemalari;

4) bayonnoma barcha ishtirokchilar tomonidan tanishib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar va bu ma'lumotlar ular tomonidan tasdiqlanganligi.

Tajribaning har bir keyingi varianti u ayni bir yoki o'zgartirilgan sharoitlarda o'tkazilgani va ushbu o'zgartirish nimadan iborat bo'lgan – sharoitlar og'irlashtirilgani yoki soddalashtirilgani ko'rsatilgan holda qayd etiladi. O'tkazilgan tajribalarning natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar, ayniqsa, aniq qayd etilishi lozim. Masalan, avtomobil qarshisida to'siq qo'qqisidan paydo bo'lgan holda uni to'xtatish imkoniyatini tekshirishga qaratilgan tergov eksperimenti o'tkazilayotganda, piyoda maketining paydo bo'lishi tekshirilayotgan haydovchi uchun kutilmagan bir hol bo'lgani yoki u yo'lning mazkur uchastkasida voqealarning bunday rivoji haqida oldindan bilgani va bunga psixologik jihatdan hozirlik ko'rishni mumkin bo'lgani qayd etilishi lozim.

Agar tajribalarning natijalariga binolar yoki joy hududlarining joylashuvi, o'tkazilayotgan tergov eksperimenti ishtirokchilarining o'zaro holati, ayrim obyektlar va predmetlar o'rni jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, mazkur holatlarni yanada aniq qayd etish imkonini beradigan rejalar va sxemalar tuzish tavsiya etiladi.

E'tibor qiling! Tajribalarning o'zi, ularning eng muhim holatlari va olingan natijalar fotosuratlarda yoki videotasvirga tushirish yo'li bilan qayd etiladi. Bundan tashqari, o'lchash, ovoz yozish, chizmalar tuzish, eksperimental qoliplar va izlarning nusxalarini tayyorlash amalga oshirilishi mumkin.

O'tkazilgan eksperimenti natijalarini ularning ishonchliligi va daliliy ahamiyati nuqtayi nazaridan baholash bir qator xususiyatlarga ega. Avval, tajribalarni tashkil etish va o'tkazish to'g'ri amalga oshirilgani tekshirilganidan keyin, tekshirilayotgan holat mavjud bo'lishi mumkinligi yoki mumkin emasligi aniqlanadi. Tekshirilayotgan holat mavjud bo'lishi mumkinligi aniqlangan holda erishilgan natija obyektiv aniqlangan daliliy fakt hisoblanadi, biroq agar tajribalarni o'tkazish vaqtida tergov eksperimentini o'tkazish taktik qoidalari buzilgan bo'lsa, uning natijalari daliliy qimmatga ega bo'lmaydi.

O'tkazilgan tajribalar asosida chiqarilishi mumkin bo'lgan xulosalarga kelsak, ular eksperiment natijasiga uning ijobiy yoki salbiyligiga bog'liq bo'ladi. Tekshirilayotgan holatni, uning amalda mavjudligini tasdiqlovchi natija ijobiy hisoblanadi. Salbiy natija ushbu holatni rad etadi, uning mavjud bo'lishi mumkin emasligidan dalolat beradi.

Agar tajribalar o'tkazish yo'li bilan tekshirilayotgan holat amalda mavjud bo'lishi mumkin emasligi aniqlangan bo'lsa, ushbu holat real voqelikda mavjud bo'lmagani to'g'risida uzil-kesil xulosa chiqarilishi lozim. Masalan, mazkur binoga ayblanuvchi ko'rsatgan miqdorda tovar-

moddiy boyliklar sig'ishi mumkin bo'lmasa, bu unda yong'in yuz bergan paytda ko'rsatilgan miqdorda tovar-moddiy boyliklar bo'lmaganidan dalolat beradi.

Mazkur odam muayyan hodisani idrok etishga yoki ma'lum harakatlarni bajarishga qodir emasligini aniqlashga qaratilgan tergov eksperimenti natijalarini baholash ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Tekshirilayotgan shaxs individual psixologik sohasining bir qator muhim omillarini aniq hisobga olish, tiklash va nazorat qilish mumkin emas. Vaholanki, ular eksperiment natijalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, tekshirilayotgan shaxsdan shu yo'l bilan olingan ko'rsatuvlar yolg'on bo'lishi, u o'z imkoniyatlarini ataylab namoyish etmagan bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan, tergov eksperimentining salbiy natijasi shaxsning hayajonlanishi, u ko'nikmagan sharoitlar tufayli o'z harakatlarini boshqarish yoki intellektual imkoniyatlarning susayishi oqibati bo'lishi ham mumkin. Shu sababli bunday hollarda eksperimentning salbiy natijasi mutlaqo ishonchli deb qaralishi mumkin emas, demak, tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirishga sabab bo'lgan voqeaning realligi to'g'risidagi masala ochiq qolishi va boshqa tergov harakatlari yordamida aniqlanishi lozim.

Tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi mexanizmining ayrim elementlarini tekshirishga qaratilgan eksperimentlarning natijalari ham uzil-kesil, ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin.

Eksperiment jarayonida qo'llanilgan kriminalistik texnika vositalarining mahsulotlari (kino, ovoz yozish, video tasmlari, fotosuratlar, chizmalar) bayonnomaga ilova qilinganligi ham ko'rsatilishi lozim.

E'tibor qarating! Tergov harakatining natijalarini qayd etib mustahkamlagan hujjat – bayonnoma protsessual jihatdan dalil manbai bo'lib xizmat qiladi va ayblov xulosasiga, so'ng sudning qaroriga (hukmiga) asos bo'ladi, shuning uchun bayonnoma yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilinmay bajarilgan holda, bu hujjat haqiqiy kuchga ega bo'lmay qoladi, eksperiment jarayoni va natijalari daliliy xususiyatini yo'qotadi.

Tergov eksperimenti natijalarini baholash jinoyat ishidagi materiallar boshqa dalillar bilan solishtirib, ularni o'zaro bog'liqligi, bir-birini to'ldirishi asosida qabul qilinadi. Dalillarni baholashning tartib-qoidalari xususiyati qonun asosida bo'lib, umumiy prinsiplarni qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Tergov eksperimentining natijalari tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi (salbiy) bo'lishidan qat'i nazar, har ikkala turi ham dalil bo'lib xizmat qiladi. Birinchi turi tekshirilayotgan hodisa dalilni to'g'ri bo'lishi ehtimol ekanligini, ko'rsatuvdagi dalillar hodisa haqiqat bo'lib o'tgan deb hisoblashga va tergovning keyingi navbatdagi chora-tadbirlarini to'g'ri belgilashga va o'tkazishga imkon beradi.

Ikkinchi turdagi natija, ya'ni eksperiment tekshiruvdagi holat vaziyatlarni tasdiqlamasa, inkor etsa, bu holda ko'rsatuvdagi holat dalillari noto'g'ri yoritilganligi, tasmol noto'g'ri ekanligi aniqlanadi. Eksperiment natijalari, ularning qanday shaklda, turda bo'lishidan qat'i nazar, qonun talabi asosida baholanishi va ish materialiga qo'shilishi zarur. Sud muhokamasi jarayonida o'tkazilgan eksperimentning natijalari, sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi va tegishli talablar asosida baholanadi.

Nazorat savollari:

1. Eksperiment tergov harakati tushunchasi va ahamiyatini izohlab bering. U boshqa tergov harakatlaridan qaysi xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi?

2. Tergov eksperimentini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida tergovchining harakatlariga baho bering. Tergov eksperimentini o'tkazish tartibi va taktikasi qanday tanlanadi? Tergov eksperimentining natijalarini qay tartibda rasmiylashtiriladi?

Kazuslar:

1-kazus

Fuqaro Sobirov N. Yunusobod tuman prokuraturasiga murojaat etib, o'z xotinini mast holatda o'ldirib qo'yganligini tan olgan. U o'zining xotini bilan munosabatlari yaxshi bo'lmaganligini, ishdan kelib uni o'ldirib qo'yganligini, aytib o'z aybini bo'yniga olish to'g'risida ariza yozdi. Ayblanuvchi Sobirov N. so'roq qilinganida u xotining chap yelkasiga pichoq bilan urganligi, so'ngra yurak tomoniga pichoq bilan urganligini aytdi. Sobirov N.ning bo'yi xotinidan past bo'lganligi sababli tergovchi jarohatning tepadan turib jabrlanuvchining chap yelkasiga urilganligi bois Sobirov N ning ko'rsatuvlaridan shubhalandi.

Ushbu vaziyatda tergov eksperimenti o'tkazilishi mumkinmi?

Tergov eksperimenti natijasida qanday holatlar aniqlanish mumkin?

2-kazus

Sobirovlarning xonadoniga o'g'ri tushganligi bo'yicha tezkor xabar kelib tushishi natijasida IIV xodimlari tomonidan o'g'ri qo'lga olindi. O'g'rilik sodir bo'lish vaqtida uyda hech kim bo'lmaganligi, uyga o'g'ri tushganligini esa Sobirovlar oilasining qo'shnisi Alimov A. ko'rib qolganligi aniqlandi. O'g'ri uydan chiqib ketayotgan paytda muzlatgich bilan qo'lga tushgan. Ayblanuvchi sheriklari bo'lmaganligini va muzlatgichni o'zi ko'tarib chiqqanligini aytdi.

Ushbu vaziyatda ayblanuvchining ko'rsatuvlari to'g'riligini aniqlash uchun tergov eksperimenti o'tkazilishi mumkinmi?

Tergov eksperimenti qanday samara berishi mumkin?

16-MAVZU. KO'RSATUVLARNI HODISA JOYIDA TEKSHIRISH TAKTIKASI

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish tushunchasi va vazifasi. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishga tayyorgarlik ko'rish. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishning protsessual tartibi va taktikasi. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish natijalarini rasmiylashtirish.

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish tushunchasi va vazifasi

Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ba'zan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, guvohlar hamda jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini tekshirilayotgan hodisa sodir bo'lgan joyda holatlarni qayta tiklash yo'li bilan tekshirib ko'rish, ularni bir-biri bilan taqqoslash zarurati yuzaga keladi. Bunday taqqoslash ayrim hollarda tergovchiga olingan axborotni tez va aniq tushunish, uning rostligi yoki yolg'onligiga, shuningdek daliliy ahamiyatiga baho berishga ko'maklashadi.

Esda tuting! Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish – bu ilgari berilgan ko'rsatuvlarni tekshirilayotgan voqea bilan bog'liq joyda tekshirish yoki ularga aniqlik kiritish yo'li bilan yangi holatlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan mustaqil tergov harakati.

Boshqa tomondan, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) ba'zan o'zi jinoyat sodir etgan yoki jabrlanuvchining murdasi ko'milgan, jinoyat quroli tashlab yuborilgan joyni aniq tavsiflab bera olmaydi. Bu holda uning ko'rsatuvlarini u ixtiyoriy ravishda ko'rsatishga rozi bo'lgan hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish talab etiladi.

E'tibor qiling! Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish vazifalari:

- 1) ish materialidagi dalillarni tekshirish;
- 2) ko'rsatuvlardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- 3) yangi dalillarni aniqlash;
- 4) jinoyatni keltirib chiqargan shart-sharoitlarni aniqlash.

Ba'zan so'roqlarda tergov qilinayotgan voqeaning tafsilotlari to'g'risida ma'lumot bergan bir nechta shaxslarning ko'rsatuvlarini tekshirish zarurati paydo bo'ladi. Ularning ko'rsatuvlari real sharoitlar bilan solishtirilganda, tekshiruv jarayonida ular hodisa sodir bo'lgan joy sifatida turli joylarni ko'rsatganlari aniqlanishi mumkin. Bunday

tafovutlar, tabiiyki, ular bergan ko'rsatuvlarning haqqoniyligiga shubha tug'diradi, tergovchini ko'rsatuvlarda jiddiy ziddiyatlar yuzaga kelishi motivlari yoki sabablarini aniqlashga da'vat etadi.

Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs hodisa sodir bo'lgan joyda bir vaqtning o'zida ko'rsatish, ko'zdan kechirish yoki ba'zi narsalarni, hujjatlarni, izlarni olish yoxud muayyan harakatlarni namoyish qilish orqali tushuntirish beradi yoki o'zining avval bergan ko'rsatuvlariga aniqlik kiritadi.

E'tibor qaratng! Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish uchun asoslarni belgilashga bag'ishlangan O'zR JPKning 132-moddasida ushbu tergov harakatining maqsadi ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma'lum, surishtiruvchi, tergovchi va sudga esa noma'lum bo'lgan narsalar, hujjatlar, izlar va belgilarni topish; shaxsning tergov yoki sud muhokamasi davomida topilgan narsalar, hujjatlar, izlar qayerda bo'lganligini ko'rsatib berishi; bir necha shaxsning ayni bir hodisa to'g'risida bergan ko'rsatuvlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishda ahamiyatli bo'lgan joy yoki yo'nalishni shaxs ko'rsatib berishi; holatlarni qayta tiklash va hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoit bilan qiyoslash orqali ko'rsatuvlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

Bir vaqtning o'zida bir necha shaxsning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishga, shuningdek tekshiruv jarayoniga chetdan aralashishga, gap o'rgatishga va ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: ko'rsatuv bergan shaxs tekshirilayotgan hodisaning sharoit va holatini joyida tiklaydi; ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni, hujjatlarni, izlarni qidirib topadi va ko'rsatadi; ayrim harakatlarni namoyish qiladi; tekshirilayotgan hodisada u yoki bu narsaning qanday ahamiyati bo'lganligini ko'rsatadi; hodisa sodir bo'lgan joyda sharoitning o'zgarganligiga e'tiborni qaratadi; o'zining avvalgi ko'rsatuvlarini aniqlashtiradi va ularga oydinlik kiritadi. Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs erkin so'zlab bergach va harakatlarni erkin namoyish qilib bo'lgach, unga savollar berilishi mumkin.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish – bu keng ko'lami, murakkab tergov harakati bo'lib, u boshqa bir qator protsessual harakatlar (hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tergov eksperimenti, so'roq qilish, tanib olish uchun ko'rsatish)ni ham o'z ichiga oladi. Mazkur tergov harakatining o'ziga xos bo'lgan sifat va mohiyati bilan boshqa protsessual harakatlardan farq qiladi.

Ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs xabar qilgan tafsilotlar yuz bergan voqea manzarasiga oydinlik kiritadi, hodisa sodir bo'lgan joyning moddiy sharoitlari va ish bo'yicha qo'lga kiritilgan boshqa dalillar bilan ularni taqqoslash esa berilgan axborotning rostligi yoki yolg'onligi haqida yanada aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish o'z-o'ziga tuhmat qilish, birov sodir etgan jinoyat uchun aybni o'z bo'yniga olish hollarini fosh etishda, ayniqsa, muhimdir. Bunday vaziyatlarda jinoyatni amalda sodir etmagan shaxs jinoyat voqesasining haqiqiy jinoyatchi bilishi lozim bo'lgan holatlari va tafsilotlaridan bexabar bo'ladi.

E'tibor qiling! Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishda ma'lumotlar taxminan to'rt manbadan olinadi: 1) so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvidan; 2) hodisa joyidagi faktik holatlardan; 3) hodisa joyida ko'zdan kechirish jarayonida so'roq qilish bilan olinadigan ma'lumotlardan; 4) ko'zdan kechirish natijasida olinadigan axborotlardan.

Ko'rsatilgan manbalardan olingan ma'lumotlarni tekshirishda quyidagi bir qancha ishlar amalga oshiriladi:

– dastlab so'roq qilingan ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh, jabrlanuvchilar, haqiqiy jinoyat sodir bo'lgan joydan to'la xabardor bo'lmasliklari natijasida qisman noto'g'ri ma'lumotlar beradilar;

– ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishda esa real hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoitni, holatni ko'rib avval bergan ko'rsatuvlarini to'ldiradi, aniqroq qilib oydinlashtiradilar;

– hodisa joyiga olib borilgan shaxslar noto'g'ri yoki to'la bo'lmagan ko'rsatuvlar bilan joydagi holat-sharoitni solishtiradilar, bu esa ularning ruhiyatiga ta'sir etadi va ular ko'rsatuvdagi nuqson xatolarni to'g'rilaydilar.

So'roq jarayonida to'g'ri ko'rsatuv ma'lumot berganlar ba'zan bergan ma'lumotlarining ayrim jihatlarini beixtiyor unutib qoldirib ketishlari ham mumkin bo'ladi. Hodisa joyiga borganda esa unutilgan, aytilmay qolgan holatlar xotirada tiklanadi va ko'rsatuv to'ldiriladi va unga aniqlik kiritiladi.

So'roq jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ko'p hollarda yolg'on ko'rsatuv beradilar. Hodisa joyiga olib borilganda ma'lumotlardagi va ish yuzasidan yig'ilgan dalillar bilan uning ko'rsatuvi orasidagi ziddiyatlarni ko'rib to'g'ri tushuntirish berishga majbur bo'ladi. Agar hodisa joyida ko'rsatuvni tekshirish jarayonida yangi holatlar ochilsa, bunday vaziyatda avval shu joyni ko'zdan kechirish o'tkazib,

so'ngra so'roqda olingan ma'lumotlar bilan solishtirib tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan faktlarni yakunlab quyidagicha xulosalarga kelish mumkin.

Ma'lumot uchun! Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish bu mustaqil tergov harakati bo'lib, uning mazmuni jinoyat ishi yuzasidan so'roq qilingan ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini jinoyat sodir bo'lgan joyda ayrim holatlarni qayta tiklash bilan noma'lum bo'lgan narsalar, hujjatlar, ashyoviy dalillar, izlar qayerda bo'lganligini, hodisa joyi bilan qiyoslash orqali ko'rsatuvlardagi ayrim holatlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, mazkur tergov harakatini o'tkazishda so'roqqa olingan ma'lumotlarning ayrim holatlari to'ldiriladi, ularga aniqlik kiritiladi, ba'zan yangi holatlar ham ochilib qoladi.

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishning vazifasi sodir bo'lgan jinoyatning to'g'ri va tezda tegishli muddatlarda ochish, ish yuzasidan dalillarni to'plash, ularni baholash va jinoyat ishi tergovini xolisona obyektiv tugallanishini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur tergov harakatini o'tkazishdan maqsad olingan ko'rsatuvdagi ayrim ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri ekanligini tekshirishdan va yangi ma'lumotlarni olishdan iborat. Hodisa joyida ko'rsatuvlarni tekshirishda tekshirilayotgan ma'lumotlar, albatta, jinoyat ishiga yoki uning alohida holatlariga aloqador bo'lishi lozim va tekshirish natijalari tegishli protsessual tartibda mustahkamlanib, boshqa tergov harakatlari natijalari bilan solishtirib baholangan taqdirdagina ish yuzasidan dalil bo'lib xizmat qiladi va ayblov xulosasiga asos bo'ladi.

Ko'rsatuvni hodisa bo'lgan joyda tekshirishga tayyorgarlik ko'rish

Har qanday tergov harakatini o'tkazishdan avval unga tayyorgarlik ko'rilishi zarur bo'lganidek, ushbu tergov harakatiga ham puxta tayyorgarlik ko'rish va tashkiliy masalalarni hal etish lozim. Mazkur tergov harakatini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishda tekshirish predmeti bo'lgan va asosiy tekshiriluvchi manba so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvni yuzasidan uning joyi, vaqti va holatlari tekshirilishi lozimligi belgilab olinadi.

Ko'rsatuvni hodisa bo'lgan joyda tekshirish jarayonida yangi holatlar ochilib qolsa, jumladan, noma'lum murdani dafn etilgan joyi, jinoyat qurollari berkitilgan va izlar niqoblangan joylar ma'lum bo'lib qolsa, shu ko'rsatilgan joyga so'roq qilingan shaxs (ayblanuvchi, gumon qilinuvchi) bilan ularning ishtirokida mazkur joylarni ko'zdan kechirish lozim va

bayonnomani ham ko'zdan kechirish harakati sifatida rasmiylashtirilib, so'ngra zarurat bo'lsa, ko'rsatuvni tekshirish o'tkazilishi lozim.

Hodisa joyida ko'rsatuvlarni tekshirish harakatini muvaffaqiyatli va natijali o'tkazish uchun ilgari bu yerda o'tkazilgan ko'zdan kechirishga oid materiallar ham bo'lishi kerak. Bu hodisa joyini ko'zdan kechirish bilan mazkur tergov harakati orasida birmuncha vaqt o'tib, atrof-muhit o'zgarishi bilan dastlabki holatning sharoiti ham o'zgarib ketishi va ashyoviy dalil bo'lgan buyumlar, izlar o'zgarib yo'qolib ketishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Shu sababdan ko'rsatuvlarni tekshirishdan oldin ularni jinoyat ishidagi materiallar bilan qiyoslab tahlil qilish va ko'zdan kechirish bayonnomasidagi holatlarni ko'rsatuvdagi ma'lumotlar bilan mosligi, zidligi yoki boshqacha bog'liqligini tekshirish kerak.


Hodisa joyida ko'rsatuvlarni tekshirishga tayyorgarlik ko'rishda ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxslarning hodisa joyiga olib borish chora-tadbirlari ham belgilab olinishi lozim. Ayniqsa, ehtiyot chorasi sifatida qamoq qo'llanilgan ayblanuvchilarning ishtiroki zarur bo'lgan taqdirda, ularni hodisa joyiga olib borishda xavfsizlik choralari ham nazarda tutilishi lozim.

Ayblanuvchi va gumon qilinuvchilarning roziligini olish va tergov harakatini o'tkazishda mavjud bo'lgan asoslar bilan tanishtirish ham tayyorgarlik choralaridan biridir. Ayblanuvchi va gumon qilinuvchilar hodisa joyiga chiqishdan bosh tortishi yoki xohish bildirishi mumkin. Ikkala holatning sababini psixologik va taktik jihatdan tahlil qilish lozim. Joyga chiqib ko'rsatuvni tekshirishga rozi bo'lgan ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi rost va xolisona ko'rsatuv berganligini bildiradi. Shu bilan birga, ular boshqa maqsadni ham ko'zlashi mumkin, sheriklarining qilmishini yashirish, jinoiy javobgarlikdan o'zini qutqarish uchun qochishni mo'ljallash v. b.

Mazkur tergov harakatlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda unda ishtirok etadiganlarning shaxslari belgilanishi lozim. Har qanday tergov harakatida ishtirok etadigan ikki xolis zarurat bo'lganda mutaxassis va xavfsizlik choralari ta'minlash uchun tegishli tezkor xodimlar ko'rsatuvi tekshiriladigan (ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchi) shaxslarning qatnashuvini belgilab qo'yilishi lozim. Tergov harakatini o'tkazishda zarur bo'lib qoladigan ilmiy-texnik vositalarni ham tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda hodisa ro'y bergan joyga olib boruvchi yo'l, joyning o'zi, u yerdagi izlar, ashyoviy dalillarning yashirilgan, topilgan

joylarini mustahkamlab tasvirga zarur bo'ladigan foto-kino apparatlari, video tasvir yozish jihozlari, zarurat bo'ladigan hollarda qidiruv asboblari, ba'zilarida esa xizmat itlarini ta'minlash zarur. Bu choralarni hodisa joyiga chiqishdan oldin tayyorgarlik ko'rish bosqichida belgilanishi zarur.



Hodisa joyiga chiqish vaqtini ham oldindan belgilab olish lozim. Qoida tariqasida tergov harakatlari kunduzgi vaqtda o'tkazilgani kabi ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish ham kunduzi, maqbul sharoitda o'tkazilmog'i va transport vositalari bilan ta'minlanmog'i lozim. Hodisa joyiga borish yo'llari oldindan aniqlanib olinmog'i, qayerdan va qaysi tomondan borish ma'qulroq bo'lishi belgilanishi kerak. Tekshiriladigan joyda qidiruv (yerni qazish, ariq, zovur, changalzorlarning orasini tekshirish kabi) ishlari o'tkazilishi mo'ljallansa, ularni amalga oshirishga zarur bo'ladigan qurol va asboblarni hamda bu ishlarni bajarishga ishchilarni jalb etish masalasi ham hal etiladi.

Hodisa joyiga etib borish uchun kichik ixcham avtobus bo'lishi ma'qul, bu yo'nalish davomida suratga olishni osonlashtiradi. Joyning

o'zida esa aloqa vositasi ham ta'minlanishi lozim. Tergov harakatini rasmiylashtirish uchun yozish-chizish vosita qurollari ham nazarda tutilishi kerak.

Hodisa joyida ko'rsatuvlarni tekshirish jarayonida yangi holatlar ochilib qolishi mumkin, masalan, murda yoki uning bo'lagi, jinoyat quroli topilib qolgan hollarda, ana shu joylarni va obyektlarni ko'zdan kechirib rasmiylashtirish lozim bo'ladi. Shu joyning o'zida zarur bo'lsa, ayblanuvchini, gumon qilinuvchini qayta so'roq qilish va so'ngra ko'rsatuvlardagi ayrim holatlarni aniqlab, tekshirib, ma'lumotlarni to'ldirish masalalarini nazarda tutish zarur.

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishning protsessual tartibi va taktikasi

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs unutilgan faktlar va holatlarni eslash jarayonlarining faollashuvi natijasida xabar qiladigan to'ldirishlar hisobiga voqeaning ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan tafsilotlari va holatlarini aniqlash imkonini beradi. Hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlari tiklanishi ta'sirida ularning jonlanishi – xotirada gavdalanishi yuz beradi. Bundan tashqari, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs jinoyatni sodir etish quroli, jabrlanuvchining murdasi, unga tegishli bo'lgan narsalar yashirib qo'yilgan joyni ko'rsatishi mumkin.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirishning protsessual qoidasi JPK 133-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga binoan mazkur tergov harakatini o'tkazish oldidan surishtiruvchi yoki tergovchi xolislar ishtirokida tekshirilayotgan ko'rsatuvlarni e'lon qiladi. Ko'rsatuv bergan shaxsdan ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga ehtiyoj bor yoki yo'qligini so'raydi, tekshirishning maqsadi va tartibini tushuntiradi. Basharti guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlari tekshirilayotgan bo'lsa, ular ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va atayin yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi.

Ushbu tergov harakati ilgari so'roq qilingan shaxs tergov qilinayotgan jinoyat, uning moddiy sharoitlari, ayrim holatlari va tafsilotlari to'g'risida chindan ham xabardorligini aniqlashga qaratiladi. Hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlari bilan ishni o'z yurituviga boshqa tergovchidan qabul qilib olgan va hodisa sodir bo'lgan joyni o'zi ko'zdan kechirmagan tergovchining tanishishi ham maqsadga muvofiq. Shunda u guvohlar, jabrlanuvchi, ayblanuvchining ko'rsatuvlarini tushunishi va baholashi oson bo'ladi.

E'tibor qarating! Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning quyidagi turlari farqlanadi. Ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxslar soniga qarab tekshiruv faqat bir shaxs, so'ng ikkinchi, uchinchi va hokazo shaxslar bilan o'tkazilishi mumkin. Tekshiruvlar o'tkazilgandan keyin olingan natijalar bir-biri bilan taqqoslanadi va ularga umumiy baho beriladi. Ko'rsatuvlarni tekshirish tergov qilinayotgan bitta yoki bir nechta voqeaga nisbatan o'tkazilishi mumkin. Tekshiruv tergovchiga ma'lum bo'lgan va ilgari hodisa sodir bo'lgan joy sifatida ko'zdan kechirilgan joyda va agar jinoyat yashirin bo'lib qolgan yoki ochilmagan bo'lsa, tergovchiga ma'lum bo'lmagan joyda o'tkazilishi mumkin.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish shunday tashkil etilishi, o'tkazilishi va qayd etilishi lozimki, keyinchalik uning natijalariga shubha tug'ilmasin. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish niqobi ostida o'z aybiga iqror bo'lib arz qilishni mustahkamlash harakatlarini o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Xolislarni tanlab olayotganda bu odamlar o'tkazish mo'ljallanayotgan tergov harakatining ancha murakkab tafsilotlarini tushunish va eslab qolishga qodir ekaniga ishonch hosil qilish zarur. Bo'lg'usi tekshiruv mohiyati, uning maqsad va vazifalari ularga tushuntirilishi, ular tergov harakatini o'tkazish jarayoni va uning natijalari bilan bir qatorda, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs voqea yuz bergan joyni ko'rsatgani, muayyan harakatlarni mustaqil ravishda bajarganini ham tasdiqlashlari lozimligi ko'rsatib o'tilishi kerak.

Agar bir nechta gumon qilinuvchilar (ayblanuvchilar)ning ko'rsatuvlari tekshirilayotgan bo'lsa, ularning bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyati istisno etilishi, hodisa sodir bo'lgan joyga har safar boshqa xolislari olib chiqilishi lozim, shunda ular sudda so'roq qilinganda turli tekshiruvlarni chalkashtirib yubormaydi va har bir tekshiruv jarayoni va ularning natijalari to'g'risida aniq ko'rsatuvlar beradi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish jarayonida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga harakat yo'nalishini o'rgatish yoki ishora qilishga yo'l qo'yilmaydi. Tekshiruv jarayonida tergovchi ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning harakatlariga baho bermasligi kerak. Aniqlik kirituvchi va qo'shimcha savollar unga faqat erkin so'zlash va ko'rsatish, shuningdek muayyan harakatlarni bajarish yakunlanganidan keyin berilishi mumkin. Tekshiruv faqat ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning roziligi bilan o'tkaziladi, aks holda vaqt behuda sarflanishi mumkin.

Tekshiruv jarayoni va natijalarini fotosuratga olish yoki videotasvirga tushirish yo'li bilan qayd etish shunday amalga oshirilishi lozimki, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs oldinda borayotgani va

harakat yo'nalishini belgilayotganini ko'rinib tursin. Fotosuratga olish yoki videotasvirga tushirish yon tomondan amalga oshirilgani ma'qul, shunda ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs keyinchalik u video yoki fotooperator ortidan borganini da'vo qila olmaydi. Turli tomonlardan syomka tekshiruv joyining o'zida amalga oshiriladi.

Agar ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs tergovga ma'lum bo'lmagan faktlar to'g'risida ko'rsatuvlar bergan, ilgari ko'zdan kechirilmagan joylarni ko'rsatgan bo'lsa, tekshiruv bunday joylarni sinchiklab ko'zdan kechirish, ularda ashyoviy dalillar – izlar va narsalarni topish, ularni olib qo'yish bilan to'ldiriladi. Agar ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs tergovga ma'lum joyni ko'rsatgan bo'lsa, asosiy e'tibor gumon qilinuvchi tomonidan jinoyatni sodir etish holatlarining tiklanishi ilgari qayd etilgan holatlar bilan qay darajada mos kelishini aniqlashga qaratilishi lozim.

Tekshiruvni o'tkazishdan oldin so'roqda tergov qilinayotgan voqea yuz bergan joy, so'roq qilinuvchi u yerga qanday etib borgan, u yerda nima sodir bo'lgani, joy sharoitlarining qaysi detallarini u eslab qolgani va hokazolar to'g'risida mumkin qadar batafsil ko'rsatuvlar olish zarur. So'roq qilinuvchi ushbu joyga bo'lg'usi harakat yo'nalishi sxemasini o'zi chizib bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tekshiruvda ishtirok etish uchun mutaxassislar, sud tibbiyoti xodimi, ishchilar, pedagog, tarjimon, qurolli soqchilar (agar tekshiruv qamoqqa olingan va qochishni sodir etishi mumkin bo'lgan ayblanuvchi bilan birga o'tkazilayotgan bo'lsa) jalb qilinishi mumkin.

Protsessual qonunda ko'rsatilishicha mazkur tergov harakatini o'tkazish chog'ida ko'rsatuv bergan shaxs o'ziga ma'lum bo'lgan, tekshirilayotgan hodisaning ayrim sharoiti, holatini tiklaydi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hujjatlar, izlar topilgan joylarni ko'rsatadi, ayrim harakatlarni namoyish qiladi, hodisa sodir bo'lgan joyda sharoitning o'zgarganligiga e'tiborni qaratadi, o'zining avvalgi ko'rsatuvlarini aniqlashtiradi va ularga oydinlik kiritadi.

Ushbu tergov harakatini o'tkazishda tergovchi hozir bo'lgan ishtirokchilarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi va bu to'g'risida tergov harakatining bayonnomasida qayd etadi. Tergov harakatining ishtirokchilariga tekshiruv maqsadi, vazifalari tushuntiriladi, ularning ishtirok etishdagi vazifasi belgilanadi.

Hodisa joyiga kelishda tergovchi ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxsga yo'lning to'g'riligi, hodisa joyiga yo'nalishni ko'rsatishni taklif etadi va

boshqa qatnashuvchilarga bu harakatni diqqat bilan kuzatishni va ayrim ishga ahamiyatli bo'lgan holatlarga e'tibor berishni tavsiya etadi.

Hodisa joyida ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs hech qanday chetdan ta'sir, sha'ma yoki yordamchi tushuncha so'zlar kiritilmasdan o'zi erkin ravishda tushuncha berishi lozim. Umumiy so'roq o'tkazishda qo'llanadigan tartib-qoida bu holatda ham to'liq tatbiq etilishi mumkin. Ba'zi hollarda mazkur tergov harakati o'tkazilgan va hodisa ro'y bergan vaqt orasida ma'lum muddat o'tgan bo'ladi. Shu sababli tushuncha berish jarayonida ilgari so'roq qilingan shaxs ayrim fakt va holatlarni yodidan chiqarib qo'yishi mumkin. Bunday sharoitda tergovchi so'roq qilingan vaqtdagi xabar-ma'lumotlarni uning ko'rsatuvidan o'qib e'lon qiladi va shu bilan voqeaning ayrim holatlarini eslashga yordam beradi.

Ko'rsatuv bergan shaxs hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirilayotgan hodisaning sharoit va holatini tiklaydi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni, hujjatlarni, izlarni qidirib topadi va ko'rsatadi, ayrim harakatlarni namoyish qiladi, tekshirilayotgan hodisada u yoki bu narsaning qanday ahamiyati bo'lganligini tushuntiradi. Mazkur holatlarda ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning harakatiga, tushuntirishiga aralashish, gap qo'shish yoki o'rgatish va ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmaydi.

Ko'rsatuvlarni tekshirish paytida hodisa sodir bo'lgan joy atrof-muhit sharoitining o'zgarganligiga e'tiborni qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tergovchi ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga hodisa joyiga borish uchun yo'nalishni ko'rsatishni taklif qiladi, shunda barcha tergov harakati ishtirokchilari birgalikda ko'rsatilgan yo'l bo'yicha hodisa joyi tomon yo'l oladi. Ushbu vaqtda tergovni ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning erkin, hech qanday tashqi ta'sirsiz, mustaqil va o'z ixtiyori bilan yo'lni ko'rsatib, joyga borishi va u yerda qanday harakat yoki holatni bo'lganligi haqida aytishini kuzatib turadi.

Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs hodisa joyini umumiy chegarasini belgilab ko'rsatadi, tergovchining tekshiruv, nazorat qiluvchi yoki qo'shimcha savollariga javob beradi. Javob berishda so'roq qilingan shaxs jinoyat sodir qilingan joyning ayrim holatlarini, tekshirilishi lozim bo'lgan faktlarni dastavval so'roq qilinganda qanday tartib va ketma-ketlikda so'zlagan bo'lsa, shunday tarzda ko'rsatib, hodisa joyidagi o'zgarishlarni, buyum va ashyoviy dalil va izlarning topilgan, yashirilgan joylarini ko'rsatadi, tushuntirib beradi.

Hodisa joyida tergovchi ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga jinoiy harakatning ayrim vaziyatlarini takror ko'rsatish, uni kerak bo'lsa, qiyoslab ko'rsatishni taklif qilishi, ayrim holatlarni jinoiy hodisa bilan bog'liqligini tushuntirib berishini talab qiladi. Tekshirilayotgan ko'rsatuvdagi holatlar hodisa joyidagi vaziyatga to'g'ri kelmasa, ba'zida ziddiyatli vaziyatlar mavjud bo'lib qolsa, tergovchi bular haqida savol-javob qilib ziddiyatli holatlarni bartaraf qilishi zarur.

Ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga u yerkin so'zlab, tegishli harakatlarni namoyish qilganidan so'ng ko'rsatuvdagi ayrim holatlarni aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkin. Tergov harakatida ishtirok etuvchilar ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga tergovchining ruxsati bilan savol berishlari mumkin.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirish natijasida aniqlanadigan ma'lumotlar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

– so'roq vaqtida xabar berilgan joy haqiqatda hodisa ro'y bergan joymi yoki boshqami;

– hodisa sodir bo'lgan joy so'roq qilinganning ko'rsatuvidagiga to'g'ri keladimi;

– ko'rsatuvda bayon qilingan ashyoviy dalil topilgan joy, jinoyat sodir bo'lgan yoki izlari topilgan joylar qanchalik aniqlangani;

– ko'rsatuvda qayd qilingan shaxsning hodisa joyidagi harakati, qayerda va qanday harakatlarni sodir qilganligi;


– so'roq qilinganning ko'rsatuvda aytilmagan yangi holatlarning ma'lum bo'lishi.

E'tibor qiling! Bu harakatni o'tkazishning asosiy maqsadi to'plangan dalillar yuzasidan ularning qanchalik haqiqatga yaqinligiga baho berish, aniqrog'i ayblanuvchining bergan ko'rsatuviga baho berishdir.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirishda tergovchining boshqaruvchilik roli va ta'siri sezilib turishi lozim. Uning topshiriqlari asoslangan, mantiqan ravon va to'g'ri ta'riflangan bo'lishi kerak. Zero, qo'pol va asossiz topshiriqlar doimo salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirishda tergovchi ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning ruhiy holatini, o'zini tutishini va harakatlarini sinchkovlik bilan kuzatib borishi lozim. Bu uslub so'roq qilinayotgan shaxs haqiqatda jinoiy hodisaning ishtirokchisi, guvohi bo'lmay, balki bu to'g'risida boshqalardan eshitib, mazkur joydagi holatning barcha jihatlarini bilmasligi va aniq tushunchaga ega emasligini aniqlashga yordam beradi.

Agar ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs voqea joyidagi vaziyat ta'siri ostida o'zining ilgari ko'rsatuvini rad etib, uni noto'g'ri deb e'lon qilsa, u holda ko'rsatuvni tekshirishni darhol to'xtatish va takroran so'roq o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday holda hodisa joyida ko'rsatuvni tekshirish harakatining bayonnomasida "so'roq qilingan shaxs tekshirilayotgan voqeaning joyini va holatini ko'rsata olmadi va ilgari bergan ko'rsatuvini o'zgartirdi", deb bayonnomada qayd etiladi.



Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish natijalarini rasmiylashtirish

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish tergov harakatining natijalarini rasmiylashtirish JPK 134-moddasi asosida amalga oshiriladi. Har qanday tergov harakati singari ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish natijalari ham tegishli bayonnomada to'la va batafsil ifodalanishi zarur.

Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish bayonnomasi **uch** qismdan iborat bo'lib, **kirish** qismida tergov harakatining o'tkazilish joyi, vaqti, kim o'tkazayotganligi (lavozimi, mansabi, familiyasi) boshlangan va tugatilgan vaqti, tergov harakatining qatnashchilari, jinoyat ishi yuzasidan so'roq qilingan ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga so'roq vaqtida bergan ma'lumotlarini hodisa joyida takrorlab, tasdiqlab berishga tayyormi degan savol berilganligi va uning tasdiqlovchi javobi olinganligi haqida ko'rsatiladi.

Bayonnomaning **bayonot-tavsif qismi** eng muhim bo'lib, tergov harakati boshidan oxirigacha qanday oldinma-ketinlikda o'tkazilgan bo'lsa, shunday tartibda qayd etilmog'i zarur. Hodisa joyiga qanday yo'nalishda borilganligi, yo'lni ko'rsatib tushuncha berishi, ayrim joylarning o'ziga xos belgi, mo'ljallarini ko'rsatib olib borayotgan shaxslarning ko'rsatuvidagi holatlariga mos kelishi haqida ma'lumotlar mazkur qismda yoziladi.

Ko'rsatuvning hodisa joyida tekshirish jarayonida ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning nomidan uning bergan tushunchalari, ko'rsatilgan joylari haqida tergovchining aniqlashtirishga qaratilgan savollari va ularga berilgan javoblari batafsil yozilishi kerak. Tergov harakatining ishtirokchilari, jumladan, xolislar ham savol berishlari mumkin. Qatnashchilar aniqlangan ma'lumotlar, topilgan ashyolarni kuzatib qayd qilinganligi haqida bayonnomada aks ettiriladi.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirish bayonnomasida mazkur tergov harakatini o'tkazishning butun jarayoni va uning natijalari to'liq yoziladi. Bu ko'rsatuvni tekshirish harakati ishtirokchilarining voqea joyida borgan yo'l marshruti, hodisa joyidagi sharoit, predmetlar va boshqa holatlar ko'rsatiladi. So'roq qilingan va ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning harakatlari va tushuntirishlari, unga berilgan savollar va bu savollarga olingan javob-tushuntirishlarning ma'nosini o'zgartirmasdan, qanday ifodalangan bo'lsa, shunday shaklda qayd qilmoq lozim. Bayonnomaning bayonot qismida ma'lumotlar, ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning aytgan xabarlari, tushuntirishlari so'zma-so'z uning nomidan yoziladi. Mazkur shaxsning tushuntirishlari savolga bergan javoblari birinchi shaxs, harakatlari esa uchinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Tergov harakatini o'tkazish jarayonida bayonnomada qanday ilmiy-texnika vositalari qo'llanilganligi to'g'risida, ya'ni fototasvirga yoki videotasvirga tushirilganligi, qidiruv asboblarining qo'llanilganligi, fotosuratlarning tartib raqami, shuningdek videoga olishning boshlangan va tugallangan vaqti hamda bu ishlarni amalga oshirishi apparatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirish bayonnomasining **yakunlovchi qismida** ishtirokchilardan tushgan takliflar qo'llanilgan ilmiy-texnik vositalar hamda tuzilgan reja, chizmalar haqidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Bayonnomaning yakunlovchi qismida videotasma, fotosurat, joyning chizmasi, turli marshrut yo'nalishlarining grafiklari ilova qilinganligi ko'rsatib tasdiqlanadi. Tergov harakati natijasida topilgan, olingan izlar, daliliy ashyolar, moddalardan olingan namunalar ro'yxati keltiriladi.

Tergov harakatining ishtirokchilari tomonidan qanday taklif mulohazalar keltirilganligi ko'rsatilib, bayonnomaning mazmunida barcha harakat to'la va aniq qayd etilganligi tasdiqlanib imzolanadi.

So'roq bayonnomasi singari ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirish bayonnomasining har bir sahifasi tergov harakatining barcha qatnashchilari tomonidan imzolanib tasdiqlanadi.

Bayonnoma va unga ilova qilingan chizmalar, ovoz va tasvir yozilgan tasmalar, tergov harakatida ishtirok etganlar, jumladan, xolislarga, mutaxassisga va ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxslarga o'qib beriladi va ular bayonnoma bilan tanishtirilganligi haqida imzo qo'yadilar. Ko'rsatuvni hodisa joyida tekshirish sud tarkibi tomonidan o'tkazilgan taqdirda bu haqida yuqorida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

Nazorat savollari:

1. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish tergov harakati tushunchasi va vazifalarini tushuntirib bering. Ushbu tergov harakatini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad nima?

2. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida tergovchi tomonidan qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?

3. Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishning protsessual tartibi va taktikasi haqida so'zlab bering. Ushbu tergov harakatini o'tkazishda tergovchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

Kazuslar:

1-kazus

Bahodirov N. 2010-yilda bedarak yo'qolgan fuqaro Salimov T.ni Chilonzor tuman Yusuf Xos Hojib ko'chasida o'ldirganligini va uni Chirchiq kanaliga olib borib tashlab yuborganligi to'g'risida ko'rsatuv berdi. Tergov jarayonida fuqaro Salimov T. haqiqatdan ham 2010-yilda bedarak yo'qolgan deb e'lon qilinganligi va o'sha yili Chirchiq kanalidan shaxsi noma'lum murda topilganligi aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish qanday ahamiyatga ega hisoblanadi? Ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishning protsessual tartibi va taktikasi haqida so'zlab bering. Ushbu tergov harakatini o'tkazishda tergovchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

2-kazus

Fuqaro Azizov M. bir guruh shaxslar tomonidan do'pposlanib, og'ir tan jarohati yetkazilishi natijasida o'lganligi aniqlandi. Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslar qo'lga olindi va ularning har biri so'roq qilindi. So'roq qilish tergov harakati natijasida ba'zi bir noaniqliklar yuzaga keldi.

Tergovchi ushbu vaziyatda guruhning har bir ishtirokchisi jabrlanuvchiga qanday jarohat yetkazganligini aniqlash uchun ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini olib borishi mumkinmi?

Ushbu tergov harakati qanaday samarali natijalarga olib kelishi mumkin?

17-MAVZU. TINTUV VA OLIB QO'YISH TAKTIKASI

Tintuv tushunchasi va uning turlari. Tintuv o'tkazishning taktik usullari. Olib qo'yish tartibi. Tintuv va olib qo'yish natijalarini qayd etish.

Tintuv tushunchasi va uning turlari

Jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonida ba'zan insonga nisbatan majburiy xususiyat kasb etadigan faol qidiruv harakati – tintuv o'tkazish zaruratini paydo qiladi.

Esda tuting! Tintuv – bu muayyan shaxs yoki uning oila a'zolari yoxud tashkilotga tegishli bo'lgan turar joy binolari va boshqa imoratlar, hudud shaxsiy buyumlarni majburiy tekshirishga qaratilgan, vakolatli mansabdor shaxs tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlariga rioya etilgan holda, jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan daliliy axborotning aniq manbalarini topish va olib qo'yish maqsadida o'tkaziladigan tergov harakati.

Tintuv predmeti murda, uning qismlari, shuningdek tergov va sudan yashirilib yurgan jinoyatchi bo'lishi ham mumkin.

O'zR JPKning tintuv o'tkazish uchun asoslarni mustahkamlashga bag'ishlangan 158-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir. Tintuv qidirilayotgan shaxsni, shuningdek murdani topish uchun ham o'tkazilishi mumkin.

O'zR JPKning 159-moddasiga binoan, olib qo'yish yoki tintuv surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko'ra o'tkaziladi, bunda ular olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishni surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishga haqlidirlar. O'z xususiyati va vazifalariga ko'ra tintuv ma'lum bir jismoniy yoki yuridik shaxslardan oldindan belgilangan, jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan aniq narsalar va hujjatlarni ixtiyoriy, zarur hollarda esa majburiy olishdan iborat bo'lgan *olib qo'yish* bilan o'xshashdir. Olib qo'yishdan farqli o'laroq, tintuv o'tkazish vaqtida qidirilayotgan narsa va u yashirilgan joyni aniq bilish shart emas. Ayni shu sababli tintuvning asosini olib qo'yishga xos bo'lmagan izchil qidiruv harakatlarini tashkil etadi. Olib qo'yishda obyektlar shaxs ularni ixtiyoriy ravishda topshirishdan bosh tortgan holdagina majburiy tartibda olib qo'yiladi.

Etibor qarating! Tintuvning bevosita vazifalari quyidagilardan iborat: qidirilayotgan obyektlarni topish, ular yashirilgan joylarni, shuningdek topilgan obyektlarning o'ziga xos belgilarini qayd etish; olib qo'yilgan narsalarni jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yish.

Qidirilayotgan obyektlar soniga ko'ra **yakka tintuv** (bitta obyekt qidiriladi) va bir vaqtning o'zida bir nechta joyda (jinoyat ishtirokchilarining kvartiralarida, gumon qilinuvchining turar joyi, chorbog'i, avtomobili va ofisida) o'tkaziladigan **guruhiy tintuv** farqlanadi.

Shuningdek, **birlamchi** va **takroriy** tintuvlar ham farqlanadi. Takroriy tintuv quyidagi hollarda o'tkaziladi: a) birlamchi tintuv noqulay sharoitlarda o'tkazilgan bo'lsa; b) tintuv qiluvchilar kerakli qidiruv vositalariga ega bo'lmagan, tegishli mutaxassislar jalb qilinmagan bo'lsa; d) birlamchi tintuvda ayrim joylar tekshirilmay qolgan yoki ularning ayrimlari sinchiklab tekshirilmagan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa; e) birlamchi tintuvni o'tkazayotganda tergovchi qiziqmagan yangi narsalarni qidirib topish zarurati tug'ilgan bo'lsa; f) manfaatdor shaxslar oldindan yashirib qo'ygan qidirilayotgan narsalar tintuv o'tkazilgan binoga qaytarilgan, deb taxmin qilish uchun asoslar paydo bo'lgan bo'lsa.

E'tibor qarating! Tintuv obyektlari quyidagilar bo'lishi mumkin: uy, kvartira, xona, chorbog', dala hovlisi, hovlidagi imoratlar, xizmat yoki yordamchi binolar, garaj, hammom, transport vositalari: avtomobil, kater, yaxta, shaxsga mulk huquqida tegishli bo'lgan har qanday ko'chmas mulk (do'kon, rasta), shuningdek odam.

Qidirilishi mumkin bo'lgan narsalar doirasini belgilash ancha qiyin ish. Unga ko'pincha jinoyat qurollari (o'qotar va sovuq qurol, portlatish qurilmalari va portlovchi moddalar, zaharlar, gilyohvandlik vositalari, jinoiy yo'l bilan topilgan boyliklar va h.k.) kiradi. Olib qo'yishni o'tkazish chog'ida, qoida tariqasida, turli hujjatlar olib qo'yiladi.

Tintuv o'tkazish vaqtida yopiq binolarni yoki buyumlar saqlanadigan joyni uning egasi o'z ixtiyori bilan ochib berishdan bosh tortsa, tergovchining o'zi ularni ochishga haqli. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tintuv tunda o'tkazilishi ham mumkin. Tintuvni o'tkazish vaqtida tintuv o'tkazilayotgan binoning egasi yoki uning voyaga yetgan oila a'zolari, shuningdek uning advokati hozir bo'ladi. Qidiruv harakatlarini

o'tkazish jarayonida tergovchi tintuv o'tkazilayotgan joyda turgan shaxslarga bu yerni tark etish, luqma tashlash, telefon qo'ng'iroqlariga javob berish, tergov harakati yakunlanguniga qadar bir-biri yoki boshqa shaxslar bilan gaplashishni taqiqlashi mumkin.

Tintuv – psixologik jihatdan o'ta murakkab va sermehnat, ba'zan nizoli vaziyatda o'tkaziladigan tergov harakatlaridan biri. Tintuvni samarali o'tkazish unga puxta tayyorgarlik ko'rishni taqozo etadi. Tayyorgarlik tadbirlari tergovchi tomonidan tintuv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan tintuv o'tkaziladigan joyga kelguniga qadar amalga oshiriladi.

Tayyorgarlik tadbirlarining **birinchi bosqichi** jinoyat ishi materiallarini tahlil qilish, qidirilayotgan narsalar va ular yashirilishi mumkin bo'lgan joylar, tintuv qilinayotgan shaxsning, ba'zan uning qarindoshlarining fe'l-atvori haqida axborot to'plashni o'z ichiga oladi. Bu qidiruv harakatlarini boshlash uchun vaqtni, uning natijadorligini kafolatlovchi texnika vositalari va usullarini, tergov-tezkor guruhi a'zolari sonini to'g'ri tanlash, majburiyatlarni optimal taqsimlashni yengillashtiradi.

Qidirilayotgan narsalarning xususiyati va belgilari to'g'risida ma'lumotlarni ham protsessual manbalar (masalan, jabrlanuvchilarni so'roq qilish bayonnomalari)dan, ham tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olish mumkin. Bu ma'lumotlar ular yashirilishi mumkin bo'lgan joylar to'g'risida tasmollarni ilgari surishga yordam beradi.

E'tibor qarating! Zamonaviy qidiruv vositalari yashirilgan har qanday narsani topish imkonini beradi. Tergovchi tintuvni o'tkazish jarayonida mutaxassis-kriminalist yordamida zamonaviy o'lchash va optika vositalari, kuchli yorug'lik manbalari, portativ rentgen qurilmasi, gaz analizatorlari, metall va mina izlagichlar, magnitli izlagichlar va ko'targichlar, tok indikatorlari, qalbaki pul va portlovchi moddalar detektorlari, giyohvandlik vositalari ekspress-analizatorlari, endoskoplardan va ko'chma kriminalistik laboratoriyada jamlangan boshqa texnik-kriminalistik vositalardan foydalanishi mumkin.

Tintuv qilinayotgan shaxsning ruhiyati, fe'l-atvori va kasb-kori, sog'lig'ining holati, qiziqishlari haqida xabardorlik tergovchiga narsalar yashirilishi mumkin bo'lgan joylarni, ularni niqoblash usullarini prognozlashtirish imkonini beradi. Tintuv qilinayotgan, uning oila a'zolari va u bilan birga yashaydigan boshqa shaxslarning fe'l-atvorini bilish tintuv paytida tergovchi va uning yordamchilariga jismoniy qarshilik ko'rsatish yoki qidirilayotgan narsalarni yo'q qilib tashlash ehtimolini prognoz qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Tezkor manbalardan olingan tintuv o'tkaziladigan joy to'g'risida ma'lumotlar tergovchiga tergov-tezkor guruhini shakllantirish, kuchlarni joy-joyiga qo'yish, qidiruv harakatlarining oldinma-ketinligini va ularning real hajmini belgilashga yordam beradi. Tintuv obyektlarining xususiyatlarini, tintuv qilinuvchida mobil aloqa vositalari, qurol, qopag'on it, kasal oila a'zolari va hokazolar bor-yo'qligini aniqlagach, tergovchi guruhga kimni kiritish zarurligini, qaysi qidiruv texnik-kriminalistik vositalari talab etilishi mumkinligini belgilaydi.

Ikkinchi bosqich tadbirlari tintuv qilinayotgan obyektning qo'riqlanishini ta'minlash, unga kirish usulini tanlash, qidiruv harakatlarining natijadorligi uchun normal sharoitlarni yaratishdan iborat.

Tintuv turlarining xususiyatlari.

1. Turar joyda tintuv o'tkazayotganda tergovchi avval tintuv joyida mo'ljal olish uchun uni ko'zdan kechiradi, uning chegarasini belgilaydi, uni muayyan qismlarga ajratadi, qidirilayotgan obyektlar yashirilishi mumkin bo'lgan joylarni, ularni tekshirishning oldinma-ketinligini va qidirish usullarini belgilaydi, kerakli texnik-kriminalistik vositalarning turlarini aniqlaydi.

Turar joyni tekshirish jarayonida tergovchi o'zi tanlagan yo'nalishdan og'ishmay harakat qilishi lozim. Bunda, eng avvalo, umumiy foydalaniladigan joylar va qidirilayotgan narsalar yashirilishi mumkin bo'lgan joylar tekshiriladi.

Tintuvni o'tkazish chog'ida "og'zaki vaziyatni bilish" tavsiya etiladi. Bunda tergovchi navbatdagi tekshiruv obyektini baland ovozda e'lon qiladi va tintuv qilinayotgan bilan uning oila a'zolariga bu qanday ta'sir ko'rsatganini kuzatadi. Ruhiy zo'riqish vaziyatida og'zaki ta'sir ko'rsatish omili beixtiyor tashqi o'zgarishlarga (rang oqarishi, titroq turishi va h.k.) sabab bo'lishi mumkin. Shu holatga qarab qidiruv harakatlari to'g'ri yoki noto'g'ri yo'nalishda olib borilayotganini taxmin qilish mumkin. Tintuv qilinuvchi o'zi yashirgan narsalar baribir topilishini tushunib, ularni ixtiyoriy ravishda topshirishi ehtimoldan xoli emas.

2. Binoni tintuv qilayotganda tergovchi bir yo'nalishda (masalan, devor yoqalab) harakatlanishi, obyektlarni oldinma-ketin tekshirishi, so'ng xonasiga o'tishi, pol, shiftni ko'zdan kechirishi, shundan keyin boshqa xonaga o'tishi lozim. Tanlab tekshirish usuli birinchi navbatda qidirilayotgan narsalar yashirilishi mumkin bo'lgan, tergovchi tomonidan belgilangan joylarni tintuv qilishni nazarda tutadi.

Binolarda tintuv o'tkazayotganda xatti-harakatlar tartibi

1 Tintuv o'tkaziladigan joyga kelish

2 Binoga kirish

3 O'z hujjatlarini ko'rsatish; o'tkaziladigan tintuv haqida ogoh etish; bino egasini qaror bilan tanishtirish; barcha ishtirokchilarni bir xonaga to'planishga taklif etish; har bir kishining shaxsini aniqlash; ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish

4 Bino egasiga qidirilayotgan narsalarni topshirishni taklif etish

5 Tintuv o'tkaziladigan bino bilan tanishish; qidirilayotgan narsalar saqlanishi ehtimoli tutilgan joylarni belgilash; tintuv rejasini aniqlash; tintuv o'tkazuvchilar o'rtasida vazifalari taqsimlash va ularga yo'l-yo'riqlar berish

6 Qidiruv o'tkazish (binoni, uning tarkibiy qismlari va alohida narsalarni ko'zdan kechirish)

7 Tintuv jarayoni va natijalarini qayd etish

Tintuvning natijadorligi tergovchining tintuv o'tkazilayotgan joyda to'g'ri mo'ljal ola bilishi, tirishqoqligi, sabr-toqatligi, muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi. Tintuv o'tkazish uchun noqulay obyektlar (tutun mo'risi, yerto'la, yug'indi to'kiladigan o'ra, shunga o'xshash boshqa joylarni tekshirish)ni tekshirishdan voz kechmaslik kerak.

Taktik nuqtayi nazardan binoda tintuvni qidirilayotgan obyektlar yashirilishi mumkin bo'lgan joylardan boshlash, ularni texnik-kriminalistik vositalar yordamida tekshirish o'rinli bo'ladi. Ba'zan jinoyatchilar pul, boyliklar, hujjatlar, qurolni yashirish uchun xufiyadonlar yasaydilar va ba'zan ularni kutilmagan joylarga o'rnatadilar. Ularni topish va ochish qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Xufiyadonlar amalda har qanday joyda bo'lishi mumkin. Pol ostida ular odatda devorlar yaqinida yoki mebel, gilam, poyandoz tagida bo'ladi. Xufiyadon mebel predmetlarida tashkil etilgan bo'lishi mumkin, shu sababli tintuv paytida ularning ham ochiq, ham yashirin qismlarini tekshirish zarur. Mayda yassi narsalarni qidirayotganda kitoblar, albomlar, jumallarni ayniqsa sinchiklab tekshirish tavsiya etiladi. Ularni qoqish, varaqlash, muqovalarning qalinligini o'lchash, ularning holatini tekshirishga to'g'ri keladi.

3. Joyda tintuv o'tkazish tekshirilayotgan hudud (bog', dala hovli, tomorqa, chorbog')ning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Odatda, hudud kvadratlar, sektorlarga bo'linadi, ularning chegarasi bo'lib tabiiy sarhadlar xizmat qilishi mumkin. Har bir uchastka tergov-tezkor guruhining bir a'zosiga birlashtiriladi. Tintuv jarayonida gul ekilgan joylar, egatlar, daraxtlar ostidagi yerlar, pichan g'aramlari, axlat uyumlari shchuplar va metall izlagichlar bilan tekshiriladi. Qurilish materiallari va o'tin taxlamlari ochib ko'riladi. Agar qidirilayotgan narsalar yerga ko'milishi mumkin bo'lsa, yerning chopilgan qismlariga, o't payhon bo'lgan joylarga e'tiborni qaratish zarur. Yaqinda asfaltlangan yoki betonlangan, trotuar plitkasi qoplangan, shag'al to'kilgan joylar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Ayrim hollarda xizmat itlaridan foydalanish ham samara berishi mumkin.

4. Avtomobilda tintuv mutaxassis ishtirokida o'tkazilganda, ayniqsa, yaxshi samara beradi. Avtomobilni tintuv qilayotganda uning barcha tabiiy bo'shliqlarini, kabina (salon)ni, o'rindiqlar ostini, yukxonani, old paneldagi qutilarni, dori-darmonlar qutisini, zaxira g'ildirakni tekshirishga alohida e'tibor berish zarur. O'rindiqlardan g'illoflar yechib olinadi, g'ildiraklar, kuzov, yuk va hokazolar ko'zdan kechiriladi.

5. Shaxsiy tintuv O'zR JPKning 162 va 164-moddalarida belgilangan protsessual qoidalarga muvofiq o'tkaziladi. Bunda, eng avvalo, kiyim, poyafzal, bosh kiyimi va boshqa liboslar tekshiriladi. So'ng tintuv qilinayotgan shaxsning tanasi ko'zdan kechiriladi.

Tintuv tepadan pastga qarab o'tkaziladi. Zarur holda kiyim choklari so'kiladi, astarlar ochib ko'riladi, klapanlar, kapyushonlar tekshiriladi. Qo'lda olib yuriladigan narsalar – portfellar, keyslar, sumkalar, ayollar sumkachalari, ryukzaklar, shuningdek foto va videokameralar, ularning g'illoflari, mobil telefonlar, magnitofonlar, plyerlar va boshqa portativ radiotexnika qurilmalari, soyabonlar, kitoblar, ayniqsa, sinchiklab tekshirilishi lozim. Mobil telefoni xotirasida tintuv qilinuvchi doimiy ravishda foydalanadigan telefon raqamlari, shuningdek u oxirgi marta qo'ng'iroq qilgan raqamlar yozilgan bo'lishi mumkinligini unutmaslik kerak. Ushbu axborot tintuv bayonnomasida aks ettirilishi lozim, telefon esa olib qo'yilishi va ish materiallariga qo'shib qo'yilishi mumkin (ayniqsa, agar u o'g'irlangan bo'lib chiqsa).

Mobil telefonidagi raqamlar bo'yicha gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning, shu jumladan kriminal muhitdagi aloqalari aniqlanishi mumkin. Mazkur mobil telefoni yordamida olingan foto va videokadrlar ham tergovchi uchun diqqatga sazovor bo'lishi mumkin. Ularni ko'zdan kechirish va tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun foydalilik nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarur.

Tintuv o'tkazishning taktik usullari

Tintuv o'tkaziladigan joyga borish shunday rejalashtirilishi zarurki, u yerda tintuv qilinuvchi yoki uning balog'atga yetgan oila a'zolari bo'lsin. Ammo shu bilan birga tintuv qilinuvchi shaxs tintuv yeriga tezkor xodimlar tomonidan tintuv boshlanishi vaqtida olib kelinishi ham ehtimoldan xoli emas. Agarda tintuv yerida tintuv qilinuvchi yoki uning balog'atga yetgan oila a'zolari bo'lmasa, tintuv faqat obyektiv sabablarga ko'ra ularning ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Tergovchi tintuv yeriga yetib kelib, tintuv qilinuvchiga tintuv maqsadlarini e'lon qiladi hamda bu to'g'ridagi qarorni ko'rsatadi. Tintuv qilinuvchiga uning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi va bu haqida tintuv bayonnomasiga tegishli qayd qiladi. Bundan tashqari, tintuv qilinuvchiga ishga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan buyum va hujjatlarni o'z xohishiga ko'ra topshirishni taklif qiladi. Agar ular tintuv qilinuvchining o'z xohishiga ko'ra topshirilsa, tintuv tergovchida hamma hujjat yoki buyumlar topshirilmaganligi haqidagi asoslar bo'lgan holdagina o'tkaziladi.

Qidiruv harakatlarini amalga oshirishdan avval tergovchi tintuv joyi bilan tanishishi, qidiruv harakatlari hajmini aniqlashi, alohida e'tiborga molik joylarni belgilashi, ish hududini tergov guruhi xodimlari o'rtasida to'g'ri taqsimlashi lozim.

Tintuvning to'g'ri va samarali o'tishi hamda dalillarni yo'q qilish ehtimolligining oldini olish maqsadida tintuv qilinuvchi va u bilan birga hozir bo'lgan shaxslar bir xonada jamlanishi mumkin, ular telefonda gaplashishlari, tintuv tugaguncha tintuv yerini tark etishlari taqiqlab qo'yilishi mumkin. Voyaga yetmaganlar, ayniqsa, bolalar qoida tariqasida tintuv o'tkazilayotgan joydan chiqarib yuborilishlari lozim.

Agar tergovchi tintuv yerida hozir bo'lgan shaxs o'zida biror narsa yashirayotganiga asoslari bo'lsa, u holda ushbu shaxsni shaxsiy tintuv qilish to'g'risidagi qaror qabul qilinishi mumkin.

Tintuv yerida noma'lum shaxslar paydo bo'lsa, ular tergovchi tomonidan tintuv oxirigacha vaqtinchalik ushlab turilishlari mumkin. Agar ushbu shaxslar tintuv yeriga o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun kelgan bo'lsalar (shifokor, pochta xodimi, santexnik va boshqalar), ularning shaxsi, kelish maqsadlari aniqlanishi zarur. Ularning kelish maqsadlari tintuv qilinuvchining jinoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmasa, tergovchi ularga javob berib yuborishi kerak. Zaruriy hollarda ular tintuv faktini sir saqlash to'g'risida ogohlantiriladilar.

Tintuvni amalga oshirish muntazamlik va sinchkovlikni talab qiladi. Tergovchi yoki boshqa tintuv ishtirokchisi biror-bir predmetni tez ko'zdan kechirib, uni qiziqtirgan boshqa obyektga o'tishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Albatta, qidiriladigan obyektlar jismoniy va boshqa xususiyatlariga ko'ra berkitilishi mumkin bo'lmagan predmetlarni sinchkovlik bilan tekshirish ehtiyoji yo'q. Tintuv yeridagi hamma boshqa predmetlar har tomonlama o'rganilishi lozim.

Predmet va hujjatlarni yashirin joylarda saqlashdan tashqari jinoyatchilar tergovchining, avvalambor, yashirin joylarni qidirish inson ruhiyatiga asoslanib qidirilayotgan hujjat va predmetlarni tergovchi e'tibor bermaydi deya hammaning ko'z o'ngida qoldirishi mumkin (masalan, daliliy hujjatlarni yozuv stolida boshqa qog'ozlar bilan birga qoldirish). Ba'zan, tintuv qilinuvchilar yashirin joy sifatida bu maqsadlar uchun mo'ljallanmagan predmetlarni ishlatadilar (muraboli bankalar, tilla va qimmatbaho narsalarni saqlash, kitoblar esa, qurol-yarog'larni saqlash uchun va hokazo). Shuning uchun tergovchi, tintuv yeridagi uy jihozlari, kiyim, oyoq kiyim, maishiy texnika, kitoblar, bolalar o'yinchoqlari, idish-tovoq, oshxona jihozlari, oziq-ovqatlar va boshqalarni diqqat bilan o'rganish zarur.

Imoratda, shuningdek hovli inshootlarida, tomorqa va boshqa joylarda tintuv o'tkazganda tergovchi har doim bir yo'nalish bo'ylab harakatlanadi, masalan, spiral bo'yicha, soat mili bo'yicha, narsalarni birin-ketin tekshirib, so'ng xona markazi, devorlar, pol, keyin esa boshqa xonaga yoki imoratga o'tadi.

Qidiruv vaqtida tergovchi biror-bir joyda yashirin joy borligiga asos bo'luvchi turli xil salbiy holatlarni, izlarni e'tibordan qochirish zarur. Masalan, yam-yashil o'tlar orasida sarg'aygan o'tli hudud, tomorqadagi yangi qazilgan joy, devorning yangi gulqog'oz yopishtirilgan qismi, pol taxtalamining biridagi mixlarning yangi yaltillovchi qalpog'i va boshqalar tergovchining e'tiborini o'ziga jalb etishi hamda mazkur obyekt yoki hudud qismini sinchkovlik bilan tekshirish uchun asos bo'lishi zarur. Murda ko'milgan joyni uy hayvonlari va parrandalarning o'zlarini besaranjom tutishlari ham ko'rsatishi mumkin.

Paydo bo'lgan shubhalarni tekshirish uchun tergovchi sup yoki boshqa ingichka predmet yordamida yumshoq mebelni, o'rin-to'shakni, yerni va boshqalarni tekshirib ko'rish mumkin. Bu narsa yetarli bo'lmagan holatlarda murakkabroq asbob-uskunalar qo'llaniladi: murda va mina qidiruvchi, portativ rentgen uskunasi va boshqa qidiruv vositalari. Zaruriyat tug'ilganda uning ortida yashirin joy borligi taxmin qilinayotgan to'siq buzib tashlanishi, uy-jihoz texnikasi va agregatlar esa qismlarga bo'lib tashlanishi mumkin.

Agar qidiruv harakatlari davomida yopiq joylar aniqlansa, tergovchi qulf, eshik va boshqa predmetlarni buzib, mulkka zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida dastlab undan yopiq joyni ochishni so‘rashi lozim. Tergovchi tomonidan yopiq joyni ochish usuli tintuv bayonnomasida qayd etilishi zarur.

Tintuv vaqtida topilgan bir qator bir xil predmetlar orasidan jinoiy ishga aloqadorlarini aniqlash maqsadida sodda analitik namunalari olish mumkin. Masalan, giyohvand moddalarni tintuv qiluvchida mavjud boshqa dorilardan, qon izlari va boshqa biologik izlarni ajratish uchun tintuv yerida tegishli mutaxassis tomonidan ekspress-usullarni qo‘llab, dastlabki o‘rganishlarni o‘tkazish mumkin.

Qidiruvni amalga oshirishda tergovchi uning tasarrufidagi tintuv qilinayotgan shaxs haqidagi ma‘lumotlarni e‘tiborga olishi shart. Chunki bu kabi ma‘lumotlarning hisoboti tintuv o‘tkazishning to‘g‘ri taktikasini tanlash va mazkur tergov harakatini samarali o‘tkazish imkonini beradi.

Ko‘pinchalik tintuv qiluvchilar ashyoviy dalillarni kir kiyimlarda, bolalar buyumlarida, o‘yinchoqlarda va boshqalarda saqlaydilar. Ba‘zan ularni ayblovchi hujjatlarni tergovchining bir xil ishni uzoq vaqt bajarishidan hosil bo‘ladigan charchoq va e‘tiborini susayishiga mo‘ljallab, uy kutubxonasidagi kitoblar orasiga joylaydilar. Bu kabi vaziyatlarda tergovchining qat‘iylik, keskinlik, sabotlilik kabi fazilatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tintuv uzoq vaqt davom etganda dam olish uchun qisqa tanaffuslar qilish tavsiya qilinadi.

Tintuv vaqtida tergovchi ba‘zan tintuv qiluvchining shaxsiy hayotiga oid holatlar bilan to‘qnash keladi. Masalan, qidiruv vaqtida u tintuv qiluvchining shaxsiy yozishmalariga, shaxsiy hayotiga taalluqli va tergov qilayotgan hodisaga aloqasi bo‘lmagan hujjat va predmetlariga duch kelishi mumkin. Qonun fuqarolar manfaatini ko‘zlab, tergovchi bu kabi holatlar ovoza bo‘lmasligi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishini ko‘rsatadi. Shuning uchun qidiruv harakatlari davomida tergovchi xolislar va tintuvning boshqa ishtirokchilari e‘tiborini bu narsalarga, agar ularning ishga aloqasi bo‘lmasa, katta urg‘u berib qaratmasligi lozim. Agar bu holatlar tergov qilayotgan ishga aloqador bo‘lib, xolislar va tintuvning boshqa ishtirokchilari ular bilan tanishishlari shart bo‘lsalar, tergovchi ularni bu holatlarni ovoza qilmasliklari to‘g‘risida ogohlantirib, ulardan tilxat olishi zarur.

Shuningdek, tintuv vaqtida ishga aloqador hujjat va predmetlardan tashqari tintuv qiluvchi tomonidan sodir etilgan boshqa jinoyatga aloqador predmetlar, ro‘yxatga olinmagan qurol-yarog‘ va fuqarolik muomalasidan chiqarilgan boshqa predmetlar ham olib qo‘yiladi.

Alohida hollarda ba'zi bir fuqarolar qaytadan tintuv qilinishlari mumkin. Qayta tintuvga ehtiyoj, birinchi tintuv ma'lum sabablarga ko'ra yuzaki o'tkazilgan bo'lsa yoki tergov davomida, tintuv qilinuvchida uning jinoiy faoliyatining aniqlangan yangi epizodlariga taalluqli predmetlar borligi haqidagi yangi ma'lumotlar paydo bo'lgan bo'lsa yuzaga keladi. Bundan tashqari, avval tintuv qilingan shaxs turar joyiga tergovchi endi e'tibor bermaydi deb hisoblab, birinchi tintuvda topilishi va aniqlanishi lozim bo'lgan obyektlarni o'z turar joyiga olib kelishi kabi hollar ham qayta tintuvga asos bo'lishi mumkin.

Shaxsiy tintuv, tintuvning boshqa turlari kabi prokuror sanksiyasi bilan tergovchining asoslangan qaroriga binoan amalga oshiriladi. Shaxsiy tintuv faqat bir jinsdagi shaxs tomonidan ushbu jinsdagi xolislar ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Buning uchun alohida xona ajratiladi va undan begonalar chiqarib yuboriladi. Iloji bo'lsa, tintuv qilinuvchi tintuv vaqtida qarshilik ko'rsatmasligi uchun tintuv ikki xodim tomonidan amalga oshirilishi ma'qul. Tintuv qilinuvchining, avvalo, cho'ntaklari tekshiriladi, quroli olib qo'yiladi, shuningdek qarshilik ko'rsatishi uchun qo'l keladigan har qanday predmetlar olib qo'yiladi. Cho'ntaklar, sumkalar va tintuv qilinuvchining boshqa buyumlari e'tibor bilan tekshiriladi. Agar shaxsiy tintuvni o'tkazish inson tanasini tekshirish bilan bog'liq bo'lsa, tintuv o'tkazish uchun shifokorni taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Olib qo'yish tartibi

Tintuvdan farqli ravishda olib qo'yish har doim aniq ma'lum bir buyum va hujjatlarga nisbatan, ular qayerda va kimda ekanligi aniq bo'lganda qo'llaniladi. Olib qo'yishda qidiruv ishlariga hojat yo'q, binobarin, olib qo'yishni o'tkazishda fuqarolarning manfaatlariga ta'sir nisbatan kamroq bo'ladi. Olib qo'yishda tergovchining vazifasi biror-bir shaxsga yoki rahbarga ma'lum bir hujjatni yoki predmetni berishni taklif qilishdir. Rad javobi olinganda esa narsa yoki hujjatni majburiy olib qo'yish qo'llaniladi.

E'tibor qiling! Jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi va sud ularni olib qo'yishga haqlidir (JPK 157-modda).

Olib qo'yish O'zR JPKning 157-moddasida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Ko'pincha, u korxonalar, tashkilotlar yoki muassasalar ofisida turgan hujjatlar va narsalarni olib qo'yish uchun o'tkaziladi. Agar hujjatlar

to'plamidan, masalan, buxgalteriya hujjatlari orasidan faqat tergov qilinayotgan jinoyat ishiga taalluqli bo'lgan hujjatlarni tanlab olish kerak bo'lsa, olib qo'yishni o'tkazishda tegishli mutaxassis ishtirok etishi lozim. Olib qo'yish jarayonida faol qidiruv harakatlari amalga oshirilmaydi, shu sababli u fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tintuvga qaraganda kamroq daxl etadi.

O'tkazilgan tintuv va olib qo'yish jarayoni va natijalari mazkur tergov harakatlari bayonnomalarida qayd etiladi. Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qayerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma-bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralishi va muhrlanishi lozim. Olib qo'yish yoki tintuv vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilishga yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu hol surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ko'rilgan choralar ham ko'rsatilib bayonnomada aks ettirilishi lozim.

Xufiyadonlar topilgan holda ular joylashgan yer, ularning ichida topilgan narsalarning o'lchamlari va xususiyatlari batafsil bayon etiladi. Xufiyadonlar, ularning ichki tuzilishi, ichidagi narsalar fotosuratga olish yoki videotasvirga tushirish yo'li bilan qayd etiladi. Agar ko'p sonli narsalar olib qo'yilayotgan bo'lsa, ularning ro'yxati tuziladi. Bayonnomaga tintuv jarayonida tuzilgan tarxlar (masalan, xufiyadon joylashgan yer tarxi), fotojadvallar, videokassetalar ham ilova qilinishi mumkin.

Davlat siriga ega bo'lgan hujjatlarni olib qo'yish holatlaridan tashqari olib qo'yish uchun prokurorning sanksiyasi talab qilinmaydi. Olib qo'yish diplomatik vakolatxonalar joylashgan yerlarda yoki ularning oila a'zolari istiqomat qiladigan joylarda o'tkazilsa, ularning roziligi bilan va, albatta, prokuror va Tashqi ishlar vazirligi xodimi huzurida o'tkazilishi zarur.

Olib qo'yishda aynan ish uchun ahamiyatli narsani yoki hujjatni, nusxasini emas, uning aslini olishni ta'minlash zarur. Ana shunday xavf-xatar mavjud bo'lganda, olib qo'yishga tintuvdagi singari mutaxassisni taklif etish maqsadga muvofiq. Masalan, buxgalteriya hujjatlarini olib qo'yishda revizor, auditor yoki ekspertni taklif qilish zarur. Agar o'g'irlangan buyumlarni olib qo'yish ko'zda tutilgan bo'lsa, jabrlanuvchini taklif qilish mumkin.

Olib qo'yishni muvaffaqiyatli o'tishi ko'p hollarda tergovchining

olib qo'yilayotgan shaxs bilan olib qo'yish o'tkazilayotgan tashkilot vakili bilan aloqasiga bog'liq. Bunday vaziyatda, shuningdek kuzatuvchanlik va kerakli hamma narsa olinganligiga ishonch ham katta ahamiyatga ega. Agar tergovchi obyektlarni yashirilganligini his qilsa, u holda tintuv haqida qaror chiqaradi va tintuvga kirishadi.

Tintuv va olib qo'yish natijalarini qayd etish

Tintuv va olib qo'yishning tergov harakatlari sifatidagi dalilii ahamiyati ularning o'tkazish jarayoni va natijalarini to'la va xolisona qayd etishga uzviy bog'liqdir. Tintuv va olib qo'yish bayonnomalari, ularning natijalari qanday bo'lishidan qat'i nazar, ular o'tkazilgandan so'ng tuziladi.

E'tibor qiling! Bayonnoma tintuv va olib qo'yishni qayd etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bayonnomada tintuv va olib qo'yish qachon, kim tomonidan, qayerda, qanday ish bo'yicha, kimning huzurida o'tkazilganligi va uning natijalari qanday bo'lganligi ko'rsatiladi. Bayonnomada topilgan va olib qo'yilgan predmetlar to'g'risida to'la ma'lumotlar ko'rsatib o'tiladi. Obyektlarning umumiy va xususiy belgilarini iloji boricha aniqroq ko'rsatishga harakat qilinadi: shakli, hajmi, rangi, undagi har xil raqam va yozuvlarning mavjudligi va boshqalar. Obyektlarning sifat xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi: yangi, eski, muomalada bo'lgan va hokazo. Agar bir turdagi predmetlar olib qo'yilsa, ularning miqdori yozuv bilan ko'rsatiladi.

Qimmatbaho qog'ozlar, chek va omonat daftarchalar, akkreditiv va hokazolarni olishda ularning rekvizitlari bayonnomada qayd etiladi. Xorijiy va milliy valyuta alohida ko'rsatiladi (masalan, O'zbekiston Respublikasi bankining 500 qiymatidagi bileti – 1000 dona). Agar o'g'irlangan pullarning raqamlari ma'lum bo'lsa, bayonnomaga har bir nomi seriya va raqami kiritiladi.

Hujjatlarni olishda ularning maqsadi, rekvizitlari, holati: qo'l yozmalarni olishda – har bir betning birinchi va oxirgi iboralari ko'rsatib o'tiladi.

Tintuv qilinuvchi olib qo'yilayotgan predmetlar qimmatbaho metallardan tayyorlanganligini ta'kidlasa, har bir predmet batafsil ta'riflanishi, ularda proba bor yoki yo'qligini ko'rsatish zarur. Yashirin joylar, ularning niqoblarini ta'riflashga alohida e'tibor berish lozim. Bayonnomada qaysi buyumlar o'z xohishiga ko'ra berilganligi qayd etilishi zarur. Agar tintuv yoki olib qo'yish davomida texnik vositalardan foydalanilgan bo'lsa, u holda bayonnomada uskunalarning nomi va turi, shuningdek tintuv va olib qo'yishda hozir bo'lgan shaxslarni texnik

vositalarni qo'llash haqida ogohlantirilganliklarini qayd etish kerak.

Bayonnomaning yakunlovchi qismida qanday predmetlar olinganligi, qanday o'ralganligi, kimga va nima saqlash uchun topshirilganligi ko'rsatib o'tiladi.

Esda tuting! Tintuv va olib qo'yish bayonnomasi uch nusxada tuziladi. **Birinchi** nusxasi ishga birlashtirib qo'yiladi. **Ikkinchi** nusxasi tintuv qilinuvchi, olib qo'yiluvchi yoki uning vakillarida qoladi va ular birinchi nusxada ikkinchi nusxani olganliklari to'g'risida imzo chekadilar. **Uchinchi** nusxa olingan obyektlar bilan birga, ashyoviy dalillarni saqlash kamerasiga topshiriladi. Original va nusxaning barcha betlari tergovchi, xolis va tintuv yoki olib qo'yishning boshqa ishtirokchilari hamda tintuv qilinuvchi yoki olib qo'yish o'tkazilgan idora vakillari tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaga yozish bilan birga, dalillarni qayd etishning boshqa usullari ham ishlatilishi mumkin: reja tuzish, rasmga olish, videotasmaga tushirish va hokazo. Reja va sxemalarda topilgan yashirin joylar tasvirlanadi, asosiysi yashirin joyning o'zi, obyektlar qanday joylashganligi aks ettiriladi.

Rasm olish va videotasmaga tushirish ham shu asosda amalga oshiriladi: kuzatish imkonini beradigan asosiy va batafsil ko'rinish olinadi. Asosiy tasvirda topilgan yashirin joy va undagi obyektlar, batafsilida yashirin joydan olingan obyektlar qayd etiladi. Obyektlarni, ularning umumiy, xususiy va farqlovchi xususiyatlarini aniq ko'rinadigan qilib tasvirga tushirish lozim. Agar olingan katta hajmdagi obyektlarni ishga birlashtirishning iloji bo'lmasa, ularni qonunga binoan rasmga tushirish zarur.

Nazorat savollari:

1. Tintuv tushunchasi va uning turlarini izohlab bering. Tintuv o'tkazish qanday taktik usullarga asoslanadi?
2. Olib qo'yish deganda nimani tushunasiz? U tintuvdan nimasiga ko'ra farq qiladi? Olib qo'yish tergov harakatini o'tkazish tartibi qanday?

Kazuslar:

1-kazus

2 yil avval sodir etilgan qotillik jinoyatini sodir etgan shaxs aniqlanmaganligi sababli jinoyat ishi yurituvchi to'xtatilgan. Ushbu jinoyatni sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar ichida uning xotini ham bo'lishi mumkin degan versiyani tekshirish zarurati tug'ilib, jinoyat ishining tergovchi qayta tiklandi. Jinoyat bilan bog'liq faktlarni aniqlash maqsadida gumonlanuvchining uyida tintuv o'tkazish rejalashtirildi. Tintuv obyekti

sifatida uyning hovlisida qurilishi tomomlanmagan ayvon, garaj, quduq va poliz ekinlari mavjud hududlar belgilandi.

Tintuv chegarasi va taktikasini aniqlang. Tintuv jarayonida qanday kriminalistik texnik vositalar qo'llaniladi?

2-kazus

Fuqaro M. tanishi I giyohvandlik vositalari bilan savdo qilayotganligini aytib IIB xodimlariga murojaat qildi. Fuqaro I. Tezkor-qidiruv xodimlari tomonidan olib borilgan kuzatish tadbirlari natijasida "Aziya" restoranida o'z mijoziga qora paketda oq kukun sotayotgan paytda qo'lga olinadi. Ushbu modda ekspertiza natijalariga ko'ra giyohvandlik moddasi emasligi ma'lum bo'ladi.

Ushbu holat yuzasidan tintuv va olib qo'yish tergov harakatlarini o'tkazish mumkinmi? Tintuv o'tkazish uchun tergovchi qanday protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozim?

Tintuv olib borishda tergovchi nimlarga ko'proq e'tibor qaratishi lozim?

18-MAVZU. SO‘ROQ O‘TKAZISH TAKTIKASI

So‘roq tushunchasi va ko‘rsatuvlarning psixologik asoslari. So‘roq qilish bosqichlari. Jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish taktikasi. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so‘roq qilish taktikasi. Yuzlashtirib so‘roq qilish tartibi. Voyaga yetmagan shaxslarni so‘roq qilish. So‘roq natijalarini protsessual rasmiylashtirish.

So‘roq tushunchasi va ko‘rsatuvlarning psixologik asoslari

So‘roq qilish – paydo bo‘lishiga ko‘ra eng birinchi va qo‘llanilishi jihatidan, ayniqsa, keng tarqalgan tergov harakati. Uning mohiyati so‘roq qilinayotgan shaxsdan tergov qilinayotgan jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar to‘g‘risida ko‘rsatuvlar olishdan iborat. Uni samarali o‘tkazish uchun so‘roq qilinuvchilar psixologiyasini yaxshi tushunish, ular bilan ishonchli munosabatlar o‘rnata olish, yuzaga kelgan vaziyat, so‘roq qilinuvchining shaxsi va protsessual maqomi, ishda mavjud dalillarni hisobga olgan holda taktik usullar va psixologik ta‘sir ko‘rsatish metodlarini qo‘llay bilish zarur.

E‘tibor qiling! So‘roq tergovchi bilan jinoiy voqea haqida ma‘lumot beruvchi shaxs o‘rtasidagi o‘zaro muloqotdir. So‘roq qilishning umumiy vazifasi – so‘roq qilinayotgan shaxslarning har biridan tergov qilinayotgan jinoyat holatlari va uni sodir etishda aybdor shaxslar to‘g‘risida unga ma‘lum bo‘lgan barcha haqqoniy ma‘lumotlarni olish.

Ayblanuvchining o‘z aybini tan olishi masalasi unga ayb e‘lon qilingandan so‘ng birinchi so‘roq vaqtida yoxud shaxsning o‘z aybiga iqrorligi to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etishi zahotiyoyq yuzaga keladi. Ushbu bosqichda ayblanuvchining o‘z aybini tan olishi tergovchini uning haqqoniyligini tekshirish majburiyatidan ozod qilmaydi. Chunki aybga yolg‘on iqrorlikning kech aniqlanishi haqiqiy jinoyatchilarning yashirinishi uchun sharoit yaratib, haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Ayblanuvchining himoya huquqini ta‘minlash maqsadida tergovni olib borayotgan shaxs ayblanuvchini JPKning 110-moddasiga rioya etgan holda darhol so‘roq qilishi lozim. Ayblanuvchini so‘roq qilish Qonun bilan tartibga solingan tergov harakati bo‘lib, jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilish

uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida tergovchi bilan ayblanuvchining o'zaro suhbatini qamrab oladi.

Tergovchi ayblanuvchini faqat e'lon qilingan ayb yuzasidan so'roq qilishi lozim. Bu, avvalambor, jinoiy ta'qibning doirasi va chegarasiga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, jinoyat ishiga ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan shaxsni so'roq qilishda qo'zg'atilgan jinoyat ishiga daxli bo'lmagan, e'lon qilingan ayblovga aloqador bo'lmagan boshqa holatlar haqida so'ralishi to'g'ri emas. Shunday bo'lsa-da, basharti tergov o'tkazish chog'ida dastlabki ayblovni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadigan yangi dalillar to'plangan bo'lsa yoki dastlabki ayblovning noaniqligi yoxud yuridik tavsifi noto'g'riligi ma'lum bo'lib qolsa, dastlabki ayblov o'zgartirilishi, qisman tugatilishi yoki to'ldirilishi lozim. Bu haqida tergovchi qaror chiqaradi va unda ayblovning yangi mazmunini bayon qiladi (JPKning 362-moddasi birinchi qismi).

Yolg'on ko'rsatuv berish belgilari aniqlangan taqdirda, so'roqni amalga oshirayotgan mas'ul mansabdor shaxs so'roq vaqtida so'roq qilinayotgan shaxsning xulq-atvorini atroflicha kuzatishi maqsadga muvofiq. Kishining har qanday, shu jumladan huquqqa xilof faoliyati ham ruhiy bosim ostida amalga oshiriladi. Shuning uchun so'roq qilinayotgan shaxsga savollar bera turib, davlat ayblovchisi uning xulq-atvorini, nutqini, qo'yilgan savollarga ta'sirini kuzatib borishi lozim. Demak, prokurorlarni sudda kuzatuv usulidan foydalanish hamda ishontirish xususiyatini shakllantirishga o'rgatish katta samara beradi.

Bir qator adabiyotlarda ham shaxsni gumon qilinuvchi sifatida e'tirof etishning qonunchilikdagi asoslarining yo'qligi amaliyot xodimlarida noaniqliklarni vujudga keltirishi hamda ular tomonidan qonun buzilishiga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lishi ta'kidlangan.

Aytish joizki, mazkur muammo O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi uchun ham xos bo'lib, gumon qilish institutining yetarlicha huquqiy tartibga solinmaganligi bois, qonun buzilishi holatlari amalda keng uchrab turadi. Xususan, sud-tergov amaliyotida amalda gumon qilinayotgan shaxsni guvoh sifatida so'roq qilish hollari keng uchraydi. Ushbu salbiy holatning oldini olish maqsadida 2008-yil 31-dekabrda JPKga guvohning advokati instituti joriy etildi.

O.D.Jukning yozishicha, amaliyotda tergovchi shaxsga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so'roq qilishni taklif qiladi. Albatta, inson o'ziga ma'qul huquqiy maqom sifatida guvoh maqomini tanlaydi, undan keyin tergovchi butun so'roq jarayoni shaxsga biror bir protsessual kafolatlar taqdim etmagan holda uni jinoyat sodir etishdagi ishtirokini fosh etishga harakat qiladi, deb ta'kidlangan.

Fikrimizcha, bunday amaliyot inson huquqlarining buzilishi bo'lib, bu borada I.A.Panteleyev, A.A.Davletov va V.G.Voytlar shaxsni guvoh sifatida so'roq qilishning protsessual chegaralarini quyidagicha belgilashni taklif qiladi: "basharti so'roq qilish predmeti guvohning jinoyatga daxldorligiga oid holatlarni qamrab olmasa, ya'ni tergovchi so'roq qilinayotgan shaxsga nisbatan o'z gumonini bildirmasa, shaxsni guvoh sifatida so'roq qilish bo'yicha hech qanday to'siq bo'lmaydi. Agarda tergovchi u yoki bu shaklda shaxsga nisbatan gumon e'lon qilsa (bu so'roq qilinayotgan shaxs oldiga uning jinoyat bilan bog'liq o'z xatti-harakatlari to'g'risida masalani qo'yishida ifodalanadi), ushbu shaxs guvoh bo'la olmaydi. U o'zining real holatiga mos gumon qilinuvchi maqomiga ega bo'lishi hamda unga nisbatan mavjud gumon rasman e'lon qilinganidan so'ng, jinoyat protsessining ushbu ishtirokchisi sifatida so'roq qilinishi lozim.

Bunday yondashuv qonuniylik, odillik, insonparvarlik kabi umumhuquqiy prinsiplar mohiyatiga zid bo'lib, unga qo'shilib bo'lmaydi, chunki mazkur holatda amalda gumon qilinuvchi guvohga aylantiriladi hamda ko'rsatuv berishga majbur qilinadi, zero, guvoh sifatida so'roq qilinuvchi ayblanuvchiga tegishli bo'lgan protsessual huquqlardan foydalanmaydi, chunki ushbu holat bilan ayblanuvchi amalda o'ziga tegishli bo'lgan protsessual huquqlardan mahrum etiladi.

Ayblanuvchining o'z aybini tan olishi masalasi unga ayb e'lon qilingandan so'ng birinchi so'roq vaqtida yoxud shaxsning o'z aybiga iqrorigi to'g'risidagi ariza bilan murojaat etishi zahotiyoq yuzaga keladi. Ushbu bosqichda ayblanuvchining o'z aybini tan olishi tergovchini uning haqqoniyligini tekshirish majburiyatidan ozod qilmaydi. Chunki aybga yolg'on iqrorlikning kech aniqlanishi haqiqiy jinoyatchilarning yashirinishi uchun sharoit yaratib, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishi mumkin.

So'roq qilish o'zaro muloqot shakli sifatida hamkorlik yoki qarama-qarshilik va psixologik kurash yo'sinida o'tishi mumkin. Ba'zan so'roqda boshqa shaxslar (tarjimon, pedagog, mutaxassis va sh.k.) ham ishtirok etishlari mumkin. Bunda axborot ayirboshlash, o'zaro ta'sir ko'rsatish, bir-biriga baho berish, nuqtayi nazarlarni shakllantirish sodir bo'ladi. Bu yerda so'roqni o'tkazayotgan shaxs yetakchi rol o'ynashi lozim.

Tergovchi JPK normalari va kriminalistika tavsiyalariga amal qilgan holda, so'roqni o'tkazish tartibini belgilaydi, boshqa shaxslarning harakatlarini, ularning ishtiroki darajasini boshqaradi, ayni vaqtda so'roq qilinuvchidan tergov qilinayotgan jinoyat to'g'risida ma'lumotlar olishni

ta'minlaydi. So'roq qilinuvchidan mumkin qadar to'liq va haqqoniy ko'rsatuvlar olishga intilib, tergovchi taktik mulohazalarga ko'ra yuz bergan voqea tafsilotlaridan xabardorligini ma'lum vaqtgacha oshkor qilmaydi, o'zi so'roqning mazkur bosqichida foydalanishini maqsadga muvofiq deb hisoblagan ma'lumotlarinigina xabar qiladi.

Olinayotgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash – og'ir vazifa, zero, so'roq qilinuvchi, hatto u butun haqiqatni bayon etishni istayotgan bo'lsa ham, o'z istagini amalga oshirishga, muhim holatlarni to'liq eslashga doim ham qodir bo'lavermaydi. Bundan tashqari, u tergovchini aynan qaysi faktlar va tafsilotlar qiziqtirayotganini doim ham tushunavermaydi.

So'roq qilinuvchi tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi amalda qanday rivojlangani xususida vijdonan yanglishishi ham mumkin. So'roq qilinuvchi yolg'on ko'rsatuvlar bergan, ayrim muhim holatlarni yashirgan, ko'rsatuvlar berishdan bosh tortgan, voqeaning asl manzarasini aniqlashda tergovchiga halaqit berishga uringan hollarda vaziyat yanada murakkablashadi.

E'tibor qiling! So'roq turlari so'roq qilinuvchining protsessual holatiga qarab farq qiladi. Bular – guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ekspertni so'roq qilish. So'roq qilinuvchilarning yoshiga qarab voyaga yetganlar, voyaga yetmaganlar, yosh bolalar, qariyalarni so'roq qilishi bilan farqlanadi.

Ushbu tergov harakatini o'tkazishning oldinma-ketinligiga ko'ra birlamchi, takroriy va qo'shimcha so'roq qilish, o'tkazish subyektiga ko'ra tergovchi, surishtiruvchi, tergov bo'linmasi boshlig'i, prokuror, sudya tomonidan o'tkaziladigan so'roq farqlanadi.

Yuzlashtirishni o'tkazayotganda so'roq qilish ushbu tergov harakatining alohida turi hisoblanadi. Olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligiga ko'ra haqqoniy ko'rsatuvlar beruvchi shaxsni so'roq qilish va yolg'on ko'rsatuvlar berayotgani ayon bo'lgan odamni so'roq qilish farqlanadi. Tergovchi va so'roq qilinuvchi o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarga qarab nizoli va nizosiz vaziyatda so'roq qilish farqlanadi.

So'roq qilishda psixologik aloqa o'rnatish. Tergovning natijadorligini ta'minlashda uning kommunikativ tomoni – muloqot uchun qulay psixologik muhit, o'zaro til topish, unumli muloqot qilishga intilish alohida rol o'ynaydi.

Psixologik aloqa o'rnatishga tergovchining kirishimliligi, uning odamlar bilan til topa bilishi, so'roq qilinuvchilarning alohida xususiyatlari

(yoshi, rivojlanish darajasi, fe'l-atvori, tergov qilinayotgan ishga bo'lgan munosabati, kayfiyati va h.k.)ni hisobga olish, ularda haqqoniy ma'lumotlar berish niyatini paydo qilish qobiliyati va ko'nikmalari yordam beradi.

E'tibor qiling! Psixologik aloqa — bu so'roq jarayonida o'zaro munosabatlarning shunday bir darajasiki, unda ishtirok etuvchi subyektlar bir-biridan chiqayotgan axborotni idrok eta oladi va buni istaydi. Psixologik aloqa o'rnatish tergov harakatini o'tkazish jarayonida ikkala tomon uchun ham qulay bo'lgan psixologik muhit yaratishdan iborat.

E'tibor qarating! So'roq qilinuvchiga ruhiy ta'sir o'tkazish psixologik qarama-qarshilik vaziyatida, u qilmishning o'ziga ma'lum bo'lgan voqealari haqida yolg'on ko'rsatuvlar berayotgan, tergovchini to'g'ri yo'ldan chetlatishga urinayotgan, tergov qilinayotgan jinoyatning haqiqiy manzarasini aniqlashga qarshilik ko'rsatayotgan holda qo'llaniladi. Bunday ta'sir o'tkazishning mohiyati dalillarni ko'rsatishning eng ta'sirchan shaklini ta'minlovchi taktik usullardan foydalanish, so'roq qilinuvchining subyektiv pozitsiyasini o'zgartirish, haqqoniy ko'rsatuvlar berish zarurligiga uni ishontirishdan iborat.

Bunda qarama-qarshi tomon muloqotda ishtirok etish, savollarni tinglash va ularga javob berish, vajlar va dalillarni idrok etishga hatto nizoli tergov vaziyatida ham tayyor bo'ladi. Bunday aloqani o'rnatishga tergovchining xushmuomalaligi va xayrixohligi, jinoyatni tergov qilishga xolisona munosabati, so'roq qilinuvchini diqqat bilan tinglashga tayyorligi ham ko'maklashadi.

Ruhiy ta'sir o'tkazish Qonun doirasida amalga oshirilishi lozim. Bunda tergovchi ishontirish usulini qo'llashga alohida e'tiborni qaratishi zarur. Mavjud faktlar va dalillarni oldindan tanlab olish va izchil shaklga solish, ularni optimal oldinma-ketinlikda keltirish so'roq qilinuvchiga ruhiy ta'sir o'tkazishning samaradorligini, u qarshi harakat mo'ljalini o'zaro aloqa mo'ljaliga o'zgartirishini belgilaydi.

So'roq qilinuvchi berayotgan ma'lumotlarni tergovchi ularni ish bo'yicha aniqlangan holatlar bilan solishtirish orqali tahlil qilishi, ularda ichki ziddiyatlarni, ilgari berilgan ko'rsatuvlarga zid jihatlarni aniqlashi lozim. O'z-o'zidan ravshanki, ko'rsatuvlarda mavjud bo'shliqlar va noaniqliklar tergovchi tomonidan yolg'on ma'lumotlar berish sifatida talqin qilinmasligi kerak. Ayrim xatoliklar turli obyektiv sabablar ta'sirida hatto vijdonli shaxslar bergan ko'rsatuvlarda ham uchrashi mumkin.

So'roq qilish jarayonida tergov qilinayotgan jinoyat to'g'risida to'liq va mutlaqo ishonchli axborot olishni qiyinlashtiruvchi obyektiv va

subyektiv omillarni hisobga olish lozim. Obyektlarni kuzatish tashqi sharoitlari va xususiyatlari obyektiv omil hisoblanadi. Bu yerda voqeaning kutilmaganda va tez yuz berishi, noqulay ob-havo sharoitlari, sershovqin muhit, yaxshi yoritilmagan joy va hokazolar nazarda tutiladi. Subyektiv omillar qatoriga jismoniy nuqsonlar, shuningdek toliqish, stress, kasallik, ruhiy holatning buzilishi, mastlik va hokazolar ta'sirida sezgi organlari idrok etish qobiliyatining susayishi kiradi. So'roq qilish jarayonida xatoga yo'l qo'ymaslik va olingan ko'rsatuvlarning ishonchligini tekshirish uchun so'roq qilinuvchining voqeani kuzatish sharoitlarini mufassal aniqlash zarur.

Qonun talabiga ko'ra, tergovchi so'roq qilinuvchidan ko'rsatuv olish orqali ma'lumot to'playdi. Ma'lumki, so'roq vaqtida olingan ko'rsatuvlar jinoyat ishi bo'yicha dalil manbaining bir ko'rinishi hisoblanadi, to'plangan axborotlar esa jinoyatning ayrim holatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Tergov amaliyotida jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilingan va ekspert mutaxassislarni so'roq qilish ko'proq uchraydi.

E'tibor qarating! So'roq o'tkazishning protsessual-huquqiy asoslari JPKning 96–108-moddalari bilan tartibga solinadi. Gumon qilingan shaxslarni so'roq qilish tartibi JPKning 109–113-moddalarida ko'rsatilgan. Guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilish tartibi va usullari JPKning 114–124-moddalarida qayd qilingan.

Kriminalistik taktik uslublarni qo'llash nuqtayi nazaridan guvoh va jabrlanuvchilarning protsessual holati va huquqlari deyarli bir xil bo'lib, ularning holatlari o'xshashligi sababli bir usulda so'roq qilinadi. Lekin ushbu protsessual shaxslarning holatlarini ba'zi tomonlari e'tiborga olinib ularni so'roq qilishda turli uslubni qo'llash mumkin. Jumladan, gumon qilinuvchiga nisbatan jinoyat ishi yuzasidan hali aniq va asosli isbotlar bo'lmaganligi uchun uni faqat gumon qilingan shaxs sifatida so'roq qilinadi. Ayblanuvchi esa tergovchining unga nisbatan to'plangan dalillari asosida ayblanuvchi sifatida so'roq qilinadi va taktik uslublar mana shu holatlarga asosan qo'llaniladi.

Guvoh bilan jabrlanuvchining protsessual holati deyarli bir xil, huquq va burchlari ham o'xshash. Lekin ayrim holatlar mavjudki, guvoh bilan jabrlanuvchi orasida ba'zi bir farq ham bordir. Jumladan, jabrlanuvchi jinoyat oqibatidan bevosita moddiy, ma'naviy va jismoniy zarar ko'radi, shuning uchun tergov natijasidan birmuncha manfaatdor.

So'roq jarayonida jabrlanuvchi ko'rsatuv berishda voqeani to'g'ri va obyektiv yoritishiga uning shaxsiy advovati va psixologiyasi, ya'ni ruhiy holati ta'sir etishi mumkin. Guvohda esa bu xususiyatlar bo'lmaganligi uchun, odatda, xolis ko'rsatuv beradi.

So'roq qilinuvchi shaxslar ko'rsatuvlarining shakllanishi murakkab jarayondir, chunki uni yuzaga kelishida his eta bilish va mantiqli fikrlashning turli shakllari ishtirok etadi. Shu sababli so'roq qilishda shaxsning ruhiy holatini, xususiyatlarini nazarda tutgan holda taktik uslublarni qo'llab, jinoyat ishiga tegishli ma'lumotlarni olishi mumkin.

Ko'rsatuvni qanday hosil bo'lishini, uning psixologik asoslarini bilish tergovchiga taktik uslublarni to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Gumon qilinuvchi va aybdor, guvoh va jabrlanuvchilarning jinoyat ishida tutgan turli protsessual holati hamda tergov qilinayotgan shaxsning jinoyatdagi rolga qarab ularni so'roq qilishda farqlar mavjud. Ammo ko'rsatuvlarning tashkil topishida o'ziga xos umumiy psixologik qonuniyat ham bor, albatta. Tergov qilinayotgan jinoyat holatlarini qabul qilish, xotirada saqlab qolish va gapirib berish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv faktorlar guvoh va ayblanuvchiga bir xilda ta'sir etishi mumkin. Jinoyatchi o'zini va ishtirokchilarning voqea sodir bo'lgan joyda bo'lgan shaxslarning harakatlariga bog'liq holda aniq holatlarni umumiy psixologik qonuniyat asosida idrok qiladi va esda saqlab qoladi.

Esda tuting! Ko'rsatuvning shakllanish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- a) hodisa va uning ayrim qismlarini idrok qilish;
- b) eshitgan, ko'rgan ma'lumotni xotirada saqlab qolish;
- d) tiklash, ya'ni so'roq qilish vaqtida so'zlab berish.

Hodisaning bir zumda bo'lib o'tishi, eshitish va ko'rishning noqulayligi va kamchiligi, xotiraning o'ziga xosligi va shunga o'xshash obyektiv va subyektiv omillar, jinoyat holatini kim idrok qilishidan (guvohmi yoki ayblanuvchimi) qat'i nazar, o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHuning uchun guvoh va jabrlanuvchigina emas, balki gumon qilingan va ayblanuvchini so'roq qilishda ham ko'rsatuvning shakllanishidagi umumiy psixologik qonuniyatni e'tiborga olmoq lozim. Insonda hodisa yoki voqeani idrok qilish vaqtidan to'ssuda shu to'g'risida guvohlik bergunga qadar bo'ladigan ruhiy o'zgarishlarni uch bosqichga bo'lish qabul qilingan. Ruhiy protsesslarning barqaror bo'lishi, vaqt bo'yicha farq qilishi, mazmuni, kechish jadalligi bunga asos qilib olingan. Bular ko'rsatuvning shakllanish bosqichlari deyiladi.

Har qaysi aniq ko'rsatuvni tashkil topishi uchun yuqoridagi bosqichlarning bo'lishi shart emas, qator holatlarda ularning ayrimlari tegishli obyektiv va subyektiv sharoitlarga ko'ra yuzaga kelmasligi

mumkin. Ko'rsatuvning tashkil topish jarayoni qanday turga bo'linmasin yuqorida umumiy e'tirof etilgan uch bosqichdan voz kechishi mumkin emas.

A. Voqea, hodisa va predmetlarni idrok qilish.

Ko'rsatuv so'roq qilinuvchining bergan dalillarini idrok qilishdan boshlansa, kriminalistikada esa so'roq qilinuvchi o'zi idrok qilgan voqea va hodisa jinoiy huquqiy xususiyatga ega ekanligini tushunib yetgandan so'ng boshlanadi. Psixologik ko'rsatuv tashkil topish vaqtiga ko'ra tergovdagi ko'rsatuvdan oldin yuzaga keladi, ya'ni guvoh dastlab voqeani idrok qiladi, so'ngra esa uning navbatdagi tergov uchun ahamiyatli ekanligini tushunib yetadi.

Tashqi olamni idrok qilishning oddiy shakli his etishdan boshlanadi. His etish bu real olamdagi predmet va hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'siri natijasida yuzaga kelgan ayrim sifat va xususiyatlarning oddiy ifodasidir. His etish obyektiv borliqning sezgi organlarimizga ta'sirining natijasi bo'lib, u boshlang'ich psixologik bilish protsessi hisoblanadi.

Tashqi moddiy olam predmetlarini his etish, ko'rish, eshitish, teri orqali sezish, ushlab ko'rish sezgi organlarimizga ta'sir etish yordamida yuz beradi. His etish orqali biz predmetlarning rangi, hidi, ta'mi, silliqligi, dag'alligi va shu kabi xususiyatlarni bilib olamiz.

So'roq qilinuvchilarning ko'rsatuvidagi ma'lumotlar ularning ongida qayta tiklanganligi sababli ularning hajmi va sifati obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi. Predmet va hodisalarni yetarlicha to'la va aniq idrok qilishga zehning normal sharoiti yetarlicha qulay bo'lmasligi kabi obyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi.

obyektiv omillar

kuzatilayotgan voqeaning qisqa muddatlilik, qisqa vaqt ichida sezgi organlari barcha hodisani tasavvur qila olmaydi

kuzatishdagi noqulay ob-havo sharoiti

kuzatish vaqtidagi yorug'likni yetarli bo'lmashligi

idrok qilishning bir xil vaziyatdaliigi

kuzatilayotgan voqea va obyektlar harakatining davomiyliigi

kuzatiluvchi yoki ta'sir etuvchi omilning juda ko'pligi yoki kamligi

kuzatilayotgan hodisa vaqtida shovqinning kuchlilik

subyektiv omillar

professional malaka

sezgi organlarining normal holati, charchoq va hayaionning vo'qligi

horg'inlik yoki mastlik, kuzatilgan voqea va hodisalarni bilmaslik, tushunmaslik

qabul qilishning tanlanishi

sezgi organlarining xususiyatlari

kuchli hayajonlanish, g'amginlik

ruhiy ezilganlik holati

kuzatilayotgan hodisaning murakkabligi

hodisaga e'tiborsizlik, voqeaqa loqaydlik bilan qarash

B. Idrok qilingan predmet, voqea va hodisalarni xotirada eslab qolish. Har qanday ko'rsatuv keyin yuzaga keladi. Idrok qilingan voqea hodisani so'roq vaqtida xotirada tiklashgacha ba'zan ma'lum vaqt o'tadi. Idrok qilingan ma'lumotni lozim paytda xotirada tiklash uchun uni yodda saqlab qolish zarur. Kishi idrok qilgan barcha ma'lumotlar o'zaro aloqada bo'lib, vaqtincha miyada saqlanadi. Xotira-bu ma'lumotlarni keyingi davrda uzatish, oldin nima idrok qilingan bo'lsa, o'shani xotirada mustahkamlash, saqlab qolish va uni tiklash orqali ifodalanadigan aqliy faoliyatdir. Xotirada saqlab qolishning to'alaligi, xotira tipiga, uning mashqlantirilganligiga, saqlab qolish usullari va hodisa yuz bergandan to uni tiklashgacha o'tgan vaqtga bog'liqdir.

Xotira, o'z navbatida, aniq tasvirli, og'zaki, mantiqiy tuyg'u, hayajonli, harakatdagi xotiraga bo'linadi. Harakatdagi xotira yordamida jismoniy harakat holatlari bilan bog'liq barcha o'zgarishlar, xotirada hayajonli ko'rgazmali tasavvurlar, predmetlarning tashqi obrazlari; og'zaki aytilgan yoki o'qib berilgan nutq yaxshi saqlanib qoladi.

V. Idrok qilingan ma'lumotlarni ko'rsatmada qayta tiklash.

Ko'rgan voqea hodisalarni eslab qolish ularni qayta tiklash bilan chambarchas bog'liqdir. Qayta tiklash bu inson xotirasida nima saqlangan

bo'lsa, o'shani og'zaki yoki yozma bayon qilishdir. Ma'lumotlarning sofligi faqat qabul qilish va eslab qolishning sifatigagina emas, balki shu bilan birga so'roq qilinuvchining ruhiy holati, ma'lumoti, farosati, xarakteri, tasavvur etish qobiliyati, ta'sirlanish darajasi, shart-sharoitlariga va tergov taktikasiga bog'liqdir.

E'tibor qiling! So'roq qilish taktikasi uchun oldin idrok qilingan ma'lumotlarni qayta tiklashning psixologik qonuniyatlari katta rol o'ynadi. Qayta tiklash bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. U ikki xil shaklda amalga oshadi: birinchisi bilib olish, ya'ni obyektни qaytadan ko'rish orqali tiklash, ikkinchisi eslash orqali, ya'ni obyektни xotirada qayta tiklash.

Idrok qilishdan so'ng ko'p o'tmay bevosita qayta tiklash, odatda, keyinga qoldirilgan tiklashga nisbatan ancha to'liq va aniq bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu voqeaga nisbatan so'roqni keyinga qoldirish maqsadga muvofiq emas.

Qayta tiklash bosqichida ko'rsatuvning tashkil topishiga ta'sir o'luvchi obvektiv va subvektiv omillar

qayta tiklash jarayonida so'roq qilinuvchining emotsional holati (havaionlangan voki xotirjam, xafa voki xursandligi kabilar)

gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarda tez-tez uchrab turadigan "o'z fikrini himoya qilish"ga urinish harakati

kishilarning ta'sirlanishga moyilligi (masalan, irodasiz kishilarda, bolalarda ta'sirlanish kuchli bo'ladi)

so'roq qilinuvchining mijozi va tabiati, xayolparastlikka moyilligi

so'roq qilinuvchining o'z fikrini tuzish qobiliyati

Tergovchi ko'rsatuvni qabul qilishda ayrim xatolikka yo'l qo'yishi mumkin. Bu xato so'roq qiluvchining tegishlicha professional tayyorgarlik ko'rmagani natijasidir. Shunday qilib, ko'rsatuvning sifati so'roq predmetiga, qabul qilishning tashqi sharoitiga, xotirada saqlab qolishga, qayta tiklashga hamda so'roq qilinuvchi va so'roq qiluvchining shaxsiy subyektiv sifatlariga bog'liqdir.

So'roq qilish bosqichlari

So'roq qilishning umumiy qoidalari O'zR JPKning 10-bobida belgilangan. So'roq qilish o'z ichiga tayyorgarlik ko'rish va so'roqni o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish kabi bosqichlarni qamrab oladi.

E'tibor qiling! Ayblanuvchini so'roq qilish jarayonida dalillarni keltirishning quyidagi asosiy taktik qoidalariga rioya etish muhimdir: 1) ulardan tejamli, oqilona foydalanish zarur, ularni keltirishga shoshilmaslik, erkin so'zlash bosqichi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, so'roq qilinuvchining o'zi muayyan axborotni berishi uchun imkoniyat yaratish lozim; 2) tergovchi savollarni qo'yish yo'li bilan aniqlanayotgan holatlardan xabardor ekanligini bildirishi va tegishli dalillardan foydalanishi lozim; 3) so'roqda qo'qqisdan ish ko'rish omilidan foydalanilgan hollardan tashqari, dalillar faqat ayblanuvchi ular bilan bog'liq barcha holatlar haqida so'roq qilinganidan keyin ko'rsatilishi lozim, shunda u mazkur dalillarni rad eta olmaydi; 4) tergovchi qo'liga kiritilgan dalillarning har biriga oldindan baho berishi, ularning o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlashi, ulardan so'roqda foydalanilgan holda ayblanuvchi qanday vajlar keltirishi mumkinligini prognozlashtirishga urinishi lozim; 5) dalillarni ko'rsatayotganda ularning so'roq qilinuvchi uchun kutilmagan bir hol bo'ladigan, ularni yolg'on talqin qilishni qiyinlashtiradigan birikmasini nazarda tutish kerak; 6) ayrim dalillarning ruhiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir; 7) agar birinchi urinish kutilgan natijani bermagan bo'lsa, yana bir marta urinib ko'rish uchun tergovchining ixtiyorida muayyan muqaddam oshkor etilmagan dalillar saqlanishi lozim; 8) so'roq qilish jarayonida ayblanuvchini haqqoniy ko'rsatuvlar berishga to'g'ridan to'g'ri chaqirish yaramaydi, uni qilmish to'g'risida haqqoniy ko'rsatuvlar berish zarur degan fikrga asta-sekin yaqinlashtirish uchun turli taktik usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

So'roq qilishga tayyorgarlik ko'rish so'roq qilinuvchidan to'liq va ishonchli ko'rsatuvlar olishning zaruriy sharti hisoblanadi.

So'roq qilishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tergovchiga beriladigan savollarning ta'riflarini, shuningdek ularni berish oldinmaktinligini ishlab chiqishi lozim. U muayyan dalilni, masalan, so'roq qilinuvchi yolg'on gapirayotganini fosh qiladigan dalilni ko'rsatishga uning reaksiyasini mumkin qadar aniq prognozlashtirishi, ko'rsatilgan dalillarni himoya qilish uchun o'zining rad etib bo'lmaz vajlarini nazarda tutishi zarur.

tergov qilinayotgan jinoyat ishi materiallarini sinchiklab o'rganish

so'roq predmetini, ya'ni qaysi holatlar to'g'risida ko'rsatuvlar olish zarurligini belgilash;

so'roq qilinuvchining psixologik xususiyatlarini, uning fe'l-atvori, ma'naviy-ruhiy mo'ljallarini, tergov qilinayotgan ishga bo'lgan munosabatini, protsess asosiy ishtirokchilari, eng avvalo, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) va jabrlanuvchi bilan uning o'zaro munosabatlarini o'rganish;

ish bo'yicha to'plangan dalillarni o'rganish, ularga baho berish, ularni so'roq qilish jarayonida foydalanish uchun tayyorlash;

ish bo'yicha to'plangan dalillarni o'rganish, ularga baho berish, ularni so'roq qilish jarayonida foydalanish uchun tayyorlash;

so'roqda qonunda nazarda tutilgan shaxslar (himoyachi, pedagog, tarjimon, mutaxassis va b.q.) ishtirok etishini ta'minlash;

nutqli axborotni qayd etish texnik-kriminalistik vositalarining tayyorligini tekshirish.

Agar ish bo'yicha **bir necha shaxsni so'roq qilish kerak bo'lsa**, ularni qaysi oldinma-ketinlikda so'roq qilishni belgilash muhimdir. Jinoyat ishi bo'yicha eng muhim ma'lumotlarni biladigan yoki turli sabablarga ko'ra (betobligi, kekxa yoshda ekanligi) voqeaning ayrim holatlarini unutilib qo'yishi mumkin bo'lgan shaxslar birinchi bo'lib so'roq qilinadi. Ayblanuvchiga biron-bir jihatdan qaram holatda bo'lgan shaxslarni ayblanuvchi ularga ta'sir ko'rsatishga ulgurmasligi uchun boshqalardan oldin so'roq qilish tavsiya etiladi. Gumon qilinuvchiga tergovchi u bilan qiziqayotgani haqida xabar qilishi mumkin bo'lgan shaxslarni so'roq qilishga shoshilmaslik kerak.

Bir nechta ayblanuvchilar mavjud bo'lgan holda ularning qaysi biridan eng haqqoniy ko'rsatuvlar olish mo'ljallanayotgan bo'lsa, o'sha ayblanuvchi birinchi bo'lib so'roq qilinadi. Bu yerda jinoyatni sodir etishda ikkinchi darajali rol o'ynagan, ilgari jinoiy javobgarlikka tortilmagan, shuningdek aybdorligi rad etib bo'lmaydigan dalillar bilan quvvatlangan subyektlar nazarda tutiladi.

So'roqqa chaqirish usuli va tartibi ham ancha muhim ahamiyat kasb etadi (telefon orqali, yoki chaqiruv qog'ozi yuborish yo'li bilan,

qarindoshlari, tanishlari orqali va h.k.). So'roq qilish va u bilan bog'liq rasmiyatchiliklar uchun qancha vaqt sarflanishini oldindan belgilash zarur. Agar bir nechta so'roq o'tkazish mo'ljallanayotgan bo'lsa, ularni rejalashtirishda so'roq qilinuvchilar bir-biri bilan muloqot qilmaslik choralarini ko'rish lozim.

So'roqqa tayyorgarlik ko'rish yozma reja tuzish bilan yakunlanadi. Ushbu rejada so'roq qilish vaqti, vazifalari, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar doirasi, savollarni qo'yish oldinma-ketinligi, ko'rsatish mo'ljallangan ashyoviy, yozma dalillar qayd etiladi.

Estda tuting! So'roqni o'tkazish to'rt asosiy bosqichda amalga oshiriladi: **dastlabki bosqich, erkin so'zlash bosqichi, savol-javob bosqichi va yakunlovchi bosqich.**

Dastlabki bosqichda tergovchi so'roq qilinayotgan fuqaroning shaxsiga ishonch hosil qiladi, bayonnomaning so'rovnoma qismini to'ldiradi, so'roq qilinuvchiga uning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Mazkur bosqich so'roq qilinuvchining shaxsiy xususiyatlari bilan tanishish, u haqida umumiy tasavvur hosil qilish, u bilan psixologik aloqa o'rnatishga yordam beradi.

Erkin so'zlash bosqichi so'roq qilinuvchi o'zi ko'rsatuvlar berish uchun chaqirilishiga sabab bo'lgan holatlarni bayon etishini nazarda tutadi. Ushbu bosqichda so'roq qilinuvchining gapini zaruratsiz bo'lish tavsiya etilmaydi. So'roq qilinuvchiga erkin so'zlash imkonini berish ayrim hollarda tergovchi hatto xayoliga ham keltirmagan holatlardan xabar topishi uchun imkoniyat yaratadi.

Savol-javob bosqichida tergovchi so'roq qilinuvchidan erkin so'zlash jarayonida olingan axborotga tayangan holda aniqlik kirituvchi, to'ldiruvchi, eslatuvchi, muayyanlashtiruvchi, nazorat savollarini beradi, zarur holda unga dalillarni keltiradi. Savollar aniq va lo'nda ko'rinishda qo'yilishi, javobga yashirincha ishora qilmasligi kerak.

So'roq, odatda, tergovchi xonasi yoki maxsus ajratilgan xonada olib borilishi kerak. So'roq qilish xonasida so'roq qilinuvchi o'zini nihoyatda erkin sezishi, uning ruhiyatiga moslangan bo'lishi, so'roq qilinayotgan xonada kishi e'tiborini chalg'itadigan keraksiz narsalar, jihozlar bo'lmasligi, hattoki tashqi dunyo bilan aloqa uzilgan bo'lishi zarur.

Ayblanuvchini so'roq qilishdan oldin tergovchining butun harakati, e'tibori faqat shu masalaga qaratilishi, mazkur tayyorgarlikda tergovchi sertasalluf bo'lishi bilan o'zini davlat vakili sifatida ko'rsata olishi lozim. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilishdan, avval, unga nisbatan qanday dalillar mavjud, so'roq jarayonida ular yolg'on ko'rsatuv bergan

bo'lsa, uni fosh etish uchun qo'llanadigan dalillar, hujjatlar puxta tekshirilgan bo'lishi lozim.

So'roq jarayonida so'roq qilinuvchi shaxsga uni ko'rsatmasini tekshirish, ayrim qismlarini to'ldirish va aniqlash uchun qo'yiladigan savollar oldindan, taxminan bo'lsa-da, tayyorlanib qo'yilishi lozim.

Jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish taktikasi

Jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan muayyan holatlarni biladigan shaxs guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin. Agar guvoh ko'rsatuvlar berishni istasa, u keyinchalik mazkur ko'rsatuvlardan bosh tortgan holda ham ulardan dalillar sifatida foydalanishi mumkinligi haqida ogohlantirilishi lozim.

Guvohlar tergov qilinayotgan voqea qanday rivojlanganini kuzatgan shohidlarga va turli holatlar (masalan, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish, yashirinib yurgan jinoyatchi turgan joy) to'g'risida nimalarnidir biladigan guvohlarga bo'linadi. So'roqning boshida tergovchi guvoh bilan psixologik aloqa o'rnatishga harakat qilishi, unga xayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo'lishi lozim.

Muhim ma'lumotlarni xabar qilishdan bo'yin tovlayotgan, yolg'on ko'rsatuvlar berayotgan vijdonsiz guvohni so'roq qilayotganda mazkur pozitsiya motivlarini aniqlash va bartaraf etish muhimdir. So'roq qilinuvchi shaxsining ijobiy jihatlariga, uning fuqarolik burchiga murojaat etish samara berishi mumkin. Bunday guvohni so'roq qilish taktik usullari qatoriga ko'rsatuvlarni mufassallashtirish, shuningdek ko'rsatuvlardagi ichki ziddiyatlarni, ularning qo'lga kiritilgan boshqa dalillar bilan mos kelmaydigan jihatlarini aniqlash kiradi.

Savollar va javoblar bosqichida olingan ma'lumotlar qayd etilgandan keyin so'roq qilinuvchiga aniqlangan ziddiyatlar namoyish etiladi, ularning sabablarini tushuntirish taklif qilinadi. Qo'shimcha, nazorat, fosh qiluvchi savollarni qo'yishda so'roq sur'atini jadallashtirish vaqt taqchilligini yuzaga keltiradi va so'roq qilinuvchiga o'z ko'rsatuvlarida mavjud ziddiyatlarning maqbul izohini topishga imkon bermaydi, bu uni tashvishga soladi, oldindan tayyorlangan yolg'on ko'rsatuvlarni xabar qilishga o'z e'tiborini jamlashga xalaqit beradi.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni so'roq qilishda vijdonan yanglishishga chek qo'yish, unutilgan faktlar va holatlarni eslashga yordam berish taktik usullarini qo'llash juda muhimdir. Bunda ba'zan so'roq qilinuvchining idrok etish qobiliyati va subyektiv imkoniyatlari (qulog'i og'irlik,

shabko'rlilik va sh.k.)ni aniqlash ko'maklashadi. Unutilgan faktlar va holatlarni eslashga so'roqning qulay muhiti, tergovchining xayrixohligi va xushmuomalaligi imkoniyat yaratadi.

Idrok etilgan faktlar va voqealar xotiraga bir-biri bilan, shuningdek ulardan oldingi va keyingi taassurotlar bilan bog'liq holda o'rnashadi. Bunda taassurotlar yoki kechinmalarni eslash xotirada tergov qilinayotgan jinoyat voqeasi tafsilotlarini jonlantirishi mumkin.

Yanglishishga yo'l qo'ymaslik, so'roq qiluvchiga muhim faktlarni eslashga yordam berish unga dalillarni ko'rsatish, ilgari olingan ko'rsatuvlarni o'qib eshittirish, boshqa shaxslar bilan o'tkazilgan so'roqlarning fonogrammalari va videoyozuvlarini qo'yish berish, yuzlashtirishlar o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda so'roq qiluvchiga ashyoviy dalillar, turli hujjatlar ko'rsatilishi, hodisa sodir bo'lgan joy sharoitlarining videoyozuvlari namoyish etilishi, gumon qiluvchilarni tanib olish uchun ko'rsatish o'tkazilishi mumkin.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilish taktikasi xususiyatlari birinchi navbatda ularning ko'rsatuvlarini shakllantirish xususiyati bilan bog'liq. Jabrlanuvchi so'roq qilish subyekti sifatida ushbu tergov harakatini o'tkazish jarayonida alohida o'rin egallaydi. Jabrlanuvchining ushbu holati unga nisbatan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlarini keltirib chiqargan jismoniy azob-uqubatlar va ruhiy iztiroblar bilan belgilanadi. Jabrlanuvchi his qilayotgan qo'rquv, og'riq, stress, ruhiyatga shikast yetkazuvchi vaziyatdan tezroq chiqish istagi, jinoyatchining hujumini qaytarishga urinishlar bilan belgilangan kuchli ruhiy hayajonlanish holati, qattiq iztiroblar jabrlanuvchining o'ziga xos ruhiy holatini yuzaga keltiradi. Garchi, ko'pincha jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlari ancha to'liq va ishonchli bo'lsa-da, ular ishning yakunidan shaxsan manfaatdor ekanligini har doim hisobga olish zarur.

Kuchli ruhiy iztiroblar ta'sirida jabrlanuvchilar voqea tafsilotlarini eslashga doim ham qodir bo'lavermaydilar, shu sababli ular bilan o'tkaziladigan dastlabki so'roqlar aksariyat hollarda keyingi so'roqlar bilan taqqoslaganda ancha yuzaki bo'ladi. Kuchli asabiy-ruhiy hayajonlanish (amneziya) tufayli jabrlanuvchining xotirasidan tergov qilinayotgan tajovuz bilan bog'liq xotiralar chiqib ketishi ham mumkin. Bunga ko'pincha jinoyat oqibatida jabrlanuvchining hushdan ketishi, uning boshi jarohatlanishi, yuziga urilishi, bo'g'ilishi, shok holatlari va hokazolar sabab bo'lishi mumkin.

E'tibor qiling! Jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarida quyidagilar uchraydi:

- 1) o'ziga tahdid solgan xavf-xatar darajasini, hujum qilgan shaxsning bo'yi va kuchini, jinoyat natijasida o'ziga yetkazilgan zararni oshirib ko'rsatish;
- 2) dastlabki ko'rsatuvlarda mufassal ma'lumotlarning yo'qligi, ularning umumiyligi;
- 3) yuz bergan voqeaning ayrim muhim holatlari tavsifida bo'shliqlar mavjudligi;
- 4) voqealar rivoji xususida yanglishish, tafsilotlar, jinoyatning muayyan ishtirokchilari harakatlarining o'rnini almashtirish.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilayotganda har bir muayyan vaziyatda ruhiy iztiroblar sababini va ruhiy holatni belgilaydigan omillarni hisobga olish zarur. Jabrlanuvchini so'roq qilishga shoshilmaslik (unga o'zini bosib olish imkonini berish), biroq uni so'roq qilishni, haddan tashqari, kechga ham surmaslik (voqea tafsilotlarini unutib qo'yishi, chalkashtirib yuborishi, jinoyatchi va uning aloqalari tazyiqiga uchrashi mumkin) tavsiya etiladi. Agar jabrlanuvchini so'roq qilishni kechga surish mumkin bo'lmasa, uning ruhiy iztiroblari pasaygandan va vaqtinchalik pasaygan eslash qobiliyati tiklangandan keyin uni qayta so'roq qilish nazarda tutilishi lozim.

Jabrlanuvchidan olingan ko'rsatuvlarga baho berayotganda, ayrim hollarda u yuz bergan voqeaning ba'zi bir tafsilotlarini ataylab yashirishi, qisman yolg'on ko'rsatuvlar berishi, ko'rsatuvlar berishdan bosh tortishi yoki dastlabki tergov jarayonida ularni o'zgartirishi, shuningdek butunlay uydirma ma'lumotlarni berishi (masalan, tuhmat qilishi) mumkinligini hisobga olish zarur. Bularning barchasi jabrlanuvchining aybdor shaxslar, ularning yaqin aloqalari bilan alohida munosabatlari, ularning o'ch olishidan qo'rqish, manfaatdor shaxslarning qo'rqitishlari, shuningdek o'zining nomaqbul xulq-atvorini yashirishga urinish natijasi bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, jabrlanuvchining ko'rsatuvlariga huquqni muhofaza qilish organlari yuz bergan voqeaning asl sababini aniqlashga, aybdor shaxslarni topish va jazolashga, uning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, kelgusi tajovuzlardan uni himoya qilishga qodir ekanligiga ishonmaslik ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holda jabrlanuvchini so'roq qilish jarayonida yolg'onga chek qo'yish va haqqoniy ko'rsatuvlar olishga qaratilgan taktik usullaridan foydalanish lozim.

Guvohlarni so'roq qilish ham so'roq o'tkazishning umumiy tartibi va undan kelib chiqadigan taktik usullarga tayanadi.

Guvohlarni so‘roq qilishning umumiy protsessual tartibi uch bosqichdan iboratdir: a) so‘roq qilinuvchining shaxsini aniqlash; b) so‘roq qilinuvchining ko‘rsatuvini eshitish; d) savol-javob o‘tkazish.

Guvohlarni so‘roq qilishdan avval tergovchi guvohning pasporti yoki boshqa shaxsiy hujjatini tekshirishi, so‘ngra so‘roq bayonnomasi blankasida ko‘rsatilgan biografik ma‘lumotlarni so‘rab bilishi va ayblanuvchi bilan qanday munosabatda ekanligini aniqlashi lozim.

Ayblanuvchi va jabrlanuvchiga nisbatan bo‘lgan aloqasidan guvohning ish oqibatidan moddiy yoki ma‘naviy manfaatdorligini bilib olish mumkin. Shuning uchun bu masalaga jiddiy yondashmoq darkor.

So‘roqning birinchi qismida guvoh va jabrlanuvchilar qasddan yolg‘on ko‘rsatuv bersa yoki ko‘rsatuv berishdan bosh tortsa, ularni O‘zbekiston Respublikasi JKning tegishli moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi.

Jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirishning o‘zi kifoya bo‘lmay, balki guvohning to‘g‘ri va to‘la ko‘rsatuvini ish uchun qancha ahamiyatga ega bo‘lishini tushuntirish va uning bu masalaga tushunib yetganligi haqida so‘roq bayonnomasiga imzosini qo‘ydirish lozim.

Takroriy so‘roq o‘tkazishda ham guvoh noto‘g‘ri javobi uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi va buni o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi. So‘roqning ikkinchi qismi guvohga mazkur jinoyat ishi bo‘yicha nimalar ma‘lum, qanday hodisani ko‘rgan yoki eshitganligini gapirib berishni taklif qilishdan boshlanadi.

Guvohning so‘zini bo‘lmay, uni sabr-toqat bilan eshitish lozim, chunki u tergovchi kutmagan yangi dalillarni yoki ish bo‘yicha ahamiyatli bo‘lgan holatlarni ochib berishi mumkin.

Guvohning so‘zi haddan tashqari cho‘zilib ishga kerakli bo‘lganlardan “uzoqlashib” ketsa, uni voqea tafsilotlariga “yaqinroq” kelishiga va asosiy ishga tegishli bo‘lgan narsalarni so‘zlab berishga jalb etish mumkin. Guvoh so‘zini tugatgandan so‘ng, u qoldirib ketgan dalillar yuzasidan to‘ldiruvchi savollar beriladi. Ayrim dalillar yuzasidan tekshiruvchi savollar ham berilishi mumkin. Guvoh va jabrlanuvchiga beriladigan savollar aniq va tushunarli bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, savollar qisqa bo‘lib, to‘la javob olishga imkon tug‘dirishi kerak, ba’zida savolning o‘zida javob ma‘nosi mavjud bo‘lib, ishorali bo‘ladi, so‘roq qilinuvchi faqat “ha” yoki “yo‘q” degan javobni beradi. Bu hol so‘roq usuliga xilof bo‘lib to‘la va obyektiv ko‘rsatuv olishga to‘sqinlik qiladi.

Ba’zi xotirasi zaif guvohlarga eslatuvchi savollar qo‘yilishi mumkin. Jinoyat hodisasiga yaqin bo‘lgan, ammo ishga aloqasi bo‘lmagan

holatlarni eslatish yordamida unutilgan voqeani tiklashga yordam beradi. Savol qo'yish vaqtida guvohga ishda bor bo'lgan hujjatlarni, voqea joyi, sxemasi yoki daliliy ashyoni ko'rsatish mumkin. Bu bilan ikkita masala hal qilinadi: birinchidan guvohni unutilgan voqealarni eslashga yordam bersa, ikkinchidan qasddan tergovni chalg'itish uchun noto'g'ri ko'rsatuv beruvchi jabrlanuvchi va guvohlarni sirini fosh etishga qurol bo'ladi. Shu tariqa guvohni voqea sodir bo'lgan joyda so'roq qilish ba'zida maqsadga muvofiq bo'ladi. Hodisa joyida ko'rsatuv olish guvohga ayrim faktlarni, daliliy ashyolarni, izlarni va boshqa joyni aniqlashga, joyni chizmasini tuzishga, ilgari chizilgan chizmalar bo'lsa, ularni to'ldirishga va aniqlik kiritishga yordam beradi.

So'roq vaqtida guvohning ruhiy holatini kuzatib borish lozim. Uning qo'yilgan savollariga nisbatan avzoyini o'zgarishi, ish uchun dalil bo'la olmasa-da, tergovchiga to'g'ri taktik usul bilan tanlashga yordam beradi.

Guvohning berayotgan ko'rsatuvini diqqat bilan eshitib borish lozim, shu bilan birga uning ba'zi ma'lumotlarini ma'qullash yoki ularni haqiqatdan "yiroq", yolg'on ekanligini anglatuvchi so'z qo'shib turish ko'pincha o'zini oqlamaydi.

So'roq maqsadga muvofiq o'tishi uchun tergovchi faqat guvoh hikoya qilib bergan voqeani qog'ozga tushirish bilan kifoyalanmay, balki so'roq jarayonida faol bo'lmog'i zarur. Guvohning ko'rsatuv qaysi qismi to'la va obyektiv, qaysi qismi chala va yuzaki ifodalanganini sezib borishi va ular yuzasidan to'ldiruvchi va aniqlovchi savollarni berib borishi lozim.

Guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlari dalil manbayi bo'lish uchun ularni umumiy qoida asosida har vaqt ishning boshqa holatlari bilan solishtirib tekshirilishi va baholanishi lozim.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish taktikasi

So'roqni boshlashdan oldin gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga uning huquqlari, shu jumladan ko'rsatuvlar berish yoki ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish huquqi tushuntiriladi. So'roq qilinuvchiga u ko'rsatuvlar berish orqali o'z manfaatlarini yanada faol himoya qilishi, masalan, o'zining aybini yengillashtiradigan yoki uni istisno etadigan holatlar to'g'risida xabar qilishi mumkinligi tushuntirilishi lozim. Shunda u iltimosnomalar va rad etish to'g'risida arizalar berishi, dalillar taqdim etishi osonlashadi.

So'roq qilish jarayonida tergovchi haqqoniy ko'rsatuvlar berish uchun qulay psixologik muhit yaratishga harakat qilishi, o'zining tergov ostidagi

shaxs va uning himoyachisiga bo'lgan hurmatini namoyish etishi, ular egallagan pozitsiya va himoya taktikasini tushunishiga urg'u berishi lozim. Agar advokat gumon qilinuvchining ko'rsatuvlar berishdan bosh tortishini qo'llab-quvvatlayotgan bo'lsa, so'roq qilinuvchiga buning salbiy oqibatlarini, shuningdek u o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qilishga haqli ekanligini, buning uchun sukut saqlagandan ko'ra ko'rsatuvlar bergan foydaliroq ekanligini unga tushuntirish zarur.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni so'roq qilishning muvaffaqiyati tegishli taktik usullarni to'g'ri tanlash va samarali qo'llashga bog'liq bo'ladi. **Nizosiz vaziyatda**, so'roq qilinuvchi o'z aybiga iqror bo'lgan sharoitlarda so'roq qilayotganda tergovchi asosiy e'tiborni tergov qilinayotgan jinoyatning barcha holatlari to'g'risida mumkin qadar batafsil ko'rsatuvlar olishga qaratishi lozim. Olinayotgan ma'lumotlarga baho berishda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), odatda, o'z aybini kamaytirib ko'rsatishga, javobgarlikning bir qismini o'z sheriklari yoki jabrlanuvchiga yuklashga, o'zini noqulay vaziyat qurboni qilib ko'rsatishga harakat qilishini doim yodda tutish kerak.

So'roq qilinuvchi yaqin odamining aybini o'z bo'yniga olishi ham ehtimoldan xoli emas. Bularning barchasi vaziyat nizoli tus olishiga olib keladi, shu sababli so'roq qilinuvchining e'tiborini uning ko'rsatuvlaridagi ziddiyatli jihatlarga darhol qaratish doim ham maqsadga muvofiq emas. Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning ko'rsatuvlarida mavjud yolg'on tafsilotlar o'z-o'ziga tuhmat qilish natijasi bo'lishi mumkinligini unutmash kerak. O'z-o'ziga tuhmat qilish zamirida ko'pincha muayyan shaxsiy xususiyatlar yotadi. Soxta iqroorda ifodalangan ma'lumotlar, odatda, tergovchiga ma'lum bir tafsilotlar doirasidan chetga chiqmaydi, bunda ularning aksariyat qismini o'z aybiga chin dildan iqror bo'lganlik va tergovga ko'maklashishga tayyorlik haqidagi arizalar tashkil etadi.

E'tibor qiling! So'roq qilinuvchi bergan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish jarayonida: 1) u tergovga ma'lum bo'lmagan, lekin tergov qilinayotgan jinoyatni amalda sodir etgan shaxs bilishi kerak bo'lgan faktlar va tafsilotlarni xabar qilganini; 2) so'roqda xabar qilingan faktlar tergovchi qo'lga kiritgan boshqa dalillar bilan tasdiqlanishi yoki tasdiqlanmasligini aniqlash zarur. O'z-o'ziga tuhmat qilishni fosh etishda ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, olingan ko'rsatuvlarni boshqa dalillar bilan sinchiklab solishtirish katta rol o'ynashi mumkin.

Nizoli vaziyatda so'roq qilinuvchiga bor gapini aytishi uchun imkon berish va ayni vaqtda u bilan psixologik aloqa o'rnatishga harakat qilish, uning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, tergovni qiziqtirayotgan barcha

holatlar bo'yicha mumkin qadar to'liq ko'rsatuvlar olish lozim. Bunday vaziyat gumon qilinuvchini birinchi marta so'roq qilishga xos bo'lib, bunda u sodir etilgan jinoyatga o'zining daxldorligini, odatda, rad etadi. Tergovchi esa bu davrda gumon qilinuvchining aybdorligini uzil-kesil tasdiqlaydigan dalillar yig'indisiga ko'pincha ega bo'lmaydi. Gumon qilinuvchi aynan o'sha jinoyat sodir etgan odam ekanligiga uning ishonchi komil bo'lmaydi. Shu sababli birinchi so'roq shu jumladan razvedka xususiyatiga ega bo'ladi, gumon qilinuvchining shaxsiy xususiyatlarini, uning nuqtayi nazari va dalillarini aniqlashga, u tergovchiga xabar qilmoqchi bo'lgan ma'lumotlarni olishga qaratiladi.

Gumon qilinuvchiga qarama-qarshi ruhiy kechinmalar xos ekanligini hisobga olish lozim. Bir tomondan, u tergov o'zining aybdorligini tasdiqlovchi dalillarga ega emasligini o'ylab, qilmish uchun jinoiy javobgarlikdan qutulib qolishga umid qiladi, boshqa tomondan esa – ushlanganlik va qo'qqisdan so'roqqa chaqirilganlik uning jinoyat fosh etilmay qolishiga bo'lgan umidlarini chippakka chiqaradi, qilmish uchun javobgarlik va jazoning muqarrar ekanligi haqidagi o'ylarini junbushga keltiradi. Bu ruhiy kechinmalar gumon qilinuvchi yuzaga kelgan vaziyatga to'g'ri baho berishini qiyinlashtiradi, u noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga olib keladi va tergovchi bundan foydalanishi lozim.

Gumon qilinuvchini so'roq qilish taktikasi ehtiyotkorlikka asoslanishi lozim, chunki mazkur subyektga nisbatan gumon favqulodda vaziyat, tuhmat, yanglishish yoki xato qilish natijasida yuzaga kelgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ushlanganlik va qamoqqa olinganlikning o'ziyoq irodasi bo'sh, ta'sirchan odamni, hatto u qilmishda aybdor bo'lmasa ham, o'z-o'ziga tuhmat qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli so'roq qilinuvchining tergov qilinayotgan jinoyatga daxldorligini sinchiklab tekshirish, undan faqat jinoyatni shaxsan sodir etgan odamgina biladigan ma'lumotlarni olish juda muhimdir.

So'roq qilinuvchining tergov qilinayotgan qilmishga daxldorligidan u ma'lum bir faktlarni (masalan, jabrlanuvchi bilan tanishligini) yashirayotgani, shuningdek u sodir etilgan jinoyat holatlaridan xabardor ekanligiga ishora qiluvchi (masalan, jabrlanuvchining alohida belgilari to'g'risidagi) ma'lumotlarni beixtiyor xabar qilgani dalolat berishi mumkin.

Gumon qilinuvchilarni so'roq qilish jarayonida ular ba'zan alibiga havola qiladilar. Bunday alibi tekshirilishi lozim. Atroflicha so'roq qilish gumon qilinuvchi u tergov qilinayotgan jinoyatni sodir etgan bo'lishi mumkin emasligini bildirayotib ko'rsatgan vaqtda muayyan joyda

bo'lishga yo'ldosh holatlar va tafsilotlarni bilmasligini namoyish etishi mumkin. Masalan, ko'rsatilgan vaqtda mazkur kinoxonada boshqa film namoyish etilgani, diskotekada go'yoki u yerda bo'lgan so'roq qilinuvchi bilmaydigan favqulodda hodisa sodir bo'lgani aniqlanadi.

So'roq qilish jarayonida gumon qilinuvchining jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan ham foydalanish zarur. Masalan, ayrim jinoyatchilar o'zlari ushlangunga qadar tergov jarayoni va uning natijalariga qiziqish bildiradilar, hodisa sodir bo'lgan joyda nima topilganini surishtiradilar, jabrlanuvchi sog'lig'ining holatini aniqlashga harakat qiladilar va h.k. Boshqa hollarda mazkur subyektning yuz bergan voqeaga nisbatan namoyishkorona befarqligi atrofdegilar ko'ziga yaqqol tashlanadi yoki u aybsiz jazoga tortilishi mumkinligi haqida gapirib tahlilga tushadi.

So'roq qilish jarayonida dalillarni ko'rsatish va gumon qilinuvchini uning sodir etilgan jinoyat xususidagi ruhiy iztiroblarini kuchaytiradigan usullarni qo'llashdan uyg'unlikda foydalanish maqsadga muvofiq. Qilmish va uning og'ir oqibatlari ta'sirida gumon qilinuvchining vijdon azobini kuchaytirish, javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni unga tushuntirish orqali so'roq qilinuvchi o'z pozitsiyasini o'zgartirishiga erishish mumkin.

Ayblanuvchini so'roq qilish tergovchi ayblov e'lon qilish va so'roq qilinuvchi jinoyatni sodir etishda aybdorligini fosh qilish uchun yetarli dalillarga ega bo'lganda o'tkaziladi. To'plangan dalillar tizimida bo'shliqlar va ziddiyatlar mavjud bo'lgan holda tergovchining ahvoli og'irlashadi. Bu holda so'roqni avval dalillarni ko'rsatmasdan o'tkazish, mazmuni sodir etilgan jinoyat holatlari va tafsilotlarini tergovchi bilishidan dalolat beruvchi savollarni qo'yish taktik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Bunday xabardorlik hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoit tahlili, shohidlar, jabrlanuvchilar, guvohlarning ko'rsatuvlariga, shuningdek ayblanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldingi va keyingi xulq-atvori xususiyatlarini tavsiflovchi ma'lumotlarga asoslanadi.

So'roq qilish jarayonida ayrim dalillarning ta'sirlantiradigan kuchidan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ular shunday ko'rsatilishi lozimki, so'roq qilinuvchida tergovchi uning barcha xatti-harakatlaridan xabardor ekanligiga, aybi uzil-kesil fosh qilinishi muqarrar ekanligiga ishonch paydo bo'lishi lozim.

Jinoyatchilarga ko'pincha aybini qisman bo'yniga olish yoki mutlaqo iqror bo'lmasdan jinoiy javobgarlikdan qutilishga harakat qilish xosdir. Tergovchining vazifasi har bir ayblanuvchining ruhiy xususiyatiga mos holda taktik usullarni qo'llab, to'g'ri va to'la ko'rsatuv olishdir.

Ayblanuvchini so'roq qilishdan avval jinoyat ishini yana bir bor ko'rib chiqib, kerakli joylaridan hujjatlaridan alohida yozma izohlar olish lozim, chunki so'roq vaqtida ular zarur bo'lib qolishi mumkin. Ayblanuvchiga qo'yiladigan savollarni tuzishda esa ayblanuvchining javobini va uning turli xillarini taxminan bo'lsa ham nazarda tutgan holda tayyorgarlik ko'riladi.

Ayblanuvchilarning ko'rsatuvining ahamiyati

Ish bo'yicha ayblanuvchining ko'rsatuvini daliliy manba bo'lib, undagi ma'lumotlar ishning ayrim holatlarini to'la ochishga yordam beradi. Jinoyat voqeasini jabrlanuvchiga va guvohga nisbatan ayblanuvchi yaxshiroq biladi va ko'p vaqtga eslab qoladi. Ayrim fakt va holatlar esa faqat ayblanuvchiga ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ayblanuvchidan mumkin qadar to'la va to'g'ri ko'rsatuv olishga harakat qilinishi lozim.

Ayblanuvchining ko'rsatuvini dastlabki tergovda uning himoya vosita bo'lib hisoblanadi. Tergovchi ayblanuvchiga to'la, har tomonlama to'g'ri ko'rsatuv berishga, o'zini himoya qilishga hamma dalillarni, faktlarni keltirishga imkon tug'diradi. Shu bilan birga, tergovchi ishga kerak bo'lgan muhim faktlarni, holatlarni aniqlaydi va ayblanuvchining jinoiy javobgarlik masalasini hal qiladi.

Tergovchi so'roq o'tkazish vaqtida yuqorida ko'rsatilgan to'rt holatning qaysi biri bilan to'qnash kelganini bila olmaydi. Shuning uchun ayblanuvchilarni so'roq qilish paytida ikki muhim qoidani nazarda tutishi lozim: birinchidan, ayblanuvchining aybiga iqror bo'lish yoki bo'lmaslikdan qat'i nazar, uning ko'rsatuvini tekshirish zarur va ikkinchidan, tergovda aybini bo'yniga olmagan ayblanuvchilarning ko'rsatuvini "albatta yolg'on bo'ladi" degan xulosa hosil bo'lmasligi lozim.

So'roq o'tkazish ayblanuvchiga ayb e'lon qilish to'g'risidagi qaror bilan tanishgandan so'ng o'tkaziladi. Jinoyat ishining xususiyatiga va alomatlariga qarab aybini e'lon qilish to'g'risidagi qarorida ayblash uchun umumiy yuridik asoslarni keltirish kifoyadir, ba'zida esa dalil manbaini ham ko'rsatish mumkin, lekin ayrim faktlarni, ashyoviy-dalillarni ma'lum qilishga shoshilmaslik kerak, chunki ular so'roqning keyingi bosqichlarida zarur bo'lib qoladi.

So'roq yaxshi natijalar berishi, uni muvaffaqiyatli o'tishi uchun tayyorgarlik ko'rish vaqtida tergovchi ayblanuvchining shaxsini o'rganishi va aniqlashi lozim.

Ayblanuvchining shaxsini belgilovchi xususiyatlar: uning xizmat sohasi, turmushi, atrofidagi tanish-bilishlari bilan aloqasi va boshqa

tergovga kerak bo'lgan ma'lumotlardir. Ularni tezkor harakatlar va guvohlarni so'roq qilish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu ma'lumotlar so'roq vaqtida ayblanuvchining yolg'on ko'rsatuvini ochib tashlashga yordam beradi. So'roq takroriy o'tkazilganda ham tayyorgarlik ko'rishga to'g'ri keladi, chunki birinchi so'roqdan olingan ko'rsatuvni ko'rib chiqib, qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilgan, qanday fakt va holatlar aniqlanmay qolgan, qanday yangi savollar qo'yilishi mumkin va boshqa masalalar belgilab olinadi.

Sotroq vaqtida ayblanuvchilarning ayblariga nisbatan munosabati

<p>Ayblanuvchi e'lon qilgan ayblarga to'la yoki qisman iqrор bo'ladi, to'g'ri va to'la ko'rsatuv beradi</p>	<p>Ayblanuvchi aybiga iqrор bo'lmaydi va to'g'ri ko'rsatuv beradi, chunki u haqiqatda ham jinoyatni sodir qilmagan</p>	<p>Ayblanuvchi aybiga iqrор bo'lmaydi va jinoiy javobgarlikdan qutilish maqsadida yolg'on ko'rsatuv beradi</p>
---	--	--

Ayblanuvchi aybiga iqrор bo'ladi "to'la yoki qisman" va yolg'on "noto'g'ri" ko'rsatuv beradi. Buning sababi turlicha bo'lishi mumkin; so'roq qilinuvchi sherigining aybini bo'yniga olib, uning ishini osonlashtirish yoki tergovga ma'lum bo'lmagan xavfliroq holatlarni yashirish yoxud o'zini maqtash, qahramon qilib ko'rsatish maqsadini ko'zlaydi.

Jinoyatni ehtiyotsizlik bilan sodir qilgan ayblanuvchilarni so'roq qilish, ularning ko'rsatuvlarini asoslash xuddi guvohlarni so'roq qilish usuliga o'xshashdir. Bunday ayblanuvchilar so'roq vaqtida ba'zi holatlarni xotirasidan ko'tarilganligini aytsa yoki boshqa sabablariga ko'ra voqeani to'la so'zlab bera olmasa, guvohlarga qo'llanadigan taktik usullarni ishlatish mumkin bo'ladi.

Lekin jinoyatni qasddan sodir qilgan ayblanuvchilar, odatda, voqeani to'la-to'kis qabul qiladilar va yaxshi eslab qoladilar. Ular jinoyat hodisasidan qanchalik manfaatdor bo'lsalar, uning ochilmasligiga shunchalik harakat qiladilar. Shuning uchun bu xildagi ayblanuvchilarga qo'llanadigan taktik usullar birmuncha boshqachadir.

Qonunga binoan ayblanuvchining ko'rsatuv berishi ixtiyoriydir. U ko'rsatuv berishdan bosh tortgani va yolg'on so'zlagani uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ayblanuvchini qo'rqtirish, aldash, zo'rlik ishlatish, yolg'on va'dalar berish yo'li bilan ko'rsatuv olish g'ayriqonuniydir.

Ayblanuvchilarni so'roq qilish guvoblarni so'roq qilish tartibi singari uch qismdan iborat:

So'roqning **birinchi qismida** ayblanuvchining shaxsini aniqlash, tergov jarayonida unga nisbatan qo'llanadigan ehtiyot choralarini tanlashga va turli hodisa-holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Agar ayblanuvchi ochiqda bo'lsa, uning hujjatlari tekshirilib shaxsiga tegishli ma'lumotlari yuzasidan so'roq qilinib, hujjatlardagi ma'lumotlarga solishtirish zarur. Qamoqda bo'lgan ayblanuvchi uning shaxsiy hujjatlari jinoyat ishida bo'ladi va tergovchi ularni oldindan tekshirib chiqishga imkoni bor.

Anketa ma'lumotlari aniqlangandan so'ng tergovchi ayblanuvchini aybini e'lon qilish qarori bilan tanishtiradi va zarur bo'lsa, aybining mohiyati tushuntiriladi. Shuningdek, protsessual qonunga binoan ayblanuvchining protsessual huquqlari ham tushuntiriladi.

So'roqning **ikkinchi qismi** ayblanuvchining tushuntirishini eshitishdir. Bu qismda quyidagi taktik qoidalar nazarda tutilishi darkor.

1) ayblanuvchining qanday bo'lmasin sodir qilingan jinoyatga iqror bo'lishiga majbur qilmaslik lozim, aks holda u sudda aytgan so'zidan bosh tortadi va dastlabki tergovda uni majbur qilganliklarini aytadi, natijada jinoyatni isbotlash qiyinlashadi va ish qayta tergovga yuboriladi.

2) ayblanuvchining savollar bilan yoki luqma tashlash bilan so'zini bo'lmasdan, uning ko'rsatuvini oxirigacha tinglash zarur. Garchi ayblanuvchi yolg'on ko'rsatuv berayotganligi sezilsa ham, unga so'zini oxirigacha yetkazishga imkon berilmog'i lozim. Ammo ayblanuvchi ataylab jinoyat ishiga aloqasi bo'lmagan narsalar yuzasidan ma'lumot bersa, tergovchi uni ishga tegishli bo'lgan faktlar yuzasidan so'zlashga chorlashi zarur.

3) jinoyat ishi murakkab, bir necha epizoddan iborat bo'lsa, so'roq har bir epizod yuzasidan alohida olib borilishi lozim. Bir epizod yoritilgandan so'ng ayblanuvchiga savol berib javobini eshitib, so'ngra ikkinchi epizod yuzasidan so'roqqa o'tish lozim.

So'roqning **uchinchi qismi** ayblanuvchiga savol berib, uning javobini olish. Bu eng murakkab va mas'uliyatli masaladir. So'roqning bu bosqichi tergovchidan uning mutaxassislik mohiyatini, ilg'or tajribasini va boshqa ijobiy xususiyatlarini amalga oshirishini talab qiladi.

Esda tuting! Ayblanuvchilarga beriladigan savollar **uch turda** bo'lishi mumkin: **to'ldiruvchi, aniqlovchi va tekshiruvchi**. Ular quyidagi masalalarni hal qilishga imkon beradi:

- a) jinoyat ishiga aloqasi bo'lgan faktlar yuzasidan to'la va har tomonlama ma'lumot olish (ayblanuvchi o'zini himoya qilish uchun qanday asoslar keltirgan va ularni to'g'riligini tekshirish);
- b) tergov davrida ma'lum bo'lmagan yangi ma'lumotlar olish;
- d) ayblanuvchi bergan ko'rsatuvining ayrim noaniq bo'lgan joylarini yoritish;
- e) ayblanuvchi ko'rsatuvini tekshirishga zarur bo'lgan ayrim holatlarni aniqlash;
- f) ayblanuvchining bergan ko'rsatuvini ishning asosiy holatlariga qarama-qarshi bo'lsa, uni yolg'on gapirganligini fosh etish.

So'roq vaqtida ishlatiladigan dalillar tekshirilgan, aniqlangan va ishonchli bo'lishi lozim. Tergovchi o'z ixtiyorida bor dalillarni hammasini ayblanuvchiga ko'rsatishi yoki bildirishi zarur emas, yolg'on so'zlayotgan ayblanuvchining ko'rsatuvini qanchalik haqiqatdan uzoq ekanligini isbotlovchi faktlar, dalillarning har birini o'z o'rnida keltirib, ayblanuvchini to'g'ri ko'rsatuv berishga majbur qilishi lozim.

Ba'zi ayblanuvchilar avvaldan so'roq vaqtida gapiradigan mavzularini o'ylab tayyorlab qo'yadi. Tergovchi savol-javob qilish bosqichida unga kutilmagan savolni berib, ish bo'yicha aniqlangan ma'lum voqeani qanday tushuntirishini so'raganda, ayblanuvchi darhol javob berishga qiynalib qoladi va haqiqatni so'zlashdan boshqa iloj yo'qligini anglaydi. Ba'zida jinoyat ishining xarakteriga qarab ayblanuvchining ruhiy xususiyatini nazarda tutib jinoyat hodisasi qanday ro'y bergan, nimalar topilgan, jinoyatning asosiy holatlari qay yo'sinda yuz berganligini ayblanuvchiga aytib berish mumkin, bu holda so'roq qiluvchi tergovga hamma holat-vaziyatlar ma'lum ekanligiga iqror bo'lib, to'g'ri ma'lumot berishdan boshqa iloj yo'qligiga ishonch hosil qiladi.

Jinoyatda gumon qilingan shaxsni so'roq qilish tartibi, ayblanuvchini so'roq qilish tartibi singari olib boriladi. Gumon qiluvchi shaxs ham, ayblanuvchi singari yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun yoki ko'rsatuv berishdan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga so‘roq vaqtida beriladigan savollar ma’lum ketma-ketlik tartibida umumiy holatdan alohida masalalarga tegishli bo‘lgan holatlarga oid bo‘lgan ma’lumotni olishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Savollar oldindan belgilanib, jinoyatning ayrim holatlarini yoritishga yordam berishi, ularni taxminan bo‘lsa ham, rejalashtirib qo‘yilishi, so‘roq jarayonida o‘z vaqtida va o‘z joyida ishlatilishiga yordam beradi.

E’tibor qiling! Savol ikki usulda qo‘yilishi mumkin: birinchi usulda tergov uchun muhim bo‘lgan holatlarni yorituvchi savol, ikkinchisi – xususiy masalalarga tegishli bo‘lib, ularni so‘roq qilinuvchiga taqdim etish vaqti-soati, oldinma-ketinligi tergov ishining borishi va holatiga qarab belgilanadi.

Yuzlashtirib so‘roq qilish tartibi

Tergov amaliyotida yuzlashtirish ilgari so‘roq qilingan ikki shaxsni bir-biriga yuzlashtirib so‘roq qilishdir. Yuzlashtirish ikki guvoh, ikki ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va ayblanuvchilar bilan o‘tkaziladi.

E’tibor qiling! Yuzlashtirishning asosiy vazifasi jabrlanuvchi, guvohlarning, gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchilarning ko‘rsatuvlaridagi jiddiy qarama-qarshiliklarni va boshqa kelishmovchilik vaziyatlarni bartaraf qilishdir.

Ko‘rsatilgan holatlar yuzlashtirish bilan hal etish imkoni bo‘lmasa, ekspertiza, tanib olishga taqdim etish va boshqa tergov harakatlari orqali hal etiladi va yuzlashtirishning hojati bo‘lmaydi. Ba’zi ma’lumotlarning vaqti, kuni, soati kabi axborotni muassasa yoki tegishli xizmatchilardan bilib olish mumkin. Shuning uchun yuzlashtirishni zaruriyat tug‘ilsagina, o‘tkazish mumkin. Bu tergov harakatining yutug‘i shundan iboratki, yuzlashtirishda ishtirok etgan shaxslar so‘roq davrida bergan noto‘g‘ri ko‘rsatuvlarini o‘zgartirib, to‘g‘ri so‘zlashlari mumkin. Shu bilan birga ular yodidan ko‘tarilgan ayrim faktlarni eshlashlari, ishga tegishli bo‘lgan yangi ma’lumotlarni berishlari mumkin.

Ba’zida yuzlashtirish paytida so‘roq qilinuvchilardan biri ilgari bergan ko‘rsatuvidan bosh tortib uni o‘zgartiradi, yangi voqeani, faktlarni o‘ylab chiqadi, shu bilan sirini fosh etadi, ya’ni yolg‘on ko‘rsatuv berganligini bildirib qo‘yadi. Bunday guvoh yoki ayblanuvchi yuzlashtirishdan so‘ng qayta takroran so‘roq qilinishi maqsadga muvofiq.

Esda tuting! Yuzlashtirish tartibi quyidagicha: yuzlashtirib so'roq qilinuvchilar guvohlar bo'lsa, ular yolg'on javob berish va javob berishdan bosh tortishi uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladilar va bu haqida bayonnomaga imzo chekadilar. Shundan so'ng bir-birlarini tanishi, qanday munosabatda ekanligi haqidagi javoblari bayonnomaga yoziladi.

Savol-javob har qaysisi bilan alohida o'tkaziladi. Yuzlashtiruvchilardan biriga savol qo'yiladi va uning javobi tinglanadi, so'ng ikkinchisiga ham shu savol berilib, uning javobi olinadi. Yuzlashtirish bayonnomasining chap tomoniga so'roq qilinuvchining biriga qo'yilgan savol va javob yoziladi. O'ng tomonida ikkinchisining savol-javobi yoziladi. Tergovchining savoli tugagach, ular bir-birlariga savol berishlari mumkin, ammo bu hol ularning o'zaro tortishuviga, janjaliga aylanmasligi lozim. So'roqni to'g'ri boshqarish uchun savol berilib unga javob olish, keyin navbatni kimga berish tergovchining ixtiyorida bo'lishi, yuzlashtiriluvchilarni o'z ixtiyoriga qo'ymaslik lozim.

Yuzlashtirishni to'g'ri o'tkazish uchun atroflicha tayyorgarlik ko'rish kerak. Tergovchi so'roq qilingan shaxsni ko'rsatuvlarini yana bir bor tahlil qilib chiqishi lozim. Yuzlashtirish vaqtida qanday savol berish, kimdan boshlash, qanday dalillarni aniqlash va shu kabi masalalar oldindan belgilanib qo'yilmog'i lozim.

Yuzlashtirib so'roq qilinuvchi shaxslar ilgari ish yuzasidan mustaqil ravishda alohida so'roq qilinganligi uchun yuzlashtirish jarayoni bevosita savol-javobdan boshlanadi.

Yuzlashtiriluvchi shaxslarni ko'rsatuvlarida turli qarama-qarshiliklar bo'ladi. Xususan, ma'lum bir faktning birini tasdiqlaydi, ikkinchi esa inkor qiladi. Savol-javobni ana shu tasdiqlovchi shaxsdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Yoki ish bo'yicha guvoh, jabrlanuvchi, ayblanuvchi boshqa so'roq qilingan shaxs bilan yuzlashtirish o'tkazishni talab qiladi. Birinchi savolni o'sha talab qilgan shaxsdan boshlash to'g'riroq bo'ladi.

Ba'zi ayblanuvchilar guvohlarning ko'rsatuvidagi ayrim faktlarni inkor qilib, uni yolg'on gapirganligini aytadilar. Yuzlashtirish paytida bunday ayblanuvchilar ikkinchi navbatda so'roq qilinishi ma'qul. Bundan tashqari, har bir yuzlashtirishda tergovchi qaysi qatnashuvchining ko'rsatuviga ko'proq ishonch hosil qilsa, shu shaxsdan, birinchi navbatda, savol-javobni boshlaydi, so'ngra ikkinchisiga o'tadi.

Yuzlashtirilayotgan shaxslarga, so'roq qilinganda olingan ko'rsatuvlarini bir-birlariga bildirish yoki tanishtirish mutlaqo mumkin emas, aks holda ular ilgari bergan ko'rsatuvlarni ma'qullab, bir-birlarini javobini tasdiqlash bilan kifoyalaniq qoladilar. Bu hol esa yuzlashtirish

natijasini va ahamiyatini pasaytiradi. Yuzlashtiriluvchi shaxslar bayonnomasining har biriga ajratilgan qismlariga savol va javoblari yoziladi va ana shu joylariga har ikkalasi tomonidan imzolanadi.

Voyaga yetmagan shaxslarni so‘roq qilish

Voyaga yetmagan shaxslarni qaysi yoshdan boshlab guvoh sifatida so‘roq qilish mumkinligi qonunda ko‘rsatilmagan. Tergov amaliyotida kichik, bog‘cha yoshidagi bolalarni guvoh sifatida so‘roq qilish, yaxshi natijalar bergani uchrab turadi.

Voyaga yetmaganning ko‘rsatuv bera olish qobiliyati uning umumiy va ruhiy tayyorgarligiga bog‘liqdir. Ko‘rsatuvning tashkil topishi uni so‘roq vaqtida qanday qayta tiklab berishi bolalarning turli yoshlarida turlicha amalga oshadi, shuning uchun voyaga yetmagan guvohlarni ruhiy holatini nazarda tutib so‘roq qilish lozim.

Voyaga yetmaganlarni shartli ravishda **uch guruhga** bo‘lish mumkin:

- 1) maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalar;
- 2) boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchi bolalar;
- 3) o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilari, o‘spirinlar. Uchinchi guruhdagi o‘spirin yoshlarni so‘roq qilish tartibi voyaga yetgan guvohlarni so‘roq qilishdan deyarli farq qilmaydi.

Voyaga yetmagan guvohni so‘roq qilishga tayyorgarlik ko‘rishda tergovchi uning yoshi, umumiy rivojlanishi, bilimi, qobiliyat darajasi, xarakteri va xulq-atvori haqida yetarli ma‘lumot to‘plashi zarur. Bu ma‘lumotlarni tergovchi maktabdan, o‘qituvchilardan yoki bolaning yaqin odamlaridan olishi mumkin. Yosh bolalar ba‘zan jinoyatchilarni ulardan qasd olishidan qo‘rqib, bilgan narsalarni aytib berishdan bosh tortadilar. Tergovchining vazifasi voyaga yetmagan guvohlarni xavfsizligini ta‘minlash jinoyat ishildan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning ta‘siridan qutqarish va guvohga hech qanday zarar va xavf yo‘qligini tushuntirishdan iboratdir.

Yosh bolalarni ularga qulay bo‘lgan sharoitda va o‘ziga tanish bo‘lgan joyda so‘roq qilish ma‘qulroqdir. Qonunga binoan voyaga yetmagan guvohlarni so‘roq qilishda ularning yaqin odamlari, ota-onalari, aka yoki opalari, o‘qituvchilari ishtirokida bo‘lishi kerak. Bu shaxslar ish oqibatidan manfaatdor bo‘lmasliklari lozim.

Ba‘zi vaqt kichik yoshdagi guvohlar yaqinlaridan, ishtirok etuvchi o‘qituvchi yoki sinf rahbarlaridan uyali b ochiq ko‘rsatuv bera olmaydilar. Bu holda pedagogni boshqa maktabdan chaqirish mumkin.

Yosh bolalarni so'roq qilishda ularga qiziqarli bo'lgan suhbatdan boshlab ishonchini qozonish kerak, shunday keyin ish yuzasidan savol berishga o'tish mumkin. So'roq vaqtida charchatib qo'ymaslik uchun ularga tanaffus qilib dam berish lozim.

16 yoshdan yuqori bo'lgan guvohlar, jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bosh tortish yoki qasddan yolg'on ko'rsatuv berish uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladilar, 16 yoshdan kichik bo'lgan jabrlanuvchi va guvohlarga esa, ularning to'g'ri ko'rsatuvlari qanchalik ahamiyatga ega ekanligini va jinoyat ishi uchun zarurligini tushuntirish lozim.

Voyaga yetmaganlarni so'roq qilishda yosh bolalar va o'smirlar psixologiyasi o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini e'tiborga olish zarur. SHu sababli ham voyaga yetmaganlarni so'roq qilish uning obyektiv bo'lishini ta'minlaydigan, maxsus qo'shimcha protsessual kafolatlariga egadir. So'roq qilish jarayoni esa shu tufayli kriminalistika fani ishlab chiqqan alohida taktik usullardan keng foydalanishni ko'zda tutadi.

11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jinoyatda qatnashgan kattalar bilan muloqotda bo'lgani bois, ularda burch va majburiyat tushunchasi shakllanadi va kattalarga taqlid qila boshlaydilar. Lekin, ular o'z xususiyatiga ko'ra, katta yoshdagilarning hamma xatti-harakatlarini to'g'ri qabul qila olmaydilar. Mana shunday sharoitda bolalar ba'zan o'rtoqlik va do'stlikni noto'g'ri tushunib, ular uchun jinoiy yo'lga kirishdan yoki boshqaning jinoyatini o'z bo'yniga olishdan ham toymaydilar.

Voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilishning o'ziga xos uslublari bo'lganligi tufayli tayyorgarlik ko'rish ham alohida bo'lmog'i lozim. So'roqni qayerda, qachon, kimlar ishtirokida o'tkazish, qanday tartibda olib borish, qanday savollar qo'yish kabi masalalarni oldindan belgilab olish tergov harakatini muvaffaqiyatli o'tkazishiga yordam beradi. Yosh bolalarni so'roq qilishda protsessual qonun normalariga zid bo'lmagan umumiy protsessual tartibni o'zgartirib, boshqacha taktik uslublarni qo'llash mumkin. Kichik yoshdagi so'roq qilinuvchilarning shaxsini aniqlagandan so'ng, bevosita savol javobga o'tish mumkin, "erkin so'zlab berish" bosqichini savol qo'yish yo'li bilan almashtirish mumkin. Savollar aniq va tushunarli shaklda tuzilmog'i lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish jarayonida tergovchi ular bilan ruhiy kontakt o'rnatishi, ulardan haqqoniy va to'la ma'lumot olishi, so'roq ularning taqdirini to'g'ri hal qilishga ham qaratilganligini tushuntirishi lozim. So'roq qilinuvchiga muloyim, xayrixoh va maqsadli

tarzda muomala qilinmasa, uning ongiga, qalbiga yo'l topish murakkab bo'ladi va to'g'ri ko'rsatuv olish qiyin kechadi.

So'roq shaxsning yoshi, umumiy saviyasi va psixologik xususiyatiga mos ravishda suhbat tariqasida o'tkazilishi ham mumkin. Voyaga yetmagan shaxsning jinoyat ishida ishtirokchi bo'lishi katta yoshdagi ayblanuvchilar tomonidan uning hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. Tergovchi bunday holatda tegishli chora ko'rib bolaga uning xavfsizligini ta'minlashini aytadi. Shundagina voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar so'roqda to'g'ri va obyektiv ma'lumot berishga moyil bo'ladilar.

So'roq natijalarini protsessual rasmiylashtirish

Jinoyat ishini tekshirish jarayonida to'plangan ma'lumotlar, ashyoviy dalillar o'tkazilgan tergov harakatlarining natijalari O'zbekiston Respublikasi protsessual qonuni asosida rasmiylashtirilishi lozim.

So'roq bayonnomasi umumiy tergov harakatlarining bayonnomasi kabi kirish, asosiy va yakunlovchi qismlardan iboratdir. So'roq o'tkazilgan joyi, vaqti, qanday ish yuzasidan kimni so'roq qilganligi va boshqa ma'lumotlar bayonnomaning kirish qismida aks ettiriladi.

So'roq qilinuvchi shaxslardan olingan ma'lumot bayonnomaga birinchi shaxs nomidan yozilishi va imkoni boricha so'zma-so'z savodli, tushunarli va o'chiruvlarsiz bo'lishi, savollar va ularga olingan javoblar qanday shaklda bo'lsa shundayligicha aks ettirilishi lozim. So'roq bayonnomasi tushunarli va ko'rsatuv beruvchining tiliga yaqinroq bo'lishi zarur. Bayonnomada guvohga yoki ayblanuvchiga no'malum bo'lgan atama va jumlar ishlatilmasligi lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarning ko'rsatuvlarini rasmiylashtirishda ularning yoshi va maktab tarbiyasiga tegishli ma'lumotlarini ham keltirib o'tish lozim. Bayonnomaning ikkinchi qismi so'roq qilinuvchi bilan suhbatlashib bo'lgandan keyin, jinoyat ishiga aloqador faktlarni ma'lum tizimda galma-galiga yozib borish lozim.

Agar, so'roq vaqtida ko'rsatuv beruvchiga biror dalil, daliliy ashyo ko'rsatilgan bo'lsa, bu hol va unga olingan tushuncha bayonnomada ko'rsatilishi lozim.

Qonun so'roq qilinuvchilarga ko'rsatuvlarni o'z qo'llari bilan yozib berish huquqini beradi. Buning yaxshi tomoni shundan iboratki, ko'rsatuv beruvchi voqea-hodisalarni, ayrim ma'lumotlarni aniqroq yozib berish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, so'roq qilingan shaxs ko'rsatuv

bergandan so'ng o'z qo'li bilan yozgan faktlardan bosh tortishi yoki ularni o'zgartirishi qiyinroqdir.

Guvoh yoki ayblanuvchi ko'rsatuvlarini o'z qo'li bilan yozib berishga rozilik bersa, avval ko'rsatuvini tinglab, keyin to'ldiriladigan va mavhum joylarini savol berish orqali aniqlab, so'ngra yozib berishga sharoit tug'diriladi. Ko'rsatuv yozib bo'lgandan keyin bayonnomani ko'rsatuv beruvchi o'qib chiqishi va har bir sahifasini alohida imzosi bilan tasdiqlashi darkor.

So'roqda qatnashgan protsessual shaxslar: prokuror, mutaxassis, tarjimon va boshqalar kirish qismida ko'rsatilgan bo'lib, ular ham bayonnomaga imzo chekadilar. Bayonnoma so'roq qilingan shaxsga o'qib beriladi yoki o'zi tanishib chiqishiga imkon yaratiladi.

Qo'shimcha holatlar, tuzatishlar hosil bo'lib qolsa, bayonnomaning oxirgi qismiga kiritilib, so'roq ishtirokchilarining imzolari bilan tasdiqlanadi.

So'roq natijalarini rasmiylashtirishda fonogrammalar so'roq bayonnomasini to'ldiruvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Magnit tasmasini dalil manbai sifatida ishlatish uchun, bayonnoma tuzib rasmiylashtiriladi. Tasmada qayerda, kim tomonidan, qay vaqt, qanday ish bo'yicha va kim so'roq qilinganligi ko'rsatiladi.

So'roq natijalarini rasmiylashtirishda ovoz va tasvir yozish uslubini qo'llash so'roq bayonnomasini to'ldiruvchi vosita bo'lib hisoblanadi.

Protsess ishtirokchilari ish materiallari bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng fonogramma muhrlanib, ishda saqlanadi.

Ovoz yozish magnitofoni qo'llanilganda avval fonogrammani qayd qilib, so'ngra bayonnomaga yozib qo'yish kerak. Chunki bir vaqtning o'zida plyonkaga ham, bayonnomaga ham yozish ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, ko'rsatuvlarni o'qib keyin fonogrammani eshitib bo'lgach tergovchi albatta ularning mazmunini yaxshi eslab qoladi va ularning biri ikkinchisini to'ldirganligiga ishonch hosil qiladi. Ovoz yozish bilan bir qatorda tasvir yozish vositasi ko'rsatuv mazmunini birmuncha kengaytiradi va qulaylik tug'diradi.

Qonunga asosan qo'llanilgan apparatlarni va video-fonogrammalarni protsessual mustahkamlash maqsadida ularni bayonnoma qanday magnitofon, qanday tasvir yozish kamerasida yozilgan, qachon va qayerda qo'llanilgan, kimning ovozi yozib olinganligi haqida qayd qilinmogi lozim. Bayonnoma tergovchi va so'roq qilingan shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

E'tibor qiling! So'roq jarayonida ovoz yozib olishni quyidagi tartibda olib borish maqsadga muvofiq:

1. Tergovchi ovoz yozib olinishi to'g'risida so'roq qilinuvchilarga so'roqni boshlashdan oldin ma'lum qiladi va uni bayonnomada qayd qiladi. Ovozning yozib olinishiga so'roq qilinuvchining roziligi talab qilinmaydi. Tergovchi so'roq qilinuvchiga ovoz yozishning nima uchun kerakligi, uning ahamiyati va tartibi to'g'risida batafsil tushuntirib bermog'i lozim.

2. Fonogrammada so'roq qilish muddati va joyi ko'rsatiladi, shuningdek so'roq boshlangan va tamom bo'lgan vaqt, so'roq ishtirokchilarining ismi, otasining ismi va familiyasi yoziladi.

3. Fonogramma so'roqning ayrim qismlarini emas, balki butun protsessini aks ettirishi kerak.

4. So'roq tugagach, ovoz yozish tasmasi boshdan qayta qo'yiladi. So'roq qilinuvchi eshitib bo'lgach, haqiqatdan ham to'g'ri ekanligi haqidagi bayonotiga qo'l qo'yadi.

5. Agarda fonogrammada tergov harakati jarayonida to'g'ri ko'rsatuvlar olish maqsadida boshqa taktik usullardan foydalanilgan bo'lsa, tergovchi bu haqda tegishli hujjatda qayd qilib qo'yadi.

Nazorat savollari:

1. So'roq o'tkazishning psixologik asoslarini tushuntirib bering. Jabrlanuvchi, guvohlarni, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish taktikasi bir-biridan qanday farqlanadi?

2. So'roq qilish qanday bosqichlardan iborat? So'roq natijalarini protsessual rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

O'g'irlik jinoyati yuzasidan hodisa joyi ko'zdan kechirilganda xonadondan barmoq izlari topilgan. Daktiloskopik ekspertiza ushbu barmoq izlari gumonlanuvchi SH.ga tegishli ekanligini aniqladi. So'roq jarayonida A. o'zini jinoyat sodir bo'lgan joyda bo'lmaganligini bayon qildi. Tergovchi dalil sifatida daktiloskopik ekspertiza xulosasini ko'rsatishga qaror qildi.

Ushbu holatda qanday so'roq qilish taktikasini qo'llash lozim. So'roq qilinuvchiga mavjud dalillarni ko'rsatish tartibi va chegarasini aniqlang. So'roqni o'tkazish va rasmiylashtirish tartibini bayon qiling.

2-kazus

Olmazor tuman Ziyolilar ko'chasida yo'l harakati hodisasi sodir bo'ldi. Yo'l harakati hodisa yuzasidan tergov harakatlari olib borilishi natijasida guvoh Rashidov S. va guvoh Olimov N.ning ko'rsatuvlari bir biriga zid ekanligi aniqlandi va hodisa yuz berganligi yuzasidan noaniqliklar vutsjudga keldi.

Ushbu holatda yo'l harakati hodisasi haqiqatda qanday sodir bo'lganligi va guvohlarning qaysi birining ko'rsatuvi to'g'riligi yuzasidan qanday so'roq qilishning qanday usullaridan foydalanish lozim? Mazkur holat yuzasidan yuzlashtirish tergov harakatlari qanday tartibda o'tkaziladi?

19-MAVZU. TANIB OLISH UCHUN KO'RSATISH TAKTIKASI

Tanib olish uchun ko'rsatish tushunchasi va uning obyektlari. Tanib olish uchun ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rish. Tanib olish uchun ko'rsatish tartibi, taktik usullari va rasmiylashtirish tartibi.

Esda tuting! Tanib olish uchun ko'rsatish – O'zR JPKning 125-moddasi bilan tartibga solinadigan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi o'ziga ko'rsatilgan o'xshash ob'ektlarni kuzatib, ularning belgilarini o'z xotirasida aks etgan xayoliy obraz bilan solishtiradigan va ularning o'rtasida ayniqlik mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi masalani hal etishidan iborat bo'lgan tergov harakati.

Tanib olish uchun ko'rsatish tushunchasi va uning obyektlari

Shunday qilib, narsa yoki shaxsni tanib olishning mohiyati uni tanib oluvchining xotirasida saqlanib qolgan xayoliy obrazga ko'ra identifikatsiya qilishdan iborat. Shu sababli unga identifikatsiya nazariyasining solishtirishni to'g'ri tashkil etish, o'tkazish va olingan natijaning ishonchliligini baholashga yordam beradigan umumiy qoidalari tatbiq etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan tergov harakati ancha keng tarqalgan, ammo u ko'pincha shaxsning hayoti, sog'lig'i, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi, shuningdek mulkka va jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida o'tkaziladi. Tanib olish uchun ko'rsatish obyektlari odamlar, turli narsalar, murdalar va ularning qismlari, uy havonlari bo'lishi mumkin. Bevosita tanib olish va bilvosita (fotosurat, videokadr, fonogramma, gologramma va hokazolarga ko'ra) tanib olish farqlanadi.

Tanib olish uchun ko'rsatish boshqa tergov harakatlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Uni yuzlashtirish, guvohlantirish va boshqa tergov harakatlari bilan almashtirish mumkin emas. Jabrlanuvchi yoki guvoh-shohid tomonidan, masalan, gumon qilinuvchining tanib olingani uni ushlashni amalga oshirgan ichki ishlar organlari xodimlarining bildirgisida, yuzlashtirish yoki boshqa tergov harakati bayonnomasida aks ettirilgan bo'lishi mumkin, ammo ushbu faktning daliliy ahamiyati tanib olish uchun ko'rsatish natijasining daliliy ahamiyati bilan tenglasha olmaydi, chunki uni o'tkazish mufassal tartibga solingan.

Tergovchi tanib olish uchun ko'rsatishni faqat identifikatsiya qilinayotgan obyekt so'roq qilinuvchi tomonidan kuzatilgan aniqqlangan va undan mazkur obyektни u tanib olishi mumkinligi to'g'risida ariza

olingan holda o'tkazishi lozim. Aks holda, shuningdek so'roq qilingan shaxs mazkur obyektни yana bir marta, masalan, gumon qilinuvchini ushlarshda ishtirok etish jarayonida yoki politsiya bo'limida ko'rgan bo'lsa, uni tanib olish uchun ko'rsatish o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Kriminalistika umumiy psixologiya va sud psixologiyasi yutuqlariga asoslangan holda, ilgari kuzatilgan kriminalistik ahamiyatga molik obyektlarni keyinchalik ularning alohida xususiyatlari va belgilarini eslash orqali to'g'ri tanib olish mumkinligini namoyish etgan. Tanib olishning muvaffaqiyati kuzatish sharoitlari va davomiyligiga, tanib oluvchining shaxsiga, uning o'sha paytdagi holatiga, tergovni qiziqtirayotgan obyekt alohida belgilarining bo'rtib namoyon bo'lish darajasiga bog'liq bo'lishi aniqlangan.

Tanib olish uchun ko'rsatishning axborot modeli bo'lib qidirilayotgan obyekt obrazining tanib oluvchi tomonidan kuzatilgan belgilari, tekshirilayotgan obyektning o'xshash belgilar orasidan o'rin olgan belgilari, tanib oluvchining ularni solishtirishi va ushbu belgilarning mos kelishi yoki bir-biridan farq qilishi to'g'risidagi xulosani ta'riflashi xizmat qiladi.

E'tibor qiling! Axborot oqimining murakkabligi tergovchiga uning har bir elementini nazorat qilish va baholash majburiyatini yuklaydi. Bunda tanib oluvchi ko'rsatuvlarining shakllanishi psixologik jarayoni asosiy rolni o'naydi. **Birinchi bosqichda** sub'ekt (ob'ekt) obrazini kuzatish, eslab qolish va xotirada saqlash sodir bo'ladi. **Ikkinchi bosqichga** yodda qolgan xususiyatlar va belgilarni eslash, ularni og'zaki gavdalandirish xos. **Uchinchi (yakunlovchi) bosqichda** xotirada saqlangan obrazni tanib olish uchun ko'rsatilgan ob'ektlar bilan solishtirish amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tanib olish uchun ko'rsatishning bu uch bosqichi, odatda, bir vaqtda amalga oshirilmaydi. Qidirilayotgan obyektни kuzatish tergovdan oldingi bosqichda, protsessual faoliyat doirasidan tashqarida yuz bersa, ikkinchi va uchinchi bosqichlar dastlabki tergov jarayonida amalga oshiriladi va ularning optimal kechishi huquqiy tartibga solish yo'li bilan ta'minlanishi lozim.

Tanib olish uchun ko'rsatish tanib olish uchun ko'rsatilayotgan obyektning tergov qilinayotgan faktga bog'liq ekanligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, jabrlanuvchiga ko'rsatilayotgan shaxs aynan talonchilik maqsadida unga hujum qilgan shaxs ekanligi aniqlanadi. Mazkur harakatning mazmuni tanib oluvchi tomonidan uning xotirasidagi obraz bilan u yoki bu obyektни bir-biriga solishtirishdan iboratdir.

Obyektlarni tanib olish uchun ko'rsatish jinoyat ishlari bo'yicha keng qo'llaniladigan tergov harakati – dalil to'plash vositalaridan biridir.

Tanib olish uchun ko'rsatiladigan obyektlar odamning sezgi organlari qabul qilishi mumkin bo'lgan moddiy borliqlardir. Ko'rsatilayotgan shaxs va predmetlarning xususiyatlari ularni o'xshatish, farq qilish, tanib olish uchun xizmat qiladi.

Xavfli jinoyatlar bilan kurashda ayniqsa odam o'ldirish, bosqinchilik, talonchilik, o'g'irlik, poraxo'rlik, bezorilik kabi jinoyatlarni tergov qilishda odam, narsa, hayvon va turli predmetlarni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati ko'p qo'llanadi.

Tanib olish uchun ko'rsatish deyarli hamma turdagi jinoyatlarni tergov qilishda qo'llanishi mumkin. Ba'zi jinoyat ishlarining tergovida tanib olish uchun ko'rsatish asosiy rol o'ynaydi va jinoyatni ochish, jinoyatchini aniqlashda yaxshi natijalar beradi.

Tanib olish uchun ko'rsatish nafaqat gumon qilinuvchilar orasidan jinoyatchini topish yoki shubhali narsalar orasidan o'g'irlangan buyumlarni aniqlash uchun, balki, shaxsni tanib olish uchun ham qo'llaniladi.

Xususan, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish asoslari:

– guvoh jinoyat hodisasi munosabati bilan ko'rgan (yoki ovozini eshitgan) shaxs ilgaridan tanish emas edi, deb ko'rsatuv bersa; guvoh jinoyat hodisasi munosabati bilan ko'rgan (yoki ovozini eshitgan) shaxs ilgaridan tanish edi desayu, lekin shaxsning o'zi bunday tanishlikni inkor qilsa; guvoh jinoyat hodisasi munosabati bilan ko'rgan (yoki ovozini eshitgan) shaxs ilgaridan tanish edi desa-yu, lekin uning ism-familiyasini xato aytsa;

– ayblanuvchi jinoyatga aloqadorligini inkor qilib, o'zining jinoyatga aloqasi yo'qligini tasdiqlovchi shaxslarning nomlarini bilmasa-da, ularni ko'rsatilgan taqdirda tanishini bildirsa;

– ayblanuvchi jinoyatni tan olib, sherigi borligini bildirsa, lekin sherigi aloqasi yo'qligi va uni tanimasligini aytsa va, nihoyat, ayblanuvchi bu jinoyatning guvohlarini (jabrlanuvchini) tanishini bildirsa.

Ba'zan jabrlanuvchi jinoiy voqeani ko'rgan yoki eshitgan guvohlarning nomlarini bilmasa-da, tanib olishi mumkin. Ayblanuvchi tergovni noto'g'ri yo'lga solish yoki chalg'itish maqsadida ishga aloqasi bor shaxsni tanishi haqida tushuntirish berishi, ammo bu shaxsni tergovda ko'rsatilganda tanimasligi mumkin.

Shaxslarni tanib olish uchun ko'rsatish jinoyat ishi yuzasidan tergov boshlanganidayoq shuningdek, tanib olish uchun ko'rsatish harakati yoki tergovning oxirgi davrlarida ham o'tkazilishi mumkin.

E'tibor qiling! Tanib olish uchun ko'rsatish zarur bo'lgan holatlar har bir aniq jinoyat ishidagi materiallarga qarab hal qilinadi. Bu to'g'risida avvaldan umumiy qoida belgilab bo'lmaydi, lekin shu narsa shubhasizki, agar:

- 1) guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi biror obyekt bilan tanish ekanligini bildirsa va bunga tergovchi shubha qilmasa;
- 2) ular biror obyektning tanimasliklarini yoki taniy olmasliklarini bildirsalar;
- 3) taniladigan obyektning hech qanday o'ziga xos alomatlar bo'lmasa;
- 4) tanilishi lozim obyektning nomeri yoki maxsus yozuvlari bo'lsa, bu holatlarda tanib olish uchun ko'rsatishga zaruriyat qolmaydi.

Vafot etgan shaxsni aniqlash maqsadida murda hamma vaqt tanuvchilarga ko'rsatiladi. Narsalarning kimga tegishligini aniqlash maqsadida obyektlarni tanib olish uchun ko'rsatish ham barcha holatlarda zarurdir.

Tanib olish uchun biror obyektning ko'rsatishdan maqsad dalil to'plashdir. Bu dalil tanuvchining u tomonidan ilgari kuzatilgan obyekt unga ko'rsatilayotgan obyektning o'zi ekanligi yoki o'zi emasligi, ular o'rtasida o'xshashlik bor yoki yo'qligi haqidagi fikridan iborat.

Tanib olish uchun ko'rsatish vositasi orqali erishilgan dalil gumon ostiga olingan shaxsga qarshi bo'lishi ham, qarshi bo'lmasligi ham mumkin. Chunonchi, ayblanuvchi e'lon qilingan aybga iqrор bo'lmasdan, o'zini aybsiz ekanligini tasdiqlovchi guvohlarning nomlarini bilmasa-da, ularni ma'lum joyda ishlashi yoki yashashi va agar ko'rsatilsa tanishligini bildiradi. Bu holda tanib olish uchun ko'rsatish usuli bilan aniqlangan guvohlar ayblanuvchining jinoyatga aloqasiz ekanligini tasdiqlashlari, demak ularning ko'rsatuvlari ayblanuvchiga qarshi mazmunda bo'lmasligi mumkin.

Tanuvchi o'ziga ko'rsatilgan obyekt va u ilgari kuzatgan obyekt o'rtasida o'xshashlik bor yoki yo'q ekanligini bildirgan holda, qidirilayotgan obyektning aniqlash uchun qulaylik tug'iladi. Tanuvchining bu bildirishidan foydalanib, tergovchi asosan faqat bir guruh obyektlarga, ya'ni tanib olish uchun ko'rsatilgan obyektga o'xshash obyektlarga e'tibor beradi. Demak, o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan obyektlarning aniqlanishi, tanuvchi jinoyatga aloqador hollarda kuzatgan obyektning o'zini aniqlab olish uchun birinchi bosqich sifatida xizmat qiladi.

Tanib olish uchun ko'rsatish natijalarini dalil deb hisoblar ekanmiz, bu dalildan faqat dastlabki tergovda emas, balki surishtiruv organlarinnig

faoliyatida, jinoyat ishlari bo'yicha sud tergovida va fuqaroviy sud ishlarini hal qilishda ham foydalanish mumkinligini unutmash kerak.

Amaliyotda shaxslar yoxud buyumlar aks ettirilgan videotasmani guvoh va jabrlanuvchiga namoyish qilib, ularni tanib olish taklif etiladi. Bu albatta zarur va samarali tadbir, lekin uni protsessual jihatdan tanib olish uchun ko'rsatish tarzida emas, tezkor-qidiruv uslubi sifatida qaralishi kerak. Chunki bu holda bir-birlariga o'xshash bir qancha obyektlar ko'rsatilmaydi, xolislar ishtirok etmaydi, hatto uni tergovchi yoki surishtiruvchi bo'lmagan xodimlar o'tkazishi mumkin.

Esda tuting! Tanib olish uchun ko'rsatilishi mumkin bo'lgan obyektlar asosan quyidagilardan iborat: a) odam; b) turli buyumlar; d) murda.

Odam jismoniy va ruhiy alomatlari, voyaga etganligi, ish mazmunidan manfaatdorligi, protsessda tutgan o'rni va boshqa shunga o'xshash xususiyatlaridan qat'i nazar, tanish uchun ko'rsatilishi mumkin. Ovoz, nutq, yurishi va shu kabi xususiyatlar bo'yicha tanib olish uchun ko'rsatilganda tanilishiga tegishli obyekt odamning o'zi bo'ladi.

Tanib olish uchun ko'rsatiladigan daliliy ashyolar jinoyatning obyekti, predmeti, jinoyat qilish quroli, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohga qarashli narsa yoki hujjat kabilardan iborat bo'ladi. Agar bu narsalar yoki hujjatlar alohida nomerli yoki yozuvli bo'lsa, masalan: velosiped yoki soatdagi zavod qo'ygan nomer, chorva mollarining birka nomeri, biror qimmatbaho buyumdagi o'ziga xos yozuvlarning o'zi masalani oydinlashtirsa, ularni tanib olish uchun ko'rsatish talab qilinmaydi. Pul va qimmatli qog'ozlar faqat ularda alohida belgilar, yozuvlar va shu kabilar bo'lgan taqdirdagina tanib olish uchun ko'rsatilishi mumkin. Jinoyat ishlarida murdani tanib olish uchun ko'rsatish o'lgan shaxsni aniqlash uchun o'tkaziladi. Murda tashqi qiyofasi: alohida belgilari (tabiiy anatomik kamchiliklari, xoli, dog'i, tatiurovkalari, tibbiy jarrohlik izlari va h.k.), asosida tanilishi, ba'zi holatlarda hatto ichki organlaridagi o'zgarishlar, tekkan o'q qoldiqlari, kasalliklar asosida ham tanib olinishi mumkin. Uni faqat kiyimi bo'yicha tanilsa, kiyimi o'zgartirilgan bo'lishi mumkinligini nazarda tutilishi lozim.

Ma'lumot uchun! Tanib oluvchiga odatda navbati bilan quyidagi savollar beriladi:

Sizga ko'rsatilayotgan shaxslar (buyumlar)dan qaysi birini taniysiz?

Agar tanisangiz, ularni ilgari qanday sharoitlarda ko'rgan, eshitgan edingiz?

Shu obyekttni qanday belgilari yoki xususiyatlari bo'yicha tanidingiz?

Sizga ko'rsatilgan boshqa shaxslar (buyumlar)ni ilgari uchratgan emasmisiz?

Tanib oluvchiga obyektlarni sinchiklab ko'zdan kechirish, ovozini eshitish, harakatini kuzatish, ba'zan narsalarning hidi, ta'mi, mayinligi kabi xususiyatlarini tekshirish uchun imkon berishi lozim.

Tanib olish uchun ko'rsatish jarayoni va natijasi fotosuratga tushirilishi, videotasviri yozib olinishi maqsadga muvofiq. Bu haqda ham bayonnomada aks ettiriladi.

Tanib olish uchun ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rish

Tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish – mazkur tergov harakati muvaffaqiyatining muqarrar sharti. Tanib oluvchini **oldindan so'roq qilish** qidirilayotgan obyektga unga ko'rsatishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilish uchun muhim axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. So'roq qilish so'roq qilinuvchi mazkur shaxs (narsa)ni qanday holatlarda kuzatgani, uning qaysi belgilari va tashqi xususiyatlarini eslab qolgani, uni tanib olishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashga qaratiladi. Oldindan so'roq qilish tanib olish uchun ko'rsatishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U, odatda, tanib oluvchiga aylanishi mumkin bo'lgan shaxsni dastlabki so'roq qilish bilan mos keladi, shu sababli, obyektning obrazi unutilmasligi, xotiradan o'chmasligi uchun uni darhol o'tkazish tavsiya etiladi.

Tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin o'tkaziladigan so'roqning xususiyati shu bilan belgilanadiki, uni o'tkazish jarayonida tergovni qiziqtirayotgan, ilgari kuzatilgan va xotirada qolgan obyektning obrazini jonlantirishga qaratilgan, shuningdek so'roq qilinuvchiga uning o'zi eslab qolgan belgilari va xususiyatlarini aniqroq tavsiflashga yordam beradigan taktik usullar faol qo'llanilishi lozim.

E'tibor qiling! Tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishni **rejalashtirish** chog'ida quyidagilarni nazarda tutish lozim: tanib olish uchun ko'rsatishning maqsadi; tanib oluvchini tanib olish lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilish; tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish; tanib oluvchini psixologik jihatdan tayyorlash; qidirilayotgan shaxs (narsa) bilan birga ko'rsatiladigan ob'ektlarni tanlash; tergov harakati o'tkaziladigan joy va vaqtni belgilash; xolislarini taklif qilish, tanib olish uchun ko'rsatish jarayoni va uning natijalarini qayd etish uchun zaruriy texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash.

Obyektga tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risida qaror uni so'roq qilinuvchi tomonidan kuzatish holatlariga, kuzatuvchining ruhiy va

jismoniy holatiga, kuzatish va eslab qolishga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillarga baho berilgandan keyin qabul qilinadi.

So'roq qilish jarayonida tanib olinadigan subyektning belgilari haqida aniq tasavvur hosil qilish – ancha og'ir va sermehnat jarayon. So'roq qilinuvchi tanib olinishi lozim bo'lgan odamning tashqi alomatlarini tavsiflayotganda, tergovchi unga og'zaki portret tuzish metodikasidan, tashqi ko'rinish tiplari va elementlaridan iborat tegishli ko'rgazmali qurollardan foydalanishni tavsiya qilishi lozim. Tergovchi unga o'zi kuzatgan odamning yuz shakli, peshonasining balandligi, ko'zlarining rangi, sochlarining uzunligi va qalinligi, ularning rangi, turmak turi va hokazolarni eslashda yordam berishi kerak. Tashqi ko'rinishning mazkur subyektни individuallashtirish imkonini beradigan biron-bir belgisi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Agar kuzatish yuz bergan paytdan boshlab oradan uzoq vaqt o'tgan bo'lsa, tabiiy jarayonlar tufayli qidirilayotgan subyektning tashqi ko'rinishida yuz berishi, shuningdek sun'iy yo'l bilan kiritilishi (sochni bo'yash, soqol, mo'ylovni qirib tashash va sh.k.) mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olish zarur.

Malakali o'tkazilgan birinchi so'roq tanib oluvchini tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazishdan oldin qayta so'roq qilmaslik imkonini beradi. Agar obyektning o'ziga xos belgilari yetarli darajada to'liq aniqlangan va qayd etilgan bo'lmasa, tanib oluvchini yana bir marta so'roq qilish va yo'l qo'yilgan bo'shliqlarni to'ldirish tavsiya etiladi. Bunday so'roq qilish tanib oluvchi subyekt tashqi ko'rinishining ilgari uning xotirasidan ko'tarilgan alohida belgilarini eslaganini bildirgan hollarda ham o'tkazilishi zarur.

So'roq qilinuvchini bo'lg'usi tanib olish uchun ko'rsatishga psixologik jihatdan tayyorlash juda muhim (ayniqsa, u asosli ravishda hayiqadigan subyekt ko'rsatilgan holda). Odatda tayyorlash suhbat xususiyatiga ega bo'ladi. Bunday suhbat jarayonida tergovchi ko'rilgan xavfsizlik choralarni, mazkur tergov harakatini o'tkazish tartibini tushuntiradi. So'roq qilinuvchi tergovni qiziqtirayotgan obyektни kuzatgan holatlarni aniqlayotganda, uni kuzatish sharoitlari (qayerda, qachon, kechasi yoki kunduzi, kuzatuvchining o'sha paytdagi ruhiy va jismoniy holati va h.k.)ga aniqlik kiritish zarur.

Narsalarni tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin o'tkaziladigan so'roqda narsaning nomi va vazifasi, o'lchamlari (katta-kichikligi), vazni, rangi, shakli, undan foydalanish jarayonida hosil bo'lgan alohida belgilari aniqlanishi lozim. Agar so'roq qilinuvchiga narsani yasash usuli va foydalanilgan materiallar xususiyati ma'lum bo'lsa, buni ham aniqlash

zarur. Narsalarning alohida belgilari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday axborot zavod raqamlariga ega bo'lgan narsalarning pasportlaridan, narsalarning belgilari ko'rsatilgan kvitansiyalardan, ular aks ettirilgan fotosuratlar va videoyozuvlardan olinishi mumkin.

Uy hayvonlarini tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin so'roq qilish jarayonida quyidagilar aniqlanadi: hayvonning turi, zoti, jinsi, taxminiy yoshi, rangi, tusi, oriqlik yoki semizligi, laqabi, alohida belgilari (egasining tamg'asi, chandiqlar, yaralar). Agar so'roq qilinuvchida o'g'irlangan hayvonning suratlari mavjud bo'lsa, ularni olish va jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yish lozim.

Tanib olinuvchi bilan birga ko'rsatiladigan obyektlarni tanlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Tanib olinuvchi bilan birga ko'rsatiladigan odamlar tashqi ko'rinishi (yoshi, bo'yi, irqiy va milliy mansubligi, gavda tuzilishi, yuz shakli, sochining rangi va h.k.) jihatidan bir-biriga ancha o'xshash bo'lishi lozim. Ko'rsatilayotgan narsalar bir-biridan yaqqol farq qilmasligi kerak. Tanib olish uchun ko'rsatiladigan obyektlar, qoida tariqasida, uchdan kam bo'lmasligi lozim. Binobarin, tanib olinuvchi ularni nafaqat xayoliy obraz, balki bir-biri bilan ham solishtiradi. Bu qidirilayotgan obyektning ayniylashtirish amalga oshirilayotgan alohida xususiyatlarni farqlashga yo'naltiradi.

Tanib olish uchun ko'rsatish **vaqti va joyini** tanlash yuzaga kelgan tergov vaziyati bilan belgilanadi. Bu yerda quyidagi qoida amal qiladi: obyektning kuzatish va uni tanib olish o'rtasidagi vaqt oralig'i qancha qisqa bo'lsa, shuncha yaxshi. Biroq, agar tanib olinuvchi betob, stress holatida yoki jarohatlangan bo'lsa, unga o'ziga kelish uchun vaqt berish lozim. Bu holda tergovchi tanib olish uchun ko'rsatishni o'tkazish sanasi haqida davolovchi shifokor bilan maslahatlashishi kerak.

E'tibor qiling! Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish zarurligi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- a) dastlab tanilayotgan shaxsni so'roq qilish;
- b) tanib olish uchun ko'rsatiladigan obyekt bilan bir xildagi o'xshash ob'ektlarni tanlab olish;
- d) mazkur tergov harakatini o'tkazishning vaqti va sharoitini belgilash;
- e) xolislarini belgilash.

Tanib olish uchun ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rish hal etilishi lozim bo'lgan masalalar, texnik-kriminalistik ta'minot va hokazolarni o'z ichiga oluvchi yozma rejani tuzish bilan yakunlanadi.

Tanib olish uchun ko'rsatishga yaxshi tayyorgarlik ko'rish ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatini belgilaydi. Ayni paytda bu tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rishdan oldin uni o'tkazishga zarurat bor-yo'qligini qat'iy anglab olish kerak. Bu savolga jinoyat ishini va operativ xarakterdagi materiallarni o'rganish natijasida javob olish mumkin.

Tanib olish uchun ko'rsatiladigan shaxs ham jinoyat protsessida tutgan o'rniga qarab guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi (sudlanuvchi) bo'lishi mumkin va shu protsessual subyektlarning huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi. Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxslar guvoh va jabrlanuvchi bo'lgan taqdirda ham ular tanib olish uchun ko'rsatish vaqtida atayin yolg'on ko'rsatuv berishi va ko'rsatuv berishdan bosh tortishi uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi.

Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan gumon ostiga olingan shaxs va ayblanuvchi o'zi bilan birga ko'rsatilayotgan shaxslar qatorida joyini o'zi tanlashga haqli.

Tanuvchi harakatlanish holatida (yurib ketayotganda, gapirayotganda yoki boshqa biror harakatni bajarayotganda) ko'rsatilishi kerak bo'lgan hollarda, taniluvchi bunday harakatlarni bajarishi haqida tergovchining talablariga bo'ysunadi. Bunday harakatlarni taniluvchi qasddan noto'g'ri bajarishi yoki odatdagi yurishi va ovozini o'zgartirishi hollarining oldini olish zarur.

Harakatlanish holda ko'rsatilayotganda biror harakatni bajarish haqida tergovchining talabalari tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxslarning hayoti, sog'lig'i, obro'siga, uning mulkiy va boshqa qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi shart. Ayblanuvchi yoki gumon ostiga olingan shaxs bilan bir qatorda ko'rsatiluvchilar ko'pchilik hollarda xolislar kabi rol o'ynaydilar. Ular ham xuddi xolislardek ishdan biror manfaatdor bo'lmasliklari shart.

Bunday shaxslar va xolislar, ular tanib olish uchun ko'rsatishga qatnashish uchun chaqirilganlari hamon, qanday maqsadda chaqirilganliklari, qanday harakat o'tkazilishi hamda ular qanday huquq va majburiyatlarga ega ekanliklari haqida tushuntirilishi kerak. Ularga kelgusida sud majlisida so'ralishlari mumkinligi e'lon qilinib, tanib olish uchun o'tkazish jarayonini diqqat bilan kuzatishlari zarurligi eslatiladi.

Tanuvchi, taniluvchi va u bilan birga ko'rsatilgan shaxslar, shuningdek xolislar tanib olish uchun ko'rsatish harakatlarini noto'g'ri o'tganligi haqida arz qilishga va bu arzlarni bayonnomaga kiritishni talab qilishga haqli.

Tanish uchun ko'rsatishda qatnashgan guvoh, jabrlanuvchi, mutaxassis va xolislar, shu jumladan gumon ostiga olingan shaxs va u bilan birga ko'rsatilgan shaxslar o'zlarining tergovda va sudda qatnashish uchun qilgan sarflarini qoplatilishini talab qila oladi. Prokuror bu tergov harakatini to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazorat olib boradi va shu maqsadlarda uni o'zi o'tkazishi yoki qatnashishi mumkin.

Tanib olish uchun ko'rsatish tartibi, taktik usullari va rasmiylashtirish tartibi

Tirik shaxslarni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi JPK 125 va 127-moddalari talablaridan kelib chiqqan holda, shuningdek obyekt qaysi belgilariga muvofiq tanilishi mumkinligiga bog'liq holda belgilanadi. Tanib oluvchi ko'rsatish lahzasigacha taniluvchini ham, ular orasida ko'rsatiladigan shaxslarni ham ko'rmagan bo'lishi kerak. Shuning uchun tergovchi kabinetdan tanib olish uchun ko'rsatiladigan boshqa joyda to'plangan xolislarni, taniluvchi va boshqa fuqarolarni birin-ketin o'z xonasiga taklif etadi, agarda u guvoh yoki jabrlanuvchi bo'lsa, qasddan ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi va yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiradi.

Esda tuting! Tanib olish uchun ko'rsatish **taktikasi** shu bilan tavsiflanadiki, 1) uni o'tkazishda bir necha kishi ishtirok etadi; 2) tanib oluvchi o'z xulosasini shakllantirishiga obyektiv va subyektiv omillar (noqulay ob-havo sharoitlari, toliqish, sarosimaga tushish va sh.k.) ta'sir ko'rsatishi mumkin; 3) natijalargina emas, balki tanib olish jarayoni ham qayd etilishi, ularni tekshirish imkoniyati ta'minlanishi lozim.

Tergov harakatining tarkibiy tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) tanib olish uchun ko'rsatishning barcha ishtirokchilarini taklif qilish, ularga tergov harakatini o'tkazishning maqsad va vazifalarini, ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish;

b) tanib olish uchun zaruriy sharoitlar mavjudligini qo'shimcha ravishda tekshirish;

d) tanib olish uchun ko'rsatiladigan obyektlarni joylashtirish, subyektlarga esa o'zi istagan joyni egallashni taklif qilish;

e) taklif qilinganlarga tergov harakatini qayd etish texnik-kriminalistik vositalari qo'llanilishini bildirish;

f) tanib oluvchini taklif qilish, unga huquqlari va majburiyatlarini hamda uning tergov harakatidagi rolini tushuntirish, unga ko'rsatilgan obyektlarni diqqat bilan ko'zdan kechirishni taklif qilish;

g) tergovchi quyidagi savolni qo‘yishi: “Ko‘rsatilgan shaxslar (narsalar) orasida siz so‘roq paytida tavsiflagan shaxs (narsa) bormi?”.

Tasdiqlovchi javob bergan holda tanib oluvchi o‘zi tanib olgan obyektни ko‘rsatishi, uning boshqalar orasidagi o‘rnini aytishi, uni qaysi belgilarga ko‘ra tanib olganini tushuntirishi lozim. Agar tanib oluvchi rad javobini bergan bo‘lsa, bayonnomada tanib olish nima uchun yuz bermagani aks ettiriladi.

Shaxsni nafaqat tashqi, balki funksional belgilariga ko‘ra ham tanib olish uchun ko‘rsatish zarur bo‘lgan holda, bu bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: avval ovozi va nutqining xususiyatlari yoki qadam tashlashiga ko‘ra, so‘ng esa tashqi ko‘rinishi belgilariga ko‘ra. Ayni bir obyektни tanib olish uchun ko‘rsatish, qoida tariqasida, faqat bir marta o‘tkazilishi mumkin. Qayta ko‘rsatishga faqat favqulodda hollarda, masalan, tanib olinayotgan obyekt tashqi ko‘rinishi sezilarli darajada o‘zgargan holatda bo‘lgan yoki tanib oluvchi o‘ta tushkun kayfiyatda bo‘lgan yoki tanib olish avval fotosuratlar, videokadrlar bo‘yicha o‘tkazilgan, keyinchalik esa qidirilayotgan obyektни bevosita ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘lgan holda yo‘l qo‘yiladi.

E’tibor qarating! Odamlarni funksional belgilari – nutqi, ovozi, qadam tashlashiga ko‘ra tanib olish shunday o‘tkazilishi lozimki, mazkur belgilarning o‘ziga xosligi namoyon bo‘lishiga hech narsa halaqit bera olmasin. Zarur holda ularni ataylab buzib ko‘rsatishga monelik qiladigan choralar ko‘rilishi lozim.

Og‘zaki nutq belgilari va (yoki) ovoziga ko‘ra tanib olish tanib oluvchi tanib olinuvchini ko‘rmagan (qorong‘i bo‘lgan, uning yuzini baland ko‘tarilgan yoqa yoki niqob to‘sib turgan), lekin uning ovozini eshitgan holda o‘tkaziladi. Shaxs og‘zaki nutqi bo‘yicha tanib olinayotganda so‘roq qilish jarayonida jabrlanuvchi yoki guvoh ovozni eshitgan, uning o‘ziga xos belgilari (ovoz darajasi, intonatsiyasi, nutqdagi nuqsonlar, aksent mavjudligi va sh.k.)ni eslab qolgan holatlar aniqlanadi.

Ovoza ko‘ra tanib olish uchun ko‘rsatishni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ovozi tanib oluvchining ovozidan keskin farq qilmaydigan odamlarni tanlab olish tavsiya etiladi. So‘ng so‘roq qilinuvchi jinoyat sodir etilishi chog‘ida eshitgan so‘zlar, iboralar va jummalarni o‘z ichiga olgan matn tayyorlanishi lozim.

Mazkur tanib olish ishtirokchilaridan ikki guruh tuziladi va ular ovozni o‘tkazadigan devor bilan to‘silgan qo‘shni xonalarda joylashtiriladi. Xonalardan birida tergovchi va xolislar, ikkinchisida esa tergovchining yordamchisi va tanib olinuvchilar joylashgandan keyin birinchi xonaga tanib oluvchi taklif qilinadi, ikkinchi xonada esa

tergovchining yordamchisi tegishli signalni olgach, tanib olinuvchilardan bundan oldin o'zlari olgan matnni navbatma-navbat erkin tartibda ovoz chiqarib o'qishni iltimos qiladi.

Tanib olinayotgan shaxsga matnni o'qish navbatini tanlash huquqi berilishi mumkin. Tanib oluvchining iltimosiga ko'ra matn har bir shaxs tomonidan takroran, ovoz kuchini ko'targan yoki pasaytirgan holda o'qib berilishi mumkin. SHundan keyin tanib oluvchi biron-bir ovozni tanigani yoki tanimaganini ko'rsatadi, agar tanigan bo'lsa, qaysi belgilarga ko'ra tanib olganini tushuntiradi. Bunday tanib olish jarayonida audioyozuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Odamni tanib olish fonogrammaga yozilgan ovoz bo'yicha amalga oshirilishi ham mumkin. Tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin o'tkazilgan so'roq jarayonida maxsus olingan fonogrammadan yoki gumon qilinuvchi og'zaki nutqining tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan holda tayyorlangan boshqa fonogrammalaridan jumlar aniq talaffuz qilingan bir nechta qismi ajratib olinadi. So'ng o'xshash ovozli bir nechta statistlar tanlanadi va ular ayni shu jummalarni fonoyozuv uchun talaffuz qiladi. Tergov harakatini o'tkazish jarayonida fonogrammalar bir necha marta erkin oldinma-ketinlikda qo'yib eshittiriladi, tanib oluvchiga esa ularni diqqat bilan eshitish va qaysi fonogrammada u gumon qilinuvchining ovozi va qaysi belgilarga ko'ra tanib olganini ko'rsatish taklif qilinadi.

Murdani tanib olish uchun ko'rsatish. Murdani tanib olish uchun aniqlash yuzasidan eng samarali tergov harakatlaridan biri uni tanib olish uchun ko'rsatishdir. Qoidaga ko'ra murdani tanib oluvchining e'tiborini chetga jalb qilmaslik uchun va salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun boshqa murdalar yo'q joyda ko'rsatish lozim. Tanib oluvchi sifatida ilgari fuqaroning yo'qolganligi to'g'risida xabar bergan shaxslarga ko'rsatiladi. Ular yo'qolgan kishining belgilari haqida dastlab so'roq kilinadi.

Murdani tanib olish uchun ko'rsatishda tanib oluvchi uni qaysi belgilariga muvofiq taniganligini batafsil ko'rsatuvi va uning so'zlari tanib olish uchun ko'rsatish bayonnomasida qayd etilishi lozim. Murdani tanib olish uchun ko'rsatish u topilgan joyda yoki o'likxonalarda amalga oshirilishi lozim. Topilgan murda yuzi ifloslangan bo'lsa, tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin uni yuvib, hayotiy holiga birmuncha yaqinlashtirish lozim. O'likxona binosida tergovchi yoki operativ xodim o'likxona ma'muriyatiga murdani va uning kiyimlarini sud tibbiyot tadqiqotidan so'ng saqlab turish to'g'risida ko'rsatma beradi. Bunday hollarda, ya'ni murdani tanib olish yuzi va qiyofasi jarohatlanishi natijasida

o'zgarib ketgan bo'lsa, tibbiyot mutaxassisiga uni o'z qiyofasiga keltirish, hayotlik chog'idagi ko'rinishiga yaqinlashtirish yuzasidan topshiriq beriladi. Bo'laklarga ajratilgan murdaning ayrim qismlari umumiy qoidalariga ko'ra ko'rsatiladi. Murdani tanib olish boshqa har qanday tanib olish singari boshqa dalillar bilan ham tasdiqlanishi darkor.

Narsa-buyumlarni tanib olish uchun ko'rsatish. Narsa-buyumlarni tanib olish uchun ko'rsatishning protsessual tartibi JPK 128-moddasida ko'zda tutilgan. Tanib olish obyektlari bo'lgan predmetlar nihoyatda xilma-xildir. Ularga turli buyumlar, jumladan, o'g'irlangan qurol, poraga berilgan buyumlar va boshqalar kiradi. Mazkur narsa-buyumlar ko'zdan kechirilishi paytida aniqlanib surishtiruv va tergov organlari ixtiyoriga berilgan bo'lishi mumkin. Tanilayotgan narsa-buyum boshqa shu turdagi narsa-buyumlar orasiga qo'yilib, xolislar ishtirokida tanib oluvchiga ko'rsatiladi. Tanilgan hollarda undan narsa-buyumni qaysi umumiy va xususiy belgilariga ko'ra tanilganligini aniqlash lozim.

Hayvonlarni tanib olish uchun ko'rsatish. Hayvonlarni tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin tanuvchidan so'roq paytida masalan, uy hayvonining turi, jinsi, yoshi, laqabini aytish va rangini tasvirlab berish so'raladi. Bunda shu ta'riflarni yaxshi tushunadigan kishilar ham ishtirok etishadi. Hayvonlar o'zlariga o'xshash turdagi hayvonlar orasida ko'rsatiladi. Shaxsga poda orasida joylashgan qoramolni tanib olish uchun ko'rsatish ham mumkin. Lekin, masalan, sigir, ot, it kabilarni ikki-uch unga o'xshash jonivorlar orasida ko'rsatish qulaydir. Tanib oluvchiga hayvonning tanasi, jini, shoxi, tuyog'ini ko'zdan kechirishga imkoniyat berish lozim. Bunda hayvonning egasiga munosabatini diqqat bilan kuzatish tavsiya etiladi. Tanilgandan so'ng veterinariya ekspertizasi o'tkazilishi mumkin. Bunda hayvonning nasli, yoshi va boshqa ba'zi belgilari yanada aniqroq belgilanadi.

Tanib olish uchun ko'rsatish bayonnoma orqali rasmiylashtiriladi. Tanib olish uchun ko'rsatish vaqtida tarjimon yoki kar va soqovlarning ishoralariga tushunuvchi shaxs taklif etilsa, ular to'g'risida bayonnomaga tegishli yozuv kiritilishi va ularni qasddan noto'g'ri tarjima qilganliklari holda jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilgani qayd qilinishi zarur.

Tanib olish uchun ko'rsatish bayonnomasi bir qancha talablarga javob berishi kerak. Bayonnoma odatda uch qismdan iborat, uning kirish qismida kim, qachon, qanday sharoitda ushbu tergov harakatini o'tkazgani, kimlar ishtirok etgani, ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani, kimga, qanday obyektlar tanib olish uchun ko'rsatilgani, obyektlarning

tashqi ko‘rinishi, belgilari, agar shaxslar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ularning yoshi, millati, ko‘zga tashlanadigan belgilari, qaddi-qomat, oriqlik-semizligi, sochi, kiyimlari batafsil ifodalanadi.

Bayonnomaning asosiy qismida tanib oluvchiga berilgan savollar va uning javoblari imkon boricha so‘zma-so‘z aks ettiriladi. Odatda tanib oluvchiga berilgan savollar va javoblar aniq yozilganidan tashqari tanuvchi va tanilgan shaxslarning xatti-harakatlari, bir-birlari bilan munosabatlari ham bayonnomada aks ettiriladi.

Agar obyektlar fotosurat yordamida tanish uchun ko‘rsatilgan bo‘lsa, suratlar jadval tarzida qog‘ozga yopishtirilib, cheti muhrlanadi. Suratlar raqamlangan va boshqa hech qanday belgilar qo‘yilmagan holda bo‘lishi shart. Umuman tanib olish uchun ko‘rsatish bayonnomasiga shu tergov harakatini o‘tkazishda foydalanilgan buyumlar yoki ularning suratlari ilova qilinmog‘i lozim.

Nazorat savollari:

1. Tanib olish uchun ko‘rsatish tushunchasi va uning obyektlarini tushuntirib bering.

2. Tanib olish uchun ko‘rsatishga tayyorgarlik ko‘rish, uni amalga oshirish tartibi, taktik usullari va rasmiylashtirish tartibini izohlab bering.

Kazuslar:

1-kazus

Tergovchi 14 yoshli qizni yo‘qolganlik fakti bo‘yicha olib borgan tekshiruv natijasida, u ota-onasi bilan janjallashib uyidan chiqib ketib, 6 oy davomida qaytib kelmaganligini aniqlangan. Qo‘shni tumanda zo‘rlab o‘ldirish belgilari bilan tanib olinmagan yosh qizning murdasi topilgan. Ekspertiza xulosasiga ko‘ra, murda 5 oy oldin ko‘milgan, uning yonidan fototasviri topilgan.

Aytinchi, murdaning shaxsini identifikatsiya qilish va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni aniqlashtirish uchun qanday usullar foydalanish mumkin? Mazkur holatda jinoyatni ochish uchun qanday tergov harakatlari va ekspertizalar tayinlanadi? Ekspertlar hal etadigan vazifalarni yoriting.

2-kazus

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, 7 daxasi kichik tor ko'chasi arig'i yoqasidan 15-20 yoshlar orasidagi boshsiz no'malum qiz jasad topildi. Surishtiruv va dastlabki tergov vaqtida jablanuvchining boshi hech qayerdan topilmadi. Tergovchi jablanuvchining shaxsini aniqlash maqsadida tergovni qanday rejalashtirishi va tashkil etishi lozim.

Amaliyotda jablanuvchining shaxsini aniqlash bilan bog'liq ko'plab usullar mavjud. Sizningcha, tergovni rejalashtirish va tashkil etish tushunchalari nimani anglatadi? Ular o'rtasida qanday farqlar mavjud? Jablanuvchining shaxsi no'malum bo'lsa, tergovni rejalashtirish va tashkil etish qay holat amalga oshirilishi zarur? Amaliyotda, tergov rejalashtirilganda jinoyat ishining qanday xususiyatlari yoki tomonlariga e'tibor qaratiladi?

20-MAVZU. TELEFON VA BOSHQA QURILMALAR ORQALI OLIB BORILADIGAN SO‘ZLASHUVLARNI ESHITIB TURISH TAKTIKASI

So‘zlashuvlarni eshitib turishning umumiy tartibi. Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tartibi va taktikasi. Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish bayonnomasi.

So‘zlashuvlarni eshitib turishning umumiy tartibi

Uyushgan jinoiy guruhlar va tuzilmalar tomonidan zamonaviy aloqa vositalari (mobil telefonlardan yo‘ldosh aloqa kanallarigacha)dan turli, shu jumladan og‘ir jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishda faol foydalanilishi huquqni muhofaza qilish organlarini tegishli javob choralarini ko‘rishga da‘vat etadi.

O‘zR JPKning 169-moddasiga muvofiq, ish bo‘yicha to‘plangan dalillar ish uchun ahamiyatga molik xabarlarni olish mumkinligiga yetarli darajada asos bo‘la olsa, surishtiruvchi, tergovchi telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarini eshitib turish surishtiruvchi, tergovchi O‘zR JPKning 170-moddasida belgilangan tartibda prokurorning sanksiyasini olib chiqargan qarorga binoan yoki sud ajrimiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Estda tuting! Telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish telefon aloqasi tarmoqlari orqali olib borilayotgan so‘zlashuvlarni texnika vositalari yordamida xufyona eshitish va tezkor qiziqish ob‘ekti hisoblangan shaxsning jinoiy faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, uning aloqalarini aniqlash, tezkor-qidiruv faoliyatining aniq vazifalarini hal qilish uchun foydali bo‘lgan boshqa axborotni olish uchun qayd etish borasidagi harakat yig‘indisi hisoblanadi.

Ammo jabrlanuvchiga, guvohga, shuningdek ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan kuch ishlatish, tovlamachilik yoki boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etish xavfi mavjud bo‘lsa, bu shaxslarning arizalari bo‘yicha yoki ularning yozma roziligi va prokurorning sanksiyasi bilan yoxud sudning ajrimiga ko‘ra ularning telefon yoki boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali bo‘ladigan so‘zlashuvlarini eshitib turish amalga oshirilishi mumkin.

Tergovchining soʻzlashuvlarni eshitib turish va yozib olishni amalga oshirish toʻgʻrisidagi iltimosnomasida quyidagilar koʻrsatilishi lozim: tergov qilish jarayonida ularni qoʻllash zarurati paydo boʻlgan jinoyat ishi; mazkur tergov harakatini oʻtkazish uchun asoslar; telefon orqali va boshqa soʻzlashuvlari eshitalishi va yozib olinishi lozim boʻlgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, tergov harakatini oʻtkazish muddati; eshitish va yozib olishni texnik jihatdan amalga oshirish topshirilgan organ nomi.

Eʼtibor qiling! Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish toʻgʻrisidagi qaror yoki ajrim unda eshitaladigan axborotlar xususiyati va hajmi, shuningdek, soʻzlashuvlarni eshitib turishning borishini va natijalarini qayd etish shakli belgilanib, **milliy xavfsizlik xizmati organlariga** ijro etish uchun yuboriladi. Soʻzlashuvlarni eshitib turish olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas.

OʻzR JPKning 169-moddasida nainki telefon, balki boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni ham eshitib turish va yozib olish imkoniyati nazarda tutilgan. Bunda turli xil kommunikatsion qurilmalar va vositalar (koʻchma va simsiz aloqa, umumiy foydalaniladigan telefon aloqasi tarmoqlari va b.q.) yordamida axborot ayirboshlash (radioaloqa, mobil telefonlari orqali soʻzlashuvlar, teletayp, faks, elektron pochta orqali axborot uzatish) tushunilishi lozim.

Soʻzlashuvlarni eshitib turish va yozib olish tartib-qoidalari jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida aniq belgilanmagan. Ayni hol qaysi hollarda u protsessual harakat hisoblanishi va ushbu maqomdan kelib chiqadigan oqibatlarga sabab boʻlishi, qaysi hollarda esa u natijalari faqat bir qator zaruriy shartlarga rioya etilgan holdagina tergov qilinayotgan jinoyat ishi boʻyicha dalillarga aylanishi mumkin boʻlgan tezkor-qidiruv tadbiri hisoblanishini aniq aytish imkonini bermaydi.

Bir qarashda, javob aniq – telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish va yozib olish OʻzR JPKning 169-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror asosida oʻtkazilgan holda, bu protsessual harakat hisoblanadi. Ayni vaqtda, Oʻzbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 16-moddasining 1-qismiga muvofiq, telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turishdan iborat tezkor-qidiruv tadbiri oʻtkazilishiga ham prokuror sanksiyasi asosida yoʻl qoʻyiladi. Shu sababli ularni mazkur asosga koʻra farqlashning iloji yoʻq. Binobarin, koʻrsatib oʻtilgan tezkor-qidiruv tadbirining mazmunini yoritish talab etiladi.

Telefon va boshqa so‘zlashuvni eshitib turish tartibi va taktikasi

Mazkur tadbimi o‘tkazishning asosiy shartlari qatoriga yuqorida aytib o‘tilgan prokuror sanksiyasidan tashqari maxsus axborot va tezkor bo‘linmaning hujjatli rasmiylashtirilgan topshirig‘i mavjudligi, shuningdek aloqa korxonalarining statsionar apparaturasiga ulanish zarur bo‘lgan holda faqat O‘zbekiston Respublikasi IIV va MXX organlarining tezkor-texnika kuchlari va vositalaridan foydalanish kiradi.

E’tibor qiling! Ayni paytda, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun 16-moddasining 2-qismida kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda telefon so‘zlashuvlarini eshitib turishning soddalashtirilgan shartlari ham nazarda tutilgan. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi: a) fuqaroning hayoti, sog‘lig‘i, mulkiga tahdid mavjudligi; b) shaxsning arizasi yoki uning yozma roziligi; d) tezkor bo‘linma rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror mavjudligi. Bu holda faqat arizachining telefoni orqali olib borilayotgan so‘zlashuvlarni eshitish amalga oshiriladi, prokuror bu haqda yigirma to‘rt soat ichida albatta xabardor qilinadi.

Telefon so‘zlashuvlarini eshitish tezkor xodimning bildirgisi, ma’lumotnoma yoki dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur xizmat hujjatida abonent raqami, eshitib turish va ovoz yozish vaqti va joyi, foydalanilgan texnikaviy vositalar turi va modeli, bu ishlarni amalga oshirgan shaxslarga oid ma’lumotlar hamda ish uchun ahamiyati bo‘lishi mumkin deb hisoblangan boshqa ma’lumotlar aks ettiriladi. Hujjatga so‘zlashuv fonogrammasi aks ettirilgan magnit tasmasi (muhrlangan holatda) ilova qilinadi.

Solishtirish asosida protsessual harakat va tezkor tadbir o‘rtasidagi farq olingan natijalarning daliliy ahamiyatida namoyon bo‘ladi, ularni o‘tkazish asoslari esa ko‘p jihatdan mos keladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish va yozib olish tezkor xodimning yoki tergovchidan vakolat olgan mutaxassis, aloqa operatorining aloqa tarmoqlariga verbal axborot olish uchun ulanishini nazarda tutadi. Bunda so‘zlashuvlar shahar, shaharlararo, xalqaro, radiotelefon, radiorele, yuqori chastotali, kosmik aloqa tarmoqlari orqali, shuningdek boshqa so‘zlashuv qurilmalari – verbal axborotni uzatish radio, selektor va boshqa vositalari yordamida olib borilishi mumkin.

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish to‘g‘risidagi qarorda eshitiladigan so‘zlashuvlar qaysi qurilmalarda olib borilishi, ularning raqamlari va boshqa parametrlari, qurilmalar o‘rnatilgan manzillar, so‘zlashuvlarning

ishtirokchilari, eshitib turish va yozib olish vaqti, ularni amalga oshirish kimga topshirilgani ko'rsatilishi lozim.

So'zlashuvlarni eshitib turish va yozib olish tergovchi yoki surishtiruvchi, aloqa korxonasi operatori yoki surishtiruv tezkor-texnika organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Eshitish jarayonida jabrlanuvchi yoki tahdidlar va g'ayriqonuniy talablar qo'yilayotgan boshqa shaxs ishtirok etishi mumkin.

Agar eshitib turish va yozib olishning avtomatik tartibi nazarda tutilgan bo'lsa, mutaxassis apparaturani ulab qo'yishni amalga oshiradi va nutqli axborot sifatli yozib olinishini zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda kuzatib boradi. So'zlashuvlarni bevosita nazorat qilish va yozib olishda mutaxassis yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, axborotni eshitib turadi, olinayotgan ma'lumotlarning tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatini aniqlash maqsadida ularni tahlil qiladi. Buning uchun u maxsus texnika vositalaridan foydalanish ko'nikmalari bilan bir qatorda, sodir etilgan jinoyat to'g'risida ma'lumotlarga, tergovni nima qiziqtirayotgani haqida tasavvurga ham ega bo'lishi lozim.

Axborot chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun tergovchi mutaxassisni tanlashda tezkor-texnika bo'linmasining xodimini afzal ko'rishi mumkin. So'zlashuvlarni nazorat qilish va yozib olishda ishtirok etishga bunday bo'linma mutaxassisini jalb qilishning iloji bo'lmagan holda, ushbu maqsadda ekspertiza-kriminalistika xizmati yoki telefon stansiyasi xodimi jalb qilinishi mumkin.

Nazorat qilinayotgan so'zlashuvlarning audioyozuvini tergovchi vaqti-vaqti bilan mutaxassis ishtirokida eshitadi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan axborot esa yagona tashuvchiga ko'chirib olinadi. Sodir etilgan jinoyat, qilmishning izlarini yashirish, tergovga qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq holatlarni qayd etish uchun so'zlashuvlarni nazorat qilish va yozib olish uzluksiz amalga oshirilishi lozim. Bunda jinoyatchilar uzatilayotgan axborotni yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish, shifrlangan muloqot usullarini qo'llash yo'li bilan niqoblashlari mumkinligini ham hisobga olish zarur. Bu tergovchiga jinoyatchilar o'z so'zlashuvlarini niqoblash uchun qanday texnika vositalaridan foydalanishlari mumkinligini aniqlash vazifasini yuklaydi.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish va yozib olishni amalga oshirish muddati mobaynida tergovchi istalgan vaqtda ularni amalga oshiruvchi organdan fonogrammani eshitish uchun talab qilib olishga haqli.

Telefon va boshqa so‘zlashuv vositalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish bayonnomasi

Telefon va boshqa moslamalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turgan, ovozni yozgan xodimlar jinoyat ishiga aloqador bo‘lgan so‘zlashuvlar mazmunini aks ettiruvchi fonogramma haqida qisqacha bayonnomaga tuzadilar (JPK 171-moddasi).

E’tibor qiling! Bayonnomada quyidagi ma’lumotlar aks ettirilishi lozim:

- mazkur tergov harakati kim va qaysi organ qarori (ajrim) asosida bajarilganligi;
- jinoyat ishi yoki uning alohida holatlari haqidagi ma’lumotlar;
- ish yuzasidan kimlarning so‘zlashuvlari eshitilishi lozimligi, ularning telefon raqamlari;
- eshitib turish va ovoz yozish vaqti, joyi;
- foydalanilgan ovoz yozish texnika vositalari va ularning turi, modeli kabi belgilari;
- tergov harakatini amalga oshirgan xodimlar shaxsiga oid ma’lumotlar;
- jinoyat ishini tekshirishda ahamiyatli hisoblangan boshqa ma’lumotlar.

Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turishni qayd etilganidan so‘ng so‘zlashuv fonogrammasini aks ettiruvchi magnit tasmasi joylashtirilgan kasseta muhrlanadi va bayonnomaga ilova qilinadi.

Fonogrammadagi jinoyat ishiga aloqasi bo‘lmagan qismlar sud muhokamasi tamomlanib, chiqarilgan hukm, qaror, ajrim qonuniy kuchga kirgandan keyin yo‘q qilinadi.

Ekspertiza tadqiqoti o‘tkazilgan fonogrammalar, videotasvir tasmlari va boshqa obyektlar ekspertiza tayinlagan organga qaytariladi. Tekshiruv natijalari esa ekspertning xulosasida aks ettiriladi va umumiy prinsiplar asosida dalil sifatida baholanadi.

Ishga aloqasi bo‘lmagan so‘zlashuv matnlari so‘zlashgan shaxslarning turmushiga va boshqa oila a‘zolarining sha’niga tegishli sir va oshkora qilib bo‘lmaydigan xabarlar oshkora qilinmasligi, ya’ni ularning konstitutsiyaviy huquqi va qadr-qimmatini himoya qilinnmog‘i zarur.

Nazorat savollari:

1. So‘zlashuvlarni eshitib turishning umumiy tartibi qanday? Ushbu tergov harakati qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
2. Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tartibi va taktikasi qanday?

Kazuslar:

1-kazus

A. ismli shaxs MXX organlariga 21.01.2015-yilda murojaat etib, sheriklari U. va M. 22.01.2015-yilda inkassatorga hujum qilish rejasini tuzayotganligini xabar qildi. Tezkor qidiruv xodimlari o'z rahbarlaridan ruxsat olgan holda U. va M. ning telefondagi so'zlashuvlarini tingladi. Bu haqida prokurorga 18 soat ichida xabar qilindi. 21.01.2015-yilda telefon so'zlashuvini tinglash bo'yicha sanksiya chiqardi. Jinoyat inkassatorning pul olishi kechiktirilishi munosabati bilan 24.01.2015 ga qoldirildi. Tezkor qidiruv xodimlari telefon so'zlashuvlarini eshitishni davom ettirishdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering? Ushbu holatda tezkor qidiruv faoliyati materiallari dalil sifatida qabul qilinadimi? Shu holatda jinoyat protsessual qonun talablari buzilganmi?

Prokuror sanksiyasi talab etiladigan tezkor qidiruv tadbiri qanday olib boriladi? Telefon va boshqa qurilmalar orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish tartibi va taktikasi qanday?

2-kazus

Toshkent shahar prokuraturasi iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi xodimlari va O'zbekiston Respublikasi IIV jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'limi tezkor qidiruv xodimlari bilan hamkorlikda arizachi fuqaro Aliev Vobir Yo'ldashovning arizasiga asosan Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 45-sonli maktab direktorining fuqaro Aliev Vobir Yo'ldashovdan pora talab qilganligi holati yuzasidan tezkor-tadbir o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tadbir jarayonida zaruriyat tug'ilganligi sababli, Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 45-sonli maktab direktorining uyali aloqa telefonidagi so'zlashuvlari eshitilgan va telefon so'zlashuvlaridan nusxa olingan. O'tkazilgan tezkor tadbiri jarayonida Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 45-sonli maktab direktori fuqaro Aliev Vobir Yo'ldashovdan 100 AQSH dollari miqdoridagi pul mabalag'larini olgan vaqtida qo'lga olingan. Mazkur holat yuzasidan Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 45-sonli maktab direktoriga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 3-qismi "v" bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Tezkor tadbirni o'tkazgan xodimlar tomonidan tergovga Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 245-sonli maktab direktorining telefonda so'zlashgan yozuvlari taqdim etilgan va jinoyat ishi

yuzasidan olib borilgan dastlabki tergov harakatlari jarayonida ushbu telefon so'zlashuvidagi ma'lumotlardan ayblanuvchining aybini isbotlovchi dalil sifatida foydalanilgan.

Ushbu holat yuzasidan telefon so'zlashuvlarini tinglashda qanday xatoliklarga yo'l qo'yilgan? Telofo va boshqa qurilmalar orqali so'zlashuvlarni tinglash jinoyatlarni ochishda qanday ahamiyatga ega, va ularni o'tkazilishi qanday tartibda rasmiylashtiriladi?

21-MAVZU. JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA MAXSUS BILIMLARDAN FOYDALANISH TAKTIKASI

Maxsus bilimlardan foydalanish tushunchasi. Ekspertiza tadqiqoti uchun tayyorgarlik ko'rish va namunalar olish. Ekspertiza tayinlashga tayyorgarlik ko'rish va tekshiruv uchun namunalar olish tartibi. Ekspert xulosasi va uni baholash.

Maxsus bilimdan foydalanish tushunchasi

Dastlabki tergov va sud jarayonida ish uchun ahamiyatga molik holatlarni tekshirish uchun maxsus bilimlar talab etiladi. Maxsus bilim deganda fan-texnika, san'at yoki kasb-hunar sohasida yuksak bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish nazarda tutiladi.

Jinoyat ishlarini tergov qilish va aybdorlarni fosh etishda olingan ashyoviy dalillarni tekshirish uchun muayyan ma'lumotlarni olish zarur. Bunday tekshiruvlar maxsus bilimga ega bo'lgan shaxslar tomonidan o'tkaziladi.

Maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislar, kasb-hunar egalari, sanoat, qishloq xo'jaligida, qurilishlarda turli majmualarni tekshirib tegishli xulosalarni beradilar. Ular, jumladan, ishlab chiqilgan loyiha shu kunning ilm-texnika talabiga qanchalik javob berishi, muhandislik, texnikaviy hisoblarning to'g'riligini, ish qobiliyatini yo'qotgan ishchi va xizmatchilarning nogironlik darajasini aniqlash va shu kabi boshqa keng doiradagi masalalarni hal qilishga jalb etiladi.

E'tibor qiling! Maxsus bilim – fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohasida mashg'ul bo'lish natijasida hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 172-moddasida, "Ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi", deyilgan. Masalan, jinoyat sodir bo'lgan joyda topilgan qo'l-barmoq izi kim tomonidan qoldirilganligi, otilgan o'q yoki gilza qanday o'q otish qurolidan otilganligi, ashyoviy dalil bo'lgan hujjatning qo'lyozma matni, imzolari, kim tomonidan yozilganligi kabi masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

E'tibor qiling! Sud ekspertizasi – jinoyat sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat (2010-yil 1-iyundagi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi).

Ekspert xodimlarining faoliyati davlat ekspertiza muassasalarida yoki boshqa tashkilotlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ular qayerda ishlashlaridan qat'i nazar, ish yuzasidan ekspert sifatida tayinlash protsessual qonunda ko'rsatilgan tartib asosida amalga oshiriladi, ular teng huquq va majburiyatlarga egadir. Ekspertiza tekshiruvini o'tkazish jarayonida ekspert mustaqil protsessual shaxs sifatida ekspertizaga oid bo'lgan qo'shimcha obyektlar, axborotlar, jinoyat ishi va ekspertiza materiallarini talab qilishlari mumkin.

Ekspert oldiga qo'yiladigan savollar uning maxsus bilimlari doirasida bo'lishi lozim. Bu talab buzilib, ekspert oldiga uning vakolat doirasidan chetga chiqadigan vazifalar qo'yilsa, u xulosa berishdan bosh tortishi mumkin. Tekshiruv natijasida beriladigan xulosalar esa ekspertning bilim doirasi bilan chegaralanadi va uning vakolatidan tashqari chiqmasligi kerak.

Sud ekspertizasi materialini tayyorlash, ekspert hal qiladigan savollarni to'g'ri belgilash, solishtirib tekshirish uchun namunalar olish va boshqa shu kabi masalalarni amalga oshirish uchun tergovchi yoki sud kriminalistik texnikasi sohasidagi mutaxassis maslahatini olishi mumkin. Ekspertiza tayinlash davrida tekshiruv obyektlarini ko'chirib olish, mustahkamlash, tekshiruv vazifasini aniq belgilab, savollarni ekspertiza predmetiga oid ravishda turli tadbirlarini amalga oshirishda kriminalist mutaxassisning yordami juda muhim.

E'tibor qiling! Sud ekspertizasi – Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog, psixolog, shuningdek zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar ham chaqirilishi mumkin, deyiladi protsessual qonunda. Bu ko'rsatma kriminalist mutaxassislarga ham tegishlidir.

Tergovda va sud muhokamasida ishtirok etuvchi mutaxassislar ekspertiza muassasalarida ishlovchi ekspert, ilmiy xodim, rahbar mansablarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ular tergov harakatlarida mutaxassis sifatida ishtirok etgan bo'lsalar, keyinchalik yana (ayrim holatlardan tashqari) jalb etilishi mumkin. Bu masala JPKning 78-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, kriminalistika sohasidagi mutaxassislarga to'liq tatbiq etilishi mumkin.

Tergov harakatlarini tashkil qilish va o'tkazishda tergovchi maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassisni taklif etib, uning yordami, maslahati asosida ma'lum tadbirlarni amalga oshiradi: ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazishda maxsus qidiruv asboblari qo'llash, izlarni qidirish, topish, ko'chirib olish va qayd etish va boshqa masalalar shular jumlasiga kiradi.

Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda esa maxsus bilim ekspert xodimlari tomonidan qo'llanilib, alohida tergov harakati sifatida tadqiqot o'tkaziladi.

Tekshiruv-tadqiqot natijalari ekspertning xulosasida aks ettirilib, jinoiy ish yuzasidan dalil manbai sifatida xizmat qiladi.

Sud ekspertiza fani nazariyasi va amaliyotida sud ekspertizalar turlari masalasiga katta e'tibor bilan qaraladi. Ekspertiza obyektlarining soni muntazam kengayib borishi o'z o'rinda kriminalistik masalalarni yechishda qo'llaniladigan maxsus bilimlarning turlarini ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa ekspertizaning tubdan yangi turlarini yaratilishida va mavjud kriminalistik ekspertiza uslublarini takomillashtirishda o'z ifodasini topmoqda.

Sud ekspertizasini tasniflash turli asoslarga muvofiq amalga oshiriladi. Ular ichida ekspertizalarni bilim sohasiga qarab ajratish birinchi o'rinni egallaydi. Bu prinsip bo'yicha ekspertizalar turlari bir vaqtning o'zida uchta belgi bo'yicha ajratiladi: ekspertiza obyekti, predmeti va qo'llaniladigan uslublar (yoki bilim sohasi). Alohida har bir belgi bo'yicha ekspertiza turini belgilash anglashilmovchilikka olib keladi. Masalan, voqea joyidan topilgan o'q ham ballistika (o'q-snaryadlarning harakat qonunlari), ham metallar ekspertisasi obyekti bo'lishi mumkin yoki tilshunoslikka oid bilimlar dastxatshunoslik, muallifshunoslik, sud fonoskopiya ekspertizalarida keng qo'llanadi.

Aytib o'tilgan uch belgiga asosan kriminalistik, sud-tibbiy, sud-biologik, sud-muhandislik, sud-iqtisodiy, sud qishloq xo'jalik va boshqa turdagi ekspertizalar ajratiladi.

O'z o'rinda bu ekspertizalar turlarga bo'linadi.

Xususan, kriminalistik ekspertizalar qatoriga asosan xatshunoslik, izshunoslik va sud ballistik ekspertizalar kiradi. An'anaviy kriminalistik ekspertizalar deb atalgan sud ekspertizalarining bu turlari jinoyatlarni ochishda qo'llanadigan maxsus bilimlarning tarixan birinchi shakllarini tashkil etgan.

Sud ekspertizasining prostessual turlari bir biridan ularni o'tkazishning tashkil etilishi va uslubi bilan farq qiladi.

Sud ekspertiza sohasidagi ixtisoslashuv uni o'tkazish shart bo'lgan holatlarning kengayishiga, ekspertiza muassasalarida bajariladigan ekspertiza turlarini ko'payishiga (JPKning 174-moddasi) asos bo'ldi.

Agar ekspertiza xulosasida kamchiliklarni to'ldirish zarurati tug'ilsa, qo'shimcha ekspertiza tayinlanadi (JPKning 176-moddasi 1-qismi).

Birlamchi ekspertiza xulosasi tergov (sud)ning asoslangan fikri bo'yicha noto'g'ri bo'lsa, qayta (yoki takroriy) ekspertiza tayinlashi mumkin (JPKning 176-moddasi 2-qismi).

Qo'shimcha ekspertiza asosiy ekspertizani o'tkazgan mutaxassisga yoki boshqa ekspertga topshirilishi mumkin.

Shuni aytib o'tish joizki, ham qo'shimcha, ham qayta ekspertizaga yuborilgan material, tekshiruv obyektlari hamda namunalar va echiladigan masalalar o'zgarishsiz qoladi. Aks holda, ya'ni ekspertizaga yangi obyektlar yuborilsa yoki boshqa savollar qo'yilsa, ekspertiza o'zining tabiatini o'zgartiradi va boshqa yangi ekspertiza o'tkazish masalasi tug'iladi. Lekin, ekspertiza tayinlangandan so'ng ekspertning talabiga ko'ra qayta ekspertiza materiali qo'shimcha namunalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Takroriy ekspertiza boshqa bir ekspert yoki ekspertlar komissiyasi, ya'ni ikki va undan ko'proq bo'lgan ekspertlar tomonidan o'tkaziladi. Birinchi ekspertiza tekshiruvini o'tkazgan mutaxassis o'zi bergan xulosasi va o'tkazgan tadqiqotlari yuzasidan tushuntirishlar berishi mumkin. Lekin u qayta tekshiruvlarni o'tkazishda, ularning natijalarini muhokama qilishda va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Birinchi ekspertiza natijasi bilan qayta ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tadqiqotlarda uning natijalari komissiya ishtirokida tajribali mutaxassis xodimlar bilan hamkorlikda muhokama qilinadi va birinchi ekspertiza xulosasi tasdiqlanmaslik sabablari baholanadi. Ushbu sabablar qayta ekspertiza xulosasida bayon etiladi.

Qayta ekspertiza uchinchi, to'rtinchi va undan ko'p marta ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza amaliyotida shunday hollar uchrab turadiki, ekspertiza fikri bilan ikkinchi qayta ekspert xulosasi bir-biriga qarama-qarshi chiqadi. Bunda har qaysi ekspertiza ham o'zicha asoslangan va qator sifat belgilariga tayangan bo'ladi.

Bu holda tergovchi (sud) har bir xulosani alohida, boshqa dalillar bilan birgalikda baholashi zarur. Agar shunday baholash natijasida xulosalarda ish yuzasidan ishonchli faktlarga qarama-qarshiliklar yoxud prostessual qonun buzilishlari aniqlansa, uchinchi marta takroriy ekspertiza tayinlash mumkin.

Takroriy ekspertiza materialini o'sha oldingi muassasaga yuborish, lozim bo'lsa boshqa ekspertiza laboratoriyasi yoki institutiga yuborish mumkin. Masalan, birinchi ekspertiza IIVning ekspertiza bo'limida o'tkazilgan bo'lsa, ikkinchisi, Respublika Adliya vazirligi huzuridagi ilmiy tadqiqot kriminalistika markaziga yuboriladi. Uchinchi takroriy tekshiruv esa shu markazning o'zida yoki boshqa ekspertiza muassasasida o'tkazilgan taqdirda uni o'sha joyda albatta boshqa ekspert yoki ekspertlar komissiya tarkibida o'tkazilmog'i lozim. Ana shunday bo'lgandagina ekspertiza xulosalari obyektiv bo'lib, ish uchun dalil manbai sifatida qo'llanilmog'i lozim.

Ekspertlar komissiyasini tayinlash va tanlash tergovchiga sud yoki ekspertiza muassasasi rahbariga bog'liqdir. Qayta ekspertizani o'tkazish mutaxassislarning tajriba va bilim darajasiga, ish hajmiga qarab belgilanadi. Qayta ekspertizaning predmeti va tekshiriluvchi obyektlari doirasi o'zgarishsiz qoladi.

Shunday qilib, qo'shimcha va takroriy ekspertizalar aniq ishning holatiga qarab tergov va sudning qaror va ajrimiga ko'ra o'tkaziladi. Takroriy va qo'shimcha ekspertizadan tashqari komissiya tarkibida o'tkaziladigan va kompleks ekspertizalar ham bo'lishi mumkin. Komissiya tarkibida o'tkaziladigan ekspertiza deb bir sohaga mansub bir necha mutaxassis tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlarga aytiladi. Tekshiriluvchi obyektlar soni ko'p bo'lib, tekshirish usullari murakkab bo'lsa ekspertiza materiali bir mutaxassisga emas, balki bir necha ekspertga topshiriladi. Masalan, ko'p obyektli dastxatshunoslik ekspertizalar bo'yicha tekshiruv o'tkazish odatda uzoq vaqt talab qiladi, shunday hollarda ekspertiza materiali bir necha mutaxassisga, ya'ni ekspertlar komissiyasiga topshiriladi.

Bunday ekspertizalar, odatda, moliyaviy hujjatlar bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlarda, ya'ni turli yozuvlar va imzolarni bajargan shaxslarni identifikastiya qilishda tayinlanadi. Hujjatlar soni va qo'lyozmani yozishda shubhalangan shaxslar soni ko'p bo'lganligi tufayli ekspertiza tekshiruvini tezlashtirish va xulosani obyektiv va asoslangan bo'lishi uchun bunday ekspertizalarni komissiya ishtirokida o'tkazish lozim.

Komissiya a'zolari ishtirokidagi ekspertiza natijalari birgalikda muhokama etilib, agar ular bir fikrga kelsa, umumiy bitta xulosa tuziladi. Agar ekspertlar o'rtasida hal etiladigan masala yuzasidan kelishmovchilik ro'y bersa, har bir ekspert kelishmovchilik kelib chiqqan masala bo'yicha alohida xulosa beradi (JPK 177-moddasi).

Ayrim hollarda ish uchun ahamiyatga molik biror holatni aniqlashga bir sohadan bilimlar yetarli bo'lmay, balki boshqa sohadagi bilimlarni jalb etish zaruriyati tug'iladi. Bu vaziyatda kompleks ekspertiza tayinlanadi (JPK 178-moddasi)

Kompleks ekspertizalar yordamida turli masalalar hal etiladi. Masalan, velosipedchi va uni urib yuborgan avtomobil o'zaro qanday yo'nalishda harakat qilganligini aniqlash murakkab masala bo'lib, alohida o'tkaziladigan sud tibbiy, transport va izshunoslik ekspertizalari yordamida hal etilishi mumkin. Ammo bu tekshiruvlar kompleks ravishda o'tkazilsa, ularning samaradorligi keskin oshadi. Har bir mutaxassis o'zining bilim doirasida aniqlagan holatlarini boshqa soha mutaxassisi topgan belgilar bilan taqqoslab, birgalikda yagona xulosa chiqaradilar. Bunda har bir mutaxassis o'zining o'tkazgan tekshiruvi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Bir obyekt bo'yicha alohida ketma-ket o'tkaziladigan mustaqil tadqiqotlarni kompleks ekspertiza qatoriga qo'shish noto'g'ridir. Masalan, hujjatni yasash usulini aniqlashga qaratilgan texnik-kriminalistik ekspertiza undagi yozuvlarni bajargan shaxsni aniqlovchi xatshunoslik ekspertizalar alohida bo'lib, kompleks ekspertizani tashkil etmaydi. Ammo yirtib tashlangan hujjatni tiklashga qaratilgan birgalikda o'tkaziladigan izshunoslik, texnik kriminalistik va xatshunoslik tadqiqotlar asosli ravishda kompleks ekspertisasi, deb atalishi mumkin.

Ekspertiza tadqiqoti uchun tayyorgarlik ko'rish va namunalar olish

Ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashda, jumladan, kriminalistik ekspertizaning ayrim turlarini tayinlash, hal qilinadigan masalalar, kriminalistik texnika sohasidagi maxsus bilim talab qilgan taqdirda zarur bo'ladi. Ekspertiza o'tkazish zarur deb topilsa, uni tayinlash haqida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi (JPK 180-moddasi)

Kriminalistik ekspertizaning obyektlaridan olingan namunalar, daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa moddiy narsalar, turli hujjatlar solishtirib ko'rish uchun ashyoviy dalillar bo'lishi mumkin.

Mazkur obyektlarda ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda yoki ajrimda ularning nomlari, belgi sifatleri alohida ko'rsatiladi. Qaror (ajrim)da ekspertiza tayinlash uchun asoslar va ekspert hal qilishi lozim bo'lgan savollar qayd etiladi. Savollar aniq, ravon va ekspertning maxsus bilimi doirasidan chetga chiqmasligi lozim.

Kriminalistik ekspertiza materialini qaror, ajrim, tekshiruv obyektlari tergov va sud davlat ekspertiza muassasasiga yuboradi. Muassasa rahbari ekspertiza o'tkazishni tegishli mutaxassis xodimga topshiradi. Shu bilan birga prostessual qonunda belgilanganidek, ekspert sifatida ekspertiza muassasasidan tashqari joylarda xizmat qiluvchi mutaxassislar yoki alohida shaxslarni ham jalb etib, ekspertiza materialini ularga bevosita topshirish mumkin.

Ekspertizada tekshiriluvchi obyektlar – ashyoviy dalil, uning ayrim qismlari, moddiy qoldiqlari bilan bir qatorda solishtirib tekshirish uchun zarur bo'lgan namunalar – nusxalar ham yuborilishi lozim.

Namunalarning hajmi, sifati ekspert tekshiruvini to'la va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi. Ekspertiza tekshiruvi uchun olinadigan namunalarning turlari va ularni olish tartibi JPK 188-moddasida ko'rsatilgan. Kriminalistik ekspertizani o'tkazish uchun olinadigan namunalarning turlari asosan quyidagilardir: qo'lyozma, xat, imzo, raqam yozuvlari, ko'paytiradigan vositalardan olinadigan namunalari, izlarni hosil qiladigan qolip, nusxalar, otish qurollarining turli qismlaridan hosil bo'ladigan namunalar va boshqalar.

Kriminalistik tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'ladigan namunalar, erkin va eksperimental bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, dastxatshunoslik ekspertizasida shartli – erkin namunalar ham ajratiladi. Erkin namunalar jinoyat ishi qo'zg'alishidan avval mavjud bo'lgan obyektlardir. Masalan, dastxatshunoslik tekshiruvi o'tkazish va gumon qilinuvchining o'zi yozgan xati imzolari uyida, xizmat xonalaridan olingan hujjatlarda bo'ladi. Eksperimental namunalar esa ekspertiza tayinlangan xodim tomonidan uning maxsus topshirig'i bilan olinadi. Tekshiriladigan hujjatdagi yozuvga, imzolarga, raqamlarga o'xshash matnlarni bir necha alohida qog'oz hujjatga yozish buyuriladi va tekshiriluvchi tomonidan – imzolarga mansub bo'lgan harf va shakllar bajarilishi kuzatib turiladi.

Eksperimental namunalar, odatda, kishilar harakati natijasida vujudga keltirilib olinadi, masalan, dastxat, qo'l-oyoq izlarining namunalari yoki inson organizmining yashash faoliyatidagi moddalardan (qon, soch, so'lak va boshqa namunalar) shular jumlasidandir.

Nusxalarning har ikki turi JPKga asoslangan holda ekspertizani tayinlovchi sud yoki tergovchi tomonidan olinadi va ular qaror (ajrim)da ko'rsatiladi.

Ko'pincha eksperimental namunalar ekspertiza tekshirishlari vaqtida ekspertlar tomonidan ham olinadi. Shuning uchun qaysi vaqtda ekspert,

eksperimental nusxa namunalarni olinishini yaxshi farqlay olish kerak. Eksperimental namunalar zarur bo'lgan hollarda majburiy ravishda ham olinishi mumkin. Bu harakat tergovchiga yuklatilgan.

Qonunga asosan ekspert majburiy ravishda namuna olish huquqiga ega emas. Tergovchi eksperimental nusxalar olishda ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohlardan tashqari yana hajm jihatidan yoki ba'zi holatlar sababli ekspert ixtiyoriga topshirish imkoniyatlari bo'lmagan obyektlardan ham eksperimental namunalar olishi mumkin.

Tergovchi bu ishlarga maxsus mutaxassislarni taklif qilish huquqiga ega. Ular o'zlarining maslahatlari, shaxsiy ishtiroki va harakatlari bilan sifatli namunalarni olishga yordam beradilar. Tergovchi tomonidan olinadigan erkin va eksperimental namunalar soni va sifati jihatidan ekspert tekshirishlari uchun yetarli bo'lishi kerak. Olingan namunalar obyektning haqiqiy o'zidan kelib chiqqanligi shubhasiz bo'lishi uchun prostessual rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Tekshiruv uchun zarur bo'lgan namunalarni olish uchun tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Nusxalar olinganligi haqida bayonnoma tuzilib, unda olingan namunalarning soni, namuna olishdagi shart-sharoitlar, tergov usullari batafsil yozilishi, tuzilgan bayonnoma tergovchi va xolislar imzolari bilan tasdiqlanishi lozim. Ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchidan qog'oz ustiga yozdirib olingan namunalar tergovchi hamda namunani bajaruvchi tomonidan tasdiqlanib imzolanadi. Olingan namunalar boshqa obyektlar kabi tegishli tartib va usulda joylashtiriladi va muhrlanadi.

Ekspertiza tekshiruvini o'tkazish jarayonida, ekspertning o'zi ham eksperimental namunalar tayyorlashi mumkin. Prostessual qonunda qayd qilinishicha, ba'zi kriminalistik tekshiruvlari uchun ekspert tajriba-eksperiment o'tkazib ham namuna oladi. Ballistik ekspertiza o'tkazishda o'q otish qurolini identifikatsiya qilishda ekspert hodisa joyidan topilgan o'q va gilzalarni solishtirib tekshirish uchun ashyoviy dalil bo'lgan quroldan bir necha marta o'q otib eksperimental o'q va gilza namunalari tayyorlaydi. Shuningdek, trasologik tekshiruv uchun ekspert ashyoviy dalil bo'lgan poyabzal, buzish quroli, chopish va kesish asboblardan ularning iz hosil qiluvchi tashqi qismidan eksperimental izlar namunalari olishi mumkin.

Ekspertiza uchun olingan namunalar jinoyat prostessual qonuniga binoan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ekspert o'zi tashkil qilib olgan namunalari va eksperiment tekshiruvlarini o'zining xulosasini bayonot, ya'ni tadqiqot qismida to'la va aniq aks ettiradi.

Tekshiruv uchun olingan namunalar ekspertizaning boshqa obyektlari qatorida tegishli usulda o'rab-joylab, ularning turi va soni qaror (ajrim)da ko'rsatiladi.

Ekspert xulosasi va uning natijalarini baholash

Kriminalistik ekspertizalarni o'tkazishda, shuningdek, ekspert mutaxassislar kriminalistikaning ilmiy texnik vositalari bo'lgan turli asbob-uskunalar: optika, kompyuter, turli ko'zga ko'rinadigan va ko'rinmaydigan nurlarni ishlatadigan moslamalarni, yoritqichlar va boshqalarni keng qo'llaydilar.

Ekspertiza obyektlarini tekshirish quyidagi to'rt bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Dastlabki tekshiruv identifikativiy tadqiqotning birinchi bosqichi bo'lib, ekspertizaga yuborilgan qaror (ajrim) bilan tanishish ekspertiza oldiga qo'yilgan masalaga oydinlik kiritadi. Tekshiriladigan obyektlar va namunalar har biri alohida ko'zdan kechiriladi. Obyektlarni ko'zdan kechirishning maqsadi ularning ashyoviy dalilligini sifatlaydigan alomatlarini aniqlash, individuallik xususiyatlarini ifodalaydigan belgilarni taxmin qilish va identifikatsiya jarayonida ularni qo'llash mumkinligini aniqlashdan iboratdir.

Bu bosqichda ekspert obyektlarni tadqiqot uchun yaroqli-yaroqli emasligini, namunalar soni va sifati nuqtai-nazaridan yetarliligi yoxud qo'shimcha ma'lumotlar va namunalar zarurligini aniqlaydi. Bosqichning muhim vazifalaridan biri tadqiqot uslubini tanlash, o'tkaziladigan tekshiruvlarni belgilash, ularni oldinma-ketinligini aniqlash, eksperimentlarni rejalashtirishdan iboratdir. Ma'lum vaziyatlarda identifikativiy tekshiruv shu bosqichda tugatiladi. Masalan, ekspert oldiga qo'yilgan vazifa uning vakolatiga kirmasa yoki namunalar yetarlicha taqdim etilmasa, ekspert tekshiruvini amalga oshirish iloji yo'qligi to'g'risida hujjat tuzadi. Obyektlarni alohida-alohida ko'zdan kechirish maqsadi ularning ashyoviy dalil bo'ladigan alomatlarini, individuallik xususiyatlarini ifodalaydigan belgilarini aniqlash va identifikatsiya jarayonida ularni qo'llashdan iboratdir.

2. Tekshiriluvchi va namuna nusxa bo'lgan obyektlarni alohida-alohida ko'zdan kechirish, tahlil qilish bu tekshiruv bosqichining vazifasi ashyoviy dalil bo'lgan va ekspertizaga yuborilgan boshqa obyektlarni har birini alohida tahlil etib, ularni individuallik xususiyatini, ya'ni o'ziga xos bo'lgan sifat belgilarini aniqlashdan iboratdir.

Tekshiriluvchi obyekt moddiy buyum, narsa yoki uning biror qismidan qolgan izlari, bo'laklari, nusxasi va boshqasi bo'lishi mumkin.

Otish quroli, otish natijasida hosil bo'lgan izlar, otilgan o'q va gilzalar, portlatishdan qolgan iz qoldiqlari, jinoyat quroli sifatida ishlatilgan turli buyumlar va ulardan qoladigan izlar, insonning qo'li va yalang oyoq tavonning teri tuzilishi xususiyatini tashkil qiladigan izlar, dastxat, odamning tashqi qiyofa tuzilishini aks ettiruvchi foto, video va suratlar, marhumning suyak qoldiqlari (skeleti) va boshqalar kriminalistik ekspertiza tekshiradigan obyektlar doirasiga kiradi.

Solishtirib tekshirishga olingan, tayyorlangan namuna va nusxalarni ham ekspert alohida kuzatib tahlil qilib yuqorida ko'rsatilgan masalalarni hal qiladi. Namuna va nusxalarni tahlil qilishda ularni qayerdan, qachon va kimlardan olinganligi, qaysi guruhga mansubligi va individual belgilari, identifikatsiya qilishga yaroqliligi aniqlanadi.

Tekshiruvning bu bosqichida namuna va nusxalarning son-sifati, ekspertiza tayinlash haqidagi qaror, (ajrimda) ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos olinganligi va identifikatsiya o'tkazishga yetarli va yaroqli ekanligi aniqlanadi.

3. Tekshiruvning bu bosqichida ekspertiza obyektlari va ularning sifat-belgilari o'zaro solishtiriladi. Ekspertiza amaliyotida qo'llanadigan umumiy uslub identifikatsiya nazariyasi bo'lib, barcha obyektlar ikki guruhni tashkil qiladi. Identivligi (aynanligi) aniqlanadigan obyektlar – tekshiriluvchi, ya'ni ashyoviy dalillar bo'lib, ikkinchi guruhni solishtirib tekshirishga vosita bo'lgan namuna va nusxalardir.

Solishtirib tekshirish bosqichida ekspert tekshiriluvchi obyektlarning aynanligi yoki guruh mansubligini aniqlash uchun ulardagi sifat alomatlarini namunalardagi sifat belgilariga solishtirib taqqoslaydi. Har bir umumiy belgidan so'ng xususiy belgilar alohida-alohida taqqoslanadi, birinchisidagi individuallik xususiyati ikkinchi guruhdagi obyektlarda takrorlangan holdagina ularning ushbu belgi bo'yicha aynanligi belgilanadi.

Solishtirib tekshirish jarayonida o'xshashlik hollari bilan bir qatorda ayrim belgilar bir-biridan farq qilishi mumkin. Bu holat tekshiriluvchi (ashyoviy dalil) obyektning hosil bo'lish sharoitiga, unga daxldor bo'lmagan yoki manfaatdor shaxslarning harakati, ixtiyori ta'sirida paydo bo'lishi mumkin. Tekshiruv jarayonida ekspert jinoyat ishining ekspertizaga aloqador bo'lgan ayrim holatlari bilan tanishishni talab qilishi mumkin. Bu masala tekshiruvning dastlabki bosqichida va zarur bo'lganda keyinroq ham amalga oshiriladi.

Tekshiruvning barcha bosqichlari o'zaro chambarchas bog'liqdir, ular orasida qat'iy biror chegara o'tkazish mumkin emas, alohida tahlil qilishni, solishtirish chog'ida ham davom ettirish mumkin. Zarur bo'lgan hollarda tahliliy bosqichga qaytib ayrim obyektlarni boshqatdan kuzatishga to'g'ri keladi, bunday tekshiruvda boshqa uslublar qo'llanib qo'shimcha material (namunalar) talab qilinadi. Bu masala ekspert bilan ekspertiza tayinlagan surishtiruvchi, tergovchi, sudya orasida amalga oshiriladigan muloqotda hal qilinadi.

Solishtirib tekshirish jarayonida ekspert maxsus uslubni qo'llash bilan birga kriminalistik texnika vositalaridan ham keng foydalanadi, ayniqsa mikro va makro suratga tushirish, turli tajriba-eksperimentlar o'tkazish kabi usullarni qo'llaydi.

4. Tekshiruv natijalarini baholash va yakun yasash bosqichida identifikatsiya jarayonining natijalari ma'lum bo'lib, ular tegishli talab va qoidalar asosida baholanib ekspertning xulosalari shakllanadi. Taqqoslanib tekshirilgan obyektlarning bir guruhga kirishi va aynanligi tasdiqlanadi yoki aynanligi inkor qilinib har qaysi tekshirilgan ashyoviy dalil va u bilan taqqoslangan namuna boshqa turga tegishli ekanligi aniqlanadi.

Tekshirilayotgan holat, ya'ni obyektning aynanligini isboti yoki inkor qilinishi, alohida belgi sifatlarining o'xshashligi yoki farq qilishi asosida bo'lmasdan, belgilarning barcha yig'indisi asosida shakllanmog'i lozim. Shundagina xulosa ilmiy asoslangan, obyektiv bo'ladi va jinoyat ishi yuzasidan dalil manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ekspertning tadqiqoti, tekshiruv jarayoni va natijalari maxsus prostessual hujjat bo'lgan ekspert xulosasida bayon etiladi. Ekspert xuloasi prostessual qonuni asosida rasmiylashtiriladi (JPK 184-moddasi), xulosa bergan ekspert uning uchun shaxsan javobgardir.

Ekspert xulosasi boshqa prostessual hujjatlar kabi kirish, bayonot va yakunlovchi qismlardan iboratdir. Ekspertiza xulosasining kirish qismida tayinlashga asos bo'lgan holatlar, kim tomonidan tayinlangan, qanday obyektlar taqdim etilgan, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar va boshqa ma'lumotlar ifoda etiladi.

Xulosaning bayonot qismi ekspert faoliyatini ifoda etuvchi asosiy qism bo'lganligi uchun "tadqiqot" bosqichi deb nomlanib, uning mohiyati to'laroq bayon etiladi.

Xulosaning bu qismida ekspert o'tkazgan barcha tekshiruvlari: obyektlarni alohida kuzatuv, sifat belgilarining individuallik, mustahkamlik darajalari, taqqoslab solishtirish natijalari, xulosa shakllanishi qanday omillarga asoslanganligi, qo'llanilgan maxsus

kriminalistik texnika vositalari, turli uslublar, o'tkazilgan eksperimental tekshiruv tajribalari va boshqa o'tkazilgan choralar tegishli galma-gallikda ifoda ettiriladi va ulardan kelib chiqqan xulosa ko'rsatiladi.

Ekspert tekshiruvining yakunlovchi qismi uning xulosalaridir. Bu qismda ekspertizaga qo'yilgan savollarga aniq, ravon va qisqa shaklda javoblar o'z ifodasini topadi. Xulosalar ekspert tekshiruviga qo'yilgan masalalarga nisbatan tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi shaklda beriladi.

Ekspert amaliyotida ba'zi hollarda qat'iyon xulosa berish iloji bo'lmaydi, taxminiy xulosa beriladi. Bunday xulosaning sababi to'la va asoslangan tarzda ekspert hujjatining tadqiqot qismida ifodalangan bo'lishi kerak.

Ayrim hollarda ekspert xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida hujjat tuzadi (JPKning 185-moddasi). Bunday hujjatda ekspert oldiga qo'yilgan savollar uning vakolati doirasiga kirmasligi, savollar huquqiy ma'noga ega bo'lganligi, tekshiriladigan obyekt tadqiqot o'tkazishga yaroqsizligi va boshqa sabablarga ko'ra masalani echilishining iloji yo'qligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ekspert xulosasi prostessual hujjat bo'lib, jinoyat ishi yuzasidan dalil manbai sifatida xizmat qiladi va ishdagi boshqa dalillar bilan bir qatorda qonunda belgilangan umumiy printsiplar asosida baholanadi.

Nazorat savollari:

1. Tergovda qaysi maqsadlarda maxsus bilimlardan foydalaniladi? Maxsus bilimni qo'llash asoslari va subyektlari?
2. Tergov jarayonida va ekspertiza o'tkazishda maxsus bilimlarning qo'llanish shakllari? Ekspertiza tayinlashga tayyorgarlik ko'rish va tekshiruvni o'tkazish tartibi qanday? Ekspert xulosasining yuridik kuchini tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

Firibgarlik jinoyati bilan shug'ullanayotgan reltrik firma faoliyati fosh etildi. Tergovchi firma faoliyatidagi qonun buzarlklarni hamda yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash maqsadida sud buxgalteriya ekspertizasini tayinlash zarur degan xulosaga keldi. Shu maqsadda tergovchi A. firma boshqaruvchisi Sh.dan firma faoliyatiga oid buxgalteriya va boshqa hujjatlarini berishini talab qildi. Biroq, firma boshqaruvchisi Sh. firma o'z faoliyatini olib borishda bir necha joyga

ko'chib yurganligi bois ushb uhujjatlar yo'qolganini aytib, uni berishdan bosh tortdi. Firma joylashgan joy ko'zdan kechirilganda u yerdan deyarli buxgalteriya hujjatlari topilmadi.

Holat yuzasidan sud buxgalteriya ekspertizasini tayinlash mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, u qanday amalga oshiriladi?

Mazkur holatda tergovchi jinoyatishi tergov rejasini qanday tarzda tuzadi?

Holat yuzasidan qanday tergov versiyalari yuritiladi?

Dastlabki va keyingi tergov harakatlari o'tkazishning taktik qoidalari qanday?

2-kazus

2013-yil 12-dekabr kuni IIOga yong'in sodir bo'lganligi xaqida ma'lumot kelib tushdi. Hodisa joyi ko'zdan kechirilgach, uying butkul yonib ketganligi, IIOga xabar bergan shaxsning xotini va 5 yashar qizi kuyish natijasida vafot etganligi aniqlandi.

Ushbu holatda qanday turdagi tergov harakatlarini o'tkazish va ekspertizani tayinlash maqsadga muvofiq? Ekspert oldiga qanday savollar qo'yiladi?

Holat yuzasidan qanday tergov versiyalari tuziladi?

Tergovchi tergovni rejalashtirishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim?

IV BO‘LIM. AYRIM TURDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISH USLUBIYOTI

22-MAVZU. JINOYATLARNI TERGOV QILISH USLUBIYOTINING UMUMIY QOIDALARI

Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyoti tushunchasi. Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik uslubiyotlarni tuzish va tasniflash tamoyillari. Jinoyatlarni tergov qilishdagi xususiy kriminalistik uslubiyotlarning tarkibiy tuzilishi.

Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyoti tushunchasi

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti qonuniylik talablariga muvofiq holda, tergov va surishtiruvni samarali o‘tkazish bo‘yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida jinoyatlarni ochish, tergov qilish hamda ularning oldini olishni tashkil qilish va amalga oshirish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Bu qonuniyatlar jinoyat alomatlari bo‘lgan hodisalar haqidagi dastlabki axborotni tekshirib, jinoyatlarni tergov qilish chog‘ida isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlaydi. Shuningdek, jinoyat ishlarining har xil turlari bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun tergov harakatlarini va jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarning dasturlarini ishlab chiqish, jinoyatlarni tergov qilish uchun qo‘llaniladigan tergov harakatlarini tayyorlash hamda o‘tkazish va shu kabilarning eng muhim xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Ularni bilishga jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olish bilan bog‘liq obyektlarni kriminalistik nuqtayi nazaridan o‘rganish, tergov faoliyatining asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini umumlashtirish va aniqlash, shuningdek tergov va surishtiruvni tashkil etish hamda ularni o‘tkazishdagi tipik aloqalar va o‘zaro bog‘liqlikning barqaror jihatlarini tekshirish hamda aniqlash yo‘li bilan erishiladi.

E’tibor qiling! Kriminalistik uslubiyotni o‘rganadigan qonuniyatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki qismdan: umumiy qoidalar va jinoyatlarni tergov qilishning xususiy (turga oid) uslubiyotlar tizimidan iborat.

Umumiy qoidalar kriminalistik uslubiyotning nazariy asoslari bo‘lib, u kriminalistikaning mazkur qismining mavzui (predmeti)ni, ilmiy bilimlarning boshqa sohaları bilan aloqalarini, xususiy kriminalistik uslubiyotlarni tuzish, ishlab chiqish va ulardan foydalanishga oid eng

muhim masalalarni hamda jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etishni o'z ichiga oladi. Pirovard natijada samarali xususiy kriminalistik uslubiyotlarning yaratilishi va ularning jinoyatchilikka qarshi kurashda muvaffaqiyatli qo'llanilishi ana shu masalalarning qanchalik puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi.

Esa tuting! Xususiy uslubiyotlar – kriminalistika fanining pirovard “mahsuloti” bo'lib, amaliy xususiyatga ega bo'lgan hamda tergovchilar va surishtiruvchilarga jinoyatlarning har xil turlarini ochish, tergov qilish va bartaraf etishda ularning ishlarini maqbullashtirish uchun mo'ljallangan nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalar majmuidan iboratdir. Kriminalistik uslubiyotning umumiy qoidalaridan farqli o'laroq xususiy uslubiyotlar – bu jinoyatlarning ayrim turlarini ochish, tergov qilish va jinoyatchilikni bartaraf etishni tashkil qilish bo'yicha uslubiy toifalashtirilgan tizimdir.

Kriminalistik uslubiy tavsiyalar – jinoyatlarning muayyan turlarini ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish bo'yicha ilmiy ishlab chiqilgan va amalda tekshirilgan maslahatlar (takliflar)dir. Har bir xususiy uslubiyot amalda turli sharoitlarda ishlash uchun o'zaro bir-biriga bog'liq maslahatlar tizimini (majmuini) hosil qiluvchi bir necha tavsiyani o'z ichiga oladi.

Tergov qilish uslubiyoti – jinoyat ishini yuritishga doir qonun talablaridan, vujudga kelgan tergov vaziyati xususiyatlaridan, jinoyatlarning mazkur turini ochish va tergov qilish nazariyasi va amaliyotiga doir bilimlardan kelib chiqib tergovchi tanlagan haqiqatni aniqlash usulidir.

Shu tariqa, sirdan o'xshash bo'lgan “kriminalistik uslubiyot”, “xususiy kriminalistik uslubiyot”, “kriminalistik uslubiy tavsiya” va “tergov qilish uslubiyoti” atamaları o'z mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Jumladan, birinchi holda kriminalistika fanining mustaqil yakunlovchi qismini, ikkinchisida – muayyan turdagi jinoyatni ochish, tergov qilish va ularni bartaraf etishni tashkil qilish hamda amalga oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar tizimini (majmuini), uchinchisida – tegishli jinoyat ishlari bo'yicha ishlash uchun alohida ilmiy asoslangan va amalda tekshirilgan maslahatni (taklifni), to'rtinchi holatda esa jinoyatni tergov qilishning tergovchi tomonidan tanlangan usulini anglash mumkin.

Uslubiyotning tarkibiy qismlari bir-birini to'ldirib, har xil turdagi jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etishga doir mustaqil ilmiy qoidalarning yaxlit va bo'linmas majmuini hosil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, kriminalistik uslubiyotdan tashqari ilmiy

bilimlarning hech bir sohasi bu masalalarni tadqiq etish bilan shug'ullanmaydi va turli toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va tergovni samarali o'tkazish uchun amaliyotga bunday nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalarni bermaydi. Shu bilan birga, kriminalistik uslubiyotning mustaqilligi nisbiy xususiyatga ega. Negaki u

E'tibor qiling! Kriminalistik uslubiyotning **manbalari** bo'lib, qonun, jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti va turli fan yutuqlari hisoblanadi, ularning qoidalari kriminalistikadagi mazkur bo'limning rivojlanishiga asos bo'lgan va uning hozirgi taraqqiyotini ta'min etmoqda.

kriminalistikaning boshqa qismlari bilan uzviy bog'langan.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalari uslubiyotning **birinchi manbaidir**. Ular jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning umumiy shart-sharoitlarini belgilaydi va shu sababli kriminalistik uslubiyotning hamda har bir xususiy kriminalistik uslubiyotning umumiy qoidalarini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda kriminalistik uslubiy tavsiyalar qonunga asoslanib va amaldagi huquqiy normalarga zid yoki fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan biron-bir maslahat va yo'l-yo'riqlarni istisno etgan holda, jinoyat va jinoyat-protsessual normalarini sharhlash bilan chegaralanmay, jinoyatlarning xilma-xil turlarini ochish, tergov qilish va oldini olishning maqbul tartibini belgilaydi.

Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish amaliyoti kriminalistik uslubiyotning **ikkinchi muhim manbai** hisoblanadi. Amaliyotni o'rganish va umumlashtirish jinoyatlarning ayrim turlarini tergov qilish bo'yicha samarali tavsiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda, amaliyot kriminalistik uslubiyot nazariyasining to'g'riligini belgilovchi mezon hamdir. Shaxsning jinoyatni sodir etishdagi aybdorligi faqat sud tomonidan e'tirof etilishi sababli, sudlarning hukmlarida amalda mazkur jinoyatni tergov qilishning to'g'riligi, ya'ni kriminalistik uslubiy tavsiyalarni qo'llanishning asoslilikini belgilaydi.

Nihoyat, ilmiy bilimlar, avvalo, kriminalistikaning barcha bo'limlarining hamda jinoyatchilikka qarshi kurash muammolarining, xususan jinoyatlarni tergov qilishni o'z nuqtayi nazaridan tadqiq etuvchi boshqa fanlarning qonun-qoidalari kriminalistik uslubiyotning **uchinchi manbai** bo'lib xizmat qiladi. Kriminalistik uslubiyotning kriminalistik umumiy nazariya, texnika va taktika bilan aloqalari ancha murakkab. Bir tomondan, kriminalistik uslubiyotda kriminalistika fanining yakunlovchi bo'limi sifatida uning boshqa bo'limlarining xulosalari va qoidalaridan

keng foydalaniladi, ikkinchi tomondan, kriminalistik uslubiyot kriminalistikaning umumiy nazariyasi, texnikasi va taktikasi rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Tutgan o'rni va hal etadigan vazifalarining o'ziga xosligiga ko'ra kriminalistik uslubiyot kriminalistikaning boshqa bo'limlariga tayanadi. Kriminalistikaning oldingi bo'limlariga oid qoidalar va xulosalari kriminalistik uslubiyotdagi nazariyalarni umumiylik asosida jamlash, ya'ni ularni oddiy jamlash yo'li bilan emas, balki dialektik mushohada qilish hamda har xil turdagi jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish va tergov qilishni samarali tashkil etish uchun tegishli xulosalar ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladi.

Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik uslubiyotlarini tuzish va tasniflash tamoyillari

Tergov amaliyotida har xil turdagi jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov qilishni tashkil etish hamda amalda bajarish samaradorligini oshiradigan ancha takomillashgan xususiy kriminalistik uslubiyotlarni joriy etish jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tergovchilarning ishni tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olib, jinoyatlarni tergov qilishning shakl va mazmun jihatidan xilma-xil xususiy uslubiyotlari vujudga kelmoqda.

Yangi xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlarning nazariy jihatdan asoslanganligi. Kriminalistik uslubiy tavsiyalar tizimi ilmiy ish mahsulidir va shu tufayli hamisha nazariy jihatdan muayyan darajada asoslangan bo'ladi. Biroq xususiy uslubiyotlar jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish amaliyoti shunday nazariy asoslanganlik darajasiga ega bo'lishni talab qiladiki, toki ularning tavsiyalarini qo'llash tergovning samarali tashkil etilishini ta'minlasin. Bunday darajaga, agar xususiy uslubiyotlar faqat tajriba yo'li bilan ishlab chiqilgan qoidalar va amaliyot uchun samarali tavsiyalarni o'z ichiga olgan taqdirda, erishiladi. Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning tizimi oqilona, tejamli, maqbul bo'lishi kerak.

Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning muayyanligi. Jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish – protsessual tartibdagi jarayondir. Uning mazmuniga jinoiy qilmishning xususiyatlari, jinoyatning oqibatlari, jinoyatchining shaxsi, tergovchining mehnat sharoiti va boshqa shu

singarilar ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bir turdagi jinoyatlarni tergov qilishda ko'pgina umumiy xususiyatlar ham mavjuddir, bular – tipik tergov tasmollarining mavjudligi, isbotlash predmetining umumiy ekanligi, tergov harakatlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish xususiyatlarining o'xshashligi va boshqalar. Shu sababli kriminalistik uslubiy tavsiyalar imkoni boricha tayin, lekin biron-bir yagona xususiy hol uchun emas, balki mazkur turdagi jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishni tashkil etish hamda amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak. Kriminalistik uslubiy tavsiyalarning umumiyliigi va aniqligi, me'yorlari ularning amaliyot ehtiyojlari hamda nazariy imkoniyatlari bilan bog'liq ilmiy qoidalarni tavsiflash darajasida namoyon bo'ladi.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining bosqichma-bosqichligi. Tashkil etilishi nuqtayi nazaridan jinoyatlarni tergov qilish jarayonini uchta alohida bosqichga bo'lish lozim. Har bir bosqich – bu tergov qilishning shunday bosqichiki, uning davomida umumiy vazifalar bilan bir qatorda uning o'ziga xos vazifalari ham hal etiladi.

Birinchi bosqich – bu dastlabki tergov harakatlarini bajarish davridir. Mazkur harakatlar ham umumiy, ham o'ziga xos vazifalarni hal etishga qaratilgan. Qoida tariqasida, ular darhol o'tkaziladi. Dastlabki kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari nisbatan cheklangan muddatda o'tkaziladi, lekin uning qancha davom etishini jinoyatlarni tergov qilishning barcha hollari uchun oldindan belgilab qo'yish mumkin emas. Umuman olganda, shuni qayd etish zarurki, tergov qilishning dastlabki bosqichi kechiktirib bo'lmaydigan, shoshilinch tergov harakatlarini o'tkazish bilan tugaydi. Jinoyatlarni tergov qilish dastlabki bosqichining muddati cheklanganligi tergovchining faoliyati imkoni boricha jadallashtirilishni talab qiladi.

Ikkinchi bosqich – bu ish bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan barcha qolgan tergov harakatlarini bajarish davridir. Mazkur bosqichning asosiy vazifalari: aybdorni sodir etilgan jinoyatda fosh etish, ayb e'lon qilish, dastlabki bosqichda aniqlanmay qolgan holatlarni aniqlashtirishdan iborat.

Uchinchi bosqich – bu tergov qilishning yakunlovchi bosqichi. Mazkur bosqich tergovchi tomonidan tergov qilishni tamomlash, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratilgan tergov harakatlarini yuritishni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran boshlanadi va ishni prokurorga yuborish yoki jinoyat ishini tugatish

to'g'risida qaror chiqarish bilan tugallanadi. O'z mazmuniga ko'ra u ish bo'yicha to'plangan dalillar baholanishini, qo'shimcha va takroriy harakatlar amalga oshirilishini hamda tergovni nihoyasiga yetkazish tartibini belgilashni o'z ichiga oladi.

Xususiy kriminalistik uslubiyotlarda tavsiyalar ana shu bosqichlarga muvofiq tizimlashtiriladi.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining vaziyatga bog'liqligi va turli-tumanligi. Tergov amaliyoti jinoyatlarning har bir turi uchun tipik bo'lgan tergov vaziyatlarining mazmunini hisobga oladigan hamda unga bog'liq holda tergovni tashkil qilishning u yoki bu usulini tavsiya etadigan xususiy kriminalistik uslubiyotlar yaratishni talab qiladi. Jinoyat ishi bo'yicha tergov vaziyati jinoyatni tergov qilishning muayyan davridagi vaziyatni tavsiflovchi holatlar (sharoitlar, omillar) majmuidan iborat bo'ladi.

Tipik tergov vaziyatlari jinoyatlarni tergov qilishning barcha bosqichlariga xosdir, lekin kriminalistik uslubiyotlarda ko'pincha dastlabki tipik tergov vaziyatlari tahlil qilinadi. Ularning xilma-xilligi ko'p turli tavsiyalarni va ularning tizimlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Tipik tergov vaziyatlari hisobga olingan holda jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlarining yaratilishi tavsiyalarning mazmunini aniqlashtiradi hamda ularning amaliy qimmatini oshiradi.

Jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik uslubiyotlarining umumiyliigi. Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olish chog'ida kriminalistik uslubiy tavsiyalardan foydalanish qulay bo'lishi uchun xususiy uslubiyotlarning konstruktiv birligi tamoyiliga, ya'ni ichki mustaqilligi va ko'p turliligiga amal qilgan holda ularning maqbul tuzilishiga rioya etish zarur.

Mazkur tamoyillarga ko'ra ishlab chiqilgan xususiy kriminalistik uslubiyotlar shuningdek, tergovchining ichki ishlar organlari tezkor va boshqa xizmat xodimlari bilan o'zaro hamkorligi xususiyatlarini; jamoatchilik yordamidan foydalanishga doir yo'l-yo'riqlarni; tergovchi tomonidan ayrim turdagi jinoyatlarni tergov qilish chog'ida uning oldini olishga doir faoliyatini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

E'tibor qiling! Jinoyat qonuniga munosabati nuqtai nazaridan xususiy uslubiyotlar *tipik* (turga oid) va *maxsus* uslubiyotlarga bo'linadi. Tipik uslubiyotlar jumlasiga amaldagi jinoyat qonunida belgilangan jinoyat turlari (masalan, odam o'ldirish, o'g'irlik, firibgarlikni tergov qilish uslubiyotlari va h.k.) bo'yicha tuzilgan uslubiyotlar kiradi.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari yangilanishi munosabati bilan tegishli yangi xususiy uslubiyotlarni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. U yoki bu qilmish uchun jinoiy javobgarlikning bekor qilinishi yoki ularning jinoiylik toifasidan chiqarilishi (dekriminalizatsiya qilinishi) tergov qilishning ayrim uslubiyotlariga bo'lgan ehtiyojni istisno etadi. Tipik xususiy uslubiyotlar soni jinoyatlarning mavjud turlariga muvofiq bo'lishi kerak. Uslubiyotlarning ana shu soni eng yuqori (maksimal) hisoblanadi. Shu sababli, kriminalistika oldida barcha zarur bo'lgan, lekin hozircha mavjud bo'lmagan xususiy uslubiyotlarni ishlab chiqish vazifasi turadi.

Maxsus uslubiyotlar jumlasiga qonunda belgilangan jinoyatlarning turlari bo'yicha emas, balki boshqa asoslar bo'yicha tuzilgan **xususiy** uslubiyotlarni kiritish kerak bo'ladi. Jumladan, ana shu maqsad uchun asoslar sifatida jinoyat sodir etilgan joy, jinoyatchining, jabrlanuvchining shaxsi, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab o'tgan vaqt va boshqa shu singarilar tanlanishi mumkin. Kriminalistika adabiyotlarida temir yo'l, suv va havo transportidagi jinoyatlarni; voyaga yetmaganlar va retsidivistlar sodir etgan jinoyatlarni; o'tgan yillarning ochilmay qolgan jinoyatlarini tergov qilish uslubiyotlari ma'lum.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyati turlari	Aniqlashtirilish darajasiga ko'ra	O'g'irliklarni tergov qilish uslubiyoti ularni tergov qilish bo'yicha umumiy tavsiyalarinigina emas, balki xonadon va avtomashina, mayda o'g'irliklarni va boshqa shu kabilarni tergov qilish uslubiyotlarini ham o'z ichiga oladi
	bir bosqichli, ikki bosqichli va ko'p bosqichli	
	Hajmiga ko'ra	Ko'pincha u yoki bu turdagi jinoyatni tergov qilishning butun jarayonini o'tkazish uchun, ba'zan esa tergov qilishning biron-bir bosqichini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqiladi.
	to'liq va qisqartirilgan	
	Qamrab olinadigan turlari bo'yicha	Ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'liq turdagi jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotlari kompleks uslubiyotlar hisoblanadi.
	kompleks va aniq	
Shakliga ko'ra	Monografiya, dissertatsiya, darslik, o'quv qo'llanma, amaliy va uslubiy qo'llanmalar	

Jinoyatlarni tergov qilishdagi xususiy kriminalistik uslubiyotlarning tarkibiy tuzilishi

Esda tuting! Jinoyatlarni tergov qilish xususiy kriminalistik uslubiyotlarning aksariyati quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- jinoyatlarning kriminalistik tavsifi;
- jinoyatlarni tergov qilish dasturlari;
- eng xarakterli tergov harakatlarini va qonunda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish taktikasi o'ziga xos xususiyatlarining ta'rifi;

- mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish chog'ida tergovchilarning kelajakda shu xil jinoyatlarning oldini olishga doir faoliyatini tayyorlash va o'tkazish o'ziga xos xususiyatlarining ta'rifi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishlari bo'yicha muvaffaqiyatli ish olib borish uchun tergovchilar va surishtiruvchilarga avvalo tergov qilinayotgan turdagi jinoyatlarning batafsil kriminalistik tavsifi talab qilinadi.

E'tibor qiling! Jinoyatlarning **kriminalistik tavsifi** – jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g'ayrihuquqiy qilmishlarning ko'rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat.

Jinoyatlar kriminalistik tavsifi kompleks mazmunga ega. Ularning asosiy qismi jinoyiy xulq mexanizmini, jinoyat to'g'risidagi axborotni olish va undan foydalanish tarkibini kriminalistik tadqiq etish, jinoyatchining va jabrlanuvchilarning shaxsini aniqlash va hokazo jarayonida aniqlanadi. Shu bilan birga, ularda yaqin turuvchi yuridik fanlarning ayrim qoidalari bo'ladi. Biroq boshqa fanlardan bunday foydalanish odatdagi ilmiy uyg'unlashuv doirasi bilan cheklangan bo'ladi va tavsiflarning kriminalistik mohiyatiga ta'sir etmaydi. Kriminalistik tavsiflar jinoyatlarning muayyan turlariga ham, o'xshash (bir-biriga yaqin) guruhlariga ham berilishi mumkin bo'lib, bu ularning juda xilma-xil bo'lishiga olib keladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining mazmuni tavsiflanayotgan jinoyiy qilmishning mohiyatiga, tergov qilish xususiy uslubiyotining turi va ishlanganlik darajasiga, ilmiy tadqiqotning vazifalari va usullariga hamda bir qator boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, jinoyatlar kriminalistik tavsiflari tarkibiy tuzilishi shakliga ko'ra bir-biridan farq

qiladi. Kriminalistik tavsif bor-yo'g'i bir necha kirish qoidalarini o'z ichiga olgan ishlar ham uchraydi. Ayni paytda jinoyatlarni tergov qilishning shunday xususiy uslubiyotlari ham borki, ana shu tavsif ularning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq, ko'rsatib o'tilgan farqlarga qaramay, jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarining aksariyatida bir qancha barqaror takrorlanuvchi elementlar mavjud bo'lib, ana shularning majmui ularning tipik tuzilmasini hosil qiladi.

Qoida tariqasida, kriminalistik tavsiflar ko'rib chiqilayotgan jinoyatlar turining tushunchasini aniqlashdan va uni tergov qilishning umumiy shart-sharoitlarini (tergov qilishning izchilligi, muddatlari hamda shakli va h.k.) tavsiflashdan boshlanadi. Bunday axborot ma'lumotnoma vazifasini bajargan holda imkon boricha qisqa bayon qilinadi va tegishli kriminalistik tavsifni ta'riflash uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Kriminalistik tavsifda ko'rib chiqilayotgan jinoyat turi tushunchasini aniqlash bilan birgalikda ijtimoiy munosabatlarning zamonaviy rivojlanish bosqichida unga qarshi kurashning holati va ahamiyati ko'rsatiladi. Jinoyatlarning ko'rib chiqilayotgan turiga qarshi kurashning dolzarbligini belgilash jinoyatlarni tergov qilish xususiy kriminalistik uslubiyotlarining to'g'ri ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda bo'lishi va tergovchilar faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarurdir.

Jinoyatlar to'g'risidagi eng tipik boshlang'ich axborotning ta'rifi jinoyatlar kriminalistik tavsifining muhim elementlari jumlasiga kiradi. Ana shu axborotning mazmuni va shakliga qarab tekshirishga oid ishlar tartibi hamda ularni ochish, tergov qilish va ularni oldini olishning dastlabki bosqichlari dasturlari belgilanadi. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tarkibiga, jinoyatlarni sodir etish va yashirish usullari haqidagi ma'lumotlar tizimi ham kiradi. Jinoyatlarni sodir etish usuli deganda jinoiy qilmishni tayyorlash, sodir etish va yashirishga, shu jumladan tegishli qurollar va vositalarni qo'llashga, joy va vaqtni tanlashga, tegishli holatlardan foydalanishga qaratilgan o'zaro aloqador hamda o'zaro bog'liq harakatlar tizimi tushuniladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining majburiy elementlari jumlasiga ehtimol tutilgan jinoyatchining va uning ehtimoldagi jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Kriminalistik uslubiyot sohasidagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jinoiy tajovuz jabrlanuvchi, jinoyatni sodir etish usuli, uning xususiyatlari, oqibatlari va jinoyatchining shaxsi o'rtasida muayyan aloqadorlik bo'ladi. Bunday aloqadorlik haqidagi kriminalistik ma'lumotlardan foydalanib, tergovchilar va surishtiruvchilar ayrim jinoyatlar yuzasidan ehtimol tutilgan jinoyatchining shaxsi

to'g'risida asosli tasmollarni olg'a surishlari hamda tergov qilishning eng maqsadga muvofiq dasturini belgilab olishlari mumkin.

Nihoyat, jinoyatlarning mazkur turini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining yana bir elementi hisoblanadi. Shuni hisobga olib, jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarning aksariyatida ularni tergov qilish paytida aniqlanishi lozim bo'lgan, jinoyatlar tarkibining asosiy elementlari bo'yicha muayyan tizimga solingan holatlar ro'yxati keltiriladi. Bular:

a) tajovuz qilish obyekti (tajovuz nimaga qaratilgan, nimaga zarar yetkazilgan, zararining miqdori va hokazo);

b) tajovuzning obyektiv tomoni (qayerda, qachon, qay tarzda, bir shaxsning yoki bir kishining harakatlari bilanmi, ulardan har birining tutgan o'rni (roli), qanday holatlarda, oqibatlari qanaqa, yetkazilgan zarar, qilmish va oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, jinoyatga ko'maklashgan holatlar va hokazo);

d) tajovuz subyekti (tajovuzni kim sodir etdi, uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar, agar shaxslar guruhi ishtirok etgan bo'lsa, ular kimlar);

e) tajovuzning subyektiv tomoni (ayb, uning shakli, qasddan qilingan ayb bo'lsa uning sababi va maqsadi).

Xususiy kriminalistik uslubiyotlar har xil turdagi jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha nazariy qoidalar hamda amaliy tavsiyalar majmuidan iboratdir. Biroq ular muayyan jinoyatni tergov qilish uchun maslahatlar bermaydi va bera olmaydi, ya'ni ular hayotdagi barcha holatlar uchun andoza emas. Ularda jinoyatlarning biron-bir turini (ko'rinishini) ochish, tergov qilish va ularning oldini olishda tergovchi faoliyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy tavsiyalargina mavjud bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik uslubiyotining kriminalistika tizimi tutgan o'rni qanday? U nimalarni o'rganadi va kriminalistikaning boshqa bo'limlari bilan aloqasi qanday?

2. Jinoyatlarni tergov qilishning xususiy kriminalistik uslubiyotlari yuzasidan fikr bildiring. Muayyan bir jinoyat yuzasidan xususiy kriminalistik uslubiyot shakllantirishga harakat qilib ko'ring.

Kazuslar:

1-kazus

2013-yil 1-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy Sudi raisi M.ning qizi bedarak yo'qoldi. 3-dekabr kuni M.ga noma'lum raqamdan qo'ng'iroq qilishib, agar 3 kun ichida sud majlisida ishi ko'rilayotgan G.ni aybsiz holda ozod etmasa, to'rtinchi kuni qizini o'ldirishini aytib tahdid qilishdi, M. esa bularni ovoz yozuvchi vositaga yozib oldi. 4-dekabr kuni M.ning uyiga qizining tahdidchilar qo'lida tasvirga olingan video tasmasini qoldirib ketishdi. M. bu ishlarda G.ning otasi V.dan gumon qilayotganligini aytib o'tdi.

Holat yuzasidan tergov versiyasini tuzing va tergovni rejalashtiring. Holat yuzasidan qanday ekspertiza tayinlash maqsadga muvofiq? Tergovning taktik strategiyasi qanday belilanadi? Dastlabki va keyingi tergov harakatlari, tezkor-qidiruv choralari qay tarzda tashkil etiladi?

2-kazus

Bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan qurilishga ajratilgan mablag' o'zlashtirildi. Tergovchi jinoyat ishiga taalluqli materiallar olmoqchi bo'lgan vaqtda qurilish omborida yong'in sodir bo'lib, qurilish mollari va hujjatlar yonib ketdi.

Mazkur holatda tergovni olib borish va jinoyatni ochish qay usulda amalga oshiriladi?

Jinoyatning kriminalistik xarakteristikasini bering. Mazkur holat bo'yicha tergovni rejalashtiring va tergov versiyalarini tuzing. Holat yuzasidan qanday turdagi ekspertizalar tayinlanadi?

Jinoyat ishi yuzasidan qanday dastlabki va keyingi tergov harakatlari o'tkaziladi? Tergovchi ularni o'tkazishda qanday taktik qoidalarga e'tibor qaratishi lozim?

23-MAVZU. TERGOV VA TEZKOR-QIDIRUV ORGANLARI XODIMLARINING O‘ZARO HAMKORLIGI

Tergov va tezkor-qidiruv organlari xodimlarining o‘zaro hamkorligining umumiy jihatlari. Hamkorlikning taktik-uslubiy qoidalari. O‘zaro hamkorlikning turlari.

Tergov va tezkor-qidiruv organlari xodimlarining o‘zaro hamkorligining umumiy jihatlari

Tergov qilish, jinoyatni ochish va uning oldini olishning samaradorligi ko‘p jihatdan tergovchining ushbu jarayonning boshqa ishtirokchilari – tezkor-qidiruv xodimlari, mutaxassislar va ekspertlar, shuningdek nazorat-taftish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligiga bog‘liqdir. Bunday hamkorlik jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan bo‘ladi.

Tergovchining tergov jarayoni ishtirokchilari bilan hamkorligi nisbatan shartli hisoblanadi, chunki protsessual nuqtayi nazardan bunday holatda tenglikning bo‘lishi mumkin emas. Tergovchining maqomi yuqori bo‘lib, tergovdagi asosiy vazifa, uning natijalari va qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy javobgarlikni aniqlab berishdan iborat. Tergov ishtirokchilarining faoliyati tergovchining oldiga qo‘yilgan vazifalarga bo‘ysundirilgan va ular bilan bog‘liq.

Hamkorlikning mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Hamkorlikning asosiy maqsadi – jinoyatni fosh etishdir. Ba’zi bir holatlarda bu maqsad ma’lum bir tergov harakatining muvaffaqiyatli o‘tkazish bo‘lsa, boshqa holatlarda – tezkor yo‘l bilan kerakli ma’lumotlarni olish, yashiringan shubhalanilgan shaxsni yoki ayblanuvchini, ashyoviy dalillarni, hujjatlarni va boshqalarni qidirish va fosh qilish hisoblanadi. Hamkorlik bir martalik, qisqa vaqtga mo‘ljallangan yoki muayyan bir ish bo‘yicha uzoq vaqt davom etishi mumkin.

Agar dastlabki tergovga ehtiyoj bo‘lmasa va ish butunlay boshlang‘ich tergov organi tomonidan olib borilsa, hamkorlikka ehtiyoj qolmaydi. Bu dastlabki tergov organi xodimi hech kim bilan aloqada bo‘lmaydi, degani emas. Xuddi tergovchi kabi u ham mutaxassislarga, ekspertlarga murojaat qilishi, ichki ishlar xizmati boshqa organlarining xodimlari bilan maslahatlashishi mumkin.

Esda tuting! Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida tergov organlari va tezkor-qidiruv bo'linmalarining birgalikdagi faoliyati odatda ularning o'zaro aloqasi deb ataladi va O'zR JPK, shuningdek "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning bir qator normalariga asoslanadi.

O'zaro aloqa jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish bosqichida, ya'ni tergovga qadar tekshirish jarayonidayoq zarur. Aybdor shaxs aniqlanmagani yoki u qochib yashiringani tufayli dastlabki tergov to'xtatib turilganidan keyin ham bunday o'zaro aloqasiz ish ko'rish mumkin emas. Tergovga qadar tekshirish bosqichida o'zaro aloqa jinoyat ishini qo'zg'atish zarurligini asoslovchi materiallarni olish, ularni har tomonlama baholashga qaratiladi. Dastlabki tergovni to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin o'zaro aloqa qochib yashiringan jinoyatchini aniqlash yoki qidirish bilan bog'liq.

Rejalashtirilgan tergov harakatlari bajarilganidan keyin jinoyat ochilmagan, aybdor shaxs esa noma'lum bo'lib qolgan yoki jinoyat to'liq ochilmagan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lgan holda o'zaro aloqa ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tergov qilinayotgan jinoyatning muhim holatlari aniqlanmagan, asoslangan tasmollar tekshirilmagan, dalillar tizimida bo'shliqlar mavjud bo'lgan, belgilangan tergov harakatlarini o'tkazishda jiddiy qiyinchiliklar tug'ilyotgan hollarda ham o'zaro aloqasiz ish ko'rish mumkin emas.

Tegishli idoralar (IIV, MXX, DBQ, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti) surishtiruv organlarining tegishli xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv tadbirlari noprotsessual, razvedka, kuzatish-tekshirish, qidiruv xususiyatini kasb etadi. Ular maxsus oshkora va nooshkora usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi. O'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining turlari «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 14-moddasida belgilangan. Ularning bosh maqsadi jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish, qochib yashiringan aybdor shaxslarni qidirishdan iborat.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish masalalari IIV, MXX, DBQ va Bosh prokuraturaning "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida ishlab chiqilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tezkor-qidiruv organlarining

mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi, tergovchilar ushbu tadbirlarda ishtirok etishga haqli emas.

Ammo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zR JPK va "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda tergovchiga yuqorida zikr etilgan organlarga tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar berish, ayrim tergov harakatlarini o'tkazishda ko'maklashishni ulardan talab qilish imkonini beradigan ancha keng vakolatlar berilgan. Tergovchining yozma topshiriqlari ushbu organlarga ijro etish uchun majburiy hisoblanadi. Shunday qilib, tergovchilar jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish uchun surishtiruv organlarining tezkor-qidiruv imkoniyatlaridan faol foydalanishlari mumkin va lozim.

Tergov va tezkor-qidiruv faoliyati ko'pincha parallel amalga oshiriladi, shu sababli aynan lozim darajada tashkil etilgan o'zaro aloqa jinoyatlarni fosh qilish ishida tergovchi va tezkor xodimlar harakatlarining kelishilganligini ta'minlaydi.

E'tibor qiling! Tergovchi va tezkor-qidiruv organlarining o'zaro aloqasi – ushbu shaxslar va organlarning jinoyatlarni ochish va tergov qilish, barcha aybdor shaxslarni to'liq fosh etishga qaratilgan, qonun talablariga asoslangan va barcha muhim shartlar bo'yicha kelishilgan faoliyati.

O'zaro aloqa epizodik – tergovchining ayrim topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq hamda doimiy bo'lishi – murakkab ish yoki o'zaro bog'liq ishlar guruhi bo'yicha tergov jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Doimiy o'zaro aloqa odatda tergov-tezkor guruhi yoki tergov guruhi tomonidan bajariladigan tergov jarayonida amalga oshiriladi.

Tergovchining tezkor-qidiruv organlari bilan samarali o'zaro aloqasi quyidagi prinsiplar shartlarga qat'iy rioya etishni taqozo qiladi: 1) o'zaro aloqani jinoyat-protsessual qonuni, qonun osti normativ hujjatlari va kasb odobi talablariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish; 2) o'zaro aloqani joy, vaqt va maqsadlari bo'yicha o'tkazilayotgan tergov rejasi va jarayoni bilan muvofiqlashtirish; 3) tergovning barcha bosqichlarida tergovchining rahbarlik rolini ta'minlash, o'zaro aloqa subyektlarining protsessual va tezkor-qidiruv funksiyalarini aniq belgilash, shuningdek tergovchi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilish usullari va vositalarini tanlashda tezkor xodimlarning mustaqilligi; 4) barcha tergov (protsessual) va tezkor-qidiruv (nooshkora) imkoniyatlaridan foydalangan holda o'zaro yordam ko'rsatish, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun shaxsiy javobgarlik.

dastlabki tergov o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoyatning surishtiruv organi tomonidan o'z vaqtida aniqlanishi, darhol jinoyat ishini qo'zg'atish va ushbu ish bo'yicha surishtiruvni boshlash, to'plangan materiallarni tergovchiga o'z vaqtida topshirish va so'ng mazkur jinoyat ishi bo'yicha birgalikda ish olib borish;

qo'lga kiritilgan, birgalikdagi vazifalarni hal qilish uchun tergov va tezkor-qidiruv ahamiyatiga molik bo'lgan axborotni o'zaro aloqa sub'ektlari o'rtasida doimiy ravishda ayirboshlash;

tezkor xodimlar va mutaxassis-kriminalistlar ayrim tergov harakatlari, taktik kominatsiyalar va operatsiyalarni o'tkazishda tergovchiga ko'maklashishi;

surishtiruv organi tergovchining ish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari va aniq tergov harakatlarini o'tkazish to'g'risidagi yozma topshiriqlari va talablarini so'zsiz va to'liq bajarishi;

jinoyatni fosh qilish bilan bog'liq vazifalarni optimal hal etish uchun ish bo'yicha tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini birgalikda rejalashtirish (yoki ayrim rejalarni kelishish);

doimiy yoki vaqtinchalik ish olib boruvchi tergov-tezkor guruhleri yoki tergov guruhleri doirasida birgalikda faoliyat ko'rsatish;

tergov qilinayotgan jinoyat ishi bo'yicha o'tkazilgan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalarini birgalikda muhokama qilish va baholash, muhokama natijalari bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zaro aloqaning samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shma qarorlar qabul qilish.

Hamkorlikning taktik-uslubiy qoidalari

Tergov o'tkazish jinoyatni ochishda hamkorlikning birinchi – tergovchi tomonidan ish materiallarini tahlil qilishdan iborat. Bunda dastlab tergovchi tomonidan hamkorlik subyektlari aniqlanadi. Qo'shma faoliyatga eng ko'p jinoyat-qidiruv, uyushgan jinoyatchilik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash xizmati, ichki ishlar organlarining kriminalistik xizmatlari, Harakat xavfsizligi xizmati, turli xil idora va ma'muriy inspeksiyalar xodimlari jalb etiladi.

Yana bir muhim vazifa vaziyatga oid ma'lumotlarni hamkorlar o'rtasida almashinuvidir. Ma'lumot almashinuvida tergov hamda tezkor-qidiruv tadbirlari rejasining qay darajada mosligi aniqlanadi, chunki tergov harakatlari, uning muvaffaqiyati tezkor-qidiruv ishtirokchilarining tadbiri

belgilangan muddatda va ketma-ketlikda ijro etishlariga bog'liq. O'z vaqtida, yetarli aloqa almashinuvi tezkor-tergov guruhi (TTG) a'zolari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Uning shakllari turlicha: TTG tarkibining yig'ilishi, uning alohida ishtirokchilarining o'zaro aloqasi va hokazo. Shu bilan birga tergov sirlarini saqlash, tezkor ma'lumotni chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik juda muhim.

E'tibor qiling! Hamkorlik rejasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:


- 1) tergov va qidiruv tasmollarning ifodasi;
- 2) ushbu tasmollardan kelib chiquvchi holatlarning ro'yxati;
- 3) ushbu holatlar va harakatlar tartibini aniqlash va o'rganish ro'yxati;
- 4) tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan qidiruv tadbirlari ro'yxati;
- 5) tezkor yo'l bilan aniqlanishi kerak bo'lgan vaziyatlarning ifodasi;
- 6) bajarish muddatlari, ma'lumot almashinuvi, rejaga tuzatish kiritish;
- 7) rejaning har bir bandi bo'yicha ijrochilar ro'yxati.

Hamkorlikda uchraydigan uch xil vaziyat

jinoyatchi aniq bo'lmagan
jinoyatda

jinoyat ishi qo'zg'atish
masalasini hal etishda

murakkab jinoyat ish-
larini tergov qilishda



Hamkorlik ishtirokchilari tergov vaziyati o'zgarishi bilan rejaga va maqsadlarga tuzatish kiritishi kerak. Tezkor-qidiruv rejalari alohida tezkor xodim tomonidan rejalashtiriladi. Belgilangan tadbirlar va tergov harakatlarining vaqti, joyi, muddatiga alohida e'tibor berish zarur. Tuzilgan reja tergov bo'linmasi va tegishli tezkor xizmati rahbarligi

tomonidan ko'rib chiqiladi. Ayniqsa tergovning dastlabki bosqichi juda muhimdir. Bu narsa jinoyatni izlar bosilmay turib ochilishi, aybdorni aniqlash va topish, o'g'irlangan mulkni qidirish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zaro hamkorlikning turlari

Hamkorlikning **protsessual va noprotsessual (tashkiliy-taktik)** turlari mavjud.

Esda tuting! Hamkorlikning **protsessual turlari** quyidagilar:
tergov harakatlarini amalga oshirishda dastlabki tergov xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar;
to'xtatib qo'yilgan ishlar bo'yicha tergovchining topshirig'i bilan shaxs va obyektlarni qidirish;
tegishli shaxslar bilan ishlash;
tezkor-qidiruv guruhlarini tashkil etish.

Tergovchi tezkor-qidiruv ishlarini amalga oshirish haqida topshiriq berar ekan, u ichki ishlar organlari oldiga faqat vazifa qo'yadi, ammo uni echish yo'li va vositalarini belgilamaydi, chunki bu dastlabki tergov organlari vakolatiga kirmaydi. Tergovchi talabiga ko'ra tezkor-qidiruv xodimlari qonunda belgilangan protsessual majburlash choralarini amalga oshiradi; qurollangan jinoyatchini qo'lga tushirish va ta'qib qilish uchun pistirma, quvlash, qurshov, turli xil to'siq tadbirlar ko'radi, tergovchining hududiga kelishdan bosh tortayotgan shaxsni olib kelish, hodisa va tintuv joyini o'rab olish, tergovchiga qarshilik ko'rsatish hollarini oldini olish kabi hollarda yoradamlashadi.

Dastlabki tergov xodimlari tergovchiga murakkab va katta hajmdagi tergov harakatlarini tayyorlash va amalga oshirishda yordam beradilar, ushbu harakatlar davomida u yoki bu vazifalarni bajaradilar.

Tergovchining mutaxassislar bilan hamkorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- a) mutaxassislarni tergov harakatlariga jalb etish;
- b) sud ekspertizalarini o'tkazish;
- d) taftish belgilash va o'tkazish.

Umumiy qoidaga ko'ra, tergov-tezkor guruh a'zolarining barcha harakatlari avvaldan kelishilgan rejaga bo'ysundirilgan bo'lsada, ba'zi bir sabablarga ko'ra rejalashtirilmagan harakatlarni amalga oshirishi ham mumkin. Masalan, jinoyatchilarni jinoyat ustida qo'lga olish, tintuv va kechiktirib bo'lmaydigan harakatlarni amalga oshirish.

E'tibor qiling! Tergovchi bilan boshqa ishtirokchilar protsessual hamkorligi eng samarali bo'lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1) umumiy maqsad sari bo'ysundirilgan tergov-tezkor guruh tomonidan amalga oshiriladigan tergov harakatlari va tezkor-tergov tadbirlari o'tkaziladi.

2) tergov-tezkor guruh a'zolarining barcha harakatlari xususan, umumiy rejani ishlab chiqish jarayonida o'zaro kelishiladi;

3) tergov-tezkor guruh ishtirokchilarining har biri o'z vakolati doirasida harakat qilib, funksional mustaqillikni saqlab qoladi;

4) tergov-tezkor guruh tarkibida ishlash tergovchiga tezkor yo'l bilan olingan ma'lumotdan, tezkor xodimlarga esa tergov harakati vaqtida olingan ma'lumotdan darhol foydalanish imkonini beradi.

Tergov-tezkor guruh tergovchi rahbarligida ishlaydi. U ishni tergov qilishga, hamkorlik subyektlari oldiga o'z vaqtida vazifalar qo'yishga, taqdim etilgan ma'lumotlardan to'laligicha foydalanishga javobgardir.

Tergov-tezkor guruh odatda quyidagi harakatlarni bajaradi:

1) **hodisa joyini ko'zdan kechirish.** Bunday guruhlar vaqtincha bo'lib, ichki ishlar organlari navbatchi qismlarida bo'ladi va o'rnatilgan jadvalga muvofiq almashadi. Guruh tarkibi har doim yangilanib turadi; uning tarkibiga tergovchi, jinoyat qidiruv xodimi, mutaxassislar – kriminalist va sud-tibbiyot mutaxassisi, kinolog kiradi. Guruh majburiyatlari – hodisa joyini malakali ko'zdan kechirish va shu bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishdan iboratdir. Ichki ishlar organi xizmat ko'rsatadigan aholining soni va hududning katta-kichikligiga qarab bir vaqtning o'zida bir necha tergov-tezkor guruh navbatchilik qilishi mumkin.

2) **izlar bosilmay turib ishlash.** Bu hodisa eriga chiqqan guruhning aynan o'zi, ko'zdan kechirish bilan cheklanmay jinoyatni ochish va jinoyatchini ushlab bilan shug'ullanadi;

3) **xavfli jinoyatlarning muayyan turlarini ochish:** o'g'irlik, bosqinchilik, jinsiy jinoyatlar va hokazo. Bunday tergov-tezkor guruh doimiy bo'lib, xizmat ko'rsatish hududida sodir etilgan jinoyat turini ochishga ixtisoslashadi;

4) **uyushgan jinoyatchilik tomonidan sodir etilgan har qanday jinoyatni tergov qilish va ochish.** Bu holatda tergov-tezkor guruh tarkibiga ichki ishlar uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish maxsus bo'linmalarining tezkor xodimlari kiradi;

5) **murakkab, ko'p epizodli ishlarni tergov qilish** bo'yicha tergov-tezkor guruh tarkibi o'zgaruvchan bo'ladi; tergov davomida uning tarkibiga turli ixtisosliklar bo'yicha tezkor xodimlar va qo'shimcha jalb etilgan tergovchilar qo'shiladi;

6) **avvalgi yillarda ochilmagan jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha.** Guruh doimiy asosda ishlaydi va ma'lum bir turdagi jinoyat bo'yicha ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.

E'tibor qiling! Hamkorlikning noprotsessual shakllari xilma-xil bo'lib, ishtirokchilar doirasi ham ancha kengdir. Ularning eng asosiylari:

1) mutaxassislarning tergovchiga u yoki bu tergov harakatlarini tayyorlashda va natijalarini baholashda ko'maklashishi; tergovchining texnik topshiriqlarini bajarish; texnik-kriminalistik vositalarni tayyorlash va h.k.

2) tezkor ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha tergovchi harakatlarini birga rejalashtirish; tezkor ma'lumot yordamida so'roq qilinayotgan shaxsga beriladigan savollarni, jabrlanuvchi ishtirokidagi tezkor guruh taktikasini, tezkor-taktik rejasini muhokama qilish;

3) shaxs va predmetlarning qidiruvini tashkil etishda, turli ob'ektlarni tanib olishda, qidiruv ishtirokchilarini kengaytirishda; profilaktik choralarni ko'rishda ommaviy axborot vositalari;

4) jinoyatni sodir etilishiga ko'maklashgan sharoitlar haqida kriminalistik muhim ma'lumotni olish; jinoyatni oldini olish bo'yicha choralar ko'rish; korxonalar va muassasalarda hujjat va tovar ayirboshlash tartibini o'rganish va boshqalar;

5) qidiruv tadbirlarini o'tkazishda aholi va jamoat uyushmalaridan foydalanish, yo'naltiruvchi ma'lumotlarni aniqlash, u yoki bu shaxsga tavsifnoma olish va boshqalar.

Tezkor-qidiruv guruhi va tergovchilar guruhining tarkibi turli xil bo'lishi mumkin bo'lib, ular ishtirokchilar doirasi, vazifalari taktik hamkorlik usuli bilan farqlanadi.

Ushbu ma'lumotlar turi va ulardan foydalanish imkoniyatlari quyidagicha:

1. Jinoyatga aloqador shaxslarning harakatlari haqida tergovchni yo'naltiruvchi tezkor ma'lumotlar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchining jinoiy faoliyati haqida ma'lumot; jinoyatni yashirgan shaxslarning harakatlari haqida ma'lumot; tergovning borishiga qarshilik qiladigan harakatlarni amalga oshirilishi haqida ma'lumot; ko'rsatilgan ma'lumotlar va ashyoviy dalillar egalari haqida ma'lumot). Bu ma'lumotdan bevosita va bilvosita yo'l bilan foydalanish mumkin.

E'tibor qiling! Tezkor ma'lumotdan bevosita foydalanishga quyidagilar kiradi: tergov yo'nalishi va jinoyatchining shaxsini aniqlash; uning asosida tergov harakatlarining ketma-ketligi va xususiyatlarini belgilash; tergov harakatlarini asoslash – jinoyat ustida qo'lga olish, tintuv va boshqalar; hozir-javoblik darajasida ustunlikka ega bo'lish; tergov vaziyatini baholash va taktik qaror qabul qilishda tezkor ma'lumotlarni hisobga olish.

Tezkor ma'lumotlardan bilvosita foydalanish uning manbalariga protsessual tus berish, so'ng esa ushbu manbalardan mazkur ma'lumotni qaytadan, lekin endi dalil sifatida olish yo'llarini izlash shaklida namoyon bo'ladi.

2. Ishga aloqador obyektlarining joylashish va tergovchini yo'naltiruvchi tezkor ma'lumot. Ushbu ma'lumotdan quyidagi hollarda foydalaniladi (tintuv o'tkazish, olib qo'yish, mulkni hibsga olishda; mazkur ma'lumotlarga protsessual tus berish, maqsadida dalilllar doirasiga kiritish uchun amalga oshiriladigan harakatlarda).

3. Tezkor xodim tomonidan yoki mutaxassis yordamida olingan tezkor ma'lumot. Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi qonunga ko'ra, ma'lumotlar tezkor xodim tomonidan predmet va hujjatlarni o'rganish, bino va inshootlarni, joy va transport vositalarini ko'zdan kechirish orqali hamda aloqaning texnik kanallaridan olishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Tergov va tezkor-qidiruv organlari xodimlarining o'zaro hamkorligi qachon va qay tarzda amalga oshiriladi?

2. Hamkorlikning taktik-uslubiy qoidalari. O'zaro hamkorlikning turlari.

Kazuslar:

1-kazus

2013-yil 12-dekabrda 13-dekabrda o'tar kechasi K.ning xonadonidan qimmatbaho buyumlar yo'qolganligi to'g'risida IIB navbatchilik qismiga ariza kelib tushdi. Arizaning mazmunidan xonadon eshigi buzilmasdan ochilganligi, xonada tartibsizliklar mavjud emasligi, jinoyatchi tomonidan videomagnitafon, 1500 AQSH dollari va qimmatbaxo taqinchoqlar olib ketilganligi bayon qilingan (gumonlanuvchi to'g'risida hech qanday ma'lumot mavjud emas).

Yuqoridagi holatga kriminalistik jihatdan baho bering, bunda tergovchi qanday tergov va tezkor qidiruv harakatlarini amalga oshirishi kerak. Ularni amalga oshirish taktikasi va qo'llaniladigan kriminalistik texnik vositalarni bayon qiling.

2-kazus

Fuqaro Narimonov A. tanishi Raximov I. giyoxvandlik vositalari bilan savdo qilayotganini aytib IIV xodimlariga murojaat qildi. Fuqaro Narimonov A. 15-noyabr' kuni soat 20:00larda tanishi Raximov I. giyoxvandlik vositalarini "Verona" restoranida sotishni mo'ljallayotganligini, shuningdek uning sheriklari borligini ma'lum qildi. Tezkor-qidiruv xodimlari tomon kuzatuv tadbiri o'tkazilishi natijasida fuqaro Narimonov A. giyoxvandlik vositalarini "Verona" restoranida muntazam o'z mijozlariga sotib kelganligi aniqlandi.

Ushbu holatda tezkor-qidiruv xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbir natijalari dalil sifatida inobatga olinadimi? Tezkor- qidiruv xodimlari tomonidan qo'shimcha dalillarni to'plash uchun yana qanday tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish lozim?

Qotillik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishini qo'zg'atish va tergovning tipik vaziyatlari. Tergovning dastlabki bosqichi. Tergovning keyingi bosqichida o'tkaziladigan harakatlar.

Qotillik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Ma'lumot uchun! Sud tibbiyotida o'limning uch turi farqlanadi: odam o'ldirish; o'zini o'zi o'ldirish va baxtsiz hodisa oqibatida odam o'lishi. Odam o'ldirishda aybdorni topish va uni jazolash hamda jinoyat sabablarini va unga imkoniyat yaratgan sharoitni aniqlab, bartaraf etish zarurati tug'iladi. O'zini o'zi o'ldirishda bu hodisaga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan faktlarni aniqlash, shuningdek fojiaiy yakunga sabab bo'lgan holatlar va shartlarni aniqlash lozim bo'ladi. Baxtsiz hodisa oqibatida odam o'lishida esa, odam o'limi bilan tugallangan ushbu holatning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash, shuningdek baxtsiz hodisaga olib kelgan omillar va shart-sharoitni aniqlash talab etiladi. Qotillik, ya'ni qasddan insonni hayotdan mahrum etish jinoyatlari og'ir va tergov uslubi ancha murakkab kechadigan hodisalardan hisoblanadi.

Kriminalistik tergov uslubini qo'llash qotillik jinoyatini tekshirishda jabrlanuvchining o'limi sababini aniqlashga: u o'z-hayotiga qasd qildimi, o'limi tabiiy yuz berdimi, baxtsiz hodisa natijasida yoki qotilning tajovuzidan sodir bo'ldimi, degan savollarni aniqlashga qaratiladi. Shuning uchun har qanday holatlarda topilgan odamning murdasi yoki ma'lum insonning shubhali vaziyatda bedarak yo'qolish hodisasi kriminalistik tergov uslubi qoidalariga asoslangan holda tekshirilishi lozim.

Jinoyatni sodir qilish usullari, jinoiy harakat motivlari, joyi, vaqti,

Ma'lumot uchun! Qotillik jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar turli usul va qurollarni qo'llaydilar. Ko'p hollarda ular o'q otish va sovuq qurollar, turli uy-ro'zg'or buyumlari (pichoq, tasha, bolta), biror qattiq predmet (temir, tosh kabi)lar bilan jarohat yetkazib sodir etadilar. Qotillik jinoyatlari bo'g'ish, nafas olish yo'llarini bekitish, zaharlash, suvda cho'ktirish, portlatish va boshqa usullari bilan ham sodir etiladi.

hodisaning oqibati, izlar, qurollar bularning barchasi qotillikning kriminalistik tavsifmi tashkil qiladi. Uning ayrim elementlari esa bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, biri-ikkinchisidan kelib chiqadi va to'ldiradi. Ayniqsa

jinoyatning subyektini, jabrlanuvchi, ishlatilgan qurol va jinoyat joyi kabi elementlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har qaysi elementdan qolgan izlar (oqibatlar) boshqa elementlarda aks etadi, birini kuzatish va tekshirish bilan, ikkinchisi unga bog'liq bo'lgan holatning xususiyatini keltirib chiqaradi.

Jinoyatning kriminalistik tavsifini belgilashda yuqorida keltirilgan holatlarni oldinma-ketinligi, hodisa joyidagi vaziyatlarni kelib chiqishi, birining oqibati ikkinchisida ma'lum izlarning qoldirishi kabilarini aniqlash tergov dastlabki bosqichining muvaffaqiyatli bo'lishiga asos hisoblanadi.

Ma'lumot uchun! Aksariyat hollarda qotillik jinoyatlari uy-joy binolarida, jamoa joylarida, ko'chalarda sodir etiladi, bunda jinoyatning oqibati, qurollar, izlar yashirilmaydi, qotilning o'zi ham ba'zida qochmaydi, bekinmaydi. Bunday jinoyatlar ko'pincha g'arazlik, o'ch olish, rashk, bezorilik, ikki jinoy guruhlarining qarama-qarshilik to'qnashuvlari natijasida sodir bo'ladi. Bu holatlarda sodir etilgan qotillik jinoyatlarining ochilishi va tergov jarayoni unchalik qiyinchilikni tug'dirmaydi. Tergov uslubi tavsiya etgan taktik va metodik vositalarni qo'llash va hodisa joyidagi qurollar, izlar, jabrlanuvchi shaxsi va o'lim sababi haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosida tasmollarni ishlab chiqish va tergovni to'g'ri tashkil etish, ya'ni jinoyatni tegishli muddatlarda ochish-isbotlash mumkin bo'ladi. Ayrim hollarda qotillik jinoyati yashirin vaziyatda, guvohlarsiz, kechening qorong'uligi, odamning yo'qligidan foydalanib sodir etiladi.

Jinoyatchi atayin tayyorgarlik ko'radi, hodisa joyidagi izlarni yo'qotishga, qurolni o'zi bilan olib ketishga, ba'zida marhumning tanasini bekitish-yo'qotishga ham harakat qiladi. Bunday jinoyatlar tergov olib borish, isbotlash nuqtayi nazaridan murakkab bo'lib, birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qotillikning bu turini tergov qilishda tergovchi mutaxassislik mahoratini ijodiy qo'llay bilishligi, dastlabki surishtiruv ma'lumotlaridan to'g'ri foydalana olishi, kechiktirib bo'lmaydigan tezkor va tergov harakatlarini o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazishi talab etiladi.

Esda tuting! Sud-tibbiy fanlarining asosiy vazifalaridan biri o'limni o'rganishdir. **Tanatologiya** – bu o'limning kelib chiqish jarayonini, o'limni, uning sabablari va belgilarini o'rganuvchi fandir.

Jinoyat sodir etilgan, jabrlanuvchining murdasi topilgan joylarda uni amalga oshirish usuli, motivlari, qo'llanilgan qurollar, sodir etgan shaxs haqidagi dastlabki ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi. Jabrlanuvchining shaxsi ma'lum bo'lgan hollarda jinoyatchi haqida, marhum bilan ular

orasidagi munosabat, jinoyat hodisasini sodir etish usullari haqida tegishli tuzmollar tuzmoq mumkin bo'ladi. Jinoyat hodisasi bilan jabrlanuvchining tanasi topilgan joylar bir bo'lganda qotillikning asosiy holatlari haqida ma'lumot olish va dastlabki tezkor tergov harakatlarini o'tkazish orqali jinoyatda shubhalangan shaxsni topish va qo'lga olish imkoni bo'ladi. Qotillik jinoyati ochiq joylarda, yo'l-ko'cha yuzasida, tashlandiq, odamlar kam yuradigan joylarda sodir etilganda jabrlanuvchining murdasida birmuncha o'zgarishlar (murda alomatlari, atrof-muhit, ob-havo ta'siri) yuz berishi natijasida uning shaxsini aniqlash murakkab bo'ladi. Bunday hollarda tezkor xodimlarning ma'lumotlari, qidirilayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi axborotlar katta yordam beradi.

Shahar sharoitlarida sodir qilinadigan qotilliklar ko'p hollarda jinoyat izlarini yo'qotishga, murdani bo'laklab yashirishga qaratilgan bo'ladi. Qotillar murda bo'laklarini axlat-chiqindilar tashlanadigan joylarda, jamoa gavjum joylardagi maxsus yuk saqlanadigan binolarda, biror materialga o'ralgan holda yoki sumka-chemodanlarda qoldiradilar.

Qotillik jinoyatlarining tavsiflaridan yana biri uning sodir qilinish **usulidir**. Qotillik sodir qilish usuliga ishlatilgan qurol, vosita, harakat, jinoyatga avvaldan tayyorgarlik ko'rish va jinoyat izlarini yo'qotishga urinish kabi holatlar kiradi.

Uy-ro'zg'or janjallari, rashk, bezorilik, spirtli ichimlik va giyohvand vositalar ta'siri ostida sodir qilinadigan qotilliklar deyarli oldindan tayyorgarlik ko'rilmagan sodir qilinadi. Qotil qo'lga duch kelgan predmet qurol (pichoq, tasha, bolta) yoki boshqa vosita bilan jarohat yetkazib, maqsadiga etadi.

Qotillik g'arazli maqsadda yoki jabrlanuvchining lavozimi, xizmat vazifasiga qarshi qaratilgan bo'lsa, jinoyatchi oldindan tayyorgarlik ko'radi, joyini, vaqtini va qurolni belgilab qo'yadi, bunday hollarda o'q otish quroli, portlovchi moddalarni tayyorlaydi. Qasdini amalga oshirgandan so'ng qotil qurolni, otilgan o'q va gilzalarni ham olib ketishga, oyoq va qo'l izlarini qoldirmaslikka harakat qiladi. Bu holatlar qotilning shaxsi haqida ma'lumotlarni olish va uni kimlar orasidan qidirishni qiyinlashtiradi.

Qotillik jinoyatining izlarini va jabrlanuvchining murdasini yo'qotishga qaratilgan harakatlar ba'zida qotillikka boshqa hodisa tusini berish uchun niqoblash usullarini ham qo'llash hollari uchrab turadi. Qotil qurbonini xushsizlantirib yoki unga og'ir jarohat yetkazib, xonaning eshik-derazalarini berkitib o't qo'yib ketadi, tepalik – balandlikdan itarib yuboradi, "o'ziga o'zi qasd qilgan" – niqobi tusini yaratadi va hokazo.

Jabrlanuvchining shaxsini aniqlash tergovning dastlabki bosqichida to'g'ri tasmollar tuzishga va gumon qilinuvcini topishga yordam beradi.

Qotilning ba'zi harakatlari – jabrlanuvchiga nisbatan o'ta rahmsizlik bilan ko'p jarohat yetkazishi, o'zining yaqin qarindoshi, oila-a'zolari, yosh bolalarni o'ldirishi, ularning murdalarini mayda bo'laklarga bo'lib, har joylarga tashlashi, uning aqli norasolugidan xabar beradi, bunday hollarni tipik vaziyatlarga kiritish mumkin.

Ma'lumot uchun! Jinoyatda gumon qilingan qotillarning shaxsi, tergov amaliyotiga asoslangan holda quyidagicha tavsiflanishi mumkin: spirtli ichimlik yoki giyohvand vositalarni iste'mol qiluvchi 18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan erkak kishilar, ko'p hollarda qo'pol muomala qiluvchilar, ahloqsiz, jamoaga va ayollarga nisbatan behurmat va rahmsiz, ilgari sudlangan kabi sifatlarga ega bo'ladilar.

Tergov amaliyotida boshqacha noodatiy hollar ham uchrab turadi. Qotil qurol bilan muomala qilishni yaxshi biladi, harbiy xizmatda yoki alohida mashq asosida otish yoki sovuq qurollarini qo'llashlikni egallagan bo'lib, jinoyatga tayyorgarlik ko'rishni va sodir qilgandan so'ng uning izlarini yo'qotishni avvaldan belgilab qo'yadi. Bunday vaziyatlar tergovni dastlabki bosqichida birmuncha murakkablikni keltirib chiqaradi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish va tergovning tipik vaziyatlari

Qotillik jinoyatlari odatda og'zaki (telefon orqali) yoki yozma ravishda arizalar asosida qo'zg'atiladi. Xabarlar davolash muassasalaridan, o'likxonalaridan, ko'cha-kuyda zo'rlik (jarohatlar) alomatlari mavjud bo'lgan murdalar topilgani haqida baladi, ayrim hollarda jinoyat sodir qilgan shaxsning o'zi xabar qiladi yoki huquq muhofaza organiga aybini tan olib keladi.

Zo'rlik alomatlari mavjud bo'lgan murdaning yoki uning bo'lagi topilgan hollarda jinoyat ishi hech qanday tekshiruv o'tkazilmasdan tezkorlik bilan qo'zg'atiladi va dastlabki tergov va tezkor harakatlar o'tkaziladi.

Shaxsning bedarak yo'qolgan faktlari bo'yicha tushgan arizalar, jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan avval uning ehtimol ketgan (yashiringan) joylari tekshiriladi, tirikligi va boshqa joyda bo'lish ehtimol haqida tasmol yuritiladi. Bedarak yo'qolganlik haqidagi arizada jinoyat alomatlari haqida xabarlar bo'lsa, qayerda va qachon sodir bo'lganligi va qotillikning sabab-motivlari ko'rsatilgan bo'lsa, bedarak yo'qolgan shaxs "qotillik qurboni" degan tasmol asosida jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov va tezkor qidiruv choralari ko'riladi.

Mazkur tekshiruv natijalarida bedarak yo'qolgan shaxs: baxtsiz hodisa qurboni emasligi, biror jinoyat harakati uchun ushlangan emasligi, davolanish joylarida, o'likxonalarda yo'lqligi, o'z ixtiyori bilan yashash joyini o'zgartirmasligi, shaxsiy hujjatlari va buyumlari uyda qolganligi, g'arazlik yoki o'ch olish maqsadida unga qasd qiladigan ma'lum shaxslarning yo'qligi aniqlansa, u "qotillik qurboni bo'lgan" va qotil uning tanasini yashirgan yoki yo'qotishga harakat qilgan, degan tusmol mavjud bo'ladi va jinoyat ishi qo'zg'atilib, mana shu tusmol – tekshiriladi.

**O'ldirilganlik alomatlari bo'lgan murda topilganda
tereovchining dastlabki harakatlari**

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish

Xabardor shaxslarni so'roq qilish


Kriminalistik ekspertiza tayinlash

Zarur hollarda murdani tanib olish uchun ko'rsatish

Sud-tibbiy ekspertizasini tayinlash

Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini ko'rishni topshirish

QOTILLIKNI TERGOV QILISHNING DASTLABKI BOSQICHIDAGI TIPIK VAZIYATLAR



Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida unga asos bo'lgan belgi alomatlari, jinoyat oqibati, sodir qilingan usuli bo'yicha qator tergov vaziyatlari hosil bo'ladi.

1. Qotillikning ochiq sodir etilishi, qotil bilan jabrlanuvchi o'zaro bezorilik qilib jarohatlanganligi natijasida o'lim yuz berganligi. Uy-ro'zg'orda oila a'zolari janjallashishi, rashk va boshqa sabablar natijasida, shuningdek zaruriy mudofaa asosida sodir etiladigan jinoyatlar. Bunday vaziyatlarda gumon qilinuvchi va jabrlanuvchining shaxslari ma'lum bo'ladi, hodisa joyida va u yerda bo'lgan, eshitgan-ko'rgan guvohlardan olinadigan og'zaki tezkor ma'lumotlar yetarli bo'lib, jinoyat hodisasi va uning ayrim holatlari bo'yicha tegishli tasmollar tuziladi. Bunday hollarda tergovning dastlabki bosqichida hodisa joyini va murda topilgan joyni ko'zdan kechirish va kechiktirib bo'lmaydigan tezkor qidiruv choralari o'tkazish, gumon qilinuvchini ushlab, sud-tibbiyot ekspertizasini o'tkazish kabi choralar ko'riladi.

2. Qotillik yashirincha (xufiyona) sodir etiladi, lekin jabrlanuvchining tanasi berkitilmaydi, niqoblash va qotillikka boshqa

jinoyat tusini berilmaydi. Bunday vaziyatlar bosqinchilik, talonchilik, ayol-qizlarning nomusiga zo'rlik ishlatib tajovuz qilish va boshqa moddiy g'arazlik maqsadida sodir etiladigan qotilliklarda mavjud bo'ladi. Shuningdek yuqorida keltirilgan vaziyatlar, ikki jinoiy guruh orasida kelib chiqadigan nizolar va buyurtma (qotilni yollash bilan sodir etiladigan) jinoyatlarda ham mavjud bo'ladi. Ko'rsatilgan vaziyatlarni bartaraf qilishlik uchun birinchi navbatda hodisa joyi ko'zdan kechiriladi, ko'rgan-eshitgan guvohlardan ma'lumot olish, jinoyatda gumon qilinuvchilarni aniqlash va qo'lga olish choralari ko'riladi. Jabrlanuvchining murdasi ko'zdan kechirilib, so'ngra tibbiyot ekspertizasini o'tkazish bilan o'lim sababi, vaqti, jinoyat qurollari va boshqa masalalar hal etiladi. Tergovning boshlang'ich davrida jinoyatning ayrim holatlari, subyektlari, ishlatilgan qurollar va bular haqida to'g'ri tasmollar tuzib tergov ishini rejalashtirish, kechiktirib bo'lmaydigan tezkor-qidiruv choralarini amalga oshirish, tergov natijasini muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

3. Qotillik yashirincha (xufiyona) sodir etiladi, jabrlanuvchining murdasi mavjud, shaxsi ma'lum bo'lib, jinoyat sodir etilish mexanizmi noma'lum bo'ladi. Ko'zga tashlanadigan zo'rlik alomatlar bo'lmaydi, o'lim sababi dastlab aniqlanishicha baxtsiz hodisa, o'z joniga qasd qilish, tasodifiy kasallik natijasida yoki qotillikka boshqa jinoyat tusini berish maqsadida niqoblangan vaziyatlar mavjud bo'ladi. Keltirilgan vaziyatlarning har biri yuzasidan tasmollar tuzishda ularga yetarli alomatlar bo'lishi va ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lmog'i lozim.

4. Qotillik yashirin, guvohlarsiz sodir etilganda, marxumning tanasi, tashqi ko'rinishi birmuncha o'zgargan (vaqt o'tishi, qurol, o'ta rahmsizlik bilan qilinishi va hokazo) bo'lib, tanib olish ham ancha qiyinchilik tug'diradi. Murda tanasidagi jarohatlarning xususiyatlari qotillik jinoyati sodir bo'lganligidan darak beradi. Mazkur vaziyatni hal etishlikda birinchi navbatda sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis yordamida murdaning yuz tuzilishi, jarohatlarga biroz tibbiy-jarrohlik choralari qo'llanilib, iloji boricha tiriklik holati sun'iy tiklanadi, kiyimlari tartibga keltiriladi, yuzidagi ortiqcha iflosliklar, qon va boshqa moddalardan tozalanib so'ng tanib olishga ko'rsatiladi. Marhumning shaxsi aniqlangach, tasmol yuritish bilan gumon qilinuvchi iziga ham tushish mumkin bo'ladi. Gumon qilinuvchilar ilgari sudlanganlar, spirtli va giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar orasidan qidiriladi.

5. Qotillik sodir etilgandan so'ng, ko'p vaqt o'tib, murda chirishi natijasida marxumning faqat suyak qoldiqlari (skeleti) topiladi. Ba'zida marhum kiyimining ayrim bo'laklari saqlanib qoladi, suyak to'qimalarida

jinoyat qurolining izlari, kesilish, yanchilish alomatlari saqlanadi. Tergovning dastlabki bosqichida murdaning shaxsi noma'lum bo'ladi, lekin marhumning suyak qoldiqlari topilgan joy, atrof-muhit, suyak to'qimalaridagi jarohat izlari va boshqa alomatlar qotillik jinoyati sodir bo'lganidan darak beradi. Bunday vaziyatda murdaning suyak qoldiqlari topilgan joy ko'zdan kechiriladi, atrof-sharoitlari ham tekshiriladi, sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis ishtirokida taxminan jinoyat sodir bo'lgan vaqti, o'lim yuz bergandan bo'yon qancha vaqt o'tganligi, o'limga sabab bo'lgan jarohatlar va qanday qurol bilan yetkazilganligi aniqlanadi. IIV axborot markazi bo'limlaridan bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni mazkur shaxsi noma'lum skelet – murdadagi tashqi tuzilish (antropologik) alomatlari bilan qiyoslash lozim bo'ladi. Dastlabki tergov va tezkor harakatlaridan olingan natijalar asosida jabrlanuvchi, jinoyatda gumon qilinuvchi haqida tegishli tasmollar tuzilib, tergov olib boriladi.

6. Qotillik jinoyati sodir etilganidan so'ng, jabrlanuvchining tanasini yashirish, jinoyat izlarini yo'qotish maqsadida bo'laklanadi va har hil joylarga tashlanadi (berkitiladi). Murdaning ayrim bo'lagi topilishi natijasida qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha mazkur vaziyatni quyidagicha hal etish tavsiya qilinadi: topilgan murda bo'lagi qanday holatda, biror material, qog'oz yoki paketga solinganmi; o'rash, ip, kanaf, bint va boshqalar bilan bog'langanlik usullari; qotillik va bo'laklash qachon sodir qilingan, jinoyat quroli, bo'laklash usuli; tananing boshqa qismlari topilganda ular bir shaxsniki ekanligi va boshqa holatlar ham aniqlanadi.

7. Bedarak yo'qolgan shaxslarning "jinoyat qurboni" degan taxmin asosida jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Bedarak yo'qolgan shaxsning murdasi topilmagan bo'lib, u haqiqatda qotillik jinoyati qurbonimi yoki o'z ixtiyori bilan kimlardandir yashirindimi (jinoiy javobgarlikdan, biror dushmanidan, hayoti xavf ostida bo'lganidan va h.k), boshqa hududlarda yoki kasalxonalarda ismi-sharifini o'zgartirib yashab, davolanib yuribdimi. Bunday vaziyatni hal etishda yuqorida keltirilgan barcha holatlar yuzasidan tasmollar tuzilib, tekshiriladi. Murda topilmagan hollarda, jinoyat izlari, bedarak yo'qolgan shaxsga tegishli buyumlar topilishi va qotillik haqida yetarli ma'lumotlarning to'planishi "qotillik jinoyati sodir etilgan" degan tasmolga asoslanadi. Umuman tergov va tezkor choralari ana shu asosli tasmolni tekshirishga qaratilishi lozim.

8. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolaning murdasi topilishi asosida qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari. Bunday vaziyatda bolani onaning o'zi yoki boshqa unga yaqin bo'lgan shaxslar tomonidan o'ldirilgan, degan

tusmollar hosil bo'ladi. Dastlab bolaning o'ldirilish mexanizmi, o'lim sababi, tug'ilganda tirik edimi yoki o'lik holda tug'ildimi, degan masalalar hal etiladi. Tergovning dastlabki bosqichida va so'nggi bosqichlarida ham bolaning onasi qidirilmog'i lozim, chunki tergovda hal qilinadigan barcha masalalar va holatlar unga bog'liq bo'lib, ishning ochilish kaliti ham bolaning onasi hisoblanadi.

Tergovning dastlabki bosqichi

Tergovning mazkur bosqichida quyidagi asosiy vazifalarni hal etmoq zarurdir. Sodir bo'lgan jinoyatning barcha elementlari: qotilning shaxsi, jabrlanuvchining shaxsi, qotillikning maqsadi va qasdning motivi, jinoyi harakat jabrlanuvchining shaxsiga qarashlimi yoki uning jamiyatdagi mavqei-lavozimiga qarshi qaratilganmi, jinoyatni bir shaxs yoki guruh tomonidan sodir qilinganmi, qotil topilmagan bo'lsa uni tezkor qidiruv choralari qo'llab yashiringan joyini aniqlash va qo'lga olish, jinoyat qurolini topish, g'arazli maqsadida sodir qilingan qotillik ishlari bo'yicha o'g'irlangan, olib ketilgan qimmatliklarni qondirish choralari ko'riladi.

Tergovni to'g'ri tashkil qilish va harakatlarni tegishli oldinma-кетинlikda olib borish uchun, aniqlanishi lozim bo'ladigan barcha holatlar yuzasidan tusmollar tuzish, tergovni rejalashtirish, tezkor-qidiruv xodimlari bilan yaqindan hamkorlikda bo'lish, qotillikning murakkab vaziyatlarini tergov qilishda tezkor-tergov guruhini tashkil qilish bilan olib borish zarur bo'ladi.

Tergovning dastlabki bosqichida kechiktirib bo'lmaydigan tergov va tezkor harakatlarini o'tkazmoq lozim bo'ladi. Bulardan birinchi navbatda qotillik hodisasi yuz bergan va jabrlanuvchining murdasi topilgan joylar ko'zdan kechiriladi.

Ko'zdan kechirish harakatining umumiy tartib qoidalari mazkur darslikning taktika qismida to'la yoritilgan bo'lib, qotillik jinoyatlarini tergov qilishda sodir bo'lgan hodisaning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda, ko'zdan kechirishning taktika qoidalari qo'llash bilan yuqorida keltirilgan vazifalarni hal qilmoq mumkin bo'ladi.

Jinoyat sodir bo'lgan joy bilan jabrlanuvchining tanasi topilgan joy bir bo'lsa, ko'zdan kechirish, murdadan, ya'ni markazdan boshlanmog'i ma'qul bo'ladi, so'ngra atrof-muhit, jinoyatchining kirish-chiqish yo'llari, izlar, jinoyat quroli va boshqalar ko'zdan kechiriladi.

Qotillik jinoyatlari bo'yicha hodisa joyini ko'zdan kechirishning o'ziga xos vazifalari mavjud. Birinchi navbatda jinoyat sodir bo'lgan va

murda topilgan joylar turli bo'lsa qon izlarining xususiyatlari, surkalish, tomchi kabi shakllari murdaning bir joydan ikkinchi joyga olib kelishda hosil bo'ladi, qo'shimcha ravishda erda sudralish izlari ham mavjud bo'ladi. Qotillik sodir bo'lgan joyda topilgan murda yonida qon izlari sachrash, oqish va ko'p miqdorda ko'lmak shaklda hosil bo'ladi. Bu belgilarning yo'qligi murda boshqa joydan keltirilgan transport vositasida olib kelingan, degan tuzmolga asos bo'ladi.

E'tibor qiling! Hodisa joyini ko'zdan kechirishda **ikki guruh** izlarga e'tibor bermoq lozim. **Birinchi guruh** izlar qotil bilan jabrlanuvchining o'zaro harakati natijasida hosil bo'ladigan izlar, qotilning jarohat yetkazish uslubi, quroli, jabrlanuvchining qarshilik ko'rsatishi, himoyalaniish kabi holatlaridan hosil bo'ladigan alomatlar.

Ikkinchi guruh izlar jinoyiy hodisaga aloqasi bo'lmagan shaxslardan qoladigan izlardir. Bu ikki xil izlarni mazkur joyda hozir bo'lganlar, guvohlardan olinadigan og'zaki ma'lumot asosida olish mumkin. Shuningdek, tezkorlik surishtiruv i orqali hodisa joyining avvalgi holati va unga qanday o'zgarishlar kiritilganligi ham aniqlab olinadi.

O'lim vaqti murda alomatlari asosida (sovish, kotish, dog'larning hosil bo'lishi, chirishi va boshqalar aniqlanadi, o'lim sababi jarohatlarning og'ir-yengilligi, oldinma-ketinligi va qanday quroldan yetkazilganligi, jarohatning qaysi biri o'limga sabab bo'lganligi, murdani ko'zdan kechirishda tibbiyot sohasidagi mutaxassis ishtirokida belgilanadi.

**Jabrlanuvchining murdasini ko'zdan kechirishda
aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar**

shaxsi, hujjatlari yoki boshqa buyumlari, kiyimlari, tashqi qiyofasi, alohida belgilari

qotil bilan, oila aʼzolari, qarindoshlari hamkasabalari va boshqa tanishlari bilan aloqasi

o'limning yuz bergan vaqti, sababi, yetkazilgan jarohatlarning qaysi biri o'limga sabab bo'lganligi

jinoiy harakatning mexanizmini, jarohatlar qanday qurol bilan yetkazilganligi

qotillik jinoyati sodir qilinayotganda kimlar bo'lgani, eshitgani

jinoyatning sub'ektiv tomonini, qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir bo'lganligi

Yuqorida keltirilgan holatlarning ba'zilarini aniqlanishi jinoyatchini qayerdan va kimlar orasidan izlashga imkon beradi.

Jinoyatni sodir qilishda ishlatilgan qurol sifati, jarohat yetkazish usuli, o'ta rahmsizlik bilan ko'p jarohat yetkazish, o'lim yuz bergandan so'ng ham qurolni ishlatish jinoyatchi shaxsidan xabar beradi. O'ldirilganning shaxsi noma'lum bo'lib, tergovning boshlang'ich davrida aniqlanmagan bo'lsa, jinoiy ro'yxat qoidasiga binoan shaxsi noma'lum murda kartasi tuziladi, qo'l va o'n barmoq izlari bo'yicha daktilokarta tayyorlanadi, asosiy va qo'shimcha formula chiqarilib, ro'yxatga olinadi.

Daktilokartada tashqi qiyofa belgilari, ayrim ko'zga tashlanadigan belgilar ko'rsatiladi. Tergovning so'nggi bosqichlarida ana shu kartalar asosida jabrlanuvchining shaxsi tanib olishga ko'rsatilib, aniqlanadi. Axborot markazi ma'lumotlari asosida bedarak yo'qolganlarning shaxslari qiyoslanadi.

Murda bo'lagi topilishi asosida qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari bo'yicha bo'lak topilgan joyda ko'zdan kechiriladi, uning o'ralgan, o'ralmagan holatiga, jarohatlarning xususiyati, taxminan qanday quroldan yetkazilganligiga e'tibor beriladi. Bo'lak o'ralgan material sifati (qog'oz, mato, sellofan) guruh mansubligi belgilanadi.

Murda bo'lagi bo'yicha jabrlanuvchining jinsi, yoshi, millat guruhi, iloji boricha individual belgi-alomatlari xatga olinadi.

Jinoyat sodir etilgan va jarohat yetkazilgan vaqt, o'lim sodir bo'lish

vaqti va sababi, murdani qotillikdan so'ng qancha muddat o'tgandan so'ng, qanday qurol va usulda bo'laklanganligi, kasb-hunar xususiyati ham ko'zdan kechirish natijasida belgilanadi. Ko'zdan kechirish o'tkazilib, barcha ma'lumotlar bayonnomada aks ettirilgandan so'ng sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanib, yuqorida keltirilgan tasmollar dastlabki ma'lumotlar o'z tasdig'ini topmog'i lozim bo'ladi.

Hodisa joyini, murdani (bo'lagini) ko'zdan kechirish bilan bir qatorda tezkor-qidiruv harakatlari ham o'tkaziladi. Birinchi navbatda hodisa joyida hozir bo'lgan ko'rgan bilganlardan og'zaki ma'lumotlar olinadi, qachon, kim tomonidan e'tibor berilib, jinoyat izlari aniqlanganligi, jinoyatchi haqidagi ma'lumotlar, o'zgarib-bosilib ketmagan, "issiq" iz-alomatlarini aniqlash yuzasidan maxsus itlar ishga solinadi, ma'lum shaxslar orqasidan kuzatuvlar o'tkaziladi, axborot-ma'lumot markazidan bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar, tashqi qiyofa belgilari va shu kabi boshqa ma'lumotlar yig'ilib, ular so'nggi tergov harakatlarini tashkil qilish va o'tkazishga, yangi tasmollarni tuzishga yordam beradi.

Ko'zdan kechirish va tezkor qidiruv choralari yordamida topilgan boshqa murda bo'laklari o'zaro qiyoslanib, bir shaxsning tanasiga tegishli ekanligi aniqlanadi.

E'tibor qiling! Hodisa joyini, murda va uning bo'lagini topilgan joyida ko'zdan kechirilgandan so'ng sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi. Ekspertiza hal qiladigan masalalar quyidagilardir:

- jabrlanuvchining tanasidagi jarohatlarning tavsifi;
- jarohatlar qanday qurol bilan yetkazilgan;
- jarohatlarning qanday oldinma-кетинlikda yetkazilgani;
- **o'lim vaqti va sababi, qaysi jarohat o'limga sabab bo'lgani;**
- jarohatlarning soni ko'p bo'lgan taqdirda, qaysilari hayotiy davrida, qaysilari o'lim yuz bergandan so'ng yetkazilganligi;
- jarohatlar jabrlanuvchining o'zi tomonidan yetkazilishi mumkinmi va b.q.

Bedarak yo'qolgan shaxslarni "jinoyat qurboni" degan tasmol asosida qo'zg'atilgan ishlar yuzasidan tegishli tekshiruvlar, tezkor-qidiruv choralari o'tkazilib, yo'qolgan shaxs jinoyat, baxtsiz hodisa yoki boshqa biror hodisa qurboni, degan tasmolni tekshirish lozim bo'ladi, uning murdasi qidiriladi, topilgan hollarda shaxsi aniqlanib, bedarak yo'qolgan bilan qiyoslanadi.

Bunday vaziyatni murda mavjud bo'lgan holatlar kabi dastlabki ko'zdan kechiruv va sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazilib, tergov davom ettiriladi.

E'tibor qiling! Murda bo'lagi va bir necha bo'laklari yuzasidan ekspertiza tekshiruvida hal qilinadigan masalalar:

- murda bo'laklari bir shaxs tanasiga tegishlimi;
- murda bo'lagi (bo'laklari) bo'yicha jabrlanuvchining shaxsiga tegishli ma'lumotlar jinsi, millati, taxminan yoshi, kasb-hunari va boshqalar;
- jarohatlar mavjud bo'lsa, qanday quroldan yetkazilgan, tirik vaqtida yoki o'lim yuz bergandan so'ng yetkazilganmi;
- murdani bo'laklash qanday qurol-asbob va usul bilan sodir etilgan, kasb-hunari va boshqalar;
- qotillik sodir qilingan va murda bo'laklangan vaqti;
- murda bo'lagi tarkibida begona moddalar (zaharlovchi, alkogol, giyohvand) qoldiqlari mavjudmi va shu kabi jinoyatga oid bo'lgan boshqa masalalar.

Bedarak yo'qolgan shaxsning murdasi topilmagan hollarda tergovning dastlabki bosqichida quyidagi masalalarni hal etish lozim bo'ladi:

- yo'qolgan shaxsning tashqi qiyofa belgilari, yashash tarzi, qarindoshlari, oila a'zolari bilan muloqoti, kimlar bilan ziddiyatli muomalada bo'lganligi haqidagi va boshqa ma'lumotlarni aniqlash;
- bedarak yo'qolgan shaxsning hayoti davridagi fotosuratini topish va ishga qo'shish;
- qo'l-barmoq izlari alfavit daktilokartasi informatsiya markazida tekshirilishi;
- dastxati, o'z qo'li bilan yozilgan hujjatlarni ishga qo'shilishi;
- bedarak yo'qolganlik haqida ariza bergan shaxsni so'roq qilish bilan u qachon, qayerda oxirgi marta ko'rganligi, suhbat, xabar qanday mavzuda bo'lganligini aniqlash;
- yo'qolgan shaxs qanday kiyimda bo'lgan, ruhiy, emotsional holati, qandayligi, biror qimmat narsa sotib olish yoki sotish haqida gap bo'lganmi kabi ma'lumotlarni to'la va aniq ravshanlantirish.

Ekspertlar oldiga quyiladigan savollar:

I. Jinoyat sodir etish hodisasini oydinlashtirishga qaratilgan savollar

- 1) murda qismlarining insonga yoki hayvonga tegishliligi;
- 2) jabrlanuvchini qismlarga bo'lish o'limga sabab bo'lganmi yoki o'ldirilgandan keyin amalga oshirilganmi;
- 3) jabrlanuvchi badanida jarrohlik operatsiyasi izlari mavjudmi;
- 4) jabrlanuvchi o'limining sababi nimada;
- 5) o'lim hodisasi yuz bergan vaqt.

II. Obyektlarni identifikatsiya qilish bilan bog'liq savollar

- 1) jabrlanuvchi tanasining to'liq qismlari berilganmi, qaysi qismlar mavjud emas;
- 2) ushbu qismlarning barchasi jabrlanuvchiga tegishlimi yoki boshqa odamlarning qismlari ham bormi va b.q;

III. Jabrlanuvchining shaxsini aniqlashga qaratilgan harakatlar

- 1) jabrlanuvchining millati;
- 2) taxminiy bo'yi, og'irligi, alohida qismlari;
- 3) murda badanida individual xususiyatlar mavjudmi;
- 4) tatuirovka va uning hajmi, mazmuni (chizilgan rasm);
- 5) ayrim murda qismlarining qon guruhi, jinsini aniqlash;
- 6) fiziologik kamchiliklari, qanday kasalliklar bilan og'rigani;
- 7) jarroh tomonidan operatsiya qilish alomatlari bormi.

IV. Jinoyat sodir etilish usuli va quroli haqidagi savollar

- 1) murda qanday jarohatlar bilan topilgan;
- 2) bu jarohatlarning xususiyati va soni;
- 3) bir yoki bir necha qurollar bilan jarohatlangan;
- 4) jarohatlar jabrlanuvchining tirikligida yoki o'lgandan so'ng yetkazilgani;
- 5) ushbu jarohatga sabab bo'luvchi qurolning individual xususiyati bormi;
- 6) jabrlanuvchi o'limidan oldin spirtli ichimliklar iste'mol qilganmi.

V. Murda qismlarga bo'lingani yuzasidan qo'yiladigan savollar

- 1) qismlarga bo'lish qanday qurol bilan amalga oshirilgan;
- 2) agar qismlarga bo'lish bir necha qurollar bilan sodir etilgan bo'lsa, ularning turlari;
- 3) kesish qanday usulda amalga oshirilgan;
- 4) qismlarga bo'lish mexanizmi va tartibi.

Bedarak yo'qolgan shaxsning "jinoyat qurboni" degan tushuncha uchun, uning murdasini, jinoyat quroli va izlarini, qon izlarini, ariza bergan shaxsning yashash joyida, yo'qolgan shaxsning oxirgi bo'lgan manzili-joyida va boshqa jinoyatda gumon qilinganlarning turar joylarida izlash lozim. Topilgan izlar, ashyolar bo'yicha tegishli tekshiruvlar o'tkaziladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqni onasi tomonidan o'ldirilishi yoki tashlab ketilishi natijasida o'lim yuz berishi hodisalarini tergov qilishda birinchi navbatda bolaning murdasini topilgan joyida ko'zdan kechiriladi, uning o'ralganligi, materialining o'ziga xos xususiyatlari, yalang'och, yarim yalang'och holati yangi tug'ilganlik belgilari, o'lim yuz bergan vaqtdan topilganga bo'lgan muddat, tanasida qanday jarohatlar mavjud, o'limning sababi, jinoyatning mexanizmi aniqlanadi. Ko'zdan kechirish jarayonida va so'ngra ekspertiza tekshiruvini o'tkazilib, bola tirik tug'ilganmi yoki o'lik holdami, tirik tug'ilgan bo'lsa, tug'ilgandan so'ng necha vaqt yashagan, tug'ilish sharoiti va joylari (kasalxonada, uyda yoki boshqa joyda) aniqlanadi. Bolaning onasini topish dastlabki tergov vazifalaridan biri. Aholi gavjum yashaydigan shahar sharoitlarida bu masalani hal etmoq ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kasalxonalar (tug'ruqxonalar)ga murojaat qilgan onalarning shaxsi aniqlanadi, ularning qanday masala bo'yicha murojaat qilganliklari: tug'ish, ona bo'lish yoki homilani tushirish, tug'ishning oldini olish masalasi bo'yicha tekshirilib, ular ichida qaysilarining homiladan bo'shalishi noma'lum sharoitda yuz berganligi va kasalxonaga murojaat etmaganligi hollari bo'yicha tekshiriladi, o'lgan bolaning onasi shular orasidan qidiriladi.

Shubhalanuvchi ayol birinchi navbatda tibbiyot hujjatlari asosida, so'ngra guvohlantirish va ekspertiza tekshiruvini o'tkazish bilan qachon tuqqan, salomatlik holati, tug'ish jarayoni normal kechganmi, tug'ish oqibatida noxush hollar yuz berganmi aniqlanadi. Ko'rsatilgan vaziyatlar hal etilgandan so'ng, muayyan ayoldan gumon qilish uchun yetarli asoslar yaratiladi va uni so'roq qilish ham mumkin bo'ladi. So'roq o'tkazishdan oldin tergovchining qo'lida guvohlantirish, ko'zdan kechirish bayonnomalari, sud-tibbiyot ekspertizasi xulosalarining bo'lishi ular dalil sifatida ishlatilib, yolg'on ko'rsatuv berishining oldini olishga va fosh etishga yordam beradi.

Tergovning keyingi bosqichida o'tkaziladigan harakatlar

Tergov jarayonining keyingi bosqichi dastlabki tergov va tezkor-qidiruv choralari natijasiga bog'liq. So'roqni jinoyat hodisasini ko'rgan, eshitgan va muhim ma'lumotlarni berishi mumkin bo'lgan guvohlardan

boshlash kerak. Tezkor-qidiruv choralari yordamida aniqlangan gumon qilinuvchilar ushlanib, tegishli muddatlarda so‘roq qilinishi va ularning ko‘rsatuvlari tekshirilishi lozim.

Ko‘zdan kechirish natijasida topilgan ashyoviy dalillar, jinoyat qurollari, turli izlar yuzasidan kriminalistik ekspertizaning alohida turlari o‘tkaziladi. Jumladan, transport vositasi yordamida sodir qilingan jinoyatlar bo‘yicha izlari trasologik, yo‘l harakat qoidasini qasddan buzish va yo‘lovchini bosib ketish holatlari avto-texnik ekspertiza, ayrim singan va alohida bo‘laklar bo‘yicha butun bir predmet – qurolni aniqlashda trasologik, jinoiy hodisasiga tegishli bo‘lgan turli hujjat matnlari bo‘yicha xatshunoslik tekshiruvlari o‘tkaziladi.

E’tibor qiling! Otish quroli vositasida sodir qilingan qotillik ishlarida qurol va uning harbiy qismlari yuzasidan ballistik identifikatsiyaviy tekshiruv va sovuq qurollarning ballistik ekspertizasi o‘tkaziladi.

Jinoyat sodir bo‘lgan joyda, jabrlanuvchining va ishda gumon qilinuvchining tanasi-kiyimida turli modda va mikromateriallar topilishi mumkin, xususan, jinoyatchi poyabzalining tagcharamida hodisa joyidagi tuproq va turli biologik zarrachalar, jabrlanuvchi kiyimining ustki qismida jinoyatchining egnidan mikrozarachalar o‘tish hollari amaliyotda ko‘p uchrab turadi. Bu mikrozarachalarni tekshirish natijasida material, modda va mahsulotlarning qaysi guruhga mansubligi, ba’zida esa aynanligi aniqlanadi

Tergov jarayonida olingan xabarlar, turli ekspertiza xulosalari, tergov eksperimenti natijalarida yangi holatlar ma’lum bo‘lishi mumkin. Bu vaziyatlar va holatlarni hal qilish uchun ba’zida dafn etilgan jabrlanuvchining jasadini ko‘milgan joyidan qayta ochib olish, ekskumatsiya qilish va turli ekspertiza tekshiruvidan qayta o‘tkazish harakatlari ham amalga oshiriladi. Ekskumatsiya o‘tkazish uchun zarurat sud-tibbiyot ekspertizasini qayta (takroriy) o‘tkazish va noma’lum murdaning shaxsini aniqlash uchun ham tug‘iladi. Mazkur tergov harakati maxsus qaror va prokuror ruxsati asosida, dafn etilganning yaqin qarindosh-urug‘larining rozi-noroziligidan qat’i nazar, o‘tkaziladi.

Tergovning bu bosqichida ayblanuvchini so‘roq qilish zarur bo‘ladi. So‘roq o‘tkazish uchun ish yuzasidan yig‘ilgan dalillar, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertiza xulosalari va boshqa ma’lumotlar yana bir bor tahlil etilib, ular o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liqmi, orasida ziddiyat vaziyatlar mavjudligi tekshirilib, ayblanuvchini so‘roq qilish davomida uni yolg‘on ko‘rsatuv berishiga qarshi qo‘llanilishi mumkin.

Ayblanuvchini yolg'on ko'rsatuvini tekshirish va haqiqatni isbotlash uchun uni tanib olishga ko'rsatish, ayrim bergan ma'lumotlari asosida tergov eksperimenti yuzlashtirish o'tkaziladi. SHuningdek, ayblanuvchining ko'rsatuvlarini hodisa va jinoyat joyida qayta tekshirish bilan ham to'g'ri-noto'g'ri ekanligini aniqlab olish mumkin bo'ladi.

Qotillik jinoyatini sodir qilishda qo'llanilgan usullar, alohida o'ta rahmsizlik harakatlari, qurol xususiyati, jinoyat qurboni bo'lgan shaxs murdasini bo'laklash holatlari yuzasidan ayblangan shaxsning aqli rasoligini aniqlash uchun albatta sud-psixiatriya tekshiruvidan o'tkazilishi lozim.

Tanib olishga ko'rsatish, tergov eksperimenti, yuzlashtirib so'roq qilish harakatlarini kriminalistik taktikaning umumiy qoida tartibiga rioya qilgan holda amalga oshirmoq lozim. Ayrim vaziyatlarni hal etishda ishning o'ziga xoslik tomonlarini nazarda tutgan holda u yoki bu taktik qoidalarni qo'llash lozim.

Tergovning so'nggi bosqichida o'tkaziladigan tergov harakatlarning oldinma-ketinligi, ba'zida takror o'tkazilishi, aniqlanayotgan holatning xususiyatiga bog'liq bo'lib, har xil vaziyatni hal etish tergovchining mutaxassis sifatidagi saviyasiga va ishdagi tajribasi va ijodiy yondoshuviga bog'liq bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Qotillik jinoyatlarining kriminalistik tavsifmi tushuntirib bering. Ushbu jinoyatlar kriminalistik tavsifiga nimalar kiradi?
2. Qotillik jinoyatlari bo'yicha tergovning qanday tipik vaziyatlarini bilasiz? Ularni misollar yordamida tushuntirib bering.

Kazuslar:

1-kazus

1. 2014-yil 15-oktabrda Toshkent shahar, Bektemir tumanida 17 yoshli Norova N. ismli shaxsni zo'rlik alomatlari mavjud jasad topildi. Jinoyat sodir etilgan joyda jinoyat izlari va jinoyat quroli bo'lmaganligi sababli, ushbu jinoyat uzoq vaqt ochilmay qoldi. Holat bo'yicha fuqaro Latipov K. jinoyatni guvohi bo'lgani, jinoyatchini o'z ko'zi bilan ko'rganini aytib ko'rsatuvlar bergan. Biroq, 2015-yil tuman prokuraturasiga fuqaro Turanov I. murojaat qilib, o'z aybiga iqrar bo'ldi. Turanov I.ning ko'rsatuvlariga ko'ra, u Norova N.ni ortida poylab borib, pichoq bilan tan jaroxati yetkazgan. Jinoyat qurolini daryoga uloqtirib yuborgan. Fuqaro Turanov I. fuqaro Latipov K.ga tanib olish uchun ko'rsatilganda, jinoyatchi aslida boshqa shaxs bo'lganligini aytgan.

1. *Qotillikning kriminalistik elementlari tizimini aniqlang.*

2. *Mazkur tergov vaziyatida aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlang.*

3. *Umumiy va xususiy versiyalarni shakllantiring.*

4. *Dastlabki tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari rejasini tuzing.*

2-kazus

2014-yil 15-avgust kuni Tokshent viloyati Bo'stonliq tumanidan 3 km naridagi oqova suvlar uchun mo'ljallangan ariq yonida shu yerda qo'y boqib yurgan fuqaro Alimov tomonidan 2 nafar erkak jinsiga oid jasadlar topilgan va bu haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilgan. Murdalar ko'zdan kechirilganda ularning jasadida zo'rlik ishlatish alomatlari mavjudligi aniqlandi.

Tezkor guruh hodisa joyiga etib kelgach murdalarni asosiy ko'cha (A.Nosirov)dan 5 metr, pastga qarab 3 metr narida yotganini, ularning jasadida sanchilib kesilish alomatlari mavjudligi, murda kiyimi va yon atrofidagi o'tlarda quyuk, qonga o'xshash moddalar qolganligi aniqlangan.

Jabrlanuvchilardan biri cho'ntagidan Eshmatovga tegishli talabalar guvohnomasi, boshqasidan Toshmatovga tegishli fuqarolik pasporti topilgan. Jabrlanuvchilardan birining o'ng qo'lib barmoqlaridan 12 dona soch tolasi, shuningdek hodisa joyida 0,75 litrli "OQ CHOY" nomli spirtli ichimlik butilkasi topilgan. Unda barmoq izlari mavjud.

Jabrlanuvchilardan birining bosh qismida 8x10 sm li jigarrang ko'rinishidagi qonga o'xshash dog'lar, ular asosiy yo'lga qarab 2 metr narida raqamli fotoapparatga taaluqli jigarrang g'ilof mavjud.

Hodisa joyidan topilgan jasadlar jasadlar Eshmatov va Toshmatovga tegishli ekanligi aniqlandi. Eshmatov va Toshmatovning yaqin qarindoshlarini so'roq qilinda jabrlanuvchilar 2014-yil 14-avgust kuni dam olish maqsadida uyidan chiqib ketishgani va qaytib kelishmagani aniqlandi. Daktiloskopik ekspertiza natijalariga ko'ra hodisa joyidan topilgan 0,75 litrli butilkaning bir qismidan Eshmatov va Toshmatovga tegishli barmoq izlari, yana bir qismidan esa noma'lum shaxsga taaluqli barmoq izlari aniqlandi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijalariga ko'ra 2014-yil 15-avgust kuni ertalab 1978-yilda tug'ilgan, fuqaro Do'stov mast holda oqova suvlar uchun mo'ljallangan ariq bo'ylab Bo'stonliq tumaniga qarab ketayotganida qo'lgan olingan.

Fuqaro Do'stov qo'lga olinganida quyidagilar aniqlandi. Fuqaro Do'stov 2014-yil 14-avgust kuni o'zining ukasi 1980-yilda tug'ilgan Qarshiyev bilan dam olish maqsadida Tokshent viloyati Bo'stonliq tumanidan 3 km narida joylashgan oqova suvlar uchun mo'ljallangan ariq yonida to'xtagani, u yerda ular gulxan yoqib kechani shu yerda o'tkazgani va kechasi hech qanday urish-janjal ovozini eshitmagani, 0,75 litrli "OQ CHOY" markali spirtli ichimlikni iste'mol qilgani hamda sahar chog'i piyoda uyga qaytish uchun ketayotganida hech qanday murdalarga ko'zi tushmaganini aytgan.

Bo'stonliq tumani yaqinida joylashgan Tez yordam muassasasi tekshirilganda 2014-yil 15-avgust kuni ertalab soat 8:15 larda qora rangli sport kiyimida, yoshi taxminana 25-35 larda bo'lgan, bo'yi taxminan 175 sm dan yuqori, yuz qismi

cho'zinchoq, burun tuzilishi to'g'ri o'rtacha kattalikda, sochi mallarang bo'lgan yigit tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan. Hamshira uni qo'zdan kechirganda uning chap qo'li o'рта barmog'ining bukilgan qismi to'g'ri chiziq bo'ylab kesilgani aniqlangan. Bu hol qanday yuz bergani so'ralganda bemor uni konservani ochayotganida bexosdan yuz berganini aytgan. Shundan so'ng hamshiraning iltimosi bilan bemor shaxsiga oid ma'lumotlarni aytgan.

(Bemor – Suyunov, 1984-yilda tug'ilgan, Toshkent viloyati Oxangaron tumani, A.Qodiriy ko'chasi, 51 uyda doimiy ro'xatda turadi va yashaydi. "Kabel" zavodida chilangar bo'lib ishlaydi.)

- 1. Qotillikning kriminalistik elementlari tizimini aniqlang.*
- 2. Mazkur tergov vaziyatida aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlang.*
- 3. Umumiy va xususiy versiyalarni shakllantiring.*
- 4. Dastlabki tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari rejasini tuzing.*

25-MAVZU. NOMUSGA TEGISH JINOYATINI TERGOV QILISH

Nomusga tegishning kriminalistik tavsifi. Dastlabki tergov harakatlari. Voyaga yetmaganlar nomusiga tegish jinoyatini tergov qilish.

Nomusga tegishning kriminalistik tavsifi

Nomusga tegish jinoyati – shaxsga qarshi qaratilgan og‘ir jinoyatlardan biridir. Ushbu jinoyatning kriminalistik tavsifi shu bilan belgilanadiki, bunda tergovchi nomusga tegish kim tomonidan sodir etilganligini aniqlash bilan bir qatorda, jabrlanuvchi ushbu jinoyatni sodir etgan deb ko‘rsatayotgan shaxsga tuhmat qilmayotganligini aniqlashi lozim bo‘ladi. Ushbu jinoyat asosan guvohlarsiz sodir etiladi, shuningdek har bir odamning shaxsiy va jinsiy hissiyotlariga daxldordir. Bu holatlar jabrlanuvchi tomonidan ko‘rsatuv berilganda o‘z ifodasini topadi.

Bu kabi jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti jabrlanuvchiga o‘tkaziladigan ta‘sir kuchliligidan dalolat beradi. Manfaatdor shaxslar jabrlanuvchini aldab o‘ziga og‘dirib olishi, uylanishni va‘da qilishi yoki turli xil tahdidlar, qo‘rqitishlarni amalga oshirishi va boshqa yo‘llar bilan ruhiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Ko‘p hollarda jabrlanuvchi o‘z ko‘rsatuvlarini o‘zgartiradi, ya‘ni hodisa sodir bo‘lmagan yoki umuman boshqa noma‘lum shaxs tomonidan sodir bo‘lgan yoxud jinsiy aloqa ixtiyoriy bo‘lgan, deb arizalar beradilar.

E‘tibor qiling! Ushbu toifadagi jinoyatlarda jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari dalillarni baholashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun jabrlanuvchining ko‘rsatuvlarini har tomonlama va sinchkovlik bilan xolisona tekshirish lozim. Chunki ayrim holatlarda jabrlanuvchi turli motiv-maqсадlarda ayblanuvchiga tuhmat qilishi ham mumkin.

Nomusga tegish jinoyati bo‘yicha quyidagi **tusmollar** yuritiladi.

Ayblov tusmoli: ayblanuvchi, jabrlanuvchining erkiga qarshi uning nomusiga tekkan; ayblanuvchi hodisa joyida bo‘lgan degan tusmol ilgari suriladi.

Himoya tusmoli: ayblanuvchi hodisa sodir bo‘lgan joyda bo‘lmagan, jinsiy aloqaga kirishmagan yoki arizachining xohishi bilan jinsiy aloqaga kirishgan, jabrlanuvchi aybdor shaxsni ta‘riflashda yanglishgan yoki ataylab qasddan ushbu shaxsni ko‘rsatmoqda, arizachiga hech kim tajovuz qilmagan degan fikr ilgari suriladi.

Bunday toifadagi ishlarda izlar va ashyoviy dalillar, jabrlanuvchi, ayblanuvchining tanasidan, kiyimlaridan va hodisa sodir bo‘lgan joydan olinadi (tan jarohatlari, biologik izlar, mikrozarachalar, hodisa sodir bo‘lgan joyning holatini o‘zgarishi).

E'tibor qiling! Nomusga tegish jinoyatlarining sodir etilish usulini ikkiga bo'lish mumkin. **Birinchi usulda** jabrlanuvchiga to'satdan hujum qilish orqali sodir etiladi, tajovuz ochiq joyda yoki binolarda bo'lishi mumkin. Bu holatda haqorat so'zlar va jismoniy kuch ishlatib yoki biron-bir vosita orqali tahdid qilinishi mumkin. Yordamga chaqirish, qarshilik ko'rsatishni bartaraf qilish maqsadida jabrlanuvchining og'zi yopiladi, qo'llari bog'lanadi, narkoz ham ishlatilishi mumkin. Ko'p hollarda jabrlanuvchining kiyimlari yirtib tashlanadi.

Ikkinchi usulda jinoyatchi jabrlanuvchi bilan tanish bo'lgan yoki birinchi tanishish paytida qo'llaniladi. Bunday holatda ham hujum to'satdan bo'lishi mumkin. Lekin, bundan tashqari boshqa usullar ham qo'llaniladi. Jabrlanuvchi dastlab mast holatga keltiriladi, uning diqqatini turli suhbatlar, turli predmetlar, peyzajlar, pornografik suratlar tomosha qilish bilan chalg'itadilar. Jabrlanuvchining issiq xonada o'zining ustki kiyimini yechishdan foydalanadilar. Ba'zan jinsiy muloqotga oid gaplar va xatti-harakatlar qo'llaniladi. Bu oxirgi usullar odatda voyaga yetmaganlar va aqli zaiflarga nisbatan qo'llaniladi.

Nomusga tegish jinoyatidan qolgan ayrim izlar tezda yo'qolish xususiyatiga ega (qon, sperma, jinsiy a'zolaridagi ayrim izlar). Shuning uchun tergovchi bu izlarni tezda topishi va qayd qilishi, ularni sinchiklab tekshirishi lozim.

E'tibor qiling! Nomusga tegish jinoyatlarini tergov qilishda quyidagi holatlar isbotlanishi lozim:

- zo'rlash alomatlari mavjud yoki mavjud emasligi;
- agar zo'rlash alomati mavjud bo'lsa, qachon, qayerda va qanday holatda sodir etilgan;
- zo'rlash jismonan yoki ruhiy ko'rinishga ega ekanligi;
- jabrlanuvchi og'ir ahvolga tushganmi, u nimada ifodalanadi;
- jabrlanuvchining ahvoli qanday, uning yoshi, sog'lig'i, erkak (jinsiy aloqaga bo'lgan umumiy munosabati qanday;
- ayblanuvchining tavsifi, yoshi, jabrlanuvchiga bo'lgan munosabati, ruhiy holati, sudlanganligi;
- nomusga tegish guruh tomonidan sodir etilganda, zo'rlaganlarning har birini roli;
- nomusga tegish qanday oqibatlarini keltirib chiqargan;
- tan jarohatlarining sababi;
- homiladorlik holati;
- tanosil kasalligi bilan zararlanmaganmi;
- moddiy va ma'naviy zarar;
- jinoyatning sababi va sodir etish sharoiti va b.q.

Nomusga tegishni tergov qilishda aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar

Jinsiy aloqa bo'lganmi, u tabiiy holdami yoki buzuq ko'rinishda sodir etilganmi

Zo'rlik ishlatilganmi, u qanday yo'sinda bo'lgan: nomusga tegish vaqtida jabrlanuvchining qarshiligi qanday usulda bartaraf etilgan (jinsiy kuch, do'q va po'pisa qo'llanilgan, jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanilgan)

Nomusga tegish qachon va qayerda sodir etilgan

Nomusga tegishning oqibatlari qanday

Kim nomusga tekkan: uning tavsifi: nomusga tegish bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilmaganmi: ulardan har birining ishtiroki qay darajada bo'lgan

Jabrlanuvchi kim? Uning yoshi, tavsifi

Sodir etilgan nomusga tegishdan yoki unga tayyorgarlikdan kim xabardor edi: kim uni yashirish choralarini ko'rgan

Nomusga tegish imkonini bergan sabab va sharoitlar

Dastlabki tergov harakatlari

Ushbu jinoyat ishlariga **ikki holat** xos – ayblanuvchi, jabrlanuvchi bilan tanish yoki notanish bo'ladi. Bu holatlarni bir-biridan farqi shundaki, ayrim holatlarda notanish kishi jabrlanuvchiga birdan tajovuz qilmaydi, balki tanishish uchun harakat qiladi. Tanish shaxslar kutilmaganda tajovuz qiladilar, jabrlanuvchi bunday holatni kutmaydi, chunki erkak kishini taniydi yoki uni tajovuz paytida ko'rmay qolishi ham mumkin.

Yuqoridagi ikki holatni tekshirishda quyidagi masalalar hal qilinadi; jinsiy aloqada bo'lganlik fakti mavjudmi, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik izlari mavjudmi va qanday darajada.

Jinsiy aloqada bo'lganlik izlarini, zo'rlik alomatlarini va jinoyatini aniqlashda jabrlanuvchi so'roq qilinadi, tezkor-qidiruv harakatlari o'tkaziladi, hodisa sodir bo'lgan joy tekshiriladi, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchiga nisbatan sud tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi, tintuv va boshqa tergov harakatlari o'tkaziladi.

Jabrlanuvchini so'roq qilish. Jabrlanuvchini so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Tergovning yo'nalishi uning natijasiga bog'liq. Shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, jabrlanuvchi ruhiy tushkunlik holatida yanglishishi mumkin. Shuning uchun so'roq qilish reja asosida, natijasi esa har tomonlama tekshirilib ko'rilishi lozim.

So'roqda jinoyat sodir qilingan vaqt, tajovuz joyi, tajovuz to'satdan qilinganmi yoki jabrlanuvchi qanday usulda qarshilik ko'rsatgan, baqirganmi, yordamga chaqirganmi, qanday ovozda, tajovuzchini tishlaganmi yoki tirnaganmi, jinsiy aloqa oxiriga yetkazilganmi, agar oxiriga yetkazilmagan bo'lsa nima sababdan, tajovuz natijasida jabrlanuvchining tanasida qanday jarohatlar mavjud.

Jabrlanuvchi tajovuzga qadar jinsiy aloqada bo'lganmi, bo'lgan bo'lsa qachon (aniq vaqti) homila yoki hayz (oy ko'rish) holati mavjud yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Shuningdek, tajovuz paytida jabrlanuvchining ustida bo'lgan kiyimlari saqlanib qolganmi yoki qolmaganligi haqida batafsil ma'lumot olinadi.

E'tibor qiling! So'roq jarayonida ruhiy zo'rlik ishlatilganligini aniqlash maqsadida quyidagilar aniqlanadi: tajovuzchi qanday tahdid ishlatgan, qanday zarar yetkazishni ko'zlagan, qanday huquqlar buzilgan, tajovuzchi qachon tahdidni amalga oshirishni ko'zlagan, tahdid qanday ko'rinishga ega bo'lgan (so'z bilan, harakati orqali, ishora orqali) ayblanuvchida tahdidni amalga oshirish uchun imkoniyatlar mavjudmide yoki shu usulda ta'sir o'tkazmoqchi bo'lganmi, jabrlanuvchi tahdidni qanday qabul qilgan holatni real holat yoki oddiy qo'rqitish sifatida.

Jabrlanuvchi o'zlik ahvolda bo'lganmi yoki yo'qligini aniqlash uchun undan sodir bo'lgan hodisani fahmlaganmi, qarshilik ko'rsatish imkoniyati bo'lganmi, hodisa sodir bo'lishidan oldin spirtlik ichimlikni iste'mol qilganmi, agarda iste'mol qilgan bo'lsa, qancha va qanday ichimlik ekanligi aniqlanadi.

Jinoyatchi noma'lum bo'lgan holatda batafsil uning tashqi ko'rinishi belgilari, idrok etish sharoiti aniqlanadi. Jinoyatchini tashqi belgilarini aniqlashda, uning alohida belgilarini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Yurishi, gapirish usuli, tovushi, o'ziga xos harakatlari, kiyimidagi va yuzidagi alohida belgilari aniqlanishi lozim. Bulardan tashqari, jinoyatchi qaysi tomondan kelgani va qaysi tomonga ketgani, ish joyi yoki o'rtoqlaridan birortasini ismini tilga olgan yoki olmaganligi muhim ahamiyatga ega.

Tergovchi jabrlanuvchining ko'rish, eshitish, idrok etish qobiliyatiga ham e'tibor berishi lozim. Jabrlanuvchidan jinoyatchini ko'rsa tanib olishi

mumkinligi so'raladi. Jabrlanuvchidan jinoyatchi uni kuzatganmi, qachon va u buni qayerda sezib qolgan, jinoyatchi bilan ruhiy aloqaga kirishganmi, qaysi yo'l bilan hodisa sodir bo'lgan joyga kelganligi, tajovuzdan keyin jinoyatchi uni kuzatib qo'rganmi, degan savollar bo'lishi lozim.

E'tibor qiling! Agar jinoyatchi jabrlanuvchi bilan tanish bo'lsa, quyidagi holatlar aniqlanishi lozim; sodir etilgan hodisaga qadar u ayblanuvchi bilan qanday munosabatda bo'lganligi, uchrashganmi, qachon, qayerda necha marta; uchrashuv qanday kechgan, ayblanuvchi jabrlanuvchini jinsiy aloqa qilishga ishtiyoq uyg'otishga harakat qilganmi, ularni munosabatlarini buzilishiga olib kelgan dalillar mavjud bo'lganmi (xiyonat, haqorat, nikohdan o'tishni rad qilish), jabrlanuvchi ayblanuvchidan xizmat yuzasidan yoki moddiy jihatdan qaram bo'lganmi, tajovuzdan keyin ayblanuvchi tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaslik to'g'risida biror tahdid qilinmaganmi?

Jabrlanuvchini so'roq qilish taktikasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Agar nomusga tegish sodir etilgan paytdan boshlab tergov harakatlari olib borilsa, ayolga birinchi navbatda imkoniyat yaratishi, kiyimlarini tartibga solishga vaqt ajratishi lozim. Har qanday holatda ham jabrlanuvchini ahvolini to'g'ri baholay olish kerak. Bunday holat tergovchidan xushmuomalalik, ziyraklik, g'amxo'rlik talab qiladi.

Agar jabrlanuvchi tajovuz to'g'risida gapirishga uyalsa, unga bu haqda hech kim bilmasligini va ayblanuvchini javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishini tushuntirish lozim. Jabrlanuvchi o'z ko'rsatuvlarida tibbiy atamalardan qo'llashi va yozma tariqasida taqdim etishi mumkinligini taklif etish kerak. So'roq natijalari ijobiy bo'lishi uchun jabrlanuvchini katta yoshdagi tergovchilar so'roq qilgani maqsadga muvofiqdir. Jabrlanuvchini hodisa haqida so'roq qilishning oxirida jabrlanuvchidan ushbu shaxsni javobgarlikka tortish to'g'risidagi arizani ixtiyoriy ravishda berayotganligi so'raladi.

Agar jabrlanuvchi hodisa sodir bo'lgandan keyin o'sha zahoti huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bersa (jinoyatchi noma'lum bo'lsa), tezda uni qidiruv harakatlari tashkil etiladi. Tergovchi qidiruv xodimlarga o'rgatilgan xizmat itlari bilan hodisa joyiga etib boradilar va gumon qilinuvchi qaysi tomonga ketgan bo'lsa, shu yo'nalish tekshiriladi. Jabrlanuvchi va guvohlar ko'rsatuvlari asosida qidiruv harakatlari tashkil etiladi. Topshiriqda nafaqat gumon qilinuvchining anatomik belgilari, balki funksional belgilari ham bayon etiladi. Ayrim holatlarda jinoyatchi bo'lishi mumkin joylarda qo'riqchi, patrullar tashkil etiladi.

Agar gumon qilinuvchi shaxs to'g'risida biron-bir ma'lumot bo'lsa, tergovchi surishtiruvchiga bu ma'lumotlarni yetkazib gumon qilinuvchining tergovdan yashirinishi mumkinligi va uning oldini olish choralarini ko'rish to'g'risida topshiriq berish lozim. Bunday holatlarda gumon qilinuvchini prokuratura yoki ichki ishlar organlariga olib kelish buyuriladi.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish. Hodisa joyini ko'zdan kechirish jabrlanuvchini so'roq qilgandan keyin, iloji bo'lsa, uning hamkorligida amalga oshiriladi. Ko'zdan kechirish natijasida quyidagilar qayd etilishi mumkin: biologik xususiyatdagi izlar (sperma, qon, so'lak, hid, ter) olishuvdan qolgan qo'l, barmoq izlari, jabrlanuvchi va jinoyatchini hodisa joyiga qaysi tomondan kelganligi va uning poyabzal izlari, qoldirgan yoki tushib qolgan boshqa predmetlar. Jabrlanuvchining ko'rsatuvlari hodisa joyida ko'zdan kechirish, topilgan izlarni, predmetlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hodisa joyini ko'rsatish vaqtida jabrlanuvchi so'roq paytida yodidan chiqargan holatlarni qayta eslashi va bu haqda tergovchiga tushuncha berishi mumkin.

Jabrlanuvchining hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishtiroki ko'p hollarda aybsiz shaxslarga tuhmat qilmayotganligini aniqlash maqsadida ham tashkil etiladi. Bunday hollarda uni ko'rsatuvlari batafsil tekshiriladi. Aks holda u tajovuz to'g'risida o'ydirma ko'rsatuv berishi ham mumkin.

Har qanday holatda ham jabrlanuvchini hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayoniga jalb qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Jabrlanuvchini ishtiroki va har bir bergan ko'rsatuv bayonnomaga qayd etilib boriladi. Jinoyatchi hodisa joyidan o'zi bilan tuproq, chang va boshqa moddalarni olib ketganligini ko'zdan kechirish chog'ida e'tiborga olish kerak. Shuning uchun bu narsalardan nusxalar olish lozim.

Sud-tibbiyot ekspertizasi. Jabrlanuvchini sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish, olingan ko'rsatuvlarini tekshirish va masalani hal qilish uchun juda zarur. Ekspertiza imkon qadar zudlik bilan o'tkazilishi lozim, aks holda tajovuz va jinsiy aloqa izlar yo'qolishi mumkin.

Sud-tibbiyot ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi: jabrlanuvchining jinsiy a'zolari va tanasida jarohatlar mavjudmi, uning xususiyati, muddati, paydo bo'lish sababi, darajasi, nima orqali zarar yetkazilganligi, nomusga tegish orqali yetkazilgan bo'lishi mumkinmi, jabrlanuvchi mast holatda bo'lgan yoki bo'lmaganligi aniqlanadi. Bundan tashqari, jabrlanuvchi oldin ham jinsiy aloqada bo'lganmi, tanosil kasalligiga chalinmaganmi, homiladorligi, jinsiy a'zolarida va tanasining

boshqa qismlarida sperma, qon, izlarini mavjudligi, ularning guruhi aniqlanadi.

E'tibor qiling! Sperma izlari. Jinsiy jinoyatlarda sperma izlari jabrlanuvchining badanida, kiyimlarida qolishi mumkinligini inobatga olish va ularni qidirish kerak. Bular sud-biologik ekspertizasi xulosalariga ko'ra ham aniqlanadi. Bu izlarning jabrlanuvchi badanida mavjudligi jinoyat seksual xususiyatga ega ekanligidan dalolat berishi mumkin, lekin har doim ham emas. Chunki jinoyatchining motivi, maqsadi qanday bo'lganini hech kim bilmaydi. Bu izlarni vizual ko'zdan kechirish yo'li bilan yaxshiroq topish mumkin.

Ultrabinafsha nurlardan foydalanish topilishi qiyin bo'lgan izlarni aniqlashga yordam beradi. Vizual ko'zdan kechirish, ultrabinafsha nur yordamida topilmagan izlar sud-biologik ekspertizasi orqali aniqladi. Lekin bu tekshirishlar orqali juda kam ma'lumot olish mumkin. Bu ma'lumotlar jinoyatchining qaysi qon guruhiga tegishliligi va uning mavjudligini, seksual xususiyatga ega odam o'ldirish jinoyati sodir etilganini, eng muhimi, seriyali qotilliklarda jinoyatlarning ayni bir shaxs tomonidan sodir etilganini isbotlashda ahamiyatlidir.

Ashyoviy dalillar bo'yicha sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni jabrlanuvchining kiyimlari, unda ko'pgina biologik harakterdagi izlar qolishi mumkin. Bulardan tashqari, ekspertizaga hodisa joyida topilgan predmetlar ham yuboriladi. Ayrim hollarda jabrlanuvchining kiyimlari ekspertizadan o'tkazishda, uning o'zi ham ishtirok etishi mumkin. Chunki bu tajovuz izlarni tezda topishga yordam beradi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi ashyoviy dalillarni tekshirayotganda quyidagi o'ziga xos savollarga javob beradi: tekshirilayotgan obyektida qon, sperma, so'lak, soch qoldiqlari mavjudmi, ular insonga tegishlimi, qon guruhi qanaqa, bu biologik izlar aniq shaxsga xos ekanligi ham aniqlanadi. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertizasi dog', qon, soch, izlarni aynan tana qismini qaysi joyidan ajralib chiqqanligini aniqlab bera oladi.

E'tibor qiling! Tish izlari, tirnoq, so'lak va boshqa ajratmalar. Seksual odam o'ldirish jinoyatida tish izlari topilishi mumkin. Bu izlar turli ob'ektlarda, chunonchi: mahsulotlar, tamaki, papirus va inson badanida topilishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarda aniqlanadigan barcha izlarning 5%i tish izlaridir. To'g'ri, bu ko'p bo'lmasligi mumkin, lekin har qanday ma'lumot ham jinoyatni ochishga yordam beradi. Jinoyat sodir bo'lgan joyda topilgan tish izlari ko'zdan kechiriladi, o'lchanadi, tegishli masshtabda rasmga olinadi, ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinadi. Bu izlarni stomatolog, protez qo'yuvchi bilan maslahatlashgan holda tegishli ma'lumotlar olinadi.

Sochga oid quyidagi holatlar aniqlanadi: uzilganmi, qirqilganmi, agar qirqilgan bo'lsa, qachon, unda ifloslanish, zararlanish yoki aniq predmet izlari mavjudmi.

Gumon qilinuvchini sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish quyidagi holatlarni aniqlashga yordam beradi: jabrlanuvchi jinsiy aloqada bo'lganmi, gumon qilinuvchining tanasida jabrlangan shaxs tomonidan qarshilik ko'rsatish paytida yetkazilgan jarohat mavjud yoki mavjud emaslik. Gumon qilinuvchining kiyimidan topilgan biologik izlar kechiktirilmay olinishi va sud-tibbiyot ekspertizasiga yuborilishi lozim. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertiza xodimi tomonidan gumon qilinuvchining tanasida jabrlanuvchi ko'rishi mumkin bo'lgan tatuirovka va o'ziga xos boshqa alohida belgilar qayd etilishi lozim. Ayrim holatlar ekspert oldiga gumon qilinuvchi tanosil kasalligi bilan kasallanganmi yoki yo'qmi, agar kasallangan bo'lsa uning muddatini aniqlash to'g'risida savollar ham qo'yilishi mumkin.

Jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining kiyimlaridan yirtilgan parchalarni, poyabzalda yoki kiyimlarda hodisa joyidan olib ketilgan moddalarni va boshqa izlarni aniqlash maqsadida kriminalistik ekspertizasi tayinlanadi. Bu ekspertiza yordamida jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining hodisa joyida bo'lganligini, qoldirilgan mikroizlarni aniqlash mumkin.

Tintuv. Gumon qilinuvchidan narsalarni olish va tekshirish zaruriyati tintuv o'tkazishni taqozo etadi. Tintuvda hodisa joyidan olib ketilgan jabrlanuvchiga yoki yaqin qarindoshlarga tegishli narsalar, shuningdek jabrlanuvchiga tahdid solingan vaqtida gumon qilinuvchining ustida bo'lgan kiyimlar topilishi mumkin.

Topilgan va olingan narsalar o'sha joyda bayonnomada qayd etiladi (qayerdan, qay holatda olinganligi) va daliliy ashyo sifatida maxsus idishlarga solinib muhrlab qo'yiladi.

Noma'lum jinoyatchini topish. Noma'lum jinoyatchini aniqlashda jabrlanuvchining ko'rsatuvlaridan tashqari ishdagi barcha ma'lumotlar va tasmollardan foydalaniladi. Gumon qilinuvchining tashqi ko'rinishi, belgilariga e'tibor beriladi. Jinoyatchini tashqi ko'rinishi o'ziga xos anatomik va funksional belgilari, alohida belgilari, jinoyat sodir etilish jarayonida shikastlanganligi, kiyimi, papkasi va jinoyatchi foydalangan boshqa narsalar ham aniqlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlarni jabrlanuvchi, shuningdek, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijasida hamda tezkor-qidiruv harakatlari orqali olishi mumkin.

Nomusga tegish jinoyati bo'yicha jinoyatchining subyektiv xususiyatlari o'ziga xos ahamiyatga egadir. Masalan, jabrlanuvchi bilan dastlabki tanishishdagi odati qanday bo'lganligi, uning mashg'uloti to'g'risidagi ma'lumotlar jinoyatchini aniqlashga yordam beradi. Subyektiv xususiyatlar shaxslar bilan munosabatda namoyon bo'ladi. Bularga jabrlanuvchini, unga tajovuz qilish vaqti, joyi va jinoyatni sodir etish usulini tanlashi kiradi. Jabrlanuvchi bilan bo'lgan joyda qolgan izlarni tahlil qilib faqat jinoyatchining bo'yi, vazni emas, balki o'ziga xos harakatlari, odati, individual belgilari ham aniqlanishi mumkin.

Shubhalangan shaxsni nomusga tegish jinoyatini sodir etgandan keyingi xulqi (yaqin kishilariga bu haqda bayon qilishi yoki sukut saqlashi) ham jinoyatchi shaxsi to'g'risida tusmol yuritishga asos bo'ladi.

Jinoyatchi shaxsi to'g'risida ma'lumot guvohning ko'rsatuvida ham bo'ladi. Shuning uchun tergovni borishini rejalashtirish jarayonida guvohlarni topish masalasiga e'tibor berishi lozim. Bu masalani hal qilish jinoyatchi jinoyat sodir etgunga qadar va undan keyin qayerlarda bo'lganligini aniqlashdan boshlanadi. Qaysi hududdan izlash kerakligi jabrlanuvchining ko'rsatuvlari orqali bilish mumkin.

Tergovchi bunday hududni aniqlab, qaysi guruhdagi shaxs guvoh bo'lishi mumkinligini faraz qiladi. Bu maqsadda tergovchi ichki ishlar xodimlariga hodisa sodir bo'lgan joyda hodisani ko'rgan shaxslarni qidirish vazifasini topshiradi. Undan tashqari, tergov organi ish yuzasidan qidiruv harakatlari bo'yicha radio, televidenie, gazeta orqali aholiga murojaat qiladi. Guvohdan jinoyatchining anatomik va funksional belgilari, uning va jabrlanuvchini xulqi to'g'risida, jinoyatni tavsiflovchi boshqa holatlar to'g'risida ma'lumot olinadi. Gumon qilinuvchining jinoyat sodir etgan joyda bo'lganligini, jabrlanuvchining qarshiligiga qaramay zo'rlik ishlatib jinsiy aloqa qilganligini aniqlanadi. Gumon qilinuvchini hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lganligini guvohning ko'rsatuvlaridan, hodisa sodir bo'lgan joyda qolgan izlar: qo'l, oyoq va poyabzal, tish, qon, sperma, so'lak, kiyim parchalari kabilarni tekshirib aniqlaydi. Qoldirilgan narsalar aynan gumon qilinayotgan shaxsga tegishli ekanligini u bilan birga ishlovchi xodimlarga, qo'shnilarga ko'rsatib aniqlash mumkin. Bunday predmetlarga kiyim, poyabzal, taqinchoq va boshqalar kiradi. Hodisa joyidan topilgan narsalardan, qolgan izlardan ekspertiza yordamida gumon qilinuvchiga yoki boshqa shaxsga tegishli ekanligi aniqlanadi. Agarda jabrlanuvchi tajovuz qilgan shaxsning tavsifini so'zlab, qanday predmetlardan foydalanganini aniq aytib bersa, tergovchi gumon qilinuvchidan ushbu predmetlarni topishga harakat qilmog'i lozim.

Gumon qilinuvchini yonidan yoki uyidan ushbu predmetlar topilmasa, boshqa joylardan, ya'ni gumon qilinuvchining saqlash kamerasiga qo'yganligi yoki sotib yuborganligini ehtimol. Bundan tashqari, gumon qilinuvchi bu narsalarni o'rtog'idan vaqtinchaga olgan bo'lishi mumkin. Buni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Sinchkovlik va maxsus so'roq qilish bunday holatlarda ijobiy natijalar beradi.

Gumon qilinuvchi o'zini himoya qilish maqsadida har xil tasmollarni keltirishi tabiiy hol, albatta. Ya'ni tanasida topilgan timalgan joylar boshqa ayol bilan bo'lgan jinsiy aloqa natijasida paydo bo'lgan deb vajlar keltirishi mumkin. Bu tasmolni aniqlash uchun gumon qilinuvchiga, quyidagi savollar beriladi: boshqa ayol bilan jinsiy aloqada bo'lganmi, oxirgi paytda kim bilan, qayerda va qachon. Bunday holatlarda sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi.

Jinsiy aloqani ayolning erkiga qarshi amalga oshirilganligini isbotlash maqsadida tergovchi sud-tibbiyot xodimi ishtirokida gumon qilinuvchi badanidagi olishuv izlarini, timalgan, tishlangan joylarni, kiyimlardagi shikastlangan qismini aniqlaydi. Jinoyatchi men faqat ayolning tabiiy uyalishini engib harakat qildim, ayol bunga qarshilik ko'rsatmadi va mening tomonimdan tajovuz bo'lgani yo'q, degan vajni bildirishi mumkin. Bu holatni aniqlash maqsadida gumon qilinuvchiga quyidagi savollar berilishi mumkin: aynan ayol tomonidan jinsiy aloqa qilish xohishi borligini qanday his qildi, tanasidagi timalgan, tishlangan holatni jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatlarni qanday izohlaydi. Yuqoridagi holatlarni aniqlashda nafaqat hodisa sodir bo'lgan joydan izlarni analiz qilish orqali, balki qarshilik ko'rsatishning davomiyligi, chaqiriq, yordamga chorlash kabi holatlar ham e'tiborga olinadi. Agar qarshilik shunchaki yoki umuman bo'lmagan bo'lsa, bu gumon qilinuvchining jismoniy ustunligi bilan bog'liq emasmi, hodisa sodir bo'lgan joy sharoiti qarshilik ko'rsatish befovdaligi sababli befovda emasmi? Bundan tashqari, jabrlanuvchi qo'rqish yoki jismoniy, ruhiy holati, kasalligi tufayli qarshilik ko'rsata olmaganligi ham tekshirilib ko'riladi. Sud psixiologik va sud-psixiatriya ekspertizalari tergovchiga bunday masalani hal qilishda yordam beradi.

Tergovchi tajovuz jarayonida jabrlanuvchi nochor ahvolda bo'lganligini aniqlasa, bu holatga gumon qilinuvchi olib keldimi yoki u bundan faqat foydalangandimi aniqlanadi. Jabrlanuvchi ruhiy kasallikka chalingan yoki ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi boshqa vositalar (spirtli ichimlik, ruhiyatga ta'sir qiluvchi moddalar)dan iste'mol qilgan bo'lsa,

tajovuzchining mohiyatini anglay olmagan va qarshilik ko'rsatishga o'zlashtirilgan bo'lishi ehtimol. Yuqoridagi holatlar jabrlanuvchidan, gumon qilinuvchi va guvohlardan so'roq orqali aniqlashtiriladi.

Guvohlar so'roq qilinganda jabrlanuvchining holatini ta'riflovchi savollar: yurishi, gapirishi, sababsiz baqirishi, kulishi yoki yig'lashi kabi dalillar aniqlanadi. Tergovni obyektiv olib borish maqsadida quyidagi holat aniqlanadi: ayblanuvchining harakatini jabrlanuvchi ig'vo yo'li bilan tajovuz deb ko'rsatmoqchi emasmi, u bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qilmaganmi?

Shaxsga tuhmat qilayotgan bo'lishi mumkin, degan tasmolni alohida tekshirib ko'rish lozim. Bunday tasmol yuritishga asos qilib arizani kechiktirib berilishi, bunday qilishga yaqin qarindoshlarining ta'siri bo'lganligi, tajovuz vaqtini va joyini taxminiy tasvirlashi, jabrlanuvchining ko'rsatuvi va ish yuzasidan yig'ilgan ma'lumotlar o'rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjudligi, ayrim ko'rsatuvlarning noto'g'ri ekanligi, bo'lib o'tgan voqea to'g'risida erkin, beparvolik bilan so'zlash holatlari olinadi. Bundan tashqari ushbu tasmolni tekshirib ko'rish uchun quyidagi masalalar: jabrlanuvchining nomusiga tegilganligi uning yaqin qarindoshlarga qanday ma'lum bo'ldi, arizani o'zining xohishi bilan yoki boshqa shaxslar ta'sirida berganligi, tajovuz izlari mavjudmi, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchilar hodisaga qadar o'zaro munosabati, ular qanday tanishishgan, tuhmat motivi mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadi. Bu savollarga javob topish uchun nafaqat gumon qilinuvchi va jabrlanuvchi so'roq qilinadi, balki gumon qilinuvchi va jabrlanuvchini tanuvchi guvohlar, ular ahvolidan xabardor (hodisaga qadar yoki hodisadan so'ng o'z kechirmalari bilan hamsuhbat bo'lgan) shaxslarni topib so'roq qilish lozim.

Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)larni so'roq qilish taktikasi. Tergovchi gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni so'roq qilish rejasini tuzganda gumon qilinuvchi o'zini himoya qilish uchun keltirishi mumkin bo'lgan vajlarni e'tiborga olib tasmollar tuzadi. Gumon qilinuvchining alibisini tekshirish uchun nomusga tegish jinoyati sodir etilgan vaqtda qayerda va qanday mashg'ulot bilan shug'ullanganligi to'g'risida gumon qilinuvchining vajini tasdiqlovchi shaxslar so'roq qilinadi.

Gumon qilinuvchi jinsiy aloqani ixtiyoriy bo'lgan deb jabrlanuvchi bilan jinsiy munosabati mavjudligini asos qilib ko'rsatishi mumkin. Bu tasmolni tekshirish uchun u so'roq qilinganda o'zaro aloqalari qachondan beri davom etgani, bundan o'zining va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari xabardormi va bunga ularning munosabati aniqlanishi lozim.

Gumon qilinuvchi jabrlanuvchi bilan uchrashganligini inkor etmasligi mumkin. Lekin ular o'rtasida hech qanday jinsiy aloqa bo'lmaganligi to'g'risida ko'rsatuvi tanasida tajovuzdan qolishi mumkin bo'lgan izlar bor yoki yo'qligi orqali aniqlanadi. Gumon qilinuvchini so'roq qilishda quyidagi savollar berilishi mumkin: oxirgi paytda kim bilan jinsiy aloqaga kirishgan va qachon, uchrashuv qanday xarakterda bo'lgan, o'sha uchrashuvdan uning tanasida, kiyimida qanday izlar qolganligi to'g'risida so'ralishi mumkin. Gumon qilinuvchi bilan jabrlanuvchining uchrashuvi xarakterini aniqlash maqsadida quyidagi savollar aniqlanadi: qayerda va nima sabab bilan uchrashganlar, ular qancha vaqt birga bo'lishgan, nima qilishgan, nima haqida gaplashishgan, ularni biron kishi ko'rganmi, uchrashuvdan qaytishda kimlarni uchratgan va bu uchrashuv haqida kimlar xabardor ekanligi masalalariga aniqlik kiritiladi.

Ayblanuvchi tergov davomida o'z ko'rsatuvi va jabrlanuvchi bilan uchrashganlik holatini inkor etishi mumkinligini nazarda tutib, hodisa sodir bo'lgan joyda uning ko'rsatuvi tekshirilishi va bu bayonnomada, fotosuratga, videoyozuv orqali qayd etilishi lozim.

Ayblanuvchining ko'rsatuvlari yolg'on ekanligi fosh qilish maqsadida unga quyidagi dalillarni ko'rsatish lozim: so'roq bayonnomasi, ekspert xulosasi, tintuv va hodisa sodir bo'lgan joydan topilgan ashyoviy dalillar, guvohlarning ko'rsatuvlari.

Ko'p hollarda so'roq qilishdan tashqari, yuzlashtirish tergov harakati ham rejalashtiriladi. Chunki bu tergov harakati jabrlanuvchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuzlashtirish zaruriyat tug'ilganda, ya'ni qarama-qarshilikni boshqa tergov harakatlari bilan aniqlash iloji bo'lmaganda hamda bu tergov harakati orqali kutilgan natijaga erishish mumkinligiga yetarli asos bo'lgandagina o'tkaziladi. Jabrlanuvchi so'roqda aybdorning anatomik va funksiyaviy belgilari haqidagi ko'rsatuvini tekshirish gumon qilinuvchini guvohlantirish, sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tkazish orqali aniqlash mumkin.

Voyaga yetmaganlar nomusiga tegish jinoyatini tergov qilish

Voyaga yetmaganlar jabrlanuvchilar sodir bo'lgan hodisa haqida to'la ma'lumot bera olishmaydi. Jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish va ko'rsatuvlarini sinchiklab tekshirish lozim.

Bunday holatda jinoyatchini ko'pincha voyaga yetmagan shaxslar nomusiga tegib sudlanganlar orasidan qidirmoq lozim.

Jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlari tomonidan nomusga tajovuz

qilinganlik to'g'risidagi ma'lumotlari har tomonlama tekshirib ko'riladi. Chunki o'zaro janjallashish natijasida qasd olishni maqsad qilib, ig'vo uyushtirish holatlari mavjud bo'lishi mumkin.

Ayrim holatlarda jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari gap-so'zlardan qo'rqib jinoyatni yashiradilar. Buni ham inobatga olish zarur.

Agar tajovuz 16-17 yoshli bo'lgan jismonan yaxshi rivojlangan qizga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, ayblanuvchi uni voyaga yetmaganligini bilgan yoki bilishi mumkin bo'lganini isbotlash lozim. Voyaga yetmagan shaxslarning ruhiy holatini sinchiklab aniqlash uchun sud psixologik ekspertizasi o'tkazash maqsadga muvofiq.

Guruh tomonidan sodir etilgan nomusga tegish jinoyatini tergov qilish. Bunday turkumdagi jinoyatlar ko'pincha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan guruh bo'lib sodir etiladi.

Tajovuz ham voyaga yetmagan shaxslarga qaratiladi. Ayblanuvchilarning ko'rsatuvlari bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi, ya'ni o'z aybini yengillashtirishga harakat qilish, voqea qorong'uda, mast holatda sodir etilganligi tufayli o'zini boshqara olmaganlik vajlari asos qilib ko'rsatilishi mumkin. Bunday holatda tergovchi nafaqat ayblanuvchilar va jabrlanuvchini batafsil so'roq qiladi, balki ayblanuvchilarning har birini jinoyat sodir etishdagi ishtirokini aniqlash maqsadida ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tarzidagi tergov harakatini o'tkazadi. Bundan tashqari, sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanib, ekspertga aniqlanishi lozim bo'lgan holat yuzasidan savollar va ashyoviy dalillar jo'natiladi.

Nazorat savollari:

1. Nomusga tegishning kriminalistik tavsifi qaysi xususiyatlari bilan tavsiflanadi? Ushbu jinoyat bo'yicha dastlabki tergov harakatlari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Nomusga tegish bo'yicha dastlabki tergov faoliyatini tushuntirib bering. Voyaga yetmaganlar nomusiga tegish jinoyatini tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.

Kazuslar:

1-kazus

14-may kuni M.Ulug'bek tumani IIB ga 17 yashar Semenova ismli qiz ariza bilan murojaat qilgan. Arizada Semenova 13-may kuni kech soat 23:00 da park yoqalab uyiga ketayotganida uni oldidan 2 nafar yigit chiqib, ular bilan aylanishini taklif qilishgan. Semenova bunga rad

javobini bergach ular kuch ishlatib uni park ichiga olib kirishgan. Semenova pichoq bilan tahdid qilib, agar baqirsa so'yib tashlashi mumkinligini aytishgan. Shundan so'ng ulardan biri Semenova bilan jinsiy aloqada bo'lgan. Boshqasi uni qo'llaridan ushlab turgan. Qo'ldan ushlab turgan shaxs jinsiy aloqa tugaganidan so'ng, yigitlar uni kiyinishiga yordam berishgan, ozroq masofagacha kuzatib qo'yishgan. Ulardan biri Semenovani hafta so'ngida uchrashuvga taklif qilgan.

- 1. Nomusga tegishning kriminalistik elementlari tizimini bayon qiling.*
- 2. Dastlabki tergov versiyalari va tergov vaziyatlarini belgilang.*
- 3. Jinoyat ishini tergov qilish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish zarur.*

2-kazus

Dastlabki so'roq jarayonida Semenova IIO lariga o'z vaqtida xabar bermaganini qo'rqib ketganligi bilan izohlagan. Ertalab bo'lgan voqeani sinfdoshlariga aytgan va keyin IIO murojaat qilgan.

Jabrlanuvchining sinfdoshlari Tursunkulova va Kazakovalar ertalab Semenova kelib o'zi bilan bo'lgan voqeani aytib berganini va ularning maslahati bilan ariza berganini tasdiqlashdi. Tergovchi jablanuvchi bilan birga hodisa joyiga chiqdi. Semenova ko'rsatgan hodisa joyidan "Winston" sigaretsasi qoldiqlari va turli biologik izlar topildi. Semenovani aytishicha jinoyatchilardan biri sigareta chekkan. Shundan so'ng tergovchi IIO xodimlariga agar jinoyatchilar yana jabrlanuvchi bilan ko'rishish uchun kelishsa ularni qo'lga olish to'g'risida ko'rsatma berdi. Biroq, bu tadbir o'z samarasini bermadi.

2-ma'lumotni tahlil qiling va yig'ilgan ashyoviy dalillarni tavsiflang.

- 1. Tergov versiyalarni shakllantiring.*
- 2. Jinoyat ishini tergov qilish rejasini to'ldiring.*

26-MAVZU. O'ZGALAR MULKINI TALON-TOROJ QILISH JINOYATLARINI TERGOV QILISH

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi. Dastlabki materiallarni tahlil etish va jinoyat ishini qo'zg'atish. Davlat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarini tergovini rejalashtirish. Dastlabki va keyingi tergov harakatlarini o'tkazish.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Davlat va jamoat mulkini talon-toroj qilish jinoyatini kriminalistik tahlili tahlil qilishda davlat va jamoat mulkini mansabdor shaxslar tomonidan talon-toroj qilinishiga kriminalistik tavsif berish kerak.

Yodda saqlang:

Talon-toroj qilish jinoyatlarini kriminalistik tavsifi:

- 1) jinoiy tajovuz predmeti;
- 2) jinoyatni sodir etish usuli;
- 3) ishning holati va aniq vaziyati;
- 4) jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari;
- 5) motiv va maqsadi;
- 6) jinoyatning oqibati.

Talon-toroj jinoyati mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganda uni sodir etish usulini ikki turga ajratish mumkin:

oddiy talon-toroj, ya'ni hech qanday niqobsiz mulkni qonunsiz egallab olish va niqoblab sodir etilgan jinoyat. Bu turdagi jinoyatlar quyidagi usullar bilan sodir etiladi:

- a) hisob-kitob hujjatlarini, hisob-kitob reestridagi kirim-chiqim yozuvlarini qalbakilashtirish;
- b) savdo bazalarida va omborlardahisobga olinmagan ortiqcha mahsulotlarni vujudga keltirish;
- d) ishlab chiqarish jarayonida hisobga olinmagan ortiqcha mahsulotlarni vujudga keltirish;
- e) g'arazli maqsadlarda pulni boshqa shaxslarga berish;
- f) pul vositalarini noqonuniy ravishda, aldov yo'li bilan olish.

Mansabdor shaxslar tomonidan talon-toroj jinoyatlari o'zlashtirish, rastrata, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, soxtakorlik, vakolat doirasidan chetga chiqish orqali ham sodir etiladi.

Davlat va jamoat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarini o'rganishda jinoyatchining shaxsiy xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Agar talon-toroj bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan tashkiliy ravishda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishtirokchilarining har birining roli, tashkilotchilari aniqlanishi lozim. Ko'pincha bunday jinoyatlar firibgarlar, yulg'uchlar tomonidan sodir etiladi, ular moliya-xo'jalik ishlari, ishlab chiqarish jarayonida hisob-kitobni yaxshi biladigan odamlar hisoblanadilar.

Talon-toroj jinoyatining kriminalistik tavsifiga yana talon-toroj qilish motivi, ayblanuvchining aybdorlik darajasi, keltirilgan zarar miqdori, jinoyat sodir etilgan vaqt, joy va shart-sharoitlar ham kiradi.

Jinoyat protsessual qonuni va jinoyat protsessi nazariyasi dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rishda isbotlash predmeti haqida umumiy va boshlang'ich holatlarni aniqlab beradi. Isbotlash predmetini belgilayotganda jinoyat tarkibiga hamda ular o'rtasidagi obyektiv bog'lanishga ahamiyat berish lozim.

Talon-toroj ishlari bo'yicha muhim holatlarini aniqlash uchun jinoiy guruh faoliyatining hamda bir jinoyatchi faoliyatining boshlanishi va tamom bo'lishi paytini aniq isbotlash juda katta ahamiyatga ega. Talon-toroj qilingan vaqt to'la va batamom aniqlansa, jinoiy guruh ishtirokchilari soniga ham aniqlik kiritish mumkin: Eng avvalo, jinoyatni qayerda, ya'ni qaysi tashkilot yoki muassasada sodir bo'lganligini aniqlash lozim.

Juda ko'p hollarda talon-toroj jinoyatlari ko'zga tashlanmasa-da, lekin dastlab qaysi tashkilotda talon-toroj sodir bo'lgan, hodisaning asosiy voqealari qayerda rivojlanganligi ma'lum bo'ladi. Bizga ma'lumki, talon-toroj jinoyatlari turli xil yo'llar bilan amalga oshiriladi va juda ko'p hodisalardan iborat bo'ladi.

Quyida mansabdor shaxslar tomonidan talon-toroj jinoyatlarini ochish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodisalardan bir nechtasini ko'rib o'tamiz:

- 1) mulkni talon-toroj qilish fakti;
- 2) talon-toroj jinoyatchilarining mansablari – bu jinoyat hodisasining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuning uchun ularni aniqlash jinoyatni to'la-to'kis ochishga yordam beradi. Bunda ikki holatni e'tiborga molik:

- soxta hujjatlar bilan talon-toroj qilingan mulk;
- umuman hujjatlar rasmiylashtirilmasdan o'g'irlangan mulk.

Talon-toraj qilingan mulkning miqdori isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarga kiradi, bunda jinoyat hodisasi yetkazilgan zararining miqdori va xarakteri aniqlanadi.

Jinoiy guruh tarkibi va shu guruh ishtirokchilarining tavsifini aniqlashda ayniqsa quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

ayblanuvchining turmush tarzini o'rganishda:

a) daromad manbalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan holatlar;

b) xarajatlar miqdori: bu yerda kunlik xarajatlardan tashqari, hovli joy, avtomashina va boshqa qimmatbaho narsalar sotib olish holatlari.

Talon-toraj qiluvchi mansabdor shaxs tomonidan jinoiy yo'l bilan egallangan mulk, qimmatbaho narsalar faqat ayblanuvchining aybdorlik darajasini ko'rsatib qolmasdan, balki talon-toraj natijasida yetkazilgan zararni qoplashning muhim vositasidir.

Yodda saqlang:

Davlat va jamoat mulkini talon-toraj qilish jinoyatlarini aniq belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- tovar-material qimmatliklarining ortiq yoki oz chiqish fakti;
- hujjatlarni rasmiylashtirmasdan mulkni olib chiqish yoki olib kirish;
- hujjatda ko'rsatilganidan ko'p miqdordagi mulkni sotish;
- moddiy qimmatlikka ega bo'lgan ayrim harakatlarda tovarning belgilanganidan ko'pligi;
- tayyor mahsulotlarni, yarim fabrikatlarni, xomashyoni yashirin realizatsiya qilish fakti;
- -tovarlarni savdo korxonalarining yordamchi binolaridan sotib yuborish;
- mulkni sarf qilgandan ko'p deb ko'rsatish;
- ma'lum qimmatga ega bo'lgan materiallarni qiymatini yo'qotgan, deb olib ketish;
- pul vositasini va qimmatbaho materiallarni hisobdan chiqarish to'g'risidagi qalbaki hujjatlarni taqdim etish;
- moddiy qimmatliklar ishonib topshirib qo'yilgan mansabdor shaxsning maoshiga to'g'ri kelmaydigan turmush tarzi;
- moddiy javobgar shaxslar mulkning saqlanishini hisob-kitob va nazorat qiladigan ma'muriyat vakillari va xizmatchilari bilan muntazam ichkilikbozlik qilishi.

Yodda saqlang:

Davlat va jamoat mulkini talon-toraj qilish jinoyatlari haqidagi xabarlarni tekshirishda ma'lumot yig'ishning quyidagi usullaridan foydalanish lozim:

- tovarlar va qimmatbaho buyumlarning sonini tekshirish uchun qo'qqisdan inventarizatsiya tashkil etish;
- muassasa, korxonalar va ularning bo'limlarining moliya xo'jalik faoliyatini reviziya etish;
- tovar va qimmatbaho narsalar yuklanayotgan va tushirilayotgan paytda foydalanilgan qalbaki hujjatlarni talab qilib olish;
- tekshirilayotgan operatsiyaga aloqador mansabdor, moddiy javobgar va ularning ustidan nazorat qiladigan shaxslardan tushuntirish xatlari olish;
- predmetlarni xususiyati, o'zaro bog'liq bo'lgan protsesslar haqida mutaxassislar fikrini olish;
- tezkor-qidiruv organlariga qidiruv tadbirlari o'tkazish to'g'risida topshiriqlar berish;
- tashkilot, korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini tartibga soladigan me'yoriy hujjatlarni o'rganish;
- muassasa, korxonaning davlat va jamoat mulkini saqlash sharoitlari, texnologik protsesslarining xususiyatlarini o'rganish.

Dastlabki materiallarni tahlil etish va jinoyat ishini qo'zg'atish

Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun ko'p hollarda quyidagi holatlar asos bo'lib xizmat qilishi mumkin: o'tkazilgan taftish, inventarizatsiya va boshqa tekshiruv materiallari, shuningdek, tezkor-qidiruv yo'li bilan to'plangan materiallar, agar bu materiallarga ko'ra korxonalar muassasa va tashkilotlarda tekshiruv natijasida rastrata yoki moddiy qimmatliklar kamomati aniqlangan bo'lsa;

Bulardan tashqari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud bevosita o'zi aniqlagan jinoyat belgilari ham talon-toraj haqida jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi.

Tergovning qanchalik tez va samarali bo'lishligi tergov organlariga talon-toraj jinoyatlarining belgilari mavjudligi to'g'risidagi faktlarni aniqlash taftish materiallarining qanchalik tez va o'z vaqtida berilishiga bog'liq.

Taftish moliya-xo'jalik organlari tomonidan belgilangan reja asosida yoki to'satdan o'tkaziladi va bu to'g'rida akt tuziladi. Aktda qanday korxonada talon-toraj faktlari topilganligi, kim tomonidan va qayerda aniqlanganligi to'liq ko'rsatilgan bo'lishligi lozim. Akt besh kundan kechiktirilmasdan prokuratura yoki ichki ishlar organlariga berilishi kerak.

Taftish materiallari asosida qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha amalga oshiriladigan dastlabki tergov harakatlari:

a) taftish asosida aniqlangan va shubhali hisoblangan hujjatlarni ko'zdan kechirish va olib qo'yish; b) taftish tomonidan aniqlangan qalbakilashtirilgan hujjatlarni tayyorlagan shaxslarni so'roq qilish; d) daliliy ashyo bo'ladigan hujjat va predmetlarni qidirib topish maqsadida ayblanuvchilarning turar joylarida, ish joyida tintuv o'tkazish, moddiy zararni qoplashni ta'minlash uchun mulklarni aniqlash va ro'yxatga olish; e) taftish materiallarida ko'rsatilgan shaxslarni so'roq qilish.

JPKning 161-moddasiga muvofiq tergovchi zarur bo'lgan hujjatlarni olib qo'yish huquqiga ega. Tergovchi jinoyat ishini tergovda qanday hujjat zarurligini va olib qo'yilishi lozim bo'lganlarini belgilab qo'yishi zarur. Bunday vaqtlarda tergovchiga mutaxassis – hisobchi, iqtisodchi, kriminalistlar katta yordam ko'rsatishlari mumkin. Hisobchi yoki iqtisodchilar tergovchiga hujjatlarni tahlil qilishning qanday usullaridan foydalanishi, tergovchini qiziqtirayotgan operatsiya qanday hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi to'g'risida, kriminalist esa ko'zdan kechirilayotgan hujjatda qanday o'zgartirishlar, qalbakiliklar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar berishlari lozim.

Agar jinoyat ishi fuqarolarning, mansabdor shaxslarning bergan shikoyat va arizalarini tekshirilishi asosida qo'zg'atilgan bo'lsa, dastlabki tergov harakatlari va tashkiliy tadbirlar ushbu materiallarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Ko'p hollarda bunday vaqtlarda tergov ishini boshlashdan oldin inventarizatsiya va taftish o'tkazish tashkil etiladi.

Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha zarur barcha hujjatlar bilan ta'minlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday hujjatlar tergovchiga dastlabki materiallar va taftish materiallari bilan kelib tushishi mumkin. Bunday materiallarni tegishli tashkilotlardan, shikoyatchilardan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilardan, guvohlardan talab qilib olish ham mumkin.

Hujjatlarni ko'proq yig'ish uchun o'tkazilayotgan dastlabki tergov harakatlari tezkorlik bilan o'tkazilishi lozim. Tez ko'zdan kechirishga ulgurilmasa hujjatlar saqlanayotgan joy muhrlab qo'yiladi. Keyinchalik bu hujjatlar to'liq o'rganilib, keraklilari jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, qolganlari esa qaytarib beriladi.

Inventarizatsiya tergovchining talabiga muvofiq maxsus tayinlangan komissiya tomonidan korxonalarda, tashkilotlarda ma'lum vaqt oralig'ida tovarlar, pul mablag'lari mavjudligini tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Tergovchi inventarizatsiya komissiya tarkibiga kirmasa-da, bu tadbir o'tkazilayotgan vaqtda ishtirok etishi mumkin.

Taftish o'tkazadigan mutaxassis,taftishchi tomonidan korxonada, tashkilot, muassasalarning moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya ma'lumotlari asosida tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Taftish asosan jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin o'tkaziladi. Mabodo, u jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin o'tkazilmagan bo'lsa, tergovchi ish qo'zg'atilgandanoq darhol o'tkazish chorasini ko'rish lozim. Bu to'g'rida u qaror chiqarib, unda qisman yoki to'liq taftish o'tkazish zarurligi yoki zarur emasligi, aniq obyekt yoki mansabdor shaxsning qaysi davr ichidagi faoliyati taftish qilinishi lozimligi va taftish dalolatnomasini qachon taqdim etish zarurligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Taftish tayinlash to'g'risida chiqarilgan qaror nazorat-taftish organlariga yuboriladi. Taftish oldiga qo'yiladigan vazifalar aniq bo'lishi lozim. Qoidaga binoan muassasa va tashkilotlarning katta davr ichidagi faoliyatini taftish qilish tavsiya etilmaydi, chunki u ko'p vaqtni talab etib, taftish ishlarini chuqur va to'liq amalga oshirilishiga xalaqit beradi. Agar taftish korxonada va tashkilotlarning katta davr ichidagi faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lsa, unda tergovchi taftishni bir guruh taftishchilar tomonidan o'tkazish masalasini hal etishi lozim.

Tergovchi taftishchi bilan doimiy aloqada bo'lishi lozim. Taftishchi tergovchiga suiiste'mol qilinish faktlari to'g'risida axborotlar berib tursa, tergovchi esa taftishchiga jinoyat ishi bo'yicha to'plangan yangi materiallar to'g'risida ma'lumot berib turadi. Taftishchi suiiste'mol qilinish faktlarini aniqlagandan keyin bu to'g'rida xususiy dalolatnoma tuzadi va uni darhol tergovchiga taqdim etadi. Bu dalolatnomaning mazmuni bilan manfaatdor shaxslarni tanishtirish shart emas, chunki ular keyinchalik tuzilgan umumiy dalolatnoma mazmuni bilan tanishtiriladi.

Qayd etilgan holatlarni aniqlash va dalillar to'plash uchun tergovchi quyidagi dastlabki tergov harakatlarini va tashkiliy tadbirlarni ko'rish zarur:

- 1) jinoyat ustida ushlab (xomashyoni hech qanday hujjatsiz sotish, qabul qilish);
- 2) ushlanganlarni shaxsiy tintuv qilish;
- 3) xizmat xonalarida tintuv o'tkazish va ularni ko'zdan kechirish;
- 4) tintuv o'tkazish va ko'zdan kechirishda tayyorlanayotgan hujjatlar, predmetlar, tayyor mahsulotlarni muhrlash zarurati bo'lsa, ayrimlarini olib qo'yish;
- 5) pul va mulkni band qilish, ularni olib qo'yish va qo'riqlashga topshirish;
- 6) talon-toroj qilishda gumon qilingan shaxsni so'roq qilish;

7) talon-toroj faktlarini ko'rgan guvohlarni so'roq qilish;

8) omborlarda, savdo-muassasalarida va tashkilotlarda, kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilish yoki moddiy qimmatliklarning qoldiqlarini hisobga olish;

9) xaridorlarni aldash holatlarini aniqlash maqsadida nazorat tarzda xarid qilish yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarini nazorat uchun topshirishni o'tkazish.

Yodda saqlang:

Tergovchi tergovning boshlang'ich bosqichida quyidagilarni qidirib topishi juda zarur deb hisoblanadi:

1) talon-toroj qilingan mulk;

2) jinoiy yo'l bilan topilgan pullar; qimmatliklar, omonat kassa daftarchasi, jinoiy yo'l bilan topilgan mulklar;

3) talon-toroj qilish uchun tayyorlangan, hisobda bo'lmagan xomashyo, yarimfabrikatlar va tayyor mahsulotlar;

4) jinoiy bitim bilan aloqador bo'lgan turli yozuvlar;

5) tergov uchun kerakli bo'lgan talon-toroj jinoyati ishtirokchilarining uy manzillari, telefon raqamlari va boshqa ma'lumotlar;

6) turli hujjatlar va yorliqlarning toza blankalari;

7) tergovchini qiziqtirayotgan tashkilot va korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini ifoda etadigan buxgalteriya hujjatlari va boshqalar.

Qayd etilgan dastlabki tergov harakatlari va tashkiliy tadbirlarni bajarishda topilgan obyektlarning holati, qo'riqlanishi, hujjatlarning saqlanishi aniq va batafsil qayd etilishi juda muhim hisoblanadi.

Taftish va inventarizatsiya materiallari asosida qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha quyidagi dastlabki tergov harakatlari o'tkaziladi:

1) taftishchi va inventarizatsiya o'tkazgan shaxsni so'roq qilish;

2) dalolatnomada ko'rsatilgan shaxslarni so'roq qilish;

3) kamchilik borligini tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganish, taftish dalolatnomasi bilan birga, berilgan hujjatlarni olib qo'yish yoki ularning yo'qolmaslik chorasini ko'rish;

4) kamchilik uchun javobgar shaxsni so'roq qilish; ularni tintuv qilish;

5) ularning pul va mulkiga hibslar solish.

Jinoyat ustida ushlab. Tergovchi ichki ishlar organi xodimlari bilan birgalikda jinoyatchini jinoyat ustida ushlab, undan tegishli hujjat va predmetlarni oladi, ushlagan joyi va vaqtini belgilab qo'yadi. Talon-torojchi ko'p hollarda talon-toroj qilingan tovar mahsulotlarini sotishda,

ularni olib ketishda, ortiqcha xomashyodan mahsulot tayyorlashda, xomashyoni yashirincha olib ketishda ushlanadi. Jinoyatchini jinoyat ustida ushlashga puxta tayyorgarlik ko'rimog'i lozim: ushlash bo'yicha tuziladigan tezkor guruh tarkibini aniqlash, vazifalarini belgilab olish, ushlash vaqti va joyini aniqlash, to'satdan ushlashni ta'minlash, jinoiy guruhning barcha ishtirokchilarini bir vaqtda ushlash masalasini hal etish imkoniyati boricha ushlash tezkor guruhni zaruriy transport vositasi bilan ta'minlash lozim.

Ushlash vaqtida talon-toroj qilingan shaxsdan barcha o'g'irlangan mulklar, xomashyo, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulotlar, pullar, hujjatlar olib qo'yilishi zarur.

Talon-torojchini jinoyat ustida ushlash faktining o'zi unga ma'lum darajada psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning natijasida u o'zi sodir etgan jinoyat va uning ishtirokchilari to'g'risida noiloj to'g'ri ko'rsatuv berishi mumkin.

Shaxsiy tintuv talon-torojchi ushlangandan keyin darhol o'tkaziladi. Shaxsiy tintuvni o'tkazishdan maqsad ushlangandan ish bo'yicha dalil bo'la oladigan predmetlar va hujjatlarni olish hisoblanadi. Ba'zi vaqtlarda ushlangan shaxs o'zini fosh qiladigan predmetlar yoki hujjatlarni tishlab yuborishi yoki yo'q qilishga harakat qilishi mumkin. Shuning uchun, ushlangan shaxsni diqqat bilan kuzatish lozim bo'ladi, bunday harakatlar qilish sezilsa, darhol uning oldini olish chorasini ko'rish zarur.

Talon-torojchi shaxs ushlangandan keyin uning uyida va ish joyida tintuv o'tkazilishi zarur. Tintuv vaqtida topilgan va olingan mulklar hamda jinoiy yo'l bilan yig'ilgan mulk va qimmatliklar ish bo'yicha muhim dalil bo'lib hisoblanishi va keltirilgan moddiy zararni ta'minlash uchun zarur ham bo'lishi mumkin.

Xizmat binolarida, xonalarda tintuv o'tkazishda talon-torojchining puli, qimmatli buyumlari, xizmat bilan bog'liq bo'lgan turli hujjatlarni, ularning jinoiy operatsiyalari to'g'risidagi yozuvlarini qidirib topishga harakat qilish kerak. Bunday vaqtlarda xufiya joylarni qidirib topishga ham harakat qilish lozim.

Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda umumiy masalalardan tashqari mutaxassis sifatida tovarshunoslarni, hisobchilarni, kriminalistni jalb etish masalasini ham hal etish zarur bo'ladi.

Davlat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarini tergovini rejalashtirish

Davlat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari bo'yicha tushgan materiallarni tergovchi o'z yurituviga qabul qilar ekan, bevosita shu ishda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanib tergov harakatlarining boshlang'ich tayyorlash hamda tashkiliy choralarini o'tkazish rejasini tuzadi.

Tayyorlov bosqichi rejasi tergovchi tomonidan ishni ko'rgunga qadar tuziladi va quyidagilarni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi.

a) talon-toraj sodir bo'lgan joi, ya'ni muassasa, tashkilot yoki korxonaning ishlash sharoiti bilan tanishadi, shu bilan birgalikda, o'sha muassasa, tashkilot, korxonaga mahsulot bilan ta'minlab turadigan yoki shu korxonalarni tayyor mahsulotlari qaysi tashkilot orqali realizatsiya qilinganligi hisobga olinib, bu korxonalarining ishlash sharoiti bilan ham tanishadi;

b) o'sha tashkilot yoki korxonaning hisob-kitob hamda hujjat oboroti tizimini o'rganadi, shu bilan birgalikda ba'zi bir zveno, sex o'rtasidagi birgalashib qilinadigan harakatni aniqlaydi;

d) gumon qilinayotgan mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumotlar to'playdi, bu ma'lumotlar o'z ichiga gumon qilinayotgan shaxslarning yaqin aloqalari, tanish-bilishlari, yashash joylari, mulkiy ahvoli (avtomashinasi, qimmatbaho buyumlari, dachasi bor yoki yo'qligi) kabi faktorlarni o'z ichiga oladi;

e) jinoiy yo'l bilan talon-toraj qilingan mulk yashirilishi mumkin bo'lgan joy aniqlanadi.

Tashkiliy choralarini ko'rish bosqichi tergov harakatlarini boshlang'ich davrini to'g'ri tashkil qilishni ta'minlaydi, bu davr esa o'z mobaynida ish uchun zarur bo'lgan dalillarni to'plashda va ulardan unumli foydalanishda xizmat qiladi.

Tergovning boshlang'ich bosqichida bir qator tashkiliy chora-tadbirlar o'tkazish zarurati tug'iladi, bular inventarizatsiya, taftish va shunga o'xshash tekshirishlar hisoblanadi.

Inventarizatsiya va taftish materiallariga ko'ra dastlabki tergov harakatini boshlang'ich bosqichini o'tkazish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– tekshirish davomida kamomad yoki ortiqcha mahsulot chiqqanligi sabablari haqida mansabdor shaxs so'roq qilinadi;

– inventarizatsiyada ishtirok etgan taftishchilar va hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanadigan shaxslar so'roq qilinadi;

– jinoyat ishi uchun kerakli hujjatlar olinadi va ko'rib chiqiladi.

Shuning uchun ham davlat va jamoat mulkini talon-toraj qilish jinoyati yuzasidan muvaffaqiyatli tergov olib borishning shartlaridan biri tergovni rejalashtirish bo'lib hisoblanadi. Tergovni rejalashtirish tergov jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga katta yordam beradi, voqea holatini obyektiv, tez, to'la va har tomonlama o'rnatish, shuningdek jinoyatchini qidirish va uni fosh qilishda katta ahamiyatga egadir.

Bu ma'lumotlar protsessual hamda tezkor-qidiruv yo'li bilan to'plangan bo'lishi mumkin. Tezkor-qidiruv yo'li bilan to'plangan materiallar, ish bo'yicha dalil kuchiga ega emas. Lekin ulardan tergovchi rejalashtirish va taktik masalalarni hal qilishda foydalanishi mumkin.

Faktik ma'lumotlar majmuasining to'laligi va mazmuniga qarab, tergovchi tergov vazifalarini aniqlaydi, versiyalar tuzadi, ularning tekshirish yo'llari va usullarini belgilaydi.

Tergovning dastlabki vaqtida jinoyat izini o'zida saqlagan ma'lumotlar soni kam bo'ladi. Bu esa ishni rejalashtirishni qiyinlashtiradi, chunki tergovchi har bir yangi ochilgan holatdan keyin rejani ko'rib chiqishi va uni to'ldirib turishi lozim. Shuning uchun ham rejalashtirish uzluksiz davom etadigan jarayondir, u faqat tergov tugashi bilan tugaydi. Rejalashtirishda ikki asosiy qismni ajratish mumkin:

a) har bir bosqich uchun tergovchining maqsad va vazifalarini aniqlash;

b) bu vazifalarni hal qilishning ko'proq samarali usullarini va tergov olib borishning to'g'ri yo'nalishini tanlash.

Tergov yo'nalishini aniqlashda quyidagi asosiy holatlar hisobga olinishi kerak:

1. Avvalo dastlabki tergov harakatlari rejalashtiriladi, bu harakatlarning bajarilishi jinoyat izlari va boshqa dalillarni tez topish, jinoyatchini aniqlash va o'zlashtirilgan mulk yashirilgan joyni aniqlashga yordam beradi. Bunday tergov harakatlariga asosan hodisa joyini, hujjatlarni ko'zdan kechirish, guvohlarni so'roq qilish, tintuv, jinoyatchini qidirish kabi harakatlar kiradi. Tergovning keyingi bosqichida o'tkaziladigan harakatlarga – tanib olish uchun ko'rsatish – tergov eksperimenti, yuzlashtirish, so'roq qilish, ekspertiza tayinlash kabi harakatlar kiradi.

2. Rejalashtirish tergov harakatlarining sodir qilingan jinoyat xarakteri, gumon qilinuvchining shaxsi, uning ko'rsatuvlari, dalillarining mazmuni, ilmiy-texnik va boshqa vositalarni qo'llashda mutaxassislarni ishga jalb qilish kabilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3. Tergov olib borishning usul va yo'nalishini belgilashda, surishtiruv organlari xodimlariga qanday topshiriqlar berish kerakligini ilgaridan ko'zda tutmoq zarur. Bundan asosiy maqsad, dalillar manbaini topish, tezkor-qidiruv tadbir-choralarini muvofiqlashtirish ko'zda tutiladi.

Dastlabki va keyingi tergov harakatlarini o'tkazish

Hujjatlar talon-toroj jinoyatlarini terlashda muhim dalillardan biri hisoblanadi. Talon-toroj jinoyatlarini terlashda tergovchi hujjatlarni to'plash, ko'zdan kechirish va tekshirish ishlarini amalga oshiradi. Tergovchi mutaxassis-buxgalter yordamida muhrlangan hujjatlarni to'playdi, zarur hollarda me'yoriy hujjatlarni tegishli korxonalaridan talab qilib oladi. Tergovchi to'plagan barcha hujjatlarni diqqat bilan tahlil qiladi, ularni tekshirib chiqadi. Hujjatlarni tekshirish usullari uch turga bo'linadi:

- 1) ayrim hisob-kitob hujjatlarini tekshirish usuli;
- 2) bir-biri bilan o'zaro bog'liq operatsiyalarni ifoda etuvchi bir necha hujjatlarni tekshirish usuli;
- 3) bir turdagi xodimlarning harakatini ifoda etuvchi hujjatlarni tekshirish usuli.

Ayrim hisob-kitob buxgalteriya hujjatlari o'rnatilgan tartib bo'yicha tekshiriladi, ya'ni hujjatlarda barcha zaruriy rekvizitlarning borligi va ularda shubhali rekvizitlarning bor yoki yo'qligi aniqlanadi.

Hujjatlar forma bo'yicha tekshirib ko'rilgandan keyin arifmetik va normativ tekshiruvdan o'tkaziladi. Arifmetik tekshiruvda hujjatlardagi gorizantal va vertikal grafalarda chizilgan yozuvlar (raqamlar) solishtirib tekshiriladi. Normativ tekshiruvda esa hujjat mazmunining harakatdagi normativ aktlarga – instruksiyalar, nizomlar, qoidalar, xarajat, chiqim normalariga mos kelishi tekshiriladi.

Bir-biri bilan bog'liq o'zaro operatsiyalarni ifoda etuvchi bir necha hujjatlarni tekshirishda muqobil tekshiruv va o'zaro nazorat usullardan foydalaniladi.

Muqobil tekshiruv usulida bir turdagi hujjatlarning turli nusxalarini bir-biri bilan o'zaro solishtirib tekshirishdir. Bu nusxalar bir tashkilotning turli bo'limlaridan yoki bir necha tashkilotlardan olinishi mumkin.

O'zaro nazorat usulida bir turdagi operatsiyaning turli hujjatlarda ifoda etilishi solishtirib tekshiriladi. O'zaro nazorat usuli har bir xo'jalik operatsiyasining turli buxgalteriya hujjatlarida ifoda etilishiga asoslangan. Buxgalteriya hujjatlari boshqa turli-tuman boshqa hujjatlar bilan solishtirib ko'rilishi mumkin. Masalan, kortateka va omborlardagi jurnal yozuvlari bilan transport hujjatlari, mehnat daftarchalari, moddiy javobgar shaxsning yozuvlari va boshqalar.

Buxgalteriya hujjatlarini tekshirishning xususiy usullari ham mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatini bevosita ifoda etuvchi kirim-chiqim hujjatlaridagi ma'lumotlarni ushbu operatsiyani boshqa tarzda ifoda etuvchi hujjatlar-ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish;

2) moddiy-tovar boyliklarni olish va berish operatsiyasini ifoda etuvchi hujjatlardagi ma'lumotlarni birinchi operatsiya bilan o'zaro bog'liq bo'lgan boshqa operatsiyalarni ifoda etuvchi hujjat ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rish;

3) moddiy-tovar boyliklarning bir joydan boshqa joyga ko'chirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ular tashib o'tkazilgan taralar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish;

4) buxgalteriya hisoboti to'g'risidagi ma'lumotlarini tezkor uchyot ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rish;

5) nazorat kassa tasmaidagi ma'lumotlarni kassa cheklar ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rish;

6) pul mablag'lari va moddiy tovar boyliklarni berish to'g'risidagi pul vositalari va moddiy tovar boyliklarni yozish va berish uchun asos bo'lgan hujjatlardagi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish.

Bir turdagi qiymatlarning harakatini ifoda etuvchi hujjatlarni tekshirish usuli moddiy qiymatlar harakatining odatdagi tartibdan noto'g'ri chetga chiqib ketganligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bu usul yordamida hujjatlardagi dastlabki yozuvlar tiklanib, talon-toroj jinoyati sodir etilganlik fakti aniqlanadi. Ushbu usul quyidagi holatlarni aniqlashda qo'llaniladi:

1) buxgalteriya hisobi o'z holiga tashlab qo'yilgan, chalkashtirilgan bo'lsa;

2) buxgalteriya hisobi reestrlari tasodifan yoki qasddan yo'q qilingan bo'lsa;

3) dastlabki hujjatlar to'liq hajmda mavjud bo'lsa-da, tahliliy hisobdagi ishlarni qisqartirishni taqozo etmagan bo'lsa;

4) tahliliy hisob yetarli darajada detallashtirilmagan bo'lsa, mavjud suiiste'mollikni aniqlash uchun tahliliy hisob o'rniga miqdoriga oid va sortli hisobni tiklash zarur bo'lsa.

Hisob-kitob tiklangandan keyin moddiy qiymatlarning odatdagi aylanishdan chetga chiqib ketganligi aniqlanadi. Hisob yozuvlarini tiklash yoppasiga, tanlab o'tkaziladigan, to'liq va natura turlarga bo'linadi. Yoppasiga tiklashda ma'lum bir davr oralig'i ichida bajarilgan ma'lum moddiy qiymatlarning barcha nomlari bo'yicha tiklanadi. Tanlab o'tkaziladigan tiklashda esa ayrim hisob yozuvlari yoki ayrim qiymatlarning nomlari tiklanadi.

Hisob yozuvlarini to'liq va noto'liq hisobga olishning xususiy usullari to'g'risida yuqorida bayon etildi. Hisob yozuvlarini noto'la ravishda tiklash ham mavjud bo'lib, unga qoldiqlarni kontrol solishtirib ko'rish kiradi.

Qoldiqlarni nazorat tarzida solishtirib tekshirish usulining mohiyati shundan iboratki, bu usul orqali tekshirilayotgan ma'lum davr, vaqt oralig'ida inventarizatsiyaviy vedomostga bir xil turdagi tovarlardan qolgan qoldiqlar bilan tovarlarning harakatdagi bo'lgan miqdori tekshirilib ko'riladi.

Dastlabki tergovdagi so'roqqa muvofiq ravishda, kriminalistika taktikasi tavsiya etgan usullar asosida talon-toroj jinoyati bo'yicha so'roq qilishga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim.

So'roqqa tayyorlash jarayonida tergovni rejalashtirish lozim. Oldindan o'ylab tuzilgan reja asosida so'roqni olib borish uni to'g'ri tashkil etishga va tergovchi tomonidan boshqa holatlarni aniqlashga imkon beradi. Tergovni olib borish jarayonida tegishli ravishda guvohlarni guruhlariga ajratib olish zarur. Ular quyidagicha:

1. Talon-toroj jinoyati sodir bo'lgan tashkilot rahbarlari, buxgalterlar ham davlat mulki o'zlashtirilganiga ma'lum darajada aybdordirlar, ba'zan esa mansabdor shaxs bilan aloqador bo'lib chiqishi ham mumkin.

Shuning uchun ham tergovchi bunday guvohlarni so'roq qilishda nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak, chunki ular tergovni chalkashtirishi yoki yo'nalishni boshqa tarafa o'zgartirib yuborishlari mumkin.

2. Talon-toroj qilingan mulk bilan bevosita aloqador bo'lgan ishchilar. Bu ombor xodimlari, mulkni yuklash-tushirishda ishtirok etgan hamda ortiqcha mulk hosil qilinishini bilgan ishchilar bo'lishi mumkin. Bunday guvohlarning ko'rsatuvlari o'zlashtirish faktlarini, o'zlashtirilgan mulkning miqdori, jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilingan bo'lsa, ishtirokchilarning kimligini, ishtirokchilardan har birining jinoyatdagi rolini aniqlashga ma'lum darajada yordam beradi. Bunday guvohlarni so'roq qilish ko'pincha ijobiy natija beradi.

3. Talon-toroj qilingan mulkni tashishda yordam bergan shaxslar. Bular avtomashina shofyorlari, yukni olib borishda ishtirok etgan shaxslar, ya'ni ishchilar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ma'lum joyga yuk olib borgan, lekin marshrut yo'l varaqasida aks ettirilmagan bo'lsa shofyorlar guvoh tariqasida qatnashadilar.

4. Yuqori turuvchi tashkilot xodimlari, taftishchi va nazoratchilar.

Guvohlarni ko'rsatuv berish mazmuniga qarab yana uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhdagi guvohlar o'z xizmat mansabidan foydalanib talon-toroj ishlari yuzasidan bo'lgan faktlarni bo'rttirib ko'rsatishga

harakat qiladilar. Bular korxonalar, muassasalarning buxgalterlari, taftishchilari va rahbarlari bo'lishi mumkin. Ularni so'roq qilishda ko'rsatuvlarini aniqlashtirib, hujjatlarga asoslangan holda isbotlashlari va atroflicha tushuntirib berishlari talab qilinadi.

Ikkinchi guruh guvohlar aniqlangan kamomad, ortiqcha mahsulotlarni yashirib qolishga urinadilar. Shuning uchun ham ularning ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, hodisani to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Uchunchi guruh guvohlarga jinoyatni fosh etish zarur faktlar ma'lum bo'lsa ham bu haqida hech narsa bilmasliklarini pesh qiladilar. Aslida ular talon-toroj qilgan shaxslar bilan aloqada bo'ladilar. Bular shofyorlar, yuk tashuvchilar, qorovullar, oddiy sotuvchilar va boshqalardan iborat muhim guvohlar hisoblanadi.

Agar ish bo'yicha bir necha gumon ostidagi shaxslarni so'roq qilishga to'g'ri kelsa, tergovchi avvalo so'roqni kimdan boshlash masalasini to'g'ri hal qilish, ish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

So'roqni avvalo jinoyatning ikkinchi darajali ishtirokchilaridan boshlash zarur, bunday ishtirokchilar ko'pincha jinoyatga tasodifan qo'shib qolgan shaxslar bo'ladi va obyektiv ko'rsatuv berishga harakat qiladilar.

Talon-toroj jinoyatini tergov qilish bo'yicha ekspertizalar tayinlash.

Davlat va jamoat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarini tergovda turli-tuman masalalarni u yoki bu turdagi ekspertizalarni tayinlash orqali hal qilinadi. Talon-toroj jinoyatlarini tergov qilishda ko'pincha sud buxgalteriya, tovarshunoslik, kriminalistik, qurilish texnika, texnologik tayinlanadigan tayinlanadi.

Nazorat savollari:

1. Davlat mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarni kriminalistik tavsifi qanday? U qaysi elementlarni o'rganadi va kriminalistikaning boshqa bo'limlari bilan aloqasi qanday?

2. O'zgarlar mulkini talon-toroj qilish jinoyatini tergov qilishning taktik masalalari yuzasidan fikr bildiring. Muayyan bir jinoyat yuzasidan xususiy kriminalistik uslubiyot shakllantirishga harakat qilib ko'ring.

Kazuslar:

1-kazus

1. Tijorat bank raxbari Amonov F. fuqaro 1953-yilda tug'ilgan Jalolov B. bilan muassasa balansidan chiqarilishi rejalashtirilgan moddiy

qimmatliklarni oldindan til birlashtirib, moddiy boylik orttirish maqsadida rializatsiya qilib kelgan. Oxirgi amalga oshirilgan jinoyiy operatsiya bank muassasasiga tegishli "Nexia" rusumli avtotransport vositasini rializatsiya qilish bilan bog'liqligi aniqlandi. Unga ko'ra jinoyatchilar avtotransport vositasi tannarxini tushirish maqsadida undagi ayrim detallarni echib olib, yashirib qo'yishgan. Shundan so'ng, realizatsiya qilinayotgan obyekt rasmga tushirilib, auksionga qo'yilgan. Auksion natijalariga ko'ra fuqaro Jalolov B. "Nexia" rusumli avtotransport vositasini 5 000 000 so'mga sotib olgan. Olib qo'yilgan detallar o'z o'rniga qo'yilib, Sereli bozorida 5800 AQSH dollariga sotib yuborilgan.

Holatni kriminalistik tahlil eting. Jinoyatni isbotlash mexanizmi qay tarzda amalga oshirilishi lozim? Ayblanuvchilarni so'roq qilishda tergovchi qanday taktikadan foydalanishi zarur? Sizningcha, holat yuzasidan qanday tergov harakatlarini olib borish tergov ishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi?

2-kazus

Davlat korxonasi va Fayz holding o'rtasida mahsulot yetkazib berish to'g'risida shartnoma imzolandi. Davlat korxonasi mansabdor shaxsi "Fayz" xolding boshqaruvchisi bilan oldindan til birlashtirib sotib olinayotgan mebellar tannarxini yuqori ko'rsatgan va o'rtadagi farqni o'zaro bo'lishib olish bo'yicha kelishgan. Shartnoma 20 000 000 so'mga baholangan.

Holatni kriminalistik tahlil eting. Jinoyatni isbotlash mexanizmi qay tarzda amalga oshirilishi lozim? Ayblanuvchilarni so'roq qilishda tergovchi qanday taktikadan foydalanishi zarur? Sizningcha, holat yuzasidan qanday tergov harakatlarini olib borish tergov ishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi?

27-MAVZU: O'G'IRLIK, TALONCHILIK VA BOSQINCHILIK JINOYATLARINI TERGOV QILISH

O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi. O'g'irlik jinoyatlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar. O'g'irlik jinoyatlarini tergov qilish xususiyatlari. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilish xususiyatlari.

O'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

O'g'irlik jinoyati eng ko'p tarqalgan jinoyatlardan hisoblanib, mazkur jinoyatlarning bevosita obyektlari davlat, jamoat yoki fuqarolarning shaxsiy mulklari hisoblanadi.

Yodda saqlang!

O'g'irlik – davlat, jamoat va shaxsiy mulklarning yashirin ravishda o'zlashtirishdan iborat.

Talonchilik jinoyati deganda – jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan mulkni ochiqchasiga talash tushuniladi. Bu harakat o'zgarlar mulkimi ochiqdan ochiq zo'rlik ishlatib qo'rqitish yo'li sodir qilinadi.

Bosqinchilik jinoyati deyilganda esa jabrlanuvchining shaxsiy mulkimi uning sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish yo'li bilan qo'rqitib egallash tushuniladi.

Mulkka qarshi tajovuzlar orasida o'g'irliklar ayniqsa keng tarqalgan. O'z xususiyatiga ko'ra ular: kvartiradan, davlat va nodavlat obyektlari (do'konlar, mehmonxonalar, sanatoriylar va sh.k.)dan o'g'irliklar, kissavurlik, transport vositalarini o'g'irlash va boshq.

O'g'irlik jinoyati sodir etilgan joy va uning manzili jabrlanuvchi, mansabdor shaxslar, qorovul, guvoh, surishtiruv organ lari vakillari bergan ma'lumotlarda aniq ko'rsatilgan bo'ladi. O'g'irlik jinoyatining sodir etilishi vaqti, usuli va qanday texnikaviy vositalardan foydalanganligi voqea joyini ko'zdan kechirishda aniqlanadi, shuningdek o'g'irlik jinoyatini terlashda aniqlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar dastlabki tergov harakatlarini o'tkazish davrida aniqlanadi.

O'g'irlik jinoyat ishlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'g'irlik jinoyati haqiqatan ham sodir etilganligi;
- 2) o'g'irlik jinoyati sodir etilgan joy (korxonada, muassasa, tashkilotlarning aniq nomi va joylashgan joyi, jabrlanuvchining manzili), vaqti va qo'llangan usuli;
- 3) o'g'irlangan mulk kimga tegishli ekanligi (korxonada, muassasa, tashkilot yoki fuqarolar);
- 4) aniq nima o'g'irlanganligi, o'g'irlangan mulkning belgilari, uning soni va narxi;
- 5) o'g'irlik jinoyatini sodir etishda qanday texnika vositalaridan foydalanganligi;
- 6) o'g'irlik kimlar tomonidan sodir etilganligi, ishtirokchilar va ularning vazifalari;
- 7) o'g'irlangan mulk kimga berilgan yoki sotilganligi;
- 8) keltirilgan zarar miqdori;
- 9) o'g'irlik jinoyatining sodir etilishiga olib kelgan sabab va holatlar;
- 10) keltirilgan moddiy zararni qoplash uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi.

O'g'irlik jinoyatlarini tergov qilish xususiyatlari

O'g'irlikni tergov qilish hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan boshlanadi. U tergovchi, tezkor xodimlar, mutaxassis-kriminalist, xizmat-qidiruv itti va kinolog, ichki ishlar organlarining profilaktika inspektoridan iborat tergov-tezkor guruhi tomonidan amalga oshirilgan holda ayniqsa samarali bo'ladi.

Yodda saqlang! Tergovchi hodisa sodir bo'lgan joy haqida umumiy tasavvur hosil qilib, uni ko'zdan kechirish rejasini tuzgach, quyidagi masalalarni aniqlashi lozim:

- 1) o'g'irlik binoga qanday kirgan;
- 2) qaysi predmetlarga qo'l tekkizgan;
- 3) hodisa sodir bo'lgan joyda qanday izlar qoldirgan;
- 4) bu yerni hech kimga sezdirmasdan tark etgan bo'lishi mumkinmi;
- 5) u o'zi bilan yoki o'z kiyimi, poyafzalida nimani olib ketgan (o'g'irlangan buyumlar; bo'yoq, chang zarralari);
- 6) aybdorning kasb-kori, jismoniy xususiyatlari, binoda mo'ljal olishini ko'rsatuvchi belgilar aks etganmi. Jinoyatchilar necha kishi bo'lgani, ular qanday harakat qilgani, qimmatbaho buyumlar saqlanadigan joyni bilgan-bilmaganini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga kelgach, guruh a'zolari o'g'irlikni kim birinchi bo'lib aniqlagani, sharoitda qanday o'zgarishlar yuz bergani, ularning birortasi shubhali shaxslarni ko'rgan-ko'rmaganini aniqlash

uchun shohidlar bilan so'rov o'tkaziladi. Agar o'g'rilik darhol aniqlangan bo'lsa, tezkor xodimlar aybdorni "qaynoq izlari"dan qidirishni tashkil etadi.

Binoga kirish yoki saqlash joylari (metall shkaflar, seyflar), ayniqsa, sinchiklab tekshiriladi, chunki bu yerda barmoq, poyafzal izlari, qulfni buzish asboblari, kiyim tolalari, jinoyatchi tushirib qoldirgan narsalar (egov, iskana, oyna keskich va sh.k.) topilishi mumkin.

Oziq-ovqat do'konlari, dala hovlilari va omborlardan o'g'rilik sodir etilgan holda, jinoyatchilar iste'mol qilgan shokolad konfetlari, pishloq, olmada tish izlari qolgan bo'lishi mumkin. To'siqlarni buzayotib o'g'rilar tanasining biror joyini tilib olgan bo'lishi, shu sababli qon izlari topilishi mumkin.

Ko'zdan kechirish jarayonida o'g'irlangan tovarlarning yorliqlari, pasportlarini, o'xshash gazlama namunalari olib qo'yish kerak, chunki bu qidiruv tadbirlarini ancha yengillashtiradi. Ko'zdan kechirilayotgan obyektning tevarak atrofi ham tekshiriladi: bu yerda avtotransport g'ildiraklari, poyafzal izlari, jinoyat qurollari, o'g'irlangan mol-mulkning bir qismi topilishi mumkin.

Jabrlanuvchilar va moddiy javobgar shaxslarni so'roq qilish odatda ular voqea haqida qaysi holatlarda xabar topganini aniqlashdan boshlanadi. So'roq qilinuvchi yo'qolgan buyumlar va boyliklarni oxirgi marta qachon ko'rgani, ular yo'qolganini qachon aniqlagani, shuningdek o'g'irlangan mol-mulk qiymati va alohida belgilari aniqlanadi.

Kvartira o'g'riliklariga doir ishlar bo'yicha qo'shnilar orasida jabrlanuvchida pul va boyliklar mavjudligidan xabardor odam bor-yo'qligi, kvartirada begona shaxslardan oxirgi marta kim bo'lgani aniqlanadi. Agar so'roq qilinuvchi o'g'rilikni sodir etishi mumkin bo'lgan muayyan shaxslarni aytsa, bunday gumonlar uchun nima asos bo'lganini surishtirish kerak. Ushbu toifadagi ishlar bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari qatoriga guvohlarni so'roq qilish ham kiradi. Kvartira o'g'riliklarini tergov qilishda – bu jabrlanuvchining oila a'zolari va qarindoshlari. Ular o'g'irlangan buyumlarning alomatlariga aniqlik kiritadi. Deraza oldida yoki hovlidagi so'rida kunni kech qiladigan pensionerlar va qo'shnilarni so'roq qilish natijasida ham muhim ma'lumotlarni olish mumkin.

Davlat va jamoat mulkini o'g'irlashga doir ishlar bo'yicha qo'riqlash xizmati xodimlarini so'roq qilish zarur: ular o'sha payt qayerda bo'lgan, qo'riqlanayotgan obyekt yaqinida shubhali subyektlarga ko'zi tushmaganmi, bu qachon bo'lgan, ular nimasi bilan e'tiborni tortgan va h.k..

Agar jinoyatchilar o'g'rilikni sodir etish ustida yoki "qaynoq izlardan" borib ushlangan bo'lsa, eng avvalo gumon qilinuvchilarni shaxsiy tintuv qilish va guvohlantirish, ularning kiyimini ko'zdan kechirish, yashash joyida tintuv o'tkazish zarur. Ushbu tergov harakatlarini o'tkazish jarayonida o'g'irlangan pullar va buyumlargina emas, balki ularning o'ramlari, yorliqlari, jinoyat qurollari, binolarning tarxlari, jinoyatchilar kiyimi ham olib qo'yiladi. Tintuv o'tkazayotganda professional o'g'rilar odatda o'g'irlangan buyumlarni yashirish usullarini puxta ishlab chiqishlarini hisobga olish lozim. Shu sababli kvartiri bilan bir qatorda, barcha yordamchi xonalar, yerto'lalar, garajlar, qaznoqlarni ham tintuv qilish zarur.

Ushlangunga qadar o'g'rilar ba'zan bir nechta o'g'riliklar sodir etishga ulgurgan bo'ladi, tintuvda ushbu holatni hisobga olish zarur. Shu sababli nafaqat tergov qilinayotgan, balki ilgari sodir etilgan o'g'riliklarga tegishli buyumlar ham olib qo'yiladi. Tintuv chog'ida yaxshi niqoblangan xufyadonlarni topish uchun ta'sirchan asboblardan foydalanish lozim.

Gumon qilinuvchini guvohlantirish, uning kiyimini ko'zdan kechirish chog'ida jinoyat sodir etilgan joyda ilashgan chang, gilam tuki, bo'yoq va boshqa mikrozaralar topilishi mumkin. Ko'zdan kechirilgan kiyim va poyafzal ekspertizaga yuborish uchun olib qo'yilishi lozim.

Gumon qilinuvchini so'roq qilish odatda unda alibi bor-yo'qligini aniqlashdan boshlanadi. Agar so'roq qilinuvchi aybiga iqror bo'lmasdan, o'z alibisini bildirgan bo'lsa, uning boshqa joyda bo'lish tafsilotlari aniqlanadi. Jinoyatchini fosh qilish uchun o'g'rilik sodir etilgan joyda topilgan, tintuv va guvohlantirish chog'ida olib qo'yilgan ashyoviy dalillardan, shuningdek guvoh-shohidlar va boshqa guvohlarning bildirilgan alibini rad etuvchi ko'rsatuvlaridan foydalaniladi.

Agar gumon qilinuvchi o'z aybiga iqror bo'lgan bo'lsa, undan jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish tafsilotlarini, o'g'irlangan buyumlar va jinoyat qurollari yashirib qo'yilgan joyni, sheriklari mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash zarur.

O'g'rilikni tergov qilishda sud ekspertizalari muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha daktiloskopik, trasologik (qulfnii buzish, poyafzal, avtoshina izlari bo'yicha), mikroobyektlarni tekshirish bo'yicha ekspertizalar tayinlanadi.

Talochilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) talochilik yoki bosqinchilik jinoyatlari qachon, qayerda va qanday sharoitda va kimga nisbatan sodir etilganligi;
- 2) jinoyatning sodir etilishida nechuta shaxs shtirok etganligi, ularning umumiy va xususiy belgilari;
- 3) jinoyatchilar qurollangan bo'lsa, nimalar bilan qurollanganligi;
- 4) jinoyatni sodir etishda zo'rqlash ishlatilgan bo'lsa, u qanday hajmda ekanligi;
- 5) yetkazilgan tana jarohatining tavsifi va og'irlik darajasi;
- 6) jabrlanuvchiga yetkazilgan tana jarohatlari to'g'risidagi ko'rsatuvning guvoh bergan ma'lumotlar bilan taqqoslab ko'rish va uning tasdiqlanishi;
- 7) bosqinchilik natijasida jinoyatchilar qanday mulk yoki predmetlarni olganligi;
- 8) jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan sharoitlar;
- 9) jabrlanuvchida katta pul sum masi borligini bilgan shaxslarni aniqlash.

Talochilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilish xususiyatlari

Talochilik va bosqinchilik jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari xususiyati jinoyat ishi gumon qilinuvchining ushlanishi yoki jinoyat sodir etilishi fakti bo'yicha qo'zg'atilganiga bog'liq bo'ladi. Ikkala holda ham tergovni jabrlanuvchini so'roq qilish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchini guvohlantirish va so'roq qilish, jabrlanuvchining sud-tibbiyot ekspertizasini tayinlash, guvoh-shohidlarni so'roq qilish (agar ular bo'lsa)dan boshlagan ma'qul.

Jabrlanuvchini so'roq qilishda talochilik yoki bosqinchilik hujumi uning uchun stress vaziyati hisoblanishini e'tiborga olish zarur. Shu bois jabrlanuvchi jinoyatchilarning tashqi ko'rinishi belgilarini va tergov uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa holatlarni doim ham eslab qolavermaydi.

Jinoyat haqida jabrlanuvchi odatda voqeadan keyin darhol arz qiladi, shu sababli so'roq paytida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'ladi, olingan tan jarohatlaridan azob chekadi. So'roqdan oldin jabrlanuvchiga o'ziga kelib olish, hujumning barcha holatlarini xotirasida tiklash uchun vaqt berish zarur.

Hujum qilganlarning tashqi ko'rinishi, kiyimi, qadam tashlashi, nutqining nuqsonlarini ayniqsa batafsil aniqlash zarur. Quyidagi masalalar ham muhim ahamiyatga ega: jabrlanuvchi qanday qarshilik ko'rsatgan; hujum qilganlarda qanday jarohatlar qolgan bo'lishi mumkin; jabrlanuvchining tanasi va kiyimida jinoyatchilarning qon izlari bormi; ularning har biri qanday rol ni bajargan.

Jabrlanuvchini so'roq qilgandan keyin, ba'zan undan oldin (agar, masalan, jabrlanuvchi kasalxonada bo'lsa) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Ushbu tergov harakati taktikasi o'g'rilikka doir ishlar bo'yicha ko'zdan kechirish taktikasi bilan o'xshash. Asosiy farq shundan iboratki, talonchilik va bosqinchilik hujumlarida jinoyat shohidi – jabrlanuvchi mavjud bo'ladi. Ko'zdan kechirishni uning ishtirokida o'tkazgan ma'qul. Jabrlanuvchi o'ziga hujum qilingan joyda bergan tushuntirishlar o'q, sigaret qoldiqlari, jinoyatchilarning barmoq va poyafzal izlarini topish, hidli izlarni olishni osonlashtiradi.

Olishuv joyi, ayniqsa, sinchiklab tekshiriladi. Bu yerda qon, oyoq izlari, uzilgan tugmalar, qo'lqoplar, yirtilgan kiyim bo'laklari va boshqa narsalar – ashyoviy dalillar topilishi mumkin. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida ba'zan talonchilik yoki bosqinchilik hujumi inssenirovka xususiyatiga ega ekanligini taxmin qilish imkonini beradigan salbiy holatlar aniqlanadi.

Jabrlanuvchini guvohlantirish yaxshi yoritilgan xonada kuchli lupalar yordamida o'tkaziladi. So'ng ko'zdan kechirilgan kiyim yuza tomoni ichkariga qaratib taxlanishi, o'ramga joylanishi va mikrozaralar ekspertizasiga yuborilishi lozim. Guvohlantirishni o'tkazish jarayonida olingan jarohatlar xususiyati qayd etiladi; ular, shuningdek kiyimda topilgan yirtilishlar masshtabli fotosyomka qoidariga binoan fotosuratga tushirilishi shart.

Gumon qilinuvchini **ushlash** va **shaxsiy tintuv** talonchilik yoki bosqinchilik sodir etishda aybdor shaxslar ko'pincha qurollangan bo'lishini hisobga olgan holda o'tkazilishi lozim. Shu sababli ushlashni II O'lar xodimlariga topshirgan ma'qul. Ushlanganga nisbatan shaxsiy tintuv qurolni, shuningdek jabrlanuvchini qo'rqitish yoki do'pposlash uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan boshqa narsalarni va o'g'irlangan buyumlarni olib qo'yish uchun darhol o'tkazilishi lozim. So'ng gumon qilinuvchining kiyimini ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Unda jabrlanuvchining kiyimidan ilashgan tolalar, hodisa sodir bo'lgan joydagi tuproq zarralari, olishuv izlari qidiriladi. Gumon qilinuvchini guvohlantirish chog'ida uning tirnoqlari ostidagi kir olinadi, qo'llari va tanasining boshqa qismlarida mavjud tish izlari va tiralishlar qayd etiladi. Zarur holda sud-tibbiyot ekspertisasi tayinlanadi.

Gumon qilinuvchini so'roq qilish. Tergov amaliyotiga talonchilik yoki bosqinchilik hujumini jinoyatchilar o'z ish joyini ma'lum vaqtga tashlab ketib yoki ancha ishonchli alibini yaratib sodir etgan hollar ma'lum. Bu gumon qilinuvchini fosh etishni qiyinlashtiradi, uni so'roq

qilishga puxta tayyorgarlik ko'rishni, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish chog'ida qo'lga kiritilgan ashyoviy dalillarni ko'rsatish rejasini tuzishni talab etadi.

Agar gumon qilinuvchi talonchilik yoki bosqinchilik sodir etganiga iqror bo'lsa, undan qilmishning barcha holatlarini surishtirish lozim. Bunday gumon qilinuvchi bilan birga tekshiruvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish ko'rsatuvlarni videoyozuv vositasida qayd etish yo'li bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ba'zan bosqinchilik sodir etishda ayblanuvchilar jabrlanuvchiga nisbatan ishlatilgan zo'rlikni kamaytirish ko'rsatishga harakat qiladi, uni do'pposlaganini inkor etadi, qurol o'rniga uning maketini qo'llagani yoki umuman qurolsiz harakat qilganini ta'kidlaydi, ya'ni jinoyatni sodir etish holatlarini talonchilik sifatida ko'rsatishga harakat qiladi.

Talonchilik va bosqinchilik hujumlarini tergov qilishda, ayniqsa, faol qo'llaniladigan tergov harakati tanib olish uchun ko'rsatish hisoblanadi. U jabrlanuvchi yoki guvoh-shohidlar jinoyatchining tashqi ko'rinishini eslab qolgan va uni tanib olishi mumkin bo'lgan yoki hujum sodir etilgan joyda gumon qilinuvchiga tegishli narsalar topilgan holda o'tkazilishi lozim.

Bosqinchilik to'g'risidagi ishlar bo'yicha ko'pincha jabrlanuvchi yoki gumon qilinuvchining sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanadi. Tan jarohatlarining mavjudligi, xususiyati va og'irlik darajasi, ular qachon yetkazilgani va hokazolar aniqlanadi. Ushbu toifadagi ishlar bo'yicha sovuq qurol ekspertizasi ancha keng tarqalgan. Unda pichoq, kastet va hujum qilishda foydalanilgan boshqa predmetlarning sovuq qurolga mansubligi masalasi hal qilinadi.

Agar bosqinchi o'qotar qurol ishlatgan va u jinoyatchidan olib qo'yilgan, ishga o'qlar yoki gilzalar qo'shib qo'yilgan bo'lsa, sud-ballistik ekspertizasi tayinlanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyda poyafzal yoki transport vositalarining izlari topilgan holda trasologik ekspertiza tayinlanadi. Ayrim hollarda tovarshunoslik va daktiloskopik ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. O'g'irlik jinoyat ishlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar nimalardan iborat? Uni mazkur turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifidan farqi nima?

2. Talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilishda qaysi harakatlarini o'tkazilishi jinoyatlarni tez ochilishiga xizmat qiladi?

Kazuslar

1-kazus

2015-yil 13-may kuni XXX tijorat bank rahbari Amonov F. ga qarashli davlat raqami S 256 FV bo'lgan, oq rangli, "Nexia" rusumli avtotransport vositasini o'g'irlab ketilgan. Tezkor qidiruv tadbirlari natijasida gumon qilinuvchi fuqaro Zaynievni muqaddam avtotransport vositalarini o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganligi aniqlangan. 2015-yil 16-may kuni Zangiota tuman postidan 3 km narida, O'zbekiston 2-tor ko'chasi yonida "Nexia" rusumiga tegishli oq kuzov ichki jihozlari to'liq yechib olingan holda topilgan.

Holatni kriminalistik tahlil eting. Jinoyatchilarni aniqlash va ashyoviy dalillarni topish uchun qanday tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish lozim? Gumon qilinuvchini so'roq qilishda tergovchi qanday taktikadan foydalanishi zarur? Holat yuzasidan qanday tergov rejasi tuziladi va versiyalar yuritiladi?

2-kazus

2014-yil 5-mart kuni Toshkent shahar Yunusobod tumani 6 kvartal 34-uy 24-xonadonda o'g'rilik jinoyati sodir etilgan. Xonadon egasining xabariga ko'ra ushbu holat yuzasidan Yunusobod tumani IIB tergovchilari tomonidan dastlabki tergov harakatlari olib borildi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish chog'ida barmoq izlari, poyabzal izlari, topiladi va daliliy ashyolar sifatida olinadi. Dastlabki tergov chog'ida to'plangan dalillar jinoyatchi shaxsini aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi.

Holatni kriminalistik tahlil eting. Jinoyatchilarni aniqlash va ashyoviy dalillarni topish uchun qanday tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish lozim? Holat yuzasidan qanday tergov rejasi tuziladi va versiyalar yuritiladi?

Odam savdosi jinoyatini kriminalistik tavsifi va aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar. Odam savdosi jinoyatining keyingi bosqichlarini rejalashtirish. Tergov harakatlarini o'tkazishning o'ziga xos jihatlari.

Odam savdosi jinoyatini kriminalistik tavsifi va aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar

Odam savdosi jinoyati qadimiy jinoyatlardan biri hisoblanadi. Tergov va sud amaliyotida mazkur turdagi jinoyatlarni yakka shaxslar yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi kuzatiladi. Yakka shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar odatda shaxsni o'z bolasini yoki nevarasini sotishi ko'rinishida bo'ladi. Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlar esa doimiy tusga ega bo'lib, ular o'z yo'nalishiga ega.

Uyushgan guruh faoliyatida har bir a'zo o'ziga birlashtirilgan yo'nalish uchun javob beradi va uning mavqei shu faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu shaxslar o'z faoliyatlarini ma'lum bir ketma ketlikda va ma'lum bir tizimli vaqtda amalga oshirishadi. Har bir guruh a'zosi o'z faoliyati bilan takror va takror shug'ullanishi natijasida o'z yo'nalishini moxir ustasiga aynaib boradi, natijada ushbu shaxs jinoyatini aniqlash murakkablashadi. Agarda jinoyatchilar faoliyat yuritayotgan yo'nalish aniqlansa, unda guruhning boshqa vakillariga chiqish imkoni yuzaga keladi. Ularning faoliyat doirasi, vaqti, joyi haqida ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu hol o'z navbatida, jinoyatchilarni aniqlash va ushlarida tezkor choralarni ko'rish va tezkor qidiruv harakatlarini to'g'ri va vaqtida amalga oshirishga imkon beradi.

Mazkur turdagi jinoyatlar odatda yakka va ushyugan guruh tomonidan sodir etiladi. Jinoiy tajovvuz obyekti bo'lib shaxsning sog'lig'i, hayoti va erkinligi hisoblanadi.

Odam savdosi yo'nalishi quyidagi muhim elementlardan iborat:

1) Inson erkinligini cheklashga qaratilgan noqonuniy shartnomalar tuzish. Bir maqsadga yo'naltirilgan va yagona daromad manbaiga ega bo'lgan shaxslarni taraflar yoki kontragentlar deb atash mumkin. Bu shamoma orqali taraflardan biri shaxsni sotib olishni maqsad qilib olgan bo'lsa, ikkinchi tomon shaxsni sotishni va daromad topishni ko'zlaydi. Shartnoma kontragentlari sifatida ikki yoki undan ortiq uyushgan guruh a'zolari yoki jinoiy uyushma vakillari faoliyat ko'rsatishadi. Amaliyotdan

olingan tahliliymateriallarga ko'ra mazkur turdagi jinoyatlar aksariyat holatlarda jinoiy guruhlar tomonidan sodir etiladi. Bu holat bir biriga tanish va ishonchli shaxslar bilan faoliyat yuritish har tomonlama samarali ekanligidan dalolat beradi.

2) Odam savdosini amalga oshirish va ularni yashirish. Bu yo'nalishdagi jinoyatchilar jinoyat sodir etish bilan birga uni yashirish choralari ko'rishadi. Ular "tozalovchilar" deb nomlanadi. Ularning asosiy vazifasi xavfsizlikni ta'minlash, jinoyat izlarini yashirish va yangi odam savdosi qurbonlarini qidirishdan iborat.

3) Odam savdosi qurbonlarini muayyan yo'nalish orqali manzilga yetkazish. Jinoyatchilar aksariyat hollarda o'z qurbonlarini chegara hududlardan boshqa davlat hududiga olib o'tadilar. Bunda ikkinchi davlat hududi tranzit vazifasini o'taydi.

Tergov amaliyoti materiallariga ko'ra odam savdosi jinoyati bo'yicha ochilgan jinoyatlarning 11% ikki epizodli, 44% ikkidan beshtagacha epizodda sodir etilgan, 45% beshtadan ko'p epizodli jinoyatlar ekanligi aniqlangan.

E'tibor qarating! Odam savdosi jinoyati tizimlashgan va tizimlashtirilmagan ko'rinishda sodir etildi.

Tizimlashtirilgan ko'rinishi quyidagi bosqilarda sodir etilishi mumkin:

1-bosqich – jabrlanuvchilarni qiziqtirish (jalb qilish, o'g'irlash), ularni bir joydan ikkinchi bir joyga olib o'tish va kontragentlarga sotish
2- va 3-bosqichlar bilan birga amalga oshiriladi;

2-bosqich – odam savdosi jinoyatida vositachilik qilishdan iborat. Bunda jabrlanuvchilarni jinoiy uyushmalardan sotib olish va uni yuqoriroq summaga sotish maqsad qilinadi. Ushbu bosqich ba'zi jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshirilmaydi;

3-bosqich – kontragentlardan odam savdosi qurbonini sotib olishni va uni ekspluatatsiya qilishni tashkil qilish bosqichi.

Tizimlashtirilmagan odam savdosi quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1-bosqich – jabrlanuvchini odam savdosi jinoyatiga jalb qilish, uni qiziqtirish, o'g'irlash;

2-bosqich – jabrlanuvchilarni ekspluatatsiya joyiga olib borish;

3-bosqich – bevosita jabrlanuvchi ekspluatatsiya qilish jarayonidan iborat.

Odam savdosi jinoyatini sodir etish usullarini biz quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1-bosqich – odam savdosi jinoyatini sodir etish maqsadida jinoyat jabrlanuvchilarini qidirib topish.

– jabrlanuvchilarni do'stlar yoki tanishlar orqali qidirib topish (17,7% holatlarda yuzaga keladi);

– jabrlanuvchilarni ko'chalarda, diskotekalarda, fohishaxonada, barlarda va boshqa tashkilotlarda uchrashib qolish natijasida (ushbu usuldan 11.1% holatlarda foydalaniladi);

– reklama e'lonlari orqali ommaviy nashrlarga jurnallar, gazetalar, televideniya internet orqali aldov yo'li bilan ma'lumotlar tarqatish (71,1% holatlarda);

– ishsizlarni pulga muhtojlagidan foydalanib, ularni mehnat birjalaridan qidirib topish orqali; jabrlanuvchilarni ma'lum bir ijtimoiy guruhlardan, ma'lum bir faoliyat yo'nalishi bilan shug'ullanuvchilar ichidan qidirish. Masalan, fohishalik bilan shug'ullanadigan ayollar ichidan jabrlanuvchilarni topishga harakat qilish yoki shifoxonalardan insonlarning ma'lum bir organi xususiyatlari qon guruhi to'g'ri kelishi haqida ma'lumot olish maqsadida, yosh bolalarni bolalar uyidan, yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'lsa, ulardan ota-onasi voz kechganlarini qidirish maqsadida tug'ruqxonalaridan, agarda ma'lum bir tana a'zolarini yo'qotganlari bo'lsa, ulardan sadaqa so'roqchilar sifatida foydalanish maqsadida. Ushbu usuldan 11,1% holatlarda foydalanishadi.

Esda tuting! Odam savdosi jinoyati bilan shug'ullanuvchi jinoyatchilar shaxsini ochiq va yopiq (cheklangan doirada) harakat qiluvchilarga bo'lish mumkin.

Odam savdosi jinoyatini ochiq shakli – reklamalar berish, ko'chalarda insonlarni qiziqtirish orqali sodir etiladi. Jinoyatni yashirish maqsadida guruhlar o'z jinoiy faoliyatini qonuniylashtirishga, mavjud kamchiliklarni ko'rsatmaslikka, shart-sharoitni yuqori darajada namoyish etishga, yengil boyish yo'llarini ko'rsatishga urinishadi.

Odam savdosi jinoyatining ochiq ko'rinishi o'ziga xos xususiyatga ega. Mazkur xususiyat jabrlanuvchilar va mijozlarni qidirish topish, jabrlanuvchilar xotirasida sodir etilgan jinoyat va uning ishtirokchilari haqida qolishi bilan xarakterlanadi. Jinoyat ishlarini ta'lim qilish natijasiga ko'ra 95,5% hollarda mazkur jinoyatlar ochiq holda sodir etiladi. Jinoyatchilar o'z harakatlariga xo'jako'rsinga qonuniy tus berib, jinoyatni sahnalashtirishadi.

E'tibor qarating! Yopiq usuldagi odam savdosi jinoyati sodir etilganda jabrlanuvchilar reklamasiz, qiziqtirishlarsiz, hattoki jabrlanuvchilarning o'zlari bilmagan va payqamagan holda amalga oshiriladi.

Bunda jinoyatchilar davolash muassasalaridan o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topadilar. Yoki ish bilan ta'minlanmagan va pulga muxtoj insonlar ro'yxati ish bilan ta'minlash agentlikliklaridan olinib, ular bilan muloqot bog'lashga, chet elda kam ishlab katta pul topish imkoni borligi haqida ma'lumot yetkazishga harakat qilinadi. Mazkur usulda sodir etilgan odam sadosi jinoyatlarida jabrlanuvchilar jinoyatning tashkilotchilari yoki ijrochilari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Shuningdek, odam savdosining bu usuli ko'p hollarda zo'rlik ishlatish bilan sodir etiladi. Tahlil etilgan jinoyat ishlari natijasiga ko'ra yopiq usulda jinoyatini sodir etish 4,5% hollarda kuzatildi.

2-bosqich. Jabrlanuvchini ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishga majbur qilish yoki uni odam savdosi jinoyatiga jalb qilish maqsadida zo'rlik ishlatib erkinligini cheklash.

Bunda jinoiy guruh vakillari aldash yoki zo'rlik ishlatish usullaridan foydalanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun jinoyatchilar quyidagi harakatlar amalga oshiradilar: jabrlanuvchining kuch ishlatish yo'li bilan yoki boshqa yo'llar orqali o'g'irlanishi va nazoratdagi hududda saqlanishi, shu jumladan psixotrop moddalardan foydalangan holda jinoyatni amalga oshirish; katta daromadlarni vada bergan holda noqonuniy harkatlar bilan shug'ullanishga qiziqtirish.

3-bosqich. Kontragentlar va odam savdosi jinoyatini amalga oshiruvchilar o'rtasida mulkiy xarakterga ega bo'lgan nazorat qilinuvchi shaxslarga nisbatan shartnomalarni amalga oshirish.

Kontragentlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: do'stlar va tanishlar orqali jinoyatni amalga oshirish; internet tarmog'i orqali ma'lumotlarni tarqatish; ish topib berish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlardan ishga va daromad topishga juda muxtoj shaxslar haqida ma'lumot olish orqali; odamlarni majburiy mehnatga jalb qiluvchilar tomonidan, masalan, fohishaxona saqlovchilar tomonidan doimiy tegishli shaxslarni topib beruvchilar tomonidan; tibbiy muassasalar vakillari tomonidan transplantatsiya qiluvchi shaxslardan tegishli shaxslar haqida ma'lumotlarni olishga qartilgan tizimni ishga tushirilganligi; jinoiy guruhlar, uyushmalar tomonidan, u yoki bu jinoyat turlari bilan shug'ullanuvchilar tomonidan odam savdosi bilan bog'liq

faoliyatni amalga oshirish tizimining yaratilganligi, masalan, tilanchilik qiluvchilar tizimining shakllantirilganligi.

4-bosqich. Jabrlanuvchilarni belgilangan joyga ko'chirish va ularni kontragentlarga topshirish.

Ushbu bosqich quyidagi ketma-ketlikdagi harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi: jabrlanuvchilarni muayyan ishlarni amalga oshirish joyidan ekspluatatsiya qilish joyiga olib borish; jabrlanuvchilarni bir yoki bir necha tranzit mamlakatlar hududidan olib o'tish. Bundan quyidagi maqsadlar ko'zlanishi mumkin: a) jabrlanuvchilarni olib o'tish yo'nalishlarini yashirish. Bunda jabrlanuvchilarni yoki jinoyatni yashirish maqsadida qo'shimcha hududlardan foydalanish holatlari ham uchraydi; b) jabrlanuvchilarni belgilangan miqdorga etishishini kutish va ularni birgalikda belgilangan joyga yuborish; d) tranzit mamlakatlar hududida jabrlanuvchilarni vaqtinchalik ishlar bilan band qilish; e) jabrlanuvchilarni tranzit davlatlar hududida olib sotish; f) jinoyatchilar faoliyati aniqlanganda jabrlanuvchilarni belgilangan hududan olib chiqib ketish.

Odam savdosi jinoyatini amalga oshiruvchi shaxslarning jabrlanuvchilarni bir joydan ikkinchi bir joyga olib o'tish faoliyati shakllari: jabrlanuvchilarning o'zlari tomonidan odam savdosi jinoyatini amalga oshiruvchilar bilan kelishgan holda va jinoyatchilarni mablag'lari evaziga oldindan kelishilgan holda belgilangan joyga etib borishi. Bunda jabrlanuvchilarning o'zi qonuniy yo'l bilan, tegishli qonuniy hujjatlar bilan belgilangan joyga etib boradi; jabrlanuvchilarning o'z mablag'lari hisobiga kurersiz belgilangan joyga etib borishi; ixtiyoriy kurer hamrohligida belgilangan joyga etib borish; majburiy jabrlanuvchilarni ma'lum bir hududlarga erkinligini cheklab olib o'tish.

Ko'p hollarda jabrlanuvchilar tegishli chegaralardan o'tish uchun hujjatlar bilan ta'minlanadi. Ushbu hujjatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: fuqarolik pasporti; boshqa davlatga taklif qilinganlikni bildiruvchi taklifnoma, viza, yo'l cheklari, tibbiy, sug'urta hujjatlari va boshqalar.

Ushbu hujjatlar rasmiy va qonuniy ravishda yuritilishi bois amalga oshirilayotgan harkatlar orasida jinoyatni aniqlash imkoni cheklanlanadi. Ayrim hollarda hujjatlar qalbakilashtirilishi mumkin.

5-bosqich. Jabrlanuvchilarning qarshilik ko'rsatishini oldini olish va nazorat qilib turish tizimini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi masalalarni hal qilish maqsadida odam sadosi jinoyatini sodir etuvchilar quyidagi harakatlarni amalga oshirishadi:

1) Jabrlanuvchilarga yolg'on ma'lumotlar berish. Bundan tashqari faoliyat turi haqida to'g'ri ma'lumot berilsada, haqiqiy ishlash holati, hajmi, ayrim mashaqqatlari, ishlash tartibini tartibga solinmagani, xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasligi, og'ir sharoitlarda ishlash, tinimsiz ishlash tizimining mavjudligi. Bunda jabrlanuvchi ishning og'irligini haqida tasavvurga ega bo'lsa-da, ishning mashaqqatiga haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Ishlash sharoiti kutilganidek bo'lsa-da, unga haq to'lash talabga javob bermaydi.

2) Jabrlanuvchilar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarini olib qo'yish. Bu orqali ularni xorijiy mamlakatda erkin harakatlanishini huquqi cheklanadi.

3) Psixologik ta'sir ko'rsatish. Bunda jabrlanuvchilarga yoki ularning yaqin qarindoshlariga, mulkiga zarar yetkazish qo'rqitaladi. Qo'rqitish jabrlanuvchiga taalluqli biror sirni oshkor qilish bilan amalga oshirilishi mumkin.

4) Jismoniy zo'rlik ishlatish, urish, do'pposlash, qiynash ko'rinishida bo'lishi mumkin.

5) Jabrlanuvchini doimiy qaram (qarzdor qilish) holatiga solib qo'yish.

6) Jabrlanuvchilarni tashqi muhitdan ajralgan joylarda saqlash orqali amalga oshiriladi.

6-bosqich. Jabrlanuvchilarini ekspluatatsiya qilish. Ekspluatatsiya qilishning quyidagi turlari mavjud: seksual xarakterdagi ekspluatatsiya; sohasida ishlashga qaratilgan ekspluatatsiya. Ushbu holat jabrlanuvchining mehnatidan moddiy boyliklarni yaratish maqsadida foydalanishda ifodalanadi; tilanchilik; inson tana yoki ichki a'zolarini olish maqsadida.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sobiq Sovet Ittifoqi hududida ayollarni taklif qiluvchi, pochta orqali ish olib boruvchi "nikoh agentliklari" uyushgan jinoiy guruhlar nazorati ostida bo'lgan. Bu agentliklarning ko'pi Internet orqali ish ko'radi. Yollovchilar "nikoh agentliklari" dan sayohat qilishni yoki muhojirlikda bo'lish istagida yosh juvonlarni izlab topish vositasi sifatida foydalanadilar. Shahvoniy xizmatlar ko'rsatishga oid noqonuniy faoliyat bir necha shakllarda namoyon bo'ladi. Yollovchilar bunda, vositachilar yoki yordamchilar ko'magidan foydalanishi ham mumkin. Odatda, yollovchilarning o'zi ayoldan birmuncha vaqt foydalanadi, keyin esa uni turli pornografik harakatlarga majburlaydi va oxir-oqibatda qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga sotib yuboradi yoki ayolni bevosita fohishaxonaga topshiradi.

Ayollarni yollashda eng keng tarqalgan usullardan yana biri – bu ularning ishonchini qozongan do'stlari va tanishlari orqali yollashdir. Bunday holat “ikkinchi to'liq” deb nomlanib, unda O'zbekiston hududidan olib ketilgan ayollar uylariga boshqa ayollarni yollash uchun qaytariladilar. Ayollar boshqa davlatga olib chiqib ketilgan vaqtdan boshlab shahvoniy maqsadlarda ekspluatatsiya qilinadi. Majburiy turdagi shahvoniy xizmat ko'rsatish bu shaxsni o'zi hoxlamagan holda jinoyat jabrlanuvchisiga aylanishiga olib keladi.

Yollash usullaridan qat'i nazar, yollangan ayollarning aksariyati shahvoniy ekspluatatsiya va majburlanishga duch kelish haqida umuman bilmaydi. Ayol belgilangan mamlakatga etib borganidan so'ng “odam savdogarlari” yoki “qo'shmachilar” unga ofitsiantka, enaga yoki avval taklif etilganidek biron-bir kasb egasi sifatida ishlamasligini, balki fojihalik bilan shug'ullanishi to'g'risida ma'lum qiladilar.

Esda tuting! Odam savdosi jinoyati yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar:

- odam savdosi jinoyatining sodir etilganlik fakti;
- odam savdosi jinoyatini kim tomonidan sodir etilganligi;
- jinoyatchining shaxsi va shaxsiy xususiyatlari;
- jinoyat uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, guruh tarkibi, ishtirokchilar, ularning vazifalari, qaysi jinoiy guruhlar bilan aloqasi borligi;
- orttirilgan jinoiy daromadlarning taqsimlanish tartibi;
- ayollar, qizlar, voyaga yetmaganlar va erkaklarning sotilish baxosi;
- sotib oluvchilarning kimligi, qayerdan ekanligi va millati;
- jabrlanuvchining shaxsi va shaxsiy xususiyatlari;
- jinoyatni sodir etish usuli;
- jabrlanuvchining jinsi, yoshi va shaxsiga oid ma'lumotlar;
- ko'rilgan jismoniy va ma'naviy zarar miqdori;
- jabrlanuvchini qanday ishga jalb qilinganligi;
- jabrlanuvchini qaysi davlatga sotib yuborilganligi;
- jabrlanuvchini kim kutib olgani va qanday sharoitda ekspluatatsiya qilingani;
- jabrlanuvchi voyaga yetmagan bo'lsa, uning yaqin qarindoshlari;

Odam savdosi jinoyatining keyingi bosqichlarini rejalashtirish

Odam savdosi jinoyatining keyingi bosqichlarini rejalashtirish va tipik vaziyatlarni shakllantirish mazkur jinoyatlarni tergov qilishning navbatdagi bosqichi hisoblanadi.

Ushbu bosqichda hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1) tergovning dastlabki bosqichida yo'l qo'yilgan surishtiruv va tergov xato-kamchiliklarini bartaraf etish;

2) O'zR JPK 82-moddasida ko'zda tutilgan ayblash va hukm qilish uchun isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni to'la-to'kis aniqlash maqsadida to'plangan dalillar tizimidagi bo'shliqlarni to'ldirish hamda isbotlovchi dalil ahamiyatidagi qo'shimcha axborot manbalarini izlash;

3) hayoti, sog'lig'i yoki mulkiga xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan guvohlar va jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish;

4) jinoiy faoliyat natijasida qo'lga kiritilgan mulkni qidirish va uni xatlash;

5) ish bo'yicha taqdim etilgan fuqaroviy da'volarni ta'minlash;

6) tergov qilinayotgan hodisa bilan bog'liq jinoiy faoliyatning muqaddam ma'lum bo'lmagan epizodlarini, shuningdek, jinoyatga daxldor bo'lgan boshqa shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan O'zR JPKda belgilangan tegishli protsessual qarorlarni qabul qilish;

7) tergovdan yashiringan yoki turar manzili aniqlanmagan ayblanuvchilarga nisbatan jinoyat ishini alohida ajratish hamda qidiruv e'lon qilish;

8) O'zR JPK 14-bo'limida (jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik) belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududi chegaralaridan tashqarida bo'lgan ayblanuvchilarni ekstraditsiya qilish;

9) jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratgan holatlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.

Isbotlash vazifalarini hal qilish va jinoyat sud ish yurituvini to'g'ri amalga oshirish vazifalarini hal qilishda himoya tomoni tasmollarni o'rganish va baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayblanuvchilarning tasmollari dastlabki tergovda naqadar to'liq va har tomonlama tekshirilsa, sudda ayblov yondashuv shunchalik mustahkam va ishonchli chiqadi. Mazkur talablarga e'tiborsizlik qilish ishni qo'shimcha tergovga qaytarish yoki oqlov hukmi chiqarilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tergov harakatlarini o'tkazishning o'ziga xos jihatlari

Tergov harakatlarini o'tkazish taktikasining umumiy qoidalari kriminalistika sohasiga oid adabiyotlarda keng yoritib berilgani bois,

ushbu paragraf doirasida faqatgina odam savdosi jinoyatini tergov qilishga xos bergan alohida tergov harakatlarini o'tkazish taktikasining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Tintuv, olib qo'yish va ko'zdan kechirishni o'tkazish.

Esda tuting! Odam savdosi jinoyati bo'yicha ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan predmetlar va hujjatlar quyidagi joylarda aniqlanishi, olib qo'yilishi va muhrlanishi mumkin: 1) odam savdosi jabrlanuvchilarini o'g'irlash, yollash, yashirish, istiqomat qilishi va ekspluatatsiya qilish amalga oshirilgan bino, xona, qurilma va joylarda; 2) jabrlanuvchilar, bedarak yo'qolganlarning yashash va ish joyida; 3) jabrlanuvchilarni tashish maqsadida foydalanilgan transport vositalarida; 4) odam savdosi jinoyatchilarining yashash yoki ish joyida.

Odam savdosi jabrlanuvchilarini o'g'irlash, yollash, yashirish, istiqomat qilishi va ekspluatatsiya qilish amalga oshirilgan bino, xona, qurilma va joylarni ko'zdan kechirishda quyidagi tipik vaziyat elementlari kuzatilishi, shuningdek, quyidagi obyektlar aniqlanishi va olib qo'yilishi mumkin: 1) ekspluatatsiya qilinayotgan shaxslarning ajratib qo'yilgan bino, xona yoki chegaralangan uchastka doirasida harakatlanishi cheklangan izlar. Xususan, oshib o'tilishi mushkul bo'lgan to'siqlar, ekspluatatsiya amalga oshirilgan va o'rab olingan joy, qo'riqlash punktlari mavjudligi, eshikning binoning ichki tomonidan qulfovchi uskunalarining mavjud ekanligi, derazalarda temir panjaraning o'rnatilganligi yoki umuman derazalarning mavjud emasligi; 2) odam savdosi jabrlanuvchilarini yashash va ekspluatatsiya qilish joylarini ko'chmas mulklarga nisbatan joylashuvi. Basharti, bunday joy bino (inshoot)ning ichki xonasi bo'lsa, bino yoki uning bir qismini mazkur xona joylashuvini ko'rsatgan holda chizmasini tuzish lozim; 3) ekspluatatsiya quroli va vositasi, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlar. Ekspluatatsiya turiga qarab ular turli xil bo'lishi mumkin: turli stanoklar, boshqa ishlab chiqarish mexanizmlari va vositalari, video va fotokameralar, pornografik mazmundagi yoki zo'rlik ishlatish mazmunidagi video va foto mahsulotlar, tibbiy qurilmalar yoki jarrohlik vositalari hamda a'zo va to'qimalarni ajratib olish, tajriba o'tkazish asboblari va boshqalar; 4) ekspluatatsiya qilinayotgan shaxslarni majburlash va xulq-atvorini nazorat qilishni ta'minlash vositalari, shuningdek, ularni qo'llashning izlari va natijalari. Ular sirasiga shu maqsadda foydalaniladigan qurol yoki predmetlar, harakatlanish erkinligini cheklaydigan vositalar (arqon, zanjir, kishan), insonning ruhiy jarayonlarini cheklovchi turli psixotrop, giyohvand va boshqa moddalar va preparatlar; ekspluatatsiya qilinayotgan

shaxslar pasportlarining ular qo'lg'a kiritishi mumkin bo'lmagan hududdan topilishi; ekspluatatsiya qilinayotgan shaxslarning qarzdor maqomiga solib qo'yadigan qarzdorlik to'g'risidagi tilxat va boshqa shartnomaviy munosabatlarni ifodalovchi hujjatlar; qon izlari; 5) ekspluatatsiya qilinayotgan shaxslar, shuningdek, ekspluatatsiya qilayotgan shaxslarning yonidan topilgan pul mablag'lari. Ushbu vaziyat elementi jinoyat sodir etgan va odam savdosi jabrlanuvchilari daromadining real miqdorini ko'rsatishi mumkin; 6) yashash va ekspluatatsiya qilish joyining umumiy maishiy shart-sharoitlari. Xususan, atrof-muhit sharoiti, antisanitariya holati, ko'ngilsiz hidning mavjudligi; xonadagi noodatiy harorat va h.k.; 7) odam savdosiga daxldor bo'lgan shaxslarni, ekspluatatsiya qilingan jabrlanuvchilarni, jabrlanuvchilar shaxsini aniqlash, shuningdek, jinoyat hodisasining alohida holatlarini belgilash imkoniyatini beruvchi belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan predmet va hujjatlar. Ular sirasiga audio va video tasmlar, fotosuratlar, pasportlar va boshqa shaxsiy hujjatlar, yozuv kitobi, kompyuter texnikasi, uyali aloqa telefonlari, sim kartalar, chop etilgan telefon qo'ng'iroqlari ro'yxati, shaxs nomiga yozilgan kvitansiyalar, muayyan shaxslarga tegishli deb taxmin qilinayotgan predmetlar va boshqalar; 8) ekspluatatsiya sahnalashtirilayotgan qonuniy faoliyatni tasdiqlovchi yuridik shaxsning shtampi, ta'sis va boshqa hujjatlari. Ularga ta'sis shartnomasi, ustavlar, litsenziyalar, ushbu yuridik shaxsning ulushini sotib olish, begonalashtirishga oid shartnomalar; 9) ushbu yuridik shaxsning moliya-xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar. Ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning ro'yxati va narxi; mehnat shartnomalari va ularning to'ldirilmagan blankalari; qonuniy va "yashirin" buxgalteriya; yuridik shaxsga xizmat ko'rsatayotgan banklarda ochilgan hisobraqamlari va ularda amalga oshirilgan moliya operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumot; iste'mol xizmatlari, noqonuniy ishlab chiqarilgan mahsulot xaridorlari, xomashyo yetkazib beruvchilar, ekspluatatsiya vositasi; har bir ekspluatatsiya qilinayotgan shaxs tomonidan bajariladigan ishning hajmi va xususiyati; yuridik shaxs faoliyatini reklama qilish xizmatini ko'rsatish shartnomalari; ekspluatatsiya amalga oshirilgan binoga egalik qilish va foydalanish to'g'risidagi shartnomalar; pul mablag'larining harakatlanish va foydaning taqsimlanish tartibi va yo'nalishi; 10) jinoiy yo'l bilan topilgan deb taxmin qilinayotgan pul va qimmatliklar; 11) jabrlanuvchilarni ekspluatatsiya qilish natijasida qo'lg'a kiritilgan daromadlarning legallashtirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar, shu jumladan, offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan va soxta deb taxmin

qilinayotgan yuridik shaxslar bilan mulkiy va boshqacha fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilganligini, shuningdek bunday yuridik shaxslar faoliyatida, qimmatli qog'ozlar operatsiyalarida ishtirok etilganligini, ko'chmas yoki qimmatbaho ko'char mulkni sotib olganlikni tasdiqlovchi hujjatlar; 12) erkin fuqarolik muomalasidan olib qo'yilgan hamda ularga egalik qilishga nisbatan tegishli ruxsatnomasi bo'lmagan obyektlar.

Jabrlanuvchilarni yollash amalga oshirilgan binolarda tintuv, ko'zdan kechirish va olib qo'yishni amalga oshirishda qidirish va olib qo'yish obyektlari quyidagilar bo'lishi mumkin: 1) jabrlanuvchilarni sheriklar bilan yollashni amalga oshiruvchi shaxslarning jabrlanuvchi yashirish va ekspluatatsiya qiluvchi shaxslar bilan yozishmalari materiallari. Ularda jabrlanuvchilarga dastlabki buyurtmalar (ularning miqdori, jinsi, yoshi, teri va sochi rangi, jismoniy ma'lumotlar, kasbi, qon guruhi, to'qima va a'zolari holati, har bir yollangan shaxsg nisbatan to'lov qiymati) to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi mumkin; 2) kompyuter texnikasi va boshqa elektron axborot qurilmalari, ularda jabrlanuvchilar va ularni yollovchilarning elektron yozishmalari; ixtisoslashtirilgan Internet-saytlarida ishga yollash to'g'risidagi reklama e'lonlarining joylashtirilishi, mehnat va boshqa shartnomalarning namunaviy va to'ldirilgan matnli fayllari; qarz tilxatlari, elektron pul ko'chirmalari, shuningdek, yollangan jabrlanuvchilar, sheriklar, yollovchilar, tashuvchilarning elektron hisobi; qonuniy va "yashirin" buxgalteriya; 3) jabrlanuvchilarni yollash bo'yicha xizmatlarni reklama qilish bo'yicha shartnoma, shuningdek tayyor reklama mahsulotlari; 4) jabrlanuvchilar pasportlari yoki ularning nusxalari; 5) chet ellik fuqarolar yoki tashkilotlarning jabrlanuvchilar nomiga yozilgan taklifnomalari, arizalari yoki viza uchun ariza namunalari; 6) yollangan shaxslarni tashish va joylashtirish uchun mehmonxonalarni, biletlarni band qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar; 7) mehnat shartnomalari, turistik yo'llanmalar, nikoh xizmatini ko'rsatish, o'qitish, madaniy almashuv bo'yicha shartnomalar va viza olish uchun asos bo'luvchi boshqa hujjatlar; 8) yozuv kitoblari, bloknotlar va boshqa qog'oz hujjatlar; 9) jabrlanuvchilarni yollash amalga oshirilayotgan binoda, uning chiqish qismida, bino yo'laklarida yoki unga tutash bo'lgan binolarda o'rnatilgan video kuzatish tizimlaridan olingan videoyozuvlar; 10) telefon so'zlashuvlari hisob-kitoblari; 11) telefon avtojavoblari yozuvlari xotiralari; 12) odam savdosi jinoyatiga daxldor shaxslarni va jabrlanuvchilarni aniqlash imkoniyatini beruvchi belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan predmet va hujjatlar, shu jumladan jabrlanuvchilarning shaxsiga oid ma'lumotlarni ifodalovchi hujjatlar va videoyozuvlar;

13) qalbaki pasportlar, ularni tayyorlash blankalari va uskunalari; 14) yollash amalga oshirilayotgan binoda tartib-qoidaalarni belgilovchi hujjatlar; 15) jabrlanuvchilarni yollash sahnalashtirilayotgan qonuniy faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxsning shtampi, ta'sis va boshqa hujjatlari, ta'sis shartnomasi, ustavlar, litsenziyalar; 16) ushbu yuridik shaxsning moliya-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi hujjatlar; 17) jinoiy yo'l bilan topilganligi taxmin qilinayotgan pul va qimmatliklar; 18) jabrlanuvchilarni ekspluatatsiya qilish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlarning legallashtirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar, shu jumladan, shartnomalar, firma ustavleri, to'lov topshiriqlari, bank operatsiyalarini tasdiqlovchi hujjatlar; 19) erkin fuqarolik muomalasidan olib qo'yilgan obyektlar.

Jabrlanuvchilar tranzit tashish jarayonda yashirilgan binolarda quyidagilar aniqlanishi va olib qo'yilishi mumkin: 1) mehmonxonalar, yotoqxonalar va boshqa vaqtinchalik istiqomat qilish joylaridagi ro'yxatga olish kitoblaridagi ushbu shaxslarning kelish va ketish vaqti qayd etilgan yozuvlar; 2) jabrlanuvchilar tibbiy yordam uchun murojaat etgan bo'lsa, tibbiy punktlardagi yozuvlar; 3) mazkur shaxslarga tegishli bo'lgan hamda ularning mulkdorini aniqlashtirish, jinoiy hodisaning alohida holatlariga aniqlik kiritish imkonini beradigan, ular tomonidan unutilib qoldirilgan yoki tashlab ketilgan ashyolar yoki hujjatlar; 4) odam savdosi jinoyatchilari mazkur binolardan foydalanishi uchun asos bo'lgan ijara shartnomasi yoki boshqa hujjatlar.

Shaxs odam savdosi jinoyati jabrlanuvchisi bo'lganligini taxmin qilish uchun asoslar bo'lgani holda bedarak yo'qolgan shaxsning turar joyini ko'zdan kechirishda qidirish va alohida e'tibor qaratish obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: 1) shaxsning hayot tarzi, qiziqishlari, mehnat faoliyati, ijtimoiy holati va boshqa ma'lumotlarni tavsiflovchi binodagi vaziyat elementlari, predmet va hujjatlar, jumladan, mehnat daftarchasi, uning ma'lumoti to'g'risidagi, u yoki bu mutaxassislik bo'yicha kurslardan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar va b.q.; 2) bedarak yo'qolgan shaxsni yoki uni topish mumkin bo'lgan joyni aniqlash imkonini beruvchi xususiyat va belgilarga ega bo'lgan obyektlar, masalan, eng so'nggi fotosuratlar, bedarak yo'qolgan shaxsга tegishli biologik obyektlar mavjud bo'lgan predmetlar, qo'l izi, hidi, sochi, ovoz yozuvlari va boshqalar; bedarak yo'qolganning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, xususan, milliy yoki chet el davlati pasporti va h.k.; 3) bedarak yo'qolgan deb taxmin qilinayotgan shaxsning alohida belgilarini ko'rsatuvchi, shaxsning bedarak yo'qolishiga daxldor bo'lgan kishilarni aniqlash

imkonini beruvchi obyektlar, shu jumladan bedarak yo'qolgan shaxslarning ularning qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga tanish bo'lmagan shaxslar, shuningdek, operativ qiziqishga sabab bo'lgan shaxslar bilan tushgan fotosurati; mazmuni ish uchun ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan qog'oz bo'laklari, shu jumladan, bedarak yo'qolgan shaxslar aloqa qilgan shaxs yoki tashkilot nomi, telefon raqami va manzil; tashrifnomalar; mehnat shartnomalari va ularning to'ldirilmagan blankalari; jinoyat sodir etishga daxldor bo'lgan shaxslar tegilgan bo'lishi mumkin bo'lgan predmet va hujjatlar, jumladan, tashrifnomalar, telefon raqami yozilgan qog'oz bo'laklari, qalbaki hujjatlar va b.q. Ushbu obyektlarda jinoyatchi va jabrlanuvchining barmoq izlari saqlanib qolgan bo'lishi mumkin bo'lib, bu basharti ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa, as qotadi. Jabrlanuvchining bedarak yo'qolishida chet ellik fuqaro daxldor degan asosli taxmin bo'lsa, ushbu obyektlardan olingan va aniqlashtirish uchun yaroqli bo'lgan daktiloskopik izlarni Interpolga xalqaro daktiloskopik ro'yxatlar bilan tekshirib ko'rish uchun yuborish lozim;4) jabrlanuvchi bilan ro'y bergan hodisaning alohida elementlarini ko'rsatuvchi obyektlar, shu jumladan ishga joylashtirish, turistik, nikoh va boshqa xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi e'lonlardan iborat bosma nashrlar (bunda ushbu nashrlarga qo'yilgan belgilar yoki ularning qirqib olingan qismlariga alohida e'tibor qaratish zarur); bedarak yo'qolgan shaxsga tegishli bo'lgan kundalik, yozuv kitobi; mehnat shartnomasi yoki mehnat faoliyati to'g'risidagi dastlabki kelishuvlar, ishga joylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma va b.q.

Ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazish obyekti sifatida turli texnik vositalar, ishlab chiqarish va boshqa mexanizmlar bo'lishi mumkinligi bois, mazkur tergov harakatlarini o'tkazishdan oldin tergov harakatlarida ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'lgan mutaxassislar guruhini aniqlab olish maqsadga muvofiq. Qilinadigan ishning hajmidan kelib chiqib, mazkur tergov harakatlarida bir nechta tergovchilar ishtirok etishi zaruriyatini ko'rib chiqish lozim.

2. Guvohlar va jabrlanuvchilarni so'roq qilish.

Jabrlanuvchilar so'roq qilinishi mumkin bo'lgan holatlar doirasini shartli ravishda uch guruhga bo'lishimiz mumkin.

Birinchi guruhga uni odam savdosi sohasiga jalb etish amalga oshirilgan holatlar (o'g'irlash yoki yollash) kiradi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) uni yollashni amalga oshirgan shaxs bilan qayerda, qachon, qanday vaziyatda va kimning vositachiligida tanishgan; 2) agarda yollovchilarga ommaviy axborot vositalarida, Internet global tarmog'ida

joylashtirilgan reklama e'loni orqali chiqqan bo'lsa, mazkur e'lon qaysi nashrda, qaysi saytda berilganligi, uning mazmuni, yollovchilarning telefon raqami va manzili, unda bosma nashr saqlanib qolganligi; 3) yollash faoliyatida nechta kishi qatnashganligi, ularning telefon raqamlari, har bir yollovchi tomonidan amalga oshirilgan aniq harakatlar, ularning bir-biri bilan qanday aloqa qilganligi, ularning ismlari, tashqi qiyofasi, alohida belgilari, taxminiy yoshi, millati, irqi. U ularni taniy oladimi, taniy olsa, qaysi belgilariga qarab taniy oladi; 4) yollashga daxldor bo'lgan tashkilotning yuridik va faktik manzili, aniq nomlanishi, ish telefoni, yollash amalga oshirilgan binoning sharoitlari tavsifi; 5) yollash jarayonida uni adashtirishga, mulkiy, ruhiy yoki boshqacha qaramlik ahvoriga solib qo'yishga qaratilgan biror-bir ta'sir choralari qo'llanilganmi: qarz tilxati, hujjatlarni rasmiylashtirishni taklif etish va tashishni uning kelgusida oladigan daromadlari hisobidan amalga oshirish, shaxsiy do'stona, ishqiy munosabatlarni sahnalashtirish, nikohga kirishga va'da berish, giyohvand qaramlik holatiga tushirib qo'yish, ichimligiga psixotrop moddalar qo'shilgan bo'lishi ehtimoli va b.q.; 6) yollash suhbatlari jarayonida biron-bir ishontirish yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish usullari – ko'ndirish, gipnoz, tahdid qilish, tovlmachilik qo'llanildimi; 7) ishga joylashtirishni amalga oshirayotgan shaxslar yoki ish beruvchilar bilan biror-bir yozma kelishuvlar imzolandimi, agar imzolangan bo'lsa, qachon va qayerda, unda mehnat faoliyatining aniq turlari, mehnat sharoitlari, haq to'lash miqdori kelishilganmi, uning boshqa mamlakatga borishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash tartibi ko'rsatilganmi, unga uning iltimosiga ko'ra, biror-bir qo'shimchalar kiritilganmi, u qancha nusxada tuzilgan va unda shartnomadan nusxa saqlanib qolingani; 8) kelgusidagi kasbini o'rgatish bo'yicha biror-bir kurslardan o'tganmi; 9) ishga joylashtirish yoki boshqa mamlakatga chiqish, xususan pasportni rasmiylashtirish, viza, bilet olish va h.q. bilan bog'liq biror-bir xizmatlar uchun haq to'laganmi; 10) yollovchilarga qaysi shaxsiy hujjatlari yoki ularning nusxalari berilgan, ular ushbu hujjatlarni qaytarib berishganmi. Agarda, hujjatlar qaytarilmagan bo'lsa, bu nima bilan asoslangan; 11) uning shaxsiy ma'lumotlarini ko'rsatish yo'li bilan anketa tayyorlanganmi, tibbiy ko'zdan kechirish, fotosuratga olish (qanday turda, qaysi rakurslarda) amalga oshirilganmi; 12) u o'zining boshqa mamlakatda ishga joylashish niyati haqidagi niyati to'g'risida qarindoshlari yoki tanishlaridan kimlarga xabar bergan, bunda unga yordam ko'rsatgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar; 13) u jabrlanuvchilardan yana kimlarni ko'rgan va biladi,

ularni taniy oladimi; 14) uni o'g'irlab ketish qayerda va qay vaziyatda amalga oshirildi¹.

Ikkinchi guruhga jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish joyiga tashish holatlarini kiritish mumkin, xususan: 1) unga jo'nash uchun biletlarni kim, qachon va qayerda sotib olib bergan, ular saqlanib qolganmi; 2) uni sayohat davomida kuzatib yurgan, kutib olgan va hamrohlik qilgan shaxslarning ismi, tashqi qiyofasi tasviri hamda u ularni taniy oladimi; 3) uni mamlakatga jo'natish qachon, qayerdan va qaysi transport turida amalga oshiriladi, u tashuvchining shaxsiy avtotransport vositasi davlat raqamlarini, samolyot yoki poezd reyslarini eslab qolganmi; 4) uni kuzatib yurganlar, boshqa jabrlanuvchilar soni; 5) uni tashish yo'nalishi to'g'ridan to'g'ri yoki tranzit xususiyat kasb etganmi. Agarda tranzit bo'lsa, qaysi davlatlardan o'tgan, u tranzit mamlakatlarda qayerda va qancha ushlanib qolgan, u mazkur davlatlarda biror-bir blanka yoki boshqa hujjatlarni to'ldirganmi; 6) uni tashish uchun soxta farzandlikka olish, nikoh yoki surrogat onalik bilan bog'liq biror-bir usullardan foydalanilganmi; 7) uni tashish uchun soxta hujjatlar ishlatilganmi, agar ishlatilgan bo'lsa, ularni kim va qayerda bergan; 8) u tashish jarayonida biror-bir zo'rlik, tahdid, tovlamachilik yoki boshqacha ta'sirga duchor bo'lganmi; 9) bojxona va chegara nazoratini qayerda, qaysi punkt va qaysi postda o'tgan, o'tish jarayonida biror-bir qiyinchiliklar vujudga kelmaganmi.

Uchinchi guruhga jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilishga oid holatlarni kiritishimiz mumkin. Bunday holatlarga quyidagilar kiradi: 1) uni yashashi va ekspluatatsiyasi amalga oshirilgan joy uchastkasi yoki binosi joylashgan taxminiy joy, manzili; 2) ekspluatatsiya qancha muddat davom etgan; 3) u amalga oshirgan mehnat faoliyatining turi va xususiyati, uning funksional majburiyatlari; 4) ekspluatatsiya va yashash amalga oshirilgan shart-sharoitlar, jumladan, mehnat vaqtining davomiyligi va taqsimlanishi, ovqatlanish tartibi, tibbiy yordam, bir xonada istiqomat qiluvchi shaxslar soni va h.k.; 5) amalga oshirilayotgan mehnat faoliyatidan real daromad miqdori; 6) yashash, mehnat qilish, haq to'lashning real shartlari yollash vaqtida va'da qilingan, shartnomada ko'zda tutilgan holatlardan farqlanadimi, farqlansa, qaysi bandlari bo'yicha; 7) ekspluatatsiya joyida yana qancha jabrlanuvchilar qolgani, ularning taqdiri unga ma'lumligi; 8) ekspluatatsiya jarayonida munosib xulq-atvorni ta'minlashga qaratilgan biror-bir majburlash, ruhiy ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanildimi, qo'llanilgan bo'lsa, ularning oqibatlari nimalarda namoyon bo'ladi; 9) yashash yoki ekspluatatsiya jarayonida

¹ Дворкин А.И. и др. Расследование похищения человека. – М., 2001.

uning shaxsiy erkinligi cheklanganmi, xususan, bino yoki yashash joyini tark etishga nisbatan ta'qiq amal qilganmi, shuningdek, qarindoshlar yoki yaqinlar bilan telefon qo'ng'iroqlari amalga oshirilganmi; 10) jarimali sanksiyalar qo'llanilganmi, agar qo'llanilgan bo'lsa, kim tomonidan, qancha miqdorda va u qaysi hujjatda kelishilgan; 11) uning shaxsiy hujjatlari kimda va qayerda saqlangan; 12) qachon va qaysi sharoitlarda u odam savdosi qurboni bo'lganligi aniq bo'lgan; 13) u qochishga, biror kimsaga bo'lib o'tgan voqea haqida xabar berib, yordam so'rashga harakat qilganmi, mazkur davlatning huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat qilganmi, agar qilmagan bo'lsa, qaysi sabablarga ko'ra; 14) jabrlanuvchilarga qaytib o'z mamlakatiga ketish taklif qilinganmi; 15) ekspluatatsiya yoki mehnatga majburlash jarayonida biror-bir kasallik orttirilganmi, ruhiy jarohat olinganmi, agar bo'lsa, uning oqibatlari nimalarda namoyon bo'ladi; 16) hozirgi kunda u yollash, o'g'irlash, tashish yoki ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq qaysi shaxslar bilan do'stona aloqalarni saqlab qolgan; 17) jabrlanuvchi, uning qarindoshlari, tanishlariga odam savdosi jinoyatchilari tomonidan biror-bir tahdidlar kelib tushganmi, tushgan bo'lsa, ularning mazmuni qanday, ular o'z taqdiridan xavotir olishadimi; 18) uning sodir bo'lgan hodisa, shuningdek jinoyat sodir etishga aloqador shaxslarga nisbatan munosabati.

Nazorat savollari:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organga odam savdosi jinoyati sodir etilganlik fakti bo'yicha ariza kelib tushgan. Tergovchi sifatida ishni qanday tashkil etish lozim?

2. Odam savdosi jinoyati bo'yicha tergov versiyalarni shakllantirishga qanday omillar ta'sir etadi? Mazkur turdagi jinoyatlarda tergovni rejalashtirish qay tarzda amalga oshirilishi lozim?

Kazuslar:

1-kazus

2015-yil 1-yanvar kuni Mirzo Ulug'bek tuman prokuraturasiga Fuqaro Odilov Amin ariza bilan murojaat etib, fuqaro Azizov Zokir 2014 yil 20-avgust kuni 15 kishini Rossiyada qurilish inshootida ishlash uchun olib ketganligini va ularga katta miqdorda pul va'da qilganligini, etib borishganidan so'ng esa ularning pasportlarini olib qo'yib, ishlaganlaridan so'ng qaytarib berishlarini aytib o'tgan. Azizov Zokir ishchilarni ikki oy davomida ishlatgan va ularga hech qanday haq to'lamagan, 2014-yil 21-oktabr kuni ishchilar ishlashdan voz kechib,

undan pasportlarini qaytarib berishini so‘rashganida, u pasportlarni qaytarib bermasligini, agarda ishchilar unga bo‘ysunmasa, pasportlarini yoqib yuborishini va haq to‘lamasligini aytgan va uch oy ishlab berganlaridan so‘ng pasportlarini qaytarib berishini aytgan. Shundan so‘ng ikki hafta o‘tgach Azizov Zokir ishchilarni boshqarish uchun ishga kelmagan. Ishchilar Azizov Zokirni ikki hafta mobaynida ko‘rishmaganligini, shundan so‘ng ishchilar Azizov Zokirning xonasi eshigini buzib kirib, uning shkafidan o‘zlariga tegishli bo‘lgan pasportlarini olishganligini va O‘zbekistonga qaytib kelishganligini, Azizov Zokirning sheriklari borligini, lekin ularni tanimasliklarini aytishgan. Prokuratura xodimlari tergov davomida fuqaro Azizov Zokir 2014-yil 30-oktabr kuni o‘zini o‘zi o‘ldirganligini va xat qoldirib ketganligini aniqlashdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu jinoyatning kriminalistik tavsifiva aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni belgilang.

Mazkur jinoyat yuzasidan tergov versiyalari va rejasini tuzing.

Ushbu vaziyatda qanday taktik qoidalar qo‘llaniladi? Jinoyatni fosh etish rejasini tuzing. Tergov versiyalarini shakllantiring.

2-kazus

2015-yil 12-mart kuni Chilonzor tumani prokuraturasiga fuqaro Valieva Sabina tanishi Rizoev Kamron qizlarni chet el hududida majburan ishga jalb qilish uchun olib ketganligini va ularga tahdid solib ularni chet elda majburan ishlatib kelayotganligi haqida ma‘lumot beradi. IIBning tezkor qidiruv xodimlari va prokuratura tergovchilari hamkorligida tezkor-qidiruv tadbirida o‘tkazilishi natijasida Rizoev Kamron Raximova Bonuni uyidan majburan olib chiqib ketayotgan paytda qo‘lga olindi. Rizoev Kamron o‘zining sheriklari kim ekanligini aytishdan bosh tortdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Ushbu jinoyatning kriminalistik tavsifi va aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlarni belgilang.

Mazkur jinoyat yuzasidan tergov versiyalari va rejasini tuzing.

Ushbu vaziyatda qanday taktik qoidalar qo‘llanilishi mumkin?

29-BOB. MEHNAT XAVFSIZLIGI QOIDALARINI JINOIY TARZDA BUZILISHINI TERGOV QILISH

Mazkur turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tergov bosqichi. Keyingi tergov harakatlarining tashkiliy va taktik xususiyatlari

Mazkur turdagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi

Mehnat xavfsizligi qoidalarining jinoiy tarzda buzilishi odamlar o'limiga sabab bo'ladi, ularning sog'lig'iga va ishlab chiqarishga moddiy zarar yetkazadi.

Esda tuting! Mehnat sharoitlarining xavfsizligini texnikadan foydalanish, sanoat sanitariyasiga oid umumiy va tarmoq qoidalari ta'minlaydi. Bunday qoidalar hukumat tomonidan kasaba uyushmalari va vazirliklar (idoralar) bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Ularga rioya etilishi ustidan nazorat qilish kasaba uyushmalari qo'mitalari, shuningdek maxsus nazorat organlari ("Sanoattexnazorat", "Energonazorat") zimmasiga yuklatilgan. Sanitariya nazoratini davlat sanitariya inspeksiyasi organlari, yong'indan saqlash nazoratini – yong'indan muhofaza qilish organlari amalga oshiradi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining odamlar bilan baxtsiz hodisalar yuz berishiga yoki boshqa oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan buzilishlari jinoyat deb topiladi. Yo'l qo'yilgan buzilishlar uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish va texnika xavfsizligini ta'minlash o'z vazifalari doirasiga kiruvchi mansabdor shaxslar javobgar bo'ladilar.

E'tibor qarating! Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari mehnatni muhofaza qilish qoidalari jinoiy tarzda buzilishining ikkita turini nazarda tutadi: 1) sog'liqqa zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan buzilishlar; 2) odam o'limiga sabab bo'lgan buzilishlar.

Kon ishlari xavfsizligi qoidalari buzilishi, qurilish ishlarini bajarish qoidalari buzilishi, portlash xavfi bo'lgan korxonalarda yoki sexlarda xavfsizlik qoidalari buzilishi alohida turlarini tashkil etadi. Tergov qilish uslubiyoti yo'l qo'yilgan buzilish turini va u sodir etgan muayyan sharoitlarni hisobga olib belgilanadi.

Buzilish sabablarini uch guruhga bo'lish mumkin: texnikaviy, tashkiliy, sanitariyaviy. Birinchi guruhga agregatlar, mashinalar, jihozlar,

asbob-uskunalarining konstruktiv xususiyatlari va nuqsonlari; ikkinchisiga – ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar; uchinchisiga – sanitariya-gigiena tusidagi kamchiliklar (binolar ichining axlat bosganligi, yetarlicha yoritilmaganligi va h.k.) kiradi.

Mehnat xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati quyidagi usullarda sodir etiladi:

1. Ishga muayyan bilim, ko'nikma yoki malakaga ega bo'lmagan shaxslarni qabul qilish. Amaliyot natijalariga ko'ra ba'zan turli ishlab chiqarish vazifalarini bajarish yoki murakkab mexanizmlilik dastgohlarni boshqarish bilan bog'liq ishlarga unga mos keluvchi mutaxassislik yoki zarur amaliy ko'nikma, tajriba va malaka ega bo'lmagan yohud ishga kirish uchun belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tmagan shaxslar qo'yiladi.

Masalan, asbob-uskunalarini tuzatish uchun slesar-ishchi o'rniga boshqa mutaxassisni olish, stanokda ishlovchi ishchini yordamchi ishchi bilan almashtirish, yuk ortish va tushurishga oid ishlarda signal beruvchi vazifasini tajribasiz shaxslarga topshirish va x.k.

2. Mehnat xavfsizligi qoidalariga zid ishlarni tashkil etish to'g'risida ko'rsatma yoki buyruqlar berish. Bu guruhga oid qoidabuzarliklar mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bunda mansabdor shaxs texnika xavfsizligi qoidalariga yoki ishchilar xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan organlar, korxonalar, muassasa va tashkilotlar bilan oldindan kelishmasdan ishlarni tashkil etish to'g'risida ko'rsatma yoki buyruqlar beradi. Shuningdek, individual himoya vositalarisiz ishlab chiqarish operatsiyalarini amalga oshirishda foydalanish taqiqlangan nosoz asbob-uskunalarda ishlashga ruxsat beriladi.

Bu turdagi qoidabuzarliklarga yer qari yoki havo liniyalarida yerni qazish yoki havoda ko'tarish bilan bog'liq ishlarni belgilangan tartibga ("Sanoatnazorat", "Energonazorat" organlari bilan kelishmasdan) rioya qilmasdan amalga oshirish to'g'risidagi ko'rsatmalar, inson sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan zaharli moddalar yoki suyuqliklarni qo'l kuchi bilan olib o'tish yoki yomg'irli ob-havoda ochiq joylarda payvandlash (elektrosvarka) ishlarini amalga oshirish to'g'risida chiqarilgan buyruqlar va boshqalar.

3. Stanok yoki turli mexanizmlar konstruksiyasini texnologik jarayoniga o'zgartirish kiritish, shuningdek mehnat xavfsizligi talablariga zid eslatma va ko'rsatmalar chiqarish. Bu turdagi huquqbuzarliklar korxonaning normal ishlab chiqarish ishlariga yoki to'liq tashkiliy

masalalariga javobgar shaxslar tomonidan sodir etiladi. Boshqachi qilib aytganda mazkur qoidabuzarliklar o'z ichiga sohaga oid umumiy yoki maxsus mehnat xavfsizligi qoidalariga zid ko'rsatmalarni qamrab oladi.

Asbob-uskunalarni ekspluatatsiya yoki remont qilish eslatmalariga mazkur uskunalarning texnik pasportida nazarda tutilgan ish rejimi, tezligi yoki me'yoriy bosimiga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni kiritilishi va boshqalar.

4. Mehnatni muhofaza qilish sohasida ishchilar tayyorgarligi (bilim, malaka, ko'nikmasi)ni yetarli emasligi. Bunda mansabdor shaxs texnika xavfsizligi bo'yicha ishchilar bilimi va malakasi muntazam oshirib borish bilan bog'liq tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirimaydi.

Masalan, instruktaj o'tkazish vaqtiga amal qilinmasligi yoki texnologik jarayonlarni o'zgarishi bilan yangi turdagi instruktajlarni tashkil etilmasligi; ishchilarni attestatsiyadan o'tkazish muddatlari va qoidalarini buzilishi va h.k.

5. Himoya vositalari va uskunalari texnik holati ustidan nazoratsizlik.

Odatda, bu turdagi jinoyatlar mansabdor shaxslar tomonidan ishchilarning individual himoya vositalari yoki ekspluatatsiya qilinayotgan uskunalarni texnik holatiga oid choralarni ko'rmasligi oqibatida yuzaga keladi.

Bunday qonun buzilishi ko'pincha korxonada foydalanib kelinayotgan asbob-uskunalar, mexanizmlar, to'siqlar, blokirovka qilish yoki signal berish uskunalari predoxranitellari, ventilyasiya, individual himoya vositalarini muntazam profilaktik va texnik ko'zdan kechirish choralarni ko'rilmassligi natijasida sodir etiladi.

6. Ishlarni xavfsiz tashkil etilishini qoniqarsiz nazorat qilish. Mansabdor shaxs tomonidan ishlarni texnika xavfsizligi talablariga rioya qilinishi doimiy tizimli ravishda nazorat qilinmaydi.

7. Texnika xavfsizligi ishlari va tadbirlarini qoniqarsiz tashkil etish. Bunda mansabdor shaxs inson hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan maydonlar chegarasi, xavf-xatar darajasi yanglish belgilaydi yoki mehnat qilish sharoitlari xavfsizligini ta'minlamaydi (yorug'lik, to'siqlarning mavjud emasligi va h.k.); xavfsizlikni ta'minlovchi xodimlar sonini yoki ish o'rinlarini noto'g'ri taqsimla; ishchilarni individual himoya vositalari bilan ta'minlamaslik; tegishli sanitar-gigienik sharoitlar va profilaktik tadbirlar (obyektda xodimlar uchun yuvinish, radiktiv qoldiqlardan tozalash, doimiy tibbiy xizmat ko'rsatish xonalarini)ni mavjud emasligi.

Ko'rsatib o'tilgan sabablar kamdan-kam hollarda alohida-alohida uchraydi. Odatda ular o'zaro aloqador, bir-biri bilan bog'liqdir.

CHunonchi, buzilishning sanitariyaga xos sabablari yuzaga kelishiga ko'pincha tashkiliy kamchiliklar sabab bo'ladi. Jarohatlanish hollari jabrlanuvchining o'z beparvoligi va boshqa qoidabuzarliklari oqibati bo'lishi mumkin.

Mehnat xavfsizligi qoidalarining jinoiy tarzda buzilishini tergov qilishda jinoyat protsessual qonunida ko'rsatilgan barcha holatlar isbotlanishi kerak. Shuningdek, barcha hollarda tergovchi jinoiy tarzda buzilishlar sodir etilishiga ko'maklashgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi shart.

Tergov qilish muddatlarini cho'zilib ketishi, uning rejasizligi, hodisa joyini kamdan-kam va kechikib ko'zdan kechirish, hodisa mexanizmining texnik masalalarini inkor qilish, sud-texnika ekspertizalari imkoniyatlaridan va mutaxassislar yordamidan yetarlicha foydalanmaslik tergovning odatiy xatoliklari hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki tergov bosqichi

Ko'pincha jinoyat ishini qo'zg'atishga kasaba uyushmalari tashkilotlari, maxsus nazorat organlari, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan korxonaga ma'muriyatining xabarlari sabab bo'ladi.

O'lim bilan tugagan va boshqa og'ir oqibatlariga olib kelgan hodisalar darhol kasaba uyushmasining texnik inspektori tomonidan, "Sanoatkonteksnazorat" nazorati ostidagi obyektlarda esa shu organlarning inspektori tomonidan tekshirilmog'i lozim. Tekshirishda ma'muriyatning, kasaba uyushmasi va yuqori xo'jalik organining vakillari ishtirok etishlari kerak.

Alohida hollarda, texnik inspektor darhol etib kelishining imkoniyati bo'lmaganda, tekshirish komissiyasi, kasaba uyushmasi qo'mitasi va korxonaga ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Bundan qat'i nazar, korxonaga rahbari hodisa haqida prokuratura organlariga darhol xabar qilishi shart.

Esda tuting! Tekshirish materiallari (baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma, texnik inspektorning xulosasi, ko'zdan kechirishlarning bayonnomalari, guvohlardan, jabrlanuvchidan so'rab fikr to'plash bayonnomalari va h.k.) hodisa sodir bo'lgan paytdan e'tiboran 7 kundan kechiktirmay tergov organlariga yuboriladi.

Hujjatlarni tekshirib chiqish, so'roqlar o'tkazish, zaruriy ekspert tekshiruvlarini amalga oshirish ko'rib chiqilayotgan turdagi jinoyatlarni tergov qilishning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu harakatlarning barchasi o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadi.

Ko'zdan kechirishdan oldin uning chegaralari, ketma-ketligi, tugunlari (qismlari, uzellari) belgilab olinadi. Bunda uslubiy tavsiyalardan, tergov tajribasidan foydalaniladi. Masalan, qaysi agregat yoki dastgohda ishlash paytida baxtsizlik sodir bo'lgan bo'lsa, faqat o'sha agregat yoki dastgohni emas, balki ishlab chiqarishda u bilan bog'liq bo'lgan uchastkalarini ham ko'zdan kechirish kerakligidan dalolat beradi. Bu uchastkalarga butun

E'tibor qiling! Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan oldin va ko'zdan kechirish jarayonida tergovchi harakatlarining yo'nalishi, xususiyati va maqsadi ishni qo'zg'atishda ikkita ehtimol tutilgan vaziyat mavjudligiga bog'liq bo'ladi: 1) hodisa to'g'risidagi xabar baxtsiz hodisadan so'ng darhol kelgan bo'ladi; 2) xabar ancha vaqt o'tgandan keyin kelgan bo'ladi. Birinchi holda tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyni darhol ko'zdan kechirishi kerak, ikkinchisida – oldingi tekshirish natijalari bilan tanishishdan boshlash lozim. Biroq ikkala holda ham hodisa joyini ko'zdan kechirish – bajarilishi shart bo'lgan harakatdir.

ustaxonani, sexni va boshqa shu singarilarni qo'shib ko'zdan kechirish chegaralarini yanada kengaytirish zarur bo'lishi mumkin. Masalan, elektr toki urishi bir joyda yuz berishi mumkin, baxtsiz hodisa sababini esa elektr energiyasi taqsimlanadigan energiya uzelinini yoki elektr uzatish tizimini ko'zdan kechirgandagina aniqlashga erishiladi.

Ko'zdan kechirish ishtirokchilari to'g'risidagi masala ham uning boshlanishidan oldin hal qilinishi kerak. Unda mutaxassislar ishtirok etishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Hodisaning moddiy izlarini topish, qayd etib qo'yish va olishga ularning ko'maklashishi ko'zdan kechirishning samarali bo'lishini kuchaytiradi. Biroq har doim mutaxassislarning yetarlicha bilimiga egaligi va xolisligiga, ularning ishning natijasidan manfaatdorligiga ishonch hosil qilish zarur. Ko'zdan kechirishda ishtirok etishga jabrlanuvchilar, guvohlar va texnika xavfsizligi qoidalarini buzgan mansabdor shaxslar jalb etilishi mumkin. Ko'zdan kechirish ishtirokchilarining soni to'g'risidagi masalani hal etishda shuni esda tutish kerakki, ortiqcha odamlar, odatda, ko'zdan kechirishga xalal beradi.

Ko'zdan kechirishni markaziy tugundan boshlash maqsadga muvofiqdir. Agar hodisa sodir bo'lgan joyda murda yotgan bo'lsa, ko'zdan kechirish undan boshlanadi.

E'tibor qiling! Ko'zdan kechirish jarayonida quyidagilar tekshirib chiqiladi:

- 1) qaysi agregat yoki dastgohda ishlash paytida baxtsiz hodisa yuz bergan bo'lsa, o'sha agregat yoki dastgoh; 2) mazkur agregat yoki dastgoh bilan texnik jihatdan bog'liq kabellar, transmisiyalar, transportyorlar, o'lchov va qayd etuvchi asboblardan hamda ob'ektlar; 3) ishlovda bo'lgan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar; 4) jabrlanuvchi va u bilan birgalikda ishlagan shaxslar foydalangan asboblardan va himoya vositalari (ko'zoynaklar, qo'lqoplar va h.k.); 5) hodisa joyida qoldirgan moddiy izlar (mexanizmlar detallarining siniqlari, kiyim-kechak parchalari va h.k.); 6) murda, agar u hodisa joyida bo'lsa.

Hujjatlarni ko'zdan kechirishda, hodisa yuzasidan quyidagilar sinchiklab o'rganib chiqilishi kerak: 1) baxtsiz hodisa haqidagi dalolatnoma; 2) nazorat qiluvchi organ vakili (texnik inspektor, "Sanoatkontekxnazorat" vakili va h.k.) ning xulosasi; 3) baxtsiz hodisa yuz bergan korxonada amalda bo'lgan mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari; 4) mazkur uchastka, sex, ustaxona va h.k. mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul shaxslar to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma; 5) davolash muassasasining jabrlanuvchiga yetkazilgan shikastlar xususiyati va darajasi to'g'risidagi ma'lumotnomasi; 6) texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul shaxsning tushuntirishi.

E'tibor qiling! Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining jinoiy tarzda buzilishini tergov qilishda quyidagi **versiyalar** surilishi mumkin:

1) etarlicha malakaga ega bo'lmagan hamda texnika xavfsizligi bo'yicha yo'l-yo'riq berilmagan shaxsni ishga qo'yishdan iborat; sodir bo'lgan baxtsiz hodisa yo'l qo'yilgan buzilish bilan sababiy bog'lanishga ega;

2) hodisa yo'l qo'yilgan buzilishlar bilan bog'liq bo'lmagan; foydalanilgan uskunalarning texnik nuqsonlari baxtsiz hodisaga bevosita sabab bo'lgan;

3) texnika xavfsizligi qoidalari buzilmagan; baxtsiz hodisa jabrlanuvchining o'z ehtiyotsizligi tufayli sodir bo'lgan.

Tergov qilish jarayonida boshqa materiallar: xodimlarga texnika xavfsizligi bo'yicha berilgan yo'l-yo'riqlar qayd etilgan jurnallar, mazkur agregat, qurilma, mexanizmida ishlash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, sinovlarga doir jurnallar, texnik pasportlar, texnologiya xaritalari singarilar ham tekshiriladi.

Jabrlanuvchini va guvohlarni so'roq qilish mazkur toifadagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari hisoblanadi. Bu bir qator holatlar bilan bog'liq. Jabrlanuvchi va guvohlarga odatda, sodir bo'lgan hodisaning barcha tafsilotlari ma'lum bo'ladi. Ularning hodisa ro'y bergandan so'ng darhol bergan ko'rsatuvlari ko'pincha ishonchliroq bo'ladi.

Keyingi tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi

Tergovning ikkinchi bosqichida tergovga dalil bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar so'roq qilinadi. Shu shaxslar qatorida birinchi navbatda jabrlanuvchining u bilan bitta uchastkada ishlagan, lekin baxtsiz hodisa guvohi bo'lmagan hamkasblari so'roq qilinadi. Ular bajarilgan ishlarning xususiyati haqida, texnologiyaga, texnika xavfsizligi qoidalari va yo'riqnomalarga rioya etilgan-etilmagani, mavjud qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratning ahvoli xususida, shuningdek, jabrlanuvchining shaxsi, uning malakasi va tajribasi bajarilgan ishlar xususiyatiga muvofiqligi haqida so'roq qilinadilar.

Baxtsiz hodisa sodir bo'lgan uchastka, smena, sex, ishlab chiqarish rahbarlari so'roq qilinishlari kerak. Ulardan mehnat jarayoni qanday tashkil etilgani, jabrlanuvchiga ishni kim tomonidan buyurilgani, baxtsiz hodisa yuz bergan paytda ular qayerda turgani, ularni qachon, kim va qay tarzda xodimlarga tanishtirgani, mazkur qoidalarga qanday rioya etilgani, ularning bajarilishi uchun kim mas'ul ekanligi, xavfsizlik qoidalariga amalda rioya etib kelinganmi, agar ular buzilgan bo'lsa, nima tufayli buzilgani aniqlashtiriladi.

Texnika xavfsizligi qoidalari jinoiy tarzda buzilgani to'g'risidagi ishlarni tergov qilishda faoliyati baxtsiz hodisa bilan bog'liq bo'linmalar va xizmatlarning rahbarlari (bosh elektrik, bosh texnolog va h.k.)ni so'roqdan chetda qoldirib bo'lmaydi. Umuman korxonada bo'yicha va uning ayrim bo'linmalarida texnika xavfsizligi uchun mas'ul shaxslar ham so'roq qilinadi. Ulardan baxtsiz hodisaning sabablari haqidagi, baxtsiz hodisa munosabati bilan va mehnatni muhofaza qilishni kuchaytirish uchun ko'rilgan choralar haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Buxgalteriya xodimlaridan mazkur korxonada mehnatni muhofaza qilishga ajratilgan mablag'lar haqida, ularning sarflanishi, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi rejasini amalga oshirishning moliyaviy-moddiy imkoniyatlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Bundan tashqari, guvohlar tariqasida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar (jabrlanuvchining qarindoshlari, tanishlari) ham so'roq

qilinishi mumkin. Mehnat sharoitidagi noqulayliklar, texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishlari, yetarlicha tayyorgarliksiz, malakasiz, yo'l-yo'riqlar berilmasdan ishni bajarishni topshirish hollari haqida ularga jabrlanuvchi so'zlagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarining jinoiy tarzda buzilishlari to'g'risidagi jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida tergovchi ko'pincha mutaxassislar yordamiga tayanishiga, sud-texnika, sud-tibbiyot va tibbiy-mehnat ekspertizalari tayinlashiga to'g'ri keladi.

Sud-texnika ekspertizalari maxsus bilimlar talab qilinadigan murakkab texnik masalalarini hal qilish zarur bo'lganda o'tkaziladi. Idoraviy tekshirish materiallarida va texnik inspektor xulosasida yetarlicha hamda xolisona ma'lumotlar bor bo'lsa, sud-texnika ekspertizasi tayinlanmasligi mumkin. Biroq yuqorida ko'rsatib o'tilgan xulosalar bo'lsa ham, ayniqsa ayblanuvchi ularga rozi bo'lmaganda yoki bu xulosalar bir-biriga zid bo'lganda sud-texnika ekspertizasi o'tkazishi shart.

Amaliyotda sud-texnika ekspertizasi oldiga, qoida tariqasida, quyidagi savollar qo'yiladi: 1) mazkur hodisaning sabablari qanday (texnikaviy va tashkiliy); 2) tegishli dastgoh, agregat, mexanizm va boshqalarning texnik holati qanday; 3) mazkur holda texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi qoidalari va mehnatni muhofaza qilishning boshqa sanoat sanitariyasi qoidalari va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari buzilganmi? 4) agar buzilish mavjud bo'lsa, u aniq nimadan iborat bo'lgan, uning hodisa bilan sababiy bog'lanishi bormi? 5) yo'l qo'yilgan buzilishlar yuzaga kelishiga nima yordam bergan? 6) qanday chora-tadbirlar mazkur hodisaning oldini olishi mumkin edi?

Sud-tibbiyot ekspertizasi mazkur toifadagi ishlar bo'yicha asosan o'limning sabablarini, badanga yetkazilgan shikastlarning darajasini, jabrlanuvchining baxtsiz hodisa paytidagi ahvolini, jabrlanuvchining kiyim-kechagi va badanidagi izlarni hamda jarohatlovchi omillarni aniqlash uchun tayinlanadi. Sud-tibbiyot ekspertizasi tirik shaxslar, murda, kiyim-kechak yoki boshqa narsalarga taalluqli masalalarni hal qilishi mumkin. Tergovchi ekspertga hodisa joyini ko'zdan kechirish ma'lumotlarni, tibbiy hujjatlarni, idoraviy tekshirish materiallarini, ishning boshqa materiallarini taqdim etishi kerak. Ishlab chiqarish sanitariyasi va kasb kasalliklari bo'yicha tibbiyot mutaxassislarini jalb etgan holda kompleks sud-tibbiyot ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Nihoyat, to'plangan dalillar asosida ayblanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos xususiyatlari tergov qilinayotgan hodisa sodir bo'lgan sohadagi ishlab chiqarish faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqadi. So'roq

qilish chog'ida aniqlanadigan masalalar texnologiya jarayonining xususiyatlari bilan, maxsus texnik tushunchalar va atamalar, ayblanuvchi lavozimiga ko'ra qanday mavqega egaligi va boshqa holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Ayblanuvchini so'roq qilishda, qoida tariqasida, quyidagilarni aniqlash kerak: 1) mazkur mutaxassislik bo'yicha maxsus ma'lumoti va ish staji qanday? 2) mazkur uchastkada texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi ustidan qanday nazorat choralarini ko'rilgan; 3) ayblanuvchi texnika xavfsizligi bo'yicha qoidalar va yo'riqnomalarni bilganmi hamda ularga rioya etishda unga nima halaqit bergan? 4) mazkur uchastkada ilgari ham baxtsiz hodisalar yuz berganmi va shu munosabat bilan qanday choralar ko'rilgan? 5) ayblanuvchi sodir bo'lgan hodisa sababini nimada deb hisoblaydi va texnika xavfsizligi qoidalarini buzilishida o'z aybini tan oladimi?

So'roqning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga maxsus texnik adabiyotlar, texnika xavfsizligi bo'yicha qoidalar va yo'riqnomalar, korxonalar rahbari va yuqori organlarning buyruqlarini o'rganib chiqishdan iborat bo'ladigan tayyorgarlik ko'rishga bog'liq bo'ladi.

Nazariy savollari:

1. Mehnat xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzish jinoyatlarini sodir etish usullari qanday?
2. Mehnat xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzishi bo'yicha tergovni rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?

Kazuslar:

1-kazu

2015-yil 18-yanvarda Qashqadaryo viloyati Sho'rtan gaz holdingiga tegishli gazni quvurlari joylashgan zavodni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi elektroblokni tuzatish uchun bir guruh xodimlar ishga kirishishdi. Ishni amalga oshirish jarayonida ishchilardan biri himoya vositasi bo'lmaganligi sababli elektr o'tkazib yuborishi natijasida jarohatlandi va kasalxonaga borish yo'lida vafot etdi.

Korxonalar ichki nizomiga asosan, mehnat xavfsizligi qoidalarini bilgan ta'sir ko'rsatmalar berilgan bo'lsa-da, himoya kiyimlari kiyish lozimligi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan bo'lsa-da, holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib mansabdor shaxs javobgarlikka tortildi.

Mazkur holatda jinoyat alomatlari bormi? Ushbu holatni aniqlashda qanday ekspertiza turlari imkoniyatlaridan foydaanish maqsadga muvofiq hisoblanadi? Ishni aniqlashtirishda tergovchi qanday harakatlar ketma-ketligini amalga oshirish talab qilinadi?

2-kazus

2015-yil 20-avgustida Yaponiyaning O'zbekistondagi sok qadoqlovchi zavodida ikki smenani ketma-ket o'tkazgan xodimlardan bir uyquaralash qadoqlayayotgan stanokka qo'li qolib qo'lidan ayrildi. Mazkur masala yuzasidan kasaba uyushmasi bilan birgalikda o'tkazilgan majlisda xodimga ish jarayonida olingan jarohat uchun kompensatsiya puli to'landi va osonroq ishga o'tkazildi. Ammo prokuratura xodimlari ushbu holatda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmaganligi aniqlandi.

Mehnat xavfsizligi qoidalari o'zi nima, unga qanday talablar, tartiblar kiradi. Bundan tashqari ushbu holatda yana qanday qoida buzilishi holatlari bo'lgan? Zavodning faoliyatini tekshirishda taftish yoki ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligiga baho bering?

30-MAVZU. O‘T QO‘YISH VA YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISH

O‘t qo‘yish va yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi. Tergovni tashkil etish va rejalashtirish. Dastlabki va keyingi tergov harakatlarini tashkil o‘tkazish.

O‘t qo‘yish va yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi

Ko‘p holatlarda qasddan o‘t qo‘yishlar ma‘lum tayyorgarlik bosqichlari bilan xarakterlidir. Bunda jinoyatchi tajovuz qilish yo‘llari to‘g‘risida axborot to‘playdi, o‘z niyatlarini oldindan rejalashtirib oladi, o‘t qo‘yish uchun zarur bo‘lgan texnik vositalar va qurollar tanlaydi, ularni yashirish choralari ko‘radi.

Yodda tuting!

O‘t qo‘yish usullarini bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- 1) tez alanga oladigan va tez yonadigan materiallar yordamida o‘t qo‘yish;
- 2) maxsus tayyorlangan yonuvchi materiallar yordamida o‘t qo‘yish;
- 3) tashqi olov manbaidan tez o‘t olishga yoki belgilangan vaqtda alanganlashga mo‘ljallangan maxsus tayyorlangan texnik moslama yoki maxsus yaratilgan sharoitdan foydalanib o‘t qo‘yish;
- 4) o‘z-o‘zidan yonib ketadigan biror buyum yoki material uchun qulay sharoit yaratish yo‘li bilan o‘t qo‘yish.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar

- 1) yong‘in qachon yuz bergani;
- 2) yong‘in qayerdan boshlandi, uning manbalarining soni va tarqalishi;
- 3) yong‘in, uning chiqishi va tarqalishini kim ko‘rgan, kuzatgani;
- 4) yong‘in chiqishiga qaysi voqealar sabab bo‘lgani;
- 5) agar yong‘in xavfsizlik tartib-qoidalarining buzilishi natijasida chiqqan bo‘lsa, unga rioya qilish uchun javobgarlikni kimning zimmasiga yuklangani; tartib-qoidalarining buzilishi nimalardan iborat va bunga kim tomonidan yo‘l qo‘yilgani;
- 6) agar yong‘in texnik sabablarga ko‘ra chiqqan bo‘lsa, aniqrog‘i ular nimalardan iborat, texnik nosozliklar qachon paydo bo‘lgani, ularni o‘z vaqtida aniqlab, bartaraf etish imkoni bo‘lganmi?

7) agar qasddan o't qo'yilgan bo'lsa, uning sabablari, ijro usullari qanday, kim tomonidan va qanday vositalardan foydalangan holda sodir etilgani?

8) agar yong'inda odamlar qurbon bo'lgan bo'lsa, u qanday vaziyatda yuz berdi, agar tan jarohati olgan bo'lsa, uning xarakteri va jiddiylilik darajasi qanday?

9) yong'in chiqishiga kim aybdor, o'z harakatlari (yoxud harakatsizligi) bilan yong'in chiqishiga sabab bo'lgan shaxsning aybdorlik darajasi, aybni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi vaziyat qanday?

10) yong'in yetkazgan zarar xarakteri va miqdori;

11) yong'in chiqishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlar.

Dastlabki tergov harakatlarini tashkil etish va o'tkazish

Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari ro'y bergan vaziyatga to'g'ri yo'nalish berish imkoniyatlarini ta'minlash, yong'inni birinchilar qatorida sezgan, kurgan, kuzatgan shaxs va dastlabki bosqichlarni topish so'roq qilish, qoldirgan izlarni ko'rib chinish, belgilab olish, ashyoviy dalillarni qidirib topish va saqlab qo'yish kerak.

Yodda tuting! Yong'in chiqqan joyni ko'zdan kechirish jarayonida quyidagilarga oydinlik kiritish zarur:

- 1) yong'in sodir bo'lgan joy vaziyati;
- 2) yong'in chiqqan joyning ko'rinishi va yong'inning tarqalish yo'llari;
- 3) yong'in chiqqan joy (yong'in manbai) binoning ichida yoki tashqarisida bo'lganligi, elektr asboblarning ishlatilgan holda qoldirilganligi;
- 4) yong'in natijasida nimalar yonib ketdi yoki zararlandi?

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati sifatida, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun boshlang'ich axborot beradi va uni tergov qilish muvaffaqiyatini ko'p jihatdan belgilaydi. Yong'in to'g'risida xabar olgach, tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyga "tez yordam"ni chaqiradi, yong'in chiqqan joyni qo'riqlash choralari ko'radi va ayni vaqtda kerakli mutaxassislarni chaqiradi. Bundan tashqari, tergov-tezkor guruhini kriminalistik avtolaboratoriya yoki foto va videoapparat, yong'in-texnika chemodani, gazoanalizatorlar, o'lchash asboblari, yong'in axlatini tekshirish uchun elaklar bilan ta'minlash to'g'risida ko'rsatma beradi.

Yong'in yuz bergan joyni ko'zdan kechirish jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

a) yong'in yuz bergan joyni tekshirish va uning sharoitlarini qayd etish;

b) yong'in o'chog'ini aniqlash;

d) o't qo'yish yoki yong'in xavfsizligi qoidalarini jinoiy buzish belgilarini aniqlash va mustahkamlash;

e) yong'in qanday yuz bergan, bunda kim aybdor, kimga va qanday zarar yetkazilgan, degan savollarga javob topish.

Zaruriy dastlabki ma'lumotlarni to'plab, o't o'chiruvchilar va mutaxassislar bilan o'zaro aloqani yo'lga qo'ygach, tergovchi: yong'in umumiy manzarasini qayd etadi; tevarak atrofnii u yerda mavjud kriminalistik ahamiyatga molik izlar va narsalarni topish va mustahkamlash maqsadida ko'zdan kechiradi.

Yong'in o'chirilishi, hayot va sog'liq uchun xavf bartaraf etilishiga qarab, ko'zdan kechirish ishtirokchilari ishlash uchun ochiq hududga kiradi va markazdan chetga qarab, yong'in o'chog'iga asta-sekin yaqinlashgan holda uni ko'zdan kechiradi. Ko'zdan kechirish jarayonida yong'in manzarasini qayd etish va ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan izlar va narsalarni aniqlash borasidagi ish amalga oshiriladi.

Tergovchining bosh vazifasi – yong'in o'chog'i (o'choqlari)ni aniqlash. Hodisa sodir bo'lgan joyning mazkur asosiy nuqtasida ish bo'yicha eng muhim axborot jamlanadi. Agar yong'in tez o'chirilgan bo'lsa, ko'zdan kechirishni uning o'chog'idan boshlagan ma'qul. Yong'in o'chog'ida o'ch chiqishi sabablarini aniqlash mumkin, masalan, yalang'ochlangan va erigan simlardan iborat elektr qalqoni; yondirish qurilmasi qoldiqlari; yonuvchan moddalarning zarralari; kerosin yoki benzin shimdirilgan uvada bo'laklari va h.k.

Sanoat korxonalarida yong'in chiqqan joylarni ko'zdan kechirayotganda ishlab chiqarish jarayonlari, foydalaniladigan xos ashyo va materiallarning xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ularning orasida o'z-o'zidan o't oladigan va yonuvchan moddalar bo'lishi mumkin.

Yong'in joyida mavjud kuyindini sinchiklab ko'zdan kechirish zarur. Yonuvchan modda solingan shisha idishlarda nafaqat uning qoldig'i, balki jinoyatchini aniqlashga yordam beradigan barmoq izlari ham topilishi mumkin. Ko'zdan kechirish jarayonida jiddiy termik shikastlangan joylarni ajratish lozim.

Murdani ko'zdan kechirish vaqtida u turgan joyga, uning kiyimiga, alohida va ko'zga bo'rtib tashlanadigan alomatlariga, yonuvchan

moddalarning qoldiqlariga, o'lim qachon – obyektida yong'in chiqishidan oldin yoki keyin yuz berganini aniqlash imkonini beradigan belgilarga e'tiborni qaratish zarur. Agar odam yong'in muhitiga tirik holda tushib qolgan bo'lsa, uning og'iz bo'shlig'i va nafas yo'llari kuygan bo'ladi, qonida esa karbon oksidi topiladi.

Yong'in yuz bergan joyni ko'zdan kechirish jarayoni va uning natijalarini bayonnomada, tarxda, fotosuratlar va videoyozuvda qayd etish katta ahamiyatga ega. Kriminalistik ahamiyatga molik barcha holatlarni qayd etish muhimdir. Masalan, uy (bino)ni tavsiflashda pol, devorlar, shift qanday materialdan qurilgani, ular suvalgani yoki bo'yoq, gulqog'oz, pardozlash materiallari bilan qoplangani, ularga olov yoki tutun bilan qay darajada ta'sir ko'rsatilgani, elektr isitish asboblari bor-yo'qligi, ular qay ahvoldaligini ko'rsatish zarur.

Elektr simlarning qisqa tutashuv belgilari mavjud bo'lgan qismlari, shuningdek elektr nazorat, elektr hisoblash, elektr ro'zg'or va isitish asboblari hamda ehtimol tutilgan yong'in manbalari hodisa sodir bo'lgan joydan olib qo'yiladi. Barcha hollarda yong'in joyidagi tuproq, kul, ko'mir va kuyindidan ekspertiza tekshiruvlari uchun nazorat namunalari olinadi. Aniqlangan izlar, narsalar, materiallar, moddalarning namunalari va boshqa obyektlar zich berkiladigan sig'imlar yoki qo'sh qavatli polietilen qoplarga solinadi va ularga tegishli yozuvlar qayd etilgan yorliqlar biriktiriladi. Ular olib qo'yilgan joylar ko'zdan kechirish bayonnomasida ko'rsatiladi va hodisa sodir bo'lgan joy tarxida qayd etiladi.

Yong'in yuz bergan joyni ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari videoyozuv, fotos'yomka yo'li bilan qayd etilishi shart.

Yodda saqlang! Yong'inlarga doir ishlar bo'yicha kriminalistik ahamiyatga molik axborot olish manbalari sifatida quyidagilar xizmat qiladi:

- 1) hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish paytida olingan ma'lumotlar;
- 2) guvoh-shohidlar, jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlari;
- 3) tezkor yo'l bilan olingan ma'lumotlar;
- 4) gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni tintuv va so'roq qilish natijalari;
- 5) tergov eksperimentlari, yuzlashtirishlar va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazish natijalari;
- 6) yong'in-texnika va boshqa ekspertizalarning natijalari.

Tergov o'tkazishni rejalashtirish va keyingi tergov harakatlari

Tusmollar dastlabki tergov harakatlarining o'z vaqtida olingan natijalari, yong'in sabablari, ayrim hollarda uning aybdorlari to'g'risidagi materiallar asosida olg'a suriladi.

Etibor bering! Tergovning birinchi bosqichida olingan ma'lumotlar asosida tergovchi hodisa xarakteri to'g'risida quyidagi asosiy taxminni olg'a surishi mumkin:

- 1) o't qo'yilgan;
- 2) ochiqdagi olovga ehtiyotsizlik bilan qilingan munosabat natijasida yong'in chiqqan;
- 3) yong'indan xavfli qurilma, asboblari, elektr o'tkazgichlar va boshqalar texnik nosozligi oqibatida yong'in chiqqan;
- 4) o'z-o'zidan yonib ketadigan mahsulotlar noto'g'ri saqlangan;
- 5) chaqmoq urishi va boshqalar.

Yong'in chiqishiga sabab bo'lgan asosiy taxmin asosidaturli masalalarga oid juz'iy taxminlarni olg'a suradi, bunda ishning aniq vaziyati va yig'ilgan materiallar hisobga olinadi. Masalan, o't qo'yish to'g'risidagi asosiy taxmin olg'a surilganda qasddan qilingan o't qo'yish sabablariga oid masala muhokama etiladi.

Qilingan versiyalar rejalashtirishning asosi hisoblanadi. Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha tergov o'tkazishni rejalashtirish olg'a surilgan taxmin mazmuni va tergovning aniq bir bosqichda hal etiladigan vazifalar bilan asoslangan o'ziga xos jihatlari egadir.

Agar yong'in chiqishiga asosiy sabab olov bilan xavfsizlik qodalariga rioya qilinmagan holda munosabatda bo'lish oqibati ekanligi taxmin qilinsa, tergov o'tkazishni rejalashtirishda yong'in ro'y bergan vaqtda binoning ichida bo'lgan shaxsning ahloqini o'rganish nazarda tutiladi.

Agar yong'in chiqishiga texnik nosozlik sabab, deb taxmin qilinsa, uni topish imkoniyatini beradigan tegishli ekspert tadqiqoti rejalashtiriladi. So'ngra yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalariga rioya qilishga javobgar va mavjud asboblari, mashinalari, mexanizmlar holatini nazorat qilishga mas'ul shaxslarni so'roq qilish nazarda tutiladi.

Ayni vaqtda yong'in chiqqan binoda ishlayotgan xodimlarni guvoh sifatida so'roq qilish rejalashtiriladi. Shuningdek, rejada tegishli texnikaga oid hujjatlarni ajratib olish ko'zda tutiladi.

Agar qasddan o't qo'yish to'g'risidagi taxmin asos qilib olinsa, jinoyat sodir etish sabablarini ochib berishga yo'naltirilgan tergov harakatlarini o'tkazish rejalashtiriladi. Bunda tergov rejasi jinoyatning barcha tarkibini o'z ichiga olgan voqeaning haqiqiy xarakteri to'g'risidagi bir necha

taxminni bir vaqtning o'zida tekshirishni nazarda tutishi kerak. Masalan, do'kon, ombor va boshqalarga o't qo'yishdan maqsad u yerdagi o'g'irlikni niqoblash, turar joy binosiga o't qo'yishda esa qotillikni niqoblash nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda yong'in bilan bog'liq sharoitni tadqiq etishda o'g'irlik, qotillik to'g'risidagi taxmin rejalashtiriladi va tekshiruv o'tkaziladi.

Yodda saqlang! Yong'in bilan bog'liq ishlar ekspertizasining asosiy turlari texnik-yong'in, kimyoviy-sud, kriminalistik va texnik ekspertizalarni o'z ichiga oladi. Odam qurbon bo'lgan bo'lsa sud-tibbiyot ekspertisasi, agar hayvon o'lgan bo'lsa, veterinariya ekspertisasi o'tkaziladi.

Yong'in chiqqan joyni tekshirib, guvohlar so'roq qilinib, boshqa tergov harakatlaridan keyin darhol yuqoridagi ekspertizalar o'tkazilishi kerak. Texnik-yong'in ekspertiza ishlari yong'in bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida boshlansa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Yodda tuting! Texnik-yong'in ekspertizasini o'tkazishda, qoidaga ko'ra, quyidagilarni aniqlab olish masalasi qo'yiladi:

- 1) yong'in manbai va yong'in chiqishining sabablari;
- 2) yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalarini buzish va o't qo'yish bilan bog'liq dalillar;
- 3) yong'in chiqqan vaqtda shart-sharoit va uning rivojlanishining o'ziga xos tomonlari (ba'zi materiallar va buyumlar yonuvchanlik darajasi, olovning tarqalish ketma-ketligi, ayrim holatlarning yong'in avj olishiga ta'siri va h.k.);
- 4) vujudga kelgan oqibatlar va o't qo'yish yoki yong'in xavfsizligi tartib-qoidalari texnik talablariga rioya qilmaslik sabablari o'rtasidagi aloqalar;
- 5) mazkur obyektida yong'inga qarshi vositalar holati va oldini olish choralariga oid tavsiyalar.

Kimyoviy sud ekspertisasi. Ushbu ekspertiza quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

- 1) u yoki bu kuygan predmetlar qanday buyumlar tarkibiga kiradi;
- 2) yong'in manbai ichida nimalar bor edi, yonuvchan moddalar izlari yo'qmi;
- 3) yong'in chiqishiga sabab bo'lgan o'z-o'zidan yonuvchi moddalarning kimyoviy tarkibi qanday edi?

Kriminalistik ekspertiza. Kriminalistik ekspertizada ko'rilayotgan ishlar quyidagi masalalarga javob topishga yordam beradi:

- 1) mazkur poyabzalning yong'in chiqqan joyda izlari qolganmi?
- 2) barmoq izlari mazkur shaxsga tegishlimi?
- 3) yong'in chiqqan joyda topilgan predmetlarda yo'l izi qolganmi; (chiroq, dazmol va h.k)?

4) yong'in chiqqan joydan topilgan va gumon qilingan shaxs tintuv qilinganda olib qo'yilgan predmetning qismlari yaxlit biror narsaga tegishlimi?

Tovarshunoslik ekspertizasi. Gazlama va shunga o'xshash ma'lum guruhga tegishli predmetlar qasddan o't qo'yuvchi tomonidan jinoyat quroli sifatida foydalangani, olovda kuyib ketgan tovarlarning taxminiy qiymati aniqlanadi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi quyidagi masalalarga javob topishga yordam beradi:

- 1) kuyish va boshqa sabablar natijasida o'lim yuz berganmi?
- 2) tirik odam yoki jasad olov ta'siri ostida qolganmi?
- 3) nima ta'sirida kuygan (alanga, yonuvchi eritma, yonib turgan gaz va boshqalar ta'sirida)?
- 4) jasad olov ta'siridan tashqari yana qanday jarohat o'rinlari bor?
- 5) ularga qanday qurollar yordamida zarba yetkazilgan?
- 6) jasad aniqlangan jarohat olovning yuqori haroratimi yoki mexanik sabablar tufaylimi?
- 7) jabrlangan odam qanday darajada kuygan;
- 8) jabrlangan o'lim oldidan alkogol ichimliklar va giyohvand vositalar qabul qilganmi?

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish. Yong'in to'g'risidagi ishlar bo'yicha gumon qilinuvchi va ayblanuvchini dastlabki so'roq qilishda ularning yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalarini jinoyatkorona buzishda va o't qo'yishda bilvosita ishtirokini tasdiqlovchi vaziyatni aniqlashga qaratish maqsadga muvofiq. Agar yong'in joyida topilgan predmet, aynan gumon qilingan shaxsdan ham chiqsa, (masalan, o't yoqish vositalari) so'roqni o'shani aniqlab olishdan boshlash kerak. Gumon qilinuvchi topilgan bu predmetni olgan va undan foydalangan sharoit to'g'risida to'la ma'lumot berishi lozim.

Agar tintuvda yoki gumon qilinuvchini tekshirganda uning kiyimida, poyabzalida yoki badanida yonuvchi materiallar, kul va kuygan izlari topilsa, yoxud hodisa ro'y bergan joydagi tuproq zarralari chiqsa, so'roqni shu dalillar qayerdan kelib qolganligini aniqlashdan boshlash kerak.

Gumon qilinuvchi so'roq qilinganda yong'in chiqqanga qadar bu yerda bo'lganligi yoki o't o'chirish vaqtida hozir bo'lish sabablari to'g'risida yong'inni o'chirishda ishtirok etgan guvohlar ko'rsatuvidan ham, joyni ko'zdan kechirish natijasidan ham foydalanishi mumkin. Bunda, yong'in yuz bergan joyga qachon keldi, qaysi yo'nalish bo'yicha yurdi, hodisa sodir bo'lgan joyda o'zini qanday tutdi, uning ko'rsatmalari o'sha joyda topilgan izlarga mos keladimi, shular haqida bilib olinadi.

Ayblanuvchi o'z aybiga iqror bo'lmasa, ekspertizaga ma'lumotlaridan foydalanish kerak. Ekspertiza xulosalari ayblanuvchi bergan javobiga zid kelganda bu usul ancha samarali bo'ladi.

Tabiiyki ayblanuvchi yong'inga qarshi xavfsizlik tartib-qoidalarini bilmasligini aytadi, xavfli oqibatlarni oldindan ko'ra olmaganligini bildiradi. Bunday tushuntirishni ayblanuvchining boshqa ko'rsatuvlari kabi sinchkovlik bilan tekshirish kerak. Bunday holda, so'roq qilishda, obyektida yong'inga qarshi xavfsizlik holati va uni ta'minlashda mansabdor shaxsning mas'uliyati aniq ko'rsatilgan buyruq, nizom, instruksiya va boshqa hujjatlardan unumli foydalanish zarur.

Etibor bering! Yong'inning oldini olish chorolari:

- 1) jinoyat ishini terqash jarayonida yong'inning kelib chiqishiga qanday sabab va holatlar yordam bergan yoki yengillashtirgan,
- 2) yong'in xavfsizligiga oid choralar tashkil qilinganmi, yo'qmi?
- 3) shu obyektida yong'in xavfsizligi ishlarining umumiy ahvoli qandayligi kabi masalalar aniqlanishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Yong'in sodir bo'lgan joyda odam jasadi topilsa, uni ko'zdan kechirish jarayonida nimalarga e'tibor berish lozim?
2. O't qo'yish va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalarini jinoiy tarzida jinoyatlarni tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar nimalardan iborat?

Kazuslar:

1-kazu

2014-yil 20-noyabr kuni Tokshent shahar Chilonzor tumani, 9-daha 15-uy 15-xonadonda yashovchi fuqaro Lazizov F. ga tegishli bo'lgan "Nexia" rusumli davlat raqami L 358 QA bo'lgan avtomoshina qasddan yoqib yuborilgan. ekspertiza xulosasiga ko'ra ushbu avtomoshina qasddan yoqib yuborilgan.

Jinoyatni kriminalistik tavsifini bayon qiling. Aybdorni aniqlash jarayoni qanday tashkil etilishi lozim? Tergov versiyalari va rejasi qanday shakllantirilishi lozim? Holat yuzasidan qanday qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilishi zarur?

31-MAVZU. YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI QOIDALARINI JINOIY TARZDA BUZGANLIK HOLLARINI TERGOV QILISH

Yo‘l-transport hodisalarining kriminalistik tavsifi. Tergovni olib borish yo‘nalishini aniqlash. Dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari. Yo‘l-transport hodisalari bo‘yicha keyingi tergov harakatlarini o‘tkazish.

Yo‘l-transport hodisalarining kriminalistik tavsifi

Ehtiyotsizlik oqibatida eng ko‘p sodir etiladigan jinoyatlardan biri yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari hisoblanadi. Bunday qoidabuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi nafaqat ularning keng tarqalganligi, balki kelib chiqadigan oqibatlarining og‘irligi, ya‘ni jarohatlarning ko‘pligiga, qurbonlar bo‘lishiga, mulkiy ziyon jiddiyligiga bog‘liq.

Transport vositalarining harakatini boshqarishga nisbatan muayyan tizim sifatida qaraladigan bo‘lsa, ularni shartli ravishda quyidagicha tizimlashtirish mumkin: haydovchi; transport vositasi va yo‘lning holati.

Ushbu tizimning shart bo‘lgan va o‘zaro bog‘liq elementlarini tashkil etadi. Yo‘l harakati xavfsizligi ana shu uchala elementning to‘g‘ri ishlashi va bir-biriga bog‘liq holda amal qilishi orqali ta‘minlanadi.

E‘tibor qarating! Haydovchi bo‘g‘inida qoidalardan chetga chiqish sabablari ob‘ektiv yoki subyektiv tusga ega. Haydovchini boshqarishning odatdagi usullarini o‘zgartirishga yoki yo‘l harakati qoidalarini buzishga majbur etadigan har qanday tashqi sharoitlar obyektiv sabablar hisoblanadi.

“Haydovchi” bo‘g‘inida tartib-qoidalardan chetga chiqishning *subyektiv sabablariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

a) zarurat taqozo etmagan bir paytda yo‘l harakati qoidalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida buzganlik: tezlikni yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajadan oshirish, chorrahalaridan o‘tish qoidalarini buzish, yo‘l belgilariga rioya etmaslik va shu kabilar;

b) kasbiy jihatdan yetarli darajada tayyorgarlikka ega emaslik, yo‘ldagi holatni noto‘g‘ri baholash yoki tajribaning etishmasligi oqibatida transportni boshqarishning noto‘g‘ri usullaridan foydalanganlik;

d) haydovchi holatidagi uning ish qobiliyati va tashqi vaziyatni sezish hissini pasaytiruvchi psixofiziologik o'zgarishlar (transport vositasini uzoq vaqt boshqarish oqibatida haddan ziyod toliqish, alkogoldan mast bo'lish, tan nosog'ligi va shu kabilar).

"Transport vositasi" bo'g'inida chetga chiqishlar transport vositalarining texnik jihatidan nosozligi va ulardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lib, ayni ana shu salbiy ko'rinishlar YTHlari yuz berishiga sabab bo'ladi.

"Yo'l" transport vositasi harakatini boshqarish tizimining elementi o'z ichiga:

harakat amalga oshirilayotgan hududdagi yo'lning texnik holatiga (yo'lning profili, ulanish qismi, qoplamasi, nuqsonlari, to'siqlar va shu kabilarga);

yo'lning xavf to'g'risida ogohlantiruvchi, to'siqni aylanib o'tishni ko'rsatuvchi va shu kabi boshqa zarur yo'l belgilari va ishoralari bilan qay darajada ta'minlanganligiga;

yo'lning harakat amalga oshirilayotgan qismida piyodalar va boshqa transport vositalarining bor-yo'qligiga, ularning harakat yo'nalishlari va tezligiga doir masalalarni oladi.

Haydovchi, transport vositasi va yo'l yuqorida ko'rib chiqilgan barcha holatlar hamda ular tufayli yuzaga keladigan turli vaziyatlarga bog'liq, chunonchi:

1) piyodalar, velosipedchilar, motosiklchilar va boshqa harakatlanuvchi obyektlar bir-birini urib yuborishi;

2) harakat qilmaydigan ob'ektlarni (yoritgich, telegraf ustunlari va boshqa ustunlarni, yo'l bo'yidagi inshootlarni, to'xtab turgan transport vositalari va boshqa shu kabilarni) urib yuborish yoki ular bilan to'qnashish;

3) harakatdagi transport vositalari bilan to'qnashish;

4) keskin to'xtatilishi yoki yo'ldagi to'siqlarga urilishi tufayli yoxud boshqa sabablarga ko'ra turg'unlikni yo'qotishi natijasida transport vositasining ag'darilishi;

5) harakatdagi transport vositasidan yo'lovchilarning ag'anab tushushi;

6) transport vositasining ag'darilishi (masalan, ko'prikdan);

7) transportda (elektr simlarida transport vositalarining to'qnashishi natijasida yoqilg'i uzatish tizimida yuzaga keladigan nosozliklar, yoqilg'ining portlashi va boshqa sabablarga ko'ra) kelib chiqadigan yong'indan iborat bo'lishi mumkin.

Sanab o'tilgan vaziyatlarning har biri o'ziga xos qonuniyatlarga, o'z dinamikasiga ega bo'lib, bu xususiyatlar o'z navbatida iz hosil bo'lishining spetsifikasi va qonuniyatlarini belgilab beradi.

Tergovni olib borish yo'nalishini aniqlash


Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoyiy tarzda buzganlikni tergov qilishning yo'nalishlarini belgilash tergovchining dastlabki vaziflarini aniqlashi va ularni hal etishning yo'llarini tanlab olishini anglatadi. Bunday vazifa negizida tergovchi olib borayotgan tergov ishlarining dastlabki bosqichida yuzaga kelayotgan vaziyatlarning tahlili yotadi. Ushbu bosqichda tergov vaziyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, asosan, avariya yuz berishi bilanoq yo'l xavfsizligi qoidalarini buzgan shaxslar va hodisa boshqa ishtirokchilarining xulq-atvori qanday bo'lganligiga, hodisaning shohidlari bor-yo'qligiga, moddiy holatning qay ahvoldaligiga, tergovchi hodisa yuz bergan joyga etib kelganida izlar saqlangan-saqlanmaganligiga va boshqa holatlarga bog'liq bo'ladi. Sanab o'tilgan faktorlar obyektiv va subyektiv sabablar bilan bog'liq bo'lgan turli rivojlanishiga sabab bo'ladi. Vaziyatning qulay yoki noqulay deb e'tirof etilishi ish olib borilayotgan paytda tergov qilinayotgan voqeaning holatlari to'g'risida axborot olish imkoniyatiga bog'liq.

Aybdorlarning jinoyat izlarini yashirgan holda voqea sodir bo'lgan joydan yashirinishi, guvohlarning yo'qligi yoki ularning yashash joylari noma'lum, hodisa yuz berganligi haqidagi ma'lumot YHXX xodimiga yoki tergovchiga juda kech xabar qilingan bo'lib, vaziyat jiddiy o'zgarib ketgan bo'lsa, eng murakkab, binobarin, eng noqulay vaziyat hisoblanadi. Bunday hollarda tergovning asosiy yo'nalishi axborot manbalarini qidirish: yashiringan haydovchilarni qidirish, voqeaning guvohi bo'lishi ehtimol tutilgan shaxslarni aniqlash, voqea holatlariga aniqlik kiritish mumkin bo'lgan jinoyatning saqlanib qolgan moddiy izlarini topish va shu kabilardan iborat bo'lishi kerak. Bunday vaziyat uchun noaniqlik darajasining yuqoriligi xos xususiyat bo'lib, isbotlovchi axborotlarning ehtimol tutilgan manbalari aniqlanmaguncha boshqa biror-bir masalaning hal etilishi mumkin emas.

Tergov uchun qulay vaziyat yuzaga kelayotganida, masalan, hodisa qatnashchilari va guvohlar tergovchi etib kelguniga qadar o'z joylarida qolsa, izlarni saqlab qolish uchun o'z vaqtida choralar ko'rilsa va hodisa sodir bo'lgan joydagi holatning o'zgarishsiz qolishi ta'minlansa, tergov yo'nalishini belgilovchi vazifa xarakterini, ya'ni qatnashchilarning xatti-harakatlarida jinoyat tarkibi belgilari bor-yo'qligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Buning uchun, eng avvalo, hodisa yuz bergan joyda hozir bo'lgan barchaning (YTH qatnashchilari, guvohlar, jabrlanuvchilar) ko'rsatuvlari va tushuntirishlarini protsessual vositalar yordamida mustahkamlash va bu

dalillarni hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish jarayonida o'rganilgan moddiy holat bilan taqqoslash zarur. Agar tergovchi tergov yo'nalishini belgilab va keyinchalik isbot qilinishi lozim bo'lgan aniq vaziyatlarda barcha holatlarni aniqlab olsa, u jarayon davomida katta kiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Dastlabki bosqichda YTHni tergov qilishning yo'nalishlarini belgilab olish-tekshirilayotgan voqeaga doir ma'lumotlar o'ta taqchil bo'lgan bir sharoitda tergovchi ishini aniq maqsadga qaratilishiga yordam beradigan eng umumiy tarzdagi harakat rejasinigina ishlab chiqishni anglatadi, xolos. YTH yuz bergan joyni ko'zdan kechirishdan oldinoq, hodisa ishtirokchilari, shohidlari va hodisa yuz bergan joyni qo'riqlayotgan YHXX xodimlaridan olingan tushuntirishlar dastlabki ma'lumotlar hisoblanib, tergov taxminlarining asosini tashkil etishi mumkin.



Voqeaning xarakteri to'g'risidagi versiyalarni taqsimlash yoki rad etish hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirishning dastlabki natijalari va voqea qatnashchilarining dastlabki tushuntirishlari olinganidan keyin o'g' mumkin bo'ladi. Xuddi mana shu ma'lumotlar YTHning sabablari, yo'l harakati xavfsizligi borasida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar, uni sodir etgan shaxslar, yashash joylari va boshqa shu kabilar to'g'risida xususiy versiyalar qilish uchun dastlabki ma'lumot sifatida xizmat qiladi. Tergovning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi vazifalarga, shuningdek, ilgari surilgan tergov versiyalarini tasdiqlash yoki rad etish uchun zarur javoblar topish maqsadida hal etilishi lozim bo'lgan aniq masalalarga asoslangan holda tergovning eng umumiy rejasini tuziladi. Dastlabki tergov

harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari yordamida hali aniqlanmagan, ammo isbot qilinishi lozim bo'lgan taxminlarni ilgari surishga, tergovni davom ettirishning keng rejasini ishlab chiqishga kirishish imkonini beradigan ma'lumotlar bazasini yaratadi.

Dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari va tezkor qidiruv chora-tadbirlari yordamida qanday voqea yuz berganligi, avariya kelib chiqishining sababi, aybdor kim ekanligi va qanday moddiy zarar yetkazilganligi aniqlanadi.

Tergovning dastlabki bosqichida eng muhim tergov harakatlari jumlasiga: YTH sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, haydovchini guvohlantirish, jabrlanuvchilar, shohidlar va gumon qilinayotganlarni so'roq qilish kiradi.

Dalil-isbot materiallarining asosiy qismini olish va tekshirilayotgan voqea to'g'risida holis tasavvur hosil qilish imkonini beradigan YTH joyini ko'zdan kechirish texnik va taktik jihatdan eng murakkab ish hisoblanadi.

E'tibor qiling! Yo'l-transport hodisasi yuz bergan joyini ko'zdan kechirish. YTH yuz bergan joyini ko'zdan kechirish o'ziga xos xususiyatga ega. Olingan natijalar tekshirilayotgan voqeani tiklash, hodisa mexanizmi to'g'risida tasavvur hosil qilish va uning sabablarini aniqlash imkonini beradi. Uning spetsifikasi ushbu tergov harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu sharoitlar yo'l harakatining o'ta zichligi tufayli holatning o'zgarishi va izlarning yo'q bo'lib ketishi xavfning kattaligi bilan ajralib turadi. Harakatni to'xtatish esa avtomagistrallarida boshqa xavfli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi tez-tez bo'lib turadigan majburiy o'zgarishlar tergovchi uchun doimo ortiqcha qiyinchilik tug'diradi. Mana shundan kelib chiqqan holda YTHlari to'g'risidagi har bir xabarga darhol munosabat bildirish va avariya yuz bergan hududda yo'l harakatini tez va to'g'ri tashkil etish: xavfli hududni aylanib o'tilishini ta'minlash, ogohlantiruvchi belgilar o'rnatish va shu kabilar zarurligi talab etiladi.

Tergovning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan tezkor qidiruv chora-tadbirlaridan ko'zlangan asosiy maqsad-yashiringan haydovchilarni, YTHda ishtirok etgan transport vositalarini, hodisaning guvohlari va shohidlarini qidirib topishdan iborat. Shu maqsadda yo'llarni to'sish chora-tadbirlari amalga oshiriladi, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish

stansiyalarida, avtokorxonalarda tekshiruvlar o'tkaziladi, davlat avtomobil nazorati organlaridan transport egalari to'g'risida ma'lumotlar olinadi, hodisaning aniqlangan guvohlari, shuningdek boshqa shaxslar so'roq qilinadi.

YTH yuz bergan joyga, qoida tariqasida, ma'lumot olinganidan keyin birinchi bo'lib YHXX xodimlari etib kelishadi. Ularning zimmasidagi vazifa – tergovchi etib kelguniga qadar YTHni qo'riqlash va yo'l harakati boshqa qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Biroq, ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar hodisa yuz bergan joyni o'zgarishsiz saqlashga hamisha ham muvaffaq bo'linavermaydi. Bunday o'zgarishlarga ko'pincha avariya natijasida jabr ko'rgan transport vositasidagi yo'lovchilarga tibbiy yordam ko'rsatish zarurati sabab bo'ladi, negaki, bu ishni bajarish uchun avtomashina oynalarini sindirishga, eshiklarini sug'urib olishga to'g'ri keladi. Avariya ishtirok etgan avtomashinalarni yo'lning transport vositalari harakatlanadigan qismidan boshqa joyga olish ehtiyoji ularning bu yerda turishidan yo'ldagi holatning murakkablashishi, ayniqsa, yo'lda transportning normal harakatlanishiga xavf solishi va shu kabi boshqa sabablardan kelib chiqadi.

Jabrlanganlarga yordam ko'rsatish hodisa sodir bo'lgan joyga etib kelgan YHXX xodimlarining birinchi galdagi vazifasidir. Basharti, jabrlanuvchi davolash muassasasiga jo'natilguniga qadar yo'lning transport vositalari harakatlanadigan qismida yotgan bo'lsa, u yotgan joy va gavdasining holati tegishli tarzda qayd etiladi (chiziladi, masalan, bo'rda asfaltga chiziladi va shu kabilar).

YHXX xodimlari tergovchi etib kelguniga qadar YTHda ishtirok etgan transport vositalarining haydovchilarini ushlab, ularning haydovchilik guvohtomasini va boshqa hujjatlarini, masalan, yuk tashish huquqini beruvchi hujjatlarini, transport vositalarining texnik pasportlari va boshqa shu kabilarini olib qo'yish chora-tadbirlarini ham ko'rishlari kerak. Izlarning saqlab qolinishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Negaki, izlar ob-havo sharoitlari, yo'lda yuzaga kelayotgan holat va boshqa shu kabilarining ta'siri natijasida yo'qolib ketishi turgan gap.

Ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar tergovchi shohidlardan so'rash orqali voqea qanday yuz berganini, moddiy holatga qanday o'zgarishlar kiritilganligini umumiy tarzda aniqlaydi. Basharti, haydovchi avariya aybdori bo'lib, hodisa sodir bo'lgan joydan yashiringan bo'lsa, avariya ishtirok etgan transport vositasining turi, rusumi va rangini, qoidabuzar qochib ketgan yo'nalishni aniqlash juda muhim. Bu qidiruvni

“issig‘ida” tashkil etishga yordam beradi. Qidiruv hodisa yuz bergan joyni ko‘zdan kechirish bilan bir vaqtda olib boriladi. Hodisada ishtirok etgan haydovchilar mast degan shubha paydo bo‘lsa, ularni YHXX xodimlarining hamrohligida qondagi alkogol tarkibini aniqlash maqsadida tibbiy tekshiruvga yuborish lozim.

Tergovchi YTHning umumiy manzarasi bilan tanishib, ko‘zdan kechirishning chegaralarini belgilaydi va shu chegaralar doirasida qo‘riqlash ta‘minlanadi. Ko‘zdan kechirish boshlanguniga qadar hodisa yuz bergan joydan shatak yordamida tortilgan transport vositalarining qayerda turganligini, ular dastlab yo‘lning transport vositalari harakatlanadigan qismining qayerida turganligini ko‘rsatuvchi belgilar bor-yo‘qligini, kasalxonaga jo‘natilgan jabrlanuvchining turgan joyi va gavda ko‘rinishi hamda boshqa shu kabilar belgilangan-belgilanmaganini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Ko‘zdan kechirishni yo‘lning transport vositalari harakatlanadigan va yo‘l harakatini tezda tiklash talab qilinadigan qismidan boshlash kerak. Bunda harakatlarning ketma-ketligi yuzaga keladigan vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Eng avvalo, izlarga putur yetishi yoki ular yo‘q bo‘lib ketishi xavfi mavjud va avtomagistral bo‘ylab transport zich harakat qiladigan joylar ko‘zdan kechirilishi kerak. Agar yo‘l harakati qoidalarini buzgan haydovchi hodisa yuz bergan joydan mashinada g‘oyib bo‘lgan bo‘lsa, ko‘zdan kechirishni haydovchining yo‘nalishini ko‘rsatuvchi izlar orqali topilishi mumkin bo‘lgan joydan boshlab, shu yo‘nalish bo‘yicha qidiruvni tashkil etgan ma‘qul.

Yo‘lning transport vositalari harakatlanadigan qismini ko‘zdan kechirish jarayonida uning profilini (balandliklari, pastliklari, burilish joylari va shu kabilarini), yo‘l ishoralari va belgilarining bor-yo‘qligini, yo‘l yoqasini, to‘siqlarni, transport vositalari harakatlanadigan qismining kengligi va shu kabilarni albatta qayd etish shart. Ushbu ma‘lumotlarni hisobga olgan holda keyinchalik hodisaning har bir qatnashchisi yo‘lning mazkur qismini ko‘z bilan qamrash va YTHning oldini olish uchun qay darajada imkoniyatga ega bo‘lganligiga baho beriladi.

Fildirak qoplamasining shakli aks etadigan va ko‘pincha YTH yuz bergan joyda topiladigan izlarga qarab, ushbu izlarni qoldirgan avtomashinaning rusumi, modeli aniqlanadi. Mana shu ma‘lumotlar yashiringan haydovchilar va transport vositalarini qidirishga yordam beradi.

Transport vositalarini ko‘zdan kechirish. Transport vositasini ko‘zdan kechirishni avariya natijasida putur etgan joydan boshlash lozim.

Bunda transport vositalarida mavjud bo'lgan boshqa izlar: qon izlari, bo'yoq zarrachalari, trasologik izlar va boshqa shu kabilarga ziyon yetkazmaslik yoki ularni yo'q qilib yubormaslik uchun ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Putur yetgan joy qayerda joylashganligi, shakli, o'lchami ko'rsatilgan holda bayonnomada batafsil tavsiflanishi lozim. Agar transport vositasida qirilgan joylar paydo bo'lgan bo'lsa, ularning gorizontaal bo'ylab yo'nalishini ko'rsatish kerak. Putur etgan joylar avtomashinaning qayerida ekanligini ko'rsatishdan tashqari o'lchash yo'li bilan ham qayd etiladi. O'lchov vositasining bir uchi doimo yer sathida bo'lishi kerak. Shu orqali putur yetgan joy qanday balandlikda aniqlangani ma'lum bo'ladi. Ko'zdan kechirilayotgan avtomobil qanday holatda ekanligini va undagi putur yetgan joylar haqida tasavvur hosil qilish uchun umumiy va mukammal suratga tushirish qoidalari bo'yicha fotosuratga olish lozim. Umumiy fotosuratlarda transport vositasining har bir tomondan umumiy ko'rinishi qayd etiladi. Keyin masshtabli chizg'ich bilan har bir putur yetgan joy alohida suratga olinadi.

Murdani ko'zdan kechirish.YTH yuz bergan joyda murda umumiy qoidalarga binoan tekshiriladi. Ayniqsa, murdadagi izlar va shikastlarga alohida e'tibor qaratish, odam urib ketgan haydovchi yashiringan, guvohlar yo'q bo'lgan noqulay tergov vaziyati yuzaga kelgan paytda hal etuvchi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Buning uchun kiyim-kechak ham, poyabzal ham alohida sinchkovlik bilan tekshiriladi, negaki, ularda ko'p hollarda keyinchalik transport vositasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan g'ildirak qoplamasi izlari va boshqa izlar qolgan bo'ladi.

Hodisa yuz bergan joyda murdani ko'zdan kechirish natijalarini qayd etish vaqtida yo'lning transport vositalari harakatlanadigan qismining qayerida, avariya ishtirok etgan transport vositasiga, mavjud izlarga (murdani sudrash, tormoz izlari va shu kabilar) nisbatan qayerda ekanligini aniq ko'rsatish muhimdir. Bu hodisa mexanizmini tiklash imkonini beradi. Murdani gavdasi, kiyim-kechagining holati, ulardagi izlar va putur yetgan joylar ham qayd etiladi. Ko'zdan kechirish jarayonida barcha manzara fotosuratga olinadi, o'lchanadi. Natijalar bayonnomaga batafsil yoziladi. Murdadagi putur etgan joylar, ularning lokallashgani, og'irlik darajasi va murdani kiyim-kechaklaridagi izlarga qarab, zarba avtotransportning qaysi qismi bilan yetkazilganligi, zarbning kuchi, yo'nalishi va boshqa shu kabilar to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Yo'l-transport hodisasida qatnashgan haydovchilarni so'roq qilish. So'roq qilishdan oldin haydovchining shaxsini aniqlash va hujjatlari:

haydovchilik guvohnomasi, avtomashinaning texnik pasporti, yuk tashishga taalluqli hujjatlar, yo'l varaqalari va boshqa shunga o'xshash hujjatlarini tekshirish zarur.

E'tibor qarating! Haydovchini so'roq qilish vaqtida quyidagi holatlarni aniqlash lozim:

1) so'roq qilinayotgan shaxs boshqaruvidagi transport vositasining holati hodisaga qadar qanday bo'lgan. Agarda transport vositasi nosoz bo'lsa, bunday nosozlik qanday namoyon bo'lgan, nosozlik qachon ma'lum bo'lgan va unga barham berish uchun qanday choralar ko'rilgan;

2) xavfli vaziyat yuzaga kelgan paytda haydovchi qanday holatda bo'lgan va normal holatni yo'qotishning sabablari nimada (transportni uzoq boshqarish natijasidagi toliqish, alkogoldan mast bo'lish va boshqa shu kabilar);

3) haydovchi rulni uzluksiz qancha vaqt boshqargan va bunday uzoq yurishga qanday zarurat bo'lgan;

4) xavfli vaziyat paydo bo'lishida bevosita oldin yo'ldagi holat qanday bo'lgan: haydovchi qanday tezlikda harakat qilgan; yo'lda boshqa transport vositalari, piyodalar bormidi; ular o'rtasida oraliq masofa qancha, ular qaysi yo'nalishda va taxminan qanday tezlikda harakat qilishgan; yo'lining ushbu qismida xavf to'g'risida qanday ogohlantiruvchi belgilar bor; yo'l qoplamasining holati va ko'rish sharoiti qanday bo'lgan va boshqalar.

Piyodalarni (velosipedchilarni) avtomashina urib ketganligi to'g'risidagi ishlar bo'yicha jabrlanuvchilarni so'roq qilish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

1) jabrlanuvchi qay tarzda, qanday tezlikda, qanday jadallikda va yo'nalishda harakat qilgan;

2) jabrlanuvchi o'ziga yaqinlashib kelayotgan transport vositasini ko'rganmi va agar ko'rgan bo'lsa, u qaysi tomondan va taxminan qanday tezlikda harakat qilgan;

3) jabrlanuvchi transport vositasi kelib urilganda qayerda turgan;

4) kelib urilgan transport vositasining turi, rusumi, modeli, rangi qanday edi va agar u voqea sodir bo'lgan joydan yashiringan bo'lsa, qaysi yo'nalish bo'ylab ketgan.

YTHga shohid bo'lgan guvohlarni so'roq qilish. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzilganiga guvoh bo'lgan shaxslar doirasiga hodisada ishtirok etmagan, biroq avariya joyiga bevosita yaqin turib, uni kuzatishi mumkin bo'lgan piyodalar, yo'lovchilar, transport vositalarining haydovchilari kiradi. Harakat xavfsizligi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha zimmasidagi vazifalarni bajarayotgan YHXX

xodimlari ham hodisa shohidlari bo'lishi mumkin. Tergovchi YTH ni shohidi bo'lgan guvohlarni so'roq qilish orqali bo'lib o'tgan hodisa haqidagi real tiklaydi va aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni belgilaydi.

Yashiringan haydovchilar va transport vositalarini qidirish.

Haydovchilar va transport vositalarini qidirish hodisa yuz bergan joyni ko'zdan kechirish bilan bir vaqtda tashkil etiladi. Bunda olinayotgan ma'lumotlarni ayirbosh qilish va bundan keyingi qidiruv chora-tadbirlarini birgalikda rejalashtirish maqsadida tezkor qidiruv xodimlari, YHXX xodimlari va tergovchi o'rtasida muntazam aloqa o'rnatilishi kerak. Haydovchilar yashiringan yo'nalishdagi YHXX postlari ular xizmat o'tayotgan hududda qoidabuzar paydo bo'lishi ehtimoli borligi va uning belgilari haqida ogohlantirilishi lozim. Yana shuni unutmaslik muhimki, qidirilayotgan haydovchilar avtomobildagi nosozlikka barham berish, avariya izlarini yo'qotish maqsadida biror joyda to'xtashlari ham mumkin. Bunday to'xtashlardan yo'ldagi yonilg'i-moylash materiallaridan paydo bo'lgan dog'lar, yo'lning yoqasi yoki transport vositasi harakatlanadigan qismidagi haydovchining oyoq izlari, yo'l yoqasidagi g'ildirak qoplamasi izlari va boshqa shu kabilar darak berishi mumkin. Transport vositasi to'xtab o'tgan joyda avariya natijasida putur etgan detallar, faralarning siniq parchalari, kuzov bo'yog'ining zarrachalari topilishi mumkin. Bular ham "issig'ida" jinoyatchining ketiga tushgan xodimlarning e'tiboridan chetda qolmasligi kerak, negaki, bular hodisa to'g'risida yangi daliliy ma'lumotlar beribgina qolmay, qidiruv to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligini ham tasdiqlaydi.

Tezkor xodimlar ega bo'lgan dastlabki axborotlarda qidiruvni aniq yo'nalishlarda olib borish uchun zarur bo'lgan hodisa joyidan qochgan haydovchilar va transport vositalariga taalluqli ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lmasa yoki mavjud bo'lsa-yu, bir-birini inkor etsa, yangi axborot manbalarini qidirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– avtotrassadan sirtida ko'zga tashlanadigan putur yetgan joylari bor transport vositasi o'tganligini kuzatgan shaxslar;

– transport vositalarining haydovchilari nosozlikka barham berishda yoki nosoz avtomobilni tashishda yordam ko'rsatish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxslar;

– avtokorxonalarining safardan qaytgan transport vositalarida shikast etgan joylari borligini payqagan xodimlari va boshqa shu kabilar.

Yo'l-transport hodisalari bo'yicha keyingi tergov harakatlarini o'tkazish

Tergovning davomi YTHning sabablari to'g'risidagi dastlabki xulosani oydinlashtirish, tekshirilayotgan voqeaning hali noma'lum bo'lgan holatlarini, hodisa har bir ishtirokchisining roli va ayb darajasini aniqlash, tergovning dastlabki bosqichida olingan ma'lumotlarni tekshirish maqsadini ko'zlaydi. Buning uchun *ekspertizalar, tergov eksperimentlari, so'roq va boshqa tergov harakatlari o'tkaziladi.*

E'tibor qarating! Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikka doir ishlarni tergov qilishda ko'pincha ekspertizalar o'tkazish talab qilinib, ular orasida eng ko'p *tarqalganlari avtotexnika, kriminalistik, sud-tibbiyot va sud-kimy*o ekspertizalaridir. Hozirgi kunda hodisa yuz bergan paytda haydovchilarning psixofiziologik holati qanday bo'lganligini aniqlash uchun *sud-psixologik* ekspertiza tez-tez tayinlanadigan bo'lib qoldi. Psixofiziologik holatning normadan chetga chiqishiga sabab yo'lda xavfli vaziyat yuzaga kelishi bo'lgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tilga olingan shakldagi ekspertiza o'tkazish zarurati paydo bo'ladi.

Avtotexnik ekspertiza tekshiruvini ko'rib chiqilayotgan toifadagi ishlarning deyarli barchasi bo'yicha o'tkaziladi, negaki bunday ekspertiza texnika nuqtayi nazaridan qaraganda, ko'pincha YTH mexanizmidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash va ularga baho berishning yagona usuli bo'lib qoladi. Bu kabi texnik jihatdan baho berish usuli yo'q bo'lsa, hodisa ishtirokchilarining harakatlari (harakatsizligi) bilan kelib chiqqan zararli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlab bo'lmay qoladi, boshqacha aytganda, tekshirilayotgan voqeaga yuridik jihatdan baho berishning ham imkoni qolmaydi. Avtotexnika ekspertizasi ushbu toifadagi ishlar tergovini amalga oshirayotgan tergovchi oldida ko'ndalang bo'ladigan asosiy savollardan biriga javob beradi, ya'ni transport vositasining haydovchisi yuzaga kelgan vaziyatda hodisaning oldini olish uchun texnik imkoniyatga ega bo'lgan-bo'lmaganligi masalasini hal qilib beradi.

Avtotexnika ekspertizasi haydovchining xatti-harakatlariga baho berishda ushbu harakat tezligiga, yo'nalishiga, avtomobilning turg'unligiga, tormoz yo'lining uzun-qisqaligi va boshqa shu kabilarga qanday ta'sir ko'rsatganligini ham aniqlaydi.

YTH mexanizmidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradigan texnik ekspertiza tadqiqotlari orasida tergov qilinayotgan voqea yuz bergan *yo'l qismi texnik holatining ekspertizasi* muhim o'rin tutadi.

Bunday tekshiruv davomida yo'ning ushbu qismi belgilangan texnika talablariga (qoplamaning sifati, yoritilganlik darajasi, kengligi, to'siqlar bor-yo'qligi va boshqa shu kabilar) javob berish-bermasligi aniqlanadi. Yo'l holatining qoniqarsizligi YTHga sabab bo'lgan hollarda yuqoridagi kabi tadqiqot o'tkazish taqozo etiladi.

E'tibor qarating! Avtotexnika ekspertizasi hal etadigan masalalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Avtomashinaning (motosikl va shu kabilarning) texnik holati. Bunday paytda transport vositasining texnik holatini o'rganish vazifasi faqatgina u yoki bu nosozlikni aniqlash emas, balki bu nosozlik yuzaga kelishining sababini ochib berishdan ham iboratdir. Avtotexnika ekspertizasi avtomashinaning aniq uzeli yoki agregati avariya oqibatida ishdan chiqqanmi yoki avtomashinadagi nosozlik ta'mirning, texnik xizmat ko'rsatishning qoniqarsizligi, zavodda yo'l qo'yilgan nuqson, haydovchi tomonidan boshqaruvning noto'g'ri usullari qo'llanilishi yoki boshqa sabablar natijasimi degan savolga javob berishi kerak.

2. Hodisaning ayrim detallariga qarab, uning mexanizmini aniqlash. Ushbu masalalarni hal etish davomida transport vositalari harakatining tezligi, yo'nalishi, trayektoriyasi, to'qnashilgan joy, izlar hosil bo'lish (putur yetish) mexanizmi va avariyaning boshqa holatlari, ularning dinamikasi aniqlanadi.

3. Hodisada ishtirok etgan transport vositalari haydovchilarining xatti-harakatlari. Ushbu xatti-harakatlarga ekspertiza haydovchi yo'lda yuzaga kelgan vaziyatda transport vositasini haydash va boshqarish usullaridan qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanganiga baho beradi. Ekspertiza haydovchi foydalangan haydash usullari texnika xavfsizligi talablariga qay darajada mos kelishi, ushbu vaziyatda avariyaning oldini olish uchun qanday usullar ko'proq samara berishi mumkinligi va boshqa shu kabi masalalar haqida ham o'z mulohazalarini bildirishi kerak.

Kriminalistik ekspertizalar orasidan ko'proq g'ildirak qoplamlarining izlari (transport vositasini identifikatsiyalash maqsadida), oynaning siniq bo'lakchalari, avariya natijasida uzilib tushgan yoki putur yetgan detallar va uzellar (bo'laklanishning umumiy chizig'i ma'lum bo'lsa, bo'lakchalardan yaxlit qism yasash), avtomashinaning turli qismlarida jabrlanuvchining kiyim-kechaklaridan qolgan izlar (identifikatsiyalash maqsadida) bo'yicha trasologiya tadqiqotlari o'tkaziladi.

Hodisa yuz bergan joydan yashiringan haydovchilarni fosh qilish maqsadida *identifikatsiyaviy daktiloskopik ekspertizalar* tayinlanishi mumkin. Bunday ekspertizalar uchun hodisada ishtirok etgan transport

vositasining salonida, uzellari va agregatlarida topilgan barmoq izlari obyekt sifatida xizmat qiladi. Tergov vaqtida boshqa kriminalistik ekspertizalar, xususan, haydovchilik guvohnomasida, yuk tashishga doir hujjatlarda, transport vositalarining pasportlari va boshqa hujjatlarda qalbakilik belgilari bor-yo'qligini bilish uchun hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi tayinlash zarurati tug'ilishi mumkin.

Materiallar va moddalarning kriminalistik ekspertizasi ushbu toifadagi ishlar bo'yicha o'tkaziladigan kriminalistik ekspertizalar tadqiqotining eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Ekspertiza obyektlari: yonilg'i-moylash materiallari, sirlash uchun ishlatilgan lak-bo'yoq va boshqalar. Bu o'rinda ularning qaysi guruhga mansubligi yoki paydo bo'lish manbaiga doir masala hal etiladi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi o'lim sabablari, tan jarohatining og'irlik darajasi va hodisa yuz bergan joyda topilgan biologik obyektlarning qaysi guruhga mansubligiga doir masalalarni hal etadi. Sud-tibbiyot ekspertiga hodisada ishtirok etgan transport vositalari haydovchilarining sog'lig'i, qay paytda nosog'lom holat YTHga sabab bo'lganligiga doir savollar berilishi mumkin.

Esda tuting! Tergov eksperimenti – ancha keng tarqalgan tergov harakati bo'lib, asosan gumon qilinayotganlar, aybdorlar, jabrlanuvchilar, hodisa guvohlari yoki shohidlarining ko'rsatmalarini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Bu shaxslar tergovchiga voqeaga subyektiv baho bergan holda dalillarni ma'lum qiladilar. Ushbu dalillarni ob'ektiv tasdiqlash uchun so'roq vaqtida ma'lum qilingan voqea yuz berishi va hodisa ishtirokchilarining xatti-harakatlari manzaralari tiklanadi. Izlar hosil bo'lishi mexanizmini aniqlashtirish, turli yo'l sharoitlarida avtomobilning ekspluatatsiya sifatlarini tekshirish uchun tergov eksperimentlari kamroq o'tkaziladi.

Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlikni tergov qilish vaqtida boshqa turdagi ekspertizalar: materialshunoslik (metall detallarning buzilishi sabablarini aniqlash uchun); defektoskopik (transport vositasining turli konstruksiyalarida, detallarida va boshqalarda yashirin, ichki nuqsonlarni aniqlash uchun); tovarshunoslik (avariya tufayli yetkazilgan ziyon miqdorini belgilash uchun) ekspertizalari va bir qator boshqa ekspertizalar o'tkazish ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin.

Eng ko'p tarqalgan tergov eksperimentlari quyidagi maqsadlarda, chunonchi:

1) transport vositalarining, piyodalarning harakat tezligi to'g'risida, hodisa yuz bergan paytda ular orasidagi va boshqa obyektlar orasidagi

masofa to'g'risida voqeani chetda turib kuzatgan guvohlar aytib bergan ma'lumotlarni tekshirish va tasdiqlash;

2) transport vositasi yoki piyoda aniq masofani bosib o'tishi uchun zarur bo'lgan vaqtni aniqlash;

3) transport vositasida muayyan vaqt ichida, yo'ldagi muayyan sharoitlarda transport vositasini boshqarishning tegishli usullaridan foydalangan holda bosib o'tish mumkin bo'lgan oraliq masofani topish;

4) avtomobil yo'lining transport vositasi harakatlanadigan qismida turgan bir paytda aniq joydan turib hodisani kuzatish, haydovchi kabinasidan qandaydir to'siqlar yoki yo'l belgilarini ko'rish yoxud kunning muayyan vaqtida, muayyan ob-havo sharoitlarida, ko'channing kerakli darajada yoritilganligi va boshqa shu kabi sharoitlarda ko'rish chegarasini belgilash imkoniyatini tekshirish uchun o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzganlik hollarini tergov qilishda tergovchi qanday zamonaviy kriminalistik vositalardan foydalanish tergov ishi sifatini oshirishga xizmat qiladi?

2. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini jinoiy tarzda buzib hodisa joyidan qochib ketgan shaxslarni qidirib topishda tezkor tergov va tezkor qidiruv tadbirlari o'tkazilishi zarur?

Kazuslar:

1-kazus

2015-yil 23-may soat 02:35 larda Chilonzor tumani Mustaqillik va A.Navoiy ko'chalari kechishgan chorraxada YXX qoidalarini jinoiy tarzda buzishi yuz berdi. Hodisa joyi ko'zdan kechirilganda A.Navoiy ko'chasi bo'ylab harakatlanib kelayotgan "Matiz" rusumli, davlat raqami L 353 DA bo'lgan avtoullov Mustaqillik ko'cha bo'ylab harakatlanib kelayotgan "Spark" rusumli, davlat raqami L 358 QA bo'lgan avtoullov bilan to'qnashib ketgan. Natijada "Matiz" rusumli, davlat raqami L 353 DA bo'lgan avtoullovni boshqarib kelayotgan haydovchi fuqaro Lazizov L. hodisa joyida olamdan o'tgan. "Spark" rusumli, davlat raqami L 358 QA bo'lgan avtoullovni boshqarib kelayotgan haydovchi Adilov M. og'ir tan jarohati olib 16-sonli shahar shifoxonasiga yotqizilgan. Bosh miya og'ir jarohatlanishi natijasida fuqaro Adilov M.ni ko'z ko'rmay qolgan.

Hodisa joyi yomg'irli ob-xavoda ko'zdan kechirilgani bois shinadan qolgan izlarini aniqlash va aniq o'lchash imkoni bo'lmagan. Hodisaning guvohlari Amirov K. va Parpiev K.lar ikki xil ko'rsatma berishgan. Ular

o'z ko'rsatmalarini hodisani turli yerdan kuzatgani bilan izohlashgan. Dastlabki so'roq natijalariga ko'ra "Spark" rusumli, davlat raqami L 358 QA bo'lgan avtoullov boshqaruvchisi Adilov M. o'z yo'li bilan harakatlanib kelganini bildirgan.

2015-yil 25-may kuni M.Ulug'bek tumani IIO ga Spark rusumli, davlat raqami L 358 QA bo'lgan avtoullov olib qochib ketilgani to'g'risida ariza kelib tushgan.

Jinoyatni kriminalistik tavsifini bayon qiling. Aybdorni aniqlash jarayoni qanday tashkil etilishi lozim? Tergov versiyalari va rejasi qanday shakllantirilishi lozim? Holat yuzasidan qanday qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilishi zarur?

2-kazus

2015-yil 25-avgust kuni soat 15:30 larda A.Temur shoh ko'chasidan Navoiy ko'chasiga qarab burilish chorrahasida o'zbek millatiga mansub, yoshi taxminan 16-25 oraliq'ida bo'lgan qiz jasad topilgan. Murda dastlab ko'zdan kechirilganda uning tanasida yezilish va shilinish izlari borligi aniqlandi. Biroq, jinoyatchi hodisa joyidan yashirinishga ulgurgan.

Hodisani ko'rgan guvohlar Eshmatov E. va Toshmatov S. lar aynan qaysi avtoullov jabrlanuvchini urib ketganini aniq aytib berisha olmadi. Ularning ko'rsatuvlariga ko'ra oq rangli matiz va oq rangli spark bir xil tezlikda chorrahadan o'tishgan. Jabrlanuvchi ular orasida qolgan. Jabrlanuvchi kiyimidan oq rangli kraskasi qoldiqlari topildi.

Jinoyatni kriminalistik tavsifini bayon qiling. Aybdorni aniqlash jarayoni qanday tashkil etilishi lozim? Holat yuzasidan qanday qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilishi zarur? Jinoyatni ochish uchun qanday qo'shimcha tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish lozim?

32-MAVZU. EKOLOGIYA JINOYATLARINI TERGOV QILISH

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oqibatlari. Jinoyat ishini qo'zg'atish. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'yicha isbotlash.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oqibatlari

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar moddiy tarkibli bo'lgani bois, ularni tugallangan deb topish uchun jinoyat-huquqiy oqibatning yuz berganligi muhim ahamiyatga ega.

Ekologik jinoyatlar tergovining samaradorligi, eng avvalo, tergovchining tegishli korxonalar va tozalash inshooti ishini tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini bilishiga bog'liq.

Bu jinoyatlarning barchasi tergov uslubi nuqtayi nazaridan bir xil ko'rinishga ega va o'z kriminalistik belgilariga ko'ra, ya'ni sodir etilish tarzi, mexanizmi va shart-sharoiti, sodir etgan shaxs va keltirgan zarar xarakteri jihatdan bir-biriga juda o'xshashdir. Mazkur toifadagi ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni tergov qilish va ochish ekologik jinoyatlar qoldirgan tipik moddiy izlarda kriminalistik alomatlar butunlay aniq namoyon bo'lishi va uyg'unligiga bog'liq. Masalan, tabiiy muhitning ifloslanishi turli kimyoviy vositalardan foydalanish, energetik issiqlik, shovqin, tebranish, radiatsiya tarzida haddan ziyod tarqalishi atrof-muhit tarkibiy qismini biologik va fizik tuzilmalar va sifat jihatdan jiddiy og'ishlarga olib keladi.

Tuproq va er osti boyliklari, daryo, ko'llar, suv omborlari, kanallar, suv havzalari, sizot suvlari, muzliklar va hokazolar asosan sanoat, transport, kommunal xo'jaliklar va boshqa korxonalardan chiqqan tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqovalardan ifloslanadi. Havo bo'shlig'i esa asosan qora va rangli metallurgiya korxonalari, kimyoviy, energetik, neftni qayta ishlash sanoati tomonidan normativ hujjatlarda belgilangan va ruxsat etilgan konsentratsiya (REK)dan yuqori miqdorda chiqariladigan uglevod oksidi, oltingugurt, qo'rg'oshin, azot oksidlari, simob, vodorod sulfidi va boshqa jonli mavjudot uchun xavfli bo'lgan moddalardan ifloslanadi.

E'tibor qiling! Ekologik zarar keltiradigan qilmishlarni aniqlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak: 1) mazkur hududda mavjud chiqindi chiqaradigan tabiatni ifloslaydigan manbalar ishlab chiqarish korxonalari qancha ekanligi; 2) chiqindining REKdan yuqoriligi, ularning miqdori, ifloslanishning davomiyligi, vujudga kelgan ekologik xavflilik darajasi; 3) tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqovalar, tashlandiq va chiqindilarni suv havzalari va atmosferaga chiqarish sabablari; 4) atmosfera va suv muhitini ifloslashda aybdorlar, ayniqsa, noto'g'ri ko'rsatmasi tufayli halokatli oqibatlariga sabab bo'lgan shaxslar; 5) jinoiy oqibatlariga olib kelgan xatti-harakatlar, ularning yuz bergan va davom etgan vaqti, zararli oqibatlarni bartaraf etish imkoniyatlari va boshqalarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Bir qator holatlarda davlat organlarining sanitariya nazorati va boshqa inspeksiya xodimlarining talablari, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarini bajarmaslik, tozalash inshootlarini qurish yoxud ta'mirlashdan bosh tortish natijasida havo va suvlar ifloslanmoqda. Bunda ko'rsatmalarni bajarmaslik sabablari va vajlarini belgilash, korxonalar rahbari yoxud bevosita ijrochilar aybini aniqlab olish zarur. Tergov ishlari mukammalligini ta'minlash uchun jinoyat sodir etishga olib kelgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi vaziyat bo'yicha ayblanuvchilarni shart-sharoitlarini aniqlash lozim. Ishlab chiqarishni tashkil etish, texnologik rejim talablariga rioya qilish tozalash inshootlari, chang va turli gazlarni tutib qoladigan qurilmalarni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish

Ekologik jinoyat to'g'risida ish suv-texnika nazorati, baliqchilik nazorati, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi organlari, korxonalar ma'muriyati, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, alohida fuqarolar axborotlariga asoslanib qo'zg'atiladi.

Ekologik jinoyat bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan aniqlanishi ham mumkin. Dastlabki tekshirishda jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'ladigan holatlarni aniqlash, suv havzalari, tuproq yoxud havo qanchalik ifloslanayotganligi, bu ifloslanishning xarakteri va hajmi, ularning odamlar sog'ligiga, hayvonot dunyosiga, qishloq xo'jaligi, baliqchilik xo'jaliklari yoki boshqa ishlab chiqarishlarga keltiradigan zararini belgilab olish kerak. Mavjud jinoyat belgilarini tekshirish uchun qo'shimcha materiallar talab qilish va tushuntirish xatlari olish mumkin.

E'tibor qiling! Jinoyat ishi qo'zg'atishga oid xulosa chiqarishga quyidagi tahlillar asos bo'lishi mumkin:

1) suv resurslarini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalari, baliq zaxiralarini muhofaza qilish yoki tabiat muhofazasiga oid boshqa normativ qoidalar buzilganligi to'g'risida hujjatlar;

2) odamlar tomonidan tuproq, suv resurslari, baliq zaxiralari, hayvonot va o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar yoxud atmosfera havosi ifloslangani to'g'risida hujjat;

3) oqova suv, tuproq, havodan olingan namuna tahliliga oid hujjat;

4) shohidlarning xabari yoki tushuntirish xati, shuningdek o'z xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan ekologik zararli oqibatlariga olib kelgan shaxsning ko'rsatuvlari.

To'plangan axborot va ma'lumotlarni tekshirish maqsadida jinoyat ishi qo'zg'atganga qadar hodisa ro'y bergan joylarni ko'zdan kechirish lozim.

Tergovning **dastlabki bosqichida** ifloslanish mexanizmi va manbaiga nisbatan turli farazlar olg'a suriladi. Bunda obyektни ifloslayotgan chiqindilar, moddalar va tashlandiqlarning turi, tabiatni muhofaza qilish qoidalarining buzilish sabablari, ularga rioya qilmagan mansabdor va boshqa shaxslar ishtiroki o'rganiladi.

Farazni olg'a surish jinoyat ishi qo'zg'atish vaqtida vujudga kelgan vaziyatga bog'liq.

Jinoyat ishi qo'zg'atish vaqtida vujudga keladigan vaziyat turi

suv manbalari, tuproq va atmosfera havosi ifloslanganlik fakti ma'lum

ilgari yo'l qo'yilgan ekologik jinoyat belgilarini ko'rsatuvchi materiallar mavjud

sodir etilgan qoidabuzarliklar odamlar salomatligi, hayvonot va o'simlik dunyosi, baliq zaxiralariga zarar keltirgani ochiq-oydin ko'rinadi

Shunga muvofiq tergovchi oldida turgan vazifalaridan kelib chiqib ish bo'yicha tergov yo'nalishi, bu harakatlarning birinchi navbatdagi tadbirlari belgilab olinadi.

Bo'lib o'tgan hodisa to'g'risida axborot olish uchun tergov harakatlarini tezkor-qidiruv tadbirlari bilan qo'shib olib borish tavsiya etiladi.

E'tibor qiling! Eng avvalo, jinoiy xatti-harakatning kelib chiqish sabablari va ekologik obyektlar ifloslanishining doimiyligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagilarni bajarish zarur:

- voqea sodir bo'lgan joy va tozalash inshootlarini ko'zdan kechirish;
- atrof muhitni ifloslanishiga olib kelgan ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishish;
- ifloslayotgan manbalarni bartaraf etish chorasini ko'rish;
- ekologik qoidani buzganlikda aybli shaxs, jabr ko'rganlar, guvohlarni so'roq qilish;
- ifloslanishning texnologik jarayonini ko'rsatadigan hujjatlarni olib qo'yish, ichki boshqaruv nazoratining holati, ekologik nazoratni amalga oshiradigan inspeksiya va organlarning ma'lumotlari;
- ifloslanganlik darajasini tahlil etish uchun tuproq, suv va havodan namunalar olish;
- tibbiy, biologik, kimyoviy, ixtiologik va boshqa ekspertizalarni belgilash.

IIO xodimlariga topshiriq berib, unda tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqova suvni tashlaganlarni ko'rgan guvohlarni bilib olish, atrofdagi joylarni tekshirib chiqish yo'li bilan moddiy dalillarni aniqlash, harakatdagi vositalar (avtomashina, kema va hokazo)ni to'xtatish, joylarni aylanib chiqish va izidan kuzatib borish yo'li bilan ifloslangan joydan yashiringanlarni aniqlash kerak.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'yicha isbotlash

Atrof-muhit ifloslanganlik fakti va darajasini isbotlash uchun to ifloslanganga qadar tuproq, suv obyekti va atmosfera havosining holati (kimyoviy tarkibi, ba'zi moddalar bo'yicha REM, mahalliy tabiiy sharoitlar), ro'y bergan hodisalar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va ifloslashni to'xtatish yuzasidan ko'rilgan choralar to'g'risida axborotga ega bo'lish kerak. Shuningdek, yuqorida tilga olingan obyektlarni ifloslanishiga yo'l ochadigan vaziyatni (tozalash qurilmalari nosozligi, ishlab chiqarishning texnologik talablariga rioya qilmaslik, chiqindi va tashlandiqlarni zararsizlantirish va tozalash jarayonining buzilishi, sanoat, kommunal-maishiy xo'jaliklardan chiqadigan oqovalar tozalanishni ta'minlovchi qurilmalar bir me'yorda ishlamasligi, nazoratining susayib ketganligi) aniqlash ham maqsadga muvofiq. Tergovning oxirigacha kutib o'tirmay tergovchi jinoyatni kelib chiqishiga

yo‘l ochgan aniq sabab va sharoitlarni belgilashi, uni bartaraf etish imkoniyatlarini o‘rganishi va oldini olish to‘g‘risida tegishli organlarga taqdimot kiritishi shart.

Ekologik jamiyatlarni tergov qilishda haqiqiy holatni tez, to‘la va samarali aniqlab olish kerak. Tergov harakatlariga ta‘sir ko‘rsatadigan bir qator o‘ziga xos taktik yo‘nalishlar mavjud.

Voqea ro‘y bergan joyni ko‘zdan kechirish jarayonida ifloslangan suv havzasi, yer uchastkasi, o‘simlik va hayvonot dunyosiga duch kelish mumkin. Bunda ifloslanish xarakteri, uning boshlanishi, rivojlanishi va jadallashish darajasi aniqlanadi. Suv va yer neft mahsulotlari bilan ifloslanganda yuzada yupqa qatlam hosil bo‘ladi, u ichki qatlamga o‘tishi, tuproq shimib olgan bo‘lishi mumkin. Natijada ifloslangan yer va suvning fizik xossasi o‘zgaradi (yaltiraydi, hid chiqaradi, rangi o‘zgaradi). Atmosfera havosi ifloslanganda zararli chang-tuzon va turli gazlarni shamol yo‘nalishi bo‘yicha o‘z manbalaridan uzoqlarga olib ketadi. Ifloslangan havo turli darajada flora va faunalarga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Ifloslangan joyda o‘ziga xos tomonlarni isbotlash uchun tekshirish ishlariga turli mutaxassislar – tegishli ishlab chiqarish tarmoqlari, sanitariya-epidemiologiya, suv muhofazasi, baliq muhofazasi va boshqalar bilan shug‘ullanadigan xodimlarni jalb etish kerak. Bundan maqsad ilmiy metodlar va maxsus asboblarni, qurilmalar va boshqa texnik vositalardan foydalanib, olingan axborot va namunalar to‘la-to‘kis aniqligi ta‘minlanadi.

Ifloslangan joyni ko‘zdan kechirganda ko‘p hollarda markazdan boshlab keyin chetga chiqiladi., ya‘ni ifloslash manбайдan tozalash inshootiga, suv to‘planadigan joyga, so‘ngra chiqindilar to‘kiladigan va ko‘miladigan yaqin hududga o‘tish, xullas spiral bo‘yicha harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, faqat ifloslanayotgan manbanigina emas, balki chiqindilar, tashlandiqlar, o‘lgan baliq va boshqa hayvonlar to‘planib qolgan uchastkalarni ham o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bu uchastkalardagi suv, tuproq, o‘simlik va havodan namunalar olinadi. Videoga olish, suratga tushirish, shuningdek ifloslanish manbai, uning qoldiqlari, izlari va namuna olingan uchastkalarning chizmasi ko‘zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinadi.

Hujjatlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ular suv havzalari, tuproq va havoni zararlayotgan dalillar, shuningdek faunalarning qirilib ketishi, o‘rmon va boshqa o‘simliklarning yo‘qolishi to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi.

E'tibor qiling! Ekologik huquqbuzarlik to'g'risidagi eng ahamiyatli ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) sanoat ob'ektlari qurilishi, qayta qurish va ta'mirlash loyihasi, tozalash, filtrlash va suv to'plash inshootlarini qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjat;

2) sanoat, kommunal xo'jaligi va boshqa ob'ektlardan chiqadigan chiqindilar hisobini yuritish, ularning soni, kimyoviy tarkibi va konsentratsiyasiga oid hujjat;

3) sanoat obyektlari, kanalizatsiya va tozalash inshootlarini ko'rish, ta'minlash va foydalanish tartibiga oid instruksiya va boshqa normativ hujjatlar;

4) ishlab chiqarish chiqindilarini tashish to'g'risida hujjatlar;

5) chiqindilarni tekshirish va laboratoriya tekshiruviga oid hujjatlar;

6) sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, davlat o't o'chirish nazorati, davlat baliqchilik nazorati va boshqa inspeksiyalarning suv havzalari, tuproq, havoni ifloslantirish faktlariga oid hujjatlari va ko'rsatmalari.

Hujjatlar bilan tanishuv orqali, ba'zi mansabdor shaxslar vakolati, hujjatlarning talablariga rioya etish darajasi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Bu ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni ifodalaydigan va jinoyat ishiga tirkab qo'yadigan asosiy hujjatlar darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hujjatlarni ularning to'la-to'kisligi va mantiqiyliqi nuqtayi nazaridan ham, tuzatish va qo'shimcha kiritish imkoniyatlarini texnik-kriminalistik vositalarni joriy etish orqali aniqlash bilan ham chuqur o'rganish zarur.

Hujjatlar bilan tanishib chiqish natijasida aniqlangan faktlardan so'roq qilishda, ekspertiza tayinlashda va boshqa tergov harakatlarini o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tergovchi voqea sodir bo'lgan joyga oid hujjatlarni o'rganish jarayonida sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi masalani hal qilib, zarur hujjatlarni tayyorlab qo'yishi kerak. Shuningdek, suv havzalari, tuproq va atmosfera havosining ifloslanganligiga qadar va undan keyingi holatini ko'rsatadigan ashyoviy dalillar va olingan namunalarga ega bo'lishi zarur. Ekspertiza ifloslangan makon, uning vaqti, davomiyligi, jadallashuvi va kelib chiqish sabablari, tozalash inshootidagi kamchiliklar, atrof-muhitni muhofaza qilishda yo'l qo'yilgan xatolarni belgilashga yordam beradi.

sud-tibbiyot ekspertizasi

odamlar vafot etgan yoki zaharlanganligi sabablarini belgilash, chiqindi va tashlandiqlar (qurum, ko'l, chang, gaz, turli suyuqliklar va moddalarning) odam sog'lig'iga xavflilik darajasi, ularning ta'sir ko'rsatish mexanizmi, oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish va hokazolar uchun.

sud-veterinariya ekspertizasi

hayvonlarning o'lish va kasallanish sabablarini, suv, tuproq va havo ifloslanishining hayvonlar hayotiga ta'sirini aniqlash uchun.

ixtiologik ekspertiza

baliqlarning o'lish sabablari, unga sabab bo'lgan moddalarni aniqlash uchun.

kimyoviy ekspertiza

suv havzalari, tuproq va atmosfera havosini ifloslovchi moddalar tarkibi, konsentratsiyasi, manbalarini aniqlash uchun.

texnologik ekspertiza

suv havzalari, tuproq va havoni ifloslovchi texnologik jarayonda yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni, sanoat oqovalarini tozalash, suyuqlik va gaz chiqindilarini zararsizlantirish qoidalariga rioya qilmaslik sabablarini aniqlash uchun.

texnik ekspertiza

tozalash inshootlari, chang va gazlarni tutib qoladigan qurilmalarni ishdan chiqishi, tuzatilmasligi sabablari, ularni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlash uchun.

Ba'zan boshqa turdagi ekspertizalarni (gidrotexnik, iqtisodiy, buxgalteriyaga oid), shuningdek kompleks ekspertiza (tibbiy-biologik, texnik-sanitariya, kimyoviy-veterinariya va boshqa)larni belgilash zarur bo'ladi.

Ekologik jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalari muhim dalillar manbai hisoblanadi. Amalda mazkur ish bo'yicha guvoh sifatida bir necha guruhdagi **guvohlar** bo'lishi mumkin:

1) ifloslanish faktlari va zararli oqibatlarga oid ma'lumotlarni beradigan guvohlar. Ular orasida turli inspeksiyalar va nazorat organlari mansabdorlari va oddiy fuqarolar bo'lishi mumkin;

2) tozalanmagan va zararsizlantirilmagan sanoat, kommunal va boshqa chiqindilarni suv havzalari va havoga chiqarilganligini bevosita kuzatgan guvohlar; ifloslantirayotgan manbalarni biladigan shaxslar. Ular asosan, tozalash inshootlarida ishlovchi xodimlar bo'lib, o'zlarining kamchiliklarini yashirish va sanoat obyekti rahbari bilan munosabatni buzmaslik uchun ifloslanish vaziyatlarini sir tutishga harakat qiladi;

3) tozalash inshootlaridan noto'g'ri foydalanish sabablari va ba'zi shaxslarning noto'g'ri bergan ko'rsatmasi tufayli suv havzasi, tuproq va atmosfera havosining ifloslanishi haqida xabardor bo'lgan shaxslar.

So'roq qilish yo'li bilan ifloslanishgacha bo'lgan vaziyat, tozalash inshootlarining avvalgi holati, texnologiya qoidasiga mas'ul shaxsning faoliyati va ko'rsatmalari, ilgari qanday ifloslanish faktlari kuzatilgani kabi masalalar aniqlab olinadi. Ko'p hollarda oqova suvlar, zararli moddalar, gazlarni tashlash, ifloslanish oqibatlariga barham berish va ekologik jinoyatni sodir etishga olib keladigan vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqa tadbirlar yuzasidan guvohlar muhim ko'rsatuvlar berishi mumkin.

Ma'lumot uchun! Gumon qilingan va ayblanayotganlarni so'roq qilish samaradorligini ta'minlash uchun, qoidaga ko'ra, sodir etilgan jinoyat ishi yuzasidan ishonchli dalillar yig'ilgan bo'lishi kerak. Ularni so'roq qilish taktikasi so'roq qilinuvchini o'z aybini inkor etishi bema'ni ekanligiga ishontiradigan ma'lumotlarning mantiqiy tahliliga asoslangan bo'lishi kerak. Bunday toifadagi ishlar bo'yicha ayblanuvchilar o'z aybini boshqalarga, ayniqsa, bo'ysunuvchilarga to'nkashga moyil bo'ladilar, tajribalari yetishmaganliklari, normativ hujjatlar talablarini buzish xavfiligini bilmaganliklarini ro'kach qiladilar. Ba'zan ular o'z ayblarini tan olib uni yumshatishga harakat qiladilar, zararli oqibatlarni inkor etadilar yoki unchalik emas deb hisoblaydilar, ba'zan ishlab chiqarish manfaati uchun shunday qilganliklari, yuqori lavozim shaxs ko'rsatmalari mavjudligini pesh qiladilar.

Ekologik jinoyat to'g'risidagi ishlar bo'yicha ayblanuvchi shaxslar maxsus bilimga, professional tajribaga ega ekanligini e'tiborga olib, tergovchi so'roqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rishi va normativ materiallarni o'rganishi, korxonada va uning tozalash inshootlari faoliyatining o'ziga xos tomonlari, jinoyat ishi materiallarini bilib olishi, mutaxassislar bilan maslahatlashishi zarur.

Tergovchi ayblanuvchini so'roq qilayotganda uning shaxsi, kasb mahorati, zararli chiqindilarni qayerga va qancha tashlashga oid ko'rsatma berishda nimalarga asoslanganligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Mazkur ish bo'yicha ayblanuvchi ko'rsatmasini ekspertiza xulosasi va boshqa ma'lumotlar bilan taqqoslab ko'rish kerak.

Ayblanuvchini so'roq qilish jarayonida va boshqa tergov harakatlarini mazkur jinoiy qilmishni sodir etish sabablari va sharoitlarini belgilashga alohida ahamiyat berish kerak: bu ishlab chiqarishni tashkil etishda va faoliyat ko'rsatishidagi nuqsonlar, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishda ba'zi mansabdor shaxslarning e'tiborsizligi, tozalash inshootlari ishi bo'yicha nazoratning yo'qligi, texnik vositalar va transport bilan yomon ta'minlanganligi, ba'zi bir ishlab chiqarish jarayonlarida hisob ishlarini yuritish, chiqindilar saqlash va ularni hisobga olib borish va boshqalar talabga javob bermaydi. Tergovchi mutaxassislar yordamida xuddi shunday jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishga majbur.

Nazorat savollari:

1. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish va isbotlash xususiyatlarini ta'riflab bering.

Kazuslar:

1-kazus

2014-yil 25-oktabrda bir guruh fuqarolar tomonidan "Baxsar" OAK pivo ishlab chiqaruvchi korxonada ariza tushgan. Fuqarolar arizada zavod tomonidan atmosferaga chiqaralayotgan zaharli moddalardan nafas olish imkoniyati bo'lmay qolayotgani to'g'risida shikoyat qilishgan. Fuqarolar Aliboev B., Jumanov D. Aliev K. lar astma kasalligi bilan organo bois xavodagi zaharli moddalar ularning sog'ligiga jiddiy zarar yetkazgani aniqlangan. Fuqaro Jumanov D. shifoxonada vafot etgan. Tibbiyot xulosasiga ko'ra o'limni yuzaga kelishiga kislorod yetishmovchiligi sabab bo'lgan. Holat yuzasidan "Baxsar" OAK ko'zdan kechirilganda atmosferaga chiqarilayotgan gazlar miqdori belgilangan konsentrat miqdoridan oshmagani, gaz miqdorini o'lchovchi moslama oxirgi marta 2014-yil 20-oktabrda ko'rikdan o'tkazilganini aniqlagan.

Holat bo'yicha jinoyat ishini kriminalistik tavsini bayon qiling. Isbotlash jarayoni qanday tashkil etilishi lozim? Tergovchi qanday qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilishi zarur? Holat yuzasidan tergov versiyalari va rejasi qanday shakllantiriladi?

2-kazus

2014-yil 23-mayda Sh.Rashidov tumani, A.Nabiev ko'chasi, 6-uyda iste'qomat qiluvchi fuqaro Samadov R. "Yantar" MChJ tomonidan tuman yaqinadagi oqova suvga oqizilgan zaharli moddalardan terakzori qurib qolgani bo'yicha tuman prokuraturasiga murojaat qilgan. Shuningdek, Fuqarolar Aliev B., Do'stov D. Azimov K.lar ham ariqdagi suv zaharlanishi oqibatida chorva mollari zaharlangani to'g'risida "Yantar" MChJ ustidan ariza berishgan. "Yantar" MChJ mazkur davolarni rad qilib, bunga aloqasi yo'qligini asoslab tergovga tegishli hujjatlarni taqdim qilgan.

Tergov jarayonida "Yantar" MChJ to'liq ko'zdan kechirilgan va shubhali holatlar aniqlanmagan. Biroq fuqaro (cho'pon) Irismetov A. "Yantar" MChJ ga taaluqli VAZ rusumli, davlat raqami 455 KLA bo'lgan, zaharli chiqindi tashish uchun mo'jjallangan avtotransport vositasini har kuni shom vaqtida tuman yaqinadagi oqova suv oldida to'xtab turishini aytib ko'rsatuv bergan. Tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirilganda u yerdan zaharli moddalar va transport vositasiga taaluqli neft mahsulotlari qoldig'i mavjudligi aniqlandi. Tergovchi jinoyatni aynan kim tomonidan sodir etilganini aniqlash maqsadida "Yantar" MChJ haydovchilari fuqaro Bekov R., Zoidov S., Saidov L.larni tergovga chaqirgan. Biroq, fuqaro Irismetov A. uyida chiqqan yong'in natijasida ko'zlari ko'rmay qolgani, tanasining 3/1 qismi kuyib ketgani, o'zi davolanish uchun shahar shifoxonasiga yotqizilgani bois tergovda qatnasha olmagan. Fuqaro Irismetov A. kasalxonada vafot etdi.

Holat bo'yicha jinoyat ishini kriminalistik tavsini bayon qiling. Isbotlash jarayoni qanday tashkil etilishi lozim? Holat yuzasidan qanday qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazilishi zarur? Tergov versiyalari va rejasi qanday shakllantirilishi lozim?

33-MAVZU. VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATINI TERGOV QILISH

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki versiyalar. Dastlabki tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi.

Voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning kriminalistik tasnifi

Ma'lumki, jinoyat sodir etilish vaqtida hali 18 ga to'lmagan shaxslar voyaga yetmagan deb e'tirof etiladi. JPKda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha jinoyat ishlarini yuritish uchun maxsus 60-bob ajratilgan. Unda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha jinoyat ishlarini yuritish tartibi, isbotlanishi va aniqlanishi talab etilgan holatlar, voyaga yetmaganlarni so'roq qilishda pedagog ishtiroki, sudda jinoyat ishini ko'rib chiqishning o'ziga xosligi va shunga oid boshqa masalalar aks ettirilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini tergov qilish metodikasi dastlabki tergovning umumiy maqsadlari va tamoyillariga tayanadi va ayni vaqtda voyaga yetmaganlar shaxsiga bog'liq qator xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlar ular tomonidan huquqqa qarshi harakat sodir etilganda va dastlabki tergov vaqtida shakllangan tushuncha va mulohazalarga asoslangan o'smir xulqida namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda 14-17 yoshlar o'smirlik yoki yigitlikning boshlang'ich davri deb ataladi. Biologik jihatdan o'smirlik jismoniy rivojlanishning yakuniy davri bo'ladi. Mazkur toifaga oid shaxslarning ijtimoiy ahvoli turlicha bo'lib, ular orasida talabalar, ishchilar va ishlamaydiganlar bor. Shu bilan birga ularning xulqi va harakatlari ongli-irodali ko'rinishga ega va bu o'z o'rnida 16 yoshdan umumiy jinoiy javobgarlik, 14 yoshdan boshlab esa qasddan odam o'ldirish, o'g'rilash, zo'rlash, jinsiy ko'rinishdagi zo'rlik ishlatish, o'g'rilik, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, transport vositasini olib qochish, mol-mulkni qasddan yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish, o'qotar qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar va portlatish moslamalarini, shuningdek, narkotik moddalar yoki psixotrop vositalarni, radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash, temir yo'l, havo, dengiz, daryo transport vositalari yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holga keltirish, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi ayrim jinoyatlar uchun, 13 yoshdan esa aybini og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlik davri boshlanishini belgilab beradi (JK 17-moddasi).

Kriminalistikaga oid adabiyotlarda voyaga yetmagan qonunbuzarlarni, ular orasidagi farq birmuncha nisbiyligini qayd etgan holda, uch guruhga ajratib tasniflash qabul qilingan.

Ma'lumot uchun!

- Birinchi guruhga ilk bor jinoyatga qo'l urgan shaxslar kiritiladi. Ularning jinoyat qilishdan avvalgi xulqi va ma'naviy qiyofasi birmuncha ijobiy. Odatda bunday o'smirlar u qadar jiddiy bo'lmagan jinoyatlarni murakkab yoki favqulodda vaziyat ta'sirida sodir etadilar.

- Ikkinchi guruhga kiritilgan ilk marta jinoyatga qo'l urganlarning avvalgi xulq-atvorini benuqson deb bo'lmaydi. Ular spirtli ichimliklar, narkotiklar iste'mol qiladilar, chekadilar va uydan qochib ketish kabi odatlarga egadirlar.

- Uchinchi guruh – ma'naviy qarashlari buzuq o'smirlar. Ular avval ham turli qonunbuzarliklar sodir etib, ma'muriy jazoga tortilgan, maxsus maktab va kasb-hunar bilim yurtlaridan yo'llanganlardir.

Jinoyatning sababi va maqsadi ularda ongli ravishda, katta yoshli shaxs yoki o'ziga nisbatan buzuq tengdoshining ta'sirida shakllanadi. Mushtlashishlarda qatnashish, bezorilik, ojizroqlarni tunash kabi ko'pgina jinoyatlarni ular dabdurustdan sodir etishadi.

Ma'naviy buzuqligi bilan jamiyatga jiddiy xavf tug'dirib, xulq-atvori har qanday me'yorlardan butkul chiqib ketgan shaxslar to'rtinchi guruhga kiritiladi. Bu toifaga muqaddam sudlanganlar (shartli hukm qilingan, muddatidan avval ozod qilingan va h.) ham kiradi. Odatda, bular ishlash yoki o'qishdan bo'yin tovlab, jinoiy guruhlarga uyushgan yoki kattalarning jinoiy guruhi tarkibiga kirgan shaxslardir. Ular qo'rs va berahm, uyat hissi nimaligini unutganlar. Asosiy maqsadi – ta'magirlik va boyish. Manfaati – vaqtni bekorchilik bilan o'tkazish, qimor o'ynash, spirtli ichimlikliklar iste'mol qilish va jinsiy aloqa.

Jonsaraklik va ta'sirchanlik tufayli o'smir odam tanlay olmaydi, janjalga moyil bo'ladi. Mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilish atrof-muhit, jamiyatga qarshi bo'lgan kattalar ta'siri tufayli salbiy rivoj topishi mumkin. Tortinchoq, jur'atsiz bolalarga behurmat munosabatda bo'lib, ular nafsoniyati poymol qilingan oilada o'sgan o'smirlar ham shunday ta'sirga berilishi mumkin. O'smir xulq-atvoridagi ko'p narsani uning o'z mavqeyini ko'tarishi, tengdoshlari orasida obro'-e'tibor qozonishi, dovyurak, qat'iy deb nom olishga intilishi belgilaydi.

Ko'pgina o'smirlarga yaxshi tarbiya olmaslik oqibatida dag'allik, o'jarlik, behayolik, jizzakilik xosdir. Ular bilan muomalaga kirishganda ushbu omillarni e'tiborga olish talab etiladi. Voyaga yetmaganlarga

yolg'unchilik ham xos ekanligini yodda tutmoq zarur. Mardlik va do'stlik tushunchalarini noto'g'ri anglash, o'zini ko'rsatish, e'tibor qozonishga intilish ham ularga xos bo'lishi mumkin.

Do'stlikka intilish ko'p hollarda birgalikda ko'ngilxushlik qilish, keyin esa jinoiy guruhga kirish, kattalar yoki voyaga yetmagan o'ta xavfli qonunbuzarlar ta'sirida nazoratsiz qolishga olib keladi.

Hayotiy tajriba etishmasligi o'ziga va atrofdagilarga baho berish mezonlarining shakllanib ulgurmaganligi natijasida ularda bo'lib o'tayotgan voqeliklarning asl mohiyatini anglab yeta olmaslik; ishonuvchanlik, tez his-hayajonga berilish, asabiylik, do'q-po'pisaga ko'nuvchanlik, betayinlik xislatlari o'rnamshib qoladi.

Ushbu omillar ko'p jihatdan tergov uslubiyoti xususiyatlarini belgilab beradi. Voyaga yetmaganlar bilan munosabatlarda tergovchi protsessual me'yorlarga rioya qilishidan tashqari keng miqyosdagi ma'naviy va ruhiy bilimlarga tayanishi lozim. Voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan tergovchi kasbiga xos fazilatlar bilan birga insonparvarlik, o'smirni qayta tarbiyalash va kamol topishi imkoniyatiga ishonch kabi xususiyatlarni namoyon etishi shart. O'smirlar o'zlariga nisbatan adolatli munosabatni ayniqsa qadrlaydilar. Tergovchi voyaga yetmagan qonunbuzarni muntazam o'rganib, uning ruhiyatidagi o'ziga xos tomonlarini aniqlashi, ichki dunyosini tushunib etishga intilishi kerak. Bunda o'smirlar guruhlariga xos qiziqishlar; sport, musiqa, texnika, kompyuter o'yinlari va boshqa narsalarni bilish ham katta yordam berishi mumkin. Tergovchi o'smir nazarida obro'-e'tibor qozonib, taqlid uchun namuna bo'lib qolishi o'ta muhim. O'smiringa ayb shunday qo'yilishi kerakki, u yig'ilgan ma'lumotlar yetarli ekanligiga amin bo'lsin. Shu bilan birga o'smiringa qo'yilayotgan ayb mohiyati hamda u qilgan harakatlarning ijtimoiy zararini, o'zi, qarindoshlari, yaqinlari va jabrlanuvchilarga qanday zarar yetkazganligini ochib berish zarur.

Ham taktik, ham tarbiyaviy nuqtayi nazardan ruhiy muloqot ruhini o'rnatish tergovning muhim jihatlaridan biridir. Buning uchun o'smiringa tergovchining so'zlari va harakatlarigina emas, balki uning tashqi ko'rinishi, e'tiborliligi, ish materiallarini bekam-u ko'st bilishi ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zaro so'zlashuv, bahs yuritish, gap ohangi ishga munosabatni anglatishini yoddan chiqarmaslik kerak, chunki o'smirlar bu xil xususiyatlarga nisbatan o'ta sezgir bo'ladilar. Voyaga yetmaganlar ishini tergov qilishda ularning tez toliqib qolishini ham e'tiborga olish shart. Jumladan, ular ishtirokidagi so'roq va tergov amallari bir soatdan ko'p davom etmasligi lozim (JPK 553-moddasi).

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlanishi talab etiladigan umum qabul qilingan holatlar bilan birga qo'shimcha ravishda quyidagi shart-sharoitlar aniqlanishi shart:

Voyaga yetmaganning aqlan zaifligi ma'lum bo'lsa, u o'z harakatlari oqibatini to'liq anglay olgan-olmaganligi aniqlanishi kerak. Mazkur jihatlarni aniqlash maqsadida voyaga yetmaganning ota-onasi, o'qituvchilari va tarbiyachilari so'roq qilinishi shart.

Voyaga yetmaganlarni kattalarga nisbatan jinoyatga etaklovchi sabablar ko'proq, chunki ular o'rtoqlariga ko'maklashishga intilish, sho'xlik, ulfatlari o'rtasida e'tibor qozonib, dadilligi, kuchi va chaqqonligini namoyish etishga intiladilar.

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha uchastka inspektorlari bilan jips aloqa o'rnatish lozim. Bu o'smiring turmush, o'qish, mehnat sharoitiga oid, uning atrofidagi odamlar, uning xulqi va avvallari sodir etgan harakatlari xususida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Xuddi ana shu maqsadlarda ta'lim-tarbiya muassasalari, korxonalar, havaskorlik to'garaklari (sport-sog'lomlashtirish, madaniyat va boshq.) bilan ham aloqa bog'lash foydali.

Jinoyat ishini qo'zg'atish va dastlabki versiyalar

Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha tergov ishining sifati va samaradorligi ko'p jihatdan o'z vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atilishiga bog'liq. Mazkur masalani hal etishdagi oz bo'lsa ham, kechikish, o'smirlar tomonidan yangi, ba'zida yanada og'irroq jinoyatlarni sodir etilishiga, shuningdek dalil-isbotlar yo'qotilishiga olib keladi. Bu bo'lg'usi tergov ishini ancha og'irlashtiradi.

Shu bilan birga o'z vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atish katta yoshli dalolatchilarning jinoyat izini yashirish maqsadida o'smiringa salbiy ta'sir o'tkazishlariga chek qo'yadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyati to'g'risidagi xabar kelib tushgan hamon tergovchi jinoyat ishi qo'zg'atishi va kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishi, jumladan jinoyatning oldini olish va bartaraf qilish choralari ko'rish, gumon ostidagi shaxsni JPK 220-moddasiga binoan ushlab olishi, jinoyat joyini ko'zdan kechirishi va guvohlar, jabrlanuvchilarni aniqlashi lozim.

Jinoyat belgilarini aniqlash jarayonida tushuntirishlar olinadi, zarur materiallar to'planadi. O'smiring yoshini aniqlash uchun uning pasport yoki tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi bo'lmaganida bu narsa

yoshiga tegishli hujjatlar – tibbiyot kartasi, ta'lim muassasalaridagi ish qog'ozlari, kadrlar bo'limidagi shaxsiy varaqasi orqali aniqlanadi. Ana shu maqsadda guvohlar (ota-ona, vasiylar, qarindosh-urug'lari va h.) ham so'roq qilinishi mumkin. Boshqa imkoniyat bo'lmagan taqdirda sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkaziladi.

Voyaga yetmagan shaxs o'qiydimi yoki ishlaydimi, qayerda, kim bo'lib, uning o'qishga va ishga munosabati, kundalik xulqi, o'rtoqlari bilan munosabatlarini ham aniqlab olish zarur. Voyaga yetmagan shaxs ishlamaydigan va o'qimaydigan bo'lsa, buning sababi va o'qishni qachon tashlab ketgani, qachon va kim tomonidan qanday choralar ko'rilganligi aniqlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tergovchi o'smirning asosiy fe'l-atvor belgilari, uning orzu-havaslari, odatlari, uning qiziqishlari, vaqtni qanday o'tkazishi, yoshiga va xususiyatlariga oid ma'lumot olish zaruratini doimo nazarda tutishi shart.

Tergovning boshlanishidayoq, har bir ish bo'yicha quyidagi versiyalar ilgari surilishi shart:

O'smirning tergov vaqtida aybini tan olmasligi yoki aksincha, sodir etilgan jinoyatni to'laligicha o'z zimmasiga olish istagi ham alohida e'tiborga molik.

O'smirlar guruhi tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda ushbu guruh qachon va qay tarzda uyushganligi, u qanday jinoiy niyatlarni amalga oshirish maqsadida tuzilgan ekanligini belgilab olish zarur. Guruh ishtirokchilaridan har birining rolini aniqlab olish vazifasi ham muhim. Bu ularning aybdorligi darajasini aniqlash, shu bilan birga alohida tergov harakatlarini rejalashtirish uchun zarur. Xususan, jinoiy tuzilmalar faoliyati tergov qilinganida so'roq qilish guruhning oddiy ishtirokchilaridan boshlanadi. Tashkilotchi, rahbar, ularning yordamchilari keyinroq, ularning etakchilik o'rniga oid yetarlicha ma'lumot yig'ilganidan so'ng so'roq qilinishi maqsadga muvofiq.

Dastlabki va keyingi tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi

Voyaga yetmaganlar sodiretgan jinoyatlar shunday xususiyatga egaki, bunda hodisa joyini ko'zdan kechirish - dastlabki tergov harakatidan biri hisoblanadi. Joyni sinchiklab ko'zdan kechirish jinoyat o'smirlar tomonidan sodir etilganidan dalolat beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va qayd etish imkonini beradi.

E'tibor qarating! Hodisa aniqlangan quyidagi belgilar jinoyatni o'smirlar sodir etganidan dalolat beradi:

- jinoyat izlarini yo'qotish choralarining ko'rilmaganligi;
- jinoyat joyida beadab, bezorilarga xos qiliqlar qilinganligi, tovarlar shikastlangan, buyumlar besabab sindirilgan, behayo yozuv va suratlar chizilganligi;
- jinoyat uchun tanlangan joy ham uni o'smirlar sodir etganidan dalolat berishi mumkin; masalan, maktab oshxonasidan yoki internat oldidagi do'konchadan qilingan o'g'irlik.

Quyidagi faktlar jinoyat o'smirlar tomonidan sodir etilganligi yoki jinoyiy guruh tarkibida o'smirlar borligidan dalolat berishi mumkin: kichik hajmdagi oyoq, qo'l izlari; odatda o'smirlar kiyadigan poyabzal tagcharmining izlari; tashlab ketilgan, yo'qotilgan ko'pincha o'smirlar olib yuradigan buyumlar (qo'lbola sovuq qurol, zanjirlar, bezaklar, qoldirilgan iz va yozuv kabilar).

Voyaga yetmagan shaxsni qo'lga tushirish va uni hibsga olish alohida hollarda, xususan JPK 221-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgandagina qo'llanadi. Mazkur masalani to'g'ri hal qilish uchun sodir etilgan jinoyatning og'irligiga hamda o'smirning shaxsiy xususiyatlariga baho berish talab etiladi. Bunda uning sodir etilgan jinoyatdan keyingi harakatlari, jinoyatning takroran sodir etilish ehtimoli, tergovdan qochib qutilish imkoniyati hisobga olinadi.

Voyaga yetmaganlarni hibsga olish imkon boricha unga ortiqcha e'tibor jalb etmaydigan tarzda tayyorlanib o'tkazilishi: o'smir maktabda, ish joyida, o'rtoqlari davrasida va boshqa shu kabi joylarda qo'lga olinmasligi maqsadga muvofiq. Qarshilik ko'rsatish imkoniyatini, shuning o'zida o'qotar yoki sovuq qurol, maxsus vosita va boshqa narsalardan foydalanish imkoniyatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

O'smir hibsga olingani va ushlab turilgan joyi xususida uning ota-onasiga xabar berilishi shart.

Voyaga yetmaganlarning ishlari yuzasidan tintuv o'tkazish o'g'irlangan mol-mulk, jinoyat qurollari va vositalari, o'smir jinoyatni sodir etganda kiygan poyabzalni izlab topishga, tanish-bilishlarini, aniqlashga, o'smirning turmush va tarbiya sharoiti to'g'risida ma'lumot to'plashga imkon beradi.

Tintuv vaqtida, odatda, ayblanuvchining qonuniy vakili hozir bo'lishi lozim. Buning iloji bo'lmaganda turar joy boshqarmasi yoki mahalla vakili taklif etiladi. Yotoqxona yoki ish joyida tintuv o'tkazilganida tarbiyachi yo ma'muriyat vakili hozir bo'ladi. Tintuvni boshlashdan avval o'smiringa va u

bilan birga yashaydigan shaxslarga izlanayotgan buyumni o'z ixtiyori bilan topshirish taklif etiladi. O'smirlar tez-tez mayda o'g'riliklarga qo'l urishini e'tiborda tutib, ularda o'zlariga tegishli bo'lmagan buyumlar bor-yo'qligini surishtirib aniqlash maqsadga muvofiq.

Tintuvga tayyorgarlik ko'rishda o'smirning ota-onasi va oiladagi o'zaro munosabatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, tintuvga tayyorgarlik paytida umumiy tUSDagi harakatlar ham amalga oshiriladi: tintuv joyi bilan tanishuv, tezkor-tergov guruhi tarkibini belgilash, mutaxassislarni jalb qilish, xolislar bo'lishini ta'minlash va h.

Tabiiyki, tintuv vaqtida hozir bo'lgan oila a'zolari kuzatib boriladi. Tintuv vaqtida o'smimi kuzatib borish ayniqsa muhimdir. Yoshiga xos bo'lgan ta'sirchanlik, o'zini boshqara olmaslik tufayli u tajribali katta yoshdagi shaxsga nisbatan tergovchining so'zlari va harakatlariga asabiyroq munosabatda bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarni so'roq qilishda so'roq qilinayotgan shaxsning protsessual mavqei, shuningdek, uning shaxsini ta'riflaydigan ma'lumotlar e'tiborga olinadi. Bu ikki jihat ham so'roq ishtirokchilari doirasini, so'roqni qayerda, qachon o'tkazishni va unga oid, maqsadga muvofiq taktik uslublarni, so'roqqa chaqirtirish uslubini belgilab olish uchun ahamiyatlidir.

JPK 121-moddasiga muvofiq 16 yoshga to'lmagan guvohni so'roq qilish qonuniy vakili, katta yoshdagi yaqin qarindoshi yoki pedagog ishtirokida o'tkaziladi. Mazkur qoida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarni so'roq qilishga ham taalluqlidir. Voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda tergovchi yoki prokuror ixtiyoriga ko'ra pedagog ishtirok etishi mumkin (JPK 554-moddasi). Shu bilan birga voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokidagina so'roq qilinadi (JPK 553-ioddasi).

Voyaga yetmaganlar so'roqqa, odatda, ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillari orqali chaqirtiriladilar. Tergovchi o'smirni o'z xizmat xonasiga chaqirishi mumkin. Shu bilan birga uni so'roq qilish uchun maktabga kelish va u ko'nikkan sharoitda so'roq qilish samaralidir. Keng ovoza bo'lish ehtimoli tufayli telefonogramma orqali chaqirish maqsadga muvofiq emas. O'smirning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ruhiy aloqa o'rnatishni murakkablashtirishi sababli kuch ishlatib olib kelish ham ma'qul emas.

So'roq taktikasidagi ko'pgina holatlar voyaga yetmagan shaxsning protsessual mavqeyidan kelib chiqadi. Gumon ostidagi shaxs, ayblanuvchi, guvoh va jabrlanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos tomonlariga e'tibor

berish lozim. Voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxsni so'roq qilishga tayyorlanishning o'ziga xos tomoni shundaki, tergovchi ushbu bosqichda ko'pincha hali uning jinoyat sodir etishdagi ishtirokiga oid yetarlicha dalil-isbotga, o'smir shaxsi haqida kerakli tasavvurga ega emas, so'roqqa tayyorlanish uchun ham vaqti cheklangan. Biroq, ana shunday sharoitda ham o'smir xususida hech bo'lmasa uning ota-onasi, o'qituvchilari, qo'shnilaridan surishtirish orqali dastlabki ma'lumot to'plashi zarur. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha uchastka inspektorida kerakli ma'lumot bor-yo'qligini surishtirib ko'rish lozim.

Zudlik bilan o'tkazishning iloji bo'lmaganda, so'roq o'smir hibsga olinganidan so'ng 24 soat ichida o'tkazilishi shart. Bunday tarzda o'tkazilgan so'roq qonun talablarini bajarish bilan o'smirning muayyan ko'rsatuv berishini o'rgatish ehtimoli bo'lgan kattalar bilan aloqada bo'lishidan saqlaydi.

So'roq vaqti va taktikasini tanlashda o'smirlarning ruhiy holatini e'tiborga olish zarur. Odatda ular hayajonlangan va yangicha sharoitdan ruhan ezilgan holatda bo'ladilar. Buning ustiga jazo oldidagi fosh bo'lish, ota-onasidan qo'rqish hissi qo'shiladi. Ana shu vaqtda o'smirga uning ahvoli jiddiyligini tushuntirish so'roq uning uchun muhimligiga ishonтира bilish kerak. Tergovga yordam berish uning manfaati uchun ekanligini anglata olish o'ta muhimdir. Bu maqsadda uning asabiy holatini biroz bo'lsada yengillatish, tinchlantirish, ruhiy aloqa o'rnatish choralarini ko'rish kerak.

Obyektiv va to'liq ma'lumot olishga erishishda birinchi so'roqning o'rni beqiyosdir. Gapni o'smirning turmush, o'qish va tarbiya sharoiti haqidagi suhbatdan, uning qiziqishlaridan boshlagan ma'qul. O'smir bu savollar sodir etilgan jinoyatga aloqasi yo'q deb o'ylab, o'zi va do'stlari haqida ishtiyoq bilan hikoya qilib berishi mumkin. Tarjimai holi to'g'risidagi batafsil suhbatdan so'ng u qaysi jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligi xususida unga batafsil va sodda qilib tushuntirib beriladi.

Savollarni to'g'ri tuzish muhim o'rin tutadi. Ular aniq, lo'nda bo'lib, o'z ichiga o'smirga biror nimani shama qilishi mumkin emas. O'smirga oid ishonuvchanlik xususiyatini ham unutmash kerak. Gumon ostidagi voyaga yetmagan shaxs ishonuvchanligi va mantiqiy fikrlash qobiliyati hali rivoj topmaganligi tufayli tergovchi savollaridan olgan ma'lumotlarga tayanib o'zini nohaq ayblashi, aybdor deb tan olishi mumkin.

Gumon ostidagi shaxs jinoyat sodir etganligini tan olib, bu haqida so'zlab berishga tayyor bo'lsa, uning ko'rsatuvlarini muntazam tahlil qila

borib, har bir jihati yuzasidan so'roq qilish zarur. Shu bilan birga u keltirayotgan faktlarni ikir-chikirigacha so'zma-so'z bayonnomaga kiritish lozim. Shu tarzda olingan ma'lumotlar kelajakda ularning naqadar to'g'ri ekanligini, o'smir haqiqatda ham jinoyat sodir etganmi yo ma'lumotlarni boshqa manbalardan olganligini aniqlash imkonini beradi.

Tergovchining sodir etilgan jinoyat jihatlaridan xabardorligini namoyish etishi ham ish holatlarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Biroq bu faktlar aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi shart. Gumon ostidagi shaxsga u qadar jiddiy bo'lmagan, biroq ishonarli dalilni dabdurustdan namoyish etish uni haqiqatni so'zlashga majbur etishi mumkin. Shu bilan birga, u yoki bu dalillarni namoyish qilishda o'smir yoshi va rivojiga bog'liq ravishda ularni hamma vaqt ham mos ravishda baholay olmaydi. Shu sababli namoyish etilayotgan ma'lumotlarning asl mohiyatini unga tushuntirib berish ma'qul.

Aniqlik kirituvchi savollar, gumon ostidagining joy, vaqt, guvohlarga oid, birgalikdagi harakatlar xususidagi javoblari va so'roq bayonnomasida qayd etilgan shu kabi ma'lumotlar keyinchalik uning vajlari asossiz ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Gumon ostidagi shaxsni so'roq qilishda qaysi pedagog ishtirok etishi ma'qulligini o'smiring shaxsiy xususiyatlari va boshqa ko'pgina omillarni hisobga olgan holda hal etish lozim. Ba'zi hollarda o'smir tanigan va hurmat qilgan pedagogning ishtiroki gumon ostidagi o'smiring asabini tinchlantirishga ko'maklashadi. Boshqa hollarda, misol uchun jinsiy jinoyatlarni tergov qilishda yaxshisi, boshqa maktabdan pedagogni taklif qilgan ma'qul. Bu bosqichda ota-ona ishtiroki ham nojoiz. Amaliyotdan ma'lumki, ota-onasi ishtirokida so'roq qilinayotgan voyaga yetmagan gumon ostidagi shaxs ko'pincha uyaladi, dovdirab, javob berishdan o'zini olib qochadi. Buning ustiga hamma ota-onalar ham ana shunday so'roq jarayonida o'zini to'g'ri tuta bilmaydilar.

Voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilish uchun tergovchi uning shaxsiga oid barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. So'roqqa tayyorlanishda tergovchi o'smiring ma'naviy-ruhiy tavsifiga suyanadi. So'roqdan oldin tergovchi pedagog va himoyachini o'smiring ruhiy tavsifi bilan tanishtirishi tavsiya etiladi.

Agar o'smir, o'z aybini tan olib, chalkash tafsilotlar bersa, bunday holda bu uning qattiq hayajonlanish hisobiga ro'y berdimi yoki u boshqa manbalar orqali olgan noto'g'ri ma'lumotlarga suyandimi degan masalani hal qilib olish lozim. Buning uchun xotirani faollashtirish uslublarini qo'llash yoxud uning yolg'on so'zlaganligini fosh etish lozim.

So'roq jarayonida o'smir va uning sheriklari jinoyat ishidan so'ng o'zlarini qanday tutganlari, nima harakatlar sodir etganlari, kattalardan qaysi biri bilan, nima maqsadda muloqotda bo'lganlarini aniq belgilab olish muhim.

Voyaga yetmagan shaxs o'zini aybdor deb tan olmasa, so'roq qilishda tergovchi o'smirga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfli tomonini, odamlarning bunga munosabati, u oilasiga, yaqinlariga yetkazgan zararni sodda, tushunarli tarzda bayon etib berish shart. SHu bilan birga aybini tan olmaslik nimalarga olib kelishi mumkinligi va yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri baholab, chin dildan tavba qilish va tergov bilan faol hamkorlik qilish uning uchun naqadar muhimligini ochib berish kerak.

Guvohning mazkur toifalardan qay biriga oidligidan qat'i nazar, uni so'roq qilishga tayyorgarlik ko'rishda imkoniyat boricha uning ba'zi shaxsiy xususiyatlarini: tengdoshlariga munosabati (do'stlik, aldanchilik, ko'ngilchanlik, johillik va h.), shaxsga oid xossalarini (yolg'onchilik, o'jarlik, yashirinlik), qiziqishlari, havaslari va hodisa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Voyaga yetmagan shaxslarni ko'rsatuvlariga baho berishda hodisani qabul qilishning ham obyektiv (uzoqdan turib, yoritilgan joyni, ancha vaqt davomida kuzatish), ham subyektiv (sezgi organlarining holati, his-hayajon) omillarini hisobga olish shart. O'smir ko'rgan-eshitganlarini bayon etganida ham o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bularning bari uning ruhiy xususiyatlari, so'z boyligi yetarli emasligi, boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mazkur qiyinchiliklar xotiraning o'zaro bog'liq holatlar yordamida faollashtirish, xotirani dalillar namoyish etish yo'li bilan jonlantirish, so'roqni hodisa sodir etilgan joyda o'tkazish yoki ko'rsatuvlarni tekshirish uslublari yordamida bartaraf etiladi.

Jinoiy javobgarlik yoshiga etmagan guvohlarni so'roq qilishni tayyorlash va o'tkazishda ularni ikki guruhga ajratgan ma'qul. Birinchisi - ilk marotaba, odatda, biron kimsa ta'sirida jinoyatga qo'l urgan o'smirlar. Ular ko'p hollarda to'g'ri ko'rsatuv beradilar va tergovchining vazifasi ana shu "tarbiyasi og'ir" o'smiring ishonchini qozonish, aniqlanishi kerak bo'lgan jihatlar, shart-sharoitlar doirasini to'g'ri belgilab olish, savollarni talab darajasida tuzish, ko'rsatuv tafsilotlarini belgilashdan iborat bo'lib qoladi.

Ikkinchi guruhga bir necha marotaba huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan o'smirlar kiradilar. Ular deyarli samimiy bo'lmaydilar, sodir etgan qilmishlaridan kamroq afsuslanadilar, cho'rtkesar, ashaddiy va tarbiyasiz

ekanliklari bilan faxrlanadilar. Ularni fosh qilishda obro'ga ega bo'lgan pedagog, shu jumladan sport maktabining treneri katta yordam berishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchining yaqin tanishlarini so'roq qilishda ular o'rtasidagi do'stona munosabatlarni e'tiborda tutish lozim. Ko'pincha ular yashash, o'qish, ishlash joyiga ko'ra shakllangan, birga dam oladigan turg'un guruhlarga uyushadilar.

Bu xil guvohlar toifasida oila, maktab, mehnat jamoasi bilan normal aloqasini uzgan shaxslar bir talay. Ular ijtimoiy nazoratdan chiqib ketgan bo'lib, o'z qarashlariga ko'ra ayblanuvchining maslakdoshlari hisoblanadilar. Ularni so'roq qilishda o'zlari yoki boshqa o'smirlar tomonidan sodir etilgan, tergov tomonidan hali aniqlanmagan huquqbuzarliklar xususida ko'pgina qimmatli ma'lumot olish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan guruhlarda kichik yoshdagi guvohlar bo'lsa, bunda quyidagilar e'tiborga olinishi shart. Ba'zi yosh bolalar o'ta kuzatuvchan bo'ladilar. Ular ko'pincha kattalar sezmagani holatlarni ko'rib, eslab qoladilar. Ushbu fazilatdan so'roq qilinayotgan shaxsning e'tiborini tafsilotlarga qaratish va ularni keyinchalik tekshirish maqsadida bayonnomada ikir-chikirigacha qayd etish orqali foydalansa bo'ladi.

Jinsiy jinoyat sodir etilganida, jabrlanuvchi ba'zi tafsilotlarni aytmasligi, hattoki ularni rad etishi ham mumkin. Jabrlanuvchiga ayblanuvchining qarindoshlari, yaqinlari, do'stlari ta'sir ko'rsatayotganligini ham hisobga olmaslik mumkin emas. Bularning bari unga savollarning qay tarzda berilishini belgilaydi va keyinchalik ko'rsatuvlarini tekshirish yo'llarini tanlash imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlar tarbiyasi uchun mas'ul shaxslarni so'roq qilish orqali o'smirning turmush va tarbiya sharoitlari, shaxsiga oid xususiyatlari aniqlanadi. So'roq jarayonida jinoyat sodir etilishiga olib kelgan, jinoiy axloq sabablarini keltirib chiqargan, o'smir ongiga uning jazo olmasligi to'g'risidagi tushunchani kiritgan sabab va shart-sharoitga oydinlik kiritiladi.

Voyaga yetmaganning tarbiyasi uchun mas'ul shaxslarni so'roq qilganda navbatma-navbat oilasining tarkibi, o'smirning o'qish va dam olish sharoitlari, uning o'rtoqlar davrasi, bo'sh vaqtini qay tarzda va kim bilan o'tkazishi; o'smirning maktab, ishxonadagi jamoasi bilan munosabatlari; ota-onasining bir-biriga va o'smirlarga bo'lgan munosabati; ular sodir etilgan jinoyatga oid qanday ma'lumotga egaligi; o'smir bilan shu to'g'rida o'tkazgan suhbatlari mazmuni; jinoyat sodir etilgan kuni u vaqtini qanday o'tkazgan, o'zini shundan keyin qanday tutganligi aniqlanadi.

Maktab, hunar-texnika bilim yurti pedagoglari, tarbiyachilarini so'roq qilish o'smirning ruhiy-jismoniy rivojiga oid xususiyatlar, uning fe'l-atvori, ehtiyojlari, qiziqishlari, aloqalari, yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi xususida ma'lumot olish imkonini beradi. Bu shaxslar oiladagi ma'naviy iqlim, ota-onasining o'zaro munosabatlari, o'smirning turmush va tarbiya sharoiti, odatlari, moyilliklarining paydo bo'lish sabablaridan xabardor bo'lishlari mumkin. O'qituvchi va tarbiyachilar odatda, ota-onalarga nisbatan xolisroq bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarni tergov qilishda yuzlashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashish va uni favqulodda hollardagina o'tkazish kerak. O'smirlar yuzlashtirishga istar-istamas rozilik beradilar, chunki sotqin deb nom olish va jazolanishdan qo'rqadilar. Yuzlashtirish odatda tergovchi va o'smir o'rtasidagi bo'lgan ruhiy aloqani chigallashtiradi. Asosiy xavf esa u boshqa ishtirokchi ta'sirida, ayniqsa u jinoyatning katta yoshli qatnashchisi bo'lsa, o'z ko'rsatuvlarini o'zgartirishi mumkinligidadir. O'smir ba'zan murakkab vaziyatni anglab olishda qiynaladi va yoshi katta shaxs bilan yuzlashtirilgandan so'ng o'z aybini tan olmagan katta yoshli shaxs do'q-po'pisa qilmagan holda ham o'z ko'rsatuvlarini o'zgartirishga moyil bo'ladi. Voyaga yetmaganlarni o'zaro yuzlashtirish ham o'ta murakkab. O'smirning fosh qiluvchi ko'rsatuvlarini boshqa ishtirokchi odatda, ular o'rtasidagi yomon munosabatlarga yo'yadi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchi ko'rsatuvlaridagi qarama-qarshiliklarga yuzlashtirishdan boshqa yo'l bilan barham berish imkoniyati mavjud bo'lsa, tergovchi ushbu imkoniyatdan foydalanishi shart.

Mazkur turdagi jinoyatlar yuzasidan quyidagi ekspertizalar tayinlash maqsadga muvofiq. Bular:

- sud-tibbiyot ekspertiza;
- sud-psixologik ekspertiza;
- sud-psixiatrik ekspertiza.

Nazorat savollari:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarini tergov qilishda tergovchi tergovni rejasini qanday asoslarga ko'ra shakllantirishi lozim?
2. Voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarini tergov qilishda so'roq qilish tergov harakatini qanday tashkil etish zarur?

Kazuslar:

1-kazus

Ikki nafar voyaga yetmagan shaxs tomonidan nomusga tegish jinoyati sodir etildi. Bunda jinoyatchilar o'z qilmishlarini yashirish maqsadida oldindan kelishib olishdi. Hodisa joyidan "Winston" sigaretasiga qoldiqlari, jabrlanuvchi tanasi hamda kiyimlarida turli biologik izlar topilgan. Dastlabki surishtiruv va tezkor qidiruv tadbirlari natijasida jinoyatchilar Alimov Xasan va Alimov Xusan ismli egzaklar ekanligi aniqlandi.

Jabrlanuvchi ko'rsatuvlarida jinoyatchilar spirtli ichimlik iste'mol qilganini bildiruvchi belgilar mavjud. Ulardan biri jabrlanuvchini qo'llaridan ushlab turgan va boshqasi u bilan jinsiy aloqada bo'lgan. Ulardan biri sigaret chekkan. Shundan so'ng jinoyatchilar uni kiyinishi yordamlashgan va kuzatib qo'yishgan.

DNK ekspertizasi xulosasiga ko'ra Alimov Xasan va Alimov Xusanlar tuxumdosh egzaklar ekanligi, shu bois ulardan olingan namunalar bilan jabrlanuvchidan olingan namunalar qiyosiy tahlili natija bermagani aniqlandi. Ya'ni, jabrlanuvchi tanasidan topilgan sperma bilan gumon qilinuvchilar Alimov Xasan va Alimov Xusanlardan olingan namunalar aynan bir xil.

Ma'lumotni tahlil qiling. Haqiqatni aniqlash uchun tergovchi sifatida qanday tergov harakati o'tkazazish zarur?

Tergov rejasini shakllantiring. Yig'ilgan ashyoviy dalillarni baholang.

2-kazus

Sharipova D. qizi 2003-yilda tug'ilgan fuqaro Azimova A.ga nisbatan sodir etilgan nomusga tegish jinoyati yuzasidan Chilonzor tumani IIB ga murojaat qilgan. Jabrlanuvchi dastlabki so'roq jarayonida jinoyat bir oy oldin sodir etilgani, shundan so'ng o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgani, jinoyatchini tanishni va umuman u haqida bilishni istamasligi to'g'risida ko'rsatuvlar bergan. Keyinchalik fuqaro Azimova A.da ruhiy buzilishlar yuzaga kelgan va bu haqda ekspert hulosa bergan. Tergovchi mazkur jinoyat uning yaqin qarindoshlari tomonidan sodir etilgan degan versiyaga borgan.

Haqiqatni aniqlash uchun tergovni qanday tashkil etish lozim?

Holat yuzasidan yana qanday tergov versiyalarini tuzish mumkin?

Jinoyatni ochish uchun qanday taktikadan foydalanish zarur?

34-MAVZU. PORAXO‘RLIK JINOYATINI TERGOV QILISH

Poraxo‘rlikning kriminalistik tavsifi, tipik tergov vaziyatlari, versiyalari va tergovni rejalashtirish, poraxo‘rlikni tergov qilishning dastlabki bosqichidagi tipik vaziyatlar va tergovchining xatti-harakatlari. dastlabki va keyingi tergov harakatlari

Poraxo‘rlikning kriminalistik tavsifi

Poraxo‘rlik har doim mansabdor shaxsning xizmat vazifalarini o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida suiiste‘mol qilishi bilan bog‘liq va ko‘pgina hollarda yashirincha, guvohlarsiz yuz beradi.

Poraxo‘rlikda jinoyat subyektlarining odatiy aloqa sxemasi quyidagicha:

- 1) **pora beruvchi – pora oluvchi,**
- 2) **pora beruvchi – vositachi – pora oluvchidan iborat.**

Masalan, savdo sohasidagi poraxo‘rlikda ko‘pincha pora oluvchining bir necha vositachi bilan aloqasi bo‘ladi. Bunda vositachilar mustaqil, ba‘zan esa o‘zaro xizmat bilan bog‘liq bo‘ladilar. Vositachi o‘zining ulushini olgan holda jinoyatni sir tutishga harakat qiladi va odatda poraxo‘rlik tashabbuskorining ishonchli odami bo‘ladi. Bu aloqa bajarilishi jarayoni nihoyatda sir saqlanadi. Poraxo‘rlar pora beruvchi jinoyat ustida qo‘lga tushganda qanday bahona to‘qishini avvaldan kelishib qo‘yadi. Jinoyatni yashirishning turli usullari bor: “sovg‘a qilish”, “qarz berish”, korxonaning shtatiga ishchi, xodim sifatida qabul qilish va maosh to‘lash yoki moddiy rag‘batlantirish va hokazo.

Poraxo‘rlik ko‘pgina hollarda davlat yoki jamoat mulkini talon-taroj qilish, xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilish va boshqa jinoyatlar bilan bog‘liq.

E‘tibor qiling! Poraxo‘rlikning natijasi har doim ham moddiy qayd qilinmaydi. Ammo bir qator vaziyatlarda jinoyatga aloqador shaxslarning barmoq izlari pora predmetida, o‘ramda qoladi, ba‘zan esa poraxo‘rlikning boshqa izlari ham saqlanib qoladi (*tovar cheklari, etiketkalar, pul, qimmatbaho narsalar, jinoyatchilarning shaxsiy yozuvlari va boshqalar*).

Poraxo'rlikning kerhinal tavsifi jinoyat sodir etishning quyidagi tipik holatlari bilan bog'liq o'zaro aloqasi shakllari:

a) pora beruvchining manfaatlarini ko'zlovchi noqonuniy harakatlar bilan bog'liq poraxo'rlik;

b) pora beruvchining manfaatlarini ko'zlovchi qonuniy harakatlar bilan bog'liq poraxo'rlik, masalan: uy-joy yoki biror mablag' olishni tezlashtirish maqsadida;

d) vositachilarsiz pora berish va olish;

e) vositachilar yordamida pora berish va olish;

f) ta'magirlik yo'li bilan pora olish;

g) ta'magirliksiz pora olish.

Tipik tergov vaziyatlari, versiyalari va tergovni rejalashtirish

Poraxo'rlik haqidagi jinoyat ishi jamoatchilik, mansabdor shaxslar vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, fuqarolarning arizalari, matbuotdagi xabarlar va IIO organlarining tezkor-qidiruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tergovchi, jinoyat ishi qo'zg'atish haqida qaror qabul qilarkan, yuz bergan tergov vaziyati va boshlang'ich ma'lumotlarni baholaydi va ularga asosan versiyalar ishlab chiqadi hamda tergov rejasini tuzadi.

Poraxo'rlikni tergov qilishning tipik vaziyatlariga quyidagilar kiradi:

Poraxo'rlikni tergov qilishning dastlabki bosqichidagi tipik vaziyatlar va tergovchining xatti-harakatlari.

Pora oluvchi va pora beruvchi o'zaro kelishib harakat qilgan:

1. Jinoyat haqidagi axborot tezkor manbalardan tushgan:

a) Guvohlarni so'roq qilish;

b) Xujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish;

c) Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini omalga oshirishni topshirish;

d) Pora beruvchi va pora oluvchini ashyoviy dalillar bilan ushlash; ularni shaxsiy tintuv qilish;

e) Poraxo'rlarning yashash joyida tintuv o'tkazish va uning mol-mulkiga band solish;

f) Gumon qilinuvchilarni so'roq qilish.

2. Poraxo'rlik fakti haqidagi axborot rasmiy manbaalardan tushgan. Poraxo'rlarga ularning harakatlari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari qiziqayotganligi ma'lum:

a) Guvohlarni so'roq qilish;

b) Hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish;

c) Surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini omalga oshirishni topshirish;

3. Keyingi tergov harakatlari:

a) tanib olish uchun ko'rsatish;

b) guvohlarni so'roq qilish;

c) ayblanuvchilarni so'roq qilish;

d) yuzlashtiri;

e) sud ekspertizalarini tayinlash.

Ma'lum bir mansabdor shaxs tomonidan pora olinganligi haqida aniq dalil mavjud bo'lsa. Bunday hollarda, odatda, jinoyat ishi qo'zg'atiladi va tergov rejasi tuziladi.

Boshlang'ich tergov jarayonida:

a) guvohlarni so'roq qilish, mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlovchi harakatlar qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish;

b) pora beruvchini ushlab va so'roq qilish; sheriklarni tintuv qilish, pora predmetini ko'zdan kechirish;

c) yuzlashtirish, kriminalistik ekspertiza tayinlash, kerak bo'lsa hujjatlarni sud-dastxat yoki kriminalistik texnik o'rganish, tovarshunoslik ekspertizasi tayinlash, tintuv paytida shubhalanuvchidan olib qo'yilgan narsalarning turi va sifatini aniqlash, sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlab, mablag' to'lovlari to'g'riligini hisobga olish bilan bog'liq masalalarni hal qilish lozim.

Tergov harakatlari bilan ayni vaqtda poraxo'ring sheriklarini va har bir shaxsning jinoyatdagi rolini aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkaziladi.

E'tibor qiling! Ma'lum bir mansabdor shaxsga pora va'da qilinganligi yoki berilishi haqida ma'lumotlar bor bo'lsa, bunday holatda jinoyat ishi qo'zg'atishga asosni boshlang'ich tekshiruvdan o'tkazish, mansabdor shaxsning aloqalarini tekshirish, uning pora beruvchi manfaatini ko'zlagan holda xizmat doirasi imkoniyatlari va harakatlarini aniqlash, pora beruvchi va pora oluvchini jinoyat ustida qo'lga tushirish bo'yicha tegishli tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish zarur.

Bunday vaziyatda boshlang'ich tergov harakatlari quyidagicha tus oladi:

- a) da'vo qiluvchini so'roq qilish;
- b) jinoyat ustida qo'lga tushirish;
- c) pora oluvchining uy-joyi va ish xonasida tintuv o'tkazish;
- d) pora predmetlarini ko'zdan kechirish;
- e) guvoh va shubha ostidagilarni so'roq qilish;
- f) ekspertizalar tayinlash.

Porani tamagirlilik yo'li bilan olinganligi haqida dalillar mavjud bo'lsa, olingan ma'lumotni dastlabki tekshiruvdan o'tkazish zarur. Haqiqatdan ham pora oluvchi o'ziga tobe shaxsni uning noqonuniy talablarini qondirishga majbur qiluvchi sharoit yaratganligini aniqlash zarur. Mansabdor shaxsga nisbatan ig'vogarlik bor-yo'qligini aniqlab, jinoyat ishi qo'zg'atish va tergov o'tkazish haqida qaror qabul qilish zarur. Dastlabki tergov vaqtida **kriminal hisobotlar, arxiv materiallaridan foydalaniladi, tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkaziladi**. Tergovchi mansabdor shaxsning vakolati bilan tanishadi, da'vo qiluvchi va boshqa shaxslardan tushuntirishlar oladi, zarur hollarda mansabdor shaxsning ma'lum bir muddatdagi mehnat faoliyatini tekshirish maqsadida reviziya yoki inventarizatsiya tashkil qiladi.

Ko'rsatib o'tilgan vaziyatda quyidagi boshlang'ich tergov harakatlari amalga oshiriladi:

- a) arz qiluvchi va boshqa guvohlarni so'roq qilish;
- b) poraxo'zni jinoyat ustida qo'lga olish;
- c) uni tintuv qilish va so'roqqa tutish;
- d) pora predmetlarini ko'zdan kechirish;
- e) hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish;
- f) shubha ostidagilarni so'roq qilish;
- g) yuzlashtirish;
- h) ekspertizalar tayinlash.

E'tibor qiling! Mazkur holat yuzasidan, buxgalteriya hujjatlarini to'g'ri va qonuniy hujjatlashtirishni tekshirish uchun sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlash lozim.

Poraxo'rlikni tergov qilish jarayonida quyidagi versiyalar yuzaga keladi va tekshiriladi:

- a) poraxo'rlik haqiqatdan ham jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'luvchi materiallarda ko'rsatilgan sharoitlarda sodir bo'lgan;
- b) poraxo'rlik sodir etilgan, ammo soxta mansabdor-firibgar shaxsga berilgan;
- c) pul mansabdor shaxsga qonuniy ravishda berilgan (qarzni qaytarish), pora haqida ariza – vijdonan yanglishgan;
- d) mansabdor shaxsga pora berilmagan, chunonchi, noqonuniy talabni bajarishdan bosh tortgani uchun unga tuhmat qilingan;
- e) mansabdor shaxs boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab ma'lum bir xizmat harakatlarini amalga oshirgan va pora olmagan.

E'tibor qiling! Ko'pincha poraxo'rlik mansabdor shaxsni qalbakilashtirish harakatlari bilan ham bog'liq. Shuning uchun poraxo'rlikni tergov qilishda poraxo'rlikni boshqa jinoyatlar bilan aloqa versiyalarini ham tekshirish zarur. Versiyalardan kelib chiqqan holda, tergov harakatlarining ketma-ketligi, o'tkazish vaqtlari va ijrochilari rejalashtiriladi. Poraxo'rlik haqidagi ish odatda ko'p epizodli bo'ladi. Rejalashtirishda tashkiliy va tayyorlov tadbirlariga, tergov harakatlarini o'tkazishda kriminalistik texnik vositalar yordamiga va mutaxassislarni ishtirokiga yetarli e'tibor berish zarur. Shuningdek, poraxo'rlikka imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlovchi tadbirlarni amalga oshirish ham ko'zda tutiladi. Murakkab, ko'p epizodli tergov ishi tergovchilar guruhiga topshiriladi.

Dastlabki va keyingi tergov harakatlari

Jinoyat ustida qo'lga tushirish – poraxo'rlarni fosh etishning samarali usulidir. Odatda, u da'vo qiluvchi shaxsning har tomonlama tekshirilgan pora ta'magirligi bo'yicha, arizasi bo'yicha amalga oshiriladi. Poraxo'rlarni fosh etish uchun sud-tezkor fotografiyasi, kintotasvir va tezkor-qidiruv vositalari qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ustida qo'lga olish ishning ma'lum holatlari bilan bog'liq bo'lib va **porani berish-olish paytida yoki bergan zahoti amalga oshiriladi**. Qo'lga olish vaqtida pora oluvchi ashyoviy dalillardan – pora

predmetidan qutula olmasligi muhimdir. Sheriklarni aniqlash uchun qo'lg'a olishni pora predmetini uchinchi shaxsga berish yoki pullash vaqtida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Jinoyat ustida qo'lg'a olishni sinchkov tarzda rejalashtirish zarur. Jinoyat ustida qo'lg'a olingandan so'ng pora oluvchini o'sha zahoti, pora predmeti unga qay yo'sinda kelib tushganligi haqida bahona topmasidan turib so'roq qilish kerak. Bunday holatlarda ko'pincha pora oluvchi o'z aybini tan oladi va haqqoniy ko'rsatuvlar bera boshlaydi.

Tintuv o'tkazish. Shaxsiy tintuv va poraxo'r sheriklarining uy-joylarini hamda mansabdor shaxsning-pora oluvchining ish joyini tintuv qilish mazkur jinoyatni tayyorlash to'g'risida guvohlik beruvchi hujjatlar va pora predmetlarini, jinoiy yo'l bilan topilgan moddiy boyliklarni topish va olib qo'yish maqsadida amalga oshiriladi. Odatda shaxsiy tintuv va xona tintuvi bir vaqtda amalga oshiriladi. Alohida e'tibor poraxo'rlik sheriklarining aloqasini tasdiqlovchi xatlarga, pochta kvitansiyalari, turli xil yozuvlar, telefon nomerlariga qaratilishi lozim. Tintuv paytida, shuningdek shifrlangan yozuvlar, shubha ostidagi shaxs o'z aloqasini inkor etuvchi shaxs tushgan fotosuratlariga e'tibor berish kerak.

Hujjatlarni ko'zdan kechirish juda muhim tergov harakatlaridan biridir. Ba'zi bir holatlarda u pora olish-berish holatlariga aloqadorlarni aniqlashga imkon yaratsa, boshqa bir holatlarda poraxo'rlikka yo'l ochib beruvchi hisobotni yo'lg'a qo'yilmaganligini aniqlaydi, uchinchidan mansabdor shaxsni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab ma'lum bir harakatlarni amalga oshirganligi yoki oshirmaganligini tasdiqlaydi. Hujjatlarni ko'zdan kechirish jinoyatchi kiritgan o'zgarishlar, qalbakilashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirishning noodatiyliigi, tegishli rekvizitlarning mavjudligi, mansabdor shaxsning ish bajarilganligi to'g'risidagi viza va belgilarini aniqlashga yordam beradi. Poraxo'rlar o'z jinoiy kirdikorlari izlarini yo'q qila olmasliklari uchun hujjatlarni ko'zdan kechirishni kechiktirib bo'lmaydi.

Guvohlarni so'roq qilish. Poraxo'rlik bo'yicha guvohlik berishi mumkin bo'lgan shaxslar guruhi jinoyat ishi qo'zg'atilishiga asos bo'lgan materiallarga bog'liq. Quyidagilar odatda guvoh sifatida so'roq qilinadilar: ularga nisbatan ta'magirlik qilgan shaxslar, porani berish-olishni ko'rganlar; poraxo'rmi jinoyat ustida qo'lg'a olishda ishtirok etganlar; poraxo'rlikda gumon qilinayotgan mansabdor shaxsning xizmat faoliyati bilan tanish bo'lganlar yoki uning ko'rsatmalarini bajarganlar; poraxo'rning shaxsi va axloqini ta'riflab bera oluvchilar (hamkasabalar, qo'shnilar, qarindoshlar). Bu guvohlar guruhi poraxo'rlik sheriklarining aloqalari va pora berishning shart-sharoitlari haqida foydali ma'lumot bera

oladilar. Guvohlik olingandan so'ng guvoh-xolisning pora berilgan (oligan) joyda ko'rsatuvlarini tekshirish mumkin.

Poraxo'rlikni tergov qilishning ba'zi hollarida pora berish-olish, shuningdek boshqa harakatlarni amalga oshirishda kuzatishni tekshirish uchun tergov eksperimentlari o'tkaziladi.

E'tibor qiling! Poraxo'rlikni fosh etishda sud ekspertizalari katta rol o'ynaydi. Ko'p hollarda, pora predmetida yoki uning o'ramida qo'l barmoqlari va kaftning izi, kundalik, daftar, yon kitobchalarda – pora berish bilan bog'liq yozuvlar, bloknotlarning toza varaqlarida tekstning bosilgan izlarini aniqlash mumkin. Ularni o'rganish uchun hujjatlarni kriminalistik-texnik ekspertizasi, mikrozarrahalar, material va moddalarni o'rganish uchun trasologik ekspertiza, ba'zan esa kompleks ekspertizalar o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Poraxo'rlikning kriminalistik tavsifini yoritib bering.
2. Poraxo'rlik jinoyatini tergov qilishda tipik tergov vaziyatlarini yoritib bering.

Kazuslar:

1-kazus

1. "XXX" OAJ tomonidan shahar prokuraturasiga shikoyat kelib tushdi. O'z shikoyatida litsenziya beruvchi organ korxonaga litsenziya talablari va shartlariga rioya etmayotganligini bahona qilib ulardan pul talab qilgan va aytilgan pul berilmasa litsenziyani bekor qilishligini ko'rsatib o'tgan. Mazkur murojaatda pulni qachon va kimga berilishi ham ko'rsatilib o'tilgan.

Savollar:

1. *Mazkur holatga huquqiy baho bering.*
2. *Mazkur holat bo'yicha poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotini tavsiflab bering.*
3. *"Jinoyat ustida qo'lga tushurish" tadbirini o'tkazishdagi huquqiy tartib va o'ziga xos hususiyatlarini ta'riflab bering.*

2-kazus

2. 2015-yil 25-oktabr kuni Chilonzor tumani prokuraturasiga TQF organidan poraxo'rlik bilan bog'liq surishtiruv materiallari kelib tushgan. Mazkur ishda Alimov ismli shaxs "Gas Oil Invest" OAJ tashkilotida haydovchi bo'lib ishlashi, uning tasarrufiga berilgan Mercedes Benz avtomoshinasida tashkilot rahbarini muovini Najmiddinovni olib yurishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Alimovni ko'rsatmalariga ko'ra Najmiddinov unga bir necha bor konvert ichida pul berishini va mazkur "jo'natmani" har xil odamlarga yetkazib berishini va har safar unga mazkur turdagi ishlarni bajarganligi uchun 100 AQSH dollari qo'l haqqi sifatida berib turishini aytib

o'tgan. Joriy yilning 20-oktabr kuni, Alimov Chilonzor tumanida joylashgan "Verona" restoranida Tuman hokimiyati mansabdor shaxsi bilan uchrashib, unga konvertida pul berayotgan paytida TQF xodimlari tomon dan qo'lga olingan.

Mazkur holatga huquqiy baho bering. Mazkur holat bo'yicha poraxo'rlik jinoyatini tergov qilish uslubiyotini tavsiflab bering. Holat bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar nimalardan iborat? Tergov versiyalar va rejasi qanday shakllantirilishi lozim?

35-MAVZU. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISH

Axborot va kompyuter axborotlari tushunchasi, ularning yuridik tavsifi. Kompyuter jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Kompyuter jinoyatlarini sodir etish usullari. Kompyuter jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos jihatlari.

Axborot va kompyuter axborotlari tushunchasi, ularning yuridik tavsifi

Insoniyat taraqqiyotining eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davri bu shubhasiz XXI asr – Axborot asridir. Ushbu asrda kompyuter vositalari va axborotlarini kashf etilishi insoniyat og'irini yengil qilish bilan bir qatorda uni axborot olish, uzatish, saqlash, undan nusxa ko'chirish va tadqiq qilish kabi ko'plab masalalarni echishida ulkan qulayliklar yaratdi. Bu o'z navbatida, ish samaradorligini oshirib, kompyuter vositalari va axborotlariga bo'lgan talabni misli ko'rinmagan miqdorda oshib ketishiga olib keldi. Aniqroq qilib aytganda, zamonaviy kompyuterlarining yangi avlodlari har soniyada to'rt milliardgacha vazifani bajara olish quvvatiga ega. Aynan ushbu mo'jiza tufayli inson yer yuzining istalgan nuqtasi bilan bir necha soniyada aloqa o'rnatishi va zarur axborot almashinuvini yo'lga qo'yishi mumkin.

“Axborot” so'zi lotincha “information” so'zidan olingan bo'lib, biror ish holati yoki kishi faoliyati haqida ma'lum qilish, xabar berish yohud biror narsa haqida ma'lumot degan ma'noni anglatadi.

Axborot tushunchasi yuzasidan adabiyotlarda turliqarashlar mavjud. Jumladan; I.Y. Kozachenko, Z.A. Neznamov, G.P. Novoselovlar “axborotbu – taqdim etish va tashkil qilish yuzasidan ma'lumotlar majmuasining obyektiv shakli hisoblanib, ma'lumotlarbazasida joylashgan hamda EXM yordamida topish va qayta ishlash uchun tizimlashtirilgan ma'lumotlardir” degan fikri ilgari surishgan.

Yodda saqlang! O'zbekiston Respublikasi “Axborot erkinligining prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonunida “Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir” – deb ta'riflangan.

Ushbu ta'rif axborot tushunchasiga berilgan eng oddiy va aniq javobdir. Ayni damda, axborot va ma'lumot tushunchalarini ham birbiridan farqlash zarur. Bizning fikrimizcha, "kompyuter axboroti - bu manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar kompyuterda foydalanish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar majmui"dir. Ma'lumot esa axborotga nisbatan tor tushuncha bo'lib, uning muayyan qismini yoki kichik birligini tashkil qiladi.

Kompyuter axborotlarini yuridik nuqtayi nazaridan shartli ravishda beshta turga ajratish mumkin. Bular:

- kompyuter vositalari va dasturlarini boshqarish faoliyatiga oid axborotlar;
- kompyuter boshqaruv faoliyatini izdan chiqarishga oid axborotlar;
- zarar keltiruvchi dasturlarni aniqlash, ushlab, davolash va yo'q qilishga oid axborotlar;
- yo'qotilgan ma'lumotlarni qayta tiklovchi axborotlar;
- inson ongi, sog'lig'i va xohish-istagiga ta'sir etuvchi axborotlar.

Kompyuter vositalari va dasturlarini boshqarish faoliyatiga oid axborotlar – muayyan dastur, kompyuter texnikasi yoki uning qismini boshqarishga oid tizimli axborotlardir.

Ushbu dasturlar orqali foydalanuvchi o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni axborot kanallaridan izlashi, topishi, olishi, saqlashi, qayd qilishi, tadqiq qilishiyoki yaratishi bajarishi mumkin. Ular jumlasiga Microsoft office, Windows, Norton commander, o'yin dasturlari va shu kabi boshqa programmalarni kiritish mumkin.

Kompyuter boshqaruv faoliyatini izdan chiqarishga oid axborotlar – mustaqil ishlash va o'z-o'zidan ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan, muayyan g'arazli funksiya (vazifa)ni amalga oshirish maqsadida boshqaruv dasturlari tarkibida yozilgan maxsus (virus) dasturdir.

Ushbu dasturlarga (troya oti (Trojan Horses), chuvalchang (Worms), boot sektor (Bootsector viruses), makro (Macro viruses), operativ xotirada yashovchi (Memory Resident Viruses), o'zgaruvchan (Polymorphic viruses), rootkit (Rootkit viruses), vaqt bombasi (Time or Logic Bombs) va shu kabi boshqa bir qator virus programmlarini kiritish mumkin.

Zarar keltiruvchi dasturlarni aniqlash, ushlab, davolash va yo'q qilishga oid axborotlar – yangi viruslarni topish, mavjudlarini davolash yoki yo'q qilishga oid zararlansiz dasturlar va axborotlarni himoya qilishga maqsadida tuzilgan mahsus programmalardir.

Bularga turli hil antivirus (Eset Not 32, Aidstest, DrWeb, Adinf,

AVP, VootCHK va Norton Antivirus, Kaspersky Security) dasturlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Yo'qotilgan ma'lumotlarni qayta tiklovchi axborotlar – kompyuter xotirasidan o'chib ketgan yoki qasddan yo'q qilingan axborotlarni dastlabki holatiga keltirib tiklovchi dasturlar.

Bunda kompyuter xotirasi yoki axborot tashuvchilarning formatlanmaganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Agarda formatlanish yakunlangan bo'lsa, yo'qotilgan ma'lumotlarni qayta tiklash imkonsizdir. Ushbu turdagi dasturlar sirasiga Handy Recovery, Recovery kabi programmalarni kiritish mumkin.

Inson psixikasi yoki xulq atvoriga ta'sir etuvchi axborotlar – muayyan g'arazli funksiya (vazifa)ni amalga oshirish maqsadida boshqaruv yoki boshqa dasturlar tarkibida yozilgan yohud alohida tuzilgan, shaxsning ko'rish, eshitish yoki anglash qobiliyati orqali uning ongi, sog'lig'i va xohish-istagiga bevosita ta'sir etuvchi maxsus dastur yoki axborot.

Ushbu turdagi dasturlar foydalanuvchilarga uch xil tarzda ta'sir qilishi mumkin.

- **Psixo-psixiatrik** – kompyuterdan doimiy foydalanish natijasida bevosita foydalanuvchining ongi yoki ruhiy holatini buzilishi. Bunda foydalanuvchilarning intellektual (o'z harakatlari tavsifini his eta olmaslik) va irodaviy (o'z harakatlarini boshqara olmaslik) holatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu belgilar ruhiy buzilishlarning og'irligini aks ettiradi, lekin ruhiy buzilishlarning og'irligi va chuqurligiga faqat sud-psixiatrik ekspertizasi baho berishi mumkin.

- **Biologik** – mikro chastotali to'liqin yoki ko'z ilg'amas kadr orqali to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita foydalanuvchi ongi va sog'lig'iga ta'sir etish. Ushbu ta'sir shaxsning ko'rish yoki eshitish qobiliyati orqali namoyon bo'lib, foydalanuvchida tez charchash, qon bosimini tez ko'tarilib ketishi, bosh aylanishi va bosh og'rig'i yoki hushdan ketish holatini yuzaga keltirishi mumkin.

- **Mayl** – shaxsning ko'rish yoki eshitish qobiliyati orqali foydalanuvchining xohish-istagiga bevosita ta'sir etuvchi axborot. Ushbu turdagi axborotlarning o'ziga xos xususiyati foydalanuvchida biror narsa yoki holat yohud munosabatga nisbatan moyillik hissini uyg'otishidir. Masalan – ponografik dastur, avdio, video, sur'at, ovoz yoki shu kabi axborotlar orqali amalga oshiriladi.

Kompyuter jinoyatlarning kriminalistik tavsifi

Kompyuterdan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xarakteristikasi – bu muayyan kategoriyadagi jinoyatlar, jinoyatchi shaxslar va uni sodir etish sharoitlari to'g'risidagi jinoyatlarni ochish va oldini olishga qaratilgan, tipik hamda o'zaro bog'langan jinoyatlarni tergov qilish uslubining asosiy elementlaridan iborat ma'lumotlardir.

Ushbu turdagi jinoyatlarning kriminalistik xarakteristikasi asosiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jinoiy tajovvuz predmeti;
- jinoyat quroli va vositasi;
- jinoyatni sodir etish usullari;
- jinoyatchining motiv-maqsadi;
- jinoyat sodir etish sharoiti (joyi, vaqti);
- jinoyatchining shaxsi va shaxsiy hususiyatlari;
- ishning holati va aniq vaziyat;
- jinoyat izlari va jinoiy oqibat.

Kompyuterdan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarda jinoiy tajovvuz predmeti bo'lib kompyuter axboroti hisoblanadi. Ularni yuqorida ko'rsatilgan 5 ta asos bo'yicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Kompyuter axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xarakteristikasini bir elementi jinoyatchining shaxsidir. Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Xakerlar – texnik vositalar va kompyuter axborotlariga ruxsatsiz (o'zboshimchalik) bilan kirish yo'llari, usullari bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali EXM foydalanuvchisi yoki programmist.

2. "Qaroqchilar" – kompyuter ma'lumotlari tizimga kirish bilangina cheklanib qoluvchi mahoratsiz va tajribasiz guruhlar;

3. "Brouzerlar" – ushbu guruh vakillari zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan bo'lib, o'zgalarning fayllariga ruxsatsiz kirish imkoniyatiga egalar. Ular mualliflik huquqini buzib, fayllardan foydalanishlari mumkin, ammo ularga jiddiy zarar yetkazmasliklari ham mumkin, deb taxmin qilinadi;

4. "Krekerlar" – zamonaviy texnika vositalaridan yuqori darajada foydalana oladigan xavfli kiberjinoyatchilar. Ular sodir etgan qilmishlar odatda, katta miqdorda zarar yetkazish hisoblanadi. Krekerlar fayllarni nusxalashdan tortib dastur va tizimlarni yo'q qilib yuborishgacha, barcha-barchasini amalga oshira oladilar.

5. Ruhiy kasal shaxslar – ya'ni, kompyuter fobiyasi (axborot kasalligi) bilan og'rikan shaxslar. Odatda bu turdagi kasallik bilan og'rikan shaxslarda ichki yoki tashqi ta'sirlar ostida yoki tug'ma informatsion rejimni buzilishi kuzatiladi.

Kompyuter vositalari va axborotlari bilan bog'liq mehnat munosabatlarini jadallashishi ko'pchilik xizmatchi xodimlarining bunga tayyor emasligini ko'rsatdi. Natijada, ularning ko'pchiligida ishdagi stresslar tufayli kompyuter fobiyasi yoki nevroz kasalligi yuzaga kelgan. Umuman aytganda, bu kasallikni kasbiy kasalliklar jumlasiga kiritish mumkin. Uning asosiy belgilari tez charchash, kompyuter bilan ishlash jarayonida qon bosimini tez ko'tarilib ketishi, bosh aylanishi va bosh og'rig'i, qo'l barmoqlarining qaltirashi, nafas olishning qiylashishi, hushdan ketish va boshqalar. Bu turdagi jinotchilar harakati asosan kompyuter texnik vositalariga zarar yetkazish yoki ularni jismoniy yo'q qilishga qatratiladi. Bunda jinoyatchilar o'z harakatlari ustidan qisman yoki to'liq nozoratni qilish funksiyasini yo'qotadi.

6. Professional jinoyatchilar – iqtisodiyot, injener-texnik yoki fizika-matematika ma'lumotiga ega bo'lgan, maxsus texnik vositalar bilan qurollangan, jinoiy guruh yoki jinoiy tashkilotlarga a'zo yuqori malakali mutaxassislardir. Ular kompyuter texnik vositalari va dasturlaridan foydalanib katta hajmdagi pul mablag'larini o'zlashtirish bilan bog'liq mansabdorlik, firibgarlik, iqtisodiyot sohasida yoki boshqa shu turdagi jinoyatlarini sodir etadi. Bu jinoyatlar ko'p epizodli bo'lganligi uchun g'arazli maqsadda yashirin usulda qasddan sodir etiladi.

Kompyuter axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatchilar yoshi 15-45 yoshni tashkil qiladi. Ularning 33 % ni 20 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. Aksariyat xollarda bu turdagi jinoyatchilar maxsus ma'lumotga ega bo'lishmaydi. Jumaladan, AQSHda kompyuter axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarning mingdan ettitasigina professional programmistlar tomonidan sodir etiladi².

Jinoiy tajovuz motiv va maqsadiga ko'ra: g'arazli (mol-mulkni yoki pul mablag'larini o'zlashtirish), siyosiy (ayg'oqchilik, davlatning pul-kredit, moliya, valyuta tizimidagi faoliyatiga putur yetkazish), tadqiqot qiziqishlari, bezorilik, sho'xlik, qasd olish yoki boshqa maqsadlarda sodir etilishi mumkin.

²ВеховаВ. Б.Компьютерные преступления: способы совершения, методики расследования. М., 1996.

Kompyuter jinoyatlarini sodir etish usullari

Yodda saqlang! Kompyuter axborotlaridan foydalanib jinoyat sodir etish usuli deyilganda – axborot tizimida jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish, uni sodir etish va yashirish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatchining spetsifik (o'ziga xos) harakatlari majmui tushuniladi.

Hozirgi kunda kriminalistika fanida ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilish usullari, ularning nomlanishi va klassifikatsiyasi to'g'risda aniq bir to'xtam mavjud emas. Bunga sabab hali bu sohaning yangiligi, o'zgaruvchanligi va hozircha uning faqat nazariy va amaliy bosqichini o'rganish davom etayotganligidir.

Yuridik adabiyotlarda kompyuter axborotlaridan foydalanib jinoyat sodir etish usullarining nomlanishi va klassifikatsiyasi xususida turli xil fikrlar mavjud. Masalan, AQSH Kompyuter xavfsizligi Milliy instituti va FBR hamkorligida kompyuter jinoyachiligi yuzasidan keng miqyosda o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra 269 ta kompaniyada aynan kompyuter vositalari va axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar natijasida quyidagi yo'qotishlar mavjudligi aniqlangan. Jumladan:

- moliyaviy firibgarlik (yillik o'rtacha zarar 957 387 \$);
- maxfiy axborotlarni o'g'irlash (954 666 \$);
- aloqa vositalari bilan bog'liq firibgarlik (647 437 \$);
- ruxsatsiz (sanksiyasiz) kirish (181 436 \$);
- diversiya (qo'poruvchilik) (164 840 \$);
- tizimga suqulib kirish (132 250 \$) va boshqalar.

Chet el matbuoti ma'lumotlarida ifodalangan sanksiyasiz axborotlar olishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- eshituvchi moslamalarni qo'lash;
- masofaviy (distansion) sur'atga olish;
- mistifikatsiya;
- elektron tarqalmalarni ushlab olish;
- programmali tuzoqlardan foydalanish;
- aloqa liniyasi yoki aparatiga noqonuniy ulanish;
- himoya mexanizmini izdan chiqarish va boshqalar.

Kompyuter axborotlaridan foydalanib jinoyat sodir etish usullari quyidagilardan iborat. Bular:

1. Ushlab olish metodlari.

Bevosita ushlab olish – Radio-texnika magazinlaridan sotib olish mumkin bo'lgan mikrafon, radiopriyomnik, diktafon, modem, printer va

shunga o'xshash boshqa texnik vositalar kiradi. Bevosita ushlab olish metodi ushbu vositalar yordamida telefon tarmog'i yoki kompyuter setlariga ulanish orqali amalga oshiriladi. Unda barcha axborotlar yozib boriladi.

2. Elektromagnit ushlab olish – Ushlab olishning ushbu turidan kontakt bilan to'g'ridan to'g'ri aloqaga kirishmay, undagi ma'lumotlarni ma'lum masofadan turib elektromagnit to'lqin orqali olishda keng foydalaniladi. Jinoyatchilar ko'p holatlarda ma'lumot olinayotgan binodan uncha uzoq bo'lmagan, ko'zdan pana joylarda mashinadan turib yoki oddiy portfel, sumka ichiga o'rnatilgan moslama orqali, o'zlariga e'tiborni tortmasdan EHM xotirasidagi ma'lumotlarni osongina qo'lga kiritishi yoki ish jarayondagi holatlarni kuzatib o'tirishlari mumkin. Ushbu vositlardan ko'p holatlarda markaziy protsessor, displey, telefon, printer, mikroto'lqinli aloqa liniyalari hatto oddiy televizordan tarqatilayotgan ma'lumotlarni ushlab olishda ham foydalaniladi.

3. "Juchok"dan foydalanish – Bu usul muayyan shaxslarning og'zaki so'zlashuvlarini eshitib turish maqsadida kompyuter yoki telekommunikatsiya asbob-uskunalariga mikrafon o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Odatda bu metoddan kompyuter tizimi, xodimlar, xavfsizlik chora-tadbirlariga oid yoki shunga o'xshash boshqa ma'lumotlarni olishda yordamchi usul sifatida keng foydalaniladi.

4. "Chiqindi yig'ish" – kompyuter ishi tugaganidan so'ng foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan ma'lumotlarni qidirib topishda ishlatiladi. Uni fizikaviy va elektron ko'rinishlari mavjud. Fizik ko'rinishi – foydalanuvchiga tegishli bo'lgan ishga aloqador yozishmalar, keraksiz ma'lumotlarni saqlovchi chiqindi savati va shunga o'xshash ma'lumotlarni ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi. Elektron ko'rinishi – Odatda kompyuter o'chirilgandan keyin oxirgi saqlangan ma'lumotlar o'chib ketmaydi. Boshqa foydalanuvchi bu vaqtda o'ziga tegishli muayyan axborotni kirgizib, keyichalik o'ziga kerak bo'lgan ma'lumotlarni bemalol olishi mumkin. Bu usul orqali odatda foydalanuvchilar paroli yoki nomi topiladi.

II. Ruxsatsiz (sanksiyasiz) kirish metodlari.

1. "Axmoq qilish" – Kirish taqiqlangan bino yoki terminallarga ruxsatsiz kirish hisoblanadi. Fizik ko'rinishi – iloji boricha kompyuterda ishlash bilan bog'liq ko'p sonli predmetlarni olib, terminal joylashgan bino oldida ishbilarmon odam singari yuradi. Qonuniy foydalanuvchi kelganida u bilan birga bino ichiga yoki terminal oldiga o'ziga ishongan xolda borib belgilangan vazifani amalga oshiradi. Elektron ko'rinishi – Foydalanuvchi

muayyan vaqtga aktiv rejimdagi terminalni qarovsiz tashlab chiqib ketishi yoki ish jarayonida noqonuniy foydalanuchi qonuniy foydalanuvchining liniyasiga internet yoki telefon tarmog‘i orqali bilvosita ulanishi orqali amalga oshiriladi. “Axmoq qilish” metodining ushbu usuli “Izidan” deb nomlanadi. Noqonuniy foydalanuvchi shu zaxoti aloqa tizimiga ulanadi va ish tugagani haqidagi xabar (signal)ni kutadi. Aktiv rejim tugagani haqidagi xabar kelgach uni ushlab belgilangan tizimga kiradi.

2. Kompyuter “abordaji” – Xakerlar³ omadga tayangan holda birin-ketin nomerlarni terib, tarmoq so‘ngida joylashgan boshqa kompyuterni aloqaga chiqishini kutadi. So‘ngra telefon orqali personal kompyuterini signal qabul qiluvchi moslamasiga ulanib aloqa o‘rnatiladi. Bunda faqatgina parolni topib boshqa personalga taaluqli bo‘lgan kompyuter tizimidan bemalol foydalanish mumkin.

3. Shoshilinch bo‘lmagan tanlov – himoya tizimining kuchsiz joyi orqali qonuniy foydalanuvchining fayliga ruxsatsiz kirish. Uni bir marotaba qo‘lga kiritish orqali jinoyatchi shoshilmasdan tizimda mavjud axborotlarni tadqiq qilishi, ko‘chirib olishi hamda undan doimiy ravishda foydalanib yurishi mumkin.

4. “Niqoblanish” yoki “Birovning nomi bilan yurish” – o‘zini qonuniy foydalanuvchi sifatida ko‘rsatib biror-bir kompter tizimiga suqulib kirish.

5. Mistifikatsiya (aldash, laqillatish, firibgarlik) – Olisdagi foydalanuchi nogohon kimningdir tarmog‘iga ulanib, tarmoq egasiga haqqoniyga o‘xshash javoblarni berishi, unga ma‘lum muddat bu yanglishuvni bildirmay turish orqali o‘ziga kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni olishidir.

6. “Xalokat” usuli – Ma‘lumki, har bir kompyuter markazida EHMda ishlash bilan bog‘liq to‘xtalish, adashish yoki og‘ishlar jarayonida qo‘llaniladigan mahsus programmalar mavjud. “Foydalanuvchilar” aynan shu paytda “Halokat” programmalaridan foydalanib, katta-katta jinoyatlarni sodir etishi mumkin. Ushbu programmalar yovuz niyatli odamlar qo‘lida kuchli va xavfli qurol hisoblanadi. Ushbu usul orqali Nyu-Djersidagi banklarning birida katta o‘g‘rilik jinoyati sodir etilgan.

7. “Devorsiz ombor” – Sanksiyasiz kirish tizimdagi sinish, buzish yoki buzilishlar jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, foydalanuvchiga taaluqli bo‘lgan muayyan bir fayllarning ochiq qolishi, noqonuniy

³Xaker (inglizcha “hack” – kesmoq, cho‘pmoq, xirikmoq) – texnik vositalar va kompyuter axborotlariga ruxsatsiz (uzbo‘shimchilik) bilan kirish yudlari, usullari bilan ishtiroklovchi yuqori mалаkali ЭХМ фойдаланувчиси ёки программист.

foydalanuvchiga ikkinchi yoki uchinchi shaxslarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish huquqini beradi.

III. Manipulyasiya metodlari.

Ma'lumotlarni almashtirib qo'yish – yangi ma'lumotlarni o'zgartirish yoki kiritish odatda EHMga axborotlarni o'tkazish yoki undan chiqarib olish orqali amalga oshiriladi. Bu usul manipulyasiya metodining bir ko'rinishi hisoblanib, bundan tashqari ushbu metodning yana quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- kompyuterni pult yordamida boshqarib manipulyasiyalash;
- troya oti;
- bomba;
- modellashtirish;
- uchar ilon va shu kabilar.

Kompyuter axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha quyidagi holatlar aniqlanishi lozim.

Odatda, bu turdagi jinoyatlarda uni sodir etgan jinoyatchi shaxslarni oldindan kuzatish imkoniyati mavjud emas. Aksariyat hollarda tergovchi bunday jinoyatlar sodir etilganidan so'ng xabardor bo'ladi yoki unga xabar qilinadi. Shundan so'ng tergovchi uni aynan qaysi vaqtda sodir etilganini aniqlashi lozim bo'ladi. Kompyuter jinoyatlari to'saddan sodir etiladigan jinoyatlar hisoblanmaydi. Balki, ular aksariyat vaziyatlarda oldindan rejalashtirilgan holda muayyan murakkab algoritmlardan foydalanish orqali sodir etiladigan jinoyatlar hisoblanadi. Shu sababli uni aniq vaqtini aniqlashda tergovchi informatsion operatsiyalar tarixini o'rganishdan ishni boshlashi maqsadga muvofiqdir. Bu turdagi jinoyatlarda jinoyatni sodir etish vaqti muayyan vaqt oralig'ini tashkil etishi mumkin.

Kompyuter axborotlaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatchilar yashirin, qo'zdan pana joylarni tanlashadi. Bunda ular xonadon, kvartira, ish xonasi, pakr, kafe, bar va shunga o'xshash joylarda o'tirib o'z jinoiy qilmishlarini sodir etishi mumkin. Tergov jarayonida tergovchi jinoyatchilarni ijtimoiy xavfli qilmishni aynan qayerda sodir etganini aniqlashi birlamchi ahamiyatga ega.

Tergovchi jinoyat tufayli kim moddiy yoki ma'naviy zarar ko'rganini aniqlashi ham ish uchun juda ahamiyatli hisobalanadi. Odatda, kompyuter jinoyatlari juda katta moddiy zarar keltiruvchi jinoyat hisoblanadi. Aytish mumkinki, bu turdagi jinoyatlar keltirilgan zarar miqdori boshqa jinoyatlar keltirgan zarar miqdoridan ko'ra ancha ko'p. Uni aniqlanishi tergov va jabrlanuvchi uchun birlamchi ahamiyatga ega. Shu sababli, tergovchi mazkur huruj orqali kimga qanday zarar etganini aniqlashi lozim.

Kompyuter jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos jihatlari

Ushbu sohadagi jinoyatlarni tergov qilishda uch xil vaziyatni uchratish mumkin:

1) hamma narsa aniq – jinoyatning xususiyati va holatlari ma'lum (masalan: qanday virus va qay yo'l bilan kompyuter tarmog'iga kiritilgan) va jinoyat jabrlanuvchining o'z kuchi bilan aniqlangan, jinoyatchi ma'lum va qo'lga olingan, o'z aybiga iqror bo'lgan vaziyat;

2) Jinoyatni sodir etish usuli ma'lum, ammo jinoyat mexanizmi qisman noaniq, masalan kompyuter tarmog'i himoyasining zaif joylari orqali foydalanuvchilarni internet fayllariga noqonuniy kirganlarida jinoyatchining shaxsi aniq bo'lib, ammo u yashiringan;

3) faqat jinoiy natija aniq, masalan, bank kompyuter tarmog'ini ishdan chiqarish; jinoyatchining shaxsi va jinoyat mexanizmi noaniq.

Birinchi holatda kompyuter tizimiga noqonuniy kirish va yuzaga kelgan natijalar o'rtasida aloqa borligi (ishdan chiqish, kompyuterga virus tushirish va boshqalar), keltirilgan zararning hajmini aniqlash zarur. Ikkinchi holatda – yuqorida qayd etilgan vazifalardan tashqari, jinoyatchini qidirish va qo'lga olish zarur. Nihoyat, eng noqulay (uchinchi) holatda jinoyat mexanizmini aniqlash zarur.

Tergov, taftish yoki olib qo'yishga tayyorgarlik ko'rishda tergovchi qaror qabul qiladi. Bu ehtiyoj kompyuter harakati sohasidagi jinoyat tarkibi belgilaridan tashqari quyidagilarga asoslangan bo'lishi mumkin:

gumon qiluvchi, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchilar, ba'zi guvohlar hisoblash texnikasi va informatika sohasida maxsus ma'lumotga, shuningdek shaxsiy kompyuter texnikasiga ega bo'lsa;

ish materiallari hujjatlarida EHM orqali yozilgan hujjatlarning borligi (so'rovnomalarga javob, ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafidan olingan ma'lumotnomalar);

kompyuter ma'lumotini tarqatuvchi buyumlarni o'g'irlash; yuqorida ko'rsatilgan shaxslarni hisoblash texnikasi, programmashtirish bilan qiziqishi yoki ularning shunday qiziqishga ega bo'lgan shaxslar bilan aloqasi borligi.

Ko'zdan kechirish yoki tintuvga tayyorgarlik ko'rish chog'ida ishlatilayotgan EHMning turi va konfiguratsiyasi to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotga ega bo'lish zarur; mahalliy yoki global tarmoqqa (internetga) ulanganligi; informatsiyaviy xavfsizlik va noqonuniy foydalanishdan himoya xizmati mavjudligi; hisoblash texnikasi o'rnatilgan joydagi elektr ta'minlash tizimi; foydalanuvchilar malakasi; hisoblash texnikasiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar to'g'risida ma'lumot to'plash

zarur. Bunday ma'lumotga ega bo'lish tergovchiga kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotga ega bo'lishni yengillashtiradi va uning daliliy kuchini maksimallashtiradi.

Kompyuter ma'lumotini tezda yo'q qilish mumkin bo'lganligi uchun qo'qqisdan qilingan tintuv yoki tezkorlik bilan o'tkazilgan ko'zdan kechirish ko'pinchalik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar kompyuterlarda mahalliy kompyuter tarmog'i hosil qilganligi to'g'risida ma'lumot olinsa, bu tarmoqqa ulangan barcha kompyuter texnikasi joylashgan joyni aniqlash va EHM o'rnatilgan barcha joylarda bir vaqtning o'zida tintuv tashkil qilish zarur. Tintuvdan (ko'zdan kechirish)dan avval kompyuter informatsiyasini yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish imkoniyatini oldini oluvchi choralar ko'rish lozim. Buning uchun ko'zdan kechirish paytida EHMni elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlash, ko'zdan kechirish yoki tintuv o'tkazilayotgan joydan begonalarni chiqarib yuborish va hech kimni qo'ymaslik; qolgan shaxslarni hisoblash texnikasi va elektr toki ta'minoti moslamalariga tegish imkoniyatidan mahrum qilish uchun choralar ko'rish zarur. Agar obyektida portlovchi, tez alanganuvchi, zaharli moddalar, elektromagnit nur tarqatuvchi buyum va apparatlar bo'lsa, ularni bartaraf qilish kerak. Ko'zdan kechirish yoki tintuvni informatika va hisoblash texnikasi mutaxassisi bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Xolislar sifatida ham EHMda ishlash bilan tanish bo'lganlarni taklif qilish foydadan xoli emas.

Kompyuter ma'lumotini qidirish taktikasi, birinchidan, ma'lumotning himoyalani darajasi, ikkinchidan, tergov harakatlari davrida kompyuterning va periferiya moslamalarining funksional holatidan kelib chiqqan holda tanlanishi zarur.

Kompyuterni yuqori darajada himoyalanganligiga noqonuniy ma'lumotdan foydalanishga qarshi va yoki sertifikatlangan maxsus himoya vositalarining mavjudligi; kompyuter tizimi joylashgan hudud va binolarni (texnik vositalar va maxsus personal yordamida), uzluksiz qo'riqlash, jiddiy kirib-chiqish rejimlarini qo'llash, binolarni maxsus jihozlash; ma'lumot muhofazasi ma'muriyati mavjudligi, normal ishlashi va ish nazorati guvoh bo'ladi.

Parollar avvaldan operatsiyaviy tizim va boshqa servis programmalarga o'rnatiladi. To'g'ri ishlatilganda, ular ko'pgina tashkilotlarga xavfsizlikning maqbul darajasini ta'minlay oladi. Shunday bo'lsa-da, xususiyatlar majmui bo'yicha ular asliga to'g'rilikni tasdiqlovchi eng zaif vositadir. Parollarning ishonchliligi ularni esda saqlash va sir tutish qobiliyatiga asoslangan. Parol esda qoladigan bo'lishi

uchun uni oddiy tuzishadi, biroq qonuniy iste'molchilarning qiziqishlari, tanishlari doirasi avvaldan o'rganib chiqilsa, parolni topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ba'zi parollar boshidan sir tutilmaydi, chunki ular hujjatlarda ko'rsatilgan standart ma'noga ega bo'ladi va tizim o'rnatilganda har doim ham o'zgartirilmaydi. Parolni kiritishni optik vositalar va protsessor va monitor tarqatuvchi elektromagnit nurni qo'lga olish mobaynida aniqlash mumkin.

Yangi elektron texnologiyalarga elektron kalitlarni ishlatish kiradi. Elektron kalit kattaligi gugurt qutisidan katta bo'lmagan mikrosxemada ishlangan xotirali moslamadir. Kompyuterni ko'zdan kechirish paytida himoyalangan programma ishlatilsa, u o'z kaliti mavjudligini tekshiradi. Kalit topilsa, programma bajariladi; aks holda xato to'g'risida ma'lumot paydo bo'ladi va ish jarayoni to'xtatiladi. Kalitning o'zi printer ulanadigan portga kirgiziladi va osonlikcha chiqariladi.

Agar ma'lumot qidiruvi uchun tergovchi ishlatayotgan, lekin kompyuterda bo'lmagan programma mahsulotlari ishlatilsa, bu narsa tekshiruv yoki tintuv bayonnomasida qayd etilishi kerak. Bunday programmalar standart bo'lishi kerak. Nazorat yaqqolligi, ya'ni programma ishining asosiy etaplarini displey ekranida ko'rinishi, tergovchi va mutaxassisning izoh berishi zarurdir. Xolislarining maksimal faolligi qidirilayotgan programma, tekst yoki grafik hujjat emas, balki audio yoki videorolik (verbal yoki vizual ma'lumot) bo'lishi mumkinligi uchun juda muhimdir. Programma ishining bunday natijasi betakror bo'lib, bayonnoma yordamida qayd etiladi.

Qidirilayotgan ma'lumot topilganda displeyning joriy tasviri suratga tushirilishi va standart vositalar yordamida ma'lumotni doimiy tarqatuvchiga (odatda – magnit disk) yozib olish yoki printer orqali qog'ozga chiqarish zarur. Qog'ozga tushirilgan nushalar holislar tomonidan imzolanishi shart.

Kompyuter va uning moslamalari muhrlanadi: razyemlarga qog'oz qo'yib, egasi yoki ekspert yo'qligida foydalanishning oldini olish uchun uning chetlarini kompyuterning yon devoriga quyuq kley yoki yopishqoq lenta yordamida mahkamlanadi. Magnit tarqatuvchilar turli xil elektromagnit va magnit maydonlarning ta'siri va yo'naltirilgan nur tarqatishning salbiy ta'sirining oldini olish uchun maxsus ekranlashtirilgan konteyner yoki futlyarlarda saqlanadi. Faqat konteyner va futlyarlargina muhrlanadi. Izohlovchi yozuvlar disketaga yopishtiriluvchi maxsus etiketkalariga yoziladi. Bunda avval etiketkaga yozuv tushiriladi va so'ngra disketaning maxsus mo'ljallangan yeriga yopishtiriladi. Agar disketada

yozuvli etiketka mavjud bo'lsa, u holda faqat tartib raqami qo'yiladi, izohlovchi yozuvlar esa shu raqam ostida alohida varaqqa yozilib, korobkada saqlanadi. Magnit tarqatuvchilarni bevosita kanop bilan o'rash, ularni teshish va ularga imzo, belgi va muhr qo'yish mumkin emas.

Ko'pincha apparat vositalarida ma'lumot izlaridan tashqari kriminalistika uchun odatiy izlar ham uchrab turishi sababli, ko'zdan kechirishga mutaxassis-kriminalistni taklif qilish ham maqsadga muvofiqdir. Tergov amaliyotida kompyuter vositalarining ichki elementlarida barmoq izlari, metallni qayta ishlash asboblari, qo'lda ulash izlari qolganligi holatlari ma'lum.

Guvohlar va jabrlanuvchilarni boshlang'ich so'roq qilishda kompyuter tizimining funksiyasi va maqsadi, kompyuter texnikasi va u joylashgan yerga kim bema'lol kirishi mumkinligi, u yerda begonalarni paydo bo'lishi va qanday himoya vositalari ishlatilganligini aniqlash zarur. agar ma'lumotning bir qismi maxfiy bo'lsa, kim undan foydalanishga ruxsat bergan va aslida kim foydalangan: jinoyat natijasida qanday zarar (mulk, nomulk shaklida) yetkazilgan va uni kamaytirish yo'li bormi?

Nazorat uchun savollar:

1. Kompyuter axboroti va axborot tushunchalari nima bilan farqlanadi? Kompyuter bilan sodir etilgan jinoyatlarni o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
2. Manipulyasiya metodlari ruxsatsiz kirish metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Kazuslar:

1-kazus

2015-yil 18-yanvarda global internet termog'i XXX tijorat bankidan 500 ming AQSH dollari pul mablag'lari o'g'irlangan. Jinoyat 2015-yil 18-yanvar soat 13:30 dan 13:50 oralig'ida Chilonzor tumani, Al-Xorazmiy ko'chasi 15 uy tagida joylashgan "INTERNET" kafesida sodir etilgan. Jinoyatchi shaxslar ma'lum emas.

Holatni kriminalistik tahlil eting. Jinoyatni isbotlash mexanizmi qay tarzda amalga oshirilishi lozim? Hodisa joyini ko'zdan kechirish va jinoyat izlarini fosh etish uchun qanday taktikadan foydalanish zarur?

2-kazus

Hodisa joyi ko'zdan kechirilgach tergovchi u yerda joylashgan moddiy ashyolarni har birini ko'zdan kechirish bayonnomasiga kiritdi. Kompyuter displeyi, protsessor, printer, sichqoncha va klaviatura ashyoviy dalil sifatida olinib, upakovka qilindi. Tadqiqot uchun ekspertizaga yuborildi.

Tergovchi hatosi nimadan ibort?

Mazkur turdagi jinoyatlarda ko'zdan kechirish taktikasi qanday amalga oshirilishi lozim?

36-MAVZU. TERRORCHILIK KO'RINISHIDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hodisa joyini ko'zdan kechirish. Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarda ekspertiza tayinlash va o'tkazish. Gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchilarni so'roq qilish. Jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilish.

Hodisa joyini ko'zdan kechirish

Birinchi bo'lib tergovchi va mutaxassis tomonidan odatiy voqea joyini ko'zdan kechirish taktikasi terrorizm jinoyatini tergov qilish chog'ida o'zgaradi, avvalo joyni saper tekshirib chiqadi.

Zararsizlantirishning ilk bosqichlarida mutaxassis hodisa joyini obzorli va orientirli suratga olishni hamda videoyozuvini amalga oshiradi, shuningdek PV bo'lishi mumkin bo'lgan joyni saperlar bilan kelishib oladi.

Agar saperlar o'sha joyda ish olib borishga ruxsat bersa, mutaxassis transport vositalari, oyoq kiyimi, kiyim, predmetlar (sigaret qoldiqlari, shoxlar), mikrojismlar izlarini qidiradi va oladi.

Ammo, qoida tariqasida, mutaxassis bevosita PVning joylashgan joyini ko'zdan kechira olmaydi. Bunday sharoitda, portlatish uskunasi zararsizlantirilgunga qadar saperning o'zi izlarni topish va olish majburiyatiga ega bo'ladi. Ko'zdan kechirish chog'ida saperlar, portlovchi texnik mutaxassislar, kriminalist mutaxassislar, tezkor xodimlar va boshqa qatnashchilar o'zaro maslahatlashadi, yuzaga kelayotgan masalalarning turli echimlari o'ylab ko'riladi.

E'tibor qarating! Hodisa joyini ko'zdan kechirishning ishchi bosqichi tegishli mutaxassisning yozma xulosasi olingandan so'ng boshlanib, ushbu xulosada voqea joyini dastlabki ko'zdan kechirish, ushbu joyda yuqori xavga ega bo'lgan predmetning yo'qligi, takroriy terrorchiik akt sodir etilmasligi bayon etilgan bo'ladi.

Ko'zdan kechirishning o'ziga xosligiga uni boshlash vaqtini aniqlashdagi taktik qiyinchiliklar kiradi, chunki voqea joyiga tergov guruhi, qoida tariqasida, tegishli xabar kelib tushgandan so'ng etib keladi, bu vaqt davomida yong'in davom etishi mumkin (masalan, transport vositasi yonishi), qutqaruv guruhlari jabrlanuvchilarni topish va ozod qilish ishlarini olib boradi.

Yong'in joyi ko'zdan kechirilganda ko'zdan kechirish ham eksentrik, ham konsentrik (markazga qarab) amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usul yong'in boshlangan joy aniq bilinib turgan holatda o'tkaziladi, aks holda konsentrik ko'zdan kechirish amalga oshiriladi. Ko'zdan kechirish vaqtida yong'in boshlanish joyini belgilash dastlabki hisoblanib, ekspert tadqiqotidan keyingina aniq belgilanishini nazarda tutishimiz lozim.

Aksariyat hollarda, amaliyot ko'rsatishicha terrorizmni tergov qilishda portlash texnik, yong'in texnik, trasologik, sud tibbiy ekspertizalar tayinlanadi. Shuningdek, xatshunoslik, muallifshunoslik, materiallar va moddalarning kompleks ekspertizasi va boshqa ekspertiza turlari o'tkazilishi mumkin.

Hodisa joyi ko'zdan kechirilayotganda yoki terrorizm bilan tahdid qilingan xatda izlar topilgan (barmoq, oyoq kiyimi, kiyim, transport vositasi) hollarda trasologik ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish zaruriyati yuzaga keladi. Qoida tariqasida, mazkur turdagi ishlarning ilk bosqichlarida gumon qilinuvchi aniqlanmagan bo'ladi, shu sababli, qoldirilgan izlar topilishi mumkin bo'lgan shaxsni yoki obyektlarni qidirish va aniqlashga yordam beruvchi ma'lumotlarni olish maqsadida turli diagnostik ekspertizalar tayinlanadi va o'tkaziladi.

Agar voqea joyida portlashning yaqqol izlari bo'lsa yoki portlatish uskunasi yoxud unga o'xshash yuqori xavf keltirib chiqaruvchi buyum topilgan bo'lsa, ko'zdan kechirish eksentrik, ya'ni markazdan boshlab amalga oshiriladi. Barcha hollarda ko'zdan kechirishda hududda izlar va mikroobyektlarni yo'q qilmaslik uchun ehtiyotkor bo'lish lozim.

Portlatish uskunasi yoxud unga o'xshash yuqori xavf keltirib chiqaruvchi buyum topilgan holatda ko'zdan kechirishda topilgan buyumning atrofida spiralsimon amalga oshirilishi lozim. Mazkur holda hodisa joyini ko'zdan kechirish shu turdagi ishlardagi kabi o'tkazilib, umumiy kriminalistik qoidalardan kelib chiqadi. Biroq ishchi bosqichida voqea joyini ko'zdan kechirish taktikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunday buyum topilgan joyning o'zini ko'zdan kechirishdadir.

Portlashsiz zararsizlantirilgan portlovchi predmet kriminalist mutaxassis tomonidan ko'zdan kechiriladi va dastlabki tadqiqot o'tkaziladi (qismlarga bo'lmasdan). Zararsizlantirilgan portlovchi predmetni ko'zdan kechirish uni statik holatda umumiy ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Predmet turga xos, tipga oid, guruhga xos belgilar, shuningdek, uning tuzilishiga kiruvchi obyektlarning (masalan, PU zaryadi va uning tashqi qoplamasi; uning tarkibidagi qurilmalarni ishga tushirish mexanizmi; zarar yetkazuvchi elementlari va boshqalar) barcha individual belgilari asosida ko'rib chiqiladi, undan tashqari uning aniq joylashgan joyi va o'zaro joylashuvi aniqlanadi.

Statik ko'zdan kechirish oqibatida portlovchi predmetda tashqi qoplama, kamuflyaj, ishga tushirish mexanizmi detallaridagi nosozliklar ko'rilishi mumkin bo'lib, ular boshqa shaxslar (arizachi yoki portlash texnik mutaxassisi) tomonidan predmetni ochish va uni zararsizlantirishda kelib chiqadi.

Agar portlovchi qurilma kabi yuqori xavf keltirib chiqaruvchiga o'xshash predmet ko'zdan kechirilayotgan bo'lsa, ko'rib chiqishda uning tashqi ko'rinishi, tuzilishidagi tarkibiy qismlari, hajmi, predmet rangi va turli markerli ma'lumotlari, uni tashish (transportirovka) va yashirish usullariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shundan so'ng, predmet (zararsizlantirilgan portlovchi qurilma yoki yuqori xavf keltirib chiqaruvchiga o'xshash predmet) oldindan tayyorlangan ish joyiga olib o'tiladi, aksariyat hollarda ko'chib yuruvchi kriminalistik laboratoriyaga o'tkaziladi va u yerda sinchiklab tekshiriladi (ishchi bosqichning dinamik darajasi). Shu bilan birga, obyekt umumiy kriminalistik taktika qoidalari va usullariga rioya qilingan holda mikroobyektlar bo'lmaydigan va barmoq izlari qolmaydigan qismlar yordamida qo'lga olib ko'riladi.

Turli kriminalistik texnik vositalarni, misol uchun, turli hajmdagi kriminalistik lupalar, kriminalistik magnitlar (magnit xususiyatli buyumlarni qidirish uchun), elektron optik o'zgartirgich, ultrafiolet lampalar (turli rang xususiyatlarida obyektning ustki qismini yoritish uchun)dan foydalanib, qidiruvning vizual metodini qo'llagan holatda sinchiklab ko'zdan kechirilganda, quyidagi izlar topilishi mumkin:

- ko'rinadigan va ko'rinmaydigan qo'l izlari;
- inson va hayvonlar sochlari;
- yer qatlami va o'simliklarning qismlari;
- tekstil to'qimalar;
- texnogen zarrachalar;
- qurol va instrumentlar izlari.

E'tibor qarating! Ilmiy adabiyotlarda portlash joyidagi izlarning to'rtta joylashuv qismlari ajratilgan: 1) portlash markazi yoki PU joylashtirilgan joy (1,2 metr hajmdagi joy); 2) yaqin zona (5dan 10 metrgacha); 3) o'rtacha zona (10dan 50 metrgacha); 4) yiroq zona (50 metrdan ortiq bo'lgan masofa).

Portlash fakti bo'yicha voqea joyini ko'zdan kechirishni portlash markazidan sinchiklab amalga oshirish lozim. Portlash joyi – eng ko'p zarar yetkazilgan joy. U ko'z bilan ilg'ab yoki ilk holatni hayoliy tiklab

belgilanadi. Portlovchi uskunalar (PU) qismlari o'zining tuzilishi, shakli va hajmi bo'yicha farqlanishi mumkin (shisha siniqlari, qog'oz, karton qismlari, soat mexanizmlari, batareya, tumbler detallari; maxsus lenta qismlari; kuygan shnurlar; changsimon izlar mavjud bo'lgan gayka, mix va boshqa buyumlar) va ular portlash markazidan turli masofalarda sochilib yotgan bo'lishi mumkin.

Ammo bu obyektlarni har doim ham aniqlab bo'lmaydi, bu faqatgina mikroskop orqali barcha chang zarralari, kirlanish, chiqindilar to'liq yig'ilgan va qayta ajratib chiqarilganda hamma changlar alohida to'plangan hollarda bo'lishi mumkin.

Mazkur holatga xos izlar quyidagilardan iborat:

PUNing kichik qismlari: tashqi qoplamasi qoldiqlari, saqlash va amalga oshirish mexanizmining o'zgargan qismlari; kamuflyaj qoldiqlari (portfel, sumka yirtmalari va h.k.);

PUNing portlash ta'siriga uchramagan qismlari va PUNing kichik zarralari hamda portlash markaziga qaratilgan predmetlarning ustidagi portlashning qattiq jismlari;

Portlash tomonidan siljirilgan, o'zida termik ta'sirni aks ettiruvchi o'zgargan yengil buyumlar;

Deformatsiyalashgan predmetlar, PUNing o'rtacha hajmdagi uzilgan qismlari (PUNing yumshoq qismlari qoldiqlari, izolyasion lenta, simlar, olov o'tkazuvchi jismlar qoldiqlari va boshqalar) o'zida PUNing reaksiya bildirmagan zarralari va portlash mahsulotlarini saqlaydi.

Portlash joyini ko'zdan kechirishda asosiy e'tiborni jinoyat va jinoyatchi izlarini topishga qaratish lozim. Shu bilan birga, portlashning brizant va termik ta'siri natijasida PUNing eng kichik zarrachalarini, shuningdek, PUNing portlamagan detallari, portlashning qattiq jismlari o'zida saqlovchi changsimon izlarni topish mumkinligini hisobga olish zarur.

Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarda ekspertiza tayinlash va o'tkazish

Aytib o'tish joizki, yuqorida keltirilgan sud ekspertizalari dastlabki tergov harakatlarini o'tkazish chog'ida tayinlanadi. Ekspertiza turini tanlash yuzaga kelgan tergov vaziyatidan va tergovchi tomonidan to'plangan maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxs tomonidan o'rganilishi kerak bo'lgan materiallar hajmiga bog'liq.

E'tibor qarating! Aksariyat hollarda, amaliyot ko'rsatishicha terrorizmni tergov qilishda portlash texnik, yong'in texnik, trasologik, sud tibbiy ekspertizalar tayinlanadi. Shuningdek, xatshunoslik, muallifshunoslik, materiallar va moddalarning kompleks ekspertizasi va boshqa ekspertiza turlari o'tkazilishi mumkin.

Hodisa joyi ko'zdan kechirilayotganda yoki terrorizm bilan tahdid qilingan xatda izlar topilgan (barmoq, oyoq kiyimi, kiyim, transport vositasi) hollarda trasologik ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish zaruriyati yuzaga keladi. Qoida tariqasida, mazkur turdagi ishlarning ilk bosqichlarida gumon qilinuvchi aniqlanmagan bo'ladi, shu sababli, qoldirilgan izlar topilishi mumkin bo'lgan shaxsni yoki obyektlarni qidirish va aniqlashga yordam beruvchi ma'lumotlarni olish maqsadida turli diagnostik ekspertizalar tayinlanadi va o'tkaziladi.

Murdaning sud tibbiy ekspertizasi terrorchiik akt oqibatida halok bo'lgan fuqarolarga ham, qo'lga olinish chog'ida yoki terrorchiik akt jarayonida o'zini o'zi portlatib yuborish oqibatida vafot etgan terrorchilarga nisbatan ham tayinlanadi. Biroq, qoida tariqasida, sud tibbiy ekspertizaning umumiy savollari bilan bir qatorda, terrorchiik akti sodir etuvchilar va jabrlanuvchilarni aniqlash maqsadida identifikatsiyaviy genetik tahlil o'tkazilishi zarur. Noma'lum shaxslarning qoldiqlarini identifikatsion tadqiq qilganda quyidagi masalalar hal etilishi mumkin: 1) Tadqiqot uchun topshirilgan obyektlarning qoldiqlari bir odamga tegishlimi; 2) Qoldiqlar ayol yoki erkak kishiga tegishlimi; 3) Tadqiqot uchun topshirilgan qoldiqlar mazkur shaxsga tegishlimi. Qoldiqlar identifikatsion tadqiq qilinganda ularni taqqoslash uchun namunalar kerak bo'ladi. Bunday namunalarga taxmin qilingan shaxsning yaqin (qon bilan qo'shilgan) qarindoshlaridan olingan qon tahlillari yoki o'sha shaxsga tegishli bo'lgan obyektlar misol qilib keltiriladi. Tadqiqot terrorchilik akt bajaruvchisini identifikatsiya qilish bilan bog'liq tayinlangan hollarda tadqiqot obyektlariga to'kilgan sochlar (masalan, jinoyatchi terrorchiik akti sodir etishdan avval bo'lgan transport vositasi salonidagi kursiga tushib qolgan soch tolalari), sigareta qoldiqlaridagi so'lak, qon izlari (jinoyatchi yaralanganda, tasodifiy yaralanishda, burundan qon ketishida) kirishi mumkin.

Mazkur turdagi jinoyat ishlari bo'yicha ko'pincha portlash texnik ekspertiza tayinlanadi. Portlash texnik tadqiqotlar obyektlariga portlash texnik qurilmalarning alohida qism va detallari, shuningdek, turli obyektlardagi portlash izlari kiradi. Ammo, qoida tariqasida, portlash texnik va kriminalistik ekspertizalarni kompleks ravishda tayinlash

maqsadga muvofiq, sababi tadqiqot obyektlari portlash texnik qurilmalarning alohida qism va detallaridan tashqari, boshqa qo'shimcha yordamchi obyektlarni ham qamrab oladi.

Terrorizmning portlovchi yoki shunday xavfga ega bo'lgan buyum topilishi bilan bog'liq sodir etilishi fakti bo'yicha, qoida tariqasida, portlash texnik ekspertizasi tayinlanib, uning asosiy maqsadi sifatida moddaning yoki portlatish uskunasi portlovchi moddalar yoxud portlovchi qurilmalar, qurol aslaha yoki uning bir ko'rinishi tarkibiga kirish kirmasligini aniqlash ilgari suriladi (klassifikatsiyalovchi tadqiqot). Tadqiqot o'tkazish uchun ko'zdan kechirish jarayonida olingan predmet aynanligicha ekspertga topshiriladi. Shu bilan birga, portlash xavfi mavjud bo'lgan predmet ekspertga faqatgina zararsizlantirilgandan keyin beriladi.

E'tibor qarating! Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish eng keng tarqalgan va murakkab tergov harakati hisoblanadi. Asirga olish bo'yicha ishlarga doir dastlabki tergov harakatlarining kompleksida gumon qilinuvchini so'roq qilish alohida o'ringa ega. Ushbu tergov harakati oqibatida tergovchi gumon qilinuvchining (ayblanuvchining) aybini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan qo'shimcha dalillarni oladi, chunki aynan u sodir etilgan qilmishning barcha holatlari va sharoitlarini, hamda uning sabablarini biladi.

Bundan tashqari, portlash qoldiqlari va izlariga qarab portlatilgan portlash qurilmasining konstruksiyasiga bog'liq mazkur faktlar bo'yicha ekspert oldiga yana quyidagi savollar qo'yilishi mumkin, masalan:

1. Topshirilgan obyektlarda portlash hosilalari yoki portlatish uskunasi qoldiqlari mavjudmi, agar bo'lsa, aynan qanday;
2. Portlatish uskunasi portlatilgan zaryadning og'irligi, shakli va hajmi;
3. Voqea joyida topilgan obyektlarning qay birlari portlatish uskunasi yoki uning konstruksiyasiga tegishli bo'lishi mumkin;
4. Hodisa joyida portlatilgan portlatish uskunasi konstruksiyasi va harakatlanish prinsipi qanday;
5. Portlatish uskunasi zaryadi tarkibida tez yonuvchi quyilmalar, GSM, neft mahsulotlari, intern to'ldiruvchilar, shishasimon elementlarning mavjudligi;
6. Portlatish uskunasi tashqi qoplamasi sifatida qanday material ishlatilgan, uning nomlanishi va foydalanilish sohasi qanday.

Yuqorida sanab o'tilgan sud tadqiqotlari jihatlaridan tashqari portlovchi moddalar, tez yonuvchi materiallar va issiq quymalar,

portlovchi uskunalar, ularning imitatsiyasi, shuningdek, portlash va yong'in izlari xamda qoldiqlarining boshqa kriminalistik tadqiqotlari ham o'tkazilishi mumkin. Aniq ish holatlari, hodisa joyidan olingan izlar va obyektlarning sifati va miqdori, shuningdek, tergovning ilk bosqichida kelib chiquvchi tergov vaziyatidan kelib chiqib, qoida tariqasida, kompleks sud ekspertizalari tayinlanadi.

Yong'in fakti bo'yicha yong'in texnik ekspertiza o'tkaziladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi yong'in kelib chiqishining asl sababini aniqlashdan iborat: yong'in keltirib chiqarilganmi yoki u tez yonuvchi materiallar va issiq quymalarni ehtiyotkorliksiz saqlanishi oqibatida kelib chiqqanmi yoxud energota'minot, isitish va energoo'rnatish tizimlarini ishlatish, o'rnatish hamda saqlash qoidalari buzilganligi oqibatida sodir bo'lganmi.

Ekspert oldiga quyidagi savollar qo'yiladi:

1. Topshirilgan predmet portlatish xususiyatiga egami yoki boshqa bir buyummi;
2. Topshirilgan modda portlatish xususiyatiga egami yoki boshqa bir buyumga tegishli moddami;
3. Topshirilgan ob'ekt portlatish vositasi bo'la oladimi;
4. Tadqiqot uchun topshirilgan ob'ektlar portlatish vositasining qoldiqlarimi (bir qismi, asosi) yoki boshqa bir buyumga tegishlimi;
5. Topshirilgan portlatish moddasi (portlatish vositasi) qanday nomlanadi;
6. Mazkur portlatish moddasi (portlatish vositasi) qanday sharoitlarda tayyorlangan;
7. Aniqlangan portlatish moddasi (portlatish vositasi)ning qo'llanilish doirasi qanday;
8. Tadqiqot uchun taqdim etilgan portlatish vositasi qaysi tashkilotda va qancha muddatda tayyorlangan, shuningdek, tayyorlovchi korxonadan qay yo'nalishlarda tarqatilgan;
9. Portlatish vositasidagi belgilar nimani bildiradi;
10. Taqdim etilgan portlatish vositasining konstruksiyasi va harakat prinsipi qanday;
11. Taqdim etilgan sanoat portlatish uskunasi konstruksiyasida o'zgartirish alomatlari mavjud bo'lsa, aynan qanday va ularning yo'nalishi qanday;
12. Mazkur portlatish uskunasida qanday belgilar mavjud, sanoat yoki qo'lbola tayyorgarlikka egami;
13. Portlatish uskunasi portlash uchun etarli, agar yo'q bo'lsa, yo'qotilgan xususiyatlarni tiklashga qaratilgan detallar va qismlarning izlari mavjudmi.

Yong'in keltirib chiqarilganda ekspert oldiga amalga oshirish usuli, yong'in vositalari, jinoyatchilar tomonidan foydalanilgan qurol va uskunalar, ularning o'rnatilish joyi, yong'in sodir etish uchun zarur bilim va ko'nikmalar (professionallik darajasi ham kiradi), identifikatsiya qilish uchun kerak bo'lgan shaxslar, qurollar va uskunalar bilan bog'liq savollar qo'yiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan sud tadqiqotlari jihatlaridan tashqari portlovchi moddalar, tez yonuvchi materiallar va issiq quymalar, portlovchi uskunalar, ularning imitatsiyasi, shuningdek, portlash va yong'in izlari xamda qoldiqlarining boshqa kriminalistik tadqiqotlari ham o'tkazilishi mumkin. Aniq ish holatlari, hodisa joyidan olingan izlar va obyektlarning sifati va miqdori, shuningdek, tergovning ilk bosqichida kelib chiquvchi tergov vaziyatidan kelib chiqib, qoida tariqasida, kompleks sud ekspertizalari tayinlanadi.

Undan tashqari, har qanday shubhali predmet maxsus portlash texnik tadqiq etilishi shart, ya'ni "tegishli tartibda vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, sog'lik va hayotga xavf soluvchi prdmetni o'z oldiga portlatish uskunasi aniqlash, uning holatini belgilash, portlash uchun tayyorgarlik darajasini bilish, shuningdek, shu asosida xavfsizlik choralari tanlash va voqea joyiga to'la mos keladigan prdmetga nisbatan aktiv harakatlarni sodir etishni maqsad qilib qo'yadigan maxsus ilmiy texnikaviy vositalar, usullar va metodlar orqali o'rganish jarayoni".

Portlash texnik tadqiqot tasdiqlaydigan portlash xavfi mavjud bo'lgan predmet topilgan taqdirda qidiruv harakatlari to'xtatilmaydi, chunki jinoyatchi tomonidan portlashi mumkin bo'lgan bir qancha uskunalar turli joylarga o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

Portlash texnik tadqiqot tomonidan portlash uskunasi yoki portlash vositasi aniqlanganligi tasdiqlangan, uning tuzilishi, obyektida o'rnatilish usuli, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan portlashning keyingi oqibatlarini tahlil qilingandan so'ng, tergovchi (SOG rahbari) saper va portlash texnik mutaxassisning xavfsizlik to'g'risidagi fikrini inobatga olib PUni zararsizlantirish joyi va keyingi harakatlar haqida qaror qabul qiladi.

Ushbu holatda ikki turdagi harakatlar amalga oshirilishi mumkin: portlash xavfi mavjud bo'lgan predmetni topilgan joyida zararsizlantirish yoki zarurat bo'lgan hollarda uni ko'chirib o'tkazish yoxud portlatish kamerasiga olib o'tish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Portlash xavfi mavjud bo'lgan predmetni topilgan joyida zararsizlantirish imkoni bo'lgan vaziyatda amalga oshirish usuli haqidagi masala asosiy o'rin egallaydi, sababi, saperning asosiy vazifasi bu insonlar

o'limini oldini olib va atrofdagi obyektlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirib portlatish uskunasi zararsizlantirishdir. Shu bilan birga saperning harakatlari voqea joyidagi izlarning butkul yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin, ayrim hollarda hodisa joyini ko'zdan kechirish jinoyatning moddiy izlari, jinoyatchini aniqlash va uni fosh etish bo'yicha yagona usul bo'lib qolishi mumkin. Bunga qaramay, PUni zararsizlantirishga oid ishlarda insonlarning xavfsizligi shubhasiz har qanday hatto yagona izlarni olishdan ham muhimroqligini esda tutish lozim.

Shundan kelib chiqib, portlatish uskunasi zararsizlantirishda saper va portlash texnik mutaxassisi faoliyatining o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish lozim.

Himoya vositalariga ega bo'lgan saper videokamera yordamida turli joylar va rakurslardan PU, uning o'rnatilish joyi, yonida mavjud bo'lgan predmetlar va izlarni (saper bundan oldin videoyozuvda ko'proq aynan nimaga e'tibor qaratish lozimligi haqida mutaxassis tomonidan tayyorlanadi) yozib oladi. Shu bilan birga mutaxassis kriminalist videokamerani tayyorlaydi va undan foydalanish bo'yicha saperga maslahatlar beradi. Ikkinchi kamera voqea joyidagi saperning harakatlarini yozib oladi.

Videoyozuv ko'rib chiqilgach, mutaxassis kriminalist saperga binoda va ochiq yer maydonida jinoyatchining oyoq kiyimidan qoladigan izlarni saqlagan holda harakatlanish; olib qo'yiladigan obyektlarni ajratib olish va ularni alohida qoplama materialga solish yoki uni xavfli zonadan olib chiqish; izolyasion lenta qoldiqlari, mustahkamlovchi provodlar va arqonlar, yashiruvchi material va boshqa shu kabilarni olish va saqlashga oid maslahatlar beradi.

Mutaxassis kriminalist saperni zaruriy anjomlar (perchatkalar, pinset, qoplama material va h.k.) bilan ta'minlashi va qanday qilib qay turdagi izlarni olish lozimligini o'rgatishi kerak, bularga sigareta qoldiqlari, qog'oz parchalari, izolyasion lenta qoldiqlari, provod qismlari va h.k. Saper olishi mushkul bo'lgan izlar (masalan, yer maydonidagi tuproq qatlamida oyoq kiyimining namunasini yaratib) qo'l ostidagi taxta, korobka va shu kabi narsalar bilan berkitilishi hamda belgilanishi lozim. Portlash xavfi mavjud bo'lgan predmet olib ketilgan yoki zararsizlantirilgandan keyin aytib o'tilgan izlarning rasmiylashtirilishi va olib qo'yilishi mutaxassis kriminalist tomonidan amalga oshiriladi.

Poligon yoki portlatish kamerasi sharoitida portlatish xavfi mavjud bo'lgan predmetni zararsizlantirishda keyinchalik ekspert tekshiruvchini amalga oshirish imkonini beradigan usul va vositalar tanlanadi.

Poligonda PUni zararsizlantirish joyi tanlanganda mutaxassis kriminalist va portlovchi texnik mutaxassis saperlar tomonidan ko'rsatilgan hududlarni ko'zdan kechiradi, asosiy vazifasi portatilgandan keyin to'planib, portlatish uskunasi qayta tiklashda anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan keraksiz predmetlarning yo'qligiga ishonch hosil qilishdir.

Portlashsiz zararsizlantirilgan portlatish xavfi mavjud bo'lgan predmet hodisa joyini ko'zdan kechirishning ishchi bosqichida mutaxassis kriminalist ishtirokida ko'zdan kechiriladi. Shu bilan birga tayyorgarlik bosqichida portlash xavfsiz ishlash bosqichida portlovchi uskuna va uning tarkibiy qismlarini sinchiklab kriminalistik ko'zdan kechirishni ta'minlovchi qo'shimcha xavfsizlik choralari ko'rilishi lozim.

Har qanday holatda predmetning shunday holati tushuniladiki, bunda PUning zaryadi va initsiatsiya vositasi o'zaro aloqada bo'ladi yoki ular bir biriga yaqin joylarda joylashgan bo'ladi. Bunday holatda PU detallari kriminalistik ko'zdan kechirila olmaydi, shuning uchun tergovchi (tezkor xodim) portlovchi texnik mutaxassis tomonidan PU zaryadi va initsiatsiya vositasini ajratish bo'yicha harakatlar amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilishi shart.

Biroq shunday vaziyat bo'lishi mumkinki, yuqori xavfga ega bo'lgan predmet topilmasligi ham mumkin: shubhali obyekt portlatish xususiyatiga ega bo'lmasligi yoki umuman bu kabi buyumlar mavjud bo'lmasligi mumkin. Birinchi holatda, agar predmet portlatish xususiyatiga ega bo'lmasa, buyum tergovchi tomonidan hodisa joyini ko'zdan kechirishning ishchi bosqichida portlatish texnik mutaxassis ishtirokida ko'zdan kechiriladi, ikkinchi holatda esa voqea joyi deb tayyorlanayotgan jinoyat haqidagi xabar kelib tushgan joy topiladi.

Yuqori xavfga ega bo'lgan predmet qidiruv ishlarini olib borayotgan mutaxassislar tomonidan topilgan topilmaganligidan qat'i nazar, tadqiq qilish yoki yuqori xavfga ega bo'lgan predmetni zararsizlantirish yoxud uning xavfli oqibatlari kelib chiqishini bartaraf etishga doir choralar ko'rilganidan so'ng tegishli bo'linma yoki bo'lim mutaxassisi ikki nusxadagi ko'zdan kechirish aktini (tadqiqot, zararsizlantirish, dezinfeksiya qilish va h.k.) taqdim etadi. Shu bilan birga, bunday akt tergovchining keyinchalik voqea joyini yoki obyektlarni qayta ko'zdan kechirish zarurati haqidagi qaroridan qat'i nazar mustaqil tuziladi (ya'ni,

agar terrorizm xavfi haqidagi xabar kelib tushgan bo'lsada, yuqori xavf mavjud bo'lgan predmet yoki uning imitatsiyasi topilmasa, hodisa joyini ko'zdan kechirishning ishchi bosqichi o'tkazilmasligi mumkin).

Mazkur hujjatda quyidagi ma'lumotlar tartib bilan ko'rsatilishi kerak: kim tomonidan va qachon mutaxassis chaqirilgan; guruh tarkibi va rahbari; voqea joyiga kelish vaqti; shubhali predmetning tavsifi va uning o'rnatilish joyi; shaxslar va texnikaning yashirinish zonalarining tavsifi; yuqori xavfga ega bo'lgan predmet va uning holatini baholashga qaratilgan foydalanishdagi maxsus vositalar; qanday tezkor ma'lumotlardan foydalanilgan; yuqori xavfga ega bo'lgan predmetning tuzilishi haqidagi ilk xulosalar; zararsizlantirish uchun tanlangan usul; zararsizlantirish rejasi, vaqti, belgilari va qoidalari kimlar bilan kelishilgan holda tuzilgan; qanday vositalar qay tartibda qo'llangan; natijalar, imzolar.

Gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchilarni so'roq qilish

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish eng keng tarqalgan va murakkab tergov harakati hisoblanadi. Asirga olish bo'yicha ishlarga doir dastlabki tergov harakatlarining kompleksida gumon qilinuvchini so'roq qilish alohida o'ringa ega. Ushbu tergov harakati oqibatida tergovchi gumon qilinuvchining (ayblanuvchining) aybini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan qo'shimcha dalillarni oladi, chunki aynan u sodir etilgan qilmishning barcha holatlari va sharoitlarini, hamda uning sabablarini biladi.

Terrorchilar oldindan qo'lga olish va so'roq qilish holatida tergovchiga qarshilik ko'rsatish uchun alohida tayyorgarlik ko'radi. Ular qanday sharoitlarni yashirish kerakligini kelishib oladi, tergovda o'zini qanday tutish kerakligini muhokama qilishadi. Kriminalistik nazariya va tergov amaliyotining ko'rsatishicha, tergovchining bu haqidagi tasavvurlari to'liq bo'lmaydi. Jinoyatni ochish va uning mazmunini bilish jarayonida u terrorchilarning harakatlaridan biroz orqada qoladi. Vaqt bo'yicha imkoniyatga ega bo'lgan gumon qilinuvchi tergovchini maksimal murakkab vaziyatda ish ko'rishga majbur qiladi.

Asirga olish holatida vaqt yo'qligiga qaramasdan, gumon qilinuvchi so'roq qilinishidan oldin quyidagi tayyorgarlik chorolari ko'rilishi kerak: hodisa joyini ko'zdan kechirish bilan bog'liq materiallar (rejalar, sxemalar, fotosuratlar, videoyozuvlar); ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish bayonnomasi va guvohlarning so'roq qilinganligi hujjatlari; texnik komissiyalar va ekspertiza materiallari va shu kabilarni sinchiklab o'rganish zarur.

Qo'lga olingan terrorchini so'roq qilish o'z vaqtida va maqsadli bo'lishi zarur. Tergovchi aynan qanday savollar aniqlanishi lozimligini

bilishi va tartibini belgilashi, shuningdek, dalillarni tayyorlab qo'yishi lozim. Terrorchiik aktda qatnashganligini tan olayotgan gumon qilinuvchi so'roq qilinganda quyidagi savollar beriladi: Jinoiy sheriklar mavjudmi, bo'lsa ular haqida ma'lumotlar, tashqi ko'rinishi, manzil va mazkur jinoyatdagi roli; ular qanday usul va aloqalardan foydalangan; qayerda, qachon va kimdan qurol, o'q dorilar va portlatish vositalarni olgan; qurollar qayerda saqlanmoqda; qayerda va qay vaqtda portlatish uskunalari jamlangan, uni tuzishda qanday vosita va asboblardan foydalanilgan; qo'poruvchilik harakatlari qanday tayyorlangan va o'tkazilgan; nega aynan shunday usul tanlangan va ko'zlangan asosiy maqsad; mamlakatga va obyektlarga (aeroport, vokzal, havo kemasi, yashash joyi va shu kabilar) kirish yo'llari qanday.

Agar gumon qilinuvchi qo'lga olingan obyektida yoki o'sha obyektning joylashuv joyida ta'qib qilish natijasida ushlangan bo'lsa uni so'roq qilishni quyidagi savollarni berishdan boshlash maqsadga muvofiq: u voqea joyida nima sababdan yashiringan? Terrorchiik akt sodir bo'lishidan oldingi davrda qayerda bo'lgan va nima bilan mashg'ul bo'lgan? Jinoyatchini fosh qilish uchun gumon qilinuvchining biror joyda bo'lishidagi mantiqsizlik, ta'qibdan qochish, yashirinish, qarshilik ko'rsatish va h.k.lar kabi qo'lga olishning sharoitlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tezkor amalga oshirilgan qo'lga olishdan va berilgan savollarning tuzilishidan o'zini yo'qotib qo'ygan gumon qilinuvchi shaxs ko'pincha mantiqqa zid va o'zaro nomuvofiq tushuntirishlar berishni boshlaydi. Bu holatni tergovchida mavjud bo'lgan dalillar bilan fosh qilish uchun ham qo'llash lozim.

Gumon qilinuvchi ashyoviy dalil (qurol, PU yoki uning detallari) bilan qo'lga olingan taqdirda o'sha vaqtning o'zidayoq shaxsiy tintuv va tanib olish uchun ko'rsatish o'tkazilganidan keyin ovoz yozuv yoki videoyozuvdan foydalangan holda so'roq qilinadi. So'roq qilish chog'ida quyidagilar aniqlanadi: jinoiy sheriklar mavjudmi, undan olib qo'yilgan portlovchi uskunaning ishlash prinsipi, o'zini o'zi yo'q qiluvchi mexanizmning mavjudligi; portlash vaqti qanday aniqlanadi; boshqa portlatish harakatlari amalga oshiriladimi, qachon va qayerda; qurol mavjudmi, qanday turga mansub, qayerda, kimda, unga o'q dorilar mavjudmi.

Terrorchining yashash joyida tintuv amalga oshirilgan bo'lsa, terrorchi topilgan va olib qo'yilgan ish bilan bog'liq predmetlar, hujjatlar, boshqa dalillarga oid so'roq qilinishi kerak.

Jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish

E’tibor qarating! Terrorizmi tergov qilishda quyidagi shaxslar guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin:

1. jinoyat holatini bevosita ko‘rgan guvohlar;
2. jinoyat sodir etishda jinoyatchini bevosita ko‘rgan guvohlar;
3. terrorchiik akt xavfiga uchragan ob’ekt ishchilari yoki u erda yashovchi shaxslar;
4. huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek, avariya yoki qutqaruv ishlarida qatnashgan shaxslar;
5. tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terrorchiik akt haqida xabar olgan shaxs.

Jabrlanuvchini so‘roq qilishda quyidagilari aniqlash lozim: qayerda, qachon va qay sharoitlarda jinoyat sodir etilgan; qachon va qay sharoitda jabrlanuvchi jinoyat sodir etilgan joyda edi; jinoyatning sodir etilish sharoiti; jinoyatchilarni ko‘rganmi, ularni tasvirlab bera oladimi; jabrlanuvchining ish holati qanday, uning ishga, atrofdagilarga munosabati qanday, chunki terrorchiik akt unga nisbatan sodir etilgan va unga xavf tug‘dirishi mumkin; jabrlanuvchining o‘zi tomonidan yuqori xavfli predmetlar topilmaganmi, sodir bo‘lgan holatlar uning mazkur predmet bilan noto‘g‘ri munosabati oqibatida kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin; jinoyat sodir etilgan vaqtda jabrlanuvchining jismoniy holati qanday bo‘lganligini aniqlash lozim; jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishidan oldin, ayni vaqtdagi va sodir etilgandan keyingi harakatlari aniqlashtirilishi lozim.

Guvohlar so‘roq qilinganda quyidagilar aniqlanishi lozim: qachon va qay sharoitlarda guvoh voqea joyida edi; ko‘rish va eshitish qobiliyatining darajasi aniqlanadi; guvoh qanday tashqi holatlarni kuzatgan (shovqin balandligi, xarakteri, tezligi, urish to‘liqlini va boshqalarning mavjudligi); qanday oqibatlar kelib chiqdi (zarar darajasi va xarakteri); terrorchilik akt sodir etilish vaqtida yoki undan oldin hodisa joyida biror shubhali shaxslar (buyumlar) yo‘q edimi va h.k.

Nazorat savollari:

1. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda kimlar guvoh sifatida so‘roq qilinadi?
2. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishning o‘ziga xos xususiyati qanday?

Kazuslar:

1-kazus

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga Chilonzor tumanining A., S. va D nuqtalarda terrorchilik aktlari sodir etilishi to'g'risida xabar kelib tushdi. A. nuqtada sodir etilishi rejalashtirilgan terrorchilik aktida bir nechta fuqarolar garovga olingani aniqlandi. Terrorchilarni qo'lga olish operatsiyasi amalga oshirilganda ulardan ba'zilar oddiy fuqarolarga qo'shilib hodisa joyidan chiqib ketgani to'g'risida tahminlar bor. Dastlabki so'roq jarayonida garovga olinganlarning umumiy soni 23 nafarni tashkil etgani, jinoyatchilar esa 5 nafar bo'lgani aniqlagan. Biroq, garovga olinganlarni qutqarish operatsiyasida jami 25 nafar shaxs hodisa joyidan olib chiqilgan. Qo'lga olish operatsiyasida 2 nafar jinoyatchi o'zaro otishmalarda otib o'ldirilgan. 3 nafar jinoyatchi hodisa joyidan qochib ketgan.

Holatni kriminalistik jihatdan baholang. Holat yuzasidan gumon qilinuvchini so'roq qilish rejasi qanday shakllantirilishi lozim? Haqiqatni aniqlash uchun tergovchi qanday taktikadan foydalanishi zarur?

2-kazus

A va B nutalarda portlatish amaliyotlari o'tkazildi. Portlash natijasida bir qator fuqarolar jabrlangan va hayotdan ko'z yumgan. Hodisa joyida Terrorchilik tashkilotlariga taalluqli ko'ra rangli bayroq va video kasseta topilgan, 15 nafar fuqaro qutqarib olingan. Jinoyatchilar voqea joyida yo'q qilingan. Videokasseta tekshirib ko'rilganda qutqarib olingan fuqaro Amirov B. qo'lida qurol ushlagan holda, terrorchilar bilan birga ularni aytganlarini bajargani aniqlandi. Fuqaro Amirov B. so'roq qilinganda, u o'z harakatlarini jinoyatchilarning qistovi asosida amalga oshirgani, o'zi hech qanday jinoiy harakatni bajarmagani, faqat jinoyatchilar qo'ygan portlatish qurilmasini ushlab turganini aytgan. Tergov fuqaro Amirov B.ni terrorchilar bilan aloqasi bor degan qat'iy qarorga keldi. Haqiqatda fuqaro Amirov B.ni terrorchilar bilan oldindan til biriktirgani aniq. Biroq, uni aybdorligini isbotlovchi birorta ashyoviy dalil va guvoh mavjud emas.

Holatni kriminalistik jihatdan baholang. Holat yuzasidan gumon qilinuvchini so'roq qilish rejasi qanday shakllantirilishi lozim? Haqiqatni aniqlash uchun tergovchi qanday taktikadan foydalanishi zarur?

37-MAVZU. GIYOHVANLIK VOSITALARI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI TERGOVI

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atish. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish uslubining asoslari. Dastlabki tergov harakatlari.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi

Ijtimoiy salbiy illatlardan biri bo‘lgan giyohvandlik eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, nafaqat respublikamiz, balki butun dunyoda keng jamoatchilikni jiddiy tashvishga solmoqda. Ushbu muammoning qay tartibda o‘z echimini topishi butun insoniyat ertasini belgilab berishi uning ko‘lami haqida tushuncha beradi. Shu sababli giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashni tashkil etish butun jahon hamjamiyatidan barcha kuch va vositalarni birlashtirishni taqazo qilmoqda.

Insoniyat ertasi uchun giyohvandlik muammosining nechog‘li dolzarb ahamiyat kasb etishini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida aytilgan quyidagi fikrlari orqali bilib olishimiz mumkin: “Biz ana shu illatga qarshi kurashda keng ko‘lamli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Jahonda ishlab chiqarilayotgan moddalarning talaygina qismi Markaziy Osiyoda tayyorlanganligi yoki uning orqali tashib o‘tilayotganligi hech kimga sir emas. Narkobiznesning tranzit yo‘nalishlari bir mintaqada jamlanishining o‘ziyoq mana shu dahshatli hodisani tugatishda jahon hamjamiyati o‘z imkoniyatlarini jamlab ishga solish uchun yetarli asos bo‘ladi. O‘zbekiston barcha manfaatdor mamlakatlar va tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik qilishga tayyor”⁴. Darhaqiqat, respublikamiz hududidan narkotranzit sifatida foydalanib, olib o‘tilayotgan giyohvandlik vositalari miqdorining ham oshib borayotganligi hech kimga sir emas. “Tabiiyki, narkotik moddalarning bir qismi bizning mintaqamizga singib ketmoqda. Bu esa jinoyatchilikning o‘ssishiga, yoshlarning buzilishiga, hatto millatning genofondi aynishiga sabab bo‘lmoqda”⁵.

⁴ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б.55.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 437-438.

Giyohvandlikning alohida ijtimoiy yo'nalishlarga ega bo'lib borayotganligi, ya'ni yoshlar va xususan voyaga yetmaganlar, shuningdek ayollar orasida keng tarqalib borayotganligi uning xavfliligini yanada oshib borayotganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilarning soni yildan yilga asosan yoshlar hisobiga o'sib bormoqda. Eng achinarlisi surunkali giyohvandlikka muhtalo bo'lganlar soni keskin ortib, o'z navbatida, turli ijtimoiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Taxminiy hisob kitoblarga ko'ra bugungi kunda umumjaxon miqyosida 200 milliondan ortiq kishi turli xil giyohvandlik vositalarini iste'mol qiladi. Shundan taxminan 140 million kishi eng keng tarqalgan giyohvandlik vositasi marixuana cheksa, 13 million kishi kokain, 8 million kishi heroin, 30 million kishi esa amfitamin turkumiga kiruvchi stimulyatorlarni iste'mol qiladi⁶.

E'tibor qarating! Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar JKning XIX-bobidagi 270-271, 273-278-moddalarda alohida nazarda tutilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prokursorlar bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi ularni JK moddalarida berilgan tushunchalariga asoslanadi va umuman quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi.

Ko'knor yoki tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan taqiqlangan o'simliklarni ekish, parvarishlab etishtirish hollarida ekin maydoni va bu ish bilan shug'ullangan shaxsning kimligi, u o'zi iste'mol qilishi yoxud boshqalarga o'tkazish niyatida ekanligi aniqlanmog'i lozim.

E'tibor qarating! Ekin maydoni 250 kvadrat metrdan ko'p bo'lsa, o'rtacha, 1000 kvadratmetrdan oshsa, katta maydon hisoblanib, jazo chorasi tegishlicha kuchaytiriladi. Amaliyotda bunday xatti-harakat katta miqdorda daromad olish uchun sodir etilsa-da, go'yo ekinlarni keksaygan shaxs o'zi uchun parvarish etgani haqida yolg'on tushintirish berish ko'p uchraydi. Ekinlar agronom-seleksioner, ximiklar yordamida ekspertiza qilinishi lozim bo'ladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash jinoyati, ularni qo'lga kiritish usuli qonunga xilof ekanligi, chunonchi o'g'irlik, firibgarlik, talonchilik, bosqinchilik tarzida bo'lganligi, shaxs ilgari ham bunday qilmish bilan shug'ullangan, ta'magarchilik, o'z mansab mavqeyini suiiste'mol etgan, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan, ko'p miqdorda, uyushgan guruh tarkibida

⁶ Интерпол маълумоти асосида. Interpol, 4-th International Heroin Conference, Yangon, Myanmar, 23-rd – 26-th February 1999.

tajovuz qilgan, hatto o'ta xavfli retsivist ekani albatta sinchkovlik bilan aniqlanmog'i lozim. Shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari qaysi joydan qonunsiz egallangan va ularni kimlar orqali sotish, tarqatish mo'ljallanganiga alohida e'tibor berilishi zarur. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni kontrabanda qilish uchun alohida javobgarlik belgilangan.

Giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalarni boshqalarga o'tkazish va shu maqsadda tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish kabi xatti-harakatlar mazkur jinoyatlarning eng jiddiy turi hisoblanadi. Jinoyatning predmeti bo'lgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning miqdori ko'p bo'lmasa, ozginadan ko'proq yoxud ko'p bo'lsa, jazo me'yori ham keskin o'zgaradi. Shu bois jinoyat predmetining nimadan iborat ekani va qancha ekanligi albatta ekspertiza yo'li bilan isbotlanmog'i shart. Tergov jarayonida ayblanuvchining shaxsi, ayniqsa ilgari ham shunday jinoyatlar uchun mahkum etilgani, uning uyushgan guruh a'zosi ekanligi aniqlanishi zarur. Jinoyatni o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv, sport yoki turli jamoat tadbirlarini o'tkazayotgan joylarda, shuningdek ozodlikdan mahrum etish jazosi o'taladigan joyda sodir etilishi ayniqsa xavfli hisoblanadi.

Bu xil jinoyatlarda giyohvandlik vositalarining manbalari va ularni olgan, sotgan, iste'mol qilganlar doirasini to'la aniqlash juda zarur. Agar bunday shaxslarda sotish, daromad olish maqsadi aniqlanmasa, ular faqat giyohvandlik vositalarini o'zi iste'mol qilgani yoki boshqa maqsadlarda tayyorlagani, saqlagani uchun javobgarlikka tortiladi.

Boshqalarni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni bepul iste'mol qilishga aldab chorlash, o'rgatish, dalolat qilish, majburlash ham jinoyiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish uchun jiddiy jazolar belgilangan. Bu qilmishni bangixonalar ochish tarzida sodir etish og'ir jinoyat hisoblanadi. Jinoyat tarkibiga baho berishda yana bir holatni e'tiborga olish lozim: ko'p bo'lmagan miqdordagi giyohvandlik vositalarni yoki psixotrop moddalarni boshqalarga o'tkazish maqsadida yoxud bunday maqsadsiz qonunga xilof ravishda tayyorlagan, sotib olgan, saqlagan, tashigan yoki jo'natgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybiga iqror bo'lib, hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalarini buzish uchun alohida javobgarlik belgilangan. Bu qoidalar

1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslangan. Jumladan, unga ko‘ra giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar faqat davlat ehtiyojlari uchun, buyurtmaga muvofiq maxsus litsenziyaga ega bo‘lgan muassasa, korxonalar, tashkilot tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Ularni tayyorlash, aniqlash, foydalanish, boshqalarga berish, tashish, jo‘natish kabi harakatlar qat‘iy tartibga solingan. Ularga rioya qilmaslikning nimada ifodalangani, sababi, oqibatlari ish bo‘yicha batafsil aniqlanmog‘i lozim.

E’tibor qarating! Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi davlat komissiyasining 1998-yil 22-maydagi qarori bilan tasdiqlangan. Unda 67 turdagi giyohvandlik vositalari va 22 turdagi psixotrop moddalarning o‘lchami – oz-ozginadan ko‘proq va ko‘p miqdorga mansubligi ham belgilangan. Mazkur masala BMTning Qonunga xilof muomaladagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurash to‘g‘risida Konvensiyasiga (1988-yil) asoslanib hal etilgan. Konvensiyada ana shu vosita va moddalarni tayyorlashda foydalaniladigan 22 xil kimyoviy moddalar-prekursorlar ham nazarda tutilgan.

Bu toifa jinoyat ishini tergov qilishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1995-yil 27-oktabrda qabul qilgan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qarori talablariga rioya qilinishi shart.

Noqonuniy ravishda giyohvandlik vositalarni tarqatish bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyatchining xatti-harakatlariga qarab biri ikkinchisidan keskin farq qiladi. Ammo sog‘lom aholini falaj qilish, bu vositalarning iste‘moli natijasida odam organizmida turli xil muddatda betakror o‘zgarishlarga olib kelishi, keyinchalik esa unga batamom ruhiy nogironlikka muhtalo bo‘lib qolishlari bilan bog‘liq oqibatlari ularni birlashtirib turadi. Tibbiyot nuqtayi nazaridan giyohvandlik vositalari deganda, bir yoki bir necha xil o‘simliklardan yoxud sun‘iy moddalarda tayyorlangan, dastlab iste‘mol qilish natijasida odam markaziy nerv sistemasiga ta‘sir ko‘rsatib, ruhan taskinlik beradigan, ko‘proq iste‘mol qilish natijasida kayfiyatni haddan tashqari ko‘tarib yuboradigan, oxir oqibat gangitib go‘ng holatga soladigan vosita nazarda tutiladi.

Giyohvandlik vositalarini muntazam iste‘mol qilish odam salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, uning faoliyati va asabini izdan chiqaradi, ruhiy kasallikka uchratadi. Bunday odamning mehnat qobiliyati pasayadi, qisqasi shaxsni tanazzulga duchor qiladi, nojo‘ya xatti-harakatlar sodir etishga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega va maxsus giyohvandlik vositalar ro'yxatiga kiritilgan, xalqaro yagona konvensiya nazoratida bo'lgan o'simliklardan sanoat asosida yoki xonaki tayyorlangan vositalar g'ariqonuniy hisoblanadi. Nazoratda bo'lgan bunday vositalar ro'yxati psixotropik xususiyatiga ega bo'lgan (ruhiyatga ta'sir etuvchi) yangi dorivor vositalar hisobiga muttasil ko'payib bormoqda. Ularni davolashdan boshqa maqsadlarida ishlatish holatlari ko'payganligi sababli bunday moddalardan foydalanish qat'iy ravishda huquqiy tartibga solindi. Bunday moddalarga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlar narkotik moddalarga nisbatan boshqacha javobgarlik holatlari belgilab qo'yilgan.

Giyohvandlik vositalar bilan noqonuniy harakatlar to'g'risidagi ishni tergov qilishda jinoyat subyektining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish kerak: ko'p holatlarda aybdor shaxs giyohvandlik vositalariga mukkasidan ketgan bo'ladi, ya'ni usiz tura olmaydi. Giyohvandlik mushkul oqibatlarga olib kelishini tergov jarayonida e'tiborga olish kerak (giyohvandlarni so'roq qilish, yuzlashtirish, tergov eksperimentlari o'tkazish kabilar). Giyohvandlarning tipik belgilari yolg'on so'zlash, ahloqiy tanazzulga yuz tutish va aqlan zaiflashib qolishdir. Narkotik ochiqish sharoitida shaxsning qulog'iga gap kirmaydi, u atrof-muhitni real tasavvur qila olmaydi.

Jinoyat ishi qo'zg'atish

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida, shuningdek tekshirish va taftish jarayonida o'g'irlik, mansabdor shaxsning noqonuniy harakatlari, giyohvandlik vosita va psixotropik moddalarni hisobga olish, saqlash, berish qoidalarining buzilishi yoki giyohvandning shifoxonaga tushishi bilan bog'liq tergov organlari tomonidan tekshirish natijasida aniqlangan jinoyatlar bo'yicha ish qo'zg'atish - bular eng ko'p uchraydigan sabablar hisoblanadi.

Bunday toifadagi jinoyatning o'ziga xos tomoni shundaki, jinoyatchini jinoyat ustida qo'lga olish ko'pgina hollarda ularni fosh qiladigan ashyoviy dalillarga ega bo'lishga imkoniyat yaratadi va u tergov qilishning bundan keyingi yo'nalishini belgilab beradi. Agar giyohvandlik vositalarini yoki ularning izlarini topish imkoni bo'lmasa, amalda ularni saqlash, tashish va iste'mol qilganligini isbotlash juda qiyin kechadi.

Giyohvandlarni jinoyat ustida (olib ketayotganda, kelishuv sodir etayotganda, ko'knori shirasini tayyorlashganda) qo'lga tushirish uchun giyohvand modda gumon qilingan shaxs bilan birga bo'lishi, bu holatni kuzatuvchi oldindan bilishi kerak. Jinoyatchilarni qo'lga olish navbati to'g'risidagi masala har birini ushlaganda qanday natijalarga erishish

mumkinligiga qarab hal qilinadi. Ularning har birini ushbu jinoyatdagi roli va ishtiroki darajasi, jinoyatchilar guruhi bilan aloqalari hisobga olinishi kerak. Bu to'g'ri ko'rsatuv berishi mumkin bo'lgan shaxsni aniqlab olish imkonini beradi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish uslubining asoslari

Giyohvandlarni qo'lga olishning eng samarali usuli to'satdan harakat qilish hisoblanadi. Jinoyatni sodir etish usullari va niqoblanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olib, qo'lga tushiriladigan joy belgilanadi. Qo'lga tushirish giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalarni olib ketayotgan transportda, turar joyda oldi-sotdi bitimi amalga oshirilayotganda, ko'knori va nashadan giyohvand tayyorlayotganda, giyohvandlik moddalari qabul qilayotganda ma'lum joyda saqlayotganda; iste'mol qilayotganda, jo'natayotganda, sotayotganda amalga oshiriladi. Shuningdek, giyohvandlik vosita olinadigan o'simliklarni etishtirishda, ekishda, ishlov berayotganda, hosilini yig'ishtirib olayotganda ham qo'lga tushirish mumkin. Formatsevтика korxonasida o'g'irlangan giyohvandlik vositalarni olib chiqayotganda; dorixona yoki davolash muassasasida ularni soxta retsept bo'yicha olib ketayotganda ham qo'lga tushirish mumkin.

Giyohvandlik vositalarni farmatsevтика korxonalari, davolash muassasalari, dorixonalardan o'g'irlik yo'li bilan olganlarni tergov qilishda quyidagi masalalarga oydinlik kiritish kerak: 1) o'g'irlik sodir etilganmi? 2) kim sodir etgan? 3) qanday usulda amalga oshirilgan? 4) muntazam sodir etib turilganmi? 5) o'g'irlangan giyohvand moddalar miqdori? 6) o'g'irlangan moda qayerga yashirilgan? 7) o'g'irlikdan maqsad iste'mol qilishmi yoki sotishmi? 8) olib-sotarlar bilan oldindan kelishib olinganmi? 9) o'g'irlangan moddalar qaysi yo'llar bilan tarqatilgan? 10) o'g'irlikka qanday sharoit imkon bergan?

Giyohvandlik vositalarni sotish bilan bog'liq ishni tergov qilishda quyidagi holatlar aniqlanishi darkor? 1) giyohvandlik vositasining manbai qayerda? 2) u kimdan xarid qilingan? 3) oldi-sotdi haqida oldindan kelishib olinganmi? 4) muhsulot qanday baholarda sotib olingan? 5) mahsulotni o'tkazish yo'llari? 6) javobgarlikni og'irlashtiradigan va, aksincha, yengillashtiradigan holatlar, chunonchi guruhning mavjud

bo'lganligi, muntazamligi va h.k. 7) jinoyat sodir etishga qanday sharoitlar imkon bergan?

Muayyan shaxsdagi yohvandlik vositalarning mavjudligi tugal jinoyat tarkibini tashkil etadi, chunki qonunga ko'ra, bu vositalarni o'zi iste'mol qilish uchun olganlar ham javobgarlikka tortiladilar; shu bilan birga tajriba ko'rsatadiki, giyohvandlik vositalarni tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar uyushgan guruh tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli jinoyat bilan aloqador barcha shaxslarni aniqla bolish zarur.

Dastlabki tergov harakatlari

Jinoyat ustida qo'lga olish va tintuv o'tkazish bayonnomalari dastlabki dalil tarzida bo'lib, muayyan bir shaxsda giyohvandlik vositalari topilganligini bildiradi, xolos. Bunday vaziyat versiya tuzishda sodir etilgan jinoyat usuli va tezkor-qidiruv ishlari natijalariga oid ma'lumotlarga alohida ahamiyat berishni talab etadi.

Gumon qilingan shaxsning turmush tarzi, jinoyat sodir etish usullari, uning kimlar bilan uchrashganligi va qaysi marshrut bo'yicha safar qilganligi versiya tuzish uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

Eng tipik versiyani quyidagi ko'rinishda taklif etish mumkin.

Giyohvandlik vositalarni qo'lga olishda: a) qo'lga olingan shaxs giyohvandlik vositasi yoki psixotropik moddalarni olib-sotarga ulgurji pullaydi, savdogar esa uni chakana narxda sotadi; b) qo'lga olingan shaxs faqat olib-sotar tomonidan yollangan shaxs; d) qo'lga olingan shaxs giyohvandlik vositalar o'g'risi; e) qo'lga olingan tasodifiy unga yukni eltib berish topishirilgan, u nimani olib ketayotganligini bilmaydi; f) qo'lga olingan shaxs – giyohvand, u giyohvandlik vositasini o'zi iste'mol qilish uchun o'g'irlab olgan yoki tayyorlagan; g) qo'lga olingan shaxs giyohvandlik vositasini dorixonadan yoki davolash muassasasidan o'g'irlab olgan.

Giyohvandlik vositasini sotayotganda qo'lga olinganda: a) sotuvchi ikkinchi darajali shaxs bo'lib, unga giyohvandlik vositasini sotish vazifasi yuklatilgan; b) sotuvchi giyohvandlik vositalarini o'g'irlab olgan; d) sotuvchi afyun va nasha bilan savdo qiladi, bu xil moddalarni ko'tarasiga sotadi, undan chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar xarid qiladi; e) sotuvchi giyohvandlik vositalarni uni etishtiradigan yoki tayyorlaydigan joydan oladi; f) sotuvchi o'ziga o'xshash olib-sotar va eltib beruvchi bilan hamkorlik qiladi; g) xaridor narkotik moddani o'zi iste'mol qiladi; h) xaridor narkotik moddalar bilan savdo qiladi, ko'tarasiga sotib

oladi va joylarga olib borib maydalab pullaydi; i) xaridor bangixona egasi, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni bangilar iste'mol qilishi uchun oladi; j) xaridor giyohvandlik vositalarni maydalab sotish uchun oladi; k) xaridor-giyohvand shaxs, ayni vaqtda o'z xarajatlarini qoplash uchun giyohvandlik vositani maydalab sotadi.

Olg'a surilgan versiyalarni tekshirish turli tergov harakatlari, ayniqsa tintuv o'tkazish, so'roq qilish, ekspertiza tayinlash orqali amalga oshiriladi.

Tergov versiyalarni maqsadga muvofiq tekshirish uchun tergov ishlarini yaxshi rejalashtirish zarur. U murakkab guruhli ishlarni tergov qilishda juda muhim hisoblanadi, bunda turli shahar va tumanlarda tergov harakatlari o'tkaziladi.

Guruhlar tomonidan sodir etilgan ko'p epizodli jinoyat ishlarini tergov qilishda yangidan yangi holatlar ochiladi. Shunga muvofiq yangi versiyalar vujudga keladi, natijada tergov rejasi o'zgaradi, yangi harakatlar bilan to'ldiriladi.

Niqoblangan guruhli giyohvandfurushlar tomonidan sodir etilgan jinoyatni tergov qilishda II Oning tezkor xodimlari bilan hamkorlikda ish yuritish lozim. Shuning uchun alohida qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish to'g'risida surishtiruv organlariga topshiriq berish nazarda tutilishi kerak. Qoidaga ko'ra biror joyga borishni ham rejalashtirish lozim, chunki ko'rilayotgan jinoyat ishlari boshqa shahar, tuman va mamlakatlarda yurgan jinoyat guruhi a'zolari aniqlanishini talab etadi.

Mazkur toifaga oid ishlar yuzasidan tintuv o'tkazishning o'ziga xos tomonlari muayyan vaziyatlarga ko'ra amalga oshiriladi. Giyohvandlik vosita, psixotrop modda yoki prokursorni tegishli ruxsatnomasiz oz miqdorda bo'lsa ham saqlash jinoyat hisoblanadi. Bu haqda jinoyatchi bilgani uchun uni saqlash usullarini o'ylab topadi, aniqlash qiyin joylarni tanlaydi. Jinoyat ishtirokchilari ko'p hollarda qarindosh va yaqin munosabatdagi shaxslar bo'lib chiqadi. Ular giyohvandlik vositalarni turli vaqtlarda turli xonadonlarda saqlaydilar. Qishloq joylarda ko'knori o'simliklari etishtiradiganlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni yashirish imkoniyatlari katta bo'ladi. Jinoyatchilar javobgarlikdan qochish maqsadida qo'llaniladigan usullardan biri – ularning transportda jo'natayotgan buyumlari ichidan, hovlidagi qurilmalardan va tomorqa uchastkalaridan topilgan giyohvandlik moddalari xaqida hech narsa bilmasliklari haqida vaj qilishdir. Bunday holatni gumon qilingan shaxs bo'yniga qo'yish ancha qiyin kechadi. Giyohvandlik moddalarni saqlab

qo'yadigan, eltib beradigan, olib-sotadigan, vositachilik qiladiganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor-qidiruv yo'li bilan bilsa bo'ladi.

Tintuv o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda guruh ishtirokchilari to'g'risida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish kerak, shunda tintuv natijalari belgilangan versiyani tekshirish imkoniyatini beradi. Yangi versiyalar paydo bo'ladi, oldingisiga tuzatishlar kiritiladi. Gumon qilinganlar uyidan giyohvandlik vosita yoki uning izlari topilgan taqdirda faraz qilish mumkinki, mazkur shaxs jinoyatdan tushgan daromadning juda oz qisminigina oladi.

Tintuv vaqtida turli o'ramdagi tarozilar, giyohvand vositalar izlari, qoldiqlari topilgan bo'lsa, bu shaxs giyohvandlik vositalari tayyorlovchi yoki vositachi bo'lishi ehtimol. Jinoyatning tashkilotchisi qilinganda uning boshqalar bilan aloqasini ko'rsatadigan hujjatlarga ko'proq ahamiyat berish lozim.

Tintuv o'tkazishning asosiy vazifasi giyohvandlik vositalari va boshqa ashyoviy dalillarni topishdan iborat. Giyohvandlik vositalarini o'lchash, qadoqlash uchun ishlatiladigan tarozilar; giyohvand vosita olinadigan o'simlik qoldiqlari; nasha tayyorlashda foydalaniladigan elak, xaltachalar, presslar, shprints, maxsus naychalar; jinoyat yo'li bilan topilgan pullar va qimmatli buyumlar; qalbaki retseptlar va h.k. Jinoyat ishtirokchilarining yozishmalarini, pochta vositasida o'tkazilgan pul hisob-kitoblarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun pochta-telegraf muassasalarida korrespondensiyalarni kuzatish zarurati paydo bo'ladi.

Tintuv vaqtida topilgan hujjatlar jinoyatchilarning niqoblangan aloqalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday hujjatlarga xat, telegramma, pul perevodlari, posilikalarga tegishli ma'lumotnoma, yodnomalar, bloknotdagi turli yozuvlar, saqlash kamerasi kvitansiyasi, shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar to'g'risida kvitansiyalar, mehmonxona hisob-kitob qog'ozlari, samolyot, temir yo'l, avtobus, tramvay biletleri kabilar kiradi.

Topilgan yozishmalar sinchklovlik bilan o'rganilishi lozim. Tajriba ko'rsatadiki, bunday yozishmalar sirli ma'nolarga ega bo'ladi, ularda jinoyatni niqoblash maqsadida shifrlangan usuldan foydalanadilar, jargon so'zlarni ishlatadilar. Giyohvandlik vositalari saqlanadigan yashirin joyni aniqlash alohida mahorat va sinchkovlik talab qiladi. Ularni ba'zan turli oziq-ovqat mahsulotlari solingan idishlarda saqlaydilar, ustiga yog', smetana, moy quyadilar, krupa, un kabilar soladilar. Devorlarda, deraza tagida, mebellarda, bolalar qo'g'irchqlarida yashiradilar, shuningdek

xo'jalik qurilishlari, tomorqa uchastkalari, hovlilarda, uchoq atrofida, molxonalarda yashirin joy tayyorlaydilar. Tintuvda o'rgatilgan itlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tintuv natijalari bayonnomada o'z ifodasini topishi kerak. Yashirin joy topilganda uni tasvirlab ko'rsatish va suratini olish lozim. Turli joydan topilgan giyohvandlik vositalari alohida-alohida joylashtirilishi va ekspertizaga topshirilishi lozim. Ekspertiza ularning tarkibi, tozalik va namlik darajasini aniq belgilab beradi.

Hodisa ro'y bergan joyni ko'zdan kechirish, odatda, giyohvand vositalarini dorixonada, davolash muassasalari, farmatsevtika korxonalarida o'g'irlik sodir etilganda va bunday obyektlarda bosqinchilik yuz berganda amalga oshiriladi.

Giyohvand vositalar saqlangan joyni sinchiklab ko'zdan kechirish, jinoyatchining qo'l, oyoq izlarini aniqlashga e'tiborni qaratish lozim. Giyohvand vositalar joylangan idish va u saqlanadigan joyni ochishda ishlatilgan qurollarni ham tekshirish talab etiladi. Hodisa ro'y bergan joydagi izlarni foto suratga olinishi va bayonnomada aniq-ravshan ko'rsatilishi lozim.

Ko'knori etishtiradigan joy aniqlanganda, ularda qancha mahsulot etishtirilishi, qancha hosil olinishi mumkinligi, maydonning sxemasi, hajmi va ekinlarning barchasi yo'qotilganligi, bir necha tun namuna olingani bayonnomada ko'rsatilishi lozim.

Ko'knori qaysi ekinlar orasida ekilganligi, tekshirish vaqtida ekinlar qanday holatda bo'lganligi, pishgan, pishmagan, yig'ishtirib olingan, bir qismi yig'ishtirib olingan, odam izi, hayvon va transport vositasi izlari hisobga olinadi. Bunday tadbirlarda agronom mutaxassislarni jalb etish lozim.

Giyohvand vositalar tayyorlanadigan, qayta ishlanadigan yoxud iste'mol qilinadigan xonani ko'zdan kechirishda turli moslamalarga, xomashyolarga hamda idishdagi izlarga e'tibor berish zarur. Shisha va metall idishlarda aniqlangan giyohvand vosita va qo'l izlari eng asosli ashyoviy dalil hisoblanadi.

Gumon qilinganlarni jinoyat ustida qo'lga olishda guvoh bo'lganlar asosan ushbu vaziyat bilan bog'liq shaxs hisoblanadilar. Bu guvohlarni so'roq qilish zarur, chunki qo'lga olingan jinoyatchi uni fosh qiladigan predmetlar meniki emas, deb tonishi hech gap emas.

Agar jinoyatchi giyohvand vositalarni olib ketayotganda qo'lga olinsa, avtobus va trolleybus yoki boshqa transport vositalariga qayerda o'tirgani, qanday odamlar uni kuzatgani, uning qo'lida nima bor ekanligini

aniqlash zarur. Bu savollarga yo'lda hamroh bo'lganlar, avtotransport haydovchilari, avtobus konduktorlari va kassirlari javob berishlari mumkin.

Yuk saqlanadigan joy xodimi so'roq qilinganda saqlashga qo'yilgan yukning hidiga urg'u beriladi. Ammo jinoyatchilar bu holatni oldindan bilib, hidini niqoblashi mumkin (qalampir, atir kabilardan foydalanadilar).

Olib-sotarlar ko'p hollarda transportning taksi turidan foydalanadilar. Taksi haydovchilar mijozini qaysi manzilga yetkazib qo'ygani va kimlar bilan uchrashgani to'g'risida ma'lumot berishi mumkin.

Qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari, qo'ni-qo'shnilaridan ayblanuvchining hayot tarzi, hamtavoqlari, uchrashuvlari va safarlari to'g'risida so'rash kerak. Guvohlarni so'roq qilish jinoyatchi qo'lga olingandan keyin darhol o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Aks holda ular o'zaro til birlashtirib, yolg'on ko'rsatuv berishga kelishib olishlari mumkin.

Giyohvandlar orasidan guvoh qidirish lozim, ular mazkur ish yuzasidan ko'rsatuv berishlari mumkin. O'zining yomon holatga tushib qolganligini anglab etgan va davolanishga intilayotgan shaxslar odatda giyohvand vositalarni tarqatayotganlarni ayblaydilar va to'g'ri ko'rsatuv berishga moyil bo'ladilar.

Hali giyohvand darajasiga etib ulgirmagan va uni qabul qilaverish nimalarga olib borishini yaxshi tushunib yetmagan shaxslarga bu qilmish yaxshi oqibatga olib bormasligini, agar bu zahri-qotilni iste'mol qilishni to'xtatmasa, nimalarga duchor bo'lishini tushuntirish foydadan xoli emas. Bu suhbatga shifokor va ruhshunoslarni ham jalb etish kerak.

Surunkali giyohvand shaxslar davolanishni xayoliga ham keltirmaydi, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy ko'z bilan ko'rmaydi, ular tanazzulga yuz tutgan shaxslardir. Bunday shaxslardan haqiqiy ma'lumotlarni olish ancha qiyin kechadi.

Giyohvandguvoh abstinensiyaga tushgan vaqtda olingan ma'lumotlarga baho berishda ehtiyot bo'lish kerak. Giyohvand ayblanuvchi manfaatini yoqlab, shantaj qilishgacha borishi, hatto jinoyatga qo'l urushi, o'zi bergan ko'rsatuvlardan tonishi ham mumkin. Shuning uchun ham u ko'rsatuvlarni qayta-qayta tekshirib ko'rish, boshqa manbalar bilan solishtirish maqsadga muvofiq.

Giyohvand vositalarni saqlovchilarga bu xildagi xatti-harakatning yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirganda guruh tashkilotchisini qo'lga olish muhimligini uqtirish samarali natijalar beradi. Agar gumon qilingan unga saqlash uchun berilgan narsa nima ekanligini bilmagan

edim, deb ko'rsatuv bersa, uning bu ko'rsatuvlarini yig'ilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish zarur.

Jinoyatning tashkilotchilari va asosiy ishtirokchilarini so'roq qilishda tintuv vaqtida topilgan dalillar, guvohlar ko'rsatuvlari, ekspert xulosalaridan mohirona foydalanilmasa, so'roq yaxshi natija bermaydi.

E'tibor qarating! Topilgan narsa giyohvandlik xususiyatga ega ekanligi faqat ekspertiza vositasida aniqlanadi. Mazkur toifadagi ishlar bo'yicha kompleks sud-tibbiyot va sud-psixologik ekspertiza o'tkazish va ekspertlar hal qilishi uchun ko'pincha quyidagi savollarni qo'yish kerak: tekshirilayotgan shaxs yaqinda giyohvand vosita qabul qilganmi; unda surunkali narkomanlik belgisi mavjudmi; u narkotik moddalarga qarshi o'tkaziladigan majburiy davolashga majburmi; u jinoyat sodir etilgan vaqtda giyohvandlik ta'sirida bo'lganmi va boshqalar.

Nihoyat, giyohvandlik vositalari va psixotropik moddalar bilan bog'liq har bir jinoyat ishi bo'yicha bu xil jinoyatlarning oldini olish eng zarur vazifadir.

Nazorat savollari:

1. Giyohvanlik vositalari bilan bog'liq jinoyatning kriminalistik tavsifini izohlang.
2. Giyohvanlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha o'tkaziladigan dastlabki va keyingi tergov harakatlari haqida ma'lumot bering.

Kazuslar:

1-kazus

A. ismli shaxs Samarqand shahridan Toshkent shahriga yo'l olib, mashinasida Jizzax hududidan o'tayotganda Yo'l patrul xizmati xodimlari tomonidan to'xtatildi.

Avtoulov ko'zdan kechirilganda uning ichidan oq kukun o'ralgan salafan paket topildi bundan tashqari avtoulovning balonlari motor ichi va salon ko'zdan kechirilishi boshlandi.

Ushbu holatni aniqlashtirish uchun tergovchi qanday harakatlarni amalga oshirishi, qanday ekspertiza turlari o'tkazilishi lozimligini aniqlang.

Agarda ushbu holatda jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asoslar bo'lsa,

qaysi hududda jinoyat ishi qo'zg'atilishi lozim hisoblanadi.

Jinoyatning kriminalistik tavsifini bering. Holat yuzasidan qanday turdagi ekspertizalar tayinlanadi?

2-kazus

Urganch shahrining Sh.Adilov ko'chasida yashovchi Axmad ismli shaxs tezkor – qidiruv xodimlarining ma'lumotiga qaraganda, narkotik moddalarni oldi-sottisi bilan shug'ullanayotganligi aniqlandi.

Giyohvanlik vositalari bilan bog'liq jinoyatni sodir etishda taxmin qilingan shaxs va uning mijozi qo'lga olindi. Taksikologik ekspertiza o'tkazilganda xulosa ijobiy chiqdi.

Holatni oydinlashtirish va tekshirish uchun qanday dastlabki va keyingi tergov harakatlari amalga oshiriladi?

Taksikologik ekspertiza tadqiqot obyekti nimalardan olinadi, uning tadqiqot usullari qanday?

Taksikologik ekspertizaning boshqa turdagi ekspertalardan farqli jihatlari qanday?

GLOSSARIY (Asosiy tushuncha va atamalar)

Avtoqidiruv – olib qochilgan, o'g'irlangan va egasiz avtomototransportni hisobga olish;

Ballistikasi – bu jinoyat hodisasi bilan bog'liq bo'lgan o'qotar qurollar, o'q-dorilar, portlatish moddalari, o'q otishdan, portlatishdan hosil bo'ladigan o'zgarishlar, izlar va qoldiq moddalarni tekshirish bilan shug'ullanuvchi kriminalistika texnikasining bir tarmog'i.

Brouzerlar – zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan, begona personal kompyuterlarga ruxsatsiz kirish imkoniyatiga ega shaxslar.

Davlat sud eksperti – davlat sud-ekspertiza muassasasining o'z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o'tkazuvchi sud eksperti.

Garovga ushlab turilgan shaxs – qo'lga olingan yoki ushlab turilgan shaxsni ozod etish shartlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlarni, shuningdek ayrim shaxslarni biron-bir harakat sodir etishga yoki bunday harakat sodir etishdan tiyilishga majbur qilish maqsadida terrorchilar tomonidan qo'lga olingan yoki ushlab turilgan jismoniy shaxs;

Giyovandlik vositalari – "Giyovandlik vositalari to'g'risida"gi BMTning 1961-yilgi Yagona Konventsiyasining I va II Ro'yxatlariga kiritilgan tabiiy yoki sun'iy tayyorlangan har qanday giyovandlik vositalari, "1961-yilgi "Giyovandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konventsiyaga tuzatishlar haqida"gi 1972-yilgi Protokolga asosan kiritilgan tuzatishlar bilan birga.

Hujjat – bu biror hodisani o'zida yozma ravishda aks ettiruvchi moddiy obyektidir.

Hujjatlarni qalbakilashtirish – bu hujjatning butun yoki bir qismiga o'zgartirish kiritish yoki to'liq sohtalashtirishdir.

Hujjatlarni texnikaviy usulda tekshirish - bu qator optik asboblarda yordamida, oddiy lupalar, mikroskoplarda, moslamalarda, turli nur hosil qiluvchi manbalarni ishlatish bilan amalga oshirish jarayoni.

Identifikatsiya – bu lotincha "idem" (aynan o'sha) so'zidan olingan bo'lib, aynanlikni aniqlashni bildiradi.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila – ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan – voyaga yetmagan shaxsni nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

Imzo – bu qo'lyozmaning o'ziga xos xususiyatlariga ega alohida bir turi.

Ish – sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – mulk (pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan. shuningdek bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini yoxud pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo‘lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Jinoyatni tergov qilishni rejalashtirish – jinoyat-protsessual qonunchiligining talablari va hodisaning o‘ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda tergov vazifalarini, ularni yechish yo‘llari va usullarini aniqlash.

Jinoyatning alohida turlarini tergov qilish – bu jinoyatning har bir turiga tegishli o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olib tergov qilish, ularni ochish va oldini olishda qo‘llaniladigan ilmiy qoidalar, texnik vositalar, taktik usullar va metodik qoidalar (tavsiyalar) majmuidir.

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish – bu ilgari berilgan ko‘rsatuvlarni tekshirilayotgan voqea bilan bog‘liq joyda tekshirish yoki ularga aniqlik kiritish yo‘li bilan yangi holatlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan mustaqil tergov harakati.

Ko‘zdan kechirish – jinoyat izlari va ashyoviy dalillarni topish, tekshirilayotgan hodisa sharoitlarini va yuz bergan voqeaning boshqa holatlarini aniqlash maqsadida moddiy sharoit obyektlarini tergovchi tomonidan bevosita kuzatish va tahlil qilishdan iborat protsessual harakat.

Krekerlar – zamonaviy texnika vositalaridan yuqori darajada foydalana oladigan xavfli kiberjinoyatchilar.

Kriminalistik fotografiya deganda tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarida, shuningdek, ekspert tekshiruvlarida qo‘llaniladigan ilmiy ishlab chiqilgan suratga tushirishning usullari tizimiga tushuniladi.

Kriminalistik ro‘yxat – jinoyat sodir qilgan shaxs, shuningdek, jinoiy voqea bilan sababli bog‘lanishda bo‘lgan narsalar haqida ma‘lumotlarni qayd qilish, yig‘ish va tartibga solishning ilmiy usuliga aytiladi.

Kriminalistik texnika – fanning bir bo‘limi bo‘lib, jinoyatlarni tergov qilish jarayonida dalillarni topish, mustahkamlash, ko‘chirib olish va tadqiq etishda qo‘llanadigan maxsus asbob-uskunalar, texnik vositalar haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimi hisoblanadi.

Kriminalistika – jinoyatni ochish va oldini olish maqsadida dalillarni izlash, yig‘ish, qayd etish va tadqiq etish bo‘yicha jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan texnik vositalar, taktik usullar va metodlar to‘g‘risidagi fan.

Kriminalistika tizimi – kriminalistikaning ilmiy asoslari va metodologiyasi, kriminalistik texnika, kriminalistik taktika hamda jinoyatlarning alohida turlarini tergov qilish metodikasi.

Kriminalistikada diagnostika – bu tekshirilayotgan holatni odatiy holat bilan o‘hshashligini aniqlashdan tashqari farqlash, ya’ni shu holatni unga o‘hshash holatlardan ajratish, differentsiyalashtirish tushuniladi.

Kriminalistikaning maxsus vazifalari – tergov va ekspert amaliyotida samarali foydalanishga yo‘naltirilgan texnik vositalar, taktik usullar va metodik tavsiyalarning yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish; huquqbuzarlikning oldini olish vositalari va metodlarini vujudga keltirish va ularni takomillashtirish; kriminalistikada hozirgi tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlar: matematika, informatika, biologiya, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa fanlarni samarali joriy etish yo‘llarini izlab topish.

Kriminalistikaning predmeti – jinoyatchilik mexanizmi, jinoyat va uning ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotning vujudga kelishi, dalillarni to‘plash, tekshirish, baholash va foydalanish qonuniyatlari va ularni bilish asosida jinoyatlarni tergov qilish va oldini olishning maxsus vosita va usullari majmui.

Kriminalistikaning umumiy vazifasi – jinoyat sud ishlarini yuritish vazifalaridan kelib chiqadi va jinoyatni tez va to‘la ochishga ta’sir ko‘rsatishdan, aybdorni fosh qilish va qonunni to‘g‘ri joriy etishni ta‘minlashdan, shaxs, uning huquqi va erkinliklari, mol-mulkini, shuningdek jamiyat va davlatning manfaatlarini jinoyi tajovuzlardan himoyasini ta‘minlash.

Metod – bu ma‘lum maqsadga erishish uchun tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalarni tadqiq etish usullari.

O‘zlashtirish deganda, aybdor shaxsning o‘ziga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan mulkni g‘ayriqonuniy ravishda ushlab turib, keyin uni o‘z foydasiga olishi tushuniladi.

Pasport – qidirilayotgan shaxslarning pasportlarini va pasportlarning o‘g‘irlangan blankalarini hisobga olish;

Psixotrop modda – BMTning “Psixotrop moddalar haqida”gi 1971-yilgi Konvensiyasining I, II, III va IV Ro‘yxatlariga kiritilgan har qanday tabiiy yoki sintetik modda yoxud har qanday tabiiy material.

Qaroqchilar – kompyuter ma‘lumotlari tizimga kirish bilangina cheklanib qoluvchi mahoratsiz va tajribasiz shaxslar.

Rastrata deganda, qonunga xilof ravishda o‘zganing mulkini sotish, sarflash, iste‘mol qilish, hadya qilish va h.k. yo‘llar bilan begonalashtirish tushuniladi.

Sud eksperti – xulosa berish uchun fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs.

Sud ekspertining xulosasi (xulosa) – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-expert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.

Sud ekspertizasi – fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat va ma‘muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-expert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakat.

Sud-expertlik faoliyati – sud ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha faoliyat.

Taktik qaror – bu tergovchining shaxsiy tajriba, kasbiy mahorati va ishonchiga asoslangan tergov vaziyati tahlili, jinoyat sodir etish usullari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini, kriminalistika ilmiy tavsiyalarini bilishga, harakatlarning optimal variantini tanlashga yo‘l ko‘rsatadigan tergov faoliyati. borasidagi adi.

Taktik usul – bu tergovni yuritayotgan shaxs xatti-harakatlarining jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish bilan bog‘liq vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradigan maqbul uslub.

Tanib olish – tanilmagan murdalarni hisobga olish va identifikatsiyalash;

Tergov eksperimenti – jinoyat ishini tergov qilish jarayonida sodir bo‘lgan hodisaning ayrim holatlarini va vaziyatlarini tajriba usulida tekshirishga oid kriminalistik taktika tizimida mustaqil tergov harakati.

Tergov taktikasi – bu kam kuch. vosita va vaqt sarflab yuqori samaraga erishish maqsadida jinoyatni tergov qilish, ochish va oldini olishda qo‘llaniladigan kriminalistikaning umumnazariy qoidalari. mantiq. psixologiya, sud etikasi va boshqa ilmiy bilimlardan foydalanishga asoslangan dastlabki tergovning taktik usullari va metodlarining tergovni rejalashtirishning majmuidir.

Tergov vaziyatlari – bu jinoyat ishini tergov qilishda muayyan holatini aks ettiradi va shu bois vaziyat tahlilini to‘g‘ri amalga oshirish tergov faoliyatini tashkil etishning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Terrorchi – terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs;

Terrorchilik faoliyati – terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta‘minlashdan iborat bo‘lgan faoliyat.

Terrorchilik guruhi – oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko‘rgan yoki uni sodir etishga suiqaqd qilgan shaxslar guruhi.

Terrorchilik harakati – garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo‘lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy. boshqa guruhlari, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obyektlarni bosib olish, shikastlantirish, yo‘q qilish, portlatishlar, o‘t qo‘yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo‘rqitish, yer usti, suv va havo transporti vositalarini qo‘lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo‘q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda vahima ko‘tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish. aholi hayotiga, sog‘lig‘iga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariya, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo‘li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug‘dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish.

Terrorchilik tashkiloti – ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.

Terrorchilikka qarshi operatsiya – terrorchilik harakatiga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish, shuningdek jismoniy shaxslarning xavfsizligini ta'minlash hamda terrorchilarni zararsizlantirishga qaratilgan. kelishilgan va o'zaro bog'liq maxsus tadbirlar majmui.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan zona – joyning yoki akvatoriyaning alohida uchastkalari, hamda bo'shlig'i, transport vositalari, binolar, imoratlar, inshootlar, xonalar hamda terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkaziladigan doiradagi ularga tutash hududlar.

Terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.

Terrorizmni moliyalashtirish – terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar, resurslar berishga yoxud yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

Texpasport – avtomototransportning o'g'irlangan va yo'qotilgan texnik pasportlarini hisobga olish;

Trasologiya – fransuzcha “la tras” – iz, grekcha “logos” – ta'limot so'zlarining birikuvidan hosil bo'lib, “izlar haqidagi ta'limot” degan ma'noni anglatadi.

Voyaga yetmagan shaxs – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs.

Xabar qilish – qidiruv e'lon qilingan shaxslarni hisobga olish.

Xakerlar – texnik vositalar va kompyuter axborotlariga ruxsatsiz (o'zboshimchalik) bilan kirish yo'llari, usullari bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali EXM foydalanuvchisi yoki programmist.

Xalqaro terrorizm – bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm.

Yuklar – temir yo'l va havo transportida o'g'irlangan bagaj va yuklarni hisobga olish.

HUQUQIY NORMATIV MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 74 b.
2. O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 11-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi (yangi tahriri) Qonuni (29.08.2001) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001-yil. 9-10-son, 168-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010-y. 22-son, 173-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010-y. 22-son, 174-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi № 263 Qonuni // “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, 2010-yil. 9-son, 342-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi “Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida”gi № 21-sonli qarori// O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. – Toshkent, 2007. – B.169-176.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlarining jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi №21-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. – Toshkent, 2007. – B.23-29.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi №12 sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991–2006. T.2. – Toshkent, 2007. – B.188-192.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrdagi “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi №23 sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to'plami (2006–2014-yillar) – O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. – T.: Adolat” 2014. – B. 137–145.

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2012-yil 13-dekabrda "Jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi №17 sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to'plami (2006-2014 yillar) - O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. – T.: Adolat, 2014. – B. 288–293.

MAXSUS ADABIYOTLAR:

1. Abdumajidov G'.A., Alimova R.A., Norboev A.N va b. Kriminalistika. Darslik. 1 – qism. – T.: Adolat, 2008.

2. Abdumajidov G'.A., Alimova R.A., Norboev A.N. va b. Kriminalistika. Darslik. 2 – qism. – T.: Adolat, 2008.

3. Abdumajidov G'.A., Alimova R.A., Zakutskiy A.S. va b. Kriminalistika. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2005.

4. Tulaganova G.Z. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov haratini o'tkazishning umumiy tartibi. Risola. – T.: TDYU, 2016. – 66 bet.

5. Hamidov B.H. Ayrim turdagi transmilliy jinoyatlarni tergov qilish. Monografiya.// Mas'ul muharrir: y.f.n., dots. D.B.Bazarova – T.: TDYU, 2016. – 149 bet.

6. Astanov I.R. Sud huquq islohotlari zahirida ekspertiza institutini takomillashtirishning jinoyat-protsessual va kriminalistik jihatlarini. Monografiya. IMPRESS MEDIA. MChJ – 2015.

7. Astanov I.R. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining ekspertizaga oid normalari sharhi. Sharx. IMPRESS MEDIA. MChJ – 2015.

8. Latipov S.I. Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish. risola.// Mas'ul muharrir: y.f.n., dots. D.B.Bazarova – T.: TDYU, 2016. – 149 bet.

9. Astanov I.R. Jinoyat ishlarini yuritishda maxsus bilimdan foydalanish O'quv qo'llanma. – T.: TDYI, 2013. – 215 b.

10. Astanov I.R. Sud ekspertizasi bo'yicha tavsiyalar. O'quv-amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 180 bet.

11. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanish shakli sifatida ekspertiza tergov harakatini o'tkazish: nazariya va amaliyot. Monografiya. // Mas'ul muharrir: y.f.n. dots. B.B. Hidoyatov. – T.: TDYI, 2012. – 236 b.

12. Pulatov YU.S., Zakurlayev A.K., Bababekov N.D. Hodisa sodir bo'lgan joyda izlarni topish, mustahkamlash va olib qo'yish. Qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV TOHTBYU, 2015. – 227 b.

13. Закутский А.С. Вопросы организации и проведения судебных экспертиз. Учебное пособие. – Т.: ТДИОИ. 2006.

14. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazish. Nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. – T.: TDYI, 2011. – 130 b.

15. Astanov I.R. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlari va ularni tergov qilishning o'ziga xos jihatlarini. O'quv qo'llanma. // Mas'ul muharrir: y.f.d. G.Z. To'laganova – T.: TDYU, 2015. – 140 bet.

16. Alimova R., Otaxo'jaev S. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 131 b.

17. F.Lochinov Hodisa joyini ko'zdan kechirishda sud tibbiy ekspertining ishtiroki// TDYI Yosh olimlarning ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent. – №2. – 2008.

18. Norboev A., Axmedov T. Portlovchi vositalar bilan bog'liq bo'lgan hodisa joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish tartibi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYI, – 2005.

19. Alimova R.A. Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDYI, 2006.

20. Закутский А.С. Вопросы организации и проведения судебных экспертиз. Учебное пособие. – Т.: ТДЮИ. 2006.

21. Закутский А.С. Методика расследования преступлений. Учебное пособие. – Т.: ТДЮИ. 2006.

22. Linda L. Klepinger. Fundamentals of Forensic Anthropology Department of Anthropology University of Illinois at Urbana-Champaign Urbana, Illinois. 2006.

23. Chris Cooper. Eyewitness Forensic science. Published in the United States by Dorling Kindersley Limited in 2008.

24. Eckert, William G. Introduction to forensic sciences, second edition/ Originally published: New York: Elsevier, 2009.

25. John A. Eterno and Cliff Roberson The Detective's Handbook. CRC Press is an imprint of Taylor & Francis Group, an Informa business. 2015.

26. Valerio Causin. «Polymers on the Crime Scene Forensic Analysis of Polymeric Trace Evidence». Springer International Publishing Switzerland. 2015.

KRIMINALISTIKA

DARSLIK.

Muharrirlar: N.Niyazova,
K.Abduvalieva, X.Yuldasheva.

Musabbih: R.Yunusova.

Texnik muharrir: A.Yuldashev.

Подписано в печать 03.05.2019 г.
Формат – 60*84^{1/16}. Объем –32,25 усл.
Печ. л. Заказ № 01/19. Тираж – 250 экз.
Подготовлено к печати и отпечатано
В типографии ООО «Perfect eagle»

